

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
ЖИЗЗАХ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТИ



**“ЎЗБЕК ТИЛИ ВА АДАБИЁТИ ТАРИХИ, ТАДРИЖИЙ
ТАРАҚҚИЁТИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ: НАТИЖАЛАР ВА
МУАММОЛАР”**

Республика илмий – амалий анжумани материаллари

Жиззах 2021 йил 3 апрель

Жиззах 2021

**Буюк шоир ва мутафаккир Алишер Навоий таваллудининг
580 йиллиги ва Ўзбекистон Қаҳрамони, халқ шоири Абдулла
Ориповнинг 80 йиллигига бағишланади**

**“Ўзбек тили ва адабиёти тарихи, тадрижий тараққиётининг
ўрганилиши: натижалар ва муаммолар” Республика илмий – амалий
анжуманим материаллари.**

Масъул муҳаррирлар:

Усмонжон Қосимов филология фанлари доктори,
Юлдуз Каримова-ф.ф.н.доцент.

Тақризчилар:

Шоира Дониёрова, филология фанлари доктори,
Нодира Соатова ф.ф.н.доцент,
Феруза Жумаева ф.ф.ф.д(PhD), доцент в/б

Мақолаларни тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар:

Ўзбек тили ва адабиёти кафедраси ўқитувчилари Зубайда Жумаева,
Дилноза Файзуллаева, Отабек Хидиров

Техник котиблар:

Шукрулло Жўраев, Ҳасан Эшбеков

**Конференция материаллари институт Илмий-техник
кенгашининг 2021 йил 25 мартдаги йиғилиши қарори билан нашрга
тавсия этилган**

КИРИШ СЎЗИ

Шарипов Ш.С. Жиззах ДПИ ректори, профессор

Халқимиз ҳаёти ва шонли тарихининг бадий инъикоси бўлган адабиёт ҳам бой ва ранг-баранглиги билан дунё цивилизациясида фахрли ўринга эга. Муҳтарам Президентимиз Ш.М.Мирзиёев таъкидлаганидек, “Бизнинг ҳавас қилса арзийдиган буюк тарихимиз, улуғ аجدодларимиз, бекиёс бойликларимиз бор... насиб этса, ҳавас қилса арзийдиган буюк келажагимиз, буюк адабиётимиз ва санъатимиз ҳам” бўлиши шубҳасиз. Ўзбек тилимиз ва адабиётимизни дунё миқёсида тараннум этган, халқимиз маънавияти ривожига бениҳоя кучли таъсир кўрсатиб, эндиликда янада юксак кадрланаётган беназир сиймо-ҳазрат Алишер Навоий ижоди сўз санъати ва нафосат илмининг кейинги асрлардаги тараққиёти учун ҳам илҳомбахш манба ва ижодий дастур бўла олади.. Навоий асарларига юзлаб татаббуназира ёзилган, бу анъана кейинчалик ҳам давом эттирилган. Бу бардавом жараёни кенг ўрганиш, бадий ижод ва эстетик тафаккур ривожини учун зарур хулосалар чиқариш ҳам адабиётшунослик учун истикболли мавзудир.

Навоий ижоди ва шахсининг жаҳоншумул аҳамият касб этиб бораётгани халқимиз ва юртимиз учун ҳам улкан шарафдир. Бу ўринда машҳур шарқшунос академик Н.Конрадининг юксак таърифини эслатиб ўтиш жоиз: “Жаҳонга бундай шоирни тухфа этган ўзбек халқига миннатдорлигимизни билдирамиз. У Ренессансининг буюк бир давридан иккинчи-янада каттароқ тарихий мазмунга эга бўлган Ренессансга кириб келди.” Бу ҳақиқатни хорижлик олимлар эътирофи билан давом эттирсак, Навоий даҳоси буюклиги, ижодининг умуминсоний аҳамияти бугунги глобаллашув даврида янада ортишига амин бўламиз. Навоий ижоди ва барҳаёт анъаналари Истиқлол даври адабиёти ва маънавияти учун ҳам юксак ижодий намунадир. Сўнгги йиллар юртимизда Ислом маърифати кенг ёйилаётгани, халқимиз қалбида муқаддас “Қуръон” ва муборак ҳадисларга бўлган имон-этиқоди ортиши адабиётнинг асл моҳияти, ҳаётий ва руҳоний илдиз ва манбаларини, хусусан, Навоий ижодиётининг аҳамиятини кенгроқ идрок этишимизда ҳам муҳим асос бўлади.

Навоий даврида юксак босқичга кўтарилган ўзбек тили ва адабиётимиз XX асрда, айниқса, жаҳид адабиёти намояндалари томонидан муваффақиятли давом эттирилди. Бу тарихий ҳақиқатни кенг ўрганиш бугунги илмий-амалий конференциямизнинг ҳам асосий мақсад йўналишларидан биридир. Анжуманда Республикамиздаги етакчи олий таълим муассасаларининг таниқли филолог олимлари билан бирга кўплаб истеъдодли ёш тадқиқотчилари ҳам ўзларининг ранг-баранг мавзу-муаммоларга бағишланган мақолалари билан қатнашаётганликларини алоҳида таъкидлаб ўтиш лозим. Бундай кенг миқёсдаги самарали илмий-ижодий изланиш ва мулоқотлар тилшунослик ва адабиётшунослик фани ривожига муносиб ҳисса қўшишига ишончимиз комил.

МИЛЛИЙ ЎЗЛИКНИ АНГЛАШ ВА МАЪНАВИЯТ РИВОЖИДА АДАБИЁТНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ

Усмон Қосимов, фил.ф.д, Жиззах ДПИ
Эл нетиб топгай мениким, мен ўзимни топмасам
(Навоий)

Асрлар бўйи ўз эрки ва мустақиллиги учун курашиб келган матонатли халқимиз ҳаёти ва шонли тарихининг бадий инъикоси бўлган адабиёти ҳам бой ва ранг-баранглиги билан дунё тамаддунида алоҳида ўринга эга. Ўзбек тилимиз ва адабиётимизни дунё миқёсида тараннум этган, халқимиз маънавияти ривожига бениҳоя кучли ва самарали таъсир кўрсатган ва эндиликда янада юксак қадрланаётган беназир сиймо-бу, шубҳасиз, Алишер Навоийдир. У нафақат ўзбек халқи, балки бутун туркий оламнинг бетимсол шоир ва мутафаккири сифатида жаҳон бадий-эстетик тафаккури ривожига ва Ренессанс тарихида энг юксак мавқени эгаллаган гениал санъаткордир. Навоий адабий-эстетик таълимотининг XX аср адабиёти ривожига бекиёс ўрни ва аҳамияти, илҳомбахш анъана ва ақидалари адиблар томонидан ижодий давом эттирилиши муаммолари етарли даражада ўрганилмаган. Мустабид шўро даврида бой тарихимиз ва адабиётимиз холисона ўрганилмасдан, аксинча, бундай ҳаракатлар “ўтмишни идеаллаштириш”, “миллатчилик” деган тамғалар билан қораланиб, тақиқлаб келинган. 1917 йил Октябрь “инқилобигача бўлган давр ўзбек адабиёти хон ва беклар учун ёзилган сарой шеъриятидан ёки диний мазмундаги асарлардан иборат”,¹ деб, бутунлай инкор этилган. Адабий меросга нигилистик ёндашув Яссавий, Навоий, Бобур, Сўфи Оллоёр, шоҳ ва шоир Феруз ва Абдулла Қодирий каби улўғ сиймолар шахси ва ижодига нисбатан жоҳилона муносабат ва тақиқларда яққол кўринади. 30-йилларда адабиёт тарихини изчиллик билан ёритган, ўтмишдаги йирик шоирлар фаолиятини илмий асосда мукаммал очиб берган бирон тадқиқот йўқ эди (О.Шарафиддинов). Чўлпон “Улўғ хинди” (1925) мақоласида Навоий, Умархон ва Фазлийлар бари “бир хил” дейиши ҳам Навоий даҳоси англамагани сабабли эди.² Навоий ижоди ва шахсини меҳр билан ўрганиб, илмий асарлар, шеър-достонлар ва “дилрабо роман” яратган Ойбек тақдири ҳам машъум сиёсат оқибати эди. Сўнгги йиллар юртимизда Ислом маърифати кенг ёйилаётгани, халқимиз қалбида муқаддас “Қуръон” ва муборак ҳадисларга бўлган имон-этиқоди ортиши адабиётнинг асл моҳияти, ҳаётий ва руҳоний илдиз ва манбаларини, хусусан, Навоий ижодиётининг аҳами ятини кенгроқ идрок этишда ҳам муҳим асос бўлади. Бадий-эстетик тафаккур оламига бундай ёндашув адибларимиз ижодидаги диний мотивлар, исломий маърифат ва эътиқод ғояларининг теран илдизларини чуқурроқ англаб етишга ҳам ёрдам беради.

Нихоят, Истиқлол шарофати билан қалбимизда кечганидек ижтимоий-сиёсий қараш ларимизда, миллий онг–тафаккуримизда ҳам уйғониш ва ўзгариш юз берди. Эндиликда юртимиз тарихи ва аجدодларимиз меросини ҳаққоний ёритиш имкони туғилди. Президентимиз фармони билан **1.09.2019 йилдан ўз фаолиятини бошлаган “Ўзбекистон тарихи” Телеканали фаолияти ҳам ана шу эзгу мақсадга қаратилган.** Собиқ шўро даврида ижтимоий-сиёсий ҳаётда бўлганидек, мафкура, тарих, адабиёт ва санъат соҳаларида ҳам кўплаб жиддий хато ва чалкашликларга йўл қўйилгани эндиликда бутун мураккаблиги ва фожиаси билан аён бўляпти. Халқимизнинг яқин ўтмиши ва маданияти тарихини ҳолисона ўрганиш, Ўрта Осиё ва чор Россия муносабатлари тарихи мавзусини илмий асосда ёритиш ва унга ижтимоий адолат нуқтаи назаридан баҳо бериш ҳамда тарихийлик ва бадиий талқин муаммоларини кенг ўрганиш маънавиятимиз ва истиқлол мафкурасининг ҳам долзарб муаммоларидан саналади. Таассуф билан айтиш жоизки, ўтган аср иккинчи ярми ва асримиз бошларида юз берган тарихий воқеа-ҳодисалар то мустақиллик йилларига қадар бирёқлама, яъни тарихийлик ва бадиийлик мезонларига бутунлай зид равишда ёритилди. Яъни Ўрта Осиё ва Қозоғистон халқлари ўтмиши даги фожиаларга тўла бўлган бутун бир давр ва бу даврда энг фаол ва миллатпарвар куч сифатида майдонга келган жадиличлик ҳаракати ва адабиётининг асл мақсади ва улкан ижтимоий-сиёсий аҳамияти кўплаб тарихий- адабий манбаларда бутунлай бирёқлама талқин этилди. Фитрат ва Чўлпон, Бехбудий ва Қодирийлар асос солган жаид адабиётининг улкан аҳамияти шундаки, бу тарихий ҳақиқатни фавқулудда катта жасорат ва маҳорат билан, халқ ва миллат манфаатлари нуқтаи назаридан ҳаққоний акс эттирган эди. Афсуски, ижтимоий-сиёсий ва адабий эстетик тафак куримизнинг юксак бир босқичи бўлган жаид адабиётининг бу каби ёрқин қирралари ҳолис баҳоланмасдан, аксинча, кескин қораланиб келинган. Жаидлар раҳнамоси Бехбудий маърифат, диний эътиқод, қадриятларга эҳтиром каби муқаддас тушунчалар миллатни сақлаб қолишнинг энг ишончли воситаси эканлигини таъкидлаган эди. “Ўткан кунлар” халқимиз томонидан севиб ўқиладиган кунлари М.Шевердиннинг машъум мақоласи чоп этилган: ”Ўзбекларнинг биринчи романи- Қодирийнинг романи ғоявий жиҳатдан бизга ётдир... унда эскича одат, Қуръон, ўтмиш, “олижаноб қадим замонлар” тарғиб қилинади...” Бу нафақат Абдулла Қодирий ижодига, балки миллатимиз, дину-эътиқодимиз ва маданий меросимизга нисбатан ғаддор тузум сиёсатининг манфур бир кўриниши эди. Қодирий улкан истеъдод соҳиби бўлиши билан бирга исломий маърифат ва Қуръоннинг ҳаётий ва оқилона талаб-ўриқларига қатъий амал қилган, имон-эътиқодли зиёли ижодкор бўлгани учун ҳам миллатимиз келажагини ўқишда, илм-урфонда кўролган. Жаҳолатдан қутулиш йўли илм-маърифат эканлигини 100 йил олдин романларида ва “Миллатимга бир қарор” каби асарларида ҳам чуқур ифодалаган.³ Халқ ҳаётини реал акс эттириб, ўзликни англашда катта роль ўйнаган Чўлпоннинг “Ўзбегим”, “Бузилган ўлкага” каби шеърлари ҳам

миллатчиликда айбланди. 20-30-йиллари авж олган бешафкат мафкуравий хуружлар кейинчалик ҳам давом этади. Ойбек, Абдулла Қаҳҳор асарларида ҳаққоний тасвирланган халқ ҳаёти ва миллий ҳамда диний урф-одатлар ҳам машъум тузум сиёсати ва мафкураси томонидан кескин қораланиб, ғоявий зарарли эпизод сифатида талқин этилган. Ўзларининг улкан истеъдоди билан халққа садоқат билан хизмат қилган улуғ адибларимиз кўрган ноҳақлигу фожеаларнинг асл сабаб-оқибати ҳақида Ўзбекистон Қаҳрамони Абдулла Орипов армон билан мушоҳада юритиб, шундай ёзади: “улар ғоят мураккаб, ғоят зиддиятли, таҳликали бир даврда яшаб ўтди. Мустабид империянинг беомон мафкураси, мустамлакачилик сиёсати минглаб ҳақгўйлар бошини ейишга улгурди, қанчадан-қанча истеъдод эгаларининг бўйнига бўйун турук солишга эришди. Ноғорасига ўйнашни хоҳламаганларни қатл қилди, қувғин остига олди. Шу тариқа ўзбек халқи ўзининг ўнлаб бекиёс фарзандлар идан бевақт айрилди. Мадҳиябозлик адабиётнинг оммавий таомилига айланган. Не-не гўзал ташбеҳлар, чакмоқдек мисралар сомон орасидаги қаҳрабон бугдой доналаридек назардан қолиб кетар эди. Ушбу аччиқ ҳақиқатни, айниқса, бугунги ёшлар теран тушунмоқликлари керак.

Адабиётимизни янги бир босқичга кўтарган Эркин Воҳидовнинг “Ўзбегим”, “Изтироб”, Абдулла Ориповнинг “Ўзбекистон”, “Жавоб” каби шеърлари ва публицистик мақолалари, энг аввало, ҳақгўйлиги ва миллатпарварлик руҳи билан Навоий ижодий анъаналари билан ҳамоҳанглик касб этганлиги халқимиз маънавий ҳаёти ва тафаккурида улкан ўзгариш ясаганлиги айтилиши ҳақиқатдир. Ёхуд уларга издош бўлган Шавкат Раҳмон ва Муҳаммад Юсуф шеърляри, Тоғай Муродларнинг қисса ва романлари ҳам чинакам миллатпарвар адиблар сифатида ўзбек халқи, миллати ор-номуси, халқаро обрў-эътибори учун курашганлигидан ёрқин далолат бериб туради. Буюк шоир ва ёзувчиларимиз анъана ва эътиқодига содиқ Тоғай Муроднинг маҳорати шундаки, асарларида миллий қадриятларимиз ва халқимиз бошидан кечирган залворли тарихий ўтмиш ҳаққоний акс эттирилади. Натижада “бахтиёр ва фаровон социалистик турмуш” деб мадҳ этиб келинган кечаги кунларимиз ҳақидаги ҳавоий фикрларимиз бутунлай ўзгаради. Бинобарин, ўзбек деҳқонлари ва қишлоқ аёлларининг дард-ситамли кечинмалари, қул каби итоаткор ва фидоий пахтакорларнинг беқадр меҳнати, афтодаҳол туриш-турмуши ҳақидаги тасаввурларимиз ўта юзаки эканлигига ва улар донгдор ёзувчилар ва москвалик сайёр режиссёрларнинг баландпарвоз сўзлари-ю ҳақоратомуз ҳамду санолар идай ҳаёт ҳақиқатидан йироқ сохта мақтовлар эканлигига иқроқ бўламиз. Шу жиҳатларига кўра “Отандан қолган дала лар” романини халқимиз ва юртимиз бошидан кечган фожеаларга тўла бўлган бутун бир даврнинг бадиий солномаси деб аташ ҳам мумкин. Тоғай Мурод буюк Навоий ижоди ва юксак гуманистик ғояларининг ворислари бўлган Қодирий, Чўлпон, Ойбек ва Қаҳҳорлар каби адабиётни, ижодни муқаддас билган адиблардан эди. У ўзи орзу қилгандай, ҳақ сўзи, ҳаққоний асарлари билан халқимизга маънавий ҳайкал қўя олди. Тоғай

Муроднинг “Ёш қаламкашларга тилакларим” мақоласида ҳақиқий ижодкорнинг адабиёт ва халқ олдидаги муқаддас бурчи ва вазифаси таъкидланган теран фикрлар тафаккур имизни янгилайди. “Биродар, мен сизни Ўзбекистон давлатингиз йўлидан борсангиз, дейман. Мен сизни ўзбек элидан намуна олсангиз, дейман”здеган сўзлари барчамизга улуғ адибларимизнинг эзгу васиятидек туюлади. Улар халқимиз бошидан кечирган фожиаларни унутмасликка, миллий уйғониш ва тикланишдан миллий тараққиёт сари юксалаётган янги Ўзбекистон имизни ва мустақиллигини буюк аجدодларимиздай қадрлашга ва унга садоқат билан хизмат қилишга ундайди. Бундай миллатпарвар адибларимиз ҳаёти ва ижодининг барча мизга ибрат бўладиган ёрқин жиҳатлари ҳам, аввало, мана шунда бўлса керак.

Она тилимиз ва адабиётимизнинг буюк яловбардори Навоий анъаналарига ворис бўлган мумтоз адибларимизнинг улкан хизмати яна шундаки, улар ўзларининг етук бадиий асарлари билан адабиётимизни янги бир поғонага кўтариш баробарида миллий тилимизнинг бойиши ва ривожига ҳам бекиёс ҳисса қўшдилар. Уларнинг адабиётимиз хазинаси дан ўрин олган асарлари нафақат ҳаётий мазмуни ва ёрқин характерлари билан, балки ўзбек тилимиз нафосати ва бойлигини ўзида мужассамлаштирганлиги билан ҳам ажралиб туради. Сўз санъати барча замонларда ҳам адабиётнинг, демакки, танқид-адаб иётшуносликнинг ҳам мангу муаммоларидан бири бўлиб келган. Она тилимиз Давлат тили сифатида яшар экан ва унинг равнақи йўлида барчамиз масъул экан миз, буюк адибларимиз ижоди ва бадиий тил сабоқлари янада чуқур аҳамият касб этади. Шу муносабат билан адабиёт ва танқидчилигимиз ва маънавиятимиз учун ҳам муҳим бир ҳолатга эътибор қаратиш лозим. Баъзи таниқли танқидчи ва адабиётшуносларимизнинг мақола ва тадқиқотларида бадиий асар тили масаласига деярли эътибор берилмаслигини оқлаб бўлмайди. Бу маънавий тафаккуримиздаги бир кемтиклик саналади.

Тил шундай бир кўзгуки, унда бадиий адабиётнинг барча фазилат ва қудрати акс этади. Дарҳақиқат, сўз илоҳий бир неъмат. Ҳар бир ижодкорнинг дард-қувончи, ўй-тафаккури, унинг бор таланти ва аъмоли ҳам, энг аввало, сўзида намоён бўлади. Навоий ва унга издош бўлган улуғ адиб-мутафаккирлар ҳамиша миллий тилимиз софлиги ва равнақи учун фаол курашган. Бу билан ҳам ўзларининг ватанпарварлик бурчини адо этишган. Олимларимиз фахр билан айтганидек, “она тилимизни севишда, ардоқлашда, ҳимоялашда қанча авлодларга йўл кўрсатган буюк Навоийнинг туркий тилимиз шаъни ва тақдири учун мардона кураш олиб борганига ҳар қанча ҳавас қилсак ва ундан ўрнат олсак, арзийди”.⁵ Улуғ адибларнинг тилимиз жонкуяри сифатидаги серқирра фаолияти ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш ва миллий тилимизнинг равнақи йўлида жонбозлик қилиши ҳар бир зиёли ижодкорнинг юксак ватанпарварлик бурчига айланган пайтда ижодий бир

намуна бўлиб хизмат қилади. Донишмандлар айтганидек, тоғ чўққилари юксаклиги олисдан қаралганда, янада яққолроқ кўзга ташланади. Бу ташбеҳни ўзбек тилимизнинг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеи тўғрисидаги Фармонга нисбатан ҳам қўллаш мумкин. Бу тарихий Фармоннинг ҳалқимиз маданияти ва ёш авлоднинг камолоти учун нечоғлик катта ижтимоий-сиёсий ва тарбиявий аҳамиятга эга экани йиллар ўтган сари янада равшанроқ намоён бўли шубҳасиздир.

Адабиётлар:

- 1.Икрамов А.Избран.соч.в 3т-х.т.2,Т.:1973.с.515.
- 2.Чўлпон. Адабиёт надири. Т.:1994.57-б.;
- 3.Абдулла Қодирий. Диёри бакр. Тошкент. Янги аср авлоди. 22-б.
- 4.Тоғай Мурод.Ёш қаламкашларга тилакларим. Бу дунёда ўлиб бўлмайди.Т.:2001.196-б.
- 5.Собиров А. Сўз бойлигимизнинг сергак посбони.А.Навоий ва XXIаср.Т.:2018.266-б. Жумаев Н.Давлат тили нуфузи ва мавқеи.- “Тил ва адабиёт таълими”, №1.2020.

ТИЛ ВА АДАБИЁТ-МИЛЛАТ КЎЗГУСИ

Қозоқбой Йўлдошев, проф, Тошкент ДЎТАУ,

XX аср бошларида миллат тушунчасининг тил бирлиги, ҳудуд бирлиги, бозор бирлиги, маданият бирлиги, руҳ бирлиги сингари қатор белгилари бор эди. Шиддатли глобаллашув бугунга келиб, бу бирликларнинг тўрттасини йўққа чиқарди. Ҳозир ёлғизгина тил миллатнинг миллатлигини сақлайдиган кўрғон бўлиб турибди. Агар шу бирлик ҳам бой берилса, очун бўйича этник қиёфасизлик юзага келади. Шу боис бугун тил ҳар доимгидан ҳам кўпроқ ҳимоя ва парваришга муҳтож. Закий ўзбек халқи учун тил фақат алоқа воситаси, коммуникация курули бўлибгина қолмаган. Азалдан миллатимиз тилга ахборот бериш, алоқа қилишдан ташқари, тилак, муомала-муносабат, орзу-истак сингари яна кўпгина ҳолатларни ифода лайдиган сирли ва илоҳий ҳодиса тарзида ёндашиб келган. Халқимиз сўзни ўта нозик ҳис этган, уни жуда ўйлаб, эҳтиёткорлик билан ишлатган. Сўзнинг тўғрилигидан ҳам кўра, унинг ўрнида ва керагидай айтилиши муҳим саналган. Шу боис боболаримиз имкон қадар ёмон маъноларни англатувчи сўзларни қўлламасликка, уларни юмшоқроғи билан алмаштиришга уринганлар.“Ўлим”, “касал” сўзлари деярли ишлатилмаган. “Фалончи оламдан ўтибди, қайтиш қилибди” ёки “бўмай қопти” деган. Фаросатли ўзбек “касал бўлдим” ё “касал экан” демасдан, “тобим қочди”, “мазам бўлмади” ёхуд “тумов лабди” каби юмшатовчи сўзларни қўллаган. Худди шу каби ўзбек аёлини “хотиним”, аёли эркагини “эрим” демаган. Улар “келинчагим”, “аёлим”, “онаси”, “келинингиз”, “синглингиз”, “опангиз” ёхуд “куёвим”, “хўжайиним”, “отаси”, “укангиз”, “акангиз”...дея атаганлар.

Тилимиздаги мана шу табиий майинлик (эвфемизм) ўрнини Кунботишга хос пардасизлик эгаллапти. Ҳолбуки, тилнинг бузилиши руҳнинг бузилишига олиб бориши маълумдир.

Оммавий маданият қайбир даражада омманинг маданийлашувига туртки беради. Гап ана шу маданийлашувнинг сифат ва савияси қандайлигида. Агар бу маданийлашув миллий илдизлардан озикланган ҳолда очун тамаддунига хос эзгу жиҳатларни ўзига сингдирса, миллатнинг даражаси юксалади. Мабодо, маданийлашув кўр-кўрона тақлидга асос ланиб, ўзгаларга эргашиш йўсинида борса, шаксиз, маънавий таназзул юз беради. Мана, ўзбек тили давлат тили сифати да қонун ҳимоясига олинганига ҳам ўттиз бир йил бўлди. Очик айтиш керакки, ўтган давр мобайнида миллий тилнинг тараққиёти учун қилинган ишлардан кўра ҳали қилинмаганлари кўпроқлигича турибди. Ёмони шундаки, тилимиз қўлланишининг кенгайиши ва ривожига бирор ташқи омил эмас, балки кўпроқ ички факторлар тўсиқ бўлмоқда. Оммавий ғурурсизлик, миллий кадриятларимизга нисбатан лоқайдлик ўзбек тилининг қўлланиш доираси кенгайиши, ифода тарзининг сайқал топишига халақит бермоқда.

Тил миллат тафаккури ва руҳиятининг даражасини аниқ акс эттирувчи барометрдир. Ҳар қандай миллат руҳияти ва тафаккурининг савияси ягона миллий тилнинг мавжудлиги ва жамият аҳлининг ундан қай йўсин фойдаланаётгани билан белгиланади. Агар тил ўз миллий қонуниятлари асосида ривожланаётган бўлса, миллий руҳият ва тафаккур ҳам соғлом ўсиш жараёни кечириётган бўлади. Агар тилда унга ёт унсурлар кўпайиб кетса, миллий тафаккур ва руҳият ўз илдизидан узоқлашгани ойдинлашади. Ачинарлиси шундаки, бугунга келиб ўзбек тилини бошқалардан эмас, ўзбек лардан ҳимоя қилишга тўғри келмоқда. Миллий тили ҳолатига оммавий бепарволик, ундан фойдаланишдаги савиясизлик ва пала-партишлик, кўпчилик расмийларимиз даги ғурурсизлик, хужжатларни ўзбекчалаштиришдаги эринчоқлик ва уқув сизлик тилнинг қўлланиш кўлами торайишига олиб келмоқда. Ўз тилига эътиборсизлик ва нописандлик кенг тарқалганлиги мустақил юртнинг аҳолисида ҳали фикр ва руҳият эркинлиги тўла қарор топмаганини кўрсатади.

Шу ўринда бирор этнос чин маънода миллат бўлиши учун бир тилда сўзлашиши кераклигини ҳам таъкидлаш лозим. Ҳар қандай этнос аҳли ўзаро битта адабий тилда сўзлаша бошлаган вақтдан бошлаб миллат саналади. Афсуски, ўзбек миллати ҳақида бундай деб бўлмайди. Чунки кўпчилик ўзаро алоқа-аралашувда, матбуот воситаларида кўпроқ ўз шевасини ишлатишга ружу қўйиб бормоқда. Хатто юқори лавозимдаги айрим расмийлар ҳам ҳеч бир хижолат бўлмай, шевада сўзлайдилар. Адабий тилни қўллаш фақат нутқ одобига доир масала эмас, балки миллатнинг бирлиги ва бутунлигини кўрсатиш омили экани уларни мутлақо ўйлантирмайди.

Ҳар қандай катта ёмонликлар майда нуқсонлардан бошланади. Шу боис кундалик маиший турмушдаги “майда” бўлиб туюладиган жиҳатларга ҳам эътибор қаратган маъқул. Чунончи, шаҳару қишлоқлардаги деярли

барча ўзбек “тушлик” деган қадимий ўзбек сўзини қўйиб, ёппасига “обед” деган бегона сўзни ишлатади. “Қўқим”, “чикит” тушунчалари “мусор”; “кўприк” эса “мос” сўзлари билан ифодаланади. Шаҳару қишлоқларни “дом, чайхана ё магазин продается”, “под офис сдаётся”, ёхуд “Мы открылись” тарзидаги битиклар эгаллаган. Ҳовли, чойхона, маркетларнинг мижозлари ва оларман лари ҳам ўзимизнинг одамлар. Лекин зеҳниятимизга сингиб кетган эълон ва лавҳалар русча ёзилиши керак деган тушунчадан кутулиб бўлмаяпти.

Турли объектларнинг бегона сўзлар билан номланаётгани аҳоли орасида ўзбек тилининг мавқеи пастлигини кўрсатувчи яна бир далилдир. Сон-санок сиз тўйхона, емакхона, офисларнинг “Версаль”, “Флоренция”, “Касабланка”, “Диодора”, “Боти”, “Висбун”, “Исидора” ва ҳк. тарзда аталиши одамларимиз даги миллий руҳнинг сустлигини кўрсатадики, бунга бефарқ қараш мумкин эмас. Бунинг устига масъул депутатлар ҳам “Нурафшон”, “Яшнобод”, “Янги ҳаёт” сингари сунъий ва чайналган жой номларини кўпайтирмоқда.

Янги имло қоидалари мукаммал йўсинда ишлаб чиқилмагани ҳақида кўп гапириляпти. Аммо қоидаларнинг ўзидаги нуқсонлар камлик қилгандай, бу борадаги “нау-хау”лар ҳам аҳволни янада оғирлаштиришга сабаб бўлмоқда. Чунончи, асрлар давомида боболар қўллаб келган «Бешоғоч» сўзини кейинги вақтда, ҳатто матбуотда ҳам «Бешёғоч» тарзида “тўғри”лаб ёзиш расм бўлган. Форсча «дарахт» сўзининг асл ўзбекчаси «оғоч» экани, у қирқилгандан кейингина «ёғоч»га айланиши мумкинлиги ўйлаб кўрилмаяпти. Бешта ёғоч ҳеч қачон кўчада муқим турмайди. «Оғоч» эса бошқа гап. Гуркираб ўсаётган беш туп оғоч ўша жой учун, аввал, мўлжал бўлиши, кейинчалик унинг отига айланиши мумкин. «Сариоғоч», “Қўшоғоч”, “Учтол”, “Беш терак” топонимлари шундан далолат беради. Аллома Фитрат «Шарқ» шеърида:

“Оғочлари яшил кийимлар кийган,

Терилишар топингани Тангрига”, -деб ёзади.

Маълумки, “ёғоч”да яшил кийим бўлмайди, бундай либосни у “оғоч” эканида кийиши мумкин.

Тилдаги “замонавий янгилик”лардан яна бири нарсаларнинг аниқ миқдори айтилгач ҳам “лар” кўплик қўшимчаси қўшилиши билан боғлиқ. Энди радио-телевизорда ҳам, газета-ойбитикларда ҳам “ўн бешта болалар”, “йигирмата отлар”, “саккизта уйлар” каби ифода қўлланиши оддий ҳолга айланди. Ҳолбу ки, ўзбек тилида кўплик қўшимчаси бирдан ортиқ, аммо миқдори аниқ бўлма ган нарса-ҳодисаларни ифодалашда қўшилади. Шунингдек, яқиндан бошлаб жорий қилинган яна бир хатолик кенг ёйилмоқда: мактаб, боғча, қарор ё фармонларнинг тартиби кўрсатилган рақамдан сўнг, яна “сон” сўзини ёзиш ҳам оммалашиб кетяпти. 22-мактаб эмас, “22-сонли мактаб”... Нега? Ахир тартиб сони одам, нарса ёки ҳодисанинг тартибини билдиради-ку. Тилимизда: ***“Қишлоғимиздан чиққан биринчи чемпион ёки иккинчи олим”***, - дейи шади. Аммо ***“Қишлоғимиздан***

чиққан биринчи сон чемпион ёки иккинчи сон олим” дейилмайди. Ёки “14-бет” “Б.14” шаклида ёзилиши қонунлаштирилиб, саводхонлик эмас, саводсизлик ортапти. Ёмони шундаки, бундай хатоликлар тўғри ёзувни сиқиб чиқармоқда. Чунки аксар ҳолатларда бу хил ғализликлар “юқори”дан келадиган ҳужжатларда учрайди. Чамаси, юқори ташкилотлар ўз рутбасини имло қоидаларидан ҳам юқори, деб билади.

Нимагадир, биз оддий ва одатий нарса-ҳодисаларни ҳам бошқа тиллардан кириб келган сўзлар билан ифода лашга ўчмиз. Эҳтимол, бу ҳол бир замонлар боболаримизнинг бошқа туркийларга қараганда, илмий тил бўлмиш араб чага, сарой тили саналган форсчага яқинроқ, халқнинг жўн, жайдари сўзлашув тилидан баландроқ турганини билдирган. Лекин бугунга келиб, бу ҳолатлар фазилатликдан иллатга, ўзликдан йироқлашиш сабабига айланди. Натижада, минглаб ўз сўзларимиз ўрнига арабий, форсий сўзлар қўлланилади. Масалан, “соҳиб”, “молик”, “кафт”, “лунж”, “тўшт”, “даво”, “ҳамшира” ва бошқ. Ҳолбуки, уларнинг “эга”, “олақон”, “урт”, “эт”, “эм”, “эмбека” каби туркий шакллари ёнгина миздаги қардошлар тилида фаол ишлатилади.

Бизда ўзга тилдан ўзлашган сўзларнинг аслидагидай ишлатилишига уриниш ҳам тилимизнинг ривожига тўсиқ бўладиган тутумлардан бири. Бу муаммога анча йиллар аввал атоқли шоиримиз Эркин Воҳидов ҳам эътибор қаратган эди: “Четдан кирган сўзларни халқимиз аллақачон ўз тилига мослаб олган. Биз доктор, машина, стакан, рюмка деб ёзсак ва айтишга уринсак-да, халқ дўхтир, мошина, истакон, румка деб ишлатади ва англаб-англамай халқаро қоидаларга амал қилади. Билъакс, тилшунос олимлар сунъий қоидалар билан ўз она тилимиз қонуниятига ҳам, халқаро қонуниятга ҳам зид иш тутадилар.” Ўзбекларнинг барчаси “мачит” дейди, лекин негадир матбуотда “масжид” шаклида қўлланади. Арабча “масъул”, “аъло”, “маърифат”, “эътибор” сингари тутуқли сўзларни ҳам ўзбеклар тутуқсиз талаффуз қилади. Айримлар, ҳатто ўзлашган сўзларнинг “астойдил” эмас, “аз таҳти дил”, “удда” эмас, “ухда” тарзида ишлатилиши мақбул лигини айтишади. У ҳолда сўз ўзлашган бўладими ё биз ўзгалашган бўламизми?

Бизда бегона тилдан кирган сўзки бор, тўғри-нотўғрилигига қарамай, қўллайверишга ружу қўйилган. Чунончи, болалар дам оладиган жой “оромгоҳ” дейилади. Ҳолбуки, форсча бу сўз фақат “тўристон” маъносигагина ишлатилади. Тириклар дам оладиган маскан бундай аталмаслиги керак. Раҳматли профессор Бегали Қосимов домла бу ҳақда алоҳида мақола ҳам ёзди. Лекин бу бировга чивин чаққанча таъсир қилгани йўқ. “Услуб”, “услубчи” сўзларининг қўлланишида ҳам шу ҳолни кўриш мумкин. Маълумки, “услуб” сўзи бирор ижодкор асарларининг ўзига хослигини таъминлайдиган турли илмий-эстетик унсурлар йиғмасини англатади. Расмий ва илмий адабиётларимизда эса бу сўз “метод”, “усул” сўзларининг муқобили сифатида қўлланилади ва шундан келиб чиқиб, “методист” тушунчаси “услубчи” сифатида “ўзбекча”лаштирилади. Услуб касб бўлмагани каби фақат услуб яратиш билан шуғулланадиган мутахассис

бўлиши ҳам имконсиздир. Буни “йўриқчи” тарзида қўллашни мутасаддилар ўйлаб кўрсалар бўларди.

Айримлар тилни халқ яратади, бинобарин, қайси сўзни қаерда ва қандай ишлатишни ҳам ўзи билади деб даъво қилишни яхши кўришади. Ҳолбуки, халқ – илоҳий-интеллектуал неъмат бўлмиш тилнинг истеъмолчиси. Халқ тилни яратган тақдирда ҳам, ўз тилида яратган ва бегона сўзларни худа-беҳудага тикиштирмаган бўларди. Ўзбек ҳамиша ўқимишли одамларга эргашиб, улардай бўлишга интилиб яшаган. Халқ, азбаройи, ойдинларига ишончи ва ҳурмати боис, уларга тақлидан ўз тилига жуда кўп бегона сўзлар киритилишига йўл қўйган. Чиндан ҳам, халқ у ёки бу ўринда қайси сўзни қўллаш ёки унинг ўрнига қандай муқобилини топиш кераклиги ҳақида бош қотириб ўтирмайди. Бу-миллат олимлари, адиблар, журналистлар ва ўқитувчилар зиммасидаги юмуш. Азалдан китобга яқин, ўқимишли миллат бўлган ўзбекнинг нутқига ўзга тиллардан кўп сўзлар кириб қолгани табиий ҳол. Лекин бу ҳолни қоидага айлантириш худди ўз чегарасига бепарволик қилган, унга ким кириб, ким чиқишини назорат қилмаган юртга ўхшаб, бир куни заволга элтади.

Шу ўринда биздаги имло қоидалари ўзбек тилига эмас, балки тил имло қоидаларига бўйсундирилгани миллий тил тараққиётига салбий таъсир кўрсатаётган асосий омил эканини ҳам таъкидлаш лозим. Оламдаги аксарият тилларнинг имло қоидаларини тайин этишда кўпроқ фонетик тамойилларга амал қилинади. Негаки, тил нутқда, сўзланганда воқелик ка айланади, моддийлашади. Тилнинг стихияси, асл қудрати сўзлашувда намоён бўлади. Сўзларнинг айтилиши билан ёзилишида айричалик бўлмаса, миллатнинг саводхонлик даражаси тез юксалади. Бизда эса бунинг тескариси: тилнинг норматив талаблари ўзбек тили ва ўзбекнинг нутқига хос белгиларни эмас, балки қоидани ишлаб чиққанларнинг истак ларини акс эттирган. Оқибатда ўзбек ўз тилининг табиатига бегона бўлган қоидаларга бўйсунлишга мажбур қилинган. Бу каби ножоиз ҳолатларнинг илдизи, миллий тилга хос бўлмаган жиҳатлар қоидалаштирилиб, тилнинг асл белгиларига аҳамият бермасликнинг сабаби, асосан, ўзбек тилига сингармонизм, яъни товушлар уйғунлиги ҳослигини ҳисобга олмасликдай ноилмий қарашда. Ўзбек тили ўзга туркий тилларга хос бошқа барча хусусиятларга эга-ю, фақат сингармонизм унга бегона деган ёндашув ўзбек адабий тилини нафақат қардош туркий тиллардан, балки ўз шевалардан ҳам узоқлаш тирмоқда. Бу-масаланинг бир жиҳати. Иккинчи томондан, сингармонизмни ҳисобга олмаслик натижасида товушлар тизими камбағаллашиб, шаклдош сўзлар сунъий равишда кўпайтирилиб, тилимиз омонимик тилга айланиб бормоқда.

Сингармонизм – тилда товушлар уйғунлиги мавжудлигини англатадиган ҳодиса. Ўзбек тили нафақат унли, ҳатто, ундош товушлар ўртасида ҳам гармония бўлишини талаб қилади. Сингармонизм ўзбек тилидаги унли товушларнинг сони худди қардош қозоқ ва қорақалпоқлардаги каби камида тўққизталигини тан олишни тақозо этади.

Ҳолбуки, бугун ги ўзбек адабий тилида унлиларнинг маълум фоизигина ўз ҳарфий ифодасига эга бўлиб, нутқ амалиётида фаол қўллан аётган “**Ә**”, “**Т**”, “**Ы**”, “**Ҳ**”, “**Ө**” унлилари учун ҳарфлар белгиланмаган. Лекин тил шундай қудратли ижтимоий-маънавий феноменки, товушларга махсус белги берилмагани билан унга хос хусусиятлар йўқолиб кетмайди. Шунинг учун ҳам қаерда яшашига қарамай, бугунги ўзбек танадаги муча ва “ўтиб ол” деган буйруқ феълени англатувчи “**ўт**” билан майса ва олов маъноларидаги “**ўт**” сўзларини, шунингдек, “**ўзбек**” ва “**ўтин**” сўзларидаги “**ў**” товушларини бир хил талаффуз қилмайди. “Емоқ-емак”, “ишламоқ-ишламак”, “кутмоқ-кутмак”, “эринчоқ-эринчак” каби кўплаб ҳолатларда ўзбек тили да сингармонизм борлиги ва уни бузиш мумкин эмаслиги яққол кўринади. Бу сўзлар жуфтлигидаги сўнгги унлилар алмашса, ундошлар ҳам алмаштирилиши кераклиги ёки аксинча бўлиши ўзбек адабий тилидаги товушлар оҳангдошлиги қатъий қонуният эканини кўрсатади. Аммо бунимло қоидалари муаллифлари тан олишмайди.

Тилимизда йиллар давомида нотўғри қўлланиб келинганидан хатолиги билинмай кетган сўзлар ҳам бор. Чунончи, “сўтмоқ ва сўкмоқ” сўзлари кўпинча ўрни алмаштириб қўлланилади. Масалан, “**Онам кўйлакнинг чокини сўкди**” шаклида ёзилишига кўникканмиз. Ҳолбуки, чок “сўкилмайди”, балки “сўтилади”. Шунингдек, “сурмоқ ва сурт моқ” сўзларини қўллашда ҳам шу ҳол кўзга ташланади. “**Юзига уна сурди**”, деб ёзилади. Қизлар юзига уна ни сурмайди, балки суртади. “Қурт ва қурут” сўзларини ишлатишда ҳам шу хил хатоликка йўл қўйилади. “Қурт” жонли бир ҳашарот ни англатса, “қурут” қуритилган сут маҳсулотини билдиради. Нарсанинг баҳоси баландлигини билдирувчи “қиммат” билан баҳонинг ўзини англатувчи “қиймат”, ўлчам маъносидаги “мезон” сўзи билан мавсумни англатадиган “мийзон” сўзларини қўллашда ҳам шу хил хатоликларга йўл қўйилади. Бу борада бизга кўп асрли адабиётимиз, кўплаб қомусий илмий-адабий асарлар ва изоҳли луғатларимиз муҳим манба ва ўзига хос бир дастур бўлиб хизмат қилиши мумкин.

Аммо...тилимиз тақдири ҳақида ўзгача қарашлар ҳам бор.

Компьютер валийлари томонидан шу аср охирига бориб йўқолиб кетиши башорат қилинган 30 та миллий тил орасида бизнинг неча минг йиллик тарих га эга ўзбек тилимиз ҳам кўрсатилган. Шу сабабли ҳам ушбу мақоламизда танқид ва нолиш оҳанги бироз кучайди. Умид қиламизки, компьютер башо ратчилари адашган бўлиб, ўзбек тили ўз тараққиётининг истиқболли йўлидан мангулик сари боришда давом этавергай. Зеро, эрксевар ва маърифатпарвар халқи миз қалбини офтоб янглиғ мунаввар этиб турган бу юксак ишонч тилимиз, адабиёт ва маънавиятимиз ривожини йўлида тоғдай таянч бўлган қудратли заминга-тарихий ҳақиқатга асослангандир. Донишмандлар айтганидек, тоғ чўққиларининг юксаклиги олисдан қаралганда, янада яққолроқ кўзга ташланади. Бу ташбеҳни Президентимизнинг “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2019 йил 21

октябрдаги Фармонига нисбатан ҳам қўллаш мумкин. Ўзлигини англаган бутун бир миллатнинг хоҳиш-иродаси ва асрий орзуларини ифодалаган бу тарихий Фармон ҳалқимиз онгу тафаккури, маданияти ва ёш авлод камолоти учун нечоғлик катта ижтимоий-сиёсий ва тарбиявий-эстетик аҳамиятга эга эканлиги йиллар ўтган сари яққолроқ намоён бўлиши шубҳасиз.

Адабиётлар:

1. Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. Т.2014. 2. Абдулла Қаҳҳор. Асарлар. 6-т. Т.1971.
2. Чўлпон. Яна олдим созимни. Т. 1991. 4. Эркин Воҳидов. Сўз латофати. Т.2018.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 3-ж. Т.2007. 6. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. Т.2010. 7. Шукур Курбон. Шоирнинг янги қадами. Тўра Мирзо. 333 учмак. Т.: Мумтоз сўз. 2017.

I. ЎЗБЕК АДАБИЁТШУНОСЛИГИ, ТАНҚИДЧИЛИГИ ВА БАДИИЙ МАҲОРАТ МАСАЛАЛАРИ

РОМАН МУШОҲАДАГА ЧОРЛАЙДИ

**Зулфия Пардаева ф ф д, ЖДПИ
профессори**

Ўзбек романи бир асрлик тараққиёт йўлини босиб ўтди. Асрлар давомида шаклланиб, муайян бир тараққиёт шохсупасига кўтарилган жаҳон романчилиги олдида турфа хил «изм»лар қарама-қаршилигида кечган XX аср ўзбек романи тадрижида шаклланиш даври бўлди, десак, адашмаймиз.

Жаҳон адабиётшунослигидаги каби ўзбек адабиётшунослигида ҳам роман жанрининг бадиий-эстетик муаммолари ҳамisha долзарб бўлиб келган. «Адабиёт яшаса миллат яшар. Ўлмағон ва адабиётининг тараққийсига чалишмаган ва адиблар етиштирмағон миллат охири бир кун ҳиссиётдан, ўйдан, фикрдан маҳрум қолуб, секин-секин инқироз бўлур. Муни инкор қилиб бўлмас. Инкор қилғон миллат ўзини инқирозда эканин билдирур. Агарда «баёз» ва бемаъни бир-икки дона китоблар ила қолсак, маҳву инқирозий бўлурмиз», -деб ёзганида Чўлпон ўзбек миллий романларини ҳам назарда тутган бўлса, ажаб эмас. [3, 36-37-б.]

Ҳар бир адабиётда бўлгани каби ўзбек романчилиги ҳам ўтиш даври муаммоларидан мустасно эмас. Шу сабабдан ҳам мустақиллик даврининг биринчи ўн йиллигини ўзбек романчилигида муайян бир депсиниш бўлиб туришини ўтиш даври муаммоларидан бири деб англамоқ керак.

Роман жанри тадрижга назар ташласак, рус ва ғарб адабиёти романчилигида айнан ўтиш давларида роман инқирози муаммоси юзага келганига амин бўламиз. Агар адабиётшунос Е.Добренконинг «роман кризиси - бу асло жанр таназзулини билдирмайди, балки бир даврдан иккинчи бир даврга ўтиш оралиғидаги муайян бир тайёргарлик даври»

деган мулоҳазаларини назарда тутсак, ўзбек романчилигида зоҳир бўлаётган баъзи бир ноаниқ ҳолатлар ўзбек адабиётшунослигида ҳам роман жанри хусусидаги баҳс ва мунозараларнинг келиб чиқишига сабаб бўлган бўлса, ажаб эмас.

Жамият бадий-эстетик тафаккури даражасининг кўзгуси бўлмиш роман жанри тадрижан тараққиёт сари юксалар экан, айнан жамият тараққиёт динамикаси роман жанри динамикасида намоён бўлади. Айнан мана шу жараённинг ўзи роман жанрининг ички эврилишларини таҳлил ва тадқиқ этиш орқали роман жамият бадий-эстетик тафаккури даражасини акс эттирувчи асосий эстетик компонент эканлигини тасдиқлайди. Шу боисдан ҳам XX асрда қайта ва қайта кўтарилган роман жанри хусусидаги баҳс ва мунозаралар, таҳлил ва тахминлар ҳамда тадқиқотлар роман табиатидан келиб чиқиб билдирилган бўлиши билан бирга, жамият бадий-эстетик тафаккури даражаси, унинг ботиний эврилишлари, инсон ва жамият, табиат ва инсон ўртасидаги мувозанат, бир-бирини англаш ёки бегоналашув сабаблари, уларнинг Ўзаро англаш жараёнига ижобий ёки салбий таъсирини кўрсатувчи омиллар таҳлилидир.

Мустақиллик шарофати билан ўзбек романнавислари бугунги кунда жаҳон романчилиги билан мулоқотга киришмоқдалар.

Романда талқин этилган ғоя, романга хос тафаккур миллийликдан умумбашарий мезонлар қадар кўтарилмас экан, романларнинг ўқимишлилик даражаси миллий чегара билан белгилана беради. Шунга кўра миллий истиқлол даврида яратилган романларни миллийлик мезонига кўра, жаҳон романчилигининг илғор анъаналаридан келиб чиқиб таҳлил қилсак, тўғрироқ бўлади.

Роман - жамият бадий-эстетик тафаккури ҳосиласи сифатида юзага келар экан, миллий истиқлол даврида яратилган романларда, табиийки, биринчи навбатда роман яратилган давр, шу давр кечган замон, воқелик, шу воқелик ичра кечмиш тақдир - Инсон ва, албатта, роман мансуб адабиёт муаммолари талқин этилади.

Эътироф этиш керакки, мустақиллик ўзбек романчилиги нафақат анъанавий роман жанри имкониятларини бойитди, балки илғор жаҳон романчилик мактабидан озиқланди, баъзи ҳолларда таассуб қилди. Шу билан бирга, ўзбек романи поэтикасининг бадий мукаммаллашишига ўзбек халқининг бой маданий мероси – оғзаки ижоди ҳам ижобий таъсир кўрсатди.

Истиқлол даврида ўзбек ёзувчилари кўпроқ бадий таҳлилнинг реализм, модернизм, постмодернизм методларига мурожаат қилдилар. Бизнингча, бадий асар қимматини китобхонлар муносабати, илмий таҳлил ва вақт белгилайди. Нуктадон китобхон аллақачон Ўзи учун ўқишга арзийдиганини саралаб бўлди, роман қимматини белгилайдиган вақт эса олдинда...

Мустақиллик даври романчилиги тамойилларининг шаклланиши ва тараққиётини илмий таҳлилга жалб этар эканмиз, уларнинг юзага келишига

ижобий таъсир кўрсатувчи омилларни ўрганишимиз табиий. Янги давр романчилиги таҳлили шуни кўрсатадики, адабий жараённинг фаоллашиши, изчилланиши учун ижодий адабий муҳит юзага келмоғи лозим, ижодий адабий муҳит, табиийки, объектив ва субъектив ўзаро таъсир натижасида пайдо бўлади. Яъни ушбу ҳолатни мустақиллик даври романчилигига нисбатан ўрганадиган бўлсак, мустақилликни халқимиз орзиқиб кутган. мустақиллик деб яшаган, умид қилган, курашган ва ниҳоят том маънодаги мустақилликга эришган. Ижодкорлик тафаккури, туйғуси мавжуд кўнгиллар учун бу буюк бахт. Аммо мустақилликда яшаш учун тутқунликка ўрганган онг тайёрмакин. Шу аснода объектнинг (мустақилликнинг - З.П.) субъектга (ижодкор шахсга - З.П.) таъсири кучаяди.

Ижодкор шахс биринчи навбатда уни ўзлигидан айирган мустабид тузумни, ижтимоий воқеликни кўнгил призмасидан ўтказди. Бунинг натижасида англаш жараёни кечади. Бу жараён ижодкор онгида юз беражак эврилишларга олиб келади. Адабий жараёнда юз берадиган силсила - бир вақтда муайян бир мавзу юзасидан адабиётда мавжуд жанрларда бир гуруҳ ижодкорларнинг асар яратишлари натижасида юзага келади. О.Мухторнинг «Минг бир қиёфа», «Ўлмаган жон»ида, Т.Муроднинг «Отамдан қолган далалар»ида, «Бу дунёда ўлиб бўлмайдими»да, М.Мансурнинг «Гуноҳи азим»ида, «Жудолик диёри»да, Ш.Холмирзаевнинг «Олабўжи»сида, А.Саиднинг «Беш кунлик дунё»сида айнан яқин ўтмиш синтез қилинди, собиқ иттифоқчилик сир-асрорларининг «авра-астари» очиб ташланади. Мазмунан яқин ўтмишдаги халқ тақдири - кечмиши бадиий талкинга жалб этилар экан, воқеликни ёзувчи қандай тафаккур этса, бадиий ижод шундай муносабат натижасида юзага келади. Тасвир объектига ёзувчи индивидуал услубидан келиб чиқиб ёндошади. Шуунга мувофиқ, ёзувчининг тафаккур типига монанд бадиий метод шаклланади. Миллий истиқлол даври ўзбек романчилигида ҳам реалистик ва романтик адабий методлар амал қилиши билан бирга, бу иккала методнинг синтезлашган тури - модернизм методи шаклланди. Айни пайтда, улар ички тамойиллар бўйича ҳам таснифланади, яъни реалистик йўналишда яратилган романлар таснифига кўра фалсафий, психологик, ижтимоий, автобиографик, тарихий, саргузашт, детектив, илмий-фантастик, ёки ижтимоий нуқтаи назаридан ижтимоий-фалсафий ёки ижтимоий-психологик бўлиши мумкин.

Миллий истиқлол таъсирида жамиятимизда кечаётган туб ислохотлар натижасида рўй бераётган ўзгаришларнинг инсон онгида синтез қилиниши давр романчилигига янги инсон образини олиб кирди. Мана шу янги инсон қайси позициядан талқин қилинади, ижтимоий назардан келиб чиқибми ёки бадиий-эстетик компонентлар юзасиданми? Социалистик реализм методи таъсири Ўзбек ёзувчиси бадиий тафаккурини, онгини ўз қутқусидан озод қилармикин? Адабиётнинг биринчи муддаоси эстетик дидни шакллантириш эканлиги унутилаётган бир даврда романга эстетик мезонларни жалб қилиш қайси ижод мактаби мисолида кечаркан? Бу каби муаммолар ечими янги

туғилаётган ўзбек романчилиги учун нафақат бугунги кун талаблари, балки ўзбек романининг келажаги учун ҳам муҳимдир.

Шу сабабдан ҳам миллий истиқлол даври романчилигимизда рўй бераётган бадиий эврилишлар, услубий изланишлар ягона мақсад йўлида - бадиий мукамал ўзбек романини яратиш мақсадида олиб борилаётгани ижобий ҳолдир. Мустабид тузум сиёсати, бадиий ижоддаги социалистик реализм методининг яккахукмронлиги, турғунлик йилларининг асорати натижасида бадиий ижод аҳлининг ўртамиёна романлар яратишга ўрганиб қолишининг яна бир ачинарли ҳам даҳшатли томони шундаки, роман нафақат жамият бадиий-эстетик тафаккури даражасини билдириши, балки ана шу тафаккурни шакллантиришга ҳам таъсир кўрсатиши ва бу таъсир, тафаккур мантиқига кўра ижобий ва салбий бўлиши мумкинлигини назарда тутсак, ўртамиёначилик таъсирида миллий эстетик тафаккуримиз ўтмаслашиб кетмайдими? Бу ҳол ҳақиқатан ҳам даҳшатли, ҳатто замонавий рамзий тилда бадиий-эстетик манкуртлик деса ҳам бўлади. Масаланинг айнан мана шу жиҳатларини назарда тутиб ўзбек романчилигида олиб борилаётган бадиий изланишларнинг туб моҳиятини англаш мумкин.

Роман қайси даврда, қайси услубда яратилмасин у - фалсафа, мантиқ, у - мушоҳада. Роман - давр кўзгуси, роман - бадиийлик илми, шу билан бирга, у ғоя, кураш демакдир. Роман жанрига хос ушбу хулосалардан келиб чиқиб мустақиллик даврида яратилган баъзи романлар хусусида сўз юритишни лозим топдик.

Мустақиллик даврида яратилган бадиий бақувват романлар солномасини Тоғай Муроднинг «Отамдан қолган далалар» фалсафий романи бошлаб берди десак муболаға бўлмайди. Тоғай Муроднинг «Отамдан қолган далалар» романини яратишдан асосий мақсади мустабид тузум моҳиятини, унга олиб келувчи омилларни, унинг аянчли асоратларини бир халқ тақдири мисолида бадиий талқин қилиш бўлса, «Бу дунёда ўлиб бўлмайди» романида намоён бўлган янги рух, ўзгача ижодий теранлик ўзбек романчилигининг ютуқларидандир.

Хуршид Дўстмухаммаднинг «Бозор» романидаги фозил инсонлар, рамзлар талқини берилган бўлса, «Донишманд Сизиф» романи Альбер Камюнинг «Сизиф ҳақидаги афсонаси» репрезентацияси натижасида яратилган трансформацион роман-миф ёзувчининг бадиий тафаккур имкониятларини очиб беради. Агар Альбер Камюнинг «Сизиф ҳақидаги афсонаси» абсурд адабиёт анъаналарини намоён қилган бўлса, «Х.Дўстмухаммад талқинида Сизифни донишманд дейишга асос берувчи қуйидаги фазилятлар биринчи ўринга чиққан: а) машаққатлардан чўчимай, Коринф шахрини бунёд этиш ва мамлакат хазинасини бойитиш; б) одамларни ўлим вабосидан қутқариб, шодлик улашиш; в) исрофгарчиликларга барҳам бериш; г) ҳар қандай мушкулотни тафаккур кучи ва яқин маҳрамлар маслаҳати билан оқилона ҳал этиш; г) эзгулик ва нурга талпиниш; д) қатъиятлилиқ, зукколик ва кучли ирода». [5, 18-б.] Адабиётшунос И. Якубов «Донишманд Сизиф» романи жанри «индивидуал

белги-хусусиятлари – «онг оқими»га асосланувчи эркин сюжет негизида» намоён бўлишини илмий асослаб беради.

Тарихий мавзуда калам тебратган Эркин Самандар «Тангри кудуғи» романида мавжуд анъаналар услубларини такомиллаштирган ҳолда, машхур тарихий шахслар - Арабмухаммадхон ва Абулғози Баходирхон ҳаётини бадиий жонлантириш, улар рухиятини теранрок тасвирлашда ўз индивидуал услубини намоён қилган бўлса, Хожиакабар Шайхоннинг «Туташ оламлар» ва «Икки жаҳон овораси» романларида инсон ҳаёти ва тасаввурига маънавий озик бераётган орзулар, фантастик гипотезалар, техник воситалару тафсилотлар аксарият ҳолларда аниқ географик макон ва замон муаммолари билан узвий туташади. Адабиётшунос О.Шарафиддинов «Туташ оламлар» ва «Икки жаҳон овораси» асарларини «ўзбек насридаги биринчи мистик-фантастик романлар» [34 Б. 7.], деб жанр аниқловчисини белгилаб беради. Асад Дилмуроднинг «Фано даштидаги куш», «Ранг ва меҳвар», «Заррадаги олам» романларида, Назар Эшонқулнинг «Гўрўғли», Улуғбек Хамдамнинг «Исён ва итоат», «Сабо ва Самандар», «Йўл», «Ота», Исажон Султоннинг «Бокий дарбадар», «Озод», «Генетик» сингари романларда умумтуркий ва жаҳон адабиётида сайкал топган кадимий мавзуларга мурожаат қилиш кучайди.

Кўрсатиб ўтиш жоиз, мустақиллик даври ўзбек романчилигида аёл носирлар ҳам ўз бадиий санъатларини намоён этдилар. Янги давр ўзбек адабиётида Нигина Ниёз, Саломат Вафо, Жамила Эргашева, Зулфия Қуролбой қизи, Хосият Рустамова каби ўз овозига эга адибалар ижодининг аҳамияти таъсирли.

Бугун адабиётшунослир ва китобхонлар орасида кўплаб баҳс ва мунозараларга сабаб бўлаётган Саломат Вафо ўзбек насрида янги тамойилни бошлаб берди, десак муболаға бўлмайди. Адибанинг “Кўнгил фариштаси”, “Ўзини излаётган аёл”, “Тилсим салтанати”, “Оворанинг кўрган-кечирганлари” китоблари ўзбек насри имкониятларини кенгайтираётган асарлар сирасига қиради.

“Адабиётга ёниб кирганлар” сирасига ХХІ аср ўзбек адибаси Зулфия Қуролбой қизи ҳам қиради. Зулфиянинг асарларида аёл ўз ғами, ташвиши, шодлиғу-ю ҳасрати билан бўй кўрсатади. Зулфия “аёллари”нинг аксарияти меҳнатда суяғи қотган, оиланинг юкини кўтарган, ўзининг “мен”лигига даъво қилган аёллар. Адибанинг “Турмуш”, “Ёвузлик фариштаси”, “Ўлим ҳеч нарса эмас”, “Қадимий кўшиқ” ҳикоялар тўпламлари ҳамда “Армон асираси”, “Машаққатлар гирдоби” романлари ўзбек насри имкониятларини кенгайтираётган асарлар сирасига қиради. Зулфия Қуролбой қизи асарларини асло бир ёқлама талқин ва таҳлил этиб бўлмайди. Ҳар бир асари бир бадиий кашфиёт. Зулфия асарлари янгича илмий тафаккурни талаб этади. Ҳар бир асар ижодкор бадиий-эстетик олами ҳосиласи сифатида дунёга келади.

Дунё адабиётида “аёллар насри” феноменал аҳамиятга эга бўлган адабий жараёнда ўзбек адибаларининг ҳам алоҳида ўрни бор. Жаҳоннинг

манаман деган ёзувчилари билан бадий маҳорат бобида баҳслаша оладиган Зулфия Қуролбой қизи асарлари бунга мисол бўла олади. Адибанинг ҳар бир асари бир дунё, ҳар бир қаҳрамони индивидуал, асар тили бетакрор. Зулфия Қуролбой қизи асарларида аёл тақдири, аёл кечмиши, унинг ҳоҳиш-иродаси, армонлари бўй кўрсатади. Ҳар тақдир тасвирида аёл назари, аёл баҳоси аён бўлади. У аёлни ёрилган қўллари, товлари учун осмонларга қўтармайди, қўлларча садоқати учун севилин демайди, “эй аёл, ўзлигингни, ўзингни англа” деган сас сатрма-сатр бўй кўрсатади.

XXI аср рус адабиётшунослари В.Г. Зинченко, В.Г. Зусман, З.И. Кирнозлар таъкидлагандек, “ўтган даврлар адабиётшунослигига хос методлар билан янгича услубда яратилган асарларни таҳлил этиб бўлмайди”. [1, 2-б.] Бундан келиб чиқадиган хулоса шуки, мустақиллик даврида яратилган ўнлаб ўзбек романларини жаҳон адабиётининг шох асарлари билан қиёсиш ўрганиш янги ўзбек романлари намоён этган услуб, усулда интеграцион, трансформацион, культурацион, контаминацион, модификацион жараёнлар қай йўсинда амалга оширилганига илмий ойдинлик киритиш учун жаҳон адабиётшунослигида яратилган илмий манбалар асосида амалга оширилса мақсадга мувофиқ бўлар эди.

Адабиётлар:

1. Зинченко В.Г., Зусман В.Г., Кирнозе З.И. Методы изучения литературы. От системного подхода к синергетической парадигме: Учебное пособие. – М.: Флинта: Наука, 2010. – 200 с.
2. Пардаева З. Ўзбек романи поэтикаси. – Тошкент: Мерос, 2003. - 133 б.
3. Чўлпон А. Адабиёт надири (Адабий-танқидий мақолалар). - Т.: Чўлпон, 1994. 36-37-бетлар.
4. Шарафиддинов О. Хожиакбарнинг сирли олами. Қаранг: Х.Шайхов. Туташи оламлар. Икки жаҳон овораси. - Тошкент: Шарк НМАК Бош таҳририяти, 2001. - Б. 7.
5. Якубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси: Филология фанлари бўйича фан доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2018. 18-б.

ТАРИХИЙ НАСРДА АНЪАНАВИЙ МОТИВЛАР

Абдуллаева Марғуба Дусмиратовна
филология фанлари номзоди, доцент,
Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети

А.Н.Веселовский фикрича, “инсониятнинг дастлабки ривожланиш даврида маиший, психологик шароитларнинг ўхшашлиги уларнинг ҳар бирида мустақил ва шу билан бирга, бир-бирига ўхшаш сюжет ва мотивларни юзага келтирган. Ўхшашлик ҳақидаги фикр мотивларнинг ядро сюжетга туташшига оид муайян назарий хулосани ишлаб чиқишга имкон

беради. Мотивлар тизимининг ўсиши ва ўзгариши оқибатида сюжетнинг вужудга келишига кўра тадқиқотлар асосан мотивларни текшириш, кузатиш, таснифлаш йўналишида олиб борилган. [5; 141-стр.] Тарихий асарларда ҳам худди шундай бир-бирига ўхшаш мотивлар мавжуд. Мотивларнинг асоси сақланган ҳолда, муаллифнинг ўз даври адабий-эстетик талабларига мослаштирилган.

Тарихий асарларда акс этган миллий хусусиятлар ҳисобга олингандагина таҳлил тўлақонли чиқиши мумкин. Ҳар қандай эстетик ҳодиса муайян миллий заминда пайдо бўлганлиги учун ҳам уни тушунтириш ва тадқиқ этишда ўша заминга хос хусусиятлар ҳисобга олиниши лозим. Тарихий наср намуналарида келтирилган “зикр” ахборотларида адабий жанрларга хос анъанавий мотивлар муҳим ўрин эгаллайди. Бу мотивлар асосан муаллиф яшаган ижтимоий муҳит ва ўша давр одамлари ўртасидаги миллий муносабатлар ва урф-одатлар билан қоришиб, асарнинг адабий-эстетик хусусиятларини бойитишга хизмат қилган. Шундай мотивлардан баъзиларини таҳлилга тортдик.

Таниқли рус фольклоршуноси Б.Н.Путилов мотив масаласи тадқиқи устида тўхталиб, уни адабий асар сюжетини шакллантирувчи муҳим элемент эканлиги аниқлаган эди. [7; 149-стр.] А.Н.Веселовскийнинг таъкидича, мотивлар комбинацияси сюжетни юзага келтиради. Ҳар бир мотив маълум бир даврнинг маҳсули. Сюжет эса ана шу мотивларнинг умумлашмасидир. Ҳар қандай мотив асарда маълум адабий-эстетик вазифани бажаради. Тарихий шахсни тўлақонли тасвирлашда муҳим ўрин тутди.

Қаҳрамоннинг ғайритабиий туғилиши мотиви: тарихий воқеа ва эпик анъана сифатида

“Тўрт улус тарихи” ва “Шажарайи турк” асарида Ўғузхоннинг ғайритабиий туғилиши мотиви мавжуд. Бу мотив халқ қаҳрамонларининг туғилишини ёдга солади. “Тўрт улус тарихи” асарида “Қорахон ибн Мўғулхон подшоҳлигининг зикри”да Ўғузхоннинг ғайритабиий туғилиши ҳақида ривоят келтирилади. “Айтишларича, мўғул фирқаси Қорахон замонида куфру ширкатда чунон мустаҳкам эдиларки, масалан, агар бирор фарзанд миллатга куфр иш билан нуқсон етказса, бу ишида собит ва росих бўлмас эдилар. Отаси уни шу даражада қаҳр қилар эдики, қатл этишгача борар эдилар. Фарзандига ота шафқати инобатга олинмасди. Иттифоқан, Қорахон ҳукмронлиги даврида мансабдор бир хотундан бир ўғил туғилди. У ғоятда чиройли, мўйлари ёқимли. Аммо уч кеча-кундуз онасини сути олмади. Ҳар куни ул хотун куюнарди, оқибат бахтли бир кечада туш кўрдик, (тушида) гўдак деди: “Эй она, сен мусулмон бўлмас экансан, ҳақпараст бўлмас экансан, мен сенинг сутингни эммасман”... Шунда онаси имон келтириб, ҳақпарастликни тан олди. Шундан кейин гўдак онасини эма бошлади” [6; 42–43 –бетлар].

Ўғузхоннинг ноодатий дунёга келиши, онасини эммагани, туғилганидан имонга йўғрилгани бу образни идеал тарзда намоён этган.

Ривоятдаги туш мотивининг берилишида ҳам илоҳий ҳикмат сингдирилган. Худди шу жараён яъни Ўғузхоннинг дунёга келиши “Шажарайи турк”да ҳам ғайритабiiй тарзда ифода этилади. Ўғлон онасининг тушига кириб, уни мусулмон бўлишга даъват этади. Онаси фарзандини қиёлмай, мусулмонликни қабул қилади [1; 17–18- бетлар].

Чингизнинг ғайритабiiй туғилиши билан боғлиқ воқеа шундай баён қилинади. “Ясугай элчи хабар етказди. У Улун Янга хотун авлодидан эди. Ўғил дема, бир шоҳ авлодидан. Унинг мисли дунёга арзийди, тилга камтар олинади. Онадан туғиларкан, қўлу мушти қонли эди. Замон донолари: бу бола соҳибқирон бўлиб туғилган дейишди. Яна шуки, муштидан бир кафт қотиб қолган қон бор эди. Бу шундан далилки, вақт ўтиши билан замон аҳлини қатл этур, қўплаб подшоларни оёқ ости қилади. Худодан бошқа ҳамма унинг қўли остида хор бўлади. Худди шундай нима деган бўлсалар, далилдир. Тангридан ташқари кафтидаги ҳам далил бўлди” [6; 81-бет].

“Чингизхоннинг дунёга келганининг зикри”да “Чингизхон тарихи беш юз тақи тўққузда тўнғиз йилинда Мўғул юртинда Йилун-Йилдиқ теган ерда дунёга келди. Бир қўли юмуқ эрди. Энага бўлган хотун қўлини очти, кўрдиким бир пора уюшқан қон. Муни келиб отасига айтдилар. Ўлтурган халқ ҳеч киши билмади. Бир киши айтди, бу ўғлон улуғ подшоҳ бўлур. Ер юзининг барчасини олур. Кўп элларни ва вилоятларни қатли ом қилур. Бу қон анинг нишонаси турур теди. Ул кишининг теганидек бўлди” [1; 48-бет].

Бу воқеа Чингизхон ҳақидаги анъанавий сюжетларнинг шаклланишига замин бўлди. Сюжетнинг юзага келишига асос бўлган прототипларнинг эпик образ даражасига кўтарилиши учун туркий халқлар оғзаки насридаги сайёр сюжетлар ҳамда типологик характердаги анъанавий мотивлардан самарали фойдаланилган. Масалан, Чингизхоннинг туғилиши тўғрисидаги сюжетлар қорақалпоқ ривоятларида шундай талқин қилинган: “Олтинхон қизига ўз тахтини беради. Ундан норози бўлган қизнинг иниси отасига (хонга) опасини ёмонлайди. Хон қизини сандиққа солиб денгизга оқизиб юборади. Сандиқни овчилар Тамайил билан Шабан кўр қирғоққа чиқариб оладилар. Сандиқдан паридай сулув қиз чиқади. Қизнинг бўйида ҳомиласи бор бўлиб, ойи-куни етгандан сўнг ўғил туғади. Унга “Чингиз” деб от қўядилар. Шабан кўрдан ҳам у қиз икки ўғил туғади. Бирининг отини Бадантай, иккинчисининг исмини эса Бургитай қўядилар” [3; 41-бет]. Бу сюжет Бердақнинг “Шажара” асарида ҳам тўлиқ берилган. [4; 277-280-бетлар]. “Шажара” деб аталган халқ ривоятида эса ҳомила куёш нуридан пайдо бўлганлиги учун у туғилганда отини “Кунес” деб қўядилар. Бу ривоятда қизнинг оти Ариўхан деб берилган. Кунес подшо бўлгандан кейин Алмали кўркли деган қизга уйланади. Икковининг никоҳидан Чингизхон дунёга келади [3; 43]. Чингизхоннинг туғилиши тўғрисидаги ривоятнинг бу намунасида эпик қаҳрамоннинг ғайриоддий туғилиши, яъни Аланкуванинг чодирга кирган ғаройиб нурдан ҳомиладор бўлиши билан алоқадор мифологик тасаввурлар ўз ифодасини топган. Бу мотив Марказий Осиё халқлари оғзаки адабиётида жуда кенг тарқалган бўлиб, халқ эпоси

тараққиётининг архаик даврига хос сюжет элементларидан бири ҳисобланади [2; 18-бет].

Жўчихон ибн Чингизхоннинг туғилиши ҳам бошқаларда учрамайдиган ноодатий воқеаларга бой бўлган. “Тўрт улус тарихи”да бу ҳақда шундай дейилади. “...Соҳибқироннинг ўрдасини кўчириб кетдилар. Ўша пайтда Жўчихон Бурта Қучин қорнида олти ойлик эдилар. Макрит қавми Бурта Қучинни олиб кетаётганларида Соҳибқирони аъзам Чингизхони муаззам билан ота-бола тутинган кeroит подшоси Ўнгхон бу хабарни эшитиб, катта лашкар билан Макрит қавмининг йўлини тўсиб, Бурта Қучинни барча тобеълари ва нарсалари билан қўлга олди ҳамда Соҳибқирони аъзам Чингизхони муаззамнинг ҳузурига равона қилди. Шу аснода йўлда Бурта Қучин ўғил туғди. “Йўл машаққати ва уриниш-суринишлардан холи бўлсин”, деб уни олиб кетаётганлар тадбир қўллаб, чақалоқни юмшоқ *хамир ичига* олдилар ва этакларига солган ҳолда эҳтиёткорлик билан Соҳибқирони аъзам Чингизхони муаззам ҳузурига олиб келдилар. У мазкур жамоатни “нойрин-бойрин” деб атаб, “тузни ҳалоллаган”лар қаторига қўшди ва ўғлига Жўчихон, яъни “Йўлдан келган меҳмон”, деб ном қўйди” [6; 218–219 – бетлар].

“Шажарайи турк”да ҳам шу мазмундаги Жўчихоннинг туғилиш воқеаси баён қилинган. “... Алқисса, Буртақучин йўлда Жўчихонни туғурди. Ул ерда гаҳвора йўқ эрди ким, ани солғайлар. Алқисса, эти оғримасун теб хамирдан бир нимарса таъбия қилиб, анинг ичина солиб олиб келдилар. Чингизхон бу ўғулни кўриб хушхол бўлуб, бизга жўчи келди теди. Мўғул тилида жўчи теб янги келган меҳмонга айтурлар”[1; 105-бет].

Воқеалар сюжетидаги ғайритабиий ҳолатлар асар қаҳрамонини идеал тарзда намоён этиб, унинг буюклик сифатларини бўрттириб кўрсатган. Ғайритабиий туғилиш мотиви буюк тарихий шахсларнинг дунёга келиш воқеаларини жонли ва таъсирчан руҳда китобхонга етказиб беришга хизмат қилган.

Хулоса қилиб айтганда, адабий-тарихий асарларда ривоят, ҳикоят, ахборот ва хабарларнинг умумлашма “зикр”ида мифологик қараш, халқ оғзаки ижоди анъаналари, анъанавий мотив ва эпик қолиплардан маҳорат билан фойдаланилган. Бу тарихий насрнинг дostonлар сингари қизиқиш билан ўқилишига сабаб бўлган. Тарихий ривоятларда анъанавий мотивлар воқеликнинг юзага келиши, ривож, шаклий ўзгаришига ҳисса қўшади, қолаверса, у ҳаёт, идеал ғояларни чуқур ҳис қилиш имконини беради. Айни пайтда улар тарихий ҳақиқатни инкор этмайди, балки уни умумлаштириб, ёрқинроқ ифодалашга хизмат қилади. Мотивлар образлар характери ва психологиясини очишда ҳам муҳим восита бўлган.

АДАБИЁТЛАР:

1. Абулғозий Баҳодирхон. Шажарайи турк. – Тошкент: Чўлпон. 1990. – 192 б.
2. Алламбергенова И. Х. Қорақалпоқ халқ ривоятлари (жанрий ўзига хослиги, таснифи). Ф.ф.н. дисс. – Б. 18.

3. Баҳадырова С., Мамбетназаров Қ. Қарақалпақ аңызлары, эпсаналары хәм шешенлик сөзлери. – Нәкис: Қарақалпақстан, 1992. – Б. 41.
4. Бердақ. Таңламалы шығармалары. – Нәкис: Қарақалпақстан, 1987. – Б. 277–280.
5. Веселовский А.Н. Поэтика сюжетов. // Историческая поэтика. – М.: 1989. – С. 141.
6. Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи. – Т.: Чўлпон. 1994. – Б. 43.
7. Путилов Б.Н. Мотив как сюжетобразующие элемент// Типологические исследования по фольклору. –М. :1975. – С. 149.

АЛИШЕР НАВОИЙ ИЖОДИДА АРУС ТИМСОЛИНИНГ БАДИИЙ ТАЛҚИНЛАРИ

Маърифат Ражабова
БухДУ доценти, ф.ф.н.

Арус сўзи “Навоий асарларининг изоҳли луғати”да келин, келинчак; эрта баҳор чечаклари маъноларида қўлланиши айтилган [5.117]. Алишер Навоий эса бу сўзни кўпинча мажозий маънода бойлик, нафс, олам ва ҳаётнинг ўткинчилиги ва ўзгарувчанлиги маъноларида қўллагани кузатилади. Шоир айнан Шарқ адабиёти анъаналари асосида арус тимсолини кўпроқ бойлик, умрнинг ўткинчилиги маъноларида талқин ва тасвир этиб, у орқали ўз илоҳий-ирфоний, дидактик қарашларини бадий ифодалашга урингани кузатилади.

Маълумки, тасаввуф адабиётида моддий дунёга (бойликка) кўнгил бермаслик талқини устуворлик қилади. Чунки унга ортиқча меҳр қўйиш инсонни Ҳақ йўлидан оздириб, Аллоҳ зикридан чалғитади. Шунинг учун тасаввуф адабиётида дунё ўзининг макру ҳийлалари билан инсонни йўлдан оздирувчи, вафо нималигини билмайдиган хиёнаткор маъшуқага ёки бузғунчи кампирга қиёсланади. Жумладан, Навоий ҳам бунда гоҳ Аямажуз (Ажуз), гоҳ фоҳиша тимсолларига мурожаат қилгани кўзга ташланади. Масалан, шоирнинг “Назм ул-жавоҳир” асаридаги бир рубоийда дунё сифатлари Ажузга тенглаштирилганини кузатиш мумкин.

Бу даҳр ажузеки, вафоси йўқ анинг,
Бир фоҳишадекдурки, ҳаёси йўқ анинг,
Дема муниким, айбу хатоси йўқ анинг,
Айби бас эрур буким, бақоси йўқанинг [4.177].

Кўриняптики, рубоийда дунё (бойлик) қари ва тасқара кампир Ажузга ҳамда ҳаёсиз ва бевафо фоҳишага қиёсланмоқда.

Навоий лирикасида ҳам арус сўзининг дунё маъноларида келиши кўп кузатилади. Дунёнинг арусга ўхшатилишида келинчакнинг ҳусну латофатда тенгсизлиги, қадду қоматда ягоналиги асос қилиб олинса-да, аслида у (дунё-келинчак) қариб қартайган, тишлари сўйлоқ қиёфада намоён бўлади. Шундай бўлса-да, у ўз макр-ҳийлалари билан инсонларни тузоғига туширади, уларни адаштиради. Унинг шиори “ғайри ёмонлик”дан ўзга эмас.

Чарх арусиға йўқ ғайри ямонлиқ шиор,
Ақдиға майл этмаким, шоҳиду бадкорадур.
Вўсмаси қавси қузах, ғозаси гулгун шафақ,
Зулфу юзи туну кун, кўрки, не маккорадур [1.132].

Лекин айрим ўринларда Навоий бойлик тимсолини бевосита арус (келинчак) тимсолида ифода этгани намоён бўлади:

Эй Навоий, эр эсанг дунё арусин қил талоқ,
Бир йўли бўлма забун бу золи маккор оллида [3.46].

Байтда ҳақиқий эр дунё аруси, золи маккор олдида забун бўлмаслиги лозимлиги уқтирилмоқда. Шоир дунё арусини ёмонлик тимсоли сифатида тасвирлар экан, унинг макридан кутилишнинг ягона йўли шариат қоидалари бўйича “талоқ” беришлик эканини айтади. Бундай таъкид шоирнинг яна бир бошқа байтида ҳам учрайди:

Дахр золин тўрт мазҳаб бирла қилдим уч талоқ,
Фард қилди бори мундоқ кадхудолиқдин мени [1.575].

Шоир байтда лирик қаҳрамоннинг дунё золига исломдаги ҳар тўртала мазҳаб билан уч талоқ қўйганлиги орқали дунё лаззатлари, нафс гулғулаларини енганлигини, яъни ундан бутунлай воз кечганлигини таъкидламоқда. Чунки шариатда эр хотинига уч талоқ берса, улар ўртасидаги никоҳни қайта тиклаш имкони қолмайди.

Алишер Навоий дунё – фалак – чархнинг бевафолигини баён этишда ҳам бевосита арус образига мурожаат қилгани кўзга ташланади. Шу орқали шоир фалаkning ҳеч кимга вафо қилмаслигини, инсон умрининг ўткинчилигини эслатмоқчи бўлади:

Фалак арусида йўқ меҳру дилраболиғ кўп,
Нечукки ҳусну жамол аҳлиға вафо била ноз [1.200].

Шоир дунёни, ҳаётни арусга ўхшатиш билан унинг ўткинчи ва ўзгарувчан гўзаллиги ва ҳисларига алданиб қолмаслик кераклигини айтмоқчи бўлади. Чунки арус (келин) кечаги қиз бўлса, бугунги аёл, эртанги кампир кўринишларида ўзгарувчан зотдир. Унинг ҳусну малоҳати, қадду қомаги ҳам вақт ўтиши билан ўзгаради. Лекин арус ўз гўзаллигини болалари учун қурбон қилиши натижасида эъзоз ҳам топа боради. Шу маънода Навоий дунё кўркига (арус гўзаллигига) берилиб, вақтни беҳуда ўтказмаслик, алданиб яшамасликка даъват этади. Инсон ҳусни ва ҳаёти абадий бўлмагани сингари фалак арусида ҳам гўзаллик, маҳбублик боқий эмаслигини билдиради. Шу билан дунёнинг ўткинчилигини рамзий ифода этади.

Навоийнинг арус образи орқали дунё, ҳаёт, умр тушунчаларига ишора қилгани унинг “чархи арус” бирикмасини қўллаши орқали ҳам аёнлашади:

Чарх арусиға йўқ ғайри ямонлиқ шиор,
Ақдиға майл этмаким, шоҳиду бадкорадур...
Вўсмаси қавси қузах, ғозаси гулгун шафақ,
Зулфу юзи туну кун, кўрки, не маккорадур [1.132].

Алишер Навоий лирикасида арус тимсоли қуёш маъносида ҳам қўлланган:

Бу тийра даҳрни гар ошиқ этмасанг бўлмас,
Аруси меҳри фалак манзарида жилванамой [2.506].

Байтда қуёш фалак келинчаги бирикмаси билан сифатланиши бежиз эмас. Бу билан меҳр аруси “тийра даҳр”ни ўз жилвалари билан ошиқ қилгани каби “жамол бирла жалолият”нинг ошиғлиги ғояси ҳам ифода этилмоқда.

“Фарҳод ва Ширин” достонининг 17-бобида эса арус тимсолида келинчак баҳор тасвири келтирилган. Қуёш ҳамал буржига кирган замонда унинг гул юзини намоён этиши образли ифодаланган.

Ҳамал таҳвили эткач Меҳр гулчехр,
Очар юз гул замона кўргач ул Меҳр.
Қилур машшотайи сунъ ошкоро
Аруси даҳрнинг ҳуснига оро.
Қилур тун бирла зулф-у кун била энг,
Этар лекин бўйи бирла сочин тенг.

Алишер Навоий арусни эрта баҳор чечаклари маъносида ҳам қўллаган: “Ва то гул чоғи сабо машшотаси раёҳин навъ аруслари қулоғига жола гавҳарлари била зийнат берур”. Ижодкорнинг “Маҳбуб ул-қулуб” асарида эса арус “Орияти дасторин бошиға бурунжок қилғайларки, аруси мастурадур...” дея, ифбатли келинчакка хос сифатлар билан таърифлаб келтирилган.

Хулоса қилиб айтганда, Алишер Навоий арус тимсоли мисолида нафсоний иллатларни танқид қилади, олам ва ҳаётнинг ўткинчилиги, ўзгарувчанлиги таъкидлаб, ризқ ва келажакни, тақдирни Оллоҳга таваккул қилиш сингари ғояларини очишда ўзига хос услубда фойдаланган.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Навоий А. Бадоеъ ул-бидоя. МАТ. XX жилдлик. I жилд. – Т.: Фан, 1987. – Б.576
2. Навоий. Навоидир ун-ниҳоя. МАТ. XX жилдлик. II жилд. – Т.: Фан, 1987. – Б.506.
3. Навоий А. Ғаройиб ус-сиғар. МАТ. XX жилдлик. III жилд. – Т.: Фан, 1988. – Б.46.
4. Навоий А. Назм ул-жавоҳир. МАТ. XX жилдлик. XV жилд. – Т.: Фан, 1999. – Б.177.
5. Навоий асарларининг изоҳли луғати. IV жилдлик. I жилд. – Т.: Фан, 1983. – Б.117.

РУҲИ КЕЗАР ОСМОНИМДА

Муҳиддин Нарзиқулов (Полвон), адиб, журналист. Тошкент

Жиззах шаҳар ва вилоят маъмуриятида ишлаган олти йил давомида, Ҳамид Олимжоннинг таваллуд куни 1909 йил 12 декабрь отамнинг туғилган кунидай азиз бўлиб қолган эди. Жиззахга ишга келганим шукронасига сайланганимнинг индинига, 1985 йил 31 январь куни автобусда Тошкентдан иккита гулдаста олиб келиб, янги иш жойимга етиб келганим ёдимга тушади. Ўша куни Ҳамид Олимжон ва Шароф Рашидовнинг ҳайкали пойига қўйиб, бўйнимга қанчалик оғир ва машаққатли синовлар ортилгани, уларнинг руҳига хиёнат қилмай ишлашим ҳақидаги ички бир онт билан таъзим бажо этиб сал енгиллагандек бўлдим. Шу-шу дилимга маҳкам ўрнашиб қолган бу икки шоирдан ҳамиша хабар оладиган бўлдим. “Наврўз”, 9-май, 6-ноябрь ва 12 декабрь кунлари имкон топиб, буюк ўтмишдошларимизнинг тошга йўнилган қиёфалари олдида бош эгиб, гул қўйиш кўнглим амрига айланди. Гоҳида Ҳамид Олимжоннинг куйидаги шеърини ич-ичимдан тўлқинланиб, ифтихор билан сассиз айтар эдимки, баъзида атрофимдаги лар ҳам таажжубланиб қараб қолар эди.

Толеим шулким, ватанда бир гулистон танладим,
Бахтни топган эл билан жондош бўлиб отдим одим...

Энди иккиланмасдан, кўтаринки кайфият билан Жиззахга кўнгил қўйиб, енг шимариб, ишга шўнғиб кетардим. Шоирнинг “На бўлғай” деб номланган ғазалини билмаган ўзбек, уни жизиллаб ёниб куйлашни орзу қилмаган ҳофиз бўлмаса керак. Мен ҳам юрагим ғашланганда, узок йигитлик чоғларим ёдимга тушиб, ўша кунларимдан ризо бўлиб тилимга оламан.

На бўлғай бир нафас мен ҳам яноғинг узра хол бўлсам,
Лабинг япроғидин томган ки, гўё қатра бол бўлсам...
Бутоғингга қўниб булбул каби хониш қилиб тунлар,
Ўпиб ғунчангни очмоқликқа тонг чоғи шамол бўлсам.
Бўйингни тарқатиб оламини қилсам масту мустағрик,
Ўзимнинг санъатимга сўнг ўзим ҳайратда лол бўлсам.
Сенинг бирла қолиб бу масту-лол оламда мен ёлғиз,
Ўзимни ҳам тополмай, майлига, охир хаёл бўлсам.
Агар боғингда гул бўлмоқ менинг-чун нораво бўлса,
Киминг бор розиман қасрингга ҳаттоким, дувол бўлсам.
Бошим ҳеч чиқмаса, майли, маломат бирла бўҳтондин,
Рақиблар рашкига кўкрак керай, майли, қамол бўлсам;
Кезиб сахрою водийлар етишсам деб бир висолингга
Фидо жонимни қилдим йўлингга, майли, увол бўлсам.

Ўша даврларда КПСС Марказий Комитети Сиёсий Бюроси раҳнамолигида СССР Бош Прокуратураси, Давлат Хавфсизлик Комитети ва Ички Ишлар вазир лиги гоҳ махфий, гоҳида очик тарзда Жиззах ва унинг раҳбарларига кенг масштаб ларда тажовуз қилинаётган, қама-қама, провакация, “подставка” қилиш авжга чиққан даврларда кўнгилни бир жойга қўйиб, шаҳар иқтисодиётини кўтариш, ободончилиги ва одамларнинг кундалик турмушидаги сон-саноксиз муаммоларни ечишнинг ўзи бўлмасди. Кишига улкан ирода ва қатъият керак бўларди. Ҳақиқий коммунистлар (дўстлар дейишга арзигулик!) кўрқиб қолишган. Ўзларини дўст деб кўрсатиб юрган шумғиячи кимсалар Шароф Рашидовга “гап теккан”дан сўнг тўнини тескари кийиб олиб фитна, чакув билан шуғулланаётган, ҳар қадамингни кузатиб тургани учун унвони ошадиган махсус хизмат айғоқчилари, кариндош-уруғингу кирди-чиқдинг, гап-сўзингдан хато изловчи ва уюштирган тухмати учун хўжайинларидан мўмай садақа олиб роҳат қиладиган ёлланган жосуслар қамалида сал адашсанг, оғзи-бурнингни қонга ботириб топтаб ташлайдиган даврлар бўлди. Терак бўйи дор арқонидан лангарчўпсиз, устаранинг тиғи устида оёқ яланг юриб соғ-омон ўтиб олганлар мени бир қадар тушунади, деб умид қиламан.

“Бошим ҳеч чиқмаса, майли, маломат бирла бўҳтондин,
Рақиблар рашкига кўкрак керай, майли, қамол бўлсам”.

Бу мисралар менга бағишлангандек, куч ва қувват, ирода ва ўзимга ишонч орттирарди. Улуғ шоирнинг инсон ички кечинмалари, ҳис-туйғулари ва мақсад ларини ҳам аниқ тасвирловчи “Бахтлар водийси” номли машҳур шеъри ҳам барча мизнинг кўнглимизга яқин.

Кўмкўк,
Кўмкўк,
Кўмкўк...
Кўклам куёшидан
Кўкарган қирлар,
Пўлат яғринларни
Кўтарган ерлар
Кўмкўк.

Шоир бу ажойиб шеърини қалбининг пучмоқларида яширинча орзу қилган Истиқлолга атагандек туюлади. Ватанни кўз қорачиғидек асраш, унга гард юқтир маслик шунчалик улуғ вазифаки, келажак авлодларингга насиб қиладиган ёруғ кунларда булар қадрланади, дея огоҳлантиргандек, гўё. Авж нуқталарига кўтарилиб, кўнгилларда ажиб бир ҳислар уйғотган шеър шундай якунланган:

Кўм кўк водийларни
Кўз қорасидай,
Асра!
Баргларига
Гард ҳам юқтирмай!

Ушбу мисралар бугунги куннинг асосий шиорларидан бўлиб кўринмаяп тими кўзингизга?! Ҳали ўқувчилигимиз даврида шоирнинг шеър ихлосмандла рининг кўнглидан мустаҳкам жой олган “Ўрик гуллаганда” номли шеърини бутун синфимиз ва ҳатто мактабимизнинг ироқи дўппилик жамалак сочли қизлар, чуств дўппили йигитчалар тўлқинланиб, завқланиб ёд айтар, Муҳаббат Шамаева йўлида тарафма-тароф бўлиб куйлардик. Ишончим комилки, бу кўшиқни элликвойлару олтмишвойлар, етмишвойлару саксонвойлар хотирасида ҳамон сақлаб келади. Раҳматли онам саксонда ошганларида ҳам Ҳамид Олимжоннинг жойлари жаннат дан бўлсин деб, шу кўшиқни невараларига севиб айтиб берарди.

Новдаларни безаб ғунчалар,
Тонгда айтди ҳаёт отини
Ва шаббода қурғур илк саҳар
Олиб кетди гулнинг тотини.

Ҳар баҳорда шу бўлар такрор,
Ҳар баҳор ҳам шундай ўтади,
Қанча тиришсам ҳам у беор
Еллар мени алдаб кетади.

«Мана сенга олам-олам гул,
Этагингга сиққанича ол,
Бунда толе ҳар нарсадан мўл,
То ўлгунча шу ўлкада қол.

Яшириб бўларканми, мен ҳам рафиқам билан шу кўшиқни, айниқса, “шаббода қурғур илк саҳар олиб кетди гулнинг тотини”, яна “бунда толе ҳар нарсадан мўл, то ўлгунча шу ўлкада қол” мисраларини авжга чиқариб хиргойи қилишдан ҳузур қиламиз. Шоирнинг менинг хотирам хазинасини безаб, юракни ўртайдиган, кўзларни намлатиб, қалбларни уйғотадиған ўта ғўзал “На бўлғай” деб бошланадиган ғазалини ўн туя тиллога ҳам алмаштирмаган бўлардим. Аруз вазн ининг борки имкониятлари ишга солинган, ўзининг мазмун-моҳияти билан ўқув чини лол қолдирадиган ўлмас ғазал тиллардан тилларга кўчиб бугун ҳам машҳур хонандаларимиз томонидан севиб куйланмоқда. Бу ажойиб ғазал ўзбек халқининг маънавий мулки бўлиб қолади ва кейинги авлодларни ҳам ўзининг тенгсиз назокати билан хушнуд қилишига имоним комил.

Иккинчи жаҳон урушида, Ленинград қамалида жанг қилган раҳматли отамнинг гаплари ёдимга тушади. Бизга фронтда ўзбек тилидаги газеталар тарқатишарди. 1943 йилдаги бир сониди Ҳамид Олимжоннинг “Ўзбекистон” деб аталган шеъри ни ўқиб шунчалик таъсирланган эдимки, дарҳол учрашган ўзбек жангчиларига ўқиб берардим. Ўшанда биргина шеърнинг кудратини кўрган эдим. Яшашдан умидини узган аскарларимизнинг яшашга иштиёқи кўксига қайтди, кучига куч кўшилди, тезроқ ғалабага эришиш ва уйларига соғ-омон қайтиш орзулари қайта дан ниш урди. Ҳалок бўлган

юртдошларимизнинг чўнтагида хужжатлари орасида ўша шеър битилган газета чиққанини неча бор кўрганман, деб айтар эди. Энди билсак, лаънати немис-фашист газандаларига қарши жангларга 4,5 млн ўзбек халқининг тенг ярми, яъни икки миллион нафар йигит ва қизи сафарбар этилиб, шулардан ярим миллиондан ортиғи ҳалок бўлган экан. Балки уларнинг қанчаси жонажон юрти “Ўзбекистон”ни, ота-онаси, суюкли ёри соғинчини бир қадар туйиб, сўнг азиз жонини топширгандир, дея ўйга толади, киши.

Ўхшаши йўқ бу гўзал бўстон,
Достонларда битган гулистон —
Ўзбекистон дея аталур,
Уни севиб эл тилга олур.
Чиройлидир гўё ёш келин,
Икки дарё ювар кокилин
Қорли тоғлар турар бошида,
Гул водийлар яшнар қошида...

Бадий юксак ғазаллари билан дунёни лол қолдирган Навоий ва Фузулий ларнинг йўлидан бораётган ҳассос шоирлардан бўлган Ҳамид Олимжоннинг мана шу дилбар шеъри таъсирида тасаввурингизда Молгузарнинг қорли чўққилари, лолақизғалдоқ гиламига ўраниб олган Учтепа даштлари, андизу шувоқлар ҳиди бошни айлантирадиган Шариллоқ адирлари, кўклам чоғи ранг-баранг гулларга бурканган Ровот боғлари, катта бир юртни суғоришдек юкни кўтариб Зарафшон ва Сангзор дарёлари ўз жамоллари бирма-бир пайдо бўлиб, кино лентасидек кўз олдингиздан липиллаб ўтади. Мен шоирнинг деярли барча асарларини шоҳ асарлар қаторига киритган бўлардим. Бугунги замон минорасидан туриб, унинг рус халқи, Россияга бағишланган шеърлари, “Муқанна” асарини адабиётимиздан бегоналаштириш ўзимизнинг томиримизни ўзимиз қирқиш билан баробардир. Ўқисангиз баданингиз титраб, томирларингиз жимиллайдиган, кўнглингиз роҳат ланадиган, соф ўзбек тилида бениҳоя баланд жаранглайдиган шоирнинг барча ижод дурдоналари юксак санъат асарлари сифатида ардоқланишга муносиб.

Тўғри, “Россия...” ва бошқа баъзи шеърларида замонасозлик, шўролар ҳукумати ва сиёсатига хайрихоҳлик ноталари сезилади. “Муқанна” бўйича диний олим ларда айрим эътирозлар ҳам пайдо бўлган. Бироқ шуларга қарамасдан, шундай асарларни сиёсий ва диний тарози билан ўлчаб тупроққа қориштирмасдан уларни бебаҳо санъат асари деб қабул қилса, осмон узилиб ерга тушмайди.

Буюк ёзувчи Пиримқул Қодиров “замон шундай чалкаш эдики, ижодкор ўта қалтис пайтларда ўзини ҳукмрон доираларнинг ноғорасига ўйнагандек кўрсат ишга мажбур бўларди. Бироқ шу йўл билан халқимизга ёқадиган бадий мукам мал, миллат руҳи билан суғорилган бир қанча асарларини нашр этишга имкон топарди”, деб хомуш эсларди.

Жиззах водийсининг оташин фарзанди Ҳамид Олимжон зулмкор Чор Росси яси диёримизни босиб олиб тўпга тутган қаро кунларда дунёга

келган, миллат ларга тўлиқ мустақиллик берамиз дея лақиллатган, ота-бобосидан қолган ерининг хўжайини бўлган ўзбекларни бадкирдор Ленин бошчилигидаги келгиндилар босмачилик ва миллатчиликда айблаш йўли билан Туркистон халқларини қайта босиб олган даврда ижоди бошланган, машъум Сталин замонасида ўз она тилида, қалбларни жўш урдириб, нурга тўлдириб юборадиган, бадий баркамол, шоҳ асарлар яратган шоирдир. Унинг дostonлари ва шеърлари бундан кейин ҳам севиб ўқилаверишига шубҳа йўқ.

“АДАБИЁТНИ ЯХЛИТЛИКДА ТАСАВВУР ҚИЛАМАН”

**(Академик Наим Каримов билан суҳбат)
Ш.Дониёрова ф.ф.д,проф.ЖДПИ**

Адабиёт ҳамиша янгиланиб, шаклланиб боргани каби анъанавий жиҳатларини сақлаб қолмоғи шарт. Ана шу жараёнга муносабат маъносида, яъни кечаги ва бугунги кун адабиётининг қиёфаси ва ўзаро таъсири тўғрисида адабиётшунос олим филология фанлари доктори, профессор Наим Каримов билан суҳбатда бўлдик.

- Сиз икки давр адабиётини кузатган мутахассиссиз. Шу боис суҳбатимизни кечаги, бугунги ҳамда эртанги адабиёт ҳақида, уларнинг фарқли ва ўхшаш жиҳатлари юзасидан бошласак.

-Мустақиллик даври адабиётини олдинги даврга солиштирадиган бўлсак, унинг мафкурадан четда эканлигини эътироф этиш зарур. Мен шўро даври адабиётини эса офтобга қараб қийшайиб ўсган дарахтга ўхшатаман. Шу нуқтаи назардан қарайдиган бўлсак, ўша давр ижодкорларининг асарлари коммунистик мофкурага хизмат қилган, бироқ бунга бир ёқлама қарамаслигимиз керак. Менинг авлодим олдида туран вазифа XX аср адабиётида қанақа янгиланишлар бўлгани, ўзбек адабиёти тарихида қандай ўзгаришлар рўй бергани, бадий маҳорат ва жанрлар масаласи, шу билан бирга янги натижалар ва йўқотишлар нимадан иборат эканлигини маълум даражада хулосалаб бериш керак.

30-йиллардан кейин адабиёт майдонида ялт этиб кўринган авлод, биламизки, қисман жадидларнинг таъсирида шаклланди. Хусусан, Ойбек Шайхоноҳурда туғилган, Абдурашид Мунавварқорининг “Намуна” мактабида таҳсил олган. У “Улуғ йўл” романида Мунавварқори ҳақида ёзишни истаган эди, аммо баъзи сабабларга кўра Мунавварқори образини Анвар қори деб олиб киради. Ойбек ижодда бу типдаги образларнинг инсон сифатида жонлантирилишида жадид адабиётининг таъсири жуда катта. Бундан ташқари, адабиётнинг шундай нуқталари бўладики, буни мен кичкина заррада кўраман. Битта вергул, битта кичик лирик кечинма орқали, битта кичик нуқтани ёритиш орқали адабиётимизнинг тарихига ва ижодкорнинг тақдирига кириб бориш мумкин.

XX аср адабиётини яна сочиб юборилган олтинларга ўхшатиш мумкин. Уларнинг ҳар бир донасини битталаб йиғилса, бугунги кун адабиётининг улкан хазинаси тикланади.

Энди адабиётда шўролар даврида йўл қўйилган камчиликларга назар ташлаш, ўз хатоларимизни яна бир тафтишдан ўтказиш имкони вужудга келди. Бизга маълумки, адабиёт шеъриятдан бошланади. Мустақиллик даври шеърияти ҳам бошқа жанрларга қараганда анча бўш шеърларни юзага келтирди. Ўзбекистон ҳақида, Ватан ҳақида Эркин Воҳидовнинг ғазали, Абдулла Ориповнинг достони даражасида, гарчи бугунги кунда имкониятлар кенг бўлса-да, шеър яратилмаяпти. Вахоланки, бу давр мустақиллик ва эркинликдан илҳомланиш натижасида биз кутган шеърият ўрнига эгизак, бир-бирини такрорлайдиган шеърлар дунёга келаяпти.

Бугунги кун насри ҳақида гапирадиган бўлсам, насрда ҳам тарихий шахслар, миллий туйғулар ҳақида асар битиш имконияти катта. Бироқ тарихий асарлар ҳам анъанавий шаклланган мактаб услубида яратилиш ўрнига ноанъанавий, модернистик услубда яратилмоқда. Бундай асарларнинг умри узун бўлмайди. Бу асар Қодирий, Ойбек, А.Қаҳҳор асарларидек адабиётда қоладими, йўқми, ҳали буни вақт кўрсатади. Шукур Холмирзаев ўзининг асарларини жуда севарди, шу сабаб уларни танқидий фикрлардан ҳам ҳимоя қиларди. Эълон қилишга эса шошимасди. У ўзининг “Динозавр” асарини қайта-қайта ишлаб, тугатолмади. Чунки бунга, аввало, ўзининг кўнгли тўлмаётгани сабаб бўлганди. Илгари Шукур “Пайғамбар ороли” деган роман ёзмоқчи эди. Мен шу роман унинг энг зўр асари бўлади, деб ўйлар эдим. Бугунги ҳулосамга кўра унинг энг зўр асари “Динозавр”. Нима бўлганда ҳам, бугунги давр адабиётида бугунги кун кишининг дунёси, бугунги кун қаҳрамонининг ҳаёти яратилиши лозим.

- Бугунги кунда одат тусига кириб бораётган Ғарб адабиёти таъсирида ижод қилиш анъанаси ҳақида баҳс-мунозаралар бўлмоқда. Шу Шарқу Ғарб адабиётига ҳам бир тўхталсангиз.

- Менимча, ёш авлод совет даври адабиётини рад этиш мақсадида янги бир ижодий изланишлар устида. Бу-яхши. Лекин ўзоқ вақт синалган ижодий тажрибалардан ҳам воз кечмаслик керак. Ўзбек адабиёти улкан Шарқ адабиётининг бир қисми. Бир вақтлар Гёте, Толстой сингари даҳолар Шарқ адабиётига мурожаат этишган. Шарқ адабиётини ўрганиб Гёте “Шарқу Ғарб девони”ни яратган. Толстой эса ислом динига ихлос қилиб, “Шарқ адабиётидан баҳраманд бўлиб, Европа адабиётини кўтарса, яхши самара беради”, деган ҳулосага келган.

Шу кунларда дунёнинг сиёсий – жўғрофий харитасига назар ташлайдиган бўлсак, масалан, Испания, Лотин Америкаси каби бир қанча мамлакатлар ҳам араб цивилизацияси таъсирида ўзларининг миллий адабиётини барпо этишган. Маълум даражада ҳозир ҳам уларда Шарқ адабиётининг таъсири бор. Масалан, Португалия адабиётида шарқ фалсафаси хикматлари таъсири сезилиб туради. Европа адабиёти маълум

даражада боши берк кўчага бориб қолди, таназзулни бошидан кечириятти. Ана шу таназзулдан чиқиш учун нималар қилмаяпти?!

Агар биз бир вақтлар дунё адабиётидан, Европа адабиётидан бадий – услубий шаклларни олган бўлсак, ҳозир улар яна Шарққа қайтпти. Ўйлайманки, ўзбек адабиёти ҳам ўзининг азалий манбаларига, бой классикасига, мумтоз адабиётига қайтади.

- Адабиётшунос кўпинча ёзувчи яратган асарнинг бадийлигига кўпроқ тўхталади. Адашмасам, сизнинг адабиётга бўлган муносабатингиз бошқачароқ. Чунки сиз мақолаларингизда бадий асарнинг яратилиши тарихи ва унинг муаллифи тўғрисида кенгрок тўхталасиз.

Модомики, гап адабий асар таҳлили ҳақида борар экан, адабиётдан ташқари ўша адабиётни яратган ёзувчи шахсини ҳам эътибордан соқит қилмаслик керак. Фитрат, Қодирий, Чўлпон дегенда туйғуларимиз жунбушга келиб кетади. Чунки улар асарлари билангина эмас, шахс ва чин инсон сифатида ҳам ўрناк бўлишга арзийди. Масалан, мен Ойбек, Миртемир, Шайхзодани яхши биламан. Улар ёзувчи сифатида буюк одамлар бўлишган. Энди уларга тенг келадиган одамни яқин ўртада дунёга келади ёки биз билан замондош бўлиб яшаяпти, деб ҳеч ким айтолмайди.

Ойбек Москвага борганида, Одил Раҳимий деган жуда кўп романларни таржима қилган киши: “Ойбек ака, келганимга уч –тўрт кун бўлди, пулим тугаб қолган эди”, дебди. Шунда Ойбек ака “Менда пул йўқ эди, Зарифадан сўраб кўрайлик”, дебди. Зарифа опа “Қайтиб берсангиз, бериб тураман”, деб бир оз пул берибди. У кетгандан сўнг эса Ойбек хохолаб кулибди. “Нега куласиз?” деса, “У қайтиб бермайди” дебди. “Қайтиб бермаса, ўзимиз қийналамиз. Нега буни аввалроқ айтмадингиз?” деса, Ойбек кулиб: “У мени кўп алдаган эди, сени алдаганини ҳам бир кўрай дедим”, дебди. Булар мана шунақа беғубор одамлар бўлишган. Бағрикенглик уларнинг фарзандларига ҳам кўчганлигига гувоҳман. Ойбекнинг Омон деган Бек деган ўғилларини биламан. Улар ҳам самимий, покиза инсонлар, бу дунёда одам одамни алдаб кетади деб тасаввур қилолмайди. Мунофиқлик ҳақида ўйлаб ҳам кўришмайди. Ўша авлод вақллари –Ойбек, Миртемир, Шайхзода мана шунақа одамлар бўлишган. Бугунги ижодкорлар биров ўзига бино қўйган, ички “мен”и ўта юқори, улар даврасида ўтиранг, ўзининг тенгдош, замондоши ҳақидаги фикрлари одамнинг дилига оғир ботади. Ёзувчи кристалл одам бўлиши керак. Бошқаларга у ёзувчи сифатидагина эмас, балки шахс сифатида ҳам ўрнак бўлиши лозим. Биз кўп ҳолларда ёзувчининг ижодини шахсидан айро ҳолда кўрамиз. Ўйлаб кўринг, ижодкор кўнглида, тасаввурида кечганини ёзади. Ёмон одам қандай қилиб яхши асар яратиши мумкин? Бу ҳолга баъзан “Бозор иқтисодиёти” деймиз. Ўзбек халқи ўтмишини унитамиз. Уриш йиллари, урушдан кейинги тикланиш, қурғоқчилик, зилзила йилларини унитамиз. Бугун биз халқнинг қонидаги ўша тоза туйғуларни тиклашимиз керак. Шу маънода асар қаҳрамонларининг қиёфасини таҳлил қилиш билан бирга ёзувчиларнинг

маънавий қиёфасини ҳам ўрганишимиз лозимдир. Чунки маънавий пок инсон асарида ўз дунёсини акс эттиради.

-Домла, биламан, ўзингиз ҳақингизда гапиришни хуш кўрмайсиз. Бироқ бугун ёшлик йилларингизни бир эслаб, ҳаёт йўлингиздаги биз шоғирдларга намуна бўладиган ҳодисалар ҳақида ҳам суҳбатлашсак.

-Ёшлигимда мен шеърлар ёзганман. Ҳатто қўлёзмаларимни китобчалар шаклига солиб расмлар чизиб беаба юрардим. Ҳозир ҳам анча дафтарларим бор, уларда шеърлар, ҳазил сўзлар, хотиралар, ўзим чизган расмлар бор. Шунданми, шоир бўлсам керак деб ўйлардим. Амакиваччам Муҳмудали Юнусовникига илмий раҳбари Абдурахмон Саъдий, Солиҳ Қосимов, Ҳамидулла Убайдуллаев тез-тез йиғилишиб, бир-бирларининг мақолаларини таҳлил қилишарди. Қизғин бахс-мунозаралар бўларди, мана шу бахсларни кўриб, кузатиб, адабиётшуносликка қизиқиш пайдо бўлди.

Шуни айтишим керакки, мен адабиётни санъатдан ажратиб, алоҳида тасаввур қилолмайман. Адабиёт санъат бўлганлиги сабабли санъатнинг барча турларига қизиққанман. Кичик пайтимда пионерлар саройидаги мусиқа тўғарагига ҳам қатнашардим. Унда ҳозирда машҳур бастакор Сайфи Жалилов ҳам бор эди. Кейинчалик хор тўғарагига ҳам қатнашганман. Ўша вақтлар Янги йил байрами карнаваллар, маскарадлар билан ўтар эди. Дадам ҳам Маориф вазирлигида ишлагани учун теартга тез-тез билет беришар эди. Шунинг таъсиридами, яқин ўртоғим Боҳодир Йўлдошев режиссорлик қилган кўп пьесаларини таржима қилиб берганман. Кино олишда режиссорлар билан биргаликда қатор асарлар устида ишлаганман. Ҳозиргача бир қанча шоирларнинг шеърларига мусиқа ёзганман. Шу сабаб бир вақтда мусиқа, киносценарий, театр, рассамлик ва адабиётшунослик билан шуғулланиб, шеърлар (ўзим учун) ёзиб тураман. Адабиётни санъатнинг мана шу турлари билан биргаликда, яхлитликда тасаввур қиламан.

TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TASVIR QIYOSIY TAHLIL KO'ZGUSIDA

**Yu.Karimova
JDPI dotsenti, f.f.n.**

Iste'dodli yozuvchi zamonasining ilg'or vakili, o'z xalqi, millatining quvonchiga sherik, g'am-u tashvishlariga hamdard, qulog'i hamisha xalqning ko'ksida bo'lishi barobarida uning qalbidagi hayajonini darhol sezaдigan, ilg'aydigan (A.Qahhor) bashariy taraqqiyoti, madaniy, ma'naviy, ruhiy yuksalish uchun kurashuvchi, ta'sir ko'rsatuvchi faol ijodkordir.

O'tmishni va bugunni yaxshi biladigan, hayotiy saboqlarni o'qigan va uqqan, ma'naviy yuksak, ijodiy fantaziyasi boy yozuvchining hamma vaqt o'quvchisiga aytadigan gapi bo'ladi. Yana shu zarur gapga mos keladigan shakl, ijodiy yo'sini, tasvir va talqin topmaguncha, uni mukammallikka yertkazmaguncha orom olmaydi, tinib-tinchimaydi. Shuning uchun ham Abdulla

Qahhor: “kitobni badiiy qilib mahorat bilan yozish ijodiy jasorat ko‘rsatish demakdir. Biz ijodiy jasorat degan gapni juda kam va tortinib tilga olamiz. Bu to‘g‘risida tortinmasdan, baland ovoz bilan gapirish kerak. Chinakam badiiy asar yaratish – bor kuchini, butun ilhom va qobiliyatini sarf qilish demakdir. San’atning temir qonuni, kasb-korining talabi shudir”,⁴ - degan edi.

Badiiylik san’atning barcha turlari uchun yagona mezon sanaladi. Shuning uchun ham gap san’at, adabiyot haqida ketganda “badiiy asar”, “badiiy obraz”, “badiiy talqin”, “badiiy haqiqat”, “badiiy til” kabi atamalar ishlatiladi.

“Badiiy tasvir”, ya’ni badiiy adabiyatdagi tasvir quruq emas, u his-tuyg‘ularga yo‘g‘rilgan (emotsional)dirki, shu tasvir orqali muayyan o‘y-fikr, hissiy kechinmalar ham ifoda etiladi.⁵

Adabiyotshunos olim B. Sarimsoqov aynan e’tiborini shu kechinmaga qaratgan holda: “Agar lirikada shaxs va uning tuyg‘ularidan voqelikka qarab borilsa, eposda voqelikdan shaxsga qarab boriladi. Demak, u yoki bu voqea mavjud sezgi a’zolari orqali kelgan axborotning shaxs qalbidagi tuyg‘ularga ko‘rsatgan ta’siri tufayli uning ruhiyatida jonlanish kechadi. Mana shu jarayonda harakatga kelgan tuyg‘ular aql-idrok bilan qo‘shilib, ijodkor ongida sintezlana boshlaydi - obraz tug‘ila boshlaydi. U hayotdan o‘z tuyg‘u va aqli da’vat etayotgan g‘oyani ifodalovchi voqealarni saralay boshlaydi. Demak, voqealarni tanlash, ularni muayyan izchillikda tasvirlash qahramonlar, xarakterlar faoliyati orqali kechadi.

Ijodkor ongida asarning voqealar tug‘ilishi (sujeti), ularning muayyan tartibda bog‘lanishi (kompozitsiyasi), voqealar tizimini harakatga keltiruvchi va dinamikasini ta’minlovchi personajlar, ularning faoliyati makoni va zamoni kabi badiiy ijod uchun zaruriy shartlar bajarilgach, uning eng qiyin va og‘ir bosqichi – ijodkor ongini, qalbini cho‘lg‘ab olgan yukni ifodalovchi barcha narsalarni o‘zida tasvirlovchi yoki ijodkorga epik kechinma hamrohlik qiladi”,⁶ -deydi.

Olimning fikricha, kechinma barcha kishilar uchun xos xususiy bo‘lgani holda ijodkor ruhiyatida voqe bo‘ladigan kechinma – badiiy kechinmadir. Badiiy kechinma hayotiy voqealar namunasida tug‘ilgan taassurotlarni obrazlar vositasida qayta idrok etish, jonlantirishdir. Ana shu jarayonda barkamol obraz, mukammal tasvirning tug‘ilishi uchun badiiy kechinmaning ikki qanoti – ruhiy va aqliy uyg‘unlik barqaror bo‘lishi lozim. Ayniqsa, bu uyg‘unlik tarixiy romanlarda barqaror bo‘lishi lozimligini Abdulla Qodiriy romanlariga murojaat qilish orqali yanada tushunib yetamiz.

“Tarixiy voqealar boshimda shu qadar ko‘p go‘yo qaynar, menga tinchlik bermas edi. Ammo bu voqealarni qanday qilib bir ipga tizishni, qog‘ozga tushirishni tasavvur qilolmasdim”, – deydi Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” romanining yaratilishi haqida.

O‘z booshidan o‘tgan shunday bir holatni “Navoiy” romanining muallifi Oybek she’riy satrlarda ifodalaydi:

⁴ Abdulla Qahhor. Asarlar: 5 jildlik. J5. Haq so‘zning kuchi. T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989. 123-bet.

⁵ D.Quronov va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug‘ati. T.: “Akademnashr”. 2010. 52-bet.

⁶ B.Sarimsoqov. Badiiylik asoslari va mezonlari. T.: 2004. 82-bet.

Tarix so‘qmoqlari izimdan cho‘tir,
Har bir xok shivirlar “bir lahza o‘tir”...
“Qushlar tili” piri – yurakda tilak,
Izlayman marvarid – qo‘limda elak.

Tarixiy mavzuga murojaat qilishning murakkab tomonlari ko‘pligini har ikkala yozuvchi ham yaxshi bilgan. Ijodkor o‘zi qalamga olayotgan davrni chuqur o‘rganishi, tarixiy haqiqatga to‘liq rioya qilishi, ayni paytda yaratayotgan asari badiiylikdan mahrum, quruq axborotga o‘xshab qolmasligi kerak. Undan tashqari yozuvchi tarixiy voqealarning bugungi kun uchun saboq bo‘ladigan tomonlarini topishi, uni mahorat bilan aks ettirishi lozimki, Oybek aytganidek, bu qo‘lda elak bilan marvarid qidirgan kabi mashaqqatli, nozik ish.

Tarixnavis yozuvchining badiiy tasvir yaratish mahorati, tarixiy voqea-hodisalar zamiriga qanchalik tushunib yetishi, hayot haqiqatini badiiy haqiqatga o‘ziga xos yo‘sinda o‘gira olgani qiyosiy tahlilda yanada ochiqroq namoyon bo‘ladi.

Romanning “Inqilob” bobida tasvirlangan qo‘zg‘olon bilan bog‘liq lavhalarni kitobxon hayajon va qiziqish bilan o‘qiydi. Ayniqsa, xalq g‘azabidan qochib O‘rdaga qamalib olgan Azizbek, do‘ppi tor kelgach, fuqarodan uzr so‘rashga chiqqandagi xalqning unga munosabati, Qodiriyning to‘liq ishonch bilan “aynan men yozganchadir”, degan javobini oqlaydi.

“- Sen bizlarga nima ishlarni qilmading? Kun sayin necha gunohsizlarni osdirg‘an, kesdirg‘an, bolalarimizni yatim, onalarimizni qon yig‘latqan sen emasmisan? Xanjaringni xayf ko‘rib mahallarga chayon solig‘i solg‘an, og‘alarimizni chayon zahri bilan o‘ldirgan kim edi? ket to‘ng‘iz, ket, tavba qilish zamoni o‘tdi, taqdiringga sen ham tan ber! – der edi xalq”.⁷

“O‘tkan kunlar”ning “Inqilob” bobidagi voqealari tarix bilan qiyoslanadigan bo‘lsa, 1847-yildagi Toshkent qo‘zg‘aloni yozuvchiga asos vazifasi o‘taganini ko‘ramiz. 1847-yil Toshkent qo‘zg‘aloniga kosib, hunarmand, mayda savdogarlar bilan birga Qo‘qon xonligi hukmronligidan norozi bo‘lgan yuqori tabaqa vakillari ham qatnashgan.

Adabiyotshunos Mahkam Mahmudov: “Qodiriy xalqning vahshiyona qirg‘inlarga, o‘z hukmdorlarining jabr-zulmiga qarshi qo‘zg‘alonini asarda muqarrar, qonuniy hodisa sifatida tasvirlaydi... Abdulla Qodiriy qo‘zg‘alon tasviridan tashqari, Yusufbek Hojining isyonga boshchilik qilishini tasvirlashda ham tarixiy manbalarga (Junayd Mulla Avaz Muhammad, Mulla Mirza Olim va boshqalarning asarlariga) asoslangan”,⁸ - deydi.

Tarixiy manbalarga e‘tibor qaratilsa, Yusufbek Hojining hayotda prototipi borligini ko‘ramiz. Tarixchi olim R.Nabiyevning quyidagi mulohazalari shu fikrga asos bo‘ladi:

“Mirza Olim (tarixchi – Y.K) uni Yusuf oqsoqol deb ataydi. Bundan shuni taxmin qilish mumkinki, Muhammad Yusuf to‘quvchilar ustaxonasining oqsoqoli yoki mahalla oqsoqoli bo‘lgan. Muhammad Yusufga Toshkent begining shaxsan

⁷ O‘sha kitob. 86-bet.

⁸ M.Mahmudov. Talant va ijod falsafasi. T.: G‘.G‘ulom Nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. 1976. 90-bet.

murojaat qilishi uning obro‘li odamlardan bo‘lganini isbotlaydi. Nazarimizda, Muhammad Yusuf va unga o‘xshash kishilar qoloq, shafqatsiz idora usulidan, juda ko‘p moddiy talafot keltiruvchi va odamlarning yostig‘ini qurituvchi cheksiz vayronagarchilik urushlaridan, feodal nizolardan nafratlanishgan”.⁹

1847-yildagi Toshkent qo‘g‘aloniga ana shunday insonlarning norozichiligi sabab bo‘lgan.

Demak, 1847-yilgi Toshkent qo‘zg‘alonining yo‘lboshchilaridan biri bo‘lgan Parchabof mahallalik tarixiy shaxs Muhammad Yusuf oqsoqol Yusufbek hoji obrazi uchun asos bo‘lgan. Yusufbek hoji yozuvchining g‘oyaviy-badiiy maqsadiga ko‘ra romanda nafaqat bosh qahramon Otabekning otasi ayni paytda u yurtning otasi ham. Yusufbek hoji Toshkent hokimining mushovir maslahatchisi, Toshkentning mashhur a‘yonlaridan biri. Yozuvchi Yusufbek hojining ijtimoiy faoliyatini ham, oila bag‘rida: xonadon sohibi, ota, qaynota sifatidagi tutimlarini ham shu darajada samimiyat bilan tasvirlaydiki, “Yusufbek siymosining ma’naviy quvvati romandagi boshqa qahramonlarni o‘z aurasiga tortadi. Hoji qatnashmagan sahnalarda ham uning o‘tkir nigohi seziladi, voqelikda rostlik hukmronlik qiladi. Bu qahramonning salobati bor: oz gapiradi, ko‘p eshitadi, kam kuladi, musibatdan darhol ko‘zi yoshlanadi”.¹⁰

Qodiriy qalamining aqliy va hissiy kuchi doimo muvozanatda turganki, Yusufbek hoji aksariyat tarixiy asarlarda tasvirlangandek shafqatsiz, manfaatparast, faqat xalqining ustigagina yashaydigan feodal rahbar emas. Yusufbek hoji siyosiy, ijtimoiy ongi yetuk, o‘z davrining muammolarini teran anglagan inson. U o‘zaro qirg‘inlar yurtga ofat keltirishini, qipchoq bilan yovlashish parokandalikka olib kelishini yaxshi biladi. Qipchoqlarni dushman bilib, ularga qirg‘in uyushtirayotganlarga qarata: “ ... Biz qilich ko‘targanda, o‘ris bizga to‘p o‘qlaydir. Siz dunyoda o‘zingizning yagona dushmaningiz qilib qipchoqni ko‘rsangiz, men boshqa yovni har zamon o‘z yaqinimga yetgan ko‘raman”, — deydi.

Abdulla Qodiriy o‘quvchi ko‘z o‘ngida Yusufbek hoji obrazini mukammallikka olib chiqar ekan, ma’lum bir ramzlar, ishoralar, kichik shtrixlardan ham foydalanadi. “Uni (Yusufbek hojini — Y.K) bir o‘rinda chin dildan “Qur’on” va “Daloyil” mutolaasiga berilgan kishi sifatida tasvirlaydi... Abdulla Qodiriy bunday mo‘tabar kitoblar qadr-qiymatini yaxshi biladi,. Demak, kitob mazmuni ortiga yashiringan sir-sinoatni, umummohiyatni anglab olish o‘quvchi ko‘z o‘ngida “Daloyil” o‘qiyotgan Yusufbek hoji siymosini yana serfazilat, ma’naviy-ruhiy dunyosi yanada bo‘rtib ko‘rinishiga sabab bo‘ladi. Chunonchi, Abdulla Qodiriy asarlarida mashhur kitoblar vositasida qahramonlarni yetiltirish, o‘sha ramz va ishoralar yordamida ularni tavsiflash usuli mavjud muhim adabiy-estetik hodisadir”.¹¹

“Men turmushda ko‘rmagan, bilmagan narsam haqida hech narsa yozmayman...Men bir asar yozishdan oldin shu yozmoqchi bo‘lgan narsam

⁹ Р.Набиев. Ташкентское востание. 1847г. и его социально-экономические предпосылки. “Фан” 1966 стр 76

¹⁰ В.Карим. Qodiriy nasri — nafosat qasri. Т. “O‘zbekiston”. NMIU. 2014. 30-b

¹¹ O‘sha manba.

haqidagi materiallarni puxta o'rganib chiqaman", — deya o'z ijodiy prinsipidan og'magan Qodiriy tarixnavis yozuvchining mas'uliyatini teran his etgani holda voqealar tasviriga "o'zbek tarixining hazmi ko'targan qadar" yondashdi.

Bizningcha, ana shu "tarixning hazmi ko'tarish" funksiyasi badiiy tasvirning ruhiy va aqliy uyg'unligini ta'minlagan omildir.

Yuqoridagi qiyosiy o'rganishda kuzatganimizdek, his va aqlning natijasi o'laroq yaralgan badiiy tasvir "ijodkorni faqat his-tuyg'uga berilib real hayot talablaridan uzoqlashib ketishiga... yoki umuminsoniy axloq talablaridan chetga chiqishga yo'l qo'ymaydi"¹², eng muhimi, noo'rin tanqidlar gumon va shubhalar tug'ilganda, xuddi Qodiriy kabi komil ishonch bilan "aynan men yozg'anchadir" deya javob qaytarishga imkon beradi.

SHUHRAT VA FOLKLOR

Nodira Soatova, JDPI dotsenti, f.f.n
Gulimoh Donaboyeva JDPI magistranti

Bizga ma'lumki, xalq so'z san'atining hormas ijodkori, jamiyat tarixining, mehnatkash omma orzu-umidlarining badiiy ko'zgusi bo'lib, u yozma adabiyotning taraqqiyotiga hamisha samarali ta'sir ko'rsatib kelgan. Hech kimga, sir emaski, so'z san'atining sarchashmasi bo'lgan folklor barcha davrlarda xalq hayotining doimiy yo'ldoshi bo'lib, xalq badiiy ijodining ajoyib yodgorliklari butun-butun avlodlarning ongi va fikrini o'stirish, ularning estetik didini tarbiyalash, ma'naviy dunyosini boyitishda mislsiz katta ahamiyat kasb etgan. Shoir va folklorshunos Hamid Olimjon bu xususda o'z vaqtida shunday fikr bildirgan edi: "Xalq o'z boshidan qora kunlarni kechirib turgan bir vaqtda ham yaratadi, ijod qiladi. Mamlakat qabriston tinchligiga kirgan va unda hokim feodallarning jarchilari qichqirib turgan vaqtda ham xalq yaratar edi. Reaksiyaning eng qora yillarida mehnatkash xalq orasida yuz bergan har qanday intilish bo'g'zidan bo'g'ilib turgan kunlarda ham xalq yaratar, kuylar edi"¹.

Darhaqiqat, xalq og'zaki ijodi yozma adabiyotning sarchashmasigina bo'lib qolmay, adiblarimiz hamisha suyanib, quvvat olib kelgan bitmas-tuganmas manba ham bo'lgan. Jahon adabiyotida bu buyuk manbadan u yoki bu darajada ta'sirlanmagan adib, bu ulug' ummondan suv ichmagan adabiy asar yo'q hisobi. Chunki, xalq qo'shiqlari o'zining shaklan go'zal va mazmunan teranligi, ohorli tashbehlariga boyligi va yuksak badiiyati, jarangdor va ta'sirchanligi bilan ijodkorlar ko'ngliga kirib borar ekan, bundan bahra olgan ijod ahli, albatta shu yo'nalishda ijod qilishga harakat qiladi. Bu ta'sir serqirra bo'lib, qaysi bir ijodkor ijodida birmuncha bo'rtib ko'rinsa, boshqasining asarlari mag'iz-mag'iziga singib ketgan bo'ladi.

"O'zbek xalq qo'shiqlari rang-barang janrlardan tarkib topgan bo'lib, inson tug'ilishidan tortib to hayotining so'nggi kunlarigacha bo'ladigan jamiki marosimlar, an'ana va udumlarning bari turli-tuman qo'shiqlardan iborat. Inson

¹² B.Sarimsoqov. Badiiylik asoslari va mezonlari. T.2004. 79-b

¹ Олижон Ҳ. Танланган асарлар. Уч жилдлик. 3— жилд.—Т.,1960.— Б.332.

ruhiyatining ming bir xilda tovlanishlari, hasrat– nadomati, orzu tilaklari, voqelikka bo‘lgan munosabati qalb to‘ridan buloqday jo‘shib, qaynab chiqqan qo‘shiqdarida mujassamlashgan. Azaldan qo‘shiqsevar ajdodlarimiz ijtimoiy hayotning murakkabligini, tabiat va jamiyat munosabatining sirlarini tushunishga, qalbida tug‘ilgan tug‘yonlarini misralarga jo qilishga intilgan. O‘lis yulduzlar jilosidan tortib, yangi ostonaga ibo bilan qadam qo‘ygan kelinchakka bildirilgan ezgu tilaklar hayajonini, burgut parvozi, ma‘zuma oy karashmasi, yaproqlarning osuda shitirlashini chuqur badiiy idrok etgan xalqimiz o‘z his– tuyg‘ularini qo‘shiq qilib kuylagan, o‘rtangan, yongan”².

Demak, mana shunday, boy ohangrobadek o‘ziga tortuvchi qo‘shiqdar shoiralarimiz qalbini tug‘yon urdirib, xalq ohangida she‘rlar yozishga undagan. Darhaqiqat, she‘riyat shoir timsolida inson hayotining eng muhim hodisalarini qidirar ekan, u muammolarini yechishga, topishga o‘zini chog‘laydi, buning samarasi o‘laroq xalq ijodiga yaqin, dil tortar she‘rlar yaratadi. Zero, lirikaning o‘ziga xos xususiyati unda voqea va hodisalarning shoir shaxsi orqali ifodalanishida ko‘rinadi. Binobarin, shoir shaxsi qanchalik boy bo‘lsa, ma‘naviy olami keng bo‘lsa, u olamni o‘ziga xos ko‘z bilan ko‘ra olsa uning tuyg‘ulari, o‘y va fikrlari qanchalik o‘ziga xos bo‘lsa, shuncha yaxshi. Bu sifatlar she‘rning ham o‘ziga xos bo‘lishini ta‘minlaydi. Bu holat Shuhrat she‘riyatida ham sevgi– muhabbat, qadr–qimmat masalalari o‘ziga xos tarzda ifodalashda ko‘zga tashlanadi. Ya‘ni, shoir she‘rlarining sehrini oshirgan omillardan biri uning xalq ijodida juda–juda yaqinligida ekanligini, uni ijodini ko‘zda kechirganimizda ko‘rishimiz mumkin. Shu o‘rinda Shuhrat va xalq she‘rlariga murojaat qilamiz:

**Kel, kel jonim bo‘stonimga,
Bo‘ston emas, o‘z yonimga.
Ishqing meni maftun etmish,
Jabr qilma yosh jonimga.**²

Shoirning bu she‘ri xalq ohangiga yozilgan ushbu qo‘shiqqa hamohandek, nazarimizda:

**Suv kelar guldur–guldur,
Cevganim qizil guldur.
Otam senga bermasa,
O‘lganim o‘shal kundir**³.

Bundan ko‘rinib turibdiki, Shuhrat xalq ruhi va qalbini, uning orzu– umidlarini va intilishlarigina emas, balki ayni chog‘da uning fikrlash yo‘llari badiiy tafakkuridagi o‘ziga xosligini, obrazlar olamini ham chuqur o‘rganadi. U xalqning dilidagini uning tili orqali ifodalashga erishadi. Shu tufayli ham uning she‘rlari xalq ohangiga yaqin.

² Обидова М. Кириш. Қаранг. Тафаккур чечаклари (Ўзбек халқ қўшиқлари). Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи Обидов М.–Т.:1992.– Б.4–5.

² Шухрат. Сенинг севгинг. Т.: Шарқ нашриёти, 2003 йил.–Б. 99. (Бундан кейинги шеърлар шу нашрдан олинади, бети қавс ичида кўрсатилади).

³ Шода– шода марварид. Ўзбек халқ қўшиқлари. Тўплаб, нашрга тайёрловчи, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Э.Очилов.Т.: Шарқ, 2006.–Б. 244. (Бундан кейинги қўшиқлар шу нашрдан олинади, бети қавс ичида кўрсатилади).

**Gul ochilgan bahorda kel,
Shom bo‘lmasa, nahorda kel.
Mayli yozda vaqt topmasang,
Chana haydab qish– qorda kel.**

Shoirning bu she’ri esa xalq tilida kuylanayotgan, bugungi kungacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan “Olma pishganda galing” she’riga uyqash. Qo‘shiq matniga e’tiborni qaratsak:

**Olma pishganda galing,
Teyina tushganda galing.
Angsa sochim jamalak,
Belima tushganda galing. (230)**

Demak, bu shoirni xalq og‘zaki ijodi namunasi bo‘lmish xalq qo‘shiqlarini yaxshi bilishi va undan ilhomlanganligini ko‘rsatadi, natijada “ijodkorning mevasi sifatida yangi obrazlar va ifoda tasvir vositalari maydonga keladi”¹. Shu sababli, Shuhrat tilining boyligi, ko‘p qirraligi va jozibadorligi ham uning xalqqa yaqinligidan desak, mubolag‘a bo‘lmas. U she’riyatga ohori to‘kilmagan serma’no so‘z, ibora va obrazlarni dadil olib kiradi. Shoir xazinasining boyligi eng avvalo uning tuyg‘u va kechinmalarning ko‘pligi, ilhom mavjning rang–barangligi va maqsad orzui yuksakligiga bog‘liqdir. Shoirning “Sog‘inganda” qo‘shig‘i bilan xalq qo‘shig‘i o‘rtasida og‘a–inidek yaqinlik mavj uradi, she’rga e’tiborni qaratamiz:

**Hu ko‘ringan u tog‘mikan,
O‘rtasi gul–gul bog‘mikan.
Cho‘lga ketgan yorginamni,
Tani joni oh, sog‘mikan?
Bog‘ yoqalab borsamikan?
Quchoq ochib qarshi olsa,
Qoshlarida qolsammikan?**

Xalq qo‘shiqlarida:

**Shovot yoqdan oqqan piyolamakan?
Bizni yor galmaka uyolamakan?
Bizni yor galmaka uyola qo‘ysa,
Yoki ko‘ngli mannan begonamakan?
Sochimning uchlari tasmadan–tasma,
O, qora ko‘z bola, sochimni bosma!
Aytarmishlar ikkimizni oshiq deb,
Aldab so‘rasalar, bo‘yningga olma! (102).**

Shuhrat she’rlari badiiy jihatdan g‘oyat go‘zal. Bunga sabab, shoir har bir misraning pishiq–puxta bo‘lish uchun, har bir she’rda takrorlanmas poetik obrazlar, yangi detallar topganligidadir. Shoirning mahorati yuqorida e’tirof etganimizdek, dastavval uni xalq ijodining boy va go‘zal an‘analariga tayanganida deb o‘ylaymiz. Chunki, Shuhrat xalq ijodidan o‘rganishda shunday natijaga erishganki, bunga lol qolmay iloj yo‘q: u xalq qo‘shiqlariga xos bo‘lgan

¹ Рафиддинов С. Мажоз ва ҳақиқат.Т.: Фан, 1995.– Б. 88

ruhni o‘z she’rlariga ko‘chira olgan. Natijada, uning she’rlari yangicha joziba kasb etadi, shu o‘rinda xalq qo‘shig‘i binafsha bilan shoirning binafshaga atalgan she’rini qiyoslaymiz:

**Binafshalar ochildi,
Yerga bodom sochildi.
Ul bodomni terguncha,
Qora ko‘zim teshildi.
Qora ko‘zim guloyim,
Ostonangga chiqayin.
Jonon tinib bardoshi,
Qayrildi qalam qoshi (197).**

Shuhratda esa:

**Arik bo‘yida o‘sgan,
Gunafshani teribsan.
Teribsan–u yoringga.
Kulib turib beribsan.
Gunafshada qolibdi,
Lablaringning kulgusi
“Yoring deydi quvonib:
Muhabbatning belgisi”.**

Shoirning yuragida binafsha uyg‘otgan hissiyotlar yor muhabbati bilan omuxta bo‘lib, shunchalar go‘zal manzara beradiki, bu ijodkor shuurining porloq olamiga kirib, nurafshon bo‘lib go‘zal obrazga aylanadi. Shuhratning she’rlarini o‘qir ekanmiz yoniq, jo‘shqin, pok va samimiy qalbi she’rlarida juda aniq ravon aks etganini guvohi bo‘lamiz. Shu o‘rinda adabiyotshunos S.Mamajonov fikrlarini eslab o‘tishni lozim ko‘rdik: “She’rni tushuna bilish, uning ohangini tinglab, ta’mini sezish, hidini anglab olish kerak. She’r asosida yotgan hayot va qalbni tasavvur qilmay, uning mag‘zini chaqmay va shoirning ijodiy niyatini tushunmay turib, uning to‘g‘risida hukm chiqarib bo‘lmaydi. Biror shoirni chuqur tushunmoq uchun bilishing ham, hayotiy tajribang ham, ruhing va intilishlaring ham unikiga qolishmasligi lozim. Jilla bo‘lmasa, mazkur shoir qalbining o‘ziga xos zarbi ohangini ajrata bilish va uning ruhiy dunyosi, obrazlar olamini taniy olish zarur. Chunki haqiqiy shoir she’riyatining o‘z ohangi, ruhi bo‘ladi, u kitobxonni qandaydir bir kayfiyatga, holatga tushiradi”³. Adabiyotshunosning bu ta’rifi xuddi Shuhrat uchun berilganday, nazarimda. Shoirning qo‘yidagi she’riga e’tibor qaratar ekanmiz, bunga beixtiyor amin bo‘lamiz:

**Anjir pishgan bog‘laringa olma otsam maylimi?
Ro‘paramdan o‘tib qolsang so‘zlar qotsam maylimi?
Olma otmoq bahonadir muddoyim sening o‘zing,
Yuraginga– o‘t tashlagan o‘tgan bahor sho‘x ko‘zing!**

³ С.Мамажонов.Ранглар ва одамлар. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1977.– Б. 22.

ОМОН МАТЖОН ЛИРИКАСИНИНГ ҒОЯВИЙ-БАДИИЙ ХУСУСУСИЯТЛАРИ

Манзура Пирназарова УРДУ ф.ф.н, доцент

Омон Матжон халқ қалбидан муносиб жой олган ижодкордир. Қирк йилдан кўпроқ ижодий тажриба ва меҳнат фаолиятига эга бўлган шоирнинг “Карвон кўнғироғи”, “Қуёш соати”, “Драматик дostonлар”, “Ёнаётган дарахт”, “Ярадор чақмоқ”, “Ҳаққуш қичқирғи”, “Сени яхши кўраман”, “Дарахтлар ва гиёҳлар китоби”, “Таплашадиган вақтлар”, “Минг бир ёғду”, “Ўртамизда биргина олма”, “Одамнинг сояси қуёшга тушди”, “Қуш йўли”, “Иймон ёғдуси”, “Дийдор азиз”, “Халоскор рух” каби шеърӣ, насрий, драматик китоблари чоп қилинган. Ижодкор асарларини кўздан кечирар эканмиз, инсоннинг яхшилиги, адолатсизликка нафрати, маънавий гўзаллик, эзгуликка содиқлик, табиатга ошуфталиқ, дўстликка, севги-муҳаббатга, умуман ҳаёт гўзалликларига садоқатни тараннум қилганини кўрамыз. Омон Матжон Хоразмнинг узoқ ўтмишларидан ҳикоя қилувчи шеърлари ва драмик дostonларини китобхонларга тақдим этган. Кенг жамоатчилик томонидан илиқ кутиб олинган “Минг бир ёғду” дostonи Ҳазрат Навоӣ бебаҳо ҳазинасининг шоирона талқинига бағишлангани билан ўқувчини завқлантиради. Шоир лирик шеърлар билан бирга лирик қисса ва драматик дoston жанрларида баракали ижод қилган.

Шоир лирикасида воқеа ҳодисаларни, одамлар умри ва тақдирини фалсафӣ жиҳатдан англаш ва хулоса чиқариш истаги мавжуд бўлган. Ижодининг илк даврларида шеърхонни самимий фикрлашга ундаган бўлса, кейинчалик умр ва одамлар ҳақида, ҳаёт тўғрисида фалсафӣ мушоҳадакорликка чорлаган. Маълумки, ҳақиқий маънодаги шеър шоирнинг фикри ва ҳиссиётининг уйғунлигидан юзага келади ва шу вазиятда уйғунлашув ягона бирликда намоён бўлиши поэтик образнинг характерли хусусияти ҳисобланади. Албатта, шеърдаги тафаккур ўқувчи дилида фалсафӣ аҳамият касб этиши учун умумбашарӣ мазмун касб этган бўлиши лозим. Фикримиз далили учун шоир ижодига мансуб шеърларга мурожаат қилайлик:

“Бу - ёлғон!” – кўкракка муштлади кимдир.

“Ёлғон бу...” ингранди кимдир бағри қон.

“Хм-м...ёлғон” ишшайди биров нечундир

Ким “Ҳа, ёлғон!” деди. Кимдир “Йўқ, ёлғон!”

Бири “Ёлғон!” дея кетди эрка, тўқ.

Бири “Ёлғончи!” деб оҳиста кўнди.

Шундоқ битта рост сўз айтилгунича

Ким қанча жонларнинг умиди сўнди. [2; 21]

Омон Матжон юқоридаги шеърда виждон покизалиги ва адолатсизлик масаласини бош мавзуда кўрсатишга ҳаракат қиларкан, ҳар бир сатрдаги фикр ҳаётӣ асосга эғалиги ҳис-туйғулар ҳаракатининг табиӣлигини таъминлайди, яъни ижодкор шу ўринда адолат ва адолатсизликнинг

ҳаётдаги аниқ кўринишини ёритади: *“Қадимда бир юртнинг нодон ҳоқони Варрак кашф этганнинг тўкибди қонин”*. Бу каби сатрларда манзара яққол кўз олдимизда намоён бўлади Ҳаётдаги воқелик жараёнларининг асоси инсонларнинг ўзаро мунасабатига ва фаолиятларига боғлиқлиги, уларни одамларнинг ўзлари юзага келтиришини очиб беради.

“Эҳ, бир шайтон урди”, дейсан ҳар сафар,

Ўзингга олмайсан айбни ҳеч маҳал.

Мундоқ қараб турсам бутун вужудинг

Шайтанатга ўнглаб қурилган шаҳар. [1; 25]

Кўринадики, мазкур шеърда шоир жамият ва инсонлар олдида ўзини доимий маънавий масъул сезади. Масъулият ҳисси шоир шеърларида яхшилик ва ёмонликнинг маънавий ҳамда ижтимоий асосларини излашга даъват этиб туради: *“Тенглик йўқ жойларда ёмондир қисмат, Тили омон бўлса ўлмайди миллат”*. Омон Матжон шеърӣ сўзни ўзига хос тарзда қўллайди. Шоир сўзни шундай ишлатадики, унинг маъноси ўқувчи наздида кенгайгандек бўлади. Ёмон феълли одамнинг тубан қилмишларидан ўша одамни ўзини огоҳлантираётгани кўриниб турган юқоридаги сатрларда маъно ва ифода халқ жонли тилининг таъсирида эканлиги натижасида шеърӣ ифода янада тушунарли бўлган. У руҳи уйғоқ шоир сифатида дунёни, инсонлар қалбини тозаламоқ мақсадида қалам сурди. Омон Матжон одамлар феъл-атворидаги иллатлар билан келишмай яшади. Унинг қуйидаги сатрлари шундан далолат беради:

Терс феълли кимсалар кимнинг зурёди,

Тағин ҳар бирининг бордир устои!

Покдил эл “Ё ҳақ!” деб ружу қилганда

Буларнинг нимада бўларкан ёди! [1; 21]

Инсонлар феъллидаги камчиликлар боис шоир кўнгли сира тўлмайди. Омон Матжон шеърларидаги фалсафӣ фикрлар ҳаётӣ фактлардан юзага келади. Айниқса, ижодкор умрни, воқелик жараёнларини, замондошларини кузатаркан, инсон умри, унинг маънавий гўзаллиги билан боғлиқ ҳаёт гўзалликларининг туйғуларга бой ҳолатларини яратади. Албатта, ана шу руҳӣ ҳолатлардан фалсафӣ фикр намоён бўлади.

Бу ғурбат даштидан нечук ўтдим мен,

Кимларга ишониб жадал этдим мен?!

Изимга қарасам жилмайиб турган

Ишқ билан Имонни идрок этдим мен.

Ижодкор одамларни нафс исканжасидан қутқармоқни ва тўла комил бўлишини истади. Шоир шеърятининг ҳар бир ҳужайрасидан ҳаётни ва воқеликни, қалб ҳақиқатини идрок этишга бўлган хоҳиш намоён бўлиб туради. Адабиётшунос Қ. Йўлдош шундай фикрларни келтиради: *“Маълумки, ижодкор қандай образни қаламга олмасин, аслида ўзини тасвирлайди. Ҳар бир одамга олам боридай эмас, балки ўша одамнинг айни дамдаги ҳолату кайфияти кўтарганидай кўринади”*. [3; 117] Омон Матжоннинг *“Қисқа мулоқотлар”* деб умумӣ номланган тўртликларида

шундай сатрларни кузатдикки, шоир кичик бир ҳаётий деталдан ижтимоий воқелик, умр, ҳаёт тўғрисида кенг умумлашмали поэтик хулосалар чиқариш воқеа-ҳодисалар тасвирини бир нуқтага йиғиб, хулосалашга интилиш ижодкор учун характерли хусусият эканлигига амин бўлдик.

Қай кун синчиклаб боқдим бир қушга:

Нафси деб тутилди олакўз Мошга!

Минг шукур, худойим, қорин бермабсан

Мендаги қанотли хаёлга – хушга! [1; 20]

Омон Матжон шеърларида кўзга ташланадиган одамлар табиатидаги яхшилик, маънавий тўқислик, баркамоллик каби хусусиятлар аҳамиятлидир. Шоир талқинидаги лирик қаҳрамон эзгулик, гўзаллик каби миллат кишиларининг нурли фазилатларини ўзида мужассамлаштирган замондошимиз қиёфасида гавдаланади: *“Яшаш, бу - умрнинг гулгун дамларин Эл учун яшамоқ, эл учун бермоқ”*. Омон Матжон шеърларида гавдалантирилган инсон образи умрнинг моҳияти, инсоннинг ҳаётдаги ўрни, табиат ва жамият ҳақидаги фалсафий мушоҳадалари билан йўғрилган. Бундай ҳолат, айниқса, серташвиш ва ҳаловатсиз дунёдаги замондошларимизнинг кечинмаларини ҳамда ҳаётини тасвирлашга йўналтирилган: *“Дарёни опичиб турган тоғу тош Бари дард билган бир одамча йўқдир”*. [2;9] Буюк ва оддий инсонларнинг қалб гўзалликларини, замон, умр, халқ, одамлар тақдири ва келажаги билан боғлиқлиги, ватан олдидаги бурчи каби мавзулар шоир ижодининг асосий мазмунини белгилаб беради.

Кўринадикки, Омон Матжоннинг шоирона услубини белгиловчи муҳим омиллардан бири – чуқур ва пурҳикмат фикрлардан иборат ички драматизмдир. Адабиётшунос М. Қўчқорованинг мақоласида келтирилганидек, шоир Ватанимиз тарихи, маданияти, урф-одатлари, фольклорини, ўзга халқлар тарихини чуқур биладиган, бир сўз билан айтганда, катта билим ва тафаккур эгасидир. [4;] Юқорида шоир ижодидан келтирилган мисолларда бу кирралар ёрқин кўринадик. Адабиётшунос Умарали Норматов уни “Омон – жаҳонгашта шоир”, деб таърифлаган эди. Биламиз, шоир кўп дунё кўрган, кўп инсонлар билан танишган, уларнинг ҳаёти, дарду изтиробини чуқур ҳис этган ижодкор сифатида кўз олдимизда намоён бўлади. Омон Матжон шеърларида халққа яқинлик, рамзийлик, ижтимоийлик, насрга хос кенг тасвирни шеърӣ йўлда ифодалаш, ҳақиқатпарастлик, давр фожиаларини, инсон дардини дадил айтиш жиҳатлари ёрқин намоён бўлади.

Умуман олганда, янги давр ўзбек шеъриятида ўзининг овози ва ўзининг услуби ила алоҳида ажралиб турадиган миллатимиз шоири билан халқимиз фахрланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Омон Матжон. Иймон ёғдуси. Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1995.

2. Омон Матжон. Минг бир ёғду. Тошкент. Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1989.
3. Қозоқбой Йўлдош. Сўз ёлқини. Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018.
4. Кўчқорова М. Ўзим-ўз қалбимнинг бўлсам Колумби. // Шарқ юлдузи. 2013, №1 .

ОЙДИН ҲОЖИЕВА ШЕЪРИЯТИ БАДИИЙ ЖОЗИБАДОРЛИГИ

Дилнавоз Салимова, ЖДПИ, ф.ф.ф.д (PhD)

Ижодкорнинг ҳаёт ҳодисалари асосида шахсий табиатини намоён эта олиши, олами тафаккур ва идрок қилишдаги ўзига хос ёндашуви ва тасаввури бадий асарни яратишидаги асосий омиллардан саналади. Чунки таъсирчанлик, кузатувчанлик, тасаввур ҳамда идрок ижодкор тасаввурини юзага келтирибгина қолмасдан, шунингдек, маълум даражада бойитиб боради ва шу аснода асар муаллифи ҳақидаги китобхон тасаввурини ҳам уйғотади. Китобхон наздида шоир ёки адиб қиёфасини инкишоф этади. Ҳақиқий лирика “самимият билан ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлган омиллардан биридир. Шунинг учун ҳам ҳар бир лирик шоирнинг ўз қалбини самимий ифодалаш қобилиятини ҳар қанча ардоқласа ва қўллаб-қувватласа арзийди” [5,76-б.].

Ўзбек шоирларининг (хусусан, ўтган аср ва ҳозирги замон) ижодига мансуб бўлган мавзулар турфалиги шоирларимиз шеъриятининг умумийлик ҳамда ўзаро муштараклик хусусиятидан гувоҳлик берса-да, бироқ ҳар бир ижод соҳибаларининг бир-биридан ажратувчи ўзига хослик – индивидуаллик қирралари намоён этилади. Ушбу алоҳида кўзга ташланиш қалам соҳибалари тафаккур оламининг қай йўсинда бадий намоён бўлгани боис ўзига хосликни юзага келтиради. Чунончи, шеърият бўстонида кўплаб шоирларга ибрат ва маҳорат мактабини ўтаган Зулфияхоним ижодининг гултожиси саналган муҳаббат, вафо-садоқат руҳидаги манзумалар Ҳалимахоним, Зулфия Мўминова, Қутлибека Раҳимбоева, Фарида Афрўз, Сайёра Тўйчиева, Шахло Аҳророва каби нозик қалб эгаларининг кўнгил мулкида бетакрор тараннум қилиниб, янги қиёфа ва мушоҳада касб этади. Айтиш жоизки, ўзбек шоирлари бадий олами умумий поэтик полотнода кўнгил изҳорлари бир юртнинг, бир даврнинг фарзандлари экани ўлароқ муштарак жиҳатлари шоирлар тазкирасини ташкил этади, бироқ, уларнинг тафаккурий оламлари ҳар бири алоҳида бир бадий ҳодиса сифатида бири иккинчисини такрорламайдиган шеърий тадқиқот вазифасини ҳам ўтайди. Гўё ушбу поэтик тафаккур меваси турли рангларда омукталанган, камалакни эслатади. Дарҳақиқат, шоир қалбидаги тафаккурий олам у эгаллаган ҳаёт материалининг поэтик мушоҳадаси ва бадий тадқиқи, деб ўйлаймиз. Фикрларимиз асоси сифатида Ойдин Ҳожиеванинг шеърларига мурожаат қиламиз. Ўзбек шоираси Ойдин

Ҳожиёва шеърятига баҳо бераркан, адабиётшунос В.Зоҳидов: “...Ойдин ижтимоий воқеликдаги деярли барча муҳим соҳаларнинг тегишли поэтик тадқиқоти - ифода ва акс-садоси бор” [2, 338-б.], дея таърифлайди.

Сир эмаски, лирик қаҳрамони – дунё аҳволидан хабардор, юз бераётган ижтимоий воқеалар моҳиятини англаган, ўзгарган шароитда яшаш ва равнақ топиш шароитларини биладиган, миллатнинг ҳолига бефарқ қарамайдиган юрт ташвиши учун қайғурадиган инсон тараннуми Ойдин Ҳожиёва шеърятига хосдир. Шоиранинг ишқий шеърларини оламизми, ёки ижтимоий поэзия намуналариними, анъанавий, бироқ ўз услубида ёзилган шеърлари ёки янгиланиш изланишларими - поэтик талқинларида “лирик мен”ининг қалби сураatlаниб туради. “Назокат” шеърӣ тўплами муқаддимасида Ойдин Ҳожиёванинг тафаккурий идроки бадиӣ-эстетик ифода этилган сатрлари биз таҳмин қилган шоира поэтик тадқиқотига гўё эпиграф вазифасини ўтаётгандек таассурот қолдиради:

Ўзин ўтга урган парвонадурман,
Парвона феълимдан афсонадурман.
Найқамиш дилимни агар ошиқлар
Чалсалар бир дардли таронадурман.

Эл меҳрин айладим жонга кўзмунчоқ,
Юртимда бир Ойдин нишонадурман [4,8-б.].

Биз юқорида санъаткор учун муҳим саналган кузатувчанлик ва таъсирчанликнинг ўта муҳим омиллардан эканини таъкидлаб ўтган эдикки, ҳар қандай назм навоси санъаткор кузатуви ва ҳаёт ҳақиқатидан тасирланиш асносида юзага келади. Ана шу таъсир оний лаҳзаларда осмон чақмоғидек бир ярқ этади-ю, ўзининг борлигини кўрсатади. Ушбу кўзга кўринмас, аммо оний лаҳзада барчани эътиборини тортган табиат ҳодисаси наздимизда санъаткор илҳомида ҳам шундай содир этилади. Жумла шоир қалбида яратганнинг инъом этган ушбу ноёб ҳодисаси илҳом деб аталади. Эътиборга молик масала – ана шу илҳомнинг ҳам муҳаббат, вафо-садоқт мавзулари сингари шоиралар ижодида албатта тилга олинмасдан қолмайди. Илҳом – образ, ҳар кўнгилда ҳар ифода тарзида намоён бўлгувчи, назм саройига олиб кириб, фақат эзгулик сари чорлайдиган сирли ҳолат Ойдин Ҳожиёва шеърида ҳам акс этади:

Қайлардасан, камнамо илҳом,
Кийик бўлиб чўлларга қочдинг?
Ё мен билмай қолдим: намозшом
Марваридинг кўлларга сочдинг?
Дўсту душман орасин очиб,
Ҳабиб айла, дўст айла бир йўл.
Тандан жондай юрмагил қочиб,
Кел, Ҳизрдай, чўзгил менга қўл!

Мазкур сатрларни ўқиганимизда мумтоз шоирларимиз Ойбекнинг илҳомни *соз* образида тонг юлдузига, Ҳамид Олимжон илҳом парисини хуркак охуга менгзагани ёдимизга тушади:

Ойбек: Уйғонгач, умрнинг илк баҳори,
Соз бўлди кўнглим самимий ёри.
Ҳамшира каби қин ва дилбар,
Тонг юлдузидек умидга ундар [3,234-б.].

Ҳамид Олимжон: Ишим бордир ўша оҳуди,
У менга кўринур ҳар замон,
Фикримни чулхайди беомон,
Ишим бордир ўша оҳуда [6,189-б.].

Фарида афрўз тасбеҳларида илҳомнинг ноанъанавий шаклидаги қисқа, бироқ аниқ ифодасини учратамиз:

Туннинг танобини тортиб,
Тонгнинг шаробин ичиб –
Шеър ёздим! [1, 89-б.]

Панд-насиҳат руҳидаги назм намуналари Ойдин Ҳожиева ижодининг маънавий мукамаллик даражасини белгилаши билан ҳам эътиборимизни тортади. Чунончи, “Танбех”, “Теша бобо айтар ривоят”, “Бу сахар, бу сахар мунаввар” сингари шеърларида шоира тафаккурий дунёсининг ҳикматларга мойил анъанавий бадиий чизгилар замона руҳида қайта тикланади:

Шоирлар ўлса, Ватан деб ўлгандир,
Ватан ҳажрида паймонаси тўлгандир.
Муқаддас дарахтдир аслида Ватан,
Яшил баргидай шоир ўз шоҳида сўлгандир...

Шоиранинг панднома туркумига монанд шеърлар шодасида диний маънавиятга дохил мавзу-моҳият китобхонни умр қадри-қиммати ҳусусида теранроқ фикр юритишга ундайди, яъни “Қадр кечаси”нинг савоб олиш фурсати-имконияти эканининг ўзи бир улкан кадр эканлиги яратган бир инъомидир дея идрок қилинади:

Юрагинг тубига қарагил:
Аллоҳдан мўъжиза бу манзил
Айт, хою ҳавасми ё ҳасад,
Инсофми, меҳрми, диёнат,
Озорми, эҳсонми ё хислат,
Не бор бу мулкатда омонат?
Эй ғафлат бандаси кўзни оч
Ўзингга ўзингсан тилмоч:
Иймонни маҳак тош қилурсан,
Мисмисан, кумушсан – билурсан...

Фикр ҳаққонийлиги, ҳаётийлиги, мазмундорлиги, кўтаринки руҳни ва албатта таъсирчанликни ошириб юборовчи шеърлари, шунингдек, “Алмисокдан қолган бу дунё”, “Эътиқодимсан, халким”, “Топган ноним она сутим каби ҳалолдур” деб номланувчи ва бошқа шеърлари лирик қаҳрамони эл-юртига меҳр-муҳаббати билан боғланган Ойдин Ҳожиеванинг - ўзининг қиёфасида гавдаланади. Чунки, Ойдин Ҳожиева тафаккурий

оламида шоиранинг кучли, кудратли иродаси ва одамларга нечоғли керак эканлигини ҳис қиламиз. Шоира ўзи эътироф этганидек: “Шеърят – одамларнинг юрагидан кимё излашга ўргатди” [4, 8-б].

Фикрларимиз хулосасида айтмоқчимизки, шеърятга хос устувор жихатлар фикр ва туйғу бирдамлиги ўлароқ китобхон юрагига бориб қуйиларкан, санъаткорларнинг туйғу тажассумида нафосат, назокат, ҳайрат торларини чертишга бел боғлайди, фикрий ифода эса ҳикмат, дунёқараш сарҳадларини кенгайтириш кучига эга бўлади. Шу боис, шоира тафаккурий оламини туйғу билан қоришиқ бадий тадқиқот дейишга арзийди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Бўтаева Фарида Афрўз. 7 тасбеҳ ёхуд 1001 кеча. – Т.: Pravo-press., 2020. – 336 б.
2. Зоҳидов В. Ойдин “Навос”си. / Адабиёт ва замон.-Т.: Адабиёт ва санъат, 1980. – 360 б.
3. Ойбек. Танланган асарлар. Шеърлар, поэмалар. –Т.: Бадий адабиёт., 1957. – 376 б.
4. Ойдин Ҳожиева. Назокат. Шеърлар, достон, қасида, бадиалар, ўйлар. – Т.: Шарқ, 2007. – 160 б.
5. Шарафиддинов О. Гўзаллик излаб. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1985. –226 б.
6. Ҳамид Олимжон. Мукамал асарлар тўплами. Биринчи том. Шеърлар. 1925-1944. – Т.: Фан, 1979.- 404 б.

ИЖОДКОР ЛАБОРАТОРИЯСИНИ ЎРГАНИШ ЭҲТИЁЖИ (ШУКУР ХОЛМИРЗАЕВНИНГ ШАХСИЙ АРХИВИ АСОСИДА)

Янгибоева Нодира УРДУ тадқиқотчиси

Маълумки, адабиётшуносликда ижодкор лабораториясини ўрганиш, бинобарин адибларнинг шахсий архивидаги қўлёзмалар, бир асарнинг бир неча вариантлари, кундаликлар, қайдлар, хатлар, ёзувчининг таржимаи ҳолига доир ёзувлар, ҳужжатлар барча-барчаси катта аҳамиятга эга. Бундан ташқари, бирор адибнинг ҳаёти ва ижоди, асарларининг яратилиш тарихи, образлар ва сюжетларнинг ҳаётий заминини аниқлаштиришдаги ёзувчининг яқинлари, дейлик, фарзандлари, қавм-қариндошлари, бир сўз билан айтганда, замондошларининг хотиралари ҳам муҳим аҳамиятга эгадир. Аммо баъзи хотира ёзувчилар “йўқ” ёки “бўлмаган воқеаларни” ҳам “ўзларини асосий қаҳрамонга айлантириб” хотира ёзишга уринадиларки, бундай типдаги битикдаги битиклар ёзувчининг ҳаёти ва асарларининг биографиясини ойдинлаштиришда чалкашликларга йўл очади.

Ўзбек адабиётшунослигида Чўлпон, А.Қодирий, А.Қахҳор, Ойбек, Ғ.Ғулом, Ҳ.Олимжон, Зулфия, Миртемир, Ш.Холмирзаев каби ўнлаб ижодкорлар ҳақида адабиётшунос олимларимиз кўламли тадқиқотлар яратилган. Олимлар яратган мазкур монографик тадқиқотларда ижодкорларнинг ижодий лабораторияси ниҳоятда теран ўрганилиб, тадқиқ

этилган. Юқорида айтилганидек, олимлар ижодкор шахснинг ҳаёти ва ижодини тўлақонли очиб бериш мақсадида, уларнинг шахсий архивига доир нимаки бўлса, ўрни-ўрнида фойдаланиб, асарларининг яратилиш тарихини, бир сўз билан айтганда, ижодкор лабораториясини батафсил очиб беришга муваффақ бўлишган. Хусусан, Н.Каримов Чўлпон, Ҳ.Олимжон, Мақсуд Шайхзода, Миртемир, Зулфия каби XX аср адабиётининг йирик адиблари ҳақида йирик монографик тадқиқот яратган бўлса, О.Шарафиддинов, М.Қўшжонов, У.Норматов, Р.Қўчқор, Н.Зиёдуллаева, О.Жўрабоев, М.Қўчқоровалар А.Қаҳҳор ижодий лабораториясини очиб беришга уринишди. Қодирийшунослик соҳасида М.Қўшжонов, Н.Каримов, У.Норматов, Б.Каримов, С.Тўлагановалар Абдулла Қодирий ҳаёти ва ижодининг янги қирраларини, ёзувчининг бадиий маҳорат сирларини очиб беришди. Академик Б.Назаров “Ғафур Ғулом олами” монографик тадқиқотида адибнинг ижодий лабораториясини янгича нигоҳ билан кузатиб, таҳлил этишга муваффақ бўлди.

Мазкур мақолада Шукур Холмирзаев шахсий архиви, жумладан, “Олабўжи” романининг қўлёзмалари ҳақида маълумот беришни режалаштирганмиз. Адиб ижоди шўро даври адабиётшунослигида ҳам, ундан кейин ҳам кўплаб тадқиқотчи олимлар томонидан жиддий равишда ўрганилиб келинмоқда. Масалан, У.Норматов, О.Тоғаев, Ҳ.Каримов, Ш.Дониёрова, Г.Тилова, О.Тошбоев, М.Қўчқорова, О.Сафаров, К.Шаҳобов каби кўплаб адабиётшунослар томонидан ўрганилди. Бу олимларнинг баъзилари тақриз мақолалар, баъзилари диссертацион ишлар, баъзилари монографик тадқиқотлар, адабий портретлар яратишди. Хуллас, қилинган ишларнинг барчаси Шукур Холмирзаев ҳаёти ва ижодининг қай бир қиррасини ўрганишга хизмат қилади. Аммо шу яратилган тадқиқотлар орасида О.Тошбоевнинг “Абадий замондош” монографик тадқиқоти ўзининг қўламдорлиги ва мазмундорлиги билан алоҳида ажралиб туради. [3.] Тадқиқотчи Ш. Холмирзаевнинг ҳаётда ва ижодда қандай шахс бўлгани, кўпгина асарларининг ёзилиш тарихини ойдинлаштиради, образларининг прототиплари ҳақида жуда қизиқарли ва янги маълумотлар бера олиши билан ўқувчининг диққатини ўзига тортади. Шунингдек, Шукур Холмирзаевнинг ҳеч кимникига ўхшамаган феъли-атвори, асарларидаги табиат ва жамият муносабати, шартли символлар, икки тузум ўртасида аросатда қолган одам образи ниҳоятда теран бадиий тафтиш этилгани, образларнинг ҳаётий асослари каби қатор ижодкор лабораториясини очиб беришга хизмат этувчи “Шукур Холмирзаев замондошлари хотирасида” тўплами, адибнинг севимли қизи Сайёра Холмирзаеванинг хотира китоби ҳам бу соҳани янада теран ўрганиш учун асосий материал, ҳужжат бўлиб хизмат қилиши шубҳасиздир.

Шукур Холмирзаевнинг шахсий архиви қизи Сайёра Холмирзаева ва аёлининг уйида сақланади. Шу масала юзасидан адибнинг қизига мурожаат қилганимизда, Шукур Холмирзаевнинг қўлёзмалари, “Олабўжи”, “Қил кўприк” романлари, “Наврўз”, “Алпомиш”, “Қушлар қишловдан қайтди”,

“Ўзбекбобо” каби ўнлаб ҳикоя ва эсселарининг бир нечта вариантларини кўрсатиб, тақдим этди. Ҳозирча, биз аниқлаган маълумотларга кўра “Қил кўприк” романининг 4-5 та варианты, “Олабўжи” романининг 3-4 варианты ва бошқа ҳикоя ва эссе, адабий мақолаларининг ўнлаб вариантлари борлиги аниқланди.

Назаримизда, бугунги адабиётшунослигимизда кечаётган янгича таҳлилий методлар моҳияти Ш.Холмирзаев ижодий лабораториясини ана шундай ўрганиш ва тадқиқ этишга ундамоқда. Адабиётшунос М.Кўчқорова “Бир мактуб тарихи” тадиқотида Шукур Холмирзаевнинг Абдулла Қаҳҳор назарига тушган “Тўлқинлар” қиссасининг журнал ва нашр вариантыни қиёслаб, ўртадаги фарқлар, тафовутларни аниқлаштириб, бир қисса устидаги адиб заҳмати, ижодкор лабораториясини очиб берган эди.[6; 7.]

Биз адибнинг қизидан фотонусхаларни тўлиқ равишда олган “Олабўжи” романи қўлёзмалари ҳақида тўхталамиз. Адиб таъбири билан айтганда, ушбу “Романдан катта ҳикоя”да 80-йилларнинг охири ва 90-йилларнинг бошларидаги шароит қамраб олинган. Агар асар совет даврининг сўнгги йиллари тасвири билан бошланса, Ўзбекистон мустақиллигининг дастлабки кунларидаги ўзгаришлар манзараси билан хотималанади.”

“Олабўжи” романи 1991– йилда ёзилган, ушбу асар илк бор “Шарқ юлдузи” журналининг **1992–йил 1-2-3-4 сонларида** жамоатчилик эътиборига ҳавола қилинди. “Олабўжи” романи араб рақамлари асосида бобларга бўлинган. Асар 137 қисм ва хотимадан ташкил топган. Ёзувчининг шахсий архивини ўрганиш жараёнида шу нарсани аниқладикки, мазкур роман “Шарқ юлдузи” журналининг нашр вариантыга, бир нечта вариантларда ёзилган. Адибнинг қизи Сайёра Холмирзаеванинг шаҳодат беришича, ёзувчининг ҳаётидаги кўча-кўчлар туфайли, қўлёзмаларнинг барчасини тўлиқ ҳолда сақлаб қолиш имконсиз бўлгани сабабли, романнинг илк қоралама вариантлари сақланиб қолмаган. Аммо романнинг роман шаклида шаклланган ҳолатидаги иккита қўлёзма тўлиқ ҳолда сақланган. Ушбу нусхаларнинг бирида роман матни тўлиқ ҳолда, яна бир қўлёзмасида эса тўлиқсиз ҳолда, аниқроғи, 45-саҳифадан кейинги қисмлар сақланиб қолган. Маълумки, журналда асар “романдан кичик ҳикоя” деган изоҳ билан берилган. Ёзувчи романи нега бундай таърифлагани бизни қизиқтирди. Ушбу саволимизга “Абадий замондош”дан жавоб топдик. Адабиётшунос олим ф.ф.н Олим Тошбоевнинг адиб билан суҳбатида “Шукур ака, мана “Олабўжи” романингиз ҳам ўз ўқувчилари қўлига бориб тегди. Аммо шуниси ажабланарлики, асар “романдан катта ҳикоя” деб аталган. Бу нимагадир ишорами, ё...” [3. Б. 453.] - дейди. Устоз адиб бунга жавобан роман “Шарқ юлдузи” журналининг ҳали тўлиқ вариантда эълон қилинмаганини, 7- 8 боби журнал имкониятини ҳисобга олиб, қисқартирилганини маълум қилади ва “романдан кичик ҳикоя” таърифининг сабабини қуйидагича изоҳлайди: “Нисбатан мукаммаликка эришиш учун ўзимни алдаброқ йўл тутдим. “Ҳикоя” деб атадим. Ҳикоя

деганда одам ўзини тутиброқ, улоқиб кетмайроқ, лўндани гапириб, тасвирга муносабатда ҳам ўзини чеклаб ёзади.” Демак, ёзувчининг жавобидан маълум бўлмоқдаки, “Олабўжи” романининг 7-8 боби бироз қисқартирилган шаклда журналда чоп қилинган. Афсуски, мазкур роман адибнинг ҳаётлигида ҳам, вафотидан кейин ҳам китоб шаклида чоп этилмади. Ёзувчининг ўз эътирофларидан сўнг, “Олабўжи” романини журнал вариантыни эмас, шахсий архивидаги тўлиқ матни асосида китоб шаклида бугунги китобхонлар ва адабий жамоатчиликка тақдим этиш лозимлиги аёнлашди.

“Шарқ юлдузи” журналидаги роман матни билан “Олабўжи”нинг кўлёзма варианты фарқлари, қайта ишланган ўринлари асарнинг илк саҳифаларидаёқ кўзга ташланади. Масалан,

Журнал вариантыда 1- боб қуйидагича бошланади:

“Ултон Эрнест Сетон Томсоннинг “Кўнғир айиқ” қиссасини ўқиб бўлиб, ўйланиб ётган эди, телефон жиринглаб юборди. Йигит қандайдир махлуқ чинқириги эшитилгандай чўчиб тушиб, аланглади”. [5.]

Кўлёзма вариантда эса 1- бобдан олдин эса қуйидаги тасвир ва диалог келтирилган:

“Стол чирोगи қалпогини чўгдек яшнатиб турибди. Унинг ёнидаги мис столда

Ноз-неъматлар-у, ишиалар ҳам қизғин ранг олган. Хонанинг тўрида-диванда қорни чойшабни кўтариб юборган йўгон бир киши чалқанча ётганча сигарет чекапти. Унинг биқинида сўлқиллаган бир жувон ёнбошлаб ётибди. Кўзлари гамгин. Гиламдаги магнитофон унсиз, аммо чирोगи ёниқ.

-Тўқлибой ака, мени энди эрга бермасангиз бўлмайди, - деди жувон.- Алоқамизни билмаганлар кам қолди, укам ҳам сезган...

Тўқлибой ака, бошини буриб, унга тикилиб қолди-да:

- Умуман, тўғри ўйлабсан, - деди. - лекин кимга берамиз сени? Биронта кўз остингга олганинг борми?

- Менга барибир, - жавоб берди жувон. Анави қишлоқда битта дарвеш яшайди, ҳали уйланмаган.

- А-аа, Ултонми? - У бироздан кейин сигаретини магнитофон қошида ётган кулдонга босиб эзди ва жувоннинг елкасидан ўпди. - Бўлади. Фақат характери қалтисроқ демасанг...” [4. Б. 20].

Фикримизча, адиб мазкур очиқ саҳнани роман кўлёмасидаги ҳолида журналга тақдим этмаган. Бу лавҳа журнал вариантда асар ичига сингдириб, юборилган. Бундай тафовутли ўринлар бир неча бобларда кузатилади. Бу борадаги илмий изланишимиз ҳали давом этади.

Дарвоқе, “Олабўжи” романи кўплаб адабиётшунослар, танкидчилар эътиборига тушди. Роман ҳақида бир-бирига қарама-қарши фикрлар пайдо бўлди. Жумладан, Санжар Содиқов романга тақриз ёган филология фанлари доктори И.Мирзаев фикрига қарши чиқиб: “Асар композицион жиҳатдан номукаммал ва тарқоқ чиққан. Шунга қарамай, филология фанлари доктори И.Мирзаев ўзининг «Ўзбекистон адабиёти ва саноати»

газетасида чиққан тақризида бу асарни бутунича ижобий баҳолаган. Аслида „Олабўжи“ асари ҳам худди “Йўловчи” романи каби Ш.Холмирзаев ижодида ўткинчи бир воқеа бўлиб қолади, чунки у бадиий жиҳатдан жуда заиф чиққан,” [2. Б. 665].

- дея иддао қилади. Бизнингча, С.Содиқов каби “Олабўжи” романи ҳақида кескин салбий хулоса чиқариш ножоиздир. Чунки асарда Тўқлибой Қўчқоров мисолида олабўжидан баттар тубан, маънавияти, ахлоқи кир босган, кўрқинчли кимсалар фош этилса, тоза руҳиятли инсоннинг қандай қилиб, жинни ҳолига тушиб қолиши, руҳий оламининг бузилиши асар воқеалари давомида очиб берилади. Бундан ташқари, асарда жамиятнинг жуда кўп муаммолари, халқнинг тили-ю дилида турган гаплар қаламга олинади. Жумладан, асарда ўрта мактабларда билим беришнинг пастлиги, ўқувчилар ва ўқитувчиларнинг саводсизлиги, ўқув бинолари таъмирлашга муҳтожлиги, хотин-қизлар аҳволининг ночорлиги, чўпонлар турмушининг заҳматлари, тиббий хизматининг қоникарсизлиги, болалар ўлимининг кўплиги, тиббий асбоб-ускуналар, дори-дармонлар етишмовчилиги муаммолари ҳам қаламга олинади. Шунингдек, асарда тарихга назар солиниб, ўлкамизнинг руслар томонидан босиб олиниши, мустамлакачиликнинг моҳияти ва оқибатлари, турғунлик ва қайта куриш йилларининг турли-туман қирралари, иллатлари, даҳшатлари ва фожиалари, бугунги куннинг афзалликлари ҳақида ҳам кўплаб фикр-мулоҳазалар, қарашлар, ҳис-туйғулар ҳам ифода қилинади. Бир сўз билан айтганда, Шукур Холмирзаев “Олабўжи” романида ўтиш давридаги Ўзбеклар ҳаётидан ҳикоя қилган. Шу жиҳатдан қаралганда, бу асарнинг келажак авлод ичида китобхонлари бўлишига ишонаман. Агар бу асар чоп қилинса, айна мақсад сари асосий қадам қўйилган бўлар эди. Ш. Холмирзаев асарларининг бу каби очилмаган қирралари ниҳоятда кўп. Уларни ўрганиш, тадқиқ этиш ёш олимлар олдида турган вазифалардан бири эканини юқоридаги фикрларимизнинг ўзи яққол кўрсатмоқда. Зеро “ёзувчиларнинг шахс ва ижодкор сифатидаги хусусиятларни, уларнинг шоир ёки адиб бўлишига туртки бўлган омилларни, яратган асарларида ўз-ўзини оддий инсон кўринишида ўрганиш фойдадан холи бўлмайди. ...” [1. Б. 246].

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Адизова Ободон. Шарл Огюстин де Сент-Бёв-биографик метод асосчиси. “Ўзбекистонда хорижий тиллар” илмий-методик электрон журнали/2019 йил. 4-сон.
2. Содиқ С. Янги ўзбек адабиёти тарихи. - Тошкент: “Ўқитувчи” нашриёти матбаа ижодий уйи.
3. Тошбоев О. Абадий замондош. Шукур Холмирзаев ҳаёти ва ижодий фаолиятдан лавҳалар. – Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2018.
4. Холмирзаев Ш. Олабўжи // Шарқ юлдузи, 1992. №1; №2; №3; №4.
5. Қўлёзма. Олабўжи романи қўлёзмаси.

6. Қўчқорова М. “Ўтмишдан эртақлар” тадқиқи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016.
7. Қўчқорова М. Абдулла Қаҳҳор Истиқлол адабиётшунослиги кўзгусида. – Тошкент: Академнашр, 2018.

NAZAR ESHONQUL “GO‘RO‘G‘LI” ROMANIDA ABSURD TUSHUNCHASI IFODASI

Artiqova Dilnoza Abdushukurovna JDPI magistranti
Ilmiy rahbar: f.f.d.Sh.Doniyorova

Absurd adabiyotini chuqur o‘rgangan adabiyotshunos olimlarimiz absurd g‘oyasining Sharq falsafasiga begona emasligini, uning ayrim jihatlari Islom dini qoidalariga ham birmuncha yaqinligini e’tirof etadilar. Birinchidan, absurd xuddi dinimizdagi kabi odamning o‘z-o‘zini o‘ldirishini keskin qoralaydi. Ikkinchidan, bu yorug‘ dunyoga kelgan odam umidsiz yashamasligi kerak. Demak, ***umidvorlik absurdning doimiy yo‘ldoshidir.*** Biroq, kutilgan umid ro‘yobga chiqmaydi. Buning sabablarini insonning o‘sha ma’nisiz hayotidagi manfaatlar zidligidan izlash kerak bo‘ladi. Uchinchidan, isyon, erk va orzu-havas – bular insonning yashashi va intilishi uchun zarur hodisalardir.

Yozuvchi Nazar Eshonqulning “Go‘ro‘g‘li”[1] romanini muallif garchi sobiq mustabit tuzumining jirkanch qiyofasini aks ettirish va undan xulosa chiqarish uchungina e’lon qilganini aytgan bo‘lsa-da, bu asar adabiyotchilarimiz tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi va ko‘plab bahs-munozaralarga sabab bo‘ldi. Nazar Eshonqul asarlarida G‘arb-u Sharq ifoda usullarining qorishiq holda aks etishini kuzatamiz. Ifoda xususiyatiga ko‘ra, G‘arbning ilg‘or uslubiy izlanishlari, mazmuniy xususiyatiga ko‘ra, o‘zbek adabiyotining an’anasiga uyg‘un ravishda jozibadorlikni namoyon qiladi. Asar bosh qahramon N. ni rahbari chaqirtirgani va atrofdagilarning bunga ajablanarli munosabati bilan boshlanadi. Taraddud va hayajon bilan kelgan N.ga boshliq yordamchisi shunchaki kimdir K. ni N. deb adashib yozib yuborganini aytadi. Hammasi ana shu “*arzimagan adashish*”dan boshlanadi. N. boshqalarga o‘xshamaydi. U o‘ziga, o‘zligiga boshqalardek beparvo munosabatda bo‘lolmaydi va shu boisdan rahbar yordamchisining gapiga: “*Balkim buning sizga farqi yo‘qdir. Lekin menga farqi bor. Mening ismim – bu mening o‘zim, ya’ni bu men. Shunday ekan, men hech qachon meni K., O‘. yoki siz aytganday T. Deb chaqirishlarini istamayman. Men N.man. N. bo‘lib qolishni istayman*”, [1;20] - deya munosabat bildiradi. Biroz avval N. bino oldida turgan charxpalakni aylantirishga behuda harakat qilayotgan ikkita bola va ularni ustidan masxaralaganday kulib turgan yana bir bolakayni ko‘rgandi. Bolalar qancha harakat qilishmasin, og‘ir charxpalak sira joyidan qimirlay demas, parrak sal g‘imirlab, yana joyiga qaytib kelardi. N. ning hayoti davomida o‘zining tirikligini isbotlash uchun qilgan barcha harakatlari ana shunday besamar ketadi. Taqdir esa o‘z aytgani bo‘lganidan N.ning ustidan g‘olibona kulayotganday edi. N.ning hayoti ham mutlaqo yolg‘ondan iborat edi. U o‘zini ishxonasi uchun

“charxpalakning betinim aylanib turishini ta’minlab turuvchi asosiy murvatlardan biri”dek muhim deb hisoblardi yoki o’zini shunday deb aldardi. U o’zini yolg’izlikdan qutqarish uchun axloqi buzuvq ayol Havoga uylanishga qaror qiladi. Xolbuki, bu ishga aqli joyida kishi qo’l urmasligini N. yaxshi bilardi. Ammo N. qaror qiladi. O’liklardek yashashdan qutulish uchun shu yo’lni tanlaganini aytadi. N.ning Havoga: *“Men qandaydir o’likka o’xshab yasharkanman. O’lik kabi kechamdan kunimning, bugunimdan ertamning farqi yo’q ekan”*, [1;20] – degan gaplaridan uning risoladagidek ko’ringan hayotida bo’shliq mavjudligini, ana shu bo’shliqni to’ldirish uchun o’zini qurbon qilishga qaror qilganini anglash mumkin. N. o’zining vafot etgani haqidagi xabar yozilgan gazetani ko’rganida, avvaliga bu anglashilmovchilikka jiddiy e’tibor bermaydi. Ammo bora-bora hatto o’z dafn marosimida ishtirok etadi. N. umid bilan o’zining tirikligini isbotlashga kirishadi. “U navbatdagi idoraga kirib chiqqanda ichidagi nimadir shu idorada qolib ketganday bo’lar, o’zini holsiz sezardi. U qish chiqqunga qadar ichidagi barcha quvvatni kezib chiqqan idoralarga birma-bir yurib tashlab chiqdi” [1;57]. U idoralarga nafaqat, quvvatini, balki, umidlarini ham birma-bir tashlab chiqdi. Shu boisdan ham endi uyda tobutda yotgandek cho’zilib yotar, so’nggi umid uchqunlari ham so’nib borardi. ***“Uni ma’nisizlik va mavhumlik holdan toydirayotgan edi”*** [1;61]. ”Noumid – shayton” deganlaridek, tobora umidsizlik botqog’iga botib borayotgan, yolg’izlik olamiga g’arq bo’layozgan N.ning ko’ziga kichkina dumli shaytonlar ham ko’rina boshlaydi. N. nikiga o’xshash taqdir egasi Rafasning insonlar haqida: ***“...o’zlarini aldab yashaydilar va aldanganlaridan xushnud bo’ladilar...”***, [1;103] - degan gapi kishini o’yga toldiradi. Darhaqiqat, odamzot foni dunyoning o’tkinchi jimjimadorligiga mahliyo bo’lib, hayot tashvishlaridan ortmay, moddiyat ortidan quvib umr kechiradi. “Bu dunyo – sarob bir dasht. Bu dunyo – oxiri besarhad yo’qlik bilan tugaydigan ulkan sahro. U mana shu yo’qlik va sarobga qorishib yashashga mahkum etilgan” [1;171]. N.ning o’zining tirikligini isbotlash uchun qilgan sai-harakatlari, chekkan g’am-alamlari Odamizotning o’tkinchi dunyo, nafs, havas deb qilayotgan ishlari kabi besamar edi. Sud jarayonida N.ning gunohi nimaligi va nima uchun shunday taqdirga mustahiq etilganligi Gulining tilidan quyidagicha izohlanadi: *“Biz bog’ oralab sayr qilib yurardik. Men uning sadoqatini sinab ko’rgim keldi. Nazarimda u menga xiyonat qilayotganday tuyulardi...Uni o’zimniki qilgim keldi. Unga bog’da pishib yotgan olmani uzib berishini so’radim. U ham ikkilanmay mening makrimga laqqa tushdi. O’shandayoq, men uchun olma uzgandayoq, u tavqi la’natga – shunday taqdirga mahkum etildi”*.

Bu bizga Odam Ato va Momo Havoning taqiqlangan mevani yegani sababli jannatdan quvilishi voqeasini eslatadi. Ya’ni, Odam Ato nafs tufayli jannatdan – o’z Vatanidan yerga surgun qilinadi, o’sha-o’sha Odam Ato zurriyotlari yer yuzida g’am-anduhda sinaladi. Yozuvchi Guli tili bilan aytilgan yuqoridagi gaplar orqali asar qahramonining boshiga tushgan ko’rgiliklar sababini, qolaversa, umuman, odamizotning hayoti davomida turli sinovlarga uchrashi sababini o’sha ilohiy hikoya bilan bog’laydi. Sud manzarasi tasvirlangan lavhada inson omiliga

munosabat yorqin ifodasini topgan. O‘z tirikligini tasdiqlashga jazm qilgan N. rasmiyat va buyruqbozlik qanday qudratga ega ekanligini his qiladi. Bu jamiyatda hujjat hatto inson iroda yo‘nalishidan-da ustun turardi. N. o‘zi tushib qolgan vaziyat tufayli yashayotgan jamiyatining butkul yolg‘ondan iborat ekanini ko‘radi. Unga qarshi kurashishga harakat qiladi. Biroq, oxir-oqibat yengildi: Janubiy temiryo‘l vokzalida o‘ziga yozilgan hukmni ijro etdi... *U dunyo bo‘ylab ozgina – o‘ttiz uch yillik sayohati orqali o‘zining hech kim ekanligini endi anglab yetgandi. U hech kim edi va hech kim bo‘lib yashagan edi. Dunyo u bilan yarash bitimi tuzmadi, dunyo unga begona, yot edi*”.

Yozuvchining o‘zi absurd qahramon haqida quyidagicha fikrlarni bildiradi: **“Absurd odam — o‘zini anglab yetgan odamdir,** degan edi Kamyu. U, ya’ni o‘zini anglab yetgan odam, xuddi shu joydan — o‘zini anglab yetgan joydan yangi tushunchani, yangi e’tiqodni yaratishni boshlaydi. Ehtimol, bu tushuncha va e’tiqod ham vaqti kelib sarob va abas bo‘lar. Lekin absurd odam uchun bunday ongning o‘zida yashash va yaratish uchun kuch topa olgani muhim. Ana shuning o‘zi absurddir. Xuddi Sizif kabi. Xuddi umidlari o‘lgan joyda go‘rdan bo‘lsa ham qayta tirilgan Go‘ro‘g‘li kabi. Xuddi bandi bo‘lishini bilib turib, Chilbir cho‘liga kelgan Alpomish kabi. Hayotining mazmunsiz ekanligini har gal anglab yetishi unga quvvat beradi, unga yangi kuch beradi, hayotni sevishga, uni anglashga undaydi. U o‘zining yengilishini bilib turib jangga kirgan va hamisha mag‘lub bo‘lgan jangchini eslatadi. Ammo uning har bir mag‘lubiyati o‘zini, odamni, ilohiyatni anglash yo‘lidagi g‘alaba bo‘lib qolaveradi. Uning uqubatlari, uning iztirobi anglanish va anglash iztirobidir”.

Nazar Eshonqulning “Go‘ro‘g‘li” romani mavjudlik va yo‘qlik o‘rtasidagi ham bog‘liqlik, ham ziddiyatning yorqin ifodasi sifatida romanchiligimizda katta burilish yasadi. Adib xos talqin orqali mohiyatga zimdan nazar tashlaydi, Inson ruhiyatida kechayotgan uzil-kesil o‘zgarishlarni asosli va mantiqiy tahlil qiladi. Xulosani esa zukko kitobxon zimmasida qoldiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.Eshonqul “Go‘r o‘g‘li yoxud hayot suvi”, G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, T-2018.
2. Nazar Eshonqul. Samoviy zavq lazzati // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 2003. 14-fevral.
3. Yuriy Borev “Ekzistensializm: absurd dunyosida yolg‘iz inson”, “Jahon adabiyoti” jurnali, Toshkent. 2011-yil 5-son.

RUHIYAT TALQINI
(SHOYIM BO‘TAYEVNING “SHO‘RODAN QOLGAN ODAMLAR”
QISSASIDAGI ONA OBRAZI MISOLIDA)

Saodat Narziyeva, JDPI magistranti
Ilmiy rahbar: f.f.n, dotsent Yu.Karimova

Jimlik qalbsizlik belgisi emas.
Ichi bo‘sh narsagina jaranglaydi.

Uilyam Shekspir

Badiiy adabiyot shunday bir olamki, uni anglamoq uchun faqat asar qahramonlari bilan yashash, voqealarni shunchaki kuzatish kifoya qilmaydi. Asarning asl mag‘zini chaqmoq uchun muallif darjasiga ko‘tarilmoq, fikrlamoq, olamni xuddi uningdek his qila olish kerak. Badiiy asarning haqiqiy ta‘mini tatib ko‘ra bilish, undan tegishli xulosa chiqarish bilan bir qatorda, badiiyat va mohiyat mazasini tuyish, undan rohatlanish tuyg‘usi borki, bu har bir kitobxonga ham nasib qilavermaydi. Adabiyotlarda “Inson muammosi azaldan falsafaning bosh mavzularidan biri bo‘lib kelgan. Juda ko‘p mutafakkirlar va olimlar uning mohiyati, tabiati dunyodagi o‘rni va vazifasini anglab yetishga harakat qilganlar”¹ kabi fikrlarni uchratamiz. Aynan ruhiyat atamasining o‘zi ham “nafas”, “zarba” ma’nosida kelib “jon” so‘zi bilan parallel ishlatilgan. Inson ruhiyati – uning butun olam, borliqda sodir bo‘layotgan hodisalarga ongli ravishdagi munosabati, demak uni anglamoq va tushunmoq degani, tiriklikdan, yashamoqdan maqsad nima ekanligini bilmoq, mavjudlikni mohiyatini anglamoq deganidir.

So‘nggi yillar o‘zbek adabiyotida ruhiyat masalasi haqida gap ketar ekan, istiqlool davrida yaratilgan asarlar va ularning badiiy ko‘lami ko‘z oldimizga keladi. Asarlarida katta bir insoniy dard, umumbashariy muammolarni o‘ziga xos yo‘sinda badiiy talqin qiluvchi iste’dodli yozuvchi -Shoyim Bo‘tayev so‘nggi yillar qissachiligimizda barakali ijod qilayotgan yozuvchilardan. Yozuvchining badiiy

olami, didi, so‘z tanlashdagi zarofati, qahramonlarning pishiq va yorqinligi, uslubining o‘ziga xosligi, Shoyim Bo‘tayev asarlarining mag‘zi to‘qligini, yashovchanligini ta‘minlaydigan jihatlardir.

Adibning “Sho‘rodan qolgan odamlar” qissasi bir o‘qishdayoq kitobxonni o‘ziga tortadi. Undagi syujet voqealari, qahramonlari, xarakteri, xatti-harakati, o‘yi-xayoli bizning hayotimizda kimnidir eslatib turadigan jonli odamlar qiyofasi. Ushbu asar haqida adabiyotshunos Abdug‘afur Rasulov: “Nazoratchining xotini hibsxonadagi o‘g‘liga qotirma pishirib, yo‘lga chiqadi. U eshak mingan qariya, qarovsiz, daydi itga yo‘liqadi. Shu o‘rinlarda Ona qalbidan

¹ Xurshid Mirzaxmedov.G‘ulomjon Yoqubov. Inson - ijtimoiy munosabatlar maxsuli. Ilmiy maqolalar to'plami
NAMANGAN-2016 «SALOHIYAT MEZONI ” IO-SON

kechgan holatlar tasvirlanadi. Afsuski, yaxshigina boshlangan tahlil aro yo'lda qolib ketadi"², -deydi.

Bizningcha, aynan Ona tasviri, uning ruhiyatidagi o'zgarishlar asarda yetarlicha tadqiq etilgan. Asardan olingan quyidagi parchaga e'tibor beraylik: "Beixtiyor tancha chetiga cho'kkalab qoldi. Anavi burchakda o'gli o'tirar edi.

- Toshmurod! - shivirladi ona lablari. O'g'li ko'pincha har xil kitoblarni ichida jimgina o'qib o'tirar, ko'zlari yo'l ko'rayotgandek xayollarga berilib ketardi. Ayolning ko'zi tokchada yotgan qandaydir kitobga tushdi-yu, darrov uni qo'liga oldi, hidladi, o'g'li qarshisida, tancha burchagida, o'tirgandek tuyuldi; ayolning lablariga tabassum doridi, jilmaydi, jilmaya turib, faryod urib yig'lab yubordi, o'qishni bilmagani uchun bunchalik ko'p nuqtachalarni qanday qo'yib chiqishganiga ajablendi; keyin har sahifani hidlay boshladi, undan o'g'lining ko'z nurlarni qidirayotganday bo'ldi, barmoqlari bilan paypasladi, ana shu paypaslashi barobarida o'g'lining barmoq izlarini topib olishga, topib ko'zlariga surishga urinayotgan edi. Ayol o'g'lini qandaydir mudhish hol kutayotganini ich-ichidan payqadi..."³

Farzandiga bo'lgan sog'inchni, uning qismatidan xavotirlik hissini bosish uchun bir paytlari jigarbandi o'qigan kitobni tavof qilgudek bag'riga bosyotgan Ona tasviriga qarab aytish mumkinki, Toshmurod dardida kuyayotgan Ona obrazining ruhiy olami eri giyoh bilan qamalib ketgan, endilikda katta farzandi dog'ida (Toshmurodning sherigi) ham o'rtanayotgan ayolning holatidan ham ta'sirliroq ochilgan.

Ona obrazini hayoti davomida Nazoratchi – erining so'zidan chiqmagan, bir og'iz so'z aytish tugul o'z fikrini tushuntiraolmagan o'ta sodda, erining so'zini qonun deb bilguvchi ayol sifatida ko'ramiz, ammo uni aslo ayollik, onalik his-tuyg'ularidan yiroq, sezimsiz deb bo'lmaydi. U yashayotgan biqiq muhit, manqurt er-Nazoratchi ta'sirida o'zining faoliyatini ham, imkoniyatini ham, o'yu-tafakkurini ham, xohish-irodasini ham cheklagan ayol. Shuning uchun ham qissada bir o'rinda shunday deyiladi: "Agar ayol ziyrakroq bo'lganida, erini o'g'ilning o'g'riligidan ham ko'proq nima uchun uning aynan ukasinikiga tushgani ajablantirayotganini sezgan va shu tomonga kuch berib, uning o'g'liga munosabatini o'zgartirib yuborgan bo'lardi: albatta, buning uchun biroz xudbinlik, biroz quvlik, biroz toshbag'irlik kabi hozirgi zamon odamlarining noyob fazilatlarini zarur ediki, ayol bularning barchasidan mosuvo, bilib olgani, suyangani yig'i edi, xolos"⁴.

Keltirilgan misollarda ko'rinib turibdiki, ona ruhiyati qissada ta'sirchan ochilgan. Shoyim Bo'tayev inson ichki olami uning ruhiyatini ochib berishda eng kichik detallarni ham (kitob, kitob sahifalarida qolgan o'g'lining ko'z nuri, barmoq izi kabi) e'tiborga oladigan ijodkor. Va aynan "Sho'rodan qolgan odamlar" qissasidagi yetakchi obrazlar Melis, Toshmurod, ukalar qatorida Ona

² Abdug'afur Rasulov. Tavallud topayotgan ko'hgil mujdalari (songo so'z o'rnida). "Hayot" qissalar to'plami. Sh.Bo'tayev Sharq.T-2000 445-bet

³ Sh.Bo'tayev. "Hayot" qissalar to'plami. Sharq.T-2000 330-bet

⁴ "Hayot" qissalar to'plami/ Sh.Bo'tayev Sharq.T-2000 328-bet

obrazi ham ishonchli, o'zining jonli qiyofasi va badiiy yuki bilan asar g'oyasini ochishda muhim o'rin tutadi. Eng asosiychi yozuvchi Ona ruhiyatidagi muhim jihatlar: o'zbek ayolining xokisor, beta'ma, mingbirjon olamini haqqoniy badiiy ifoda eta olgan.

“Muayyan adabiy asar yuksak badiiy darajaga ko'tarilganda, unga qo'yilgan ma'naviy-axloqiy muammolar hissiy ta'sirchanlik kasb etadi”⁵. Shu ma'noda “Shurodan qolgan odamlar” qissasi yuksak badiiyati va asarda ko'tarilgan o'tkir hayotiy muammo nuqtayi nazaridan kitobxonning axloqiy-ma'naviy dunyosiga ta'sir qiladigan, inson va insoyilik mohiyati haqida o'yga toldiradigan asardir.

NAVRO'Z NASHIDASI **(SH AHROROVANING “NAVRO'Z” SHE'RI MISOLIDA)**

Dildora Qarshiboyeva, JDPI talabasi
Ilmiy rahbar: Nodira Soatova, JDPI dotsenti, f.f.
nomzodi

Mustaqilik davri she'riyati yangi ohanglar hamda ma'no mazmuni bilan kundan kunga boyib bormoqda. Nafaqat o'zbek milliy ifoda tarzi va badiiy yutuqlaridan ilhomlanib yanada kengayib oz shakl va shamoilini yuksaltirib bormoqda desak aslo mubolag'a qilmaga bo'lamiz.

Darhaqiqat, bugun she'riyatimizda mazmunning ta'sirchanligi, uslublarning turli xilligi, fikrlash dunyosining o'zgachaligi kabi xususiyatlar alohida o'rin egallamoqda. Bizning Jizzax muhitida o'z so'zi va o'rniga ega bo'lgan shoiralardan biri, shubhasiz, Shahlo Ahrorovadir. Shoiraning nazm bulog'iga nazar tashlar ekanmiz, uning ijodida tabiat manzaralari, yil fasllari, ayniqsa, bahor bayrami Navro'zni tasvirlashda o'zgacha badiiy bo'yoqlarning betakrorligi bilan boshqa she'rlarda ajralib turadi. Sh Ahrorovanning “Navro'z” she'ridagi yondashuvning yangichaligi ko'zga tashlanadi.

Kamalak yog'dusiga,
Iymanib belanganim.
Har g'uncha kulgusidan,,
Dur bo'lib elanganim.

Shu o'rinda, bahor faslida tabiat yasharadi. Quyosh ham har doimgidanda ko'proq nurlari bilan odamlarga o'z mehrini ulasha boshlayd. Daraxtlar g'uncha ochib tog'larda esa bahorning ilk elchisi bo'lgan boychechaklar bo'y ko'rsata boshlaydi. Undan tashqari, bu faslda yomg'ir yerimizni unumli hamda barakali hosil berishi uchun o'z tomchilarini ayamaydi. Yomg'irdan so'ng chiqadigan kamalak esa yetti rangda tovlanib ko'zimizni quvnatadi. Aslida, shu chiqqan kamalak yog'dusida, g'unchalar kulgusida navro'zning tarovatini sezamiz, his qilamiz.

Navro'zginam, kel, bilsang,

⁵ Yu.Karimova. Onaga ehtorom-odamiylikka ehtrom. Tafakkur ziyosi. 2019 yil, 3-son. 120-bet

Baxtga loyiq yer bu yurt !
Har bolasin ko'ksida ,
Bir quyoshi bor, bu yurt !

Umuman olganda, qishning og'ir va zavorli kunlaridan charchagan odamlarga bahorning iliq va yoqimli kunlariga tezroq yetishishni hohlashadi. Bir so'z bilan aytganda, navro'z-tiriklik hayot ramzi. Shoir a yuqoridagi satirlarda ham bahorga, navro'zga intizor bo'lganini takidlab, yurtimizdagi har bir insonning qalbida bir quyoshi borligi ajoyib tarzda tasvirlangan. Bu quyosh aslida insonning bir biriga bo'lgan mehr-muhabbat, sadoqat, ishonch tuyg'usining o'zginasidir.

Navro'z, navro'z, gul navro'z,
Quchoq ochib kel, navro'z,
Osmon qadar boshimdan
Yog'du sohib kel, navro'z.

Shu o'rinda navro'z bayramining tarixiga nazar tashlar ekanmiz, bu bayram qadim- qadimdan xolis niyatli kishilarning sevimli ayyomi bo'lib kelgan. Bayram kunlarida urush-janjanlar, gina qudratlar unutilgan, shohlar el ichida eng munosib kishilarni taqdirlashgan, ayrim mahbuslarning gunohidan o'tilgan. Bu haqda Lutfiyning "Gul va Navro'z" dostonida ham keltirilgan.

Bunda tosh tilga kirar ,
Maysalar yo'lga kirar,
Bunda jannat qushlari
Baxt tilab tilga kirar!

Shoiraning keying misrasida ham o'zgachalikni ufurib turganini ko'rishimiz mumkin Chunki, bizning ona zaminimiz beqiyos, tabiatimizda hatto toshlar gullashini, maysalar yurgan yo'llarimizni yashilga burkashni, ko'zingizni yashnatishi va yana jannat qushlari bu yurtning mehnatkash xalqiga baxt tilab saytashi qulog'ingizga xush yoqishini keltirib o'tadi.

Sendek saxiy qo'l yo'q, bu yurt,
Duolari mo'l bu yurt,
Nurday toza tilagi
Ezgulikka yo'l, bu yurt!

Sh.Ahrorovanning "Navro'z" she'rining so'ngi to'rtligida ko'rishingiz mumkinki, bu satrlarda shoir o'xshatish usulidan foydalanib she'rning mazmundorligini oshirgan. Ha, albatta, vatanimizda beqiyos, o'xshashi yo'q! Ayniqsa yurtimizda yashaydigan odamlar esa o'zlarining soddaligi, sahiyligi, mehnatkashligi bilan ajralib turishadi.

Ayniqsa xalqimiz tinchligi, yurtimiz farovonligi abadiy bo'lishini niyat qilgan mo'ysafid bobojonlarimiz-u, farishtaday buvijonlarimiz ham bayramni orzuqib kutishadi.

Sh Ahrorovanning "Navro'z" she'rida qalbidagi nafis tuyg'ular ajoyib tarzda she'rga ko'chira olgan. Xulosa qilib aytgana , bu she'rni o'qigan har bir she'riyat shaydolarining qalbida bahor, navro'z tasviri ko'z oldiga keladi.

“ШОҲИ СЎЗАНА” КОМЕДИЯСИДА ХАРАКТЕРЛАР ТАЛҚИНИ

Уразов Сойибжон ЖДПИ талабаси
Илмий раҳбар: кат.ўқит. М.Жўраев

Абдулла Қаҳҳорнинг “Шоҳи сўзана” комедияси ўзбек адабиётида ўзига хос ўринга эга. Комедияда Холнисо ва Ҳамробуви характеридаги ўзига хос жиҳатлар самимий кулги воситасида эстетик танқид остига олинади. Ва шу орқали комедиядаги воқеалар ривожлантирилади, оқибатда асар бошида қўйилган тугун комик конфликтларда, характерлар кулгиси орқали ечилади.

“Шоҳи сўзана” комедиясидаги кураш, зиддият комик ва такрорланмас хусусиятларга эгаллиги билан алоҳида ажралиб туради. Онгида эскича тафаккур мевалари қотиб қолган, қолоқ фикрлаш унсурлари мавжуд, жамиятимиздаги бошқа инсонлар қарашларига зид фикрловчи характер эгалари ўсиб келаётган янги, илғор кучларга тўқнаш келиб, уларга асоссиз ва ноўрин қарши чиқиб, кулгили, комик аҳволга тушиб қолишади. Жамиятимиздаги юз бераётган янгиликлар моҳиятига тез ва ўз вақтида тушуна олмай, ўзаро зиддиятларга дучор бўладилар. Характерларидаги кулгили жиҳатларини, умуман феъл-атворларини ўзлари англамаган ҳолда ошкор этадилар. Шу тахлит воқеалар давомида характерларнинг ўзаро муносабати натижасида персонажлар янглишиш коллизиясига тушадилар, аста-секин, кечикиб бўлса ҳам, маънавий нуқсонлари йўқолиб, ўз-ўзларини англаб борадилар.

“Холнисо ва Ҳамробуви бир тарихий давр одамлари. Улар эски ҳаёт қабоҳатларини бир сидра бошларидан ўтказишган. Инқилоб йилларидаги алғов-далғовлар, ҳаётни қайта қуриш қийинчиликлари ва ниҳоят фашизмга қарши умумхалқ кураши – булар ҳаммаси улар онгида турғун, реал дунёқараш яратган. Бундан чекиниш уларнинг ҳаёлларига ҳам келмайди. Ҳатто фарзандларининг ҳаётга янгича муносабатлари ҳам уларни кўп ажаблантира бермайди. Аммо нималардадир улар ҳамон эски урф-одатлардан тамоман кечиб қўяқолмайдилар. Мана шу ҳол бизда кулги уйғотади. Қудаликка аҳду паймон қилишган. Ҳамробуви ва Холнисо фарзандларининг фаол меҳнатию, ижтимоий фаолиятига қарши бўлмасалар ҳам кўпроқ битта умид билан банд. Бу ҳам бўлса орзу-ҳавас кўриш, чиройлик тўй қилиб келининг борми бор; куёвинг борми, бор дегулик бўлиб эл-юрт орасида обрў қозониш.”¹³

Асарнинг комиклигини янглишиш дамларининг комик планда, турли хил кулгили вазиятларда кечиши, ижобий персонажларнинг ўз рақибларини уддабуронлик ва меҳрибонлик билан алдаб тўғри йўлга солишлари, улар характеридаги нуқсонларни англаб етишларига кўмаклашишлари заминидаги кураш кулгили, комик ҳолатларни юзага келтирган.

¹³ Қўшжонов М. Абдулла Қаҳҳор маҳорати.-Т: Адабиёт ва санъат. 1988 йил 189-бет.

Бош қаҳрамонлар Ҳамробуви ва Холнисо ўз характерларидаги камчилик ва нуқсонларни англаб етмайди, гўёки улар ўта ақлли-ю, атрофдагилар эса, ҳеч нарсани англамасликда, ҳаётни тўғри тушунмасликда айблашади. Худди шу маънодаги фикрлаш, тафаккур натижасида турли чигалликлар, англашилмовчиликлар келиб чиқади. Бу эса ўз навбатида атрофдагиларнинг ҳақли кулгисига сабаб бўлади.

Муаллиф характерлараро зиддиятни юзага келтиришда асардаги бошқа персонажлардан биронтасининг тўла маънода салбий моҳиятга эга бўлганлигидан, уларда фақат хунук сифатларнинг зоҳирлигидан, булар натижасида юзага келадиган тўсқинликларнинг нисбатан катта ва зарарли ижтимоий кучга айлана олмаслигидан келиб чиқади. Шунга мос тарзда характерлараро муносабатлар, зиддиятлар ва тўқнашувлар у қадар кескинлаштирилмайди. Аммо муаллиф характерида, феъл-атворида жамият қарашларига зид фикрлаш мавжуд кишилар аҳволи замонавий фикрлайдиган, илғор кишилар қаршисида кулгили эканлигини кўрсатиб бера олди. Бу нарса айрим адабиётшунослар таъкидлаганларидек, комедия конфликтнинг камчилиги эмас, аксинча, муаллифнинг юмористик кулги яратишдаги, характерлар комедиясини юзага келтиришдаги ўзига хос бадиий кашфиётидир, десак хато бўлмайди.

SHOH G'ARIB MIRZO - HIROT ADABIY MUHITI VAKILI

Qosimova Dilobod JDPI talabasi

Ilmiy rahbar: dotsent Zuhra Mamadaliyeva

Adabiyotimiz XV -XVI asrlar mobaynida gullab yashnadi va bunda Hirot adabiy muhitining o'rni beqiyosdir.

Hirot (Hiriy) markaz bo'lgan Xurosonda Sulton Husayn Boyqaro hukmronlik davri uning do'sti Alisher Navoiy, Pahlavon Mahmud, ustози Abdurahmon Jomiy, amir Shayximbek Suhayliy kabi Hirot adabiy muhitining zabardast vakillari ko'magida davom etdi.¹⁴ Hirotда zamonasining bu ulug' vakillari qatorida ijod qilgan, ushbu davrda o'zining munosib o'rniga ega bo'lgan shunday shoirlar borki, ular ko'pchilik adabiyot ixlosmandlari uchun dengiz tubidagi marvariddek yashirin.

Temuriy shahzodalardan biri SHoh G'arib Mirzo bo'lib, u Husayn Boyqaroning o'g'li bo'lgan. SHoh G'arib Mirzo "G'aribiy" taxallusi bilan ijod qilgan va zamondoshlari tomonidan o'z davrining iste'dodli shoiri sifatida qaralgan. U zullisonayn ijodkor edi. Uning lirik she'rlarida ishq, vasl, sog'inch, vafo, jafo, sadoqat, may va bulardan hosil bo'ladigan kayfiyatlar, ya'ni quvonch, qayg'u, saodat, ma'shuqaning go'zalligini ta'riflar? Oshiqning arzi holi kabi mavzular yetakchi o'rin egallaydi.

¹⁴ Bu haqda qarang: Ҳотами Той образи талқинлари ёки саҳоват ва ҳимматга бўлган икки даҳо муносабати. Абдурахмон Жомийнинг ижод олами. / мақолалар тўплами. Тошкент: Tamaddun, 2014. Б. 101-106.

U gʻazalnavis shoir hisoblanadi va ijodida besh muxammas va bir qitʻadan tashqari barcha asari gʻazal janrida yozilgan. SHoh Gʻarib Mirzo zamonasining ulugʻ shoiri Alisher Navoiy nazaridan chetda qolmagan. Navoiy oʻzining "Majolis un-nafois asarida shoir haqida shunday yozadi: " SHoʻx tabligʻ va mutassarif zehnlilik va nozik taxayullic va daqiq taaqqulluq yigitdur. Nazm va nasrda naziri maʼdum va mutaxanyila va hofizada adili nomaʼlum. Ov va qush xotirigʻa margʻub va qurro va oʻqish koʻngliga mahbub".¹⁵

Zahiriddin Muhammad Bobur oʻzining " Boburnoma" asarida Husayn Boyqaroning oʻgʻli boʻlmish SHoh Gʻarib Mirzo haqida shunday fikr bildirgan : ".....bukri erdi. Agarchi hay'ati yomon edi, tab'i xo'b edi. Agarchi badani notavon edi, kalomi margʻub edi."Gʻaribiy" taxallus qilur edi, devon ham tartib qilib edi".¹⁶

Ushbu ijodkorning eng sara gʻazallarining matlaʼlari Alisher Navoiy tomonidan eʼtirof etilib "Majolis un-nafois" asarida, temuriy shoirlarga bagʻishlangan yettinchi majlisida berilgan . "Bor"radifli gʻazali matlaʼsi:

Qaysi bir gulchehra ul gulbargi xandonimcha bor,

Qaysi bir shamshod qad sarvi xiromonimcha bor?

Yaʼmi: *Qaysi bir gulchehra (goʻzal) mening yorimdek boʻla oladi. Qaysi bir qaddi shamshod pari mening qaddi sarv yorim kabi boʻla oladi?*

Ushbu bayt orqali shoir maʼshuqasining latofatigaga boshqa gulchehra yorlarning goʻzalligini teng kela olmasligini aytadi va bu oʻrinda tajohuli orifona sanʼatidan foydalanadi. Baytda gulchehra, shamshod qad soʻzlari orqali esa istiora sanʼatiga murojaat qilingan.

"Majolis"da shoirning "oʻzgacha" radifli gʻazali matlaʼsi quyidagicha keltirgan.

Tarki mehr aylab agarchi boʻldi jonon oʻzgacha,

To tirikman qilmagʻumdur ahdi paymon oʻzgacha.

Yaʼni: *Yor mehrni tark aylab oʻzgacha boʻldi, yaʼni fikri oʻzgardi. Ammo men tirik ekanman oʻzgacha ahdi paymon ham qilmayman yaʼni yorimdan voz kechmayman.*

SHoh Gʻarib Mirzoning forsiy tilda yozilgan matlaʼsi ham "Majolis un-nafois"da keltirilgan.

Doʻston har gah guzar soi mozori man kuned,

Joi takbiram duoi joni yori man kuned.

Yaʼni: *Doʻstlar, har zamon mozorim tomon kelib turing. Menga fotiha oʻqish oʻrniga yorimning duoyi jonini qiling*

Hazrat Alisher Navoiy: "Bu matlaʼni ham bagʻoyat oshiqona va muxlisona voqeʼ boʻlubtur" deb taʼriflaydi.

Yuqorida keltirilgan gʻazal matlaʼlari samimiyligi, badiiyligi bilan oʻziga xosdir. Zero, Hirot adabiy muhitida Alisher Navoiydek ulugʻ shoirning eʼtirofiga sazovor boʻlish har qanday shoirga ham nasib etavermagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

¹⁵ Alisher Navoiy „Majolis un nafois“.library.ziynet.uz internet sayti.6-bet.

¹⁶ Zahiriddin Muhammad Bobur,„Boburnoma“Oʻzbekiston Fanlar Akademiyasi nashriyoti. Toshkent; 1960.

1. Alisher Navoiy. "Majolis un-nafois".librariy.ziynet.uz internet sayti .
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. "Boburnoma".O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi nashriyoti. Toshkent;1960.
- 3.www.Ziynet.uz sayti.

ALISHER NAVOIY MAFKURASI VA ASARLARIDA YAXSHI DAVLATCHILIK VA ADOLATNING AKS ETISHI

**O‘ralova Muhayyo JDPI talabasi
Ilmiy rahbar: dotsent Zuhra Mamadaliyeva**

Alisher Navoiy o‘z asarlarida falsafiy, axloqiy-ta’limiy hamda badiiy-estetik qarashlarini ifoda etadi. Adabiyotshunos olim Sultonmurod Olim fikricha: „, Alisher Navoiy asarlarining mafkurasi bir necha manbalarga tayanadi. Ulardan birinchisi — Qur’oni karim, ikkinchisi — hadisi sharif, uchinchisi tasavvuf falsafasidir. Tasavvufda shoir doxil bo‘lgan tariqat esa — naqshbandiya tariqati sanaladi. Bu tariqat uchun hamma teng — shoh-u gado barobar hisoblanadi. Alisher Navoiy ham o‘z asarlarida dunyoga kelayotgan insonlar barchasi teppa-teng tug‘ilishini, vafotidan keyin ham hamma teng bo‘lishini, shu sababdan nima uchun jamiyat a’zolari tabaqalarga ajratilishi kerak — degan g‘oyalarni ilgari suradi”.

Bizga ma’lumki, o‘rta asrlarda sharqda *ikkinchi Renessans* jarayonini boshlab bergan temuriylar davlatining eng gullab yashnagan davri, aynan, Sulton Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy zamoniga to‘g‘ri keladi. Mirzo Bobur qayd etganidek: “Sulton Husayn Mirzoning zamoni ajib zamone edi, ahli fazil va benazir eldin Xuroson, bataxis Hiri shahri mamlu edi. Har kishining kim bir ishga mashg‘ulligi bor erdi, himmati va g‘arazi ul edikim, ul ishni kamoldga tequrgay”. Hazrat Alisher Navoiy o‘z ijodida temuriylar davlatining asosini qurgan Amir Temur va uning boshqargan adolatli davlatchiligining ravnaqini, aynan, til va adabiyotni rivojlantirishida deb biladi. Shu boisdan davlat boshqaruvida o‘z do‘sti Husayn Boyqaro va boshqa temuriy shahzodalarni ham bobosidan o‘rnak olishga chaqiradi. Qolaversa, o‘z ona tiliga g‘amxo‘rlik qilish har qaysi davlatning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanishi lozim ekanligini, bu masalaga esa o‘zbek davlatchiligida birinchilardan bo‘lib, Amir Temur va uning avlodlari e’tibor qaratganligini ham faxr bilan e’tirof etadi.¹⁷

Alisher Navoiy “Xamsa”sining birinchi dostoni “Hayrat ul-abror”da ham odillik, adolat, tenglik g‘oyalarini yaxshi yoritgan bo‘lsada, “Saddi Iskandariy” dostoniga kelib esa bu masalalarni asarning asosiy nuqtalaridan biriga aylantiradi. Dostonda jami o‘n yettita hikoya bo‘lib, 17-bobda Iskandarning gadolikni ixtiyor etgan podsho bilan uchrashuvi haqidagi hikoyat berilgan.

Iskandar Mag‘rib zaminini bosib olgach, bu mamlakatga bir odil shoh tanlamoqchi bo‘ladi. Odamlar shohlikka bir loyiq odam borligini, lekin u tojdan bosh qochirib, qabrlarda yotib yurganini, kishilarning bu dunyodan ko‘ngillarini

¹⁷ Bu haqida qarang:Burobiya Rajabova. Alisher Navoiyning Amir Temurga doir chizgilari.www.kh-davron.uz.

sovutib, ularni fano yo‘liga targ‘ib qilish bilan mashg‘ulligini aytadilar. Yalang bosh-u yalang oyoq bu darveshning ikki qo‘lida ikki suyak bor edi. Shoh buning sababini so‘raydi. Darvesh javob beradi:

Dedi: “Go‘rlardin qilurda guzar,
Necha bu so‘ngaklarga soldim nazar.

Zamirimg‘a lekin nihon qoldi bu, —
Ki shahning — qayudur, gadoning — qayu?

Chu o‘lganda birdur bu ikki mato,
Tiriklikda nevcun qilurlar nizo‘?”¹⁸

Iskandar bu darveshning donoligiga tahsin o‘qib, unga Mag‘rib zaminining podsholigini topshiradi. Ammo darvesh uni rad etadi, faqirlikni shohlikdan ustun ko‘rishini aytadi. Shunda Iskandar unga: “Sening himmating mening shohligimdan baland ekan!” — deydi. Shoir bu holatga shunday xulosa yasaydi:

Gadoyiki bo‘lg‘ay biyik himmati,
Anga past erur shohlig‘ rif‘ati.

Chu himmatbaland o‘ldi ersa faqir,
Ko‘ziga erur asr shohi haqir.¹⁹

Shoh va darvesh obrazlarining zidlanishi Navoiyning boshqa asarlarida ham uchraydi.²⁰ Tasavvuf ahllari shohni dunyo quli deb hisoblaydi. Uning fikr-u xayoli mol-dunyo to‘plash, unga egalik qilishdir. Shu sabab bu yo‘lda xalqqa jabr-zulm qilishi, ularga ozor yetkazishi tabiiy deb bilishadi. Darvesh esa buning aksi. U o‘z nafsidan kechib, xalq manfaatini o‘ylagan holda, adolat bilan ish yuritadi. Shuning uchun himmati baland gadoning ko‘ziga, hatto zamona shohi ham faqir va haqir ko‘rinadi. Bu voqea Iskandarga qattiq ta’sir qilib, bu dunyoning o‘tkinchiligi-yu, shoh-u gado barobar ekanligini yanada teranroq va chuqurroq his qilishiga yordam beradi.

Adabiyotshunos olim Aziz Qayumov: “Ayni zamonda Navoiy mutafakkir sifatida shoh va shahzodalarni to‘g‘ri yo‘lga boshlamoqchi, ularda saltanat g‘ururini pasaytirmoqchi, ularni hayotga, odamlarga to‘g‘ri qarashga o‘rgatmoqchi bo‘lgan”²¹, — deya o‘z fikrlarini bayon etadi. Qolaversa, Navoiy adolat va adolatsizlik, odillik va zulm haqidagi qarashlarini hayotiy misollar bilan o‘z asarlarida aks ettiradi. Bu narsa esa o‘quvchilarga ta’sir kuchini yanada oshiradi.

¹⁸ Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. www.ziyouz.com kutubxonasi B: 119.

¹⁹ Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. www.ziyouz.com kutubxonasi B: 120

²⁰ Бу ҳақда қаранг: З. Мамадалиева. ”Лисон ут-тайр” образлари: рамз ва мажоз олами. Тошкент: Qaqpus Media,

²¹ Aziz Qayumov. Ishq vodiysi chechaklari. Toshkent: 1985.

OMON MATJONNING “NEGA MEN” DOSTONIDA FALSAFIYLIK

Ahmedova Shohista, JDPI o‘qituvchisi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning: “...biz xalqimizning ma’naviy kamol topishida madaniyat namoyandalarining ulkan xizmatlari borligini doimo minnatdorlik bilan e’tirof etamiz”²², – degan so‘zlari, nazarimizda to‘laligicha qalam ahliga ham daxldordir. Shu bois XX asr o‘zbek she’riyatining vakillari ichida *Omon Matjon ijodi yuzasidan yangidan-yangi talqinlarning maydonga kelishini, ularning tasdiqlanishi yoki inkor etilishini, ular ustida bahs-munozaralarning avj olinishi ilm olamidagi tabiiy hodisa sifatida qabul etmoq joiz.*

Jannat O‘zbekiston, jannating qani,
Shuncha mehnat qilding, mehnating qani.²³,–

deya kuylagan, *XX asr o‘zbek she’riyatida o‘z yo‘li, o‘z uslubi, o‘z qarashi, o‘z so‘zi borligini ayta olgan shoirlardan biri, Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofoti sovrindori, O‘zbekiston xalq shoiri Omon Matjonning she’rlari va dostonlari adabiyotimiz xazinasidan munosib o‘rin egallagani bugunda adabiyot ahliga yaxshi ma’lum.*

Darhaqiqat, shoir ijodini kuzatar ekanmiz, uni o‘ziga xos jilvakor ohahglari, purma’no so‘zlari sehriga maftun bo‘lmay iloji yo‘q. Shoirning “Karvon qo‘ng‘irog‘i”, “Quyosh soati”, “Yonayotgan daraxt”, “Yarador chaqmoq”, “Seni yaxshi ko‘raman”, “Daraxtlar va giyohlar”, “O‘rtamizda birgina olma”, “Odamning soyasi quyoshga tushdi”, “Qush yo‘li”, “Iymon yog‘dusi”, “Ardaxiva” “Xoja Ahror ziyoratlari” kabi to‘plamlaridan o‘rin olgan she’rlari shular shumlasidandir.

Shoir lirik she’rlar bilan birga lirik qissa va dramatik doston janrlarida ham ijod qilib, Xorazm xalq afsonalarining o‘ziga xos badiiy talqini mujassamlantirgan “Haqqush qichqirig‘i” she’rlar kitobini, istiqlol arafasidagi sho‘rolar mamlakati hayotining ziddiyatli manzaralari va jarohatlari tasviriga bag‘ishlangan “Gaplashadigan vaqtlar” qissasini, shuningdek, o‘zbek xalqining Xorazmdan chiqqan buyuk siymolari haqidagi “Pahlavon Mahmud”, dramatik dostonlarini yaratgan.

Ko‘rinib turibdiki, Omon Matjon ijodida tarixga murojzat qilish ustuvorlik qiladi. Bu haqida uni ijodini o‘rgangan adabiyotshunos olimi: “Shoir asarlarida tarixga suyanish barobarida uchta muhim g‘oyaviy maqsadni ko‘zlaydi. Bularning birinchisi – millat, vatan tarixga murojaat va zamondoshiga tengsiz ma’naviy xazinalarni bunyod etib ketgan ajdodlarini tanitish; ikkinchisi – ular qonida bobo–momolari qoldirgan bebaho me’ros–an’analar ruhini uyg‘otish; uchinchisi – kelajakka ana shu ma’naviy xazinalardan qolgan durdonalarni avaylab yetkazishga da’vatan iboratdir. Bularga shoir ishonchli umumlashmalar

²² Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятнинг ривожланиши – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир // Халқ сўзи, 2017. 4–август.

²³ <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/>

yaratish, lirik qahramon ruhiy dunyosida kechayotgan jarayonlarning milliy rangdorligini yanada yorqinroq tasvirlash orqali musharraf bo'ladi. Uning lirik qahramoni zamon va kelajak haqidagi fikrlarini aksar holatlarda tarixga suyanmasdan aytishga shoshilmaydi. Chunki u har bir xalq unib, o'sgan milliy zaminidan vaqtincha uzilsa-da, abadul-abad uzilib ketmasligini juda yaxshi tushunadi. Milliy ruh, milliy tuyg'uning hech qachon izsiz yo'qolmaslik fazilatini e'zozlaydi. Shuning uchun ham Omon Matjonning tarixga tayangan qanday asari bo'lmasin, uni har bir inson aql va tuyg'usiga uyg'unlashib ketadigan rang va ohanglarni doimo o'zining ustuvorligini ko'rsatib turadi"²⁴,— deya ta'rif beradi. Bu fikrlar naqadar to'g'ri ekanligini uni ijodi bilan yaqinda tanishganimizda shohidi bo'lamiz.

Xususan, "Nega men?!" dostoni shunday asarlar sirasiga kiradi. Dostonda turg'unlik yillari davri haqida so'z yurtgan shoir, yurakdan chiqayotgan so'zlarini rangin satrlarda ifodalaydi:

Yetmish yil el yashab qur'on, tavrotsiz,
Erlar nochor qoldi, ayol avratsiz,
Zamon duradgori, asbob-yaroqsiz,
Ilma-teshik tomni yamashga tushdi .

Ko'rinib turibdiki, dostonda lirik qahramon o'z hayot yo'liga sinchiklab nazar solar ekan, ko'zlari mushkul bir holatni ko'rib lol qoladi? O'zini aldanganini, tanlagan yo'li "ayqashu uyqash" ekanligini anglaydi. Shu sababli el qur'onni yetmish yil yashab o'qimagani, zamon zayli tufayli faqat foniy dunyo g'amiga tushib, o'z hayot tashvishlari bilan bo'lib qolganlarini, shoir iztirob bilan qalamga oladi.

Barchamizga yaxshi ma'lumki, XX asrda bir necha marta yurtning sara o'g'lonlari, ziyolilari nohaq zarbalarga duch kelishdi. Ayniqsa 1937-yil, 1950-yillarda xalqimizni sevimli shoiru yozuvchilariga tuhmat toshlari otilib, ularni vatan xoinligida ayblab qatl qildirib, surgun qilishlari, 1980-yillar "o'zbeklar ishi" tufayli ko'pgina xalqimizni aziz farzandlari jabr ko'rganligini, shoir alam hasratlar ila aytar ekan, bunga asosiy sabab, ba'zi kimsalarni Allohdan qo'rqmagani, chunki qur'onni o'qimagani tufayli iymon e'tiqodsiz bo'lganliklarida deb o'ylaydi:

Qor qora yog'moqda, yomg'ir za'faron,
Daryolar o'rnida oqmoqda armon,
Har podsho o'zicha chiqarib farmon,
Qolganlar bir-birin bulg'ashga tushdi.

Yuqoridagi satrlardan ko'rinib turibdiki, shoir bu hodisalarni tasvirlashda o'ziga xos yo'ldan boradi. Ya'nikim tabiat mavzuining badiiy talqin ma'nolari orqali poetik obrazlar zimmasiga yuklanayotgan mazmun teranligini ko'rishimiz mumkin. Aslida qor oppoq, yomg'ir esa mayin beg'ubor yog'ishi, daryo esa mavj urib oqishi kerak va ularni harakati yer yuzini yashnatishi, ko'kartirishi lozim.

²⁴Ж.Жумабоева. XX аср ўзбек шеъриятида психологик тасвир маҳорати.-Т.: Фан, 2004.-Б.178

Lekin shoir “qora qor”, “za’faron yomg’ir” soʻzlarini qoʻllash bilan, ular timsolida xalqimiz boshiga tushgan koʻrgulliklarni, ularni azobga solgan farmonlarni, natijada yuraklarida armon qolgan, deb koʻrsatadi.

Nazarimizda, bu, “..she’riy asar falsafiy lirika namunasi boʻlishi uchun u, avvalo, ezgulik va yovuzlik, erk–hurriyat va zulm–istibdod, hayot va oʻlim, oniylik va boqiylik, yaxshilik va yomonlik, nur va zulmat, muhabbat va xiyonat, tabiat va jamiyat singari boqiy mavzularda bitilgan boʻlishi lozim. Va lekin xalq hayotining, jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy–siyosiy bosqichlarida davr–zamon nafasi, millatning ma’naviy–intellektual madaniyati darajasi, shoirning ongi–dunyoqarashi mazkur boqiy mavzularning badiiy–estetik talqinlariga sifat oʻzgarishlari olib kiradi. Ushbu oʻzgarishlar ramziy poetik obrazlar zimmasiga yuklangan ijtimoiy–falsafiy umumlashma xulosalarda, hikmatli ma’nolarda zohir boʻladi. Oʻzligini namoyon qiladi²⁵,–degan fikrdamiz.

Qani elni yaktan etgan donolar,
Qani uy fayzini tutgan momolar,
Qani “Birlash! Tiklan!” degan nidolar,
Gʻaflat ogʻusimi yo oshga tushdi?!

Ushbu misralarni oʻqir ekanmiz, koʻz oʻngimizda qatagʻon qurbonlari Choʻlpon, Qodiriy, Fitratlar siymosi gavdalanadi. Ularni boshini eganlar endi butun boyliklarimizni yer osti ganjlarimizdan tortib, durdona kitoblarimizni hech tortinmay oʻzlashtirib olayayotganligini, shu bois koʻkda Ulugʻbek ochgan yulduzlar charaqlamayotganini kuyinib soʻzlaydi:

Koʻkda yoʻq Ulugʻbek ochgan yulduzlar,
Koʻhna Urganchingni yemoqda tuzlar.
Yer osti ganjlaring begona koʻzlar
Izlab, kovlab, tashib, gizlashga tushdi.

Shu oʻrinda, Asqad Muxtorning “Har bir chinakam asarning oʻziga yarasha falsafasi boʻladi. Bosh falsafiy fikr asarni yoza boshlashdan oldin ham, yozayotganda ham, yozib boʻlgandan keyin ham sizni bezovta qilib, qiynab, oʻrtab turishi kerak. Shusiz yozilgan asar darrov eʼtibordan qoladi. Asarda bosh fikr, hayot falsafasi, choʻgʻ boʻlmagandan keyin, kitobxon ham yonmaydi”²⁶–degan soʻzlari Omon Matjon ijodi uchun aytilganday. Chunki, shoir tarixga nazar tashlar ekan, oʻz oʻtmishini qoralaganlarga xitob qilib “Boyqarong qotilmish, Temuring xunxoʻr, Manguberding zobit, xor, manglayi shoʻr”ligini iztiroblar qalamga olar ekan, oqni qoradan, yaxshini yomonda ajratish vaqti kelganligini aytadi:

Davr devorida Qodiriy qoni,
Shimolga quladi janub Choʻlponi,
Zahr ichdi billur jom tutgan Usmoning,
Qonli bazm soqiyni soʻrashga tushdi.

²⁵ Раҳимжонов Н. Давр ва ўзбек лирикаси. – Т.: Фан, 1979. - Б. 28.

²⁶ Мухтор А. Ёш дўстларимга. Адабий суҳбатлар. – Т.: Ёш гвардия, 1971. – Б. 15.

Agar e'tibor bersak, doston boshidan oxirgacha kuchli hayajon, dard alam bilan yozilgan. Shoirni qiynagan, uni bag'rini qon qilgan chetdan kelgan, qonni so'rgan zuluklar bilan birga bo'lgan aqli noqis, tafakkuri kemptik kimsalar ekanligini dostonni o'qish jarayonida bilib olamiz. Shoir bu toifa xoinlarni palid, padarkush Abtullatiflar qatoriga qo'yadi.

Kimish! O'zimizning bular palidlar,
Bular o'zimizning abdullatiflar,
Yulduzlar ta'midan bebahra itlar
Oyni yaloq bilib uvlashga tushdi.

Dostonda ezgulik va qabohat, go'zallik va xunuklik, hayot va o'lim, erk-hurriyat va zulm-zalolat mavzu-masalalarini shaxs taqdiri, millat taraqqiyotidagi o'rni haqida shoir kuyinib, yonib kuylar ekan, kitobxonga qarab xitob qiladi:

Shuncha saboq yetar! O'zingga ishon!
O'z aqling, xulosang, ko'zingga ishon!..
Hali o'zbekning bir hayqirishi bor,
Qara, tomirlaring titrashga tushdi!

Yuqoridagi misollardan ham ko'rinib turibdiki, dostonda shoir tomonidan yaratilgan lirik qahramon o'z hayotida, atrof-muhitda, ijtimoiy voqelikda sodir bo'layotgan voqelik bilan daxldorligi, nazdimizda shoir qalbidagi kechinmalarni va fikr-tuyg'ularni dostonda to'kib solish zaruratini yuzaga keltirgan va bu dostonni o'qimishli bo'lishiga sabab bo'lgan.

QARAMLIKNING QAHRLI QISMATI

Ismoil Haydarov, JDPI talabasi
Ilmiy rahbari: (PhD) D.Salimova, JDPI

Butun jahon adabiyotida estetik qarash, hayotni poetik idrok etish, jamiyatdagi kamchiliklarni ommaga ochib berishda har bir yozuvchining o'z uslubi mavjud. Ular xiyonat, pastkashlik, johillikni qoralab, sadoqat, mehnatsevarlik, ko'zlangan maqsaddan qaytmaslik, muxtasar qilib aytganda insoniylikni targ'ib qiladi. Ulug' rus yozuvchisi L.N.Tolstoy fikricha: "Doimiy tashvish, mehnat, kurash, yo'qchilik – bu zaruriy shart-sharoitlardir, hech kimsa bular haqida o'ylashdan o'zini bir daqiqa chetga olmasligi kerak... Halol yashamoq uchun intilmoq, adashmoq, urinmoq, yanglishmoq, nimanidir boshlamoq va tashlab qo'ymoq va yana boshlab, yana tashlab qo'ymoq, doimo kurashmoq va yo'qchilikka chidamoq kerak. Xotirjamlik ruhiy pastkashlikdir". Jek Londonning asarlari, ayniqsa, uning hikoyalari jahon adabiyotida takrorlanmas, muqim o'rinni egallagan desak mubolag'a bo'lmaydi. Uning asarlari qaqragan inson ongini sug'oradi. Muzlagan qalblarga iliqlik nurini yoyadi. Amalga oshirib bo'lmaydigandek ko'rinayotgan maqsadlarni erinmay surayotgan xayollarga, yuksak qoya ortidagi orzularga yetishishni o'ylagan yuraklargacha ulkan bir "undov" olib kiradi, sabr urug'ini sepadi. Insonni mehnatga, mashaqqatga, shuning bilan birga, yuksak muvaffaqiyatlarga

boshlaydi. Uning asarlarini o'qigan odam bir joyda qotib qololmaydi, chunki o'sha asarning ta'siri, undan olgan taassurotlaringiz sizni yurishga, harakat qilishga undaydi. Jek London asarlarining mazmunida boshqa yashirin ma'nolar yotadi. Bu ma'nolar haqida har bir kitobxon o'z nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda mushohada yuritadi. Yozuvchining "Oq so'yloq" asari birgina itning butun bir hayoti yoki ko'rgan-kechirganlari haqidagina emas. Bunda hayot va muhabbat, to'g'rilik va sadoqat, zulm va adolat kabi tushunchalar ham namoyon bo'ladi.

Asarda shimol o'lkasi haqida so'z yuritilar ekan: "Bu yerlarga Xudoning qarg'ishiga uchraganlar kelardi, xolos" kabi jumlar bilan yozuvchi kitobxonni o'ziga torta boshlaydi va o'quvchi ongida shimol o'lkasining tasvirini gavdalantiradi. Asar Oq so'yloqning ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari va uning istak, mayli orqali yoritiladi. Oq so'yloqning o'z xo'jayiniga, ya'ni "xudosiga" bo'lgan sadoqatini, itoatkorligini Bill va Genri obrazlarida ham ko'rishimiz mumkin. Bular o'zlari xavf ostida, bo'rilar galasi ta'qibida bo'lsa ham xo'jayinining jasadini tashlab ketmadi va bo'rilar yem bo'lishidan saqlab qoldi. "Inson hayotining ma'nosi tinib-tinchimaslik va doimiy tashvishdan iboratligini tushungan odam kaltafahmlikdan qutulgan bo'ladi"²⁷.

Jek London o'zining boshqa asarlarida bo'lgani kabi bu qissasida ham Bill obrazi orqali insonni shoshma-shosharlik va kaltafahmli o'z jonini qurbon qilishga olib kelayotganligini ochib bermoqda. Hayotda ne-ne qiyinchiliklar, mashaqqatlar bo'lmasin, barchasiga ishonch, sabr bilan mardonavor kurashib, maqsadga yetmoqlikni Genri misolida ko'ramiz.

Oq so'yloq tug'ilganda uni rang-barang hayot, beayov kurash, ochlik, zulm, xo'rliklar kutayotganini bilmasdi. Lekin uning qaynab turgan qoni, ishtiyoqi, qiziquvchanligi va sezgirligi bir qorindan talashib tushgan to'rt chog'li qarindoshlaridan ajralib turishi bilan birga umr davomida tortadigan azob-uqubatni yenga olishini anglatardi. U o'zi yashab turgan olamni ikkiga: yomon va yaxshi narsalarga ajratib, yomonidan qochish kerakligi, buyumlar ham ikki xil: jonli va jonsiz bo'lib jonlisidan ehtiyot bo'lish kerakligini bilardi, bu esa hayotdagi birinchi sabog'i edi. Voyaga yetmasdan turib kaklik bolalarini yeyishi o'ziga ishonchni, kaklik va lacha bilan urushishi esa unga jasoratni bag'ishlardi. Bu jasorat bilan u latchaning bolasini, onasi bilan birgalikda silovsinni o'ldirishga muvaffaq bo'ldi. Bo'rilar uchun: "Hayotning mohiyati — ov! Hayotdan maqsad ham — ov! Dunyoda tirik jon borki, yeydigan yoki yeyiladigan bo'ladi. Bu qonuniyat aytadiki, ol ye, bo'lmasa o'zingni yeydi". Oq so'yloq bu qonuniyatni to'laligicha idrok etmagan bo'lsa ham shunga itoat qilib yashay boshladi. Shafqatsiz, berahm bu hayot ostonasiga endigina qadam tashlagan Oq so'yloqning hindularni uchratib qolishi va ularning izmiga bo'ysunishi mag'rurligini sindiradi. Kulrang Qunduz timsolida u o'zining birinchi "xudo"sini kashf etdi. Qanchalik hayotiy sharoitga moslashmasin, qarshisidan ketma-ket sinovlar paydo bo'lardi. Onasining boshqa hinduga sotilib, undan ayrilishi boshiga tushgan eng katta zarbalardan biri edi. Kutilmaganda paydo bo'lgan

²⁷ Ziyo.uz —Aleksandr Blok.

ocharchilikdan, hindularning nimjon itlarni so'yib yeyishi Oq so'yloqni ham bu qabiladan bosh olib ketishiga majbur qildi. Nachora, bu bosh olib ketish uzoqqa bormadi. Ochlik, tashnalik, bu shafqatsiz o'rmondagi izg'irin sovuq o'z hukmini o'tkazdi. "Ot aylanib aylanib qozig'ini topadi" deganidek, Oq so'yloq ham tentirab-tentirab o'zi kashf qilgan "xudo" sining qabilasiga qaytishdan boshqa chora topmadi va bildiki, xo'jaynining inon-ixtiyorini bajarishi ochlik balosidan saqlab qolishini. Albatta, tashqi muhit, jamiyat, atrofingizdagilar sizga qanchalik o'z ta'sirini o'tkazgan bo'lsa, Oq so'yloqqa ham bir muhitdan ikkinchisiga o'tish uni galdiratib qo'ydi. Hattoki, ko'pchilik insonlarda bo'lmaydigan sadoqat, vafo, o'z qadrdonlariga sodiqlik Oq so'yloqning vujudida bor edi. Chunki u ham itning ham bo'rining bolasi edi. Unda bo'rilar xos jasorat va sezgirlik, itlarga xos e'tiqod va sadoqat tuyg'ulari shakllangandi. Oq so'yloq Jek Londonning tabiri bilan aytganda dunyodagi eng sadoqatli it edi. Lekin kunduz kuni chiroq yoqib ham topib bo'lmaydigan shunday vafodorlikni sezmasdan qandaydir ichkilikka almashtirish g'irt ahmoqlikdan boshqa narsa emas. Kulrang Qunduz uni shu tarzda bir necha viski butilkalari evaziga Xushro'y Smitga almashtirdi. Hayot uchun haqiqiy kurashish mana endi bohlangandi. Xushro'y Smit uni itlar bilan urushtirar, bu jangdan u katta foyda qilardi, bundan tashqari, o'zi ham urib, savalardi. Oq so'yloqni qanchalik tepkilasa, u shunchalik vahshiylashib, odamlarga bo'lgan nafrati oshib bordi. Yerga ursa ko'kka sapchiydigan Oq so'yloqning Xushro'y Smitga bo'lgan itoatkorligini faqat temir zanjirlargina belgilab berardi. Qachonlardir Oq so'yloq ham itlar bilan bo'lgan jangda yengilishi yoki Xushro'y Smitning zanjirlaridan ozod bo'lishi kerak edi. O'sha kun keldi. Ro'y berishi kerak bo'lgan har ikkala hodisa ham bir kunda sodir bo'ldi. Cheroki bilan bo'lgan jangda Oq so'yloq yengildi. Mana shu jangda u o'zining birinchi marta mag'lub bo'lganini his qildi. Bo'g'zini omburdek bo'g'ayotgan tishlar orasidan uni "najot farishtasi" Uidon Skottgina o'limdan qutqarib qoldi. Oq so'yloqning keyingi hayoti, butun umr tortgan azobi, chekkan mashaqqatlarining rohati edi. U jisman ozod bo'lgan bo'lsa-da lekin ruhan qaram edi. Oq so'yloq shunday kunlar kelishini oldindan bilarmidi? Yoki tortayotgan azob-uqubatlarining ortidagi farovon hayotni maqsad qilganmidi? Bularning barchasi hayot qonuniyati edi, xolos. Bu qonuniyatga bo'ysunmaslik, yoki undan bosh tortish shubhasiz o'lim bilan yakun topadi. Jek London asar so'ngida hayotning o'zi tarbiyalagan ikki vahshiy qahramonlarni o'chrashtirdi. Ularning biri odam ko'rinishida, ikkinchisi, it qiyofasidagi maxluqlar edi. Faqat bularning maqsadlari bir biridan farq qilardi. Birinchisi, yovuzlikni maqsad qilgan bo'lsa, ikkinchisi, sadoqatni himoya qilgandi. Bu jamiyatda Oq so'yloqning g'ururi sindirilib, itoat ettirilgan bo'lsa-da, Jim Xollning g'ururini bo'ysuntirilmadi. Chunki u politsiyachilarning "Yesa ham yemasa ham bo'rining og'zi qon" aqidasiga binoan qamalgan edi. Shu tufayli, Jim Xoll adolatsizlikning, tuhmat balosining qurboniga aylandi, Oq so'yloq esa sadoqat timsoli bo'lib qolaverdi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Jek London Oq so'yloq misolida insonlarga hayot qiyinchiliklariga bardosh berib, yashashni va buning ortida yorqin kelajak borligini ko'rsatib bermoqda. Birgina Amerika emas, butun dunyo

hamjamiyatidagi ongi so‘qir, jaholatni kasb qilganlar uchun Jim Xoll obrazi orqali ularni shafqatsiz o‘lim kutayotganligini aks ettirmoqda. Jek London inson insonga qaram bo‘lsa uni Oq so‘yloqning kuni boshiga tushishini, sadoqat bobida itchalik bo‘lmagan “itlarning” qiyofasini ko‘rsatib bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. J.London. oq so‘yloq (O.Otaxonov tarjimai) – T.: Adabiyot uchqunlari. , 2018. -272 b.
2. Ziyouz.uz .-Aleksandr Blok.

“TIMSOHNING KO‘Z YOSHLARI” QISSASI XUSUSIDA

Usanov Davlat, JDPI talabasi

Ilmiy rahbar: f.f.n. dots. Soatova Nodira

Taniqli o‘zbek yozuvchisi Abduqayum Yo‘ldoshevning “Timsohning ko‘z yoshlari” qissasi hozirgi adabiyotshunoslikda kitobxonlar e’tiborini torta oladigan asarlardan biri sanaladi. Yozuvchi asarlarida yaratilgan qahramonlar xarakteri makon-zamon tushunchalarini o‘zida jipslashtira olganligi bilan alohida ko‘zga tashlanadi. Asrimiz - XXI asr uzluksiz rivojlanish asri, bo‘lsa ham, lekin ayrim toifa odamlari borki, ular hali ham o‘z xayol jamlanmalarini, fikr doiralarini sayoz qirg‘og‘ida qolib ketishgan. Qissada ham aynan mana shu muammolar ko‘tarib chiqilgan. Asar qahramonlari bo‘lmish Munisa, Munira, Salomat opa va bosh qahramon - muharrir. Yana bir qahramon garchi epizodik qahramon hisoblansa-da, asosiy rolni boshqarib keluvchi hisoblanadi va aynan voqealar rivoji ham, kulminatsiyasi ham shu muallifning atashicha - posbon gazeta tahririyatiga kirib kelgach boshlanadi. Badiiy asar yaratish bo‘yicha o‘z aurasiga ega bo‘lgan Abduqayum Yo‘ldoshev o‘z yo‘nalishini yuqori darajaga ko‘tara olgan ijodkor hisoblanadi. Xarakter yaratish yozuvchi uchun birmuncha murakkab hisoblanadi. Boshqa asarlarida bo‘lganidek, masalan, “Sunbulaning ilk shanbasi”, “Yulduzning yo‘li” qissalari yoki “ Puankare”, “Muammo” kabi hikoyalarida ham qahramonlar xarakterini makon va zamonda ideal yarata olgan. Yozuvchining “Timsohning ko‘z yoshlari” qissasida ham qahramonlar tabiati sifat darajasida. Ularning o‘ylagan o‘ylarida, so‘zlagan so‘zida, hattoki tashqi ko‘rinishida, ichki kechinmalarida qahramonlarning ruhiyatidagi o‘zgarishlar yaqqol namoyon bo‘lgan. Xarakter va qahramon ruhiyati, badiiy asar yaratish xususida ijodkorning o‘zi shunday fikrlaydi: “...mening yozish uslubim boshqalarnikiga balki, to‘g‘ri kelmas ham. Qalamga olinajak voqealar o‘zini hayajonlantirgan bo‘lishi shart. Hayajon qanchalik kuchli va samimiy bo‘lsa, asar ham shunchalik kuchli bo‘ladi. voqea yurakda paydo bo‘lsagina haqiqiy qahramon tug‘iladi”. Shu o‘rinda adabiyotshunos olim Dilmurod Quronovning asar yaratish borasidagi fikrlarini keltirib o‘tamiz: o‘zida muayyan ijodiy-ruhiy holatni aks ettirgan badiiy asar ham betakror hodisa sanaladi. Asardagi barcha unsurlar, hatto bizning nazdimizda ortiqchadek tuyulganlari ham muallifning ijodiy ongidagi ruhiy-ijodiy holatni ifodalaydi, demakki, asarning mazmun-

mohiyatini anglashga xizmat qiladi²⁸. Endi “Timsohning ko‘z yoshlari” qissasi yaratilishi haqida to‘xtalib o‘tamiz. Avvalo, asarga nom qo‘yishda nimalarga e‘tibor qaratganligini ko‘rib o‘tamiz. Asarda Munisa ismli yosh qizning hayoti davomida farovon hayot ko‘rmagani, hayotida paydo bo‘lgan odamlardan yorug‘lik ko‘rmagani, asar oxirida esa jinni bo‘lish darajasiga yetishi yoritiladi. Yozuvchi qissaga nom tanlashda ilmiylikka va badiiy tafakkurga asoslanganligini ko‘rish mumkin. Timsohning ko‘z yoshlari – bu badiiy asarlar tilida ibora sanalib, bunda o‘zlarini o‘zlari baxtsiz qilgan, baxtsizlik tubiga o‘zini irg‘itgan odamlarga nisbatan ishlatiladi. Bundayin odamlar o‘z qayg‘ularidan o‘zlarini aldaydilar. Va hatto quvonadilar. Bunday odamlarga nisbatan timsoh ko‘z yosh to‘kyapti iborasi qo‘llanadi. Ilmiylikka asoslanganligi esa yunonlar sahna asari qo‘yishganda asar boshdan oyoq komedik janrda yozilgan asli tragediya bo‘ladi. Kulgili holatlar ko‘p bo‘lishi, orasida kimnidir jazoga tortilishi bayon qilinadi. Yana boshqa ma‘lumot: yunonlar olomonni ko‘z oldida aybdor qulni nimta-nimta qilib go‘shini timsohga berishgan. Bu esa olomonni yig‘lashga olib keladi. Shunda timsohning ko‘z yoshlari iborasi ilmiy jihatdan asoslanadi. Demak, yozuvchi asarni nomlashdayoq qahramonlar ruhiyatiga mos nom tanlagan. Asarda inson huquqlari toptalishi, loqaydlik, jabr-zulm mavzulari ochib berilib qattiq qoralanadi. Endi asarda qo‘llangan aforizm va matallarga ko‘z tashlaymiz. Sichqon sig‘mas iniga²⁹. O‘g‘ri qarisa so‘fi bo‘ladi, bo‘ri qarisa ... o‘ladi [17-bet]. Astoydil yig‘lasang so‘qir ko‘zdan yosh chiqar [23-bet]. Har kimning go‘ri boshqa [40-bet]. Ishona olmaslik – o‘zlari ishonchdan mahrum kimsalarga tekkan abadiy tuzalmas darddir [50-bet]. Quyosh nuridan ko‘ra odamni ichidan chiqqan issiqlik ko‘proq qoraytiradi [52-bet]. Ko‘z yoshidan keyingi muhabbat shirin bo‘ladi [56-bet]. Birinchi aforizm Munisa olayotgan pulning qiymati haqida. Ishlagan puli ota – onasiga, o‘ziga, ijarasiga ishlatgandan so‘ng ham ishxonasiga nimalardir olib kelishi mahaliga ishlatilgan. Bundan ko‘rinadiki, qizning ruhiyati itoatga moslashgan. Hayotni yorqin ko‘radigan, qanoatli qiz tasvirlanadi. Boshqa iborada qahri qattiq insonlar beshafqatlik bilan ish ko‘raverib yuzi qotgan, lekin qachondir to‘g‘ri yo‘lga qaytib afsuslansa, qilgan ayblarini to‘g‘rilaydi degan ma‘noni chiqarish mumkin. Yoki nimanidir qattiq xohlasang, albatta, erishasan degan ma‘noda ham qo‘llangan. Yozuvchi Salomat opa timsolida kimni ko‘ra olgan bo‘lishi mumkin, bu qahramon o‘ta bashoratlarga mukkasidan berilgan, har qiladigan ishini foldan boshlaydigan inson. Tush ko‘rish bu sokin lahzalikda muayyan jarayon hisoblanadi. Qahramonimiz hattoki tushiga ham keng fikrlamasdan ishonish yo‘lidan boradi va ko‘ra bilaturib, tushuna olmay timsohlarga yem qilib yuboradi. Aslini olganda - ustozlarimiz ta‘kidlaganiday, har bir tushni yaxshilikka yechish kerak. Salomat opa ruhiyati o‘z gaplarida yaqqol namoyon bo‘ladi: “aytadi-ki, men uyda baxt topmaganman, uydagi latta er meni hech qaysi talabimga javob bermaydi, hatto-ki, biror marotaba tarsaki ham

²⁸ Dilmurod Quronov, Adabiyot nazariyasi asoslari. –T., 2018. -125-bet

²⁹ A. Yo‘ldoshev. Timsohning ko‘z yoshlari. –T., 2003. 15-6et (Bundan keyingi iqtiboslar shu nashrdan olinadi va beti qavs ichida ko‘rsatiladi)

tushirmagan”. U istaydi-ki, uning eri ham boshqalarday gaplari zardali, qattiqqo‘l bo‘lsin. Munisaning har qiynalgan bir kuni uning nazarida aynan erkak kishining qattiqqo‘lligi va qizning baxtli kuni edi. Keyingi qahramon hikoya qiluvchi muallif. Bu qahramonni tasvirlashda psixologik analitikasida ko‘rib turib indamay turadigan odamni yaratgan. Ruhiyatida mavjud bo‘lmish bu xarakter (mening nazdimda), tom ma’noda, jamiyat hayotida bir illat sanaladi. Ko‘z oldingda bir insonni yo‘q qilinishi xuddi-ki, xushmanzara bog‘ga chaqirtikanak bosgan paytda bog‘ni yaqin insonlar tozalamaganligi bilan izohlash mumkin. bilamizki, shaxs va jamiyat taraqqiy topishida asosiy rolni kuchli e’tibor tashkil etadi. Atrofingda loqaydlik paydo bo‘ldimi, bilgin-ki, demak, sen jar yoqasidasan. Bir donishmand shunday degan edi: “dushmanlardan qo‘rqma – ular seni o‘ldirishi mumkin, do‘stlardan qo‘rqma- nari borsa, xiyonat qilishi mumkin. Loqayd odamlardan qo‘rq – ular seni o‘ldirmaydi ham, sotmaydi ham, faqat ularning jim va beparvo qarab turishi tufayli yer yuzida xiyonat va qotillik sodir bo‘laveradi”. “...xalq tilini, uning nozik tomonlarini va so‘z yasalish qonunlarini yaxshi bilib, til boyliklaridan erkin foydalana olgan”³⁰ Yozuvchining bu qahramoni qissada jamiyat illatlariga beparvo qarovchi amaldorlar deya tasvirlangan. Agar oz bo‘lsa ham yonidagi qizning hayotiga e’tibor qaratganida Munisaning hayotini saqlab qolgan bo‘lar edi. Keyingi ruhiyat egasi bu – posbon. Bu qahramon haqiqiy illat. Ya’ni bog‘dagi chaqirtikanak hisoblanuvchi detal. Birovlardan ko‘rgan jabrini, azobini boshqalarda sinab ko‘rish uning kasbi. Aslini olganda, bu qahramon oila qurishga noloyiq bo‘lgan va birovlarining azobini ko‘rib rohat qiluvchi insonlarning umumlashma obrazidir. Bunday kishilar haqida Forobiy shunday deydi: “Ruhan kasal odamlar nopok istak va odatlari tufayli buzilgan tasavvurga qarab yomon fe‘l-atvordan huzurlanadi”³¹.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkin-ki, “Timsohning ko‘z yoshlari” qissasi pok va nopok qahramonlar ruhiyatini ochib berib, jamiyatdagi turli xil kamchiliklarni yashirin tarzda ochib bergan asar hisoblanadi. Asardan loqaydlik illatini yo‘q qilish chorasini izlaylik, xayollarimizga berilib, ro‘yo ortidan quvmassdan taraqqiyot sari yo‘l topaylik degan ma’noni anglash mumkin. Bu yo‘lda insonlarni birlikka chaqiradi.

NASRGA KO‘CHGAN SHE’R (TOG‘AY MUROD IJODIDA)

**Xidirova Munavvara Rustamovna
JDPI tayanch doktoranti**

Oqin adib, baxshi shoir Tog‘ay Murodning ilk hikoyasidan so‘nggi romanining oxirgi jumlasigacha tilimiz balog‘ati, so‘zimiz nafosatini kuzatish, tomosha qilib maroqlanish mumkin(1,697).

³⁰ Анъанавийлик ва ворислик. Тошкент.:“MUMTOZ SO‘Z” нашриёти. 2019. 12 б

³¹ Форобий. Фозил одамлар шахри. –Т., 2004. –В.25.

Negadir, Togʻay Murod asarlarini hamma kitobxon ham bir oʻqishda tushuna olmaydi, magʻzin chaqa olmaydi, ruhiga singdira olmaydi. Nega shunday-a?... Bu savolga istedodli ijodkor Yoʻldosh Eshbek quyidagi soʻzlari bilan javob aytgan: “Hamma Togʻayning romanlarini proza deb oʻylaydi... Yoʻq, Togʻay Murodning romanlari poeziya. Poeziya esa tushunilmaydi, anglanadi”(2,84). Sheʼriyatda qalb soʻzlaydi, til emas. Shoirlik bu – insonlarning qalb koʻzlarini uygʻotishdir, yuraklarni junbushga keltirishdir. Togʻay Murod nasrida chinakam maʼnoda dillarni tol bargiday dir-dir qaltiratguvchi, hislarni, tuygʻularni uygʻotuvchidir.

Har qanday shoirda adiblik istedodi boʻladi. Lekin juda kamdan-kam adibda shoirlik iqtidori yuzaga chiqadi. Togʻay Murod shunday ijodkorlar sirasidandir(1, 699). “Oʻzbekiston Qahramoni”, el sevgan adib Said Ahmad bejizga “soʻz zargari” deya taʼrif etmagan Togʻay Murodni. Adibning qissa, romanlarida faqat sheʼriyatga hos boʻlgan ohangdoshlik, yaʼni birxil tovush takroriga asoslangan jumlar koʻp uchraydi.

“Saratonda sap-sariq tovlanadi,
Tunlar bir tun tashqarida toʻpir-toʻpir boʻldi.
Tabiatni toʻlgʻoq tutdi.
Salqin sabolar etimni uvishtirdi.
Surhon saratoni saratonni saratoni boʻldi.
Qizlar quloqlari qirqta boʻldi.
Ayollarimiz ayollar ashulasini boshladi”.

Mumtoz sheʼriyatda, yoyinki umuman, sheʼriyatda tashbehsiz, yaʼni oʻxshatmalarsiz sheʼrning maromiga yetilganligi juda kamdir. Adib asarlarida uchraydigan oʻxshatmalar kishi qalbini sarxush qiladi. “Uning qissalarida favqulotda tashbehtar guros-guros uchraydi(1, 699).”

“Dalalarim beti sochday-sochday yoyildi.
Osmon zigʻir gulday – zigʻir gulday boʻldi.
Ari uyasi kunga boqarday boʻldi.
El chehrasi chechak-chechak boʻldi.
Toshkent bilan Qoʻqon oraligʻ ikki qosh oraligʻiday keladi.
Oʻtkinchi bolalar saratonday sap-sariq boʻladi.
Jamoliddinning ketmoni dalasiday keladi.”

Bu kabi tashbeh-tasvir orqali ijodkor hayot shavqatsizliklarini, hayot goʻzalliklarini dangal aytadi-qoʻyadi.

Adib ijodi janrlar aro takomillashib boradi. Togʻay Murod asardan asarga ulgʻayib, mahoratini, badiiy didini oʻstirib boradi(3,156). Soʻz takroriga bagʻishlanganlar lafziy sanʼatlardan biri boʻlgan tardi-aks sanʼatidan-da unumli foydalanadi.

“Saraton bolalardan sariq boʻldi,
Bolalar saratondan-da sariq boʻldi.
Dalalarim osti ustun boʻldi,
Dalalarim usti ostin boʻldi.

Ushbu jumlar orqali ijodkor misra jarangdorligini oshirishga intiladi. Misralar ohangdorligini, ritm shiddatini yuzaga chiqishiga turtki beradi.

Tog‘ay Murod so‘zi, olami, tasvirlari uning asarlarini ham nasriy, ham poetik asar sifatida mutolaa qilishga imkon yaratadi.

Tog‘ay Murod musavvir nigohi-la, millat qiyofasini, xalq ruhini nasrga ko‘chgan she‘rlarida tiniq tasvirlaydi.

Adabiyotlarro‘yxati:

1.T.Murod Tanlangan asarlar. Abadiyot V.Fayzulloh “Sharq ” T 2019-yil 697-699-betlar.

2.”Men qaytib kelaman” zamondoshlari xotirasi I.Razzoq. Ziyo uz com kutubxonasi 84-bet.

3.”Men qaytib kelaman” zamondoshlari xotirasi U.To‘laganova Ziyo uz com 156-bet.

IJODKOR SHAXSI VA BADIY OBRAZ

Murodova Madina, JDPI talabasi

Ilmiy rahbar: f.f.n., dotsent Yulduz Karimova

“Personaj (lot. Persona – shaxs) – san‘at va badiiy adabiyotda muallif tomonidan tasvir etilgan shaxs. Personajlar asar voqealarida qatnashuvi, tasvirlanishi va umumlashtirilishi darajasiga ko‘ra asosiy personajlar, yordamchi personajlar, epizodik personajlarga bo‘linadi. Badiiy asar voqealarining boshidan oxirigacha faol qatnashgan va yozuvchining asosiy g‘oyaviy- estetik niyatini tashuvchi shaxslar asosiy personajlar hisoblanadi. Ular asarning bosh qahramoni hisoblanadi. Barcha voqealarda to‘la qatnashmasada, yozuvchining g‘oyaviy niyatini to‘laroq ochishga xizmat qiladigan faol obrazlar yordamchi obrazlardir. Asarning makrostrukturasida yanada kamroq qatnashadigan shaxslar epizodik personajlar bo‘lib qolaveradi”.[1; 1]

Ushbu maqolada milliy adabiyotimiz “domovoyini” (Abdulla Qahhor) pishiq va puxta ishlangan personajlar bilan boyitgan Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlaridagi asosiy obrazlar Otabek va Anvarning tabiatidagi o‘xshash jihatlarni tahlil qilamiz.

Ma‘lumki, “Xarakter – adabiyot va san‘at asarlarida xususiy belgilari mukammal tasvirlangan va o‘zida fe‘l atvor (xatti-harakat, kechinma, fikriy va nutqiy faoliyat)ning tarixan aniq tipini mujassamlashtirgan, shuningdek, muallifning ma‘naviy-estetik konsepsiyasini ifodalagan inson obrazi. Adabiyot va san‘at asarlarida tasvirlangan qahramonlar har doim ham xarakter darajasiga ko‘tarila bermaydi. Xarakter obrazdan farqli o‘laroq, yozuvchidan katta mahoratni, qahramonning muayyan tarixiy, ijtimoiy va madaniy, ma‘rifiy sharoitdagi o‘ziga xos o‘rni va xususiy belgilarini teran ochishni taqozo etar”[1;2] ekan, shu ma‘noda “O‘tkan kunlar”dagi Otabek xakteri katta mahorat bilan yaratilganligini ko‘rishimiz mumkin. Otabek og‘ir tabiatli, ziyoli, dunyoni o‘ziga xos tarzda tushingan, o‘tkir adolat hissiga ega shaxs edi. Otabekning o‘qimishli, salohiyatli, o‘z Vatani va millati taqdiriga befarq emasligini Ziyo shohichining

uyidagi ziyofatga aytilgan Shamaydagi boshqaruv va idora usuli to'g'risidagi fikrlari orqali ham bilishimiz mumkin:

“ -Shamayga bormasimdan ilgari o'z hukumdorlig'imizni ko'rib, boshqalar ham shundaydir, deb o'ylar edim, -dedi bek, -lekin Shamay manim fikrimni ost-ust qilib, o'zimni ham butunlay boshqa kishi yasadi. Men o'risning idora ishlarini ko'rib o'z idoramizning xuddi bir o'yinchoq bo'lg'anlig'ini iqrar etishka majbur bo'ldim...Bizning idoramiz bu kungi tartibsizligi bilan ketabersa, holimizning nima bo'lishig'a aqlim yetmay qoldi”.[3;17]

“Mehrobdan chayon”dagi asosiy qahramon Anvarning xarakterida ham og'ir tabiatlilik, vazminlik shu bilan birgalikda mardlik, to'g'riso'zlik, jasoratni ko'ramiz. Anvar cheksiz vijdon sohibi edi. U o'z manfaati yo'lida do'sti Sultonini qurbon qilishni istamaydi. Mana shu istamaslik orqasidan u dor ostiga keladi. Osuda vijdon bilan o'limga tik boqib boqqan Anvar o'z badkirdorliklarining natijasidan mamnun turgan mulla Abdurahmonning asl qiyofasini ochib tashlaydi:

“ -Kulishga haqqingiz bor, domla, chunki o'ch olasiz, - dedi Anvar. Birdan hammaning ko'zi Abdurahmonga tushdi. – Faqat siz iflosliq natijasida kulasiz, men...men to'g'riliq samarasini o'raman, siz iflos vijdon bilan g'olibsiz, men sof vijdon bilan mag'lubman... Meni dor ostiga kim keltirdi? Vijdon emasmi, taqsir?! Sizni bu yerda kim tomoshabin qildi. Iflosliq emasmi, taqsir?!”[4;280]

Qodiriy “O'tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanidagi har ikkala asosiy personajni ham mard, dovyurak, haq so'zni tab tortmay ayta oladigan, jasorat egalari qilib tasvirlagan. Otabekning dovyurakligi, haq so'zni o'z o'rnida ayta olishdek juratini Xudoyorxon saroyida Musulmonqul bilan kechgan dialogda kuzatishimiz mumkin:

“ -Menga qarang, bek yigit, -dedi. Otabek o'ziga qarag'ach:

-Siz kim bo'lasiz?-deb so'radi. Ul hanuz boyagi masxara holatda edi.

-Men Otabek.

-Dunyoda Otabekdan ko'pi bormi, siz qanday Otabek?

-Otabek Yusufbek hoji o'g'li.

-Ha-a-a, shundog' deng-chi... Toshkentlik Yusufbek hoji kim, Azizbegimizning gumashtasi bo'lg'an zoti sharifning o'g'illarimi?

-Siz meni qanday tanig'an bo'lsangiz-bo'lingiz, men o'shandog' kishining o'gli, -dedi bek. – Men bilan otam siz bilan qushbegiga bir necha turlik bo'lib tanilsaq-da, o'z vijdonimiz oldida bir turlikkinadirmiz! Shuning uchun siz tilagan tarifingizga hukm qilingizda, buyrug'ingizni beraveringiz”.[3 ;124-125]

Otabekning bunday jasorati Musulmonqulni ham zavqlantiradi “Dav yuraging bor ekan, yigit...Hayfki, gunohing bo'yningda”.[3;125]

Shu o'rinda Anvarning Xudoyorxon bilan yuzma-yuz kelgandagi holatiga e'tibor qaratamiz:

“ -Men sizdan marhamat so'rab kelgan emasman, - dedi iljayib Anvar. – O'zimni o'limga berib, bir gunohsizni qutqazish uchun kelganman.

-Pusulmonchiliq qig'ansan-da?

-Albatta, - dedi Anvar, - boshqalar kishi gunohi uchun gunohsizni tutib pusulmonchilikdan chiqqach, men pusulmonlik bilan o'lishni o'bdan bildim.

-Sening qig'an ishing pusilmonchilikda bormi, it uvli?

-Musulmonchilikda yuzlab xotin ustiga, bir kambag'al uylanmakchi bo'lg'an qizg'a ham zo'rliq qilish bormi, qiblayi olam."[4;278]

Guvohi bo'lganimizdek, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlari qahramoni Otabek ham, Anvar ham yozuvchining idealidagi millatimizning uyg'oq farzandlari obrazidir.

Biz Qodiriy muhlislari: yozuvchining 1926-yilda sudda so'zlagan nutqidan xabardormiz: "... tavba qulluqdir, bo'yin egish bandalikdir, banda esa haqiqatga tushunib emas, kuchlanib, ojizlanib bo'yin bukadir. Bas, bu holdagi tavba tavba emas, balki shaxsiy ixtiyorni, muhokamani qo'ldan berib odamgarchilikdan chiqishdir. Tavba, qulluq bu dunyoda qilish bo'lmasin, chunki bu rasvoliq, ammo haqiqat oldida bo'yin egish bo'lsin. O'zing bir haqiqatga qonmay turib va o'zingning xatoyingga tushinmay turib ojizdan qilingan tavba tavba emas: ham "O'zingni, ham o'zgani aldashdir, rasvoliqdir".[2;795]

Darhaqiqat, Otabek ham, Anvar ham qulluq qilish bilan haqiqat oldida bo'yin egish chegarasini aniq bilgan qahramonlar. Bu borada ular Qodiriy shaxsiyatini o'zlarida yorqin gavdalantira olgan badiiy jozibador xarakterlar ekanligiga amin bo'lamiz.

Biz Abdulla Qodiriyning shaxs sifatidagi qirralari, insoniy fazilatlarini, ijodkor sifatidagi tamoyillarini "Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida"[1] , Habibulla Qodiriyning "Otam haqida"[5] kabi kitoblari mutolaasi orqali bilamiz. Otabek va Anvar obrazlarining ma'naviy-axloqiy dunyosi ildizi Abdulla Qodiriyning shaxsiyatidan oziqlanganini payqash qiyin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1985.
2. Qodiriy Abdulla. Tanlangan asarlar. Toshkent: "Sharq", 2014.
3. Qodiriy Abdulla. O'tkan kunlar. "Navro'z", Toshkent, 2019.
4. Qodiriy Abdulla. Mehrobdan chayon. "Sharq", Toshkent, 2010.
5. Qodiriy Habibulla. Otam haqida. Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti.1983.

ERKIN VOHIDOV IJODINING O'ZIGA XOS QIRRALARI

Jo'rayev Shukrullo, JDPI o'qituvchisi

XX asr ikkinchi yarmi o'zbek adabiyoti rivojida ErkinVohidovning munosib o'rni bor. Mustabid tuzum sharoitida u o'zining haq so'zi bilan el orasida e'tibor qozondi.Yozuvchi o'z she'riy asarlarida hamisha haq gapni aytishga intildi. Ehtimol, uning she'rlarida yuzaki o'rinlar bordir, ammo adib hech qachon yolg'on gap aytmagan, mustabid, mafkura, siyosat nog'orasiga o'ynab vijdonini sotmagan, murosasozlik yo'lga kirmagan. U o'tkinchi

mayllarga berilmay, soʻz sanʼatining azaliy muammosi – shaxs jumbogʻi, ijtimoiy adolat tuygʻusi ifodasi bilan qiziqdi.

Muallif qoʻlidagi qalam goʻyoki yozmaydi, balkim qalami uchidan soʻzlar musiqa singari quyilib keladi uning sheʼrlari yakka soʻzda chalingan dilrabo kuydek yangraydi, koʻp ovozli simfoniyaning eslatadi, publisistik maqolalarini oʻqiganda inson koʻngil xazinasining, tuygʻularining xilma-xil jilolari mujassam, oddiy maishiy kechinmalardan tortib ulkan ijtimoiy mushohadalar, qabohatlar haqida qalam tebratganda ham ajib samimiyat, hazin va nurlil bir kuy aks-sado berib turadi.

XX asrning 60-yillari oxiriga kelib Erkin Vohidov yetakchiligidagi adabiy avlod asta-sekin inson shaxsi, uning tuygʻulari tasviriga eʼtibor qarata boshladi. Insonning ruhiy kechinmalari poetik tasvir obyektiga aylandi.

Erkin Vohidov 1968 yilda aruzda bitgan “Oʻzbekim” qasidasidayoq milliy gʻururni uygʻotish, ulus ahlida milliy ruhni mustahkamlash niyatini poetik voqelikka aylantirgan edi. Maʼlumki, oʻz vaqtida aytilgan badiiy soʻz qudratli kuchga ega. “Oʻzbekim” oʻz vaqtida maydonga tashlangan mardona poetik chorlov boʻlgandi. Millatning fikrlash va yashash tarzidan tortib, toʻyu marakalariga qadar begona yoʻriqqa tushib borayotgan bir vaqtda bu sheʼr oʻzbekdagi oʻzbeklikni saqlab qolishda beqiyos amaliy ahamiyat kasb etdi. “Oʻzbekim” millatni chinakamiga uygʻotdi, unda gʻurur, iftixor tuygʻularini paydo qildi.

Oʻzbekiston xalq yozuvchisi Oʻ.Hoshimov shunday degan edi “Haqiqiy ijodkor oʻz xalqining fidoyi va sodiq farzandi boʻladi. Bu hamma zamonlarga, hamma xalqlarga xos udum. Erkin Vohidovning talay asarlari bunga misol boʻla oladi. Birgina „Oʻzbekim“ni oling! Oʻz vaqtida shoirning boshiga koʻp savdolar solgan, “peshonasini gʻurra qilgan“ bu qasidani oʻzbekning gimni deyish mumkin. Ammo bu oddiy madhiya, faxriya emas. Hajmi kichik asarda xalqimizning ming yillik tarixi, quvonch va iztiroblari gʻoyat tabiiy, gʻoyat teran aks etgan. Bir maktabga borganimda butun sinf bolalari “Oʻzbekim“ni boshidan oxirigacha joʻr boʻlib yoddan oʻqiganini koʻrganman va xalqimizning shunday shoiri borligidan faxrlanganman”³² deya taʼkidlaganligini alohida aytib oʻtishimiz maqsadga muvofiq

Darhaqiqat oʻzbek adabiyotida oʻzining munosib oʻrniga ega boʻlgan adib oʻz ijodiy faoliyati davomida koʻrsatib bergan desak adashmagan boʻlamiz. Shu sababli ham adib 1983-yilda Hamza nomidagi Oʻzbekiston Davlat mukofoti laureati, 1987-yilda Oʻzbekiston xalq shoiri, 1997-yilda “Buyuk xizmatlari uchun”, 1999-yilda “Oʻzbekiston Qahramoni” ordenlari bilan taqdirlangan.

Adib chindanda salmoqli ijod qilganligi kitobxonlar tomonidan uning xalq orasida mashhur boʻlgan “Kamtarlik”, “Oʻzbekim”, “Nido”, “Inson oʻzing”, “Doʻst bilan obod uying” sheʼrlarining kitobxonlar hamda barcha adabiyot havasmandlari, soʻz sanʼati shaydolari, oʻzbek xalqi hayotida katta maʼnaviy tarbiya vazifasini oʻtaganligini koʻrishimiz mumkin.

³² Ximik ochiq insiklopediya 1991.y yozuvchi bilan suhbat

Erkin Vohidov ijod cho‘qqisiga chiqish bilan birga insoniylik cho‘qqisini ham zabt etgan inson ekanligini ko‘p shoiru, yozuvchilarimiz o‘z xotiralarida ko‘p bor ta’kidlab o‘tishgan.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, qalbida vataniga bo‘lgan muhabbat cheksiz bo‘lgan, insonning farovon hayotini har narsadan ustun ko‘radigan, shuningdek, muhabbat borasida dengizday qaysar, ummondek cheksiz, tog‘lardek ulug‘vor bo‘lgan insonni o‘z umrining qahramoni deyish mumkin. Erkin Vohidov ham shunday insonlardan edi desak yanglishmagan bo‘lamiz. Mustaqillikka erishib o‘zligini, o‘zbegini yaratayotgan xalqimiz esa bunday insonlarni ulug‘lashi tabiiy va mantiqiy holdir. Erkin Vohidovning hayot yo‘li, yaratgan asarlari va ulardagi yetakchi g‘oyalar har bir inson qalbida ezgu fikrlarga yondosh tarzda yashashiga ishonamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “ERKIN VOHIDOVNING SO‘Z QO‘LLASH MAHORATI” Guliston. 2020 yil
2. Karimov A. Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T: Sharq. 1997 yil
3. Rasulov A. Ardoqli adib.O‘tkir Hoshimov hayoti va ijodiga chizgilar. – T., “Sharq”, 2001
4. Ximik ochiq insiklopediya 1991.y yozuvchi bilan suhbat

PEYZAJDA RUHIYAT TASVIRI

Toshpo‘latov Muhammadqodir, JDPI talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.n., dotsent Yulduz Karimova

Ijodkor qalbi – Ollohning nazargohi. U kishining dunyoni anglay bilish va tushunish yo‘lidagi tasavvurlarini bir nuqtada jam etadi. Kishining borliqni o‘ziga xos idrok etishi tafakkurda bevosita akslanadi. Yoki odamning o‘zgalar, xususan, ijod ahlining poetik nigohi vositasida olamni anglashi ko‘ngilda ijodkorona kayfiyat uyg‘otishi tabiiy bir hol. Shoirni, yozuvchimi, musavvirni, baribir u ko‘ngil odami, qalb kishisi. Ijodkor dunyo go‘zalligiga, tabiat tarovatiga o‘zgacha nazar bilan boqadi, har qanday oddiy ko‘ringan narsa yoxud hodisadan-da ko‘rkamlik qidiradi. Jumladan, ne-ne sir-sinoatlarni bag‘riga jo qilgan tabiat manzarasini ilm odami fan nuqtayi nazaridan tushuntirsa, ijod ahli o‘ziga xos yo‘ldan boradi: mohir rassom serjilo bo‘yoqlar-u ajib chizgilar bilan uni qog‘ozga muhrlasa, so‘z san’atkorlari uning fusunkorligini til vositasida badiiy unsurlar yordamida tasvir etadi. Shu o‘rinda “peyzaj” atamasining adabiyotshunoslik ilmidagi izohini keltirish ayni muddao bo‘ladi: “Badiiy adabiyotda jonli va jonsiz tabiat manzaralari peyzaj deyiladi. Peyzajning birinchi va oddiy vazifasi tasvir kechayotgan joyni anglatishdan iborat” [1:196-bet]. Ayniqsa, lirik asarlarda tabiat manzaralari tasviri – peyzajni yaratish ijodkordan ulkan badiiy mahorat, o‘tkir shoirona nigohni talab qiladi. Negaki shoir boshqalardan farqli o‘laroq olamni bor tarovati bilan, uning ko‘z ilg‘amas

jihatlariga-da e'tibor qaratib tasvirlashi lozim. Bunda ijodkor o'z tasavvur doirasidan ham kelib chiqib jonli tasvir yarata bilishi orqali badiiy tafakkur tarzini ham kitobxonga anglatadi. Boisi she'riy asarda keltirilayotgan peyzaj ham lirik qahramonning ruhiy dunyosini, qalb kechinmalarini o'quvchi ko'z oldida yaqqol namoyon etsagina o'zining badiiy vazifasini bajargan bo'ladi. Bu kabi fikr-mulohazalar adabiyotshunoslar tomonidan ko'p marotaba ta'kid etilgan. Xususan, adabiyotshunos olim Hotam Umurov shunday fikr yuritadi: "...adabiyot va san'atda borliqning hamma atributlari o'z aksini topadi, faqat ular bitta shartga bo'ysunadilar, ya'ni ular inson xarakteri va ruhiy holatining u yoki bu qirrasini ochishga xizmat qilishlari lozim" [2: 27-bet]. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, o'zbek lirikasida peyzaj yaratishning xos xususiyatlari borligini ko'rish mumkin. Bunda shoir o'z lirik qahramonining his-tuyg'u va kechinmalari tasvirini berishda tabiat manzaralari yoxud unsurlariga murojaat etadi. Xususan, hassos shoir Abdulla Oripovning "Kuz xayollari" she'rida quyidagi misralar keltiriladiki, unda tasvirlangan tabiat manzarasi aslida lirik qahramon ruhiy olamiga tutilgan ko'zgudek:

Bunda bari go'zal:tim qora osmon,
Yulduzlar boqadi tund va yovvoyi.
Qamishzor,shovullab turguvchi soy ham
Sovuq va yoqimli:shundoq anvoyi,
Ularga boqaman,to'naman ba'zan,
Shirin bir xayolga cho'maman ba'zan. [3:3-bet]

Tabiat manzarasini kontrast holatdagi: **"go'zal, tund va yovvoyi", "sovuq va yoqimli"** tasviri lirik qahramon ruhiyatidagi bezovtalikka ishoradek, go'yo.

Ularga boqaman, to'naman ba'zan
Shirin bir xayolga cho'maman ba'zan

Guvohi bo'lganimizdek, shoir umrning sarhisob sayin yaqinlasha borayotgan holatidan –kuz tasviridan – go'zal manzara yaratib, so'zning badiiy qudratidan mohirlik bilan foydalana olgan. Nazarimizda, shoir peyzaj yaratish orqali ham so'ngsiz o'ylarning, cheksiz xayollarning tasvirini yorqin ko'rsatib berishning imkoni borligini siz-u bizga anglatmoqchidek bo'ladi. Yoxud ijodkor she'rning oltinchi bandida hayotdan ezgulik, go'zallik izlab yashash umrning mazmunrang lahzalari ekanligiga ishora qilgan:

Meni savollarga ko'mar daf'atan,
Xazonning taqdiri, so'nggi shovqini.
Ko'zimga ko'rinar umrim qaytadan,
Garchand surmakdaman bahor shavqini,
Garchand yigit yoshim yashnab tursa ham,
Keksalik qismatin o'ylayman shu dam. [3:4-bet]

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, to'rtinchi misradagi "bahor shavqi" aslan umr mobaynida hayotdan yaxshilik, hikmat izlamoq fursatidir. Boisi ko'ngil ezgulikka makon bo'lgandagina hayotning bor zavq-u shavqini tuyish mumkin. Ushbu she'rdagi tabiat tasviri unsurlari, ta'kidlaganimizdek, his-tuyg'ularning ifodasidir. Shuningdek, atoqli shoirning "Men nechun sevaman O'zbekistonni"

she'rida qo'llanilgan peyzaj namunalari ona yurtga muhabbat tuyg'usi bilan qorishib ketgan. Xuddi she'rda shoir ona tuproq bilan so'zlashgandek bo'ladi. O'z navbatida tuproqqa oddiygina tabiat unsuri sifatida qaralmaydi, aksincha ona – Vatanning ilk suratiday e'zoz qilinadi:

Men nechun sevaman O'zbekistonni?

Bog'larin jannat deb ko'z – ko'z etaman,

Nechun ardoqlarkan tuprog'ini men

O'paman: "Tuprog'ing bebaho, Vatan..." [3: 8-bet]

Bu dilbar satrlar tabiat-u yurtning fusunkorligini, muqaddasligini ko'rsatadi. Bundayin go'zal misralar hamisha ko'ngil hislari bilan uyg'un yashaydi va qalbni ma'naviy boyitadi.

Muxtasar qilib aytganda, she'riyat atalmish so'lmas bo'ston bor ekan, u doim murakkab xilqat – insonning ko'ngil kechinmalarini badiiy in'ikos ettirish asnosida uning tabiat-u jamiyat bilan uzviy munosabatini ham namoyon qiladi. Ayniqsa, tabiat manzaralari tasviri kishining borliq bilan uzilmas rishtalarini badiiy ifoda etadi. Binobarin, she'r chinakam go'zallikning so'zda jilolangan suratidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Yo'ldosh Q.,Yo'ldosh M. Badiiy tahlil asoslari.T.: "Kamalak", 2016.
- 2.Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi.T.:A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2004.
- 3.Oripov A. Men nechun sevaman O'zbekistonni. T.:G'.G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2006.

POETIK TAFAKKUR VA BADIY MAHORAT (“O'TKAN KUNLAR” ROMANI MISOLIDA)

Shuhratjonova Nigora, JDPI talabasi

Ilmiy rahbar: Nodira Soatova

JDPI dotsenti, f.f.nomzodi

So'z san'ati mumtoz namunalarining buyukligi shunda ko'rinadiki, bu asarlarni qayta–qayta talqin va tadqiq etish va har gal ularning yangi qirralarini topish mumkin. O'zbek romanchiligining to'ng'ich va yetuk namunasi bo'lmish Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” romani ham shunday badiiy barkamol

asarlar jumlasiga kiradi³³. Darhaqiqat, "O'tkan kunlar" romani mutoola qilinganda, yozuvchining asarda xilma-xil usul, uslub, ifoda vositalaridan mohirona foydalanganiga olgani hanuzgacha kitobxon ahlini hayratga solishi tabiiy.

Chunki, romanning boshidan oxirigacha san'atkorona tasvirlagan lavhalarda adibdagi poetik tafakkur jozibadorligi, nozik didi yaqqol namoyon bo'ladi. Bu holat birinchidan, roman voqealarini bir – biriga kuchli mantiq ipi bilan bog'lanishida, ikkinchidan rangin ohanglar yaratishda fikrni ta'sirchan yetkazib berishda, uchinchidan inson xarakteri va holati, muhabbat va nafrat tuyg'ularini kitobxon ko'z oldida gavdalantirishda, to'rtinchidan inson his-tuyg'usi, o'ylari tasviri va tabiat tasvirini berishda ko'zga tashlanadi. Roman syujeti uzluksiz davom etadigan ichki ziddiyatlarga to'la harakatlar zanjiridan tashkil topgan. Asardagi voqealar tasvirida qahramonlar hayotidagi tala-to'plarni adib badiiy bo'yoqdor lavhalarda tasvirlaydi.

Yozuvchining o'ziga xos uslubi romanda uning ijobiy yoki salbiy emotsiyasini ro'y-rost ko'rsatib, tasvir predmetining muhim xususiyatlarini ajratib turadigan jihati, adibning so'zlardan zargarona foydalana olganda yorqin namoyon bo'ladi. Zero, Abdulla Qodiriy roman qahramonlari tili xalqning so'zlashuv uslubiga yaqin so'z va iboralar, sodda, siqiq, quyma jumlar bilan favqulodda tiniq fikrni ifodalaydi.

Masalan: "O'tkan kunlar" romanida yozuvchi turli vosita va usullar bilan xalqchillik ruhini ifodalaydi. Asarda bir qator xalq tiliga oid so'z va iboralar ham uchraydi: ...o'rningni qalin qilib burkanib yot, terlasang yorisharsan, qizim³⁴. Oftob oyim erining so'zini kuchlab tushdi. (30–bet) ...To'ybeka o'ngu ters osh chaynab... (32–bet) Tentakkinangning aqli balo, kiroyi kuyaving shundog' bo'lsa. (34–bet).

Shu o'rinda ta'kidlash lozim, u yoki bu yozuvchi o'z asarining tilini belgilashda, albatta, asarda xalq tilidan, xalq tilining boy imkoniyatlaridan qanday foydalanish, qanday yangi so'zlar, qanday eskirgan so'zlar va iboralardan, grammatik formalardan foydalanganini yoki foydalanishni, xalq jonli tiliga, qaysi shevaga xos so'zlarni va iboralarni hamda grammatik formalarni qo'llashni oldindan belgilab oladi va ijodiy jarayonda ana shunga alohida e'tibor bilan qaraydi. Jumladan:

–Nega bu yerda tegirmonchining ishsiz qolgan eshagidek jo'njayib o'tiribsan, Sodiq? (183–bet). Yuqoridagi ibora sodda xalq vakilining so'zlashuv uslubi, beg'araz hazili, xushchaqchaq tabiatini namoyon etadi: –Sodiq, burningmi, Risolat xolamning rapidasi? (182–bet) Endi bu so'z o'yini Sodiq burning tuzilishi (shakliga), uning yapasqi ekaniga ishoradir. Ehtimol, yozuvchi bu o'xshatish bilan tandirga kirib– chiqib turadigan rapida (non yopqich) misolida

³³ Анъанавийлик ва ворислик. – Т.: MUMTOZ SO'Z, 2019. –Б.12

³⁴ Қодирий А. Ўткан кунлар – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994.–Б.30 (Keyingi parchalar ham romanning shu nashridan olinadi va beti qavs ichida ko'rsatiladi).

o'zgarlar turmushiga "burnini tiqib ko'radigan kishi" qiyofasini chizmoqchi bo'lgandir? –Jur, Sodiq, jiyanim, basharangmi, do'lda qolgan tappimi? (183–bet)

Bu parcha salbiy timsol Sodiqning yuz tuzilishi, ko'rinishi xususidagi adib chizgilariga monand ravishda kiritiladi va kitobxonda beixtiyor kulgu, zavq uyg'otadi, uning ko'z oldida Sodiqning ko'rinishini namoyon qiladi.

Misollardan ko'rinadiki, Sodiqning yapasqi burni rapidaga, qora cho'tir yuzi do'lda qolgan tappiga o'xshatilib, uning jo'ralari tilida kulgu ostiga olinadi. Bu bilan adib Sodiqning ichki manfur dunyosi bilan yoqimsiz tashqi ko'rinishini mutanosib ravishda ifoda etadi. Bu uning salbiy obraz chizgisidagi mohir san'atkorligidan dalolat beradi.

Abdulla Qodiriy ijobiy qahramonlarini tamomila boshqa xarakterdagi vositalar bilan, ya'ni yuksak emotsional bo'yoqli vositalar asosida mehr va ardog' bilan tasvirlaydi. U Otabekdagi odamiylik, andisha, kamtarlik kabi fazilatlarni sanab o'tirmay, buni uning atrofida qilargalarga munosabati, muomalasi asosida namoyon qiladi. Bu, ayniqsa, Otabekning Hasanali ota (quli)ga bo'lgan muomala – munosabatida yaqqol ko'rsatiladi: –Ba'zi yumushlar buyursam...–Rahmat, ota, bo'lmasa bizga choy qaynatib beringiz–chi.(9–bet)

Oddiy xalq vakillari nutqlarida ...imon topkur otam xatni muzdek qilib tayyorlatib qo'yg'an ekan (177–bet), men battar uning maftuni kesilar edim (198–bet), ...allaqachon keladigan ishka tushunib olib, Marg'ilondan dumini xoda qildi, desangiz–chi! (238–bet) kabi sodda xalqning so'zlashuv uslubiga xos so'z va iboralar uchraydi.

Yuqori tabaqa va xon ma'muriyati vakillarining nutqlarida rasmiy uslubga xos "adabiylik", jimjimadorlik ustunlik qiladi: Shu kunlarda o'g'ilchaning yoshi yetib, sunnati nabiyunani bajo keltirish taqozo etadir. (90–bet) Davlatimiz stuni, padari arus shahanshoi Musulmonqul bahodir huzurlariga nomai humoyun... (114–bet). Noma oxirida yosh shohimiz janobi hoqoni xavoqin, sultoni salotin hazratlariga... (114–bet) kabi.

Xullas, Abdulla Qodiriy yaxshi insonlar qalbidagi saxovat va zakiylik, ular o'rtasidagi mehr – ehtirom, odob, hayo, andisha, muruvvat, sevgi–sadoqat va fidoiylikni, hayot haqiqatining xilma–xil qirralarini ohorli, betakror so'z va iboralarda, sehrga to'la jummalarda aks ettiradi. Binobarin, yozuvchi ifoda usuli, tilning eng chiroyli, o'tkir va ixcham ifoda vositalarini tanlab olish va ularni ustalik bilan asariga olib kirish, ohorli jumlar tuzish, voqea –hodisalarning eng xarakterli tafsillarini topib tasvirlash orqali adibning so'z tanlash va fikrni ohorli ifodalarda bera olish mahoratini ko'rsatadi.

MUMTOZ ADABIYOTIMIZDA BIZ BILMAGAN OCHUN

Madina Hasanboyeva JDPI talabasi
Ilmiy rahbar: dotsent Zuhra Mamadaliyeva

Vatanimiz tarixi o'zida juda katta merosni jamlagan. Diyorimiz o'tmishiga nazar solar ekanmiz unda buyuk shaxslarni, shoh va shoirlarni, dovyurak

sarkadallarni, har bir misrasi oltinga teng qimmatli asarlarni uchratamiz. Tariximizning bu jihatlari har bir komil inson qalbini gʻurur va iftihor tuygʻulariga toʻldiradi. Tariximiz shunchalik ulkan merosga egaki unda hali oʻrganilayotgan va oʻrganilmagan ulkan xazina yashiringan. Xususan faqat ayrim asarlardagina tilga olingan, lekin ajoyib asarlari bilan oʻsha davrda mashxur boʻlgan shaxslar etarlicha oʻrganilmagan. Jumladan, Temuriylar davrida ijod qilgan, Navoiyning yaqin doʻsti va fikrdoshi Shayxim Suhayliy shular qatoridadir.

Shayxim Suhayliy (1444-1502) XV asr ikkinchi yarmi Hirot adabiy muhiti vakillaridan boʻlib, nufuzli davlat arbobi, qolaversa, zullisonayn oʻzbek shoiridir. Uning “Layli va Majnun” dostoni ham bor. Bu haqida Navoiy oʻzining “Layli va Majnun” dostonida aytib oʻtgan: “ishq haqidagi bu rivoyatni nazm avjining Suhayl yulduzi ham yozmoqlikka mayl qildi, dunyo sahifasida mavjud boʻlmagan asar yaratdi”³⁵. Uning ikki devoni ham boʻlib, lekin ular hali topilgan emas.

Davlatshoh Samarqandiy oʻzining “Tazkirat ush-shuaro” asarida unga shunday taʼrif beradi:

***Xatamash kori jahoniy bidehi rost kunad,
Qalamash ganji maoniy bidehi afshonadi***³⁶.

Yaʼni, *Muhriga jahon ishlarini bersang toʻgʻirlyaydi, Qalamiga maʼnolar xazinasini bersang sochadi* deya shoirga yuksak baho beradi. Bundan koʻrinadiki amir yaxshi ijodkor boʻlibgina qolmay, davlat ishlarida ham anchagina mahoratli boʻlgan deyish mumkin.

Amir, hazrat Navoiyning yaqin doʻsti, suhbatdoshi, hamdardi boʻlgan. Hattoki uni “Yori aziz” deya ardoqlagan va oʻziga juda yaqin olgan. Bu haqida Navoiy oʻzining “Soqiynoma” asarida ochiq aytib oʻtgan:

***Manga gar dardi gʻam anbu oʻldi,
Qismatim gʻussavu anduh oʻldi***³⁷.

Ushbu parchadan ham koʻrinadiki hazrat amirni juda qadrlagan. Bunda u Suhayliyning damsoz va hamrozi ekanligi, charxdan unga zulmlar boʻlganda, gʻussa va anduhlar girdobida qolganda doʻstining suhbat va ruhiy koʻmagiga muhtojligini izhor etgan. Navoiy “Majolis un nafois” tazkirasida ham bir qancha ijod ahli orasida amirni ham qalamga oladi va shunday yozadi: “***Kichik yoshidin tab osori (tabi nozik) va zehn namudori andin koʻp zohir erdi***”. Navoiy etiroficha: “***Agarchi turkcha sheʼrgʻa mashgʻulloq oz qilur erdi, ammo bu matla aningdurkim***”:

***Zuhd eli tasbeh deb hayron qolur avbosh aro,
Rishtai jismimni koʻrsa qatra qatra yosh aro***³⁸.

Bunda Navoiy Suhayliyning turkcha sheʼrlar yozish bilan kam mashgʻul boʻlganligini, lekin ushbu misra juda yaxshi yozilganligini taʼkidlab oʻtgan. Zahiriddin Muhammad Bobur oʻta noziktab shaxs boʻlgan. Oʻsha davrda har qanday ijodkorga ham uning eʼtiborini qozonish nasib qilavermagan. SHayxim

³⁵ WWW.Ziynet.uz интернет сайти.

³⁶ WWW.Ziynet.uz интернет сайти.

³⁷ WWW.Ziynet.uz интернет сайти.

³⁸ Алишер Навоий “Маҷолис ун-нафоис”. library.ziynet.uz интернет сайти.426.

Suhayliy esa uning e'tiborini qozongan ijodkorlardan desak adashmaymiz. *"Boburnoma"* asarida Husayn Boyqaro umarosi sirasida yozadi: *"bir tavr she'r aytur erdi aning abiyotidin bir bayt:*

SHabi g'am gird-bodi oham az jo burd gardunro,

Furo ' burd ajdahoi sayli ashkom rub'i maskunro.

*deb, mazkur misralar keltiriladi. Mashxurdirkim, bir qatla bu baytni mavlono Abdurahmon Jomiy xizmatida o'qubtur. Mavlono aytubdurkim: Mirzo she'r o'qurmisiz yo, odam qo'rquturmisiz"*³⁹.

YA'ni, ushbu baytda aytiladiki, g'am kechasida ohim to'foni osmonni joyidan qo'zg'otdi, ko'z yoshlarim selining ajdari urning to'rtidan birini yutib yubordi. SHoir ushbu baytda mubolag'a san'atining g'uluvv darajasidan juda mahorat bilan foydalangan. Ayniqsa ko'z yoshlarim selining ajdari, urning to'rtidan birini yutib yubordi kabi birikmalarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

SHoirning "Suhayl" taxallusini olishi ham o'ziga hos bo'lgan deyish mumkin. Davlatshoh Samarqandiy ushbu taxallusni unga ustodi SHayx Ozariy tavsiya qilgan deb yozadi. Men, deb yozadi u, amirning o'zlaridan (Suhayliydan) eshitdimki, yoshlik paytlarim SHayx Orif Ozariy mulozamatiga etishgan va undan munosib bir taxallus tavsiya etishni iltimos qilgan edim. SHayx qo'lida bir jild bor ekan. Dedilar: "hozir shu kitobni fol ko'rish yo'sinida ochamiz, shoyad bir muvofiq so'z chiqib qolsa. Kitobni ochsalar "Suhayl" so'zi chiqibdi. Bu so'zning mazmuni juda tahsinli-deya buyurdilar. SHundan buyon ma'nolar eshigi menga ochiq bo'ldi va menga barchadin fayzu himmat etishdi"⁴⁰. Bu taxallus amirga xuddiki ustozning „oq fotiha"si bo'lgan bo'lsa ne ajab.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Shayxim Suhayliy Navoiy, Bobur, Jomiy kabi bir qancha buyuklarning tahsiniga sazovor bo'lgan ijodkorlardandir. U sodiq do'st, iste'dodli zullisonayn ijodkor, sahovatli homiy va yaxshi davlat arbobi bo'lgan. Zero, o'sha davrda Navoiy olqishini e'tibori va e'tirofiga sazovor bo'lish hamma ijod ahliga ham nasib etavermagan. Suhayliy esa nafaqat e'tirofidan balki uning qalbidan ham chuqur o'rin egallagan va do'stlik darajasigada ko'tarilgan inson edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy "Majolis un-nafois". library.ziynet.uz internet sayti
2. Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma". O'zbekiston Fanlar Akademiyasi nashriyoti. Toshkent.1960.
3. WWW.Ziynet.uz internet sayti.

³⁹ Захириддин Мухаммад Бобур "Бобурнома". Ўзбекистон Фанлар Академияси нашриёти. Тошкент.1960.228б.

⁴⁰ WWW.Ziynet.uz интернет сайти.

UZUN YO‘L (hikoya)

Rayxona Kamolova, JDPI talabasi
Ilmiy rahbar: Nodira Soatova, JDPI dotsenti, f.f. n

Quyosh ufqqa sekin bosh qo‘ymoqda. Ikki chetiga qator qilib daraxtlar ekilgan asfalt yo‘lga unsiz va rangsiz xazonlar to‘kilgan... Kuz fasli kirib keldi deguncha Lolaning kayfiyatida kishi anglab bo‘lmaydigan horg‘inlik va tushkunlik bir kayfiyat hamroh bo‘ladi. Umri tugab tuproq bilan oshno bo‘lishga shaylangan xazonlarni ohista bosib o‘tar ekan, uni armonli xayollar o‘z domiga tortadi. Qalbini o‘tmishni qo‘msash, sog‘inch bir tuyg‘u o‘rtadi...

Bahor... bahor nafasi gullarda, daraxtlarda, ko‘ngillarda go‘yo kurtak ochadi... Lolaning ilk muhabbatining shirin va totli tuyg‘usi xuddi bahordek, uning ko‘ngilida tarovatli va sokin jo‘sh ura boshlangandi o‘shanda.

Lola bugun o‘sha hisni xayolan qayta to‘ydi, barchasi ko‘z o‘ngida xuddi kechagidek qayta jonlandi. Maktabni tamomlagandan so‘ng xuddi dadasi orzu qilganidek huquqshunoslik fakultetiga qabul qilindi. O‘shanda o‘zidan ko‘proq dadasi quvongan edi. Chunki bu dadasining mehnati, tarbiyasi ta‘limi natijasi edida. To‘g‘ri, dadasi oddiy zahmatkash dehqon, tabiatan kamtar, kamsuqum bo‘lsada, lekin mutoalaga chiqqan gazetalarning har bir sonini o‘qib chiqar, barcha o‘zbek otalari singari o‘z istiqbolini farzandining kelajagida ko‘rishni orzu qilardi. Shu umidida ota qizining sudya bo‘lishini xohlar, unga shu kasb to‘g‘risida juda ko‘p ibratli hikoyatu rivoyatlarni aytar, bular esa yosh Lolaning vujudida oliy hakamlilik kasbga nihoyatda muhabbat uyg‘onar edi. Beg‘ubor orzular palak yozdi. Lola institutga qabul qilindi. Bu quvonchli xabarni aytgani kelgan Lola, hovlining bir chetida cho‘nqayib o‘tirgan qorachadan kelgan qotma chayir gavdali, engiga chit ko‘ylak ustiga qora nimcha kiyib olgan onasiga, bir qator qilib ekilgan kartoshkani chopiq qilayotgan kichik jussali, yoz bo‘lishiga qaramay enggiga qora kitel kiyib olgan Erkin aka ko‘z tushdi va bir dam ularga mehrla qarab turdi. Erkin aka qo‘liga ketmon tutgancha ariq ichiga tushib olgan ketmonga to‘ldiribgina namiqqan tuproqni oladida kartoshka pushtasiga tashlaydi, oyog‘iga anchayin kattalik qiladigan etik bilan pushtaga tashlangan tuproqni bosib qo‘yadi. Onasi esa xayol surgancha uning ishini kuzatib turar ekan asta o‘rnidan turar ekan, ko‘zlari quvonchdan portlagan, yuzlari lov lov yonib turgan qizini ko‘rdi yu, hamasini tushindi. Ha ularni baxtiyorligini cheki yo‘q edi, bir umrlik orzulari amalga oshgan ota ona qizlarini uzoq duo qilishdi ajin bosgan yuzlariga qo‘llarini qo‘tarib.

Lola darsdan bo‘sh vaqtlarini kutubxonada o‘tkazar, huquqshunoslikka oid kitoblar o‘qishi bilan birga badiiy asarlar mutoalasiga ham oshno bo‘lardi. Kunlardan birida O‘tkir Hoshimovning “Uzun kechalar” kitobini berilib mutolaa qilib o‘tirgan Lola yoniga qorachadan kelgan, uzun bo‘yli, keng yelkali, qora, qalin qoshlari o‘ziga yarashib turadigan yigit kelib o‘tirganini sezmay qoldi.

- Yaxshi asar yosh yozuvchining armonli muhabbati yoritib berilgan, deya soʻz qotdi yigit.

- Oʻqiganmisiz?

- Albatta. Muhabbatning “armonli” yakun topishiga yosh yozuvchining balki oʻzi sababchidir?

- Yoʻq mening fikrimcha Marat toʻgʻri yoʻl tutdi. Hilola uning dardiga malham boʻlolmas unga bir umrlik yoʻldosh boʻlishi amri mahol edi. Chunki Hilola istagandanda koʻproq eʼtibor talab qilardi. Qalbdan sevgi shu bilan birgalikda sadoqat asosiysi bir-birlarini tushuna olishi zarur. Yozuvchining umr yoʻldoshi boʻlish uning dardiga, maʼsuliyatiga ham bir umrlik yoʻldosh boʻlishidir. Bu notanish yigitning bu qadar hayajon bilan nimanidir tushuntirishga tirishishidan Lola oʻngʻaysizlik holatiga tushdi. Anglishilmovchilik bir tunda balki deganday yelkasini uchirib qoʻydi. Soʻng tanishib olishdi Xurshid shu fakultetning 3-bosqich talabasi ekan.

“Men sizni bilaman Lola taniyman har doim ortingizdan kuzataman faqat siz menga eʼtibor qilmaysiz”. Lola nima deb javob berishni bilmas faqat xayolida savollar aylanardi uni kuzatib yurish bu yigitga nega kerak boʻldi ekan? Ismimni ham biladi? Xurshid bu qizni ancha buyon kuzatib yurar institutda ham uni koʻrib qolsa qizarib koʻngildagilarni Lolaga aytish uchun esa qulay fursat va jasorat zarur edi. Endi uning yelkasidan togʻ agʻdarilgandek boʻldi. Kutubxonadan chiqishgach Xurshid Lolani xonasigacha kuzatib qoʻyadigan boʻldi suhbatlashib ketishdi. Institut bogʻidan oʻtisharkan bahorning ilk nurlaridan joniga orom kirgan dov-daraxtlarning gullari asta-sekin toʻkilib yerga oppoq poyondoz yozgandek boʻlardi. Bu tarovat shovqin suronli shoxona oʻzgacha bir fayz ulashar edi.

- Bilasizmi? Sizning kechagi asar haqidagi fikrlaringiz ham toʻgʻri lekin Hilola Maratni tushunishi bilan birgalikda Marat ham Hilolani tushunishi kerak. Qizning oilada erka oʻsgan farzand boʻlganligi ham asarda taʼkidlab oʻtilgan. U ham barcha ayollar singari suyuqlikining eʼtiborli boʻlishini. Koʻp vaqtini oʻzi bilan birga oʻtkazishini istaydi, lekin... Xurshid Lolaning gaplarini diqqat bilan tinglaydi. Soʻng xayolchan ohangda lekin jilmayib qoʻyardi. Hali hech kim eng buyuk faylasuf olimlar ham ayol kishini anglay olgan emas, balki shu qadar mushkuldurki imkonsiz balki bu shu qadar osondir bu bilan anglay olasmiz.

- Balki, shu koʻyi ikkovlari ham jim ketishdi. Lola yuragida oʻziga notanish boʻlgan bir hisni tuydi. Toʻgʻri, bu tuygʻu unga begona, ammo yoqimli, shirin orzu qilish ila qalbini larzaga soladi. Oradan ancha vaqt oʻtdi. Bahor oʻz oʻrnini yozga boʻshatdi. Oʻtgan har bir kun, har bir on yurakdagi sevgi atalmish saroyga bir gʻisht qoʻyib bordi. Har bir fursat shavqli, oʻzgacha tarovatli chunki, Lolaning yonida uni sevuvchi, qadrlovchi, boshqalardan qizgʻonib oʻziniki boʻlishini quloqlariga shivirlab taʼkidlovchi Xurshid akasi yonida. Sevgi fasllarning eng navbahori, gullarning iforlisi, kuylar ichra orombaxsh bir navo,eng pokiza tuygʻu, balki insonlar hamma narsadan manfaat axtarar lekin sevgi sof boʻladi goʻyoki qalbning bir javharidir. Muhabbat koʻngilda togʻdan toʻlqinlanib, viqor bilan oqayotgan suvdek tiniq boʻladi, mavjlanadi. Yerga sokin tun choʻmgan. Ular

institut bog'idagi o'z skameykalarida o'tirgancha anchagacha suhbatlashishdi. Lola Xurshidning yonida bo'lgan vaqtlari butun dunyo bir taraf-u u bir taraf. Bugun ham xar xon galgidek anchagacha suhbatlashib o'tirishdi. Lolaning xayoliga bu kungacha hech kelmagan fikr keldi, u Xurshidning keng, tog'dek salobatli yelkasiga boshini qo'yishini xohlar bu fikr xayoliga kelganda o'zi ham qizarib ketardi. Xurshid uning yonida o'tirgancha allanimalarni gapirar, Lola eshitmasdi. Keyin... bu ilk "jasorat"dan ikkisi ham anglashilmovchilik holatiga keldi. Lola bu qaynoq bag'irdan istamas shu onlar uzoq cho'zilishini butun umrga teng bo'lishini xohlardi. Lola bugun o'ziga shu qadar qadrdon bo'lib qolgan bu yigitni o'ziga qanchalik kerak ekanligini, yana bir karra his etdi. Bu sevgi endi uning hayotining mazmuniga aylanib ulgurgan. Bu quyuq qoshlar, ehtirosli so'zlar, hamma hammasi uning uchun atalgan. Muhabbat yurakka otilgan bir o'q singari uni yulib olish ilojsiz edi. Shu ko'yi sevgining ham bir yili o'tdi, balki shu vaqtlar ikkisining ham hayotidagi eng shirin eng baxtli onlari bo'lgandir, muhabbatning oltinga teng eng musaffo damlari. Xurshid bu yil bitiruvchi talaba, endi u Lolaga hayotini u bilan bog'lashini aytadi. Ikkisi ham baxtli kelajak haqida shirin xayollar qilar edi. Ularning ko'p farzandlari bo'ladi. Xurshid to'ng'ich qiziga Shaydo deb ism qo'yishini aytdi va bu "senga ham ma'qulmi" degandek qaradi. Lola qizorindi. Xurshid Lolaga termilib turarkan:

– qizlarning ismlari jismiga mos tushadi degan gapni kim aytgan bo'lsa ham topib aytgan ekan. Sizning bu so'zlarga qizarinib ketishingiz ham lola gulining qizilligidandir to'g'rimi?

- Bo'lsa bordir, Lola boshini ko'tarib ma'noli qarab oldi. -Menga ma'qul. Lekin bir kunda bir, ondayoq hamma-hammasi ertak bo'lganligi isbot bo'ldi. Nahotki, shuncha o'tgan vaqt aytilgan shuncha so'zlar, berilgan va'dalar ikkisining baxtli kelajagi haqidagi orzular puch xayol bo'lsa. Lola darsdan chiqqandan so'ng oldiga Xurshidning qadrdon do'sti Anvar keldi. Xijolatli alfozda gap boshladi. Lola Anvarning birgina so'zini eshitdi, qolganini eshitishga na mador qoldi na kuch.

- Lola meni kechiring, bu gaplarni sizga aytmoqchi emasdim. To'g'ri sizlar bir-birlaringizni sevasizlar, qattiq bog'lanib qolgansizlar Xurshidning ham sizdan kechishi qiyin bo'lyapti lekin unga ishonib yurishingiz foydasiz deb o'ylayman. Chunki Xurshid fотиha qilindi.

- Nima? Jinnimi bu gapirgan gapini o'zi eshityaptimi? Lola yig'lamoqdan beri bo'lib.

- Hazillashyapsizmi? Shunday degancha Xurshidlarning xonasiga qarab yugurdi. Xurshid deraza oldidagi stolda tashqariga termulgancha sigareta tutatar, ko'zlari atrofga ma'nosiz, g'amgin boqardi. Lola bilgan, ishongan butun hayotini tasavvur qilgan shumi? Nahotki shu bo'lsa? U avval ham chekardimi? Ko'zlari oldin ham dunyoga befarq va ma'yus boqardimi? Lola beixtiyor Xurshidning yoniga keldi. Jodu ko'zlarida yosh qalqidi. Yaqin kelib Xurshidning bejo ko'zlariga savol ma'nosida tikildi. Xurshid ichki sezgi ila hammasini tushundi "demak xabar topibdi". U Lolaning birorta savoliga javob berolmadi, jim turaverdi, ojiz edi.

“Shumi sevgi, tog‘dan mavjlanib oqayotgan suvdek tiniq sevgi shumi? Bu bir vaqtlar bu muhabbat yuragini yondirardi. Eng yoqimli kuy bo‘lib taraldi qulog‘ida. Sevgi... eng yoqimli kuy... eng shirin sado... fasllarning navbahori... eng pokiza tuyg‘u... eng sof tuyg‘u emish. Hammasi yolg‘on, hammasi puch xayol faqat men ahmoq ishondim bariga ishondim. Nahotki... Javobsiz savollar yuragini o‘rtadi. Endi nima qiladi? Qanday chidaydi? Hayotining mazmuniga aylangan bu – tuyg‘u edi endi uni umrbod tark etsa.

“Doim yoningda bo‘laman degan yigitni izlasa ham topolmasa? Sog‘inganda ko‘rolmasa? Shumi sevgi? Inson har narsani unutadi, lekin ba‘zilar shunday holatga solib qo‘yarkanki, har chan harakat qilma unutilmaysan, yuragingdan yulib otolmaysan. Yo‘l bo‘yi yig‘lab keldi. O‘sha bog‘ o‘sha skameyka yonidan o‘tdi. Barcha shirin xotiralar shu bog‘ bilan bog‘liqku? Lola endi hech qachon bu yerda hayajonga to‘lmaydi, yonidan o‘tganda ham eski xotiralar azob berishi, qalbini tirnashi mumkin. Bir vaqtlar Xurshid “bizning sevgimiz shu qadar buyukki, tarixda qolishga arziydi Lola, degandi. Endichi...Tarixda qoladigan sevgini kimga almashtirdi? Nimaga almashtirdi?...

Inson hamma narsaga qodir. Odam zotining eng katta baxti – ko‘nika bilish. Lola ko‘nikdi. To‘g‘ri, oson bo‘lmadi, ammo nachora? Hayotiga ma‘no bag‘ishlovchi yana qayta quvonch hadya etuvchi insonni uchratdi. Baxtiyor unga juda mehribon, hayotida, o‘tayotgan umridan mamnun, ishdan charchab kelganda farzandlarining shirin kulgusi ila ovunadi, beg‘ubor bolaning xushchaqchaq, shodon kulgusi insonning barcha g‘amlarini aritadi. Aslida bu gaplarni allaqachon yodidan chiqarib yuborgan. Baxtiyor hayotiga kelishi bilan yomon xotiralarni yel kabi uchirib yuborgandi. Lolaning yuragida Xurshidga nisbatan nafrat qolgandi, sevgi emas. Lekin... Bugun bir oycha oldin ajrashish uchun sudga ariza tashlagan yoshgina oila keldi, ne ko‘z bilan qarasanki u Xurshid edi. Ha o‘sha uning ilk sof armonli muhabbat. Lola yangi hayotga qadam tashlaganidan so‘ng sevgan ko‘ngliga yagona yo‘l topa olgan, butun umrini, borlig‘ini bag‘ishlagan, faqat baxtli kunlarini xayol qilgan suyuqliksining o‘rniga hayotini boshqa bir inson bilan bog‘lagandan so‘ng ilk muhabbatdan qolgan armonli xotiralarni xayollarida butunlay o‘chirib tashlashga harakat qila boshlardi.

Bahorda bir gul kabi qalbida o‘sa boshlagan bu gulni hamma narsadan barcha yomonlikdan ehtiyot qilgan, pok saqlagan, ammo kun kelganda birdan so‘lib qalbiga sovuq bo‘ronli qishni boshlab kelgan muhabbat edi. Ehtimol, bu hayot haqiqatidir.

NAVOIY ADABIY-ESTETIK MEROSINING AHAMIYATI.

Eshbekov Hasan JDPI

Xalqimiz hayoti va shonli tarixining badiiy in'ikosi bo'lgan adabiyoti ham boy va rang-barangligi bilan dunyo tamaddunida alohida o'ringa ega. Sobiq sho'ro davrida qoralanib va kamsitib kelingan mumtoz adabiyotimiz namoyandalari hayoti va ijodi Istiqlol sharofati bilan xolisona o'rganilib, xalqimizning ma'naviy mulkiga aylanmoqda. O'zbek tilimiz va adabiyotimizni dunyo miqyosida tarannum etgan, xalqimiz ma'naviyati rivojiga benihoya kuchli va samarali ta'sir ko'rsatgan va endilikda yanada yuksak qadrlanayotgan benazir siymo-bu, shubhasiz, Alisher Navoiydir. XX asr o'zbek adabiyoti va badiiy-estetik tafakkur tarixini Navoiy ijodiyoti va adabiy-estetik an'anasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Navoiy ijodi va adabiy-estetik merosining XX asr adabiyoti rivojida beqiyos o'rni va ahamiyati, ilhombaxsh an'ana va aqidalari XX asr adiblari tomonidan ijodiy davom ettirilishi muammolari ham deyarli tadqiq etilmagan. Alisher Navoiy nafaqat o'zbek xalqi, balki butun turkiy olamning betimsol shoir-mutafakkiri sifatida jahon badiiy-estetik tafakkuri rivoji va Renessans tarixida eng yuksak mavqeni egallagan genial san'atkordir. Bizga ma'lumki, har bir yetuk san'atkor ko'p asrlik badiiy ijod olamiga kirib kelar ekan, uning oldida, avvalo, badiiy adabiyot va san'atning asosiy savol-muammolari ko'ndalang bo'lib turadi. Ya'ni adabiyot nima, mohiyati nimadan iborat? Ijodkor nega, kim uchun va nima maqsadda yozadi? Alisher Navoiyning mashhur "Ilmni kim vositai joh etar,

O'zini-yu xalqni gumroh etar" degan hikmatli so'zlari badiiy ijodning maqsad-mohiyati va vazifasini tushunishda ham dastur bo'la oladi. Adabiyotni o'zining qismati deb bilgan barcha iste'dodli shoir yoki yozuvchilar o'zining badiiy ijodini boshlar ekan, eng avvalo, adabiyotning oliyanob va ezgu maqsad – vazifasini, ijtimoiy funksiyasi va shoirning jamiyat va xalqi oldidagi yuksak va muqaddas vijdoniy va fuqarolik burch- mas'uliyatini to'g'ri va chuqur tushunib yetadi va hamisha ana shu muqaddas burchi va e'tiqodiga sodiq qoladi. So'nggi yillar yurtimizda Islom ma'rifati keng yoyilayotgani, xalqimiz qalbida muqaddas "Qur'on" va muborak hadislarga bo'lgan imon- e'tiqodi ortishi adabiyotning asl mohiyati, hayotiy va ruhoniylar ildiz va manbaalarini, xususan, Navoiy ijodining ahamiyatini chuqurroq idrok etishimizda ham muhim asos bo'ladi. Badiiy-estetik tafakkur olamiga bunday yondashuv Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor kabi adiblar ijodidagi diniy motivlar, islomiy ma'rifat va e'tiqod g'oyalarining teran ildizlarini chuqurroq anglashga ham yordam beradi.

Alisher Navoiyning badiiyat, tanqid-adabiyotshunoslik va tilshunoslik sohasidagi faoliyati va noyob asarlarining samarasi o'laroq, XV asrda nazm va estetika sohasida tizimli ta'limot vujudga keldi va bu ilhombaxsh ta'limot so'z san'ati va nafosat ilmining keyingi asrlardagi taraqqiyoti uchun ham mufassal bir dastur bo'lib xizmat qilayotir. Ammo sho'ro davrida ilm-fan va adabiyotning barcha yutuq-muammolari sinfiylik va partiyaviylik nuqtai nazaridan talqin etildi.

Adabiyot va san'atning muhim qonuniyatlarini ham "marksizm-leninizm daholari kashf etgan" degan uydirma "haqiqat"lar to'qib chiqarildi. Mustabid sho'ro davridagi darslik va majmualarda shunday biryoqlama qarashlar keng yoyildi. Jumladan, "O'zbek sovet adabiyoti" darsliklarida siyqa fikr takrorlanardi: "eng ilmiy, eng izchil ta'limot bo'lgan marksizm-leninizm sovet adabiyoti, tanqid va adabiyotshunosligi uchun taraqqiyot yo'lini ko'rsatuvchi yo'lchi yulduz hisoblanadi."⁴¹

Holbuki, na Marks, na Engel's adabiyot va san'at haqida yirik tadqiqot u yoqda tursin, biron "maqola ham yozmagan bo'lsa, qanday qilib estetika sohasida ta'limot yaratadi"-, deb bo'lmasdi. Jahon adabiyoti xazinasini ne-ne durdonalar bilan boyitgan Navoiydek mutafakkirlar nahot adabiy ijodning hayot-mamot muammolari haqida fikr yuritmagan bo'lsa deb o'ylab ko'rmasdik. Aslida, badiiy ijodning asosiy muammolari ham marksizm-leninizm "ta'limoti"dan bir necha asr ilgari Navoiy kabi ulug' shoir va allomalar tomonidan chuqur anglangan va muhimi, teran estetik fikrlari bevosita badiiy ijod jarayoniga tatbiq etilgan.

Navoiyning badiiy-estetik qarashlari silsilasida so'z san'atining deyarli barcha muhim muammolari qamrab olinganki, ular nafaqat bugungi adabiy jarayon va ma'naviy-estetik tafakkur rivojida, balki yirik adabiyotshunoslar e'tirof etganidek, keyingi davrlarda ham ko'plab avlodlar uchun "qudratli omil bo'lib xizmat qiladi". Zero, Navoiyning badiiy so'z fazilati va qudrati, shakl-mazmunning uyg'unligi va ma'noning ustuvorligi kabi "o'zak" masalalar xususidagi teran qarashlari bugun ham ijodiy dastur bo'la olishi shubhasizdir:

Nazmda ham asl anga ma'ni durur,
Bo'lsin aning surati har ne durur.
Nazmki ma'ni anga marg'ub emas,
Ahli ma'oni oldida xub emas ("Hayrat ul-abror")

Navoiy davri adabiy-estetik tafakkurining asosiy mag'zini tashkil etuvchi bunday tizimli qarashlarning ahamiyatini birgina qiyosda tasavvur etish mumkin. O'zFA Til va adabiyot instituti olimlari tomonidan yaratilgan "Adabiyot nazariyasi"(1978) darsligida "Adabiy asarda mazmun va shakl" bo'limida "Belinskiy, Chernishevskiy va Plexanovlarning mazmun va shakl xususidagi qarashlari eng dono, to'g'ri fikrlar deb keltirilgan.* Xolbuki, adabiyotning asosiy qonunlaridan biri bo'lgan bu muammo Navoiyning badiiy va ilmiy asarlarida XV asrdayoq ibratli tarzda hal etib berilgan edi.⁴²

O'zbek tilimiz va adabiyotimizni dunyo miqyosida tarannum etgan, xalqimiz ma'naviyati rivojiga benihoya kuchli va samarali ta'sir ko'rsatgan va endilikda yanada yuksak qadrlanayotgan benazir siymo-bu, shubhasiz, Alisher Navoiydir. Alisher Navoiyning favqulodda nodir talanti va boy ijodiyoti boshqa xalqlar o'rtasida ham beqiyos shuhrat qozonadi va ko'plab shoirlar Navoiyni faxr bilan o'zlariga ustoz deb bilishadi. Jumladan, Lohutiy, Mirzo Tursunzoda, Mo'min Qanoat, Mirsaid Mirshakar kabi tojik shoirlari, Fuzuliy, Kishvari,

⁴¹ Mirzaev S. Doniyorov X. O'zbek sovet adabiyoti. T, "O'qituvchi".1967, 7b.

⁴² Adabiyot nazariyasi. 2-t. T.1978.414-b.

Mirza Fatali Oxundov, Ali Akbar Sobir va Samad Vurg'un kabi ozarbayjon adiblari, Maxtumquli va Zelili kabi turkman shoirlari, qozoq oqini Abay, qoraqalpoq shoiri Berdaq va Ibrayim Yusupov, tatar shoirlari- Abdulla To'qay, Qayum-Nosiriy va boshqa taniqli shoirlar Navoiyning nomini hurmat va minnatdorlik bilan tilga olib, uning daho san'atkorligiga va olamshumul ijodiga yuqori baho beradilar, ayrim asarlariga naziralar ham bitadilar. Masalan, Navoiy ijodidan saboq olgan va undan ilhomlangan mashhur ozarbayjon shoiri Fuzuliy Navoiyni o'ziga ustoz deb bilib, uning ko'rkam she'r-dostonlaridan ta'sirlanib, go'zal g'azallar va "Layli va Majnun" dostonini yaratganligi bizga ma'lum. Alisher Navoiy o'zining butun jo'shqin faoliyatini va serqirra ijodiyotini insoniyatning baxt-saodati uchun kurashdek olijanob va xayrli ishlarga bag'ishladi va hamisha xalqning tinch va osoyishtaligiga, o'zaro feodal urushlarni bartaraf etishga, el-yurtning obodonchiligi, ilm-fan, adabiyot va san'at rivoji uchun fidokorona xizmat qildi.. U o'zbek mumtoz adabiyotini yangi va beqiyos taraqqiyot bosqichiga ko'tardi, o'zbek tilining go'zalligi va boyliklarini jahonga namoyish etdi va bebaho badiiy, tarixiy va ilmiy asarlar yaratish bilan birga o'z davrining adabiy-madaniy hayotiga rahnamolik qildi va ilm-u fan, san'at va adabiyot ahllariga ulkan homiy va ko'plab iste'dodli shogirdlar yetishtirgan buyuk ustoz sifatida cheksiz mehr-ehtiromga sazovor bo'ldi. Zero, Alisher Navoiy ijodi shunday tengsiz bir ummonki, endilikda undan bahramand bo'lmagan, uning beqiyos, yuksak badiiy mahorati va betakror so'z san'atkorligidan ta'sirlanmagan va undan ilhom olmagan adib butun turkiy xalqlari adabiyotida bo'lmasa kerak. Mumtoz adabiyotimizni dunyo miqyosiga olib chiqishda va o'zbek tilimizning butun cheksiz imkoniyatlarini ham ilmiy-nazariy, ham amaliy va badiiy jihatdan isbotlab berishda Navoiyning xizmatlari beqiyosdir.

Mustaqillik yillari Navoiyni anglash yangi bir bosqichga ko'tarilgani ham ma'naviyatimiz rivojini ko'rsatadi. Buyuk shoirimiz Navoiyning butun ijodi, shaxsi va faoliyati nafaqat Qodiriy va Qahhorlar avlodi uchun, balki keyingi adabiy avlodlar uchun ham yuksak ibrat bo'la oladi:

Yuz jafo qilsa menga, qatla faryod aylamon,
Elga qilsa bir jafo, yuz qatla faryod aylaram.*

Bu- nafaqat ijod ahliga hayotiy bir saboq, balki avlodlarga vasiyat hamdir. Zero, har bir iste'dodli adib agar chinakam yurtparvar va insonparvar ijodkor bo'lsa- u hamisha el-yurtining g'am-tashvishiga ham, shodlik-quvonchiga ham sherik bo'lib yashashi kerak. Bu hayotiy haqiqat hamisha ijodning muqaddas bir mezonini va qonuniyatini bo'lgan. Navoiy orzu qilganiday, xalqimiz erk va ozodlikka erishgandan keyin uning tili va adabiyoti, madaniyati va ma'naviyati yuksalishi uchun mustahkam zamin- asos yaratildi. 2016-yili tashkil etilgan Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti mamlakatimiz ma'naviy hayotida unutilmas tarixiy bir voqea bo'ldi. Bu oliy dargohga Alisher Navoiy nomi berilishi ham xalqimizning ulug' shoir va mutafakkirga bo'lgan yuksak ehtirom ramzi bo'lishi bilan birga o'zlikni anglashimizning yorqin bir ifodasidir.

MASHRAB IJODIGA NAZAR

Zumrad Qosimova, JDPI talabasi

Ilmiy rahbar: Parizod Turopova, JDPI o'qituvchisi

Imom Buxoriy, Burhoniddin Marg'inoniy, Iso va Hakim Termiziylar, Mahmud Zamaxshariy, Muhammad Qaffol Shoshiy, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab va boshqa ko'plab daholar nafaqat islom, ayni paytda jahon sivilizatsiyasi tarixida haqli ravishda oltin harflar bilan bitilgan.

Darhaqiqat, o'zbek mumtoz adabiyotda Rindiy, Umam, Mahdiy, Zinda va Mashrab taxalluslari bilan she'rlar yozgan Mashrab ijodining o'ziga xos o'rni va ahamiyati bor. Mashrab so'fiy shoir bo'lib, uning ijodida ilohiy ishq haqiqiy hayotiy mahbubaning ishq talqinida chiroyli misralarda ta'riflanadi. Xususan, shoirning bir g'azalida:

Ey moh, netay ishqing o'ti ayladi rasvo devona bo'libman.
Ishq o'ti qo'yur jism-u arosida na parvo, parvona bo'lubmen
Ul damki ushalmoq, yuzin bir yo'li ko'rdim, ul hobi hayolot.
Nayrangi raqib o'ldi va yo hukmi xudodir begona bo'lubmen.

Oshiqni mast qilishi shu sabab yor go'zalligiga g'arq bo'lgan oshiq ishq vodiysidan o'tishi, yorga erishish yo'llarida hamma narsadan voz kechishi va nihoyat azob-uqubatlarni yengib yor visoliga yetishishini go'zal misralarda ifodalaydi.

Ishq vodiysidan bir kecha men hay-haylab o'ttum,
Monandi nayiston guliga o't qalab o'ttum.

Mashrabning adabiy-ijodiy me'rosida diniy va tasavvufiy va qalandarlik tariqati g'oyalari sezilarli o'rin egallaydi. Tasavvufda bilamizki, yor, oshiq, ma'shuq ma'nolarida Alloh nazarda tutiladi. Ishq ham muhabbat ham Allohga atalgan.

Ma'lumki, Allohga muhabbat-haqiqiy ishq, Alloh yaratgan narsalarga bo'lgan muhabbat esa-majoziy ishq deyiladi. Mashrab g'azallarida ham shunday hodisalarning guvohi bo'lishimiz mumkin. Mashrab g'azallarida bir qarasak Allohga, bir qaraganda insonga yorga atalgandek ko'rinishi mumkin.

Ko'nglimni berdim sen bevafo'ga
Kuydi yuragim jabr-u jafosi
Ey nozaninim rahm ayla menga
Qoldim seni deb, yuz ming balog'a

Tasavvufda ta'riqat degan tushuncha bo'lib, Allohga olib boradigan yo'l, ya'ni Alloh jamoliga erishish uchun olib boradigan yo'llar degan ma'noni bildiradi. Tasavvuf shoirlari yor deya Allohni nazarda tutadilar. Ko'pgina shoirlar, shu jumladan Mashrab ham ishq, muhabbat, vasl va jazba yo'li oshiqlar

yo'li, ishq bilan Allohga erishish yo'lini tanlagan tasavvuf shoirlaridan biri hisoblanadi.

Ko'rsat jamoling mastonalarga
Ishqingda kuygan parvonalarga
Mendin duodir, sendan ijobat,
Jonim tasadduq jononalarga.

Mashrab insonda ilohiy fazilatlarni ko'rish va sevishni targ'ib etadi. Ayni paytda ilohda ham inson fazilatlarni ko'rish va sevishga chorlaydi. Bundan kelib chiqadigan mazmun shundaki, barcha yaxshiliklar va ezgulikdan ilohdan. Ilohni sevgan kishi yerdagi yaxshi odamlarni, yor-u birodarlarni ota-onasi, o'z qarindoshlarini ham sevadi. Shu mazmundagi g'azallar, sermazmun she'rlarda ilohiy muhabbat, sarmastlik barobarida real dunyo go'zalliklarining shavqi, sohibjamol qizlar xusnining ta'rifi berilgan jo'shqin satrlar orqali tariflaydi. Yorning go'zal husni, uning ma'shuqqa ozor berishlari orqali Allohni ta'riflaydi go'yo:

Xayoli qomati birlaki men umrimni o'tkazdim,
Meni barcha xaloyiq derlarki, "Devona - devona"
Bihamdulloh, ko'ngulni mosuvodin men suvo qildim.
Oning mehrini sevdim, orqadin begona - begona .
Qilib orzu shu dilbarni tilarmen kechayu kunduz ,
Oning yodini aylarmen yurib hayrona- hayrona .

Satrlarining mohiyatini chuqurroq tushunadigan bo'lsak bu mutloq ilohga muhabbat dardi bilan real dunyodagi oddiy insoniy dard - alamlarning birga, o'zaro qo'shilib zuhur etish hodisasidir. Boshqacha qilib aytganda, dunyo istaklaridan yiroqlashib, qalandar bo'lgan bo'lsada, lekin hayotdan, odamlardan yuz o'girib ketgan inson emas. Mashrab odamlarni sevardi, ularga hamdard, mehribon edi. "Azaldan men ili, g'amgin haloyiq haylini sevdim", deydi. Shu satrlarning o'zi ham Mashrabning ixlosi kimda, kimlar tomonida ekanini bildiradi. Uning sevgisining mazmuni ko'nglida iloh mehri bor, dardi bor xaloyiqni, ko'zda tutib, shu nuqtai nazardan qaraydi.

"Qissai Mashrab" voqealarida onalari yangi libos olib bersa, yetim yesirlarga berishi, qabriston oldidan o'tib qolsa ustuxonlarni ko'rib yig'lashlari, yoki, tarso qizni va uning oilasini musulmon qilishi voqealarida ham Mashrabni insonlarga bo'lgan sevgisini ko'rishimiz mumkin.

Dilbar yuzin ko'rgali devona kelibdur
Yuz nozu karashma bila jonona kelibdur.

- Ey devona xudoying barhaq va dining rost ekan, tamom umrimni Xudodan behabarlik bila o'tkazibdurman, oltinni olib mani haqqimga duo qil, shoyad musulmon bo'lg'aymen.

Kuntoji kalima arz qilib, musulmon bo'ldi.
May bihur, masxaf biso'zu otash anbar ka"ba zan.
Sokina butxona boshu mardumozoru makin
Va ka"ba chi merovi, dilero dargob ,
Behtar zi hazar ka'ba bahad yakdil!

Mazmuni: May ich, iymonni kuydir, ka'baga o't qo'y, Butxonada sokin bo'l mayli biroq odamlarga ozor berma! Ka'baga borib nima qilasan, birovning dilini top. Mingta ka'bani ziyorat qilgandan bitta dilni ovlagan yaxshiroq!, deydi Mashrab .

Darhaqiqat Alloh yo'liga kirgan kishi faqat tavba - tazaru yoki faqat ibodatda bolishi emas, balki atrofdagi narsalar kishilarga mehr oqibatli, rahmli bo'lishi hammaga adolat bila munosabatda bo'lishi kerakligi haqida aytiladi. Eng katta savob kishini ko'nglini olmoqlik, eng katta gunoh kishi ko'nglini o'ritmoqlikdir. Chunki inson ko'nglida, qalbida Alloh yashaydi. Birovni ko'nglini og'ritish Allohni ranjitganlik bilan barobar. Jomiy shunday deydi: "Yuzingni qay tarafga bursang, Alloh u yerdadir" , U hamma joyda mavjud. Chehralar oimoydir, o'lmasdir. Oshiqlar ushbu chehraga o'zlarini fido qilib, evaziga hech narsa istamaydilar. Allohga yetishish, yorga yetishish yo'lida ham azob uqibatlarni yengib o'tish kerak.

Zero Alloh suygan bandalariga dard beradi, chunki sevgi bor joyda sitam bor. Ammo sitamda ham sitam bor. Sitam undan mutaassuf bo'lganga, o'zi uchun uning yaxshilik va sevgi ekanligini bilganga qilinadi. Shu bilan birga hech ta'sir qilmaydigani ham borki, bu sevgi alomati emas. Masalan, gilamni changdan tozalamoq uchun kaltaklashadi. Aqlilar bunga tanbex berish, demaslar. Ammo bir sevgan kishisini yohud bolasini urushsa bunga sitam derlar. Sevgining isboti mana shunday joylarda maydonga keladi. Shunday ekan kishi o'zida bir dard his etsa, bu Allohning inoyati va sevgisidan bir darakdir. Alloh yo'liga kirgan kishi bu dunyo g'am azoblarini yengib yor (Alloh) vasliga erishishga harakat qiladi. Mashrab so'zlari bilan aytganda:

Ey iloho endi qilg'aysen bu bandangga nazar
Zandanu bardush etib, kirdim yo'linnga darbadar.
Dasht-u sahro va biyobonlarni izlab sar basar
Bir nazar qilsangki, rohat topg'usi jonu tanam.

Ko'rinib turibdiki, Mashrab she'riyati o'z mazmun-mohiyati bilan kitobxonlar qalbidan osongina joy oladi, ularni ilhomlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. -Т.: “Ўзбекистон”, 2017.
2. "Shoh Mashrab qissasi". Toshkent, 1986 .
3. Boborahim Mashrab. "Mehribonim qaydasan",- Toshkent, 1990.
4. Jomiy. "Ichingdagi ichingdadir".- Toshkent, 2019.
5. Туорова Р. Адабий–эстетик идеал категориясининг трансформацияланиш жараёни Тошкент, “MUMTOZ SO‘Z”, 2020.

SAKKOKIY IJODINING MAVZU KO'LAMI VA BADIYYATI

Ikromov Ikrom JDPI talabasi
Ilmiy rahbar: G'ayrat Isroilov, JDPI
o'qituvchisi

Hozirda, barchamizga yaxshi ma'lumki, Mavlono Sakkokiy merosining asosiy qismini g'azallar tashkil etadi. Shoir g'azallaridagi asosiy mavzu – ishq, asosiy timsol – Inson. Ularda insonparvarlik, xalqparvarlik, visol umidi, hijron azoblari, go'zallik ta'rifi, hayotga muhabbat, ijtimoiy fikrlar ma'lum ma'noda siyosiy qarashlar qalamga olingan.

Demak, g'azallarining asosiy mavzui muhabbat bo'lib, ba'zi o'rinlarda ilohiy ishqni, tasavvufiy g'oyalarni ham tasvirlaydi. Shoir o'z she'rlarida kishilik muhabbatini, orzu-tilaklarini, dardu-alamlarini, bir so'z bilan aytganda insonning dard alamlari, orzu tilaklarini, tabiat tasvirini beradi.

Shoir yor va unga sadoqat, hayot lazratlaridan bahramand bo'lish, oshiqdagi hijron va ayriliq azoblari, visol nashidasini ta'sirchan tarzda, sodda va ohangdor holatda ifodalaydi:

Gar hajring o'ti jon-u jigarga yoqa keldi,
Jonimg'a ne xush sharbati vasling yoqa keldi.
Hajr o'ti necha majruh etib buzdi jigarni,
Vasling bu shifo marhami ne xush yoqa keld...
Zulfuni qachon solding-u shul ol yong'oq uzra,
Jonimg'a mening iylasa ul o't yoqa keldi
Devona deding meni-yu zulfuni sanga zanjir,
Oshiqlara ma'shuqi munungtek yoqa keldi
Devona bu Sakkokiy-u zulfuni zanjir,
Hind-u chu akas fil boshig'a qoqa keldi (274–bet).

Lirik qahramon ma'shuqa zolimligidan, vafosizligidan shikoyat qiladi:

Yolg'on-u chindin chitib har lahza qoshingni menga,
Keng jahonni bu zaif ko'nglum bikin tor aylama.

Ey yuzi gulg'uncha bo'ldum javrdin, hardam mening
Ko'zlarim qon yoshidin olamni gulzor aylama.

Ko'p musulmondin qo'yub, tarso bo'lurni qavlasang,
Sen bu kundan so'ngra hech zulfuni zunnor aylama (240–bet).

Sakkokiy g'azallarida uch obraz: oshiq, yor va raqib obrazlari ko'zga tashlanadi. Oshiq shoirning o'zi. U yorning visoliga oshiqadi. Oshqlik iztirob va mashaqqat ekanligini tan oladi:

Qilding avval bargi gul yanglig' ko'ngulni lutf etib,
Bo'lmag'il emdi dilozor, oxir ozor aylama.

Bosqon iz tufroqite Sakkokiyni xor aylading,
Suv beroyin yuz edib andin dag'i xor aylama (240–bet).

Shuningdek, uni she'riyatida an'anaviy obrazlar ham ko'plab uchraydi. Xususan, shoir talmeh san'atidan unumli foydalangan. Farhod – oshiq inson. U

Shirin yo'lida tog' qazishga majbur bo'ldi. Sakkokiy lirik qahramoni esa yori uchun jondan kechishga, "jonkan" bo'lishga rozi:

**Agar Shirin uchun Farhod ishq ko'hkan bo'lsa,
Netong Sakkoki ham, jono, yo'lungda jonkan bo'ldi (257–bet).**

Oshiq ma'shuqasi yonida bo'lsa, har qancha mashaqqat bo'lsa, chidashga qodir. Yori bilan birga bo'lsa u har qanday g'amdan qutiladi:

**Agar qoshimda o'shal guluzor bo'lsa edi,
G'ame yo'q erdi, g'amim gar hazor bo'lsa edi (260–bet).**

Lirik qahramon ma'shuqasidan jaf o'qilmaslikni, va'daga vaf o'qilishini istaydi:

**Bilursenkim kechar dunyoyi foni
Qulungg'a qilmag'il javru jafoni.
Base ko'p va'dalar qilding bording
Kel emdi va'daga qilg'il vafoni...(277–bet).**

Sakkokiy oshiq va ma'shuqaga xos ichki va tashqi sifatlarni yoritishda turli an'anaviy obrazlar, xalq maqollari, hikmatli so'zlar, iboralardan keng foydalangan:

**Ko'zung karashma bila, hoy yozuqli Sakkokiy,
Seni o'ltirurman teb, etti turkona (234–bet).**

Yoki:

**Yuzi qaro bo'lsun ko'zum– andin ko'rarmen bu balo,
Yo'q bo'lsun ul ko'nglum mening, hech kirmadi farmonima (235–bet).**

Sakkokiy ijodiga nazar tashlar ekanmiz, uni g'azallarining asosiy mazmunini samimiy sevgi, real borliqqa muhabbat bilan qarash va uni ulug'lash tashkil etishini ko'rishimiz mumkin. Darhaqiqat, uni g'azallarida sevgiga sadoqat va vafodorlik ulug'lanadi, hayot lazzatlaridan zavq va bahra olish targ'ib qilinadi. Sevishganlar, oshiq–ma'shuqlarning ishq yo'lidagi hijron dardi–yu firoq, ayriliq alam–iztiroblarini, visol zavq–shavqlari va nashidalarini, shoir zo'r hayajon bilan, nihoyatda original, sodda va o'ta ta'sirchan misralarda ifodalab beradi:

**Gul g'uncha bo'lur ko'rsa yuzini chaman ichra,
Titrrar ko'rub oy engini sham' anjuman ichra.
Kim ko'rdi aning erni, mening yoshima mangzar,
Bir la'l Badaxshondau bir dur Adan ichra...**

Sakkokiy lirikasi haqida xulosa qiladigan bo'lsak, uni g'azallari dunyoviy, diniy va tasavvufiy mazmunda bo'lib, bu masalalar uning g'azallarida, qasidalarida turli timsollar va so'z–san'atlarining o'ziga xos tarzda ko'rinadi.

МИЛЛИЙ ТАФАККУР ВА МАНАВИЯТ КЎЗГУСИ

Алимов Авазбек, ўқитувчи

Ҳар бир халқнинг ўзлигини намоён этувчи миллий ва умуминсоний қадриятлари бўлади. Ана шундай бебаҳо миллий қадриятларимиздан бирибу, шубҳасиз, Она тилимиздир. Адабиётимизнинг фахри бўлган Чўлпон асри миз бошида “Адабиёт яшаса- миллат яшайди”,- деб башорат қилган эди. Эзгу мақсад ва ғоя билан йўғрилган бу ҳаётий фикрни бир оз ўзгартиб, “Она тилимиз яшаса- миллатимиз камол топади”, дея давом эттирилса ҳам, хато бўлмайди. Зеро, Тил- тенгсиз бир неъмат, бебаҳо маънавий ва интеллектуал бойлик. Тил- миллатимизнинг қалби, маънавиятимиз кўзгуси. Тириклик учун тоза ҳаво билан қуёш нури ва нону сув қанчалик ҳаётий зарурат бўлса, миллатнинг яшаши ва равнақ топишини ҳам она тилисиз тасаввур этиб бўлмайди. Донишмандлар томонидан айтилган кўҳна бир ҳақиқат бор: тоғ чўққиларининг юксаклиги уларга олисдан қаралганда янада яққолроқ кўзга ташланади. Бу анъанавий ташбеҳни ўзбек тилимизга Давлат тили мақоми берилганлиги тўғрисидаги 1989 йил 21 октябрдаги Қонун ва бу куннинг Ўзбек тили байрами куни деб белгилангани тўғрисидаги 2019 йил 21 октябридаги тарихий Фармонга нисбатан ҳам қўллаш адолатдан бўлади.

Дарҳақиқат, бу воқеанинг жамиятимиз ва халқимиз маданияти ва руҳияти, ёш авлодларнинг маънавий камолоти ва дунёқараши учун нечоғлик катта ижтимоий-сиёсий ва тарбиявий-эстетик аҳамиятга молик эканлиги йиллар ўтган сайин тобора равшанроқ кўриниб боради. Халқимиз онгу тафаккури ва маънавий тараққиётида янги бир босқични бошлаб берган бу ҳаётбахш жараён мисолида ҳазрат Алишер Навоийнинг “Тилга эътибор-элга эътибор” деган пурҳикмат сатрларининг ҳаққоний бир ифодасини ҳам кўрамыз.

Мустақил юртимизда миллий ва умуинсоний қадриятларимизга ва улуғ аждодларимиз меросига бўлган муносабат, айниқса, Ўзбек тили ва адабиёти мизга бўлган юксак эътибор ва чексиз ғамхўрликдан ҳар бир ватандошимиз ҳақли равишда ғурурланади. Она тили ва адабиётимизнинг равнақи ва кела жагини белгиловчи ва унинг дунё миқёсидаги халқаро обрў-эътибори ва уму минсоний нуфузини беқиёс кўтарувчи бу тарихий қарорлар халқимиз маънавияти ва тафаккури ривожига тенгсиз аҳамият касб этиши шубҳасиздир.

Халқимиз ҳаёти, бой маънавияти ва теран тафаккурининг мунаввар кўзгуси бўлган ўзбек тилимизнинг бебаҳо бойлиги ва беқиёс имкониятларидан оқил она фойдаланиш, уларни юксак кадрлаш эса, энг аввало, мустақил она-юрт га бўлган фарзандлик бурчимиз ва меҳру садоқатимизга, билим савиямиз ва маданиятимизга ҳам боғлиқ. (1.119) Бу борада улуғ аждодлар сабоғи муҳим.

Буюк сўз санъаткори, улуғ мутасаввуф шоир ва мутаффакир Алишер Навоий энг аввало ўзининг беназир шахсияти ва ижодининг фавқуллоҳда бой ва ранг-баранглиги билан илму фазл аҳлини ҳамиша ҳайратга солиши табиий. Улуғ шоир ўз асарларига нисбатан турли миллат ва элатларнинг чуқур эҳтиром билан муносабатда бўлишларини орзу ва таҳаййул этиб шундай ёзади: **“Девонлар ва остонлар, турли маънавий китоб ва рисола лар бунёд қилдимки, қалам аҳли тоифасидан ҳеч кимга бунчалик кўп асарлар ёзиш муяссар бўлмаган” (2.54.)**

Навоий наздида сўзнинг ва сўз орқали ифодаланаётган шаъриятнинг таъсир кучи энг аввало шоир қалби қанчалар уйғоқлигига ва унинг оддий инсонларга нечоғлик ҳамдард эканлигига узвий боғлиқ. Шу муносабат билан Алишер Навоийнинг қуйидаги машҳур сатрлари ҳам ҳар бир виждонли санъаткорнинг, ҳар бир миллатпарвар зиёлининг юксак аъмоли, ҳаётий бир дастурига айланса қани эди деган армонли ўй кечади ҳаёлимиздан:

**Юз жафо қилса менга бир қатла фарёд айламон,
Элга бир жафо, юз қатла фарёд айларам.(3.389)**

Алишер Навоий ижоди ва фаолиятининг тамал тошларидан бири бўлган бундай фикр ва қарашлар чинакам санъаткор шахси, унинг феъл-атвори, аҳвол-сажияси ва мақсад-этиқоди қандай бўлиши керак деган саволларга ҳам энг тўхри бир жавоб бўла олади. Навоийнинг сўз васфидаги фалсафий-эстетик қарашлари ҳам теранлиги ва ҳаётийлиги билан энг қадимий ёзма ёдгорликлар ва муқаддас китоблар- “Авесто”, “Қуръон” ва Ҳадисларга бориб боғланиши ҳам уларнинг илдиз-манбалари қанчалик ҳаётий ва ҳаққонийлигига ишорадир. Навоийнинг ҳажман кичик шеърларидан тортиб, “Хамса”сигача ёхуд турли анжуман, баҳс-мунозаралардаги фикрларидан тортиб, танқид-адабиётшунослик соҳасидаги йирик асарларигача-барчасида сўз таърифи асосий ўрин тутди.² Навоий сўзда илоҳий бир қудрат, мўъжиза қор сеҳр кўради. Яъни сўзда муқаддас ҳадислар қаби беқиёс улуғворлик, ҳаётий ҳикмат мужассам: **Сўз гуҳарига эрур онча шараф,**

Ким бўла олмас анга гавҳар садаф (3,46)

Навоийнинг сўз ҳақидаги бундай юксак ва теран қарашларини бадиий адабиётга, шеъриятга нисбатан берган таърифлари деб ҳам тушунсак, тўғри бўлади. Зеро, сўз хусусида фикр юритганда, назм, яъни бадиий адабиётнинг юксак ижтимоий-эстетик вазифасини ва унинг таъсирчанлик қудрати ҳам назарда тутилади. Навоий бадиий-эстетик қарашлари силсиласида сўз санъат ининг деярли барча муҳим муаммолари қамраб олинган. Улар нафақат бугунги адабий жараён ва маънавий-эстетик тафаккур ривожига, балки адаб иётшунослар эътироф этганидек, кейинги даврларда ҳам кўплаб авлодлар учун қудратли илҳомбахш омил бўлиб хизмат қилади. Туркий халқлар адабиётининг барча йирик вакиллари Навоий ижодидан ва адабий-эстетик сабоқларидан озиқланб, илҳомланб келмоқдалар десак,

асло муболаға бўл майди. Машхур шоир Абдулла Орипов сатрлари бунга ёрқин бир далил:

**Беш асрким назмий саройни
Титратади занжирбанд бир шеър.
Темур тиғи етмаган жойни
Қалам билан олди Алишер...(5,178)**

Адабиётлар:

- 1.Қосимов У. Адабиётнинг ҳаётбахш кучи. Тошкент. 2008.
- 2.Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. Тошкент.2014.
- 3.Маллаев Н.Ўзбек адабиёти тарихи. Тошкент. 1976.
4. Алишер Навоий. Ҳикматлар. Тошкент. 1989.
- 5.Абдулла Орипов. Муножоот. Т. 1991.

“OLTINGA TENG ASRIY BITIKLAR”

**Fayzullayeva Gavxar JDPI talabasi
Ilmiy rahbar: Jo‘rayev Shukrullo,
JDPI o‘qituvchisi**

“Adabiyot xalqning yuragi, elning ma’naviyatini ko‘rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo‘l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta’sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o‘rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz”⁴³

XX asr o‘zbek adabiyotida o‘zining teran mushohadaga boy bo‘lgan, odamni chuqur o‘ylashga majbur qiladigan, bir qaraganda o‘quvchini xalqchil gaplari bilan o‘ziga rom qila olgan, dastlabki asari bilan ustoz yozuvchi Abdulla Qahhordek adiblar nazariga tushgan yozuvchi O‘tkir Hoshimov hayotidagi qariyb ellik yillik kuzatishlar natijasida “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” nomli asar yozdi va uni rafiqasi O‘lmasxonga bag‘ishladi. Ushbu kitob adibning o‘z tili bilan aytganda, haqiqatdan ham: “Bular mening kuzatuvlarim. O‘ylarim. Bir qadar armonli, bir qadar istehzoli, bir qadar tabassumli xulosalarim...” hisoblanadi.

“Chegara” “Odamzod nima uchun kaftdek hovlisiga gul ekadi? Undan ko‘ra sholg‘om eksa, qozoniga tushadi-ku. Odamzod nima uchun bulbul chax-chaxini eshitganda entikib ketadi? Undan ko‘ra bulbulni sho‘rvaga solib pishirsa, nafsini qondiradi-ku. Odamzod nima uchun osmonda charaqlab yotgan yulduzlarni ko‘rib, ko‘ngli zavqqa to‘ladi? Yulduzlar uning hamyonidagi tillalar emas-ku. Odamzod nima uchun kitob o‘qiyotib, suyukli qahramoni o‘lib qolsa yig‘laydi? Uni yozuvchi “ichidan to‘qib chiqargani”ni biladi-ku ?

Odamzod nima uchun o‘zga yurtlarga borib behisob mol-dunyo orttirsay-u, ittifoqo bolaligi kechgan kulbasi tushiga kirib qolsa, tuni bilan yig‘lab chiqadi?

43 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari» mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigi.07.08.2018

Axir u shohona qasrda yashaydi-ku. Odamzod nima uchun bolasining boshida alla aytadi? Go'dak alla eshitmasa uxlamaydimi? Odamzod nima uchun nevarasini yetaklab necha zamon avval o'tib ketgan bobosining qabrini ziyorat qiladi?

Marhumularni ko'rmaydi-ku?! Gap shundaki, Odamzodni hayvonotdan ajratib turadigan chegara bor. Bu chegaraning nomi Ma'naviyat deb ataladi!⁴⁴

Adib ushbu xulosasida nafaqat insonlar va hayvonlar o'rtasidagi chegarani ko'rsatib bergan, balki «insonlar» va shu nomdagi «kimsalar» bilan o'rtadagi farqni ham ochib bera olgan. Bu farqlanishning nomini «Ma'naviyat» deb nomlagan. Haqiqatdan ham, bugungi kunda o'zlarini «realist» deya atovchilar ko'payib bormoqda. Ya'ni, ular hovlisiga gul ekishdan ko'ra sholg'om ekishsa, "qozon"lariga foyda bo'lishi, bulbul chax-chaxini eshitishdan ko'ra uni sho'rvasiga solishsa, "qorin"lariga foyda bo'lishi bir tarafdian olib qaraganda to'g'ri. Lekin inson "inson" degan nomga nafsini yenga olishni bilganidagina musharraf bo'ladi.

Balki adib ushbu fikrlari bilan inson va uning nafsini o'rtasidagi tafovutni ko'rsatib bermoqchi bo'lgandir? Agar shunday bo'lganida, muallifning xulosasining yakunlovchi qismidagi: "Odamzodni hayvonot dunyosidan ajratib turadigan chegara bor. Bu chegaraning nomi Ma'naviyat deb ataladi" jumlasidagi "hayvonot dunyosi"ni nafsiga qiyoslasak, uning odamzod bilan o'rtasidagi chegara nomi "Ma'naviyat" hisoblanadi.

"Andisha". "Ota – bobolarimiz shunday deb tanbeh beradilar : «O'choq boshini hech qachon qo'shnining devoriga yopishtirib solma. Taom pishirayotganda o'chog'ingdan chiqqan tutun qo'shnining ko'zini achitsa, yegan ovqating harom bo'ladi" O'zbekning andishasini isbotlash uchun yana qanday misol kerak ?"⁴⁵

Yozuvchining ushbu fikrlarini o'qib bevosita ushbu fikrni davom ettirishni xohladim. O'zbekning uyiga mehmon kelsa, albatta, mezbon tomonidan yaqin qo'shnilari mehmonning oldiga «chaqiriladi», qo'shnilikda kimningdir sog'ligi yaxshi emas bo'lsa, ro'zg'orida «to'kinchilik» bo'lmasa ham, «yo'qdan bor» qilib taom chiqarilib, bemor holidan xabar olinadi, biror bir tansiqroq taom pishirilsa, albatta, qo'shnisiga ham ilinadi, mehmon ketayotganida hech qachon «qo'li quruq» qilib qaytarilmaydi... Bularni sanasak adog'iga yeta olmaymiz. Bu bor yo'g'i qo'shnilikdagi «andisha» edi.

Andisha mavzusiga to'xtalar ekanmiz, bu xususida milliy adabiyotimizning yorqin vakillari bo'lmish Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidagi ba'zi sujetlar yodimga tushdi. Ziyo shoxichi va uning o'g'li Rahmat Otabekning oldiga kelishadi. Shunda Otabek Hasanalidan choy damlab berishini iltimos qiladi va Hasanalining uydin chiqib uzoqlashishini kutib turadi-da, sekingina qilib mehmonlarning «Hasanali kim?» degan savoliga «qulimiz», -deya javob beradi... Nima uchun u bunday qilgan? U oddiy bir o'n besh tilloga sotib olingan xizmatkor bo'lsa! Agar Otabekning o'rnida G'arb adabiyot vakillarining

⁴⁴ O'tkir Hoshimov. Daftari hoshiyasidagi bitiklar. T. Sharq. 2013. 7b

⁴⁵ O'tkir Hoshimov. Daftari hoshiyasidagi bitiklar. T. Sharq. 2013. 10b

qahramonlari bo'ladigan bo'lsa, ular baralla, xizmatkorlarining oldida «Bu mening qulim!» degan bo'lardi-ku! Nega Otabek bunday qilmadi? Chunki u-o'zbek! Unda chinakam o'zbekka xos fazilat- andisha bor!

Shu o'rinda Qodiriyning: «So'z so'zlash va jumla tuzishda uzoq andisha kerak», -degan gaplarini eslab o'tishimiz lozim.

“Daftar hoshiyasidagi bitiklar” to'plamidan o'rin olgan quyma fikrlar atoqli adibning qanchalik ulkan tafakkur sohibi ekanligini ko'rsatadi. Bir o'rinda ustoz yosh ijodkorlarga, roman quvvati bilan qissa va qissa quvvati bilan hikoya yozishni maslahat bergani yodimda. Ana shu hikmatiga, avvalo, o'zi amal qilgan adibning deyarli har bir bitigi – yaxlit mukammal asar bo'lgani ko'rinib turibdi. Ularning har biri qissa, hikoya quvvati bilan bitilgan, desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Bu bitiklarda chinakam donishmandlik, xalqparvarlik va yaxshilik nuri aks etib turganini his etasiz. Tabiyatan sermulohaza va kamgap ustozimiz bilan har bir ijodiy uchrashuvidan ham muxlislari ko'p ma'naviy oziq olganlarini e'tirof etishardi. Boisi, ulkan iste'dod sohibi bo'lgan adibning dono o'gitlari, ajib aforizmlari, tashbehlari, quyma fikrlari kitobxonlarni sehlrab qo'yardi. Ana shu quyma fikrlar qog'ozga tushib, betakror bitiklarga aylanganini izohlashga hojat bo'lmasa kerak.

Adibning falsafiy-adabiy janrda yozgan betakror bitiklari mohiyatida ana shu muqaddas kalomlar ruhini his etasiz. Shul bois har bir bitik o'quvchini fikrlashga, mushohada yuritishga, bahsga chorlab, ma'naviy xazinasini boyitadi.”⁴⁶

L.N.Tolstoy “Buyuk haqiqatlar-eng oddiy haqiqatlardir”-deganidek, O'tkir Hoshimovning hayoti davomida yozgan ushbu asari ham eng oddiy haqiqatlar sirasiga kiradi. Biz ushbu asar orqali hayotimiz davomida uchratishimiz mumkin bo'lgan voqea-hodisalarga nisbatan adibning bildirgan xulosalari, fikrlarini o'rganamiz. Aslini olganda, adibning ushbu asari xulosalar, fikrlar to'plami ekanligi uchun boshqa asarlaridan o'quvchidan chuqur, mantiqiy, falsafiy o'ylashni talab etganligi bilan farqlanadi. Yozuvchi bu bilan bizni ko'proq mustaqil fikrlashga, fikrlaganda ham aniq, to'g'ri fikrlashga, sabab, mohiyatni anglab yetishga, zarur o'rinlarda ibrat olib, zarur o'rinlarda xulosa chiqarishga o'rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev. “O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan tabrigi.2018
2. O'.Hoshimov. “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”.T.Sharq.2013
3. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Meros komissiyasi mas'ul kotibi, filologiya fanlari nomzodi, dotsent To'lqin [Eshbek. @uchildiz.uz](mailto:Eshbek.@uchildiz.uz) sayti
4. A.Qodiriy. “O'tkan kunlar”.
5. Cho'lpon. “Kecha va kunduz”.

⁴⁶ O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Meros komissiyasi mas'ul kotibi, filologiya fanlari nomzodi, dotsent To'lqin Eshbek

II. УМУМФИЛОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР: ТАЛҚИН ВА ТАҲЛИЛ МУАММОЛАРИ

НУТҚНИ ЖОНЛАНТИРУВЧИ ВОСИТАЛАРНИНГ ПРАГМАТИК ВАЗИФАСИ ХУСУСИДА

Азамат Бахронович Пардаев, СамДУ профессори

Инсоннинг когнитив қобилиятини рўёбга чиқаришда, мулоқот жараёни/матннинг коммуникатив ва прагматик структурасини тўғри ва мақсадли шакллантириш ёки унинг эмоционал-экспрессив таъсирчанлигини оширишда нутқни жонлантиришга, унга фаолият, ҳаракатлилиқ тусини берувчи воситалар (жонли мулоқот нутқи бирликлари, экстралингвистик омиллар, модал сўзлар, юкламалар, ҳар хил киритмалар ва ҳ.) ғоят муҳим ўрин тутди. Тилимизнинг ижтимоий вазифалари кенгая бориши билан бундай воситаларнинг миқдори кундан кун кўпайиб, чегараси мунтазам кенгайиб бормоқда. Миллий истиқлол шарофати билан Ўзбекистон Республикасининг расмий давлат тили ўзбек тили бўлиб, маданият, иқтисод, сиёсат, байналмилал алоқаларнинг барча турларида тилимиз кенг амалиётда бўлаётганлиги ва унинг фаолият доираси кундан-кунга кенгаяётганлиги билан бирга нутқ таъсирчанлигини таъминловчи воситалар, жумладан, модал сўзлар ва юкламаларнинг янги-янги турлари шаклланмоқда. Бу жараёни нафақат бизнинг тилимиз, балки миллий истиқлолга эришиш туфайли мустақил тараққиёт ва байналмилал алоқага киришган ҳар бир тил бошдан кечирган. Шунинг учун иккинчи жаҳон урушидан кейин дунё тилшуносларининг эътиборини тортган қизиқарли масалалардан бири - коммуникация жараёнида фаол иштирок этувчи «дискурсив маркерлар»нинг – юқорида санаб ўтилган «нутқни жонлантирувчи» воситаларнинг - жадал ривожланиши ва сафининг кенгайиб бораётганлиги бўлди. «Дискурсив маркер» деганда шаклан сўз ёки сўз бирикмаси, ҳатто гап тузилишига эга бўлиб, шу дискурсда/матнда ўз денотатив (ва пропозицион) информатив қийматини йўқотиб, энг аввало матнни жонлантириш, уни ҳаракатдаги жараён сифатида бериш, шу билан бирга унинг бутунлигини таъминлаш, турли хилдаги субъектив эмоционал-экспрессив таъсирчанлигини ошириш, адресантнинг индивидуал услуби хусусиятларини ифодалашга хизмат қиладиган ҳосилалар тушунилади. Дискурсив маркерлар матнда ҳаракатчанлик бўёғини бериш билан бирга ифодаланаётган матн ва дискурснинг ўтган қисми орасидаги муносабатлар ҳақида хабар беради (яъни, матн алоқадорлигини таъминлайди) ҳамда коммуникация пайтида сўзловчи ва адресатнинг ўзаро муносабатини, сўзловчи ички (руҳий) ҳолатини таъсирчан шаклда акс эттиради.

Хориж тилшунослари дискурсив маркерлар сирасига юкламалар, боғловчилар, модал сўзлар, ундовлар, равишлар каби кўплаб морфологик-синтактик бирликларни киритишади. Юқорида эслатиб ўтилган сабабларга

кўра, бундай бирликларнинг сони тез кўпайиб борётганлиги уларнинг ўрганилишига бағишланиб кўплаб ишларнинг юзага келтирган⁴⁷. Бу ишларда дискурсив маркерларнинг кўринишлари, сўз туркумларига мансублиги, шаклланиш ва ривожланиш йўллари ҳақида ҳам баҳс боради. Жумладан, Э.Трауготнинг фикрича, дискурсив маркерлар грамматизация натижасида шаклланувчи «одатдаги» лисоний бирликлар қандай босқичлардан ўтадиган бўлса, ҳаммасини ўз бошидан кечиради - яъни дискурсив маркерлар ҳам *формал бирлашиши* → *фонетик редукция* → *таркибидаги лексик бирликлар десемантизацияси ва декатегоризацияси* → *мазмуннинг «пропозиционал» турдан «матнли» турга умумлашиши* каби босқичлардан ўтади. Шунинг учун Э.Траугот дискурсив маркерлар ривожланиши усулини грамматизациянинг бир кўриниши деб ҳисоблайди⁴⁸. Дискурсив маркерларнинг ўзига хос хусусияти шундан иборатки, уларнинг таъсир доираси, одатда, гап ёки микроматн чегарасидан чиқади, катта контекстлар билан ҳатто метаматн – матндан ташқарида турган ҳолату вазиятлар, сўзловчининг зотий (онтологик) хислатлари, рухий ҳолати, ижтимоий мавқеи, маданий савияси, баён этилаётган фикр ва мулоқот жараёнига муносабати, мулоқот жараёнининг бошқа турдаги хилма-хил таркибий қисмларининг хусусиятлари билан ҳам алоқадор бўлолади. Дискурсив маркерларни рус тилида⁴⁹ ва инглиз тилида⁵⁰ қўлланилиши билан шуғулланган тадқиқотчилар бундай бирликларнинг матнни ва дискурс (мулоқот жараёнини) шакллантириш каби структур вазифа билан бирга ҳар хил эмоционал-экспрессив таъсирчанлик хусусиятларига, сўзловчи онтологик хислатлари ва мулоқот жараёнидаги рухий ҳолатини акс эттириш қобилиятига эга эканлигини алоҳида уқтиришади.

Ўзбек тилида ҳам нутқ жараёнида фаол иштирок этиб, турли-туман прагматик вазифалар - энг аввало, матнни жонлантириш ва бутунлаштириш, ҳар хил коннотатив маънолар ифодалашга хизмат қиладиган нутқий ҳосилалар (сўз, сўз бирикмалари, гап қурилиши) жуда кўп. Уларнинг қайси сўз туркуми (модал сўзларми ёки ундовларми, юкламаларми ёки боғловчиларми) таркибига киритиш ҳар хил мунозараларга сабаб бўлади, зероки, улар бир хусусияти билан модал сўзларга ўхшаса, бошқа қирраси билан ундовларга яқинлашади. Биз шундай сўзларни «дискурсив юкламалар» атамаси остида бирлаштирдик. Бизнингча, ўзбек тилидаги дискурсив юкламалар сирасига қуйидаги ҳосилаларни киритишимиз мумкин: *бале, бу, заб, ҳали, лаббай, майли, мана, ана, тузук, э, қани энди, қани, ишқилиб, айтмоқчи, нега десанг, барибир,*

⁴⁷ Баранов А.Н., Пругян В.А., Рахилина Е.В. Путеводитель по дискурсивным словам русского языка. - М., 1993; Дискурсивные слова русского языка: опыт контекстно-семантического описания / Ред. К.Л.Киселёва, Д.Пайар. - М., 1998.

⁴⁸ Traugott E.C. Constructions in grammaticalization // The handbook of historical linguistics / ed. By B.D. Joseph, R.D. Janda. Oxford: Blackwell, 2003. p.643.

⁴⁹ Дискурсивные слова русского языка: опыт контекстно-семантического описания / Ред. К.Л.Киселёва, Д.Пайар. - М., 1998.

⁵⁰ Traugott E.C. Кўрсатилган асар, -Б.323.

ўлгур, қургур, ъурмагур, тушгур, тушмагур, бўлгани бўлди, айтгин-айтгин, борински, қўйински, кел, келиб-келиб, дейман, бу дейман, дегин, шундай денг, яхшиси, кимсан, биласизми, борми, шундай, энди, савил, ҳа кабилар. Бу қаторни яна узоқ давом эттириш мумкин. Лекин шу юқорида келтирилган сира ҳам ўнлаб саволларни ўртага ташлаш учун асос бўлади, зероки, бу сирадаги ҳар бир бирлик ўзбек тилшунослигида амалда бўлган сўз туркумлари тизимларида функционал-семантик жиҳатига кўра, албатта, у ёки бу туркумга тегишли деб тасниф этилган ва, табиийки, бу таснифларда **дискурсив маркер** гуруҳи йўқ ва бўлолмайди⁵¹. Бу сўзлар, юқорида айтиб ўтганимиздек, олмош, модал, ундов, юкламалар таркибига ёки сўз туркумлари тизимида ажратилиши мутлақо асоссиз бўлган киритмалар⁵² сифатида баҳоланади. Биз уларни **дискурсив юкламалар** деб аташни лозим кўрдик. Бундай ички зиддиятли – ситуатив-культурологик соҳага алоқадор **дискурс**, устувор лисоний-структур тизимга – тилшуносликка алоқадор **юклама** атамаларининг бирлашишидан ҳосил бўлган - атамага зарурат борми? Дастлаб **дискурсив юкламалар** деб атамоқчи бўлган бирликларимизнинг табиати (субстанциал, зотий, онтологик хусусиятлари) устида тўхталганимиздан сўнг бу саволга жавоб беришга ҳаракат қиламиз.

Албатта, атама - бу ном. У номлаб келаётган нарсаси табиати билан мутлақо боғланмаган бўлиши мумкин⁵³. Лекин тилшунослигимизда **юклама** атамаси муайян мазмун-моҳиятга эга. Қайси асосда сўз-гап, ёки модал сўз, ёки ундов... сифатида баҳоланиб келинаётган, масалан *ҳа, лаббай, қургур...* в.б. сўзлар юкламанинг бир тури бўлиб қолди? Таҳлилни шу саволга жавоб беришдан бошлаймиз. Бунинг учун, энг аввало, бошқа бир саволга жавоб топиш лозим: Биз дискурсив юклама деб тасниф этаётган *ҳа, лаббай...* ва, масалан, Р.Бобокалонов сўз-гапларнинг бир тури сифатида ажратган⁵⁴ тасдиқ-инкор сўзлар таркибидаги *ҳа* ёки ундовлар таркибидаги *лаббай* билан субстанциал (онтологик) бир нарсам, ёки биз бунда шаклий умумийлик ва зотий фарқлилик (омонимия) билан тўқнашмоқдамизми? Бу саволга жавоб бериш учун ф а к т л а р г а (объектив борлиққа) - лисоний бирлиكنинг нутқий воқеланиш хусусиятларига, аниқроғи бу бирликларнинг дискурсда қўлланилишига мурожаат қиламиз. Бунинг учун эса биз дастлаб прагматингвистиканинг асосий тушунчаларидан бири бўлган д и с к у р с устида бироз тўхталишимиз зарур.

Прагматингвистик дискурснинг формал ва структурал (жумладан, субстанциал) тилшуносликларида кенг истеъмолда бўлган н у т қ тушунчасидан фарқи нимада? Дискурс талқинида тилшуносликда хилма хил қарашлар мавжуд. Аксар тилшунослар дискурсни (французча *discourse*, инглизча *discourse*, лотинча *discursus* – ҳаракат, узлуксиз алмашилиш,

51 Бу атама лисоний-структур эмас, балки тилнинг воқеланиши билан қисман алоқадор бўлган ижтимоий-маданий - к у л ь т у р о л о г и к соҳа – нутқий мулоқотга алоқадордир ва том маъно тилшунослик атамаси бўлолмайди.

52 Киритма соф синтактик тушунча ва сўз туркумлари (лексик-грамматик) тизимида бўлиши мумкин эмас

53 Ўзбек антропонимикасида Тош, Пўлат, Олтин каби номлар аёл жинсидаги кишига кам, эркак жинсига ҳам хос бўлиши мумкин.

54 Bobokalonov R. O'zbek tilida gap sintaksisi va so'z-gapning system-struktur talqini. – T.: Fan, 2006

сухбат, сўзлашиш) нутқий фаолият жараёни ҳамда сўзлашиш услуби каби мазмунларда тушунтиришга ҳаракат қилади.⁵⁵ Дискурс ҳақида қимматли фикрлар когнитолог тилшунос Ш.Сафаров томонидан билдирилган.⁵⁶ Олим матн ва дискурс муаммолари хусусида қуйидагиларни ёзган: «Агарда матн ва дискурснинг ҳар иккаласи ҳам инсон лисоний фаолиятининг натижаси бўлса, уларни фақатгина зоҳирий – формал кўрсаткичга асосан «оғзаки» ва «ёзма» сифатлари билан фарқлаш имконига гумоним бор. Худди шунингдек, уларнинг бирини моддий кўринишли ҳодиса, иккинчисини бу хусусиятдан холи кўринишда тасаввур қилиш қийин масала. Ахир буларнинг иккаласи ҳам натижали фаолият маҳсули бўладиган бўлса, эришилган натижа моддий кўриниш олиши керак-ку?!».⁵⁷ Биз Ш.Сафаров томонидан келтирилган А.Кибрик, В.Плунгянларнинг «дискурс – бир пайтнинг ўзида ҳам лисоний фаолият жараёни, ҳам унинг (фаолиятнинг) маҳсулидир» мазмундаги фикрига таянган ҳолда дискурсни кенг маънода, аммо оддийроқ, соддароқ тушунишга ҳаракат қиламиз. Дискурс, бизнингча, ёзма ва оғзаки нутқ жараёнини қамраб олувчи ҳодиса, мулоқот тизими ёки қисқача айтганда, инсоннинг нутқий фаолиятидир. Зеро, «матн дискурсив фаолият кечаётган пайтнинг ўзидаёқ яратила бошланади. Маъқули, қиёсланаётган бу икки ҳодисани «гипероним» - «гипоним» муносабатида ўрганишдир. Дискурс инсон онгли фаолиятининг маълум бир тури, туркуми бўлса, матн унинг бир кўринишидир»⁵⁸. Демак, дискурс - сўзловчи ва тингловчининг ўзаро фикр алмашиш, бир-бирига таъсир кўрсатиш мақсадида лисоний ва нолисоний воситалардан ўзлари энг самарали деб ҳисоблаган шакл ва турда амалий фойдаланиш жараёни. Дискурс бу – жараён, инсоний фаолият тури. У лисоний ва юзлаб нолисоний омилларнинг муштарак шаклда б и р мақсад йўлида воқеланишидир. Мана шу билан дискурс анъанавий нутқ тушунчасидан фарқланади – анъанавий нутқ тушунчаси остида, одатан, лисоний бирликнинг оддийгина воқеланиш шаклу кўринишлари тушунилади, холос. Бу масала, унинг билан боғлиқ равишда *нутъ бирлиги* (нутқий бирлик) ва *мулоқот бирлиги* (дискурсив бирлик) тушунчалари Ш.Сафаров ва Г.Тоировалар томонидан жуда муфассал тавсифланган⁵⁹. Жумладан, муаллифлар ўзбек тилида кўришиш/саломлаш ибтидосида қўлланиладиган «Ассалому алайкум ва раҳматуллоху баракотух» ёки «Салом» ёки «Хелло» шаклининг лўлланилиши сўзловчи ва тингловчининг мақсади, миллати, ёши, тарбияси, маълумоти, маданий савияси, хулқ атвори, кийиниши, овоз тембри, тана

⁵⁵ Кибрик А.А., Паршин П.Б. Дискурс // Электронная Энциклопедия Кругосвет. <http://www.krugosvet.ru/articles/82/1008254/print.htm>; Баранов А.Н., Плунгян В.А., Рахилина Е.В. Путеводитель по дискурсивным словам русского языка. М., 1993.

⁵⁶ Сафаров Ш. Прагмалингвистика, -Б.216.

⁵⁷ Сафаров Ш. Кўрсатилган асар, -Б.223.

⁵⁸ Сафаров Ш. Кўрсатилган асар, -Б.226; *Қаранг*: Кибрик А.А., Плунгян В.А. Функционализм и дискурсивно-ориентированные исследования / В.кн.: Фундаментальные направления современной американской лингвистики. – М., 1997, -С.307-323.

⁵⁹ Сафаров Ш., Тоирова Г. Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. Ўқув қўлланма. - Самарқанд. СамДЧТИ нашри, 2007. 44 б.

аъзолари ҳолати ва ҳаракатлари, муайян нутқий шароит каби деярли сон-саноксиз шароит кўрсаткичлари билан боғланганлиги, мана шу турли соҳа ва сатҳ бирликлари мажмуаси оний (ситуатив) тизим сифатида талқин этилувчи мулоқот бирлигини (дискурсив бирликни) тузиши очиб берилган⁶⁰. Албатта, мулоқот бирлиги сифатида талқин этиладиган бу оний дискурсив (ситуатив) тизим марказида нутқий бирлик (лисоний бирликнинг маълум шаклда воқеланиши) туради, лекин оний тизим фақат нутқ бирлигидангина иборат эмас – у жуда кўп таркиблидир. Сўзловчи ҳам ўз нутқини баён этишдан аввал уни ичида грамматик жиҳатдан шакллантиради. Аввал онгда ифодаланмоқчи бўлган фикр жамланиб, сараланади ва оний тезликда керакли воситалар танланиб бир тизимга келтирилади ҳамда **шу вақтнинг ўзида қўшимча маъно жилосини бериш учун матн/шароити мақсадга мос керакли воситалар** – ифодаланаётган фикрга бевосита жонли (ҳаракатдаги) мулоқот руҳини ва безак, зеб-зийнат берувчи бирликлар – дискурсив маркерлар (д и с к у р с и в ю к л а м а л а р) танланади. Дискурсив маркерлар (юкламалар) сўзловчи ёки матн тузувчига (ижодкорга) ифодаланаётган нутқий вазиятнинг – реал мулоқот, ҳаракатдаги фаолиятни табиий чиқишини таъминлашга хизмат қилади ва коммуникатив стратегияни белгилашда муҳим аҳамият кашф этади. Демак, дискурсив юкламалар сўзловчи ёки ёзувчининг прагматик мўлжалини воқелантиришда ҳамда мулоқот субъекти бўлган тингловчи ёки ўқувчига таъсир ўтказиш жараёнида ўзига хос - нутққа дискурс руҳини беришдек вазифани бажаради. Мулоқот ёки матн орқали муаллиф ўқувчига таъсир ўтказишнинг турли усуллари (эпистемик, денотик, аксиологик...) фойдаланиши жараёнида, албатта, матн структурасига «жонлантирувчи маркер»ларни тиркайди, киритади. Натижада, улар матн композициясини шакллантиришда хизмат қилувчи муҳим воситалардан бирига айланади. Буни ҳис қилиш учун бундай маркерлар қатнашган матнни шуларсиз тасаввур қилиб кўришнинг ўзи кифоя. Шунда унинг матндаги таъсири яққол сезилади. Шунинг учун сўзловчи ёки матн яратувчи прагматик ниятини воқелантиришда дискурсив юкламалардан унумли фойдаланишга ҳаракат қилади ва шунга интилади.

Ижодкорлар матн яратиш жараёнида кўп ҳолларда дискурсив юкламаларга мурожаат қилишининг боиси нимада? Бу ҳолни шундай изоҳлаш мумкин: биринчи навбатда бу сўзлар матн табиийлигини таъминлашга хизмат қилса, иккинчидан, муаллифнинг матнда мўлжаллаган ниятларидан бирини ифодалайди - матн шунчаки ахборот узатувчи восита эмас, балки унинг замирида тингловчига ёки ўқувчига эмоционал-экспрессив таъсир қилиш мақсади яширинганга ишора қилиб келади. Дискурсив юкламалардан унумли фойдаланиш кўп ҳолларда муаллифнинг индивидуал маҳоратига боғлиқ бўлади. Муаллиф нутқ вазиятига мос равишда коммуникатив мақсадни кўзлаб яратаётган ҳар қандай матнга таъсир этувчи, умуман шу матн табиатига мос дискурсив юкламани

⁶⁰ Сафаров Ш. Тоирова Г. Кўрсатилган асар. Б.22-26.

танлайди ва нутқни жонлантиради, унга фаолият - жараён тусини беради, зероки дискурсив юкламаларнинг талаффуз хусусиятлари ҳам, уларга ҳамиша ҳамроҳлик қиладиган қатор нолисоний (экстралингвистик, паралингвистик...) воситалар ҳам ўзига хосдир - улар матнни фотосурат сифатида эмас, балки видеолавҳа сифатида қабул қилишга хизмат қилади. «Муаллиф - қабул қилувчи (реципиент)» ҳамкорлигининг турли-туман муносабатларини ёрқинроқ ифодалаш орқали матннинг прагматик имкониятларини ойдинлаштириш мақсадида қўлланиладиган бу турдаги юкламалар матндаги коммуникатив жараёни яққол жонлантирувчи модаллик категорияси унсурлари сирасига киради.

Фойдаланган адабиётлар

1. Баранов А., Плугян В., Рахилина Е. Путеводитель по дискурсивным словам русского языка. – М., 1993. – 109 с.
2. Bobokalonov R. O‘zbek tilida gap sintaksisi va so‘z-gapning sistem-struktur talqini. – Toshkent: Fan, 2006. – 123 b.
3. Дискурсивные слова русского языка: опыт контекстно-семантического описания / под ред. Киселевой К. и Пайара Д. – М., 1998. – 446 с.
4. Кибрик А.А., Паршин П.Б. Дискурс // Электронная Энциклопедия Кругосвет. <http://www.krugosvet.ru/articles/82/1008254/print.htm>;
5. Кибрик А.А., Плунгян В.А. Функционализм и дискурсивно-ориентированные исследования / В.кн.: Фундаментальные направления современной американской лингвистики. – М., 1997, -С.307-323.
6. Сафаров Ш. Прагмалингвистика.–Тошкент:ЎЗМЭ, 2008. – 285 б.
7. Сафаров Ш., Тоирова Г. Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. – Самарқанд, СамДЧТИ, 2007. – 40 б.
8. Traugott E.C. Constructions in grammaticalization // The handbook of historical linguistics / ed. By B.D. Joseph, R.D.Janda. Oxford: Blackwell, 2003. p.643.

O‘ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDA FRAZELOGIZMLARGA XOS BA’ZI XUSUSIYATLAR

N. Kilichov, QQDU dotsenti (PhD)

D. Karimova, QQDU talabasi

Turkiy tillarda hozirgi vaqtda o‘rganilayotgan va o‘rganilishi lozim bo‘lgan masalalar talaygina. Bular orasiga frazeologizmlar va ularga xos xususiyatlarni ham kiritishimiz mumkin. Shu o‘rinda, dastlavval, frazeologiyaga umumiy to‘xtalib o‘taylik.

Frazeologiya tilshunoslikning bir bo‘limi bo‘lib, u tilning lug‘at tarkibidagi frazemalar haqida ma’lumot beradi. Frazema ko‘chma ma’noli turg‘un konstruksiyadir. Masalan, zo‘raymoq (leksema) – avj olmoq (frazema), qiynalmoq (leksema) – azob chekmoq (frazema) kabi. Demak, frazema ham

leksema kabi lugʻaviy birlik sanaladi, ammo oʻzining ifoda va mazmun planlaridagi qator belgilari bilan leksemadan farqlanadi [1: 216].

Oʻzbek va qoraqalpoq tillarida frazeologik birliklar juda keng tarqalgan boʻlib, frazeologizmlar iboralar deb ham yuritiladi. Frazeologizmlarga xos xususiyatlar tilshunoslar tomonidan chuqur oʻrganib kelinmoqda. Ayniqsa, frazeologik omonimiya, frazeologik sinonimiya, frazeologik antonimiya hodisalari borasidagi tadqiqotlarda katta yutuqlarga erishildi. Shularni hisobga olgan holda, biz bu tadqiqot ishimizda oʻzbek va qoraqalpoq tillaridagi frazeologizmlarga xos variantlanish xususiyatiga toʻxtalib oʻtishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Variantlanish – barcha til birliklariga (fonemaga ham), shu jumladan, frazeologik birlikka ham mansub hodisa. Koʻp variantli iboralarining asosiy qismini ikki va uch variantli iboralar tashkil etadi. Umuman, frazeologik birliklarda variantlanish boshqa til birliklaridagiga nisbatan kuchli boʻlib, bir iboraning variantlari soni oʻntagacha yetadi. Variantlanish tufayli bir ibora boshqa bir iboraga aylanmaydi, bir iboraga xos obraz birligi, lugʻaviy maʼno birligi saqlanadi. Variantlanish iboraga xos yaxlitlikning oʻzi doirasida, shu yaxlitlik yoʻl qoʻygan darajada voqe boʻladi. Aks holda, yo ibora yoʻqqa chiqadi yoki boshqa bir ibora barpo qilinadi [3: 13].

Frazeologizmlarning variantlanishi hodisasi qoraqalpoq tilida ham aynan oʻzbek tilidagi kabi xususiyatlarga ega. Qoraqalpoq tilida ham iboralarining bir va bir nechta variantlari mavjud. Shularni hisobga olgan holda, oʻzbek va qoraqalpoq tillarida frazeologizmlarning variantlanishiga misollarni koʻrib chiqaylik:

Oʻzbek tilidagi **“aqli yetadi”** iborasi ikki xil maʼnoda qoʻllanadi: 1. Idrok qilmoq, uqmoq, bilmoq. Bu iboraning ikkita varianti borligini koʻrishimiz mumkin: fahmi yetadi, fahm-farosati yetadi. Pul topishga aqli yetgan Zebining sarf qilishga ham **aqli yetib** qolar (S. Ahmad). Boʻlmasa, shunga **fahmi yetsa**, kolxozga yangi kelayotgan odamlarga qoʻl siltab qararmidi!? (R. Fayziy). 2. Ishonch hosil qilmoq, ishonmoq. Ernazar aka... gapidan birovga naf tegishiga **aqli yetsagina** gapiradi [3: 29]. Bu iboraning sinonimi ham bor: koʻzi yetadi. U variant hisoblanmaydi. Biz frazeologizmlarning variantlarini sinonimi bilan adashtirmasligimiz lozim. Endi aynan shu iborani qoraqalpoq tilida koʻrib chiqaylik:

“Aqli yetadi” iborasi qoraqalpoq tilida **“aqılı alısıw”** shaklida faqat bir maʼnoda qoʻllanadi: Aqılı alısıw. Biliw, anlaw, bir istin’ qalay bolıw usılın, jagʻdayların biliw. Birigip ketse boldı, oʻzi jarılayın dep turgʻan gʻarbız qarnın’dı panq ettiretugʻınına **aqılı alısadı** (T. Qayıpbergenov). Uning varianti: aqılı jetiw [2: 39]. Demak, bu iboraning oʻzbek tilida ikki varianti mavjud boʻlsa, qoraqalpoq tilida bittagina variantga ega va bir maʼnoda qoʻllanadi.

Frazeologik birliklar oʻzbek va qoraqalpoq tillarida turlicha variantlanishi mumkin. Har ikki tilda ham ibora bitta variantdan tortib, 4, 5 ta variantlarga ega boʻladi. Masalan: oʻzbek tilidagi **“yetti oʻlchab bir kesmoq”** iborasining beshta variantini uchratamiz: yetti oʻlchab, bitta kesmoq; yetti oʻlchab, bir kes; qirq

o‘lchab, bir kesmoq; qirq marta o‘lchab, bir marta kesmoq; ming o‘lchab, bir kesmoq [3: 86]. Bularning hammasi tilimizda keng qo‘llanadi. Qoraqalpoq tilida ham bunday iboralar mavjud. Masalan, “**esi awıw**” iborasi ham besh xil variantga ega: esi ketıw, esin joytıw, es-aqılın joytıw, es-aqılınan ayrılıw, esinen tanıw [2: 74]. Bu kabi iboralar va ularning variantlari o‘z xususiyatlari bilan alohida ajralib turadi.

Yana bir e‘tiborni tortadigan jihat, o‘zbek va qoraqalpoq tillarida ba‘zi iboralarning umuman variantlanmasligidir. Ular doimo bir xil shaklda qo‘llanadi va bunday iboralar juda ko‘p uchraydi. Masalan, o‘zbek tilidagi “ixlos qo‘ymoq” [3: 115], “kavushini to‘g‘rilab qo‘ymoq” [3: 124], “ko‘zi yetmoq” [3: 135]; qoraqalpoq tilidagi “jaman ko‘zi menen qaraw” [2: 76], “zan‘giles bolıw” [2: 86], “iz kesiw” [2: 89], “ko‘zdi ashıp jumg‘ansha” [2: 98] kabilar shular jumlasidandir.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi frazeologizmlarga xos bu kabi xususiyatlarni o‘rganish bugungi kunda dolzarb ahamiyatga egadir. Frazeologizmlardagi omonimlik, sinonimlik, antonimliklar singari variantlilikning ham ikki tilda ko‘p uchrashi bunga sabab bo‘ladi. Variantlilik hodisasi unchalik e‘tiborni tortadigan jihat bo‘lib ko‘rinmasligi mumkin, ammo frazeologizmlarni o‘rganish qanchalik muhim bo‘lsa, variantlilikka to‘xtalish ham shunchalik muhimdir. Bu tilimizning o‘rganilmagan jihatlarini ochish yo‘lidagi dastlabki qadamlardan biri bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T.: «Talqin», 2005.
2. Eshbayev J. Qaraqalpaq tilinin’ qisqasha frazeologiyalıq so‘zligi. - No‘kis, «Qaraqalpaqstan», 1985.
3. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. –T.: «O‘qituvchi», 1978.

ZULFIYA SHE’RIYATIDA O‘ZLASHMA QATLAM SO‘ZLAR LINGVOPOETIKASI

A.Musayev JDPI dots, A.Abduvaitov JDPI talabasi

O‘zbek adabiy tilida olimlar, ziyolilar, adiblarning og‘zaki va yozma adabiyotning asosiy ijodkorlari bo‘lgan xalqimizning asrlar osha mashaqqatli mehnati, tilga sayqal berishi, uni chuqur o‘rganishi borasidagi xizmatlari evaziga turkiy tillar oilasida o‘ziga xos mavqeiga ega bo‘ldi. O‘zbek tilida juda ko‘p o‘lmas badiiy asarlar, ilmiy tadqiqotlar yaratildi. Bu ham o‘zbek tilining madaniy tillar qatlamidan o‘rin olishini ta‘minladi.

“So‘zlashuv uslubida o‘zlashmagan so‘zlar ataylab qo‘llaniladi, bu narsa badiiy asarlari tilida o‘z aksini topmoqda”. [1-68-bet]

O‘zbek tilining lug‘at tarkibining boyish va takomillashuvida tashqi manba ham muhim o‘rin tutadi. O‘zbek tili o‘tmishdan qardosh bo‘lmagan tillar bilan ham o‘zaro aloqada bo‘lgan, natijada bu tillardan o‘zbek tiliga ma‘lum miqdorda

soʻzlar oʻzlashgan. Bir tildan boshqa tilga soʻz kirishi oddiy mexanik jarayon emas, balki murakkab lingvistik qonuniyatidir.

“Har qanday xalq oʻz taraqqiyot yoʻlida boshqa xalqlar bilan aloqa qilmasdan lugʻaviy tarkibini rivojlantira olmaydi”. [2-18-bet]

Oʻzbek xalqi bilan tojik xalqi oʻrtasidagi aloqa natijasida oʻzbek tili ham tojik tili ham boyigan va rivojlangan. Zulfiya asarlarida ham fors-tojik tilidan oʻzbek tiliga kirgan, oʻzlashgan qatlam soʻzlar mustahkam oʻrin olgan va turli uslubiy maqsadda qoʻllangan. Bular oʻzbek adabiy tilining lugʻaviy tarkibidan mustahkam oʻrin olgan:

chordona, dil, doʻst, dushman, lola, saxar, payola, mard, farzand, bulbul, darkor, poʻlat, s hogird, va boshqalar.

Sharqning ham buzilmas odatlari bor,

Hindlar udumiga qilamiz amal.

Chordona quramiz mehmon va mezboʻn

Kamalakrang gilam uzra bemalol.

Goh erk tantanasi bergan adolat-

Osiyo, Afrika kartasi boʻlib,

Hayot olamiga, baxtiga toʻlib,

Kirib kelar edi **dildan dillarga**. (“Mushoira” sheʼri, 165-166b.)

Zulfiya asarlarida koʻplab arabcha soʻz va soʻz shakllari qoʻllangan. Oʻzbek tiliga kirgan arabcha oʻzlashmalar oʻziga xos singishi xususiyatlarga ega. Shoir oʻzbek tiliga singib ketgan arabcha oʻzlashma soʻzlardan unumli va ustalik bilan foydalangan. Maktab va tarbiyada, din va shariatda, sanʼat va adabiyotda ishlatiladigan oʻzlashma soʻzlardan poetik maqsadda foydalangan. Bular: mehnat, hukm, huquq, majlis, taʼlim, bayt, gʻayrat, bazm, qalam, kitob, oftob, saboh, va shu kabilar.

Kiyganim ipakmi, Chitmi yo kimxob,

Yurak boyligidan qilmabman parvo.

Meni ogʻushlagan hayot naq **oftob**,

Yangi qoʻshiq talab bunda har **saboh**. (“Men oʻtgan umrga” sheʼri, 139b.)

Qalb boʻlganda yiroqda

Iroda ekan ojiz.

Doʻstlar ham koʻp atrofda,

Ammo men yakka-yolgʻiz... (“Sen qaydasan, yuragim” sheʼri, 61b)

Oʻtdi oylar gʻam bilan oqib,

Dil topmadi zarra tasallo.

Firoqingda qoldim tutaqib,

Ne baloga etding muftalo! (“Ne baloga etding muftalo” sheʼri, 65 b.)

Oʻzbek tiliga kirgan rus tilidan oʻzlashgan ruscha-baynalminal soʻzlar oʻz koʻlami, maʼnosi va aloqa vazifaviy belgilarga koʻra juda koʻp qiraliidir. Ruscha-baynalminal soʻzlar oʻzbek tiliga tarjimasiz kirib keldi, xalq bu soʻzlardan oʻz ona tiliday foydalandi. Zulfiya asarlari leksikasidagi oʻzlashma soʻzlar ham oʻzbek tilining boyishiga yordam berdi. Bular: mikrafon, parta, roman, mashina, komsomol, roman, mashina shu kabilar.

Tarix jarohati,xalqning ofati
Yiqiq saltanatning g'ishtin irg'itib
Shahid, qurbonlarning unut qomatin
Suyab olib,qutlug' qonlarin artib
Bir **roman** yozmoqchi!
Kecha va bugunni birdayin quchib,
Tonga yurar uyg'oq Buxoro tuni
Mashinalar ko'cha-ko'ylaring yuvib
Kunduzgi kelinday uzatar uni.

Xullas,Zulfiya asarlari leksikasini lug'aviy qatlamlarini tadqiq qilish shuni ko'rsatadiki,o'zlashma qatlam leksikasi asosida o'zbek tili shaklantirdi va boyitdi.

O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgach ayrim o'zlashma so'zlar o'rniga o'zbek tilining ichki imkonyatlari asosida yaratilgan so'zlardan foydalanishga ahamiyat berila boshladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.O'rinboyev B. Hozirgi o'zbek tilining so'zlashuv uslubi. Toshkent. 1991. 68-bet.
- 2.O'rinboy'ev B, G.G'ulom asarlarining lingvopoetikasi. Samarqand, 2008. 18-bet

КЕСИМ ВА ТЎЛДИРУВЧИ ЭРГАШГАН ҚЎШМА ГАПЛАРНИНГ ТРАНСФОРМАЦИЯЛАНИШИДАГИ СИНТАКТИК ЖАРАЁНЛАР

**Рахматова М.Эркин кизи, ЖДПИ талабаси
Илмий рахбар Д.Файзуллаева**

Эргашган қўшма гапларнинг барча тури ҳам нутқ жараёнида трансформацияланиши мумкин. Албатта, бу жараёнда эргаш гапларнинг тузилиши, тури ва уларда қўлланилган боғловчи воситалар инобатга олиниши лозим. Кесим эргаш гапли қўшма гапларни трансформациялашда, аввало унинг қисмларидан англашилган мазмун муносабатларига эътибор қаратиш ўринлидир. Кесим эргаш гаплар қурилиши ва табиатига эътибор қаратадиган бўлсак, унда ўз мазмун муносабатига кўра икки хусусият мавжудлигини кўрамиз: а) бир ҳавола бўлакли кесим эргаш гаплар, б) икки ҳавола бўлакли кесим эргаш гаплар. Масалан: Гапнинг рости шуки, йиғлоқи торларни чертишга ўзимнинг ҳам тоқатим йўқ. Сен нима билсанг, биз ҳам шу.

Келтирилган мисоллардаги биринчи кесим эргаш гап нутқимизда жуда кўп қўлланадиган кесим эргаш гап турларидандир. Мазмуний жиҳатдан олиб қаралса, кесим эргаш гапли қўшма гапларда икки денотатив воқеа ифодаланган. Аммо бош гапда ифодаланган денотатив воқеа тугалланмаганлиги (“чала”) сезилиб турибди. Бу “чала”лик эргаш гапдаги

денотатив воқеа билан мазмуний алоқадорликда барҳам топади. Чунки бош гапдаги денотатив воқеанинг кесим мазмуни (предикати) эргаш гапдаги денотатив воқеа билан тенг келади. Демак бош гапдаги “шуки” предикати ўз таркибига эргаш гап мазмунини мужассамлаштиради, яъни эргаш гап таркибидаги денотатив воқеани ўз ичига олади.

Юқоридаги ҳолатни инобатга оладиган бўлсак кесим эргаш гапли қўшма гаплар қисмларидан англашилаётган мазмун ўзаро зич муносабатда бўлиб, уларни алоҳида ажратиб идрок қилиш мумкин эмас. Чунки бош гап таркибида қўлланилган “шу” кўринишдаги ҳавола бўлак кесим эргаш гаплар учун бир ички зарурий ҳолатдир. Шу ҳолатдан келиб чиқадиган бўлсак, кесим эргаш гапли қўшма гапларни трансформациялаш мумкин эмас. Бундай эргаш гапли қўшма гапларда икки денотатив воқеа ўртасидаги муносабат биргаликда қўшма гапнинг умумий мазмунини ифодалашга хизмат қилади. Шу сабабли ҳам улар трансформацияланмайди.

Маълумки, тўлдирувчи эргаш гаплар бош гапдаги кўрсатиш олмоши орқали ифодаланган тўлдирувчининг ёки қўлланилмаган тўлдирувчининг мазмунини конкретлаштириб, изоҳлаб келади. Масалан: Қонун нимани тақоза қилса, шуни қилиш керак. Биласизми, бизнинг хотин-қиз зотининг юраги жуда ажойиб, пок, сезгир бўлади. Келтирилган мисолларнинг ҳар иккаласи ҳам тўлдирувчи эргаш гапли қўшма гапдир. Уларнинг биринчиси ҳавола бўлак орқали, иккинчиси эса ҳавола бўлаксиз шаклланган.

Биринчи мисолда бош гап таркибидаги ҳавола бўлак (шуни) ўз синтактик ўрнида қўлланилган. Ушбу гапда битта денотатив воқеа ифодаланган бўлиб, иккинчи воқеа эса бу воқеани тасвирловчи модус ҳисобланади. Бундай тўлдирувчи эргаш гапларда модусни алоҳида ажратиб, таъкидлаб кўрсатишга зарурат туғилмаса, бош гапда ифодаланган денотатив ифоданинг ичига шаклан киритиб юбориш мумкин. Бунда ушбу гап содда гапга айланади ва тўлдирувчи эргаш гап трансформацияга учрайди: Қонун тақоза қилган ишни қилиш керак.

Демак, кейинги гапда тўлдирувчи эргаш гапли қўшма гапнинг трансформацияланиши содир бўлди. Кўринадикки, тўлдирувчи эргаш гапларнинг бош гапида тўлдирувчи бўлиб келган кўрсатиш олмошларини тушириб қолдирсак ва сўзларнинг таркибини ўзгартирсак қўшма гап бирикмали тўлдирувчили содда гапга айланади. (1). Олий мактабдаги ўқиш шу билан фарқ қиладики, бу ерда ҳар бир киши кўпроқ мустақил равишда китоб устида ишлашга тўғри келади. Бу гапнинг трансформацияланган кўриниши қуйидагича бўлади: Олий мактаблардаги ўқиш ўрта мактаблардаги ўқишдан ҳар бир кишининг кўпроқ китоб устида мустақил ишлаши билан фарқланади.

Тўлдирувчи эргаш гаплар кесими инкор формада келган бош гапга — ки воситасида боғланиб, бир нарса ва воқеанинг кутилмаганда содир бўлганлигини ифодалайди: 1) Мен ўйламаган эдимки, сиз эрта билан бизникига келасиз деб. 2) Кутмаган эдимки, бир кишининг ўзи шунча ишларни қила олади деб.

Бу турдаги қўшма гапларда тўлдирувчи эргаш гапнинг ўрнини ўзгартириб қўллаш ҳам мумкин. Бундай ҳолларда бош гап таркибидаги –ки боғловчи восита тушиб қолади, тўлдирувчи эргаш гапнинг ўрни ўзгариб бош гапдан кейин эмас, олдин келади: 1) Сиз бугун эрта билан бизникига келасиз деб ўйламаган эдим. 2) Бир кишининг ўзи шунча ишларни қила олади деб кутмаган эдим.

Тўлдирувчи эргаш гаплар бош гапга –ки боғловчи воситасида бирикканда, уларнинг трансформацияланиш жараёнида қуйидаги ўзгаришлар содир бўлади: 1) Шунга эришишимиз керакки, аёллар ҳаётнинг ҳар бир соҳасида эрлар билан тенг бўлсин; (А.Қаҳҳор 2) Кишилар истайдики, ер юзи гулбоғининг мусаффо ҳавасидан ҳамма бўлсин баҳраманд (Ғ.Ғулом).

Юқорида таъкидлаганимиздек, модусни ифодалашга зарурат бўлмаса, юқоридаги тўлдирувчи эргаш гаплар қуйидаги кўринишда денотатив воқеа ичига, денотатив воқеа таркибига сингдирилади: 1) Биз аёллар ҳаётининг ҳар бир соҳасида эрлар билан тенг бўлишига эришишимиз керак. 2) Кишилар ер юзи гулбоғининг мусаффо ҳавосидан ҳамма баҳраманд бўлишини истайди. Ушбу икки тўлдирувчи эргаш гапли қўшма гаплар трансформацияланиши натижасида содда гапларга айлантирилди.

Демак, тилда кесим эргаш гапли қўшма гаплар трансформацияга учрамайди. Чунки қисмлардан англашилаётган мазмун ўзаро зич муносабатда бўлиши уларни трансформациялашга имкон бермайди. Тўлдирувчи эргаш гапли қўшма гаплар эса, қандай грамматик воситалар орқали бирикишига қарамасдан, улар содда гапларга трансформацияланади. Трансформациядан сўнг ҳам қўшма гапдан англашилган мазмун сақланиб қолади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Маҳмудов Н. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик-синтактик асимметрия. Тошкент, Ўқитувчи, 1984.
2. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. (Синтаксис). Тошкент, Ўқитувчи, 1995.
3. Сайфуллаев Р. Ҳозирги ўзбек тилида қўшма гапларнинг шакл ва вазифавий (формал функционал) таҳлили. Тошкент, 1991.
4. Асқарова М. Ҳозирги замон ўзбек тилида қўшма гаплар. Тошкент, Фан, 1960.
5. Абдурахмонов Ғ. Ўзбек тили грамматикаси. Тошкент, Ўқитувчи, 1996.

O‘ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDAGI SOMATIK FRAZEMALARNING BA’ZI XUSUSIYATLARI

**E.Orazbayev, QQDU o‘qituvchisi
U. Kazakova, QQDU talabasi**

Ma’lum bir xalqning o‘tmishi, urf-odatları, turmush-tafakkur tarzi uning tilida aks etadi. Mana shu nuqtayi nazardan xalq tarixi uning tili tarixi bilan uzviy bog‘liq deyishimiz mumkin, ya’ni millat lisoniy manzarasi takomili bosqichlarini til birliklarini tadqiq qilish oraqli aniqlash mumkin. Ayniqsa, bu jihatdan paremiologik birliklar – frazemalar, maqol-matallar muhim ahamiyatga ega. Chunki ular lisoniy kod sifatida asrlar, yillar, davrlar osha o‘zlarida lingvumadaniy ma’lumotlarni tashishga xizmat qiladi va ularni tadqiq qilish masalasini dalolatlaydi.

Ushbu ishimizda o‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi somatik frazemalarni qiyoslab o‘rganamiz va bir tildagi frazemaning ikkinchi tildagi ko‘rinishi, farqli va o‘xshash jihatlarini tahlilga tortamiz hamda shu asosda turkiy tillarga mansub somatik iboralarning lingvumadaniy xususiyatlarini ochib berishga harakat qilamiz. Avvalo, somatik frazema haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, uning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin: 1) ko‘z, yuz, quloq, qo‘l, oyoq, soch, yurak, jigar kabi inson tana a‘zolarini tashkil etadi; 2) ularda ko‘chma mazmun mavjud; 3) ular bir nechta so‘zlardan iborat; 4) bu birikmalar faqat mazkur holat uchun tuzilmagan, balki bu yerda insonlarga ma’lum bo‘lgan so‘zlar kombinatsiyasi haqida gap bormoqda. Bunday xususiyatlarga ega leksik ifoda birliklari somatik frazeologizmlar, deb ataladi. Ammo shu so‘zlar ishtirokida shakllangan “ko‘zini shamg‘alat qilib”, “ko‘z ochib yumguncha”, “tilini biriktirmoq”, “boshini qovushtirmoq” kabi frazeologizmlar insonning tana a‘zolarini ifoda etmaydi, shu bois ularni somatik frazeologizmlar deyish munozarali. Buning sababi ular birikma holatida umuman boshqa ma’nolarda qo‘llangan.

Endi o‘zbek va qoraqalpoq tillarida ishlatiladigan ba’zi frazemalarga to‘xtalib o‘tamiz. O‘zbek tilidagi “beti qalin”, “beti yo‘q” frazeologik birliklari kimningdir beti qalinligi yoki bir kishining yuzi mavjud emasligi emas, balki “uyati, or-nomusi yo‘q” hamda “gap yuqtirmaydigan, surbet, tepsa tebranmas” ma’nosini ifodalasa, qoraqalpoq tilida ham beti qalin [3:39] - “uyatsiz, arsiz” degan ma’nolarni bildiradi. Demak, o‘zbek va qoraqalpoq tillarida bu birikma bir xil ma’noda ishlatilar ekan. O‘zbek tilidagi “Ikki ko‘zi to‘rt bo‘lmoq” [2:111] iborasi “kutmoq” degan ma’noda ishlatiladi va bu frazema qoraqalpoq tilida ham mavjud. “Eki ko‘zi to‘rt boliv” [3:18], “kutiw” ma’nosida. Bu frazema ikki tilda ham bir xil ma’noda qo‘llaniladi. Bu ikki tilning o‘xshashligidan dalolat beradi. O‘zbek tilidagi “ko‘ziga cho‘p solmoq” [2:135] iborasi qoraqalpoq tilida ham ayni shaklda – “ko‘zge sho‘p saluw” [3:17] ko‘rinishida ishlatiladi.

Turkiy tillarda, jumladan, o‘zbek va qoraqalpoq tillarida somatik frazemalarning o‘xshashligi juda ko‘p o‘rinlarda uchraydi. Ayniqsa, ular orasida

ba'zilar juda keng qo'llaniladi. Misol uchun, qoraqalpoq tilidagi "Dārya tassa tobıg'ına kelmew" [3:14] iborasi shulardan biridir. U "arqayın, qayg'ısız" ma'nolarini bildiradi. O'zbek tilida ham bu iboraga ko'p bor duch kelamiz: "daryo toshsa to'big'iga kelmaydi". Uning ma'nosi ham aynan qoraqalpoq tilidagi kabidir. Qardosh tillardagi somatik frazemalarni o'rganganimizda ba'zi o'ziga xos holatlarga duch kelamiz. Masalan, o'zbek tilidagi "tez, ildam" ma'nolarida ishlatiladigan "ko'zni yumib ochguncha" [2:147] iborasi qoraqalpoq tilida bitta emas, bir nechta variantlarda ishlatilar ekan: "ko'z benen qasting arasında", "ko'zdi ashıp jumg'anşa", "kırpık qaqqanşa" [3:37]. Ularning barchasi, aynan bir ma'noni, ya'ni "tez, jildam, dāriw" ma'nolarini bildiradi. Qoraqalpoq tilidagi somatik frazemalarda sinonimlik qatorini ham ko'rishimiz mumkin. Misol tariqasida "awzı qulag'ında" va "tobesi ko'kke jetiw" [3:47] kabilarni ko'rishimiz mumkin. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan iboralar sinonimik qatorda birlashadi. Bu holat o'zbek tilida ham mavjudligiga guvoh bo'lamiz. Masalan, "og'zi qulog'ida" [2:202], "boshi ko'kka yetmoq" [2:49] kabilar. Qoraqalpoq tilida frazeologizmlarning komponentlari o'zgarib yoki boshqa so'z bilan almashib kelishi ham bu tildagi frazemalarning variantini ko'paytiradi. Variantlashish deganida frazemalarning ayrim komponentlari o'zgargani bilan ma'nosi bir xilligicha qolaveradi. Biri o'rnida ikkinchisini qo'llash va nutqda takroriylikdan qochishda ham qo'l keladi. Masalan, "qulaq salıw", "qulaq tūriw" kabi. Lekin bu iboralarni o'zbek tilida faqat bitta iborada ko'rishimiz mumkin, ya'ni "quloq solmoq" [2:293]. Bu frazema har ikkala tilda ham "diqqat bilan quloq solmoq, eshitmoq" ma'nolarini beradi.

Quyida nima uchun turkiy tillar, jumladan, o'zbek va qoraqalpoq tilidagi somatik frazeologizmlarning qiyosiy tahliliga murojaat qiliishimizning sabablarini quyidagicha izohlashimiz mumkin:

1. Somatik frazemalar har ikki tilda ham muhim o'rin tutadi. Ular ikki tilda ham keng qamrovlidir.

2. O'zbek va qoraqalpoq tillaridagi somatik frazemalar muqobillikning barcha asosiy parametrlari (leksik-morfologik, sintaktik, leksik) bir-biriga mos tushadigan o'xshashlikka ega. Masalan: "ko'zdan kechirmoq" va "ko'zden keshiriw" [3:48].

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, frazeologizmlar – tildagi eng ahamiyatli bo'lgan til birligi. Ularni tilda qo'llash orqali fikrni yanada emotsional-ekspressivlik jihatidan kuchli va obrazli qilib ifoda etamiz. Somatik frazemalar boshqa til birliklariga o'xshab boshqa tillarda ham har xil shaklda qo'llaniladi. Buni yuqorida o'zbek va qoraqalpoq tillari misolida ko'rib o'tdik.

Adabiyotlar:

1. Rahmatullaev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. –T.: "O'qituvchi", 1978.
2. Qıdırbaeva N. Qaraqalpaq tilindegi frazeologiyalıq sinonimler. -No'kis. -2011.

“BOBURNOMA”DA SIFAT VA OT YASOVCHI OMONIM MA’NOLI QO‘SHIMCHALARNING QO‘LLANILISHI

JDPI katta o‘qituvchisi Abduvaliyev A.A
JDPI talabasi Ummatova H.Y

So‘z yasashining asosiy yo‘li affiksatsiya yo‘lidir, chunki so‘z yasashning vazifasi yangi leksik birlik hosil qilish demakdir.

“Har bir tilning so‘zlari, leksikasi doim harakatda bo‘lib, natijada, uning tarkibi turli xillardagi o‘zgarishlarga uchraydi, ba’zi so‘zlar eshirib, faol qo‘llanishdan chiqadi, qo‘llanilishi chegaralanib, bora – bora iste’moldan chiqadi, yangi so‘zlar paydo bo‘lib, ular leksikani to‘ldiradi, boyitadi”.¹

“Boburnoma ” asarida juda ko‘p omonim ma’noli so‘zlar qo‘llanilib, asardagi til va so‘z boyligini oshirgan. Muallif o‘z asarida o‘zbekcha so‘z yasovchi qo‘shimchalar bilan birga, forscha so‘z yasovchi affiks va affiksoidlardan foydalangan. Bunday forscha qo‘shimchalarning aksariyati ot va ba’zan sifat ma’nosidagi so‘zlar yasashda xizmat qilgan. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”sida fors tilida omonim ma’noga ega bo‘lgan so‘z va so‘z qo‘shimchalar juda ko‘p uchraydi. Masalan: “–bar” so‘zi ham so‘z sifatida, ham ham qo‘shimcha sifatida qo‘llanilgan. So‘z sifatida forscha “burdan” – (olib bormoq) fe‘lining hozirgi zamon shaklida : “– bar”(olib bor) ma’nosida qo‘llangan. Masalan–Hazrati Nuh payg‘ambarning otasi Mehtar Lomning qabri Alishang tomonidadur. (Boburnoma. 121 – bet) Gapdagi “payg‘ambar” so‘zidagi “–bar” fors tilida mustaqil so‘z bo‘lib, rahbar – yo‘lda olib boruvchi, safarbar – safarga olib boruvchi, payg‘ambar, payombar – so‘zlarida esa xabar olib boruvchi ma’nosida qo‘llanilgan. “–bar” qo‘shimcha sifatida o‘zbek tilida sifat yasovchi qo‘shimcha –li, jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi – ga ma’nolarida ham qo‘llanilishi mumkin. –Xonumonlarini va o‘ttuz – qirq yil qozg‘onlarini barbod berdilar. (188 – bet) “Barbod” so‘zining ma’nosi “shamolga sovrildi,tamom bo‘ldi,tugadi,shikastlandi, sindirildi” degan ma’nolarda keladi. Bardast (104), bartaraf (152), ko‘ch bar ko‘ch (79 – bet) so‘zlarida – ga ma’nosida qo‘llanilgan. ²

“O‘zbek tili grammatikasi darsligida bar – yasovchi faqat uch-to‘rt so‘zdagina uchraydi: barvaqt, barkamol, bardoshli”.⁶¹ Yuqoridagilarda so‘zlarda “bar –“ qo‘shimchasi – li ma’nosida kelgan bo‘lsa, bardoshli so‘zida yuqoridagi qoidaga amal qilinmagan.Chunki o‘zbek tilida – dosh qo‘shimcha sifatida qo‘llaniladi. Bu so‘zdagi – dosh aslida “doshtan” (ega bo‘lmoq, bor bo‘lmoq) fe‘lining o‘tgan zamon shakli “dosht” – “ega bo‘ldi, bor bo‘ldi” degan ma’noda ishlatilishi mumkin. Fors tilida sodsa, qo‘shma fe’llardan boshqa, old qo‘shimchali (prefiksli) fe’llar ham mavjud.Bardosht, daromad, baromad(ko‘tardi,kirdi – kirim), chiqdi – chiqim) ma’nolarida qo‘llaniladi. Shuning uchun ham old qo‘shimcha qo‘shilgan bardosh so‘zida ham aslida bardosht – ko‘tardi, chidadi

⁶¹ Abdurahmonov .G.A, Shoabdurahmonov. Sh.Sh, Xojiyev A.H. “O‘zbek tili grammatikasi” “Fan” nashriyoti Toshkent. 1975 7-bet.

ma'nosida ishlatiladi. Old qo'shimchali fe'l yasovchi qo'shimchalardan farq qiladi.

–don asarda ham ot yasovchi ham sifat yasovchi omonim ma'noli so'z hisoblanadi. Don – affiksoid sifatida sifat yasovchi, qo'shimcha sifatida yoki alohida so'z sifatida ot ma'nosida qo'llaniladi. So'z sifatida “donishtan” – bilmoq fe'lining hozirgi zamon shakli sifatida, sifat yasovchi qo'shimcha sifatida, ya'ni – li ma'nosini anglatadi.

–Sulton Husayn mirzo kordon va sohib tajriba podshoh edi.(33 – bet)
–Betajriba nodon mardah edi.(188 – bet) “kordon” so'zida – ishbilarmon, ishni ko'zini biladigan, “nodon” – bilmaydigan, “dono” – biladigan ma'nosida qo'llangan. Tuzdon, g'alladon, qalamdon kabi so'zlarda qo'llangan “–don” qo'shimcha bo'lib, “idish” ma'nosida, yana “don” – urug'lik ma'nosida ham qo'llanilishi mumkin.

“Boburnoma”da “guzar” – ya'ni “guzashtan” – o'tmoq fe'lining hozirgi zamon shakli guzar – o't, mahalla, qarorgoh ma'nolarida qo'llangan. Guzar – mahalla va o'tish joyi sifatida (33,53,119,234,242,272). Sifatga oid so'zlarda yelguzar (206), guzarband (353) kabi so'zlarda qo'llanganini ko'ramiz:
–O'ng qo'l tarafidin Qosimbek o'pchini bila bu suvdin guzar topib kechib, ot solg'on bila hazoralar to'xtay olmay qacha bordilar.
–Hazoralar suv guzarini shoxlar bila berkitib,...(144)

–Qolg'on el guzar bila o'ttilar.(206) Ushbu gaplardagi “guzar” so'zi ham ot, ham sifat ma'nosida qo'llanilgan.

Asarda eng ko'p qo'llangan, asosan, sifat yasovchi va ayrim holdagina ot yasovchi qo'shimcha sifatida “doshtan” – ega bo'lmoq, bor bo'lmoq fe'lining hozirgi zamon formasi (– dor)hisoblanadi. Masalan: sifat yasovchi qo'shimcha sifatida – nomdor (7, 304, 367), shoxdor (11, 50), muhrdor (39, 154, 213, 348), tahsildor (224), sharobdor (244, 249), nohavidor (348), jondor (365) kabilar. Ot yasovchi – qal'ador, sardor (11, 35, 179, 206, 362), diydor (42), kitobdor (190, 216), rikobdor, nayzador (352), xaridor (231) kabi so'zlarda ma'no jihatdan ot ma'nolarida kelishi mumkin.

Band, ya'ni “bastan” – bog'lamoq fe'lining hozirgi zamon negizi “band” – bog'la so'zi ham omonim ma'noda ham sifat, ham ot yasovchi qo'shimcha sifatida qo'llanganini ko'rishimiz mumkin: takband (6, 91), g'urband (113), band (123, 126, 233, 301), band qilg'on (149), bandta (214), bandtin (214), pichoq band (273), tagband (328) kabi so'zlarda, asosan, ot vazifasida qo'llangan bo'lsa, “tarband”, “ustuxon band”, “tarhesh band”(272, 296, 336).

Bunday qo'shma so'zlarda ot+ot, ot+sifat, ot+fe'l, fe'l+ot, sifatdosh+ot kabi so'zlar ishtirok etgan:

–Gangdin o'tub, Qanuj to'g'rish Gangning sharqiy tarafiga guzarbandliq xayoli bila o'turubturlar.(309)

–Vale bu masnaviyning mazmuna va ustuxonbandlig'I bisyor hovoh va xarobtur.(163)

–Ittifoq qilib bizning ustimizg'a kelur azimet bila Darbanddin o'ttila. (243)

“–band” qo‘shimchasi bog‘la, ip, arqon ma’nolarida ham qo‘llanilishi mumkin. Yuqoridagi so‘zlarda “band” so‘zi qo‘shma so‘zlar tarkibida kelib ot va sifatga oid so‘z ma’nolarida qo‘llangan.

“Boburnoma”da yuqoridagi affikslardan tashqari – kash (tort, chek, chiz), – bon (asra, saqla), nishin (o‘tir), toza, andoz (tashla, ot, uloqtir, sol), – boz (o‘yna, lochin, ochmoq fe’lining hozirgi zamon negizi, yana), – po‘sh (kiy, yop), – kusho (och), bof (to‘qi) kabi fe’l turkumidagi fe’lga doir so‘zlar bilan ham otga, sifatga doir so‘zlar yasalganini ko‘ramiz. Asarda omonim ma’noli sifat va ot yasovchi so‘zlardan tashqari, forscha old va orqa qo‘shimchalardan iborat bo‘lgan sifat va otga tegishli bo‘lgan so‘zlar juda ko‘p uchraydi. Bobur bunday so‘zlarni o‘z joyida, kerak bo‘lgan joydagina foydalanishga harakat qilgan. Gapda bog‘lovchilar yordamida to‘liq yo sifatga yoki otga tegishli forscha so‘zlarni ham qo‘llagan. Bu Zahiriddin Muhammad Boburning o‘zbekcha so‘zlar bilan bir qatorda, forscha so‘zlarning ham mukammal bilishidan dalolat beradi.

O‘ZBEK XALQ QO‘SHIQLARIDA BOSH KIIYIMLARINING BADIY IFODASI (ro‘mol misolida)

Shomurodova Sunbula
BuxDU tayanch doktoranti

Xalq og‘zaki ijodining sermahsul janrlaridan biri bo‘lgan qo‘shiqlarda xalqning ijtimoiy turmush tarzi, ma’naviy dunyoqarashi, axloq me’yorlari badiiy ifodasini topganligi kuzatiladi. Qo‘shiqlarda xalqning turmush tarzini ifodalash uchun xizmat qilgan obraz, ramz, detallar o‘sha xalqning o‘tmishini badiiy in’ikosi sifatida qimmatlidir. Jumladan, xalq qo‘shiqlarida badiiy tasvirlangan liboslar, ularda mujassamlashgan ramzlar va kiyimlar sehri xalq uchun juda ham katta ahamiyatga ega bo‘lgan. O‘zbek adabiyotshunosligida bu borada ayrim tadqiqotlarda fikr bildirilgan bo‘lsa-da, xalq qo‘shiqlaridagi kiyimlar sehrining xususiyatlari, ular anglatgan ramziy ma’nolar, ularning kelib chiqish ildizlarini o‘rganish folklorshunosligimizdagi muhim muammolardan biridir. Ayniqsa, xalq qo‘shiqlarda bosh kiyim turlaridan biri bo‘lgan ro‘molning ramziy-timsoliy ma’nolarini tadqiq qilish xalqimiz tarixiga oid muhim xulosalarni ilgari surishga imkon beradi.

Bizga ma’lumki, bosh kiyimlari ikki qismga ajratiladi: boshga kiyiladigan kiyimlar va boshga o‘raladigan kiyimlar. Ro‘mol – boshga o‘raladigan bosh kiyimi hisoblanadi.

Ma’lumki, ramziy poetik birikmalar ko‘rinishida ifodalanib keladigan oq ro‘mol, oq doka ro‘mol, sariq ro‘mol, qizil ro‘mollar rang vositasida farqlanishini bildirib, oilaviy-maishiy marosimlarga tegishli ritual bosh kiyimlar ekanligi bilan diqqatni tortadi va ular insonning bir umr bosqichidan ikkinchi umr bosqichiga o‘tishini yoki turli ruhiy vaziyatdagi holatini bildirib keladi.

Qadimda inson kiyimlarining – bosh kiyimdan tortib oyoqdagi poyafzaligacha magik xususiyatga ega deb qaralgan. Ayniqsa, xotin-qizlarning

ro‘mollari, umuman, bosh kiyimlari osmon g‘oyasi orqali hosildorlik va serfarzandlik tushunchalari bilan bog‘langan. Xalq qarashlarida insonning boshini (sinekdoxa) aziz tutish orqali, inson hayoti, taqdiriga oid qarashlar shakllangan. Shu sababli ro‘mol xalq qo‘shiqlarida ramziy ma‘no tashishi bilan birga, xalqda shakllangan qarashlarning badiiy ifodasi uchun ham xizmat qilgan. Jumladan,

Ro‘molim bor, ro‘molim bor,
Ro‘molimda tumorim bor,
Bir ko‘rishga xumorim bor,
Dod, alimdan ketdi ro‘mol[1,212].

Ro‘molning qo‘ldan ketishi qiz bola erkidan, nomusidan ayrilishi ramzidir. Ro‘moldagi tumor esa magik himoya vositasi. An‘anaga ko‘ra, qiz bolaning nomusidan ayrilishi o‘limga tengdir. Xalq she‘riyatida ro‘mol poetik obrazi turli badiiy-estetik vazifalarni bajarib, lirik qahramonning qalb kechinmalari, ruhiy holatini ifodalashga xizmat qilgan.

Folklorshunos olim Shomirza Turdimov xalq she‘riyatida ro‘molning oila ramzi bo‘lib kelishini ta’kidlaydi. Ro‘mol poetik obrazi qanday vazifalarni bajarmasin, tarixiy asosi soch, bosh va ular orqali osmon g‘oyasi bilan bog‘lanadi. Kontagioz (aloqa, munosabat) magiya tamoyiliga ko‘ra soch va uning analoglariga xos magik xususiyatlar ular bilan munosabatda bo‘lgan bosh kiyimlariga ham ko‘chadi. O‘zbeklarda yaqin-yaqinlargacha bolalarni yoshligidan unashtirib qo‘yishganda yigit tomon qizga ro‘mol o‘ratib ketar edi. Hozir ham sovchilar kelib, qiz tomon roziligi olingach, kuyov yuboradigan sovg‘a-hayitliklar orasida ro‘mol bo‘lishi shart hisoblanadi. Bu etnografik detal ildizining juda qadimiyligi “Alpomish” dostoni misolida ham ko‘rinadi.

Nazar solib o‘zbeklarni ko‘rayin,
O‘zbeklarning yaxshi qizi bor bo‘lsa,
Boshi bo‘shmi, deyin, avval so‘rayin,
Yaxshi qizi agar boshi bo‘sh bo‘lsa,
Qalin qilib biror ro‘mol o‘rayin, – deydi[2,34].

Dostonda bu parcha Barchinga borayotgan Surxayil kampir tomonidan uning qarshisidan chiqqan Qorajonga qarata aytilgan.

O‘rta Osiyoda xotin-qizlarning ro‘mollari rangi, holati, ularning yoshi, oiladagi o‘rniga qarab o‘zgartirib borilgan. Har bir o‘zgarish maxsus marosim bilan nishonlangan. Ayollar turmush qurganda, farzand ko‘rganda, yana o‘g‘lini sunnat qilganda bosh kiyimlari soni ortib boravergan. Xalq qo‘shiqlarida qora va sariq ro‘mol obrazlari oq ro‘mol obraziga zid ma’noda ishlatiladi. Bunda ro‘mol tushunchasi o‘ziga xos “bosh kiyimi” ma’nosini saqlaydi. Faqat uning rangi bilan bog‘liq ma’nosi o‘zgaradi. Chunki xalq orasida qora rang g‘am-anduh, sariq rang ayriliq, hijron tushunchalarida ramziy ma‘no kasb etadi. Bunday qarash zardushtiylik ta’limoti ta’sirida shakllangan. Xalq qo‘shiqlarida ham shu ramziylik asos sifatida xizmat qiladi.

Yorginam ro‘mol yuborgan osmoni,
Ichiga tugib yuborgan o‘smeni,
O‘smasi kam rang ekan, rang olmadi,

Va'dasi yolg'on ekan yor kelmadi [1,48].

Mazkur qo'shiqda oshiq ma'shuqasiga "osmoni", ya'ni ko'k rangli ro'mol yuborganligini ta'kidlagan. Bunda nega aynan ko'k rangli ro'mol degan savol tug'iladi. Negaki, ko'k rang suv rangini bildirib, bu rangda kiyingan kishilar saxiy va hayotni sevuvchi bo'lishlari bilan boshqalardan farqlanganlar. Demak, oshiqning ham niyati aniq, u sevgilisini shunday ko'rishni xohlaydi. Xalqda kim agar bu rangni ma'qul ko'rsa, suvdek toza va musaffo, qalbga yaqin bo'ladi, degan qarash shakllangan

Xalq qo'shiqlarida ro'mollar tayyorlanadigan xom-ashyosiga ko'ra ham bir-biridan farqlangan:

Ipak ro'mol boshimda hilpillaydi,
May ichganda yuragim qilpillaydi.
Olib ber deb opamga aytolmayman,
Til tagida ko'makay bikillaydi.

Ipak ro'mol ipak matodan tayyorlangan bo'ladi. U g'ajimlar chiqarilgan ro'mol turi hisoblanadi.

Umuman aytganda, o'zbek xalq og'zaki ijodining qo'shiq janrida uchraydigan ro'mol obrazining ramziy-timsoliy ifodalanishi xalq uchun juda katta ahamiyatga ega bo'lgan va turli davrlardagi ijtimoiy turmush tarzini ko'rsatib bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Алавия М. Ўзбек халқ кўшиқлари. – Т.: ЎзР ФА нашриёти, 1959.-316 б.
- 2.Алпомиш. Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони. – Т.: Шарқ, 1998.-Б 34.
- 3.Асомиддинова М. Кийим-кечак номлари. –Т.: Фан. -1981.-314 б.
- 4.Турдимов Ш. Лирик кўшиқларда рамз. – Ўзбек тили ва адабиёти . – Тошкент. – 1982. - №3. – Б.16-19.

ZULFIYA SHE'RIYATIDA MODAL SO'ZLARNING LINGVOSTILISTIK KO'RINISHLARI

Z.Abdualiyeva JDPI katta o'qituvchisi
Z.Imomova JDPI talabasi

Annotatsiya; Modal so'zlar nutqda faol qo'llanuvchi so'zlardir. Shu munosabat bilan Zulfiya she'riyatidan keltirilgan misollarda modal so'zlar o'z o'rnida qo'llanilib malum bir maqsadlarni ochishga qaratiladi.

Kalit so'zlar;modal so'zlar,lingvostilistik,sintaktik tarkib ma'naviy guruh ,badiiy matn,modallik,reallik ,aniqlik,qat'iy ishonch ,reallik,mavjudlik va tasdiq bor,mayli,xo'p,to'g'ri va hokazolar.

Zulfiya ijodining sehri olami juda ham beqiyos.Sababi,Zulfiya ijodi kamalakdek serjilo ranglardan iborat.Sher insonning ko'nglida kechayotgan jarayonlarni aks ettiradi.Shoiraning ijodiyoti,badiiyatga nazar tashlasak, ularning har biri hislarimizni goh mungli, gohida baxtli allalaydi.

O'zbek tilshunosligida modal so'zlar,ularning borasida qator ishlar amalga oshirganligini tashkil etganligi sababli ko'pincha etibordan chetga qolib ketmoqda.Shuni anglash lozimkil,tilda keraksiz yoki ikkinchi darajali hodisalarning bo'lishi mumkin emas.Shularni hisobga oladigan bo'lsak,modal so'zlarning tildagi o'rni,ularning paydo bo'lish sabablari,sintksis tarkibida tutgan o'rni,ularning mano guruhlari, modal mano ifodalash yo'llari va boshqa xususiyatlarini tadqiq etish tilshunosligimiz oldidagi vazifalaridan biridir.

Ayniqsa ,modal so'zlarning she'riyatda qo'llanilishini o'rganish, yangi fikr xulosalarning yuzaga kelishiga asos bo'ladi, deb o'ylaymiz.Shunday fikrlarni inobatga olgan holda shoira Zulfiya asarlarida qo'llanilgan modal so'zlar haqida ayrim fikr-mulohazalarni bildirmoqchimiz.

Malumki,modallik gapning asosiy birligi,gap semantikasining eng muhim qismlaridan biridir.O'zbek tilida modallikni tamirlashda quydagi vositalar ishtirok etishi mumkin;mayl, zamon,shaxs qo'shimchalari,alohida gap qurilmalari,yuklamalar,so'z tartibi, intonatsiya,yuklama vazifasidagi so'roq olmoshlari, undalmalar, kirish so'z va gaplar.

Modallik kategoriyasi keng tarmoqli butunlik sifatida o'z tarkibida turli sathlarga oid birliklarni bir umumiy tushuncha modallik atrofida birlashishini hosil qiladi.Modallik hosil qiluvchi vositalar o'z vazifasini gap ichida namoyon qiladi. Gapdan tashqarida modallik belgilarini ifodalay olmaydi.

Masalan;

Kundan-kun saharga ortar sog'inchin,

Nahot hayot shomin yaqinligi bu

Salqin oromida yo'qolar tinchim,

Demak,shafaq men-chun yolqinligi bu

Yo'q,urushning nomi ham o'chsin

Mening o'g'lim kerak hayotga.

Istamayman uning dudlari,

Qo'nsin labi uzra hayotga.

Shoira Zulfiyaning "Sahar men bilan" hamda "O'g'lim sira bo'lmaydi urush" she'rlarida keltirilgan "Nahot" modal so'zi hayronlik manosini ,"Demak" modal so'zi esa tasdiqni ifodalovchi modal so'zladir.Keyingi misradagi "Yo'q" modal so'zi esa mavjud emaslik tushunchasini bergan.

Shoira Zulfiyaning "Iltijo" sherini ko'rib chiqsak;

Tangri bergan chipqonni yormoq,

Bandasiga emasdir ravo.

Ko'ksida burch ekan shishmoq,

Xo'p qovrilib bo'lganman ado

Keltirilgan misradagi "Xo'p" so'zi mavjudlik,tasdiq manosini emas,balki,hayotda juda ko'p qayg'uli kunlarni ko'rganligini ifodalab kelmoqda.

Ko'zingda chaqmoqqa o'tli nam,

Ranging siniqishi,lab titrashi sir.

Balki hisni bog'ib,irodangga jim,

Yolvorasan,kuch ber,bo'lmay deb asir.

Ushbu baytdagi “Balki” modal so‘zi taxmin, gumon, tusmol kabi manolarni ifodalagan.

Zero, hech on baxting va mehring,

Fikring chulg‘ab bermadim ozor.

Lekin bukun do‘st-u raqib jam,

Ho, do‘st deb sev, ho raqib deb quv.

Shoiraning ushbu she‘rida uning butun ruhiy holatini, yuragini, mehr-u dardini ko‘rishimiz mumkin. Shoira jamiyat shakllantirgan va o‘zi jamiyatni shakllantirayotgan shaxs sifatida maydonga chiqadi. Achchiq haqiqat, mashaqqatli baxt, mag‘rur huquq, muhabbat azobi, soflikka intilishni, pok, navqiron qalbning bir chetini katta insoniy dard qovjiratib ketganligi eng samimiy she‘rlarda bilinmay iloji yo‘q.”Qatra”da katta ozod muhabbatning shunday bir g‘ururi borki... Undagi eng katta ehtiros-odamning ma‘naviy erkinligi. (Asqad Muxtor)

Shoira Zulfiya “Yulduzlar allasi” nomli she‘rida shunday misralar keltirilgan, unda modal so‘zning manosini ajratib ko‘rsatishdir.

Faqat u yulduzning bilsang borligin,

Yulduzim deb bilsa seni ham kimdir.

Dard, andux, masofa yo‘qolib sekin,

Yulduzlar allasi bilasan malham.

Mayli, olsin bir dam qalbim dardini,

Bir dam osoyishta men ham olay tin.

Axir u taqdirning qamchi zarbini,

Savol bermasdanoq anglaydi sokin.

“Kengashda, so‘zlardan zerikkanda...” she‘rida “Mayli” 2 modal so‘zida mavjudlik, tasdiqni ifodalovchi modal so‘zlar ham tilida, asosan, personajlar nutqida faol qo‘llanilganligini ko‘rishimiz mumkin. Ular qahramonlarning o‘ziga xos nutqini yaratishda faol xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Rasulov I. “O‘zbek tilida modal so‘zlar”. Toshkent, Fan, 1978 y.

2. Rahmatullayev Sh. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”. Toshkent, Mumtoz so‘z, 2010 y.

3. Nurmonov A. “Tanlangan asarlar”, 3 jildlik, 1-jild, Toshkent, Akad. nashr, 2012 y.

ЗООМОРФИК МЕТАФОРА - ПОЭТИК ВОСИТА СИФАТИДА (ТЎРА СУЛАЙМОН ИЖОДИ МИСОЛИДА)

Ибрагимов Хайрулла ЖДПИ ўқитувчиси

Қадим даврлардан бошлаб хайвон, қуш ва ўсимлик номларининг бадий адабиётга кўчиши кузатилади. “Девону луғотит-турк» ва “Қутадғу билиг” асарларида қушларнинг маълум хатти-ҳаракатлари орқали ҳар хил характердаги одамларнинг мажозий образи яратилган. “Қутадғу билиг”да қушлар мажози алоҳида аҳамият касб этиб, бунда, айниқса, ушбу бадий деталь асарнинг ғоявий-эстетик қимматини ошириш, тасвирланаётган воқеликнинг моҳиятини чуқурроқ очиш, қаҳрамонларнинг ички дунёси,

яхшилик ва ёмонликка асосланган фазилатларини образли гавдалантириш каби мақсадларга бўйсундирилган. Жумладан, Юсуф Хос Ҳожиб ўз асарида бекнинг характер-хусусиятларини беришда, куч ва мардлик тимсолларини ифодалашда арслон ва шер тимсолларидан фойдаланган [2;48].

Зооморфик метафоралар доимий равишда тадқиқотчилар эътиборида бўлган. Е.Вольф уларни шундай баҳолайди: “Аниқ ва доимий баҳоловчи коннотациялар ҳайвон ва инсон каби метафораларни ўз ичига олади. Бундай метафораларнинг мақсади – инсонларни ҳайвонларга хос баҳоловчи белгилар билан тавсифлаш. Ҳайвонларнинг ўз номлари ҳеч қандай баҳога эга эмас” [1;128]. Бундай метафоралар баъзан инсоннинг ташқи кўриниши, баъзан эса ҳаракати ва феъл-атворини тасвирлаш учун ишлатилади.

Зооморфик метафоралар инсоннинг салбий эмоцияларини тасвирлашда сермахсул восита ҳисобланади. Халқ оғзаки ижоди намуналари ва қадим туркий адабиётда ифодаланган қушлар ва ҳайвонлар поэтикаси аста-секинлик билан ёзма адабиётда ҳам ўзига хос тарзда мажозий образ, мажозий фикр ифодалашга хизмат қилди. Бу жиҳат шоир Тўра Сулаймон ижодида ўзига хос йўсинда намоён бўлган.

Россиялик тилшунос С.Толстая айтганидек, “ҳайвонлар” метафораси “ўсимлик” метафораларидан фарқли ўлароқ, инсоннинг салбий хусусиятлари билан кўпроқ боғлиқ [1;129].

Тўра Сулаймон ижодида зоолексемаларнинг шахс салбий хусусиятини ифодалаш учун метафорик кўчма маънода қўлланилиши:

Сарой мотам ичинда

Сукут сақлар донишлар.

Фурсатдан фойдаланиб

Бош кўтармиш бойқушлар... (“Минг танга”) [4;10].

Баъзан шоир шеърларида зоолексемаларни шахсни эркалаш учун ҳам қўллаб, бетакрор метафорик характер касб эттира олган:

Алла, боғлон қўзим, алла,

Ҳумоюн қуш, бозим, алла.

Пидина, андизим, алла,

Тойдай талпинчоғим, алла...

Шоир зоолексемаларни нафақат шахсга, балки жонсиз нарсага ҳам кўчириб, метафора яратган. Масалан, қуйидаги мисраларда шоир юрагидаги армонларни “чўкиб ётган нор”га ўхшатган:

Юрган йўлимда ўлан, қўшиқ қалашмас бўлса,

Қўшиқларим боғлардан, тоғлардан ошмас бўлса,

Эл-юрт бахтини қуйлаш менга ярашмас бўлса,

Кўнглимда армон ётар чўкиб ётган нор мисол... (“Армон”) [3;16].

Жўмардларни улусдан

Қилмасин айиргулик.

Етдим деганда покка,

Қаноти қайригулик... (“Ёвқочди”) [4;10]. Бунда қушнинг муҳим аъзоси – қанот орқали метафорик маъно ҳосил қилинган. Ҳаётда бирон

фаолиятда инсоннинг иши юришмаса, йўл беришмаса –*қаноти қайрилди* деган ибора қўлланади. Ушбу мисрада ҳам лирик қаҳрамон энди муродига етай деганида, унинг “қанотини қайиришигани” тасвирланади.

Қилмиши қинғир зотга давр қайда, даврон қайда?

Ватангадо кимсага беминнат макон қайда?

*Ёлғиз **от**га оламда ном қайда, нишон қайда?*

Баҳор, сенсиз сахрою тоғу тошга жон қайда?

Кетма, Баҳор, менинг богимдан... (“Илтижо”) [5;135].

Ушбу мисрада қўлланган “от” зоолексемаси шахсга нисбатан қўлланган бўлиб, бунда “Ёлғиз отнинг чанги чиқмас, чанги чиқса ҳам донғи чиқмас” мақолининг моҳияти сингдирилган.

Тўра Сулаймон шеърларида қўлланган зооморф метафоралар таркибидаги зоолексемалар гуруҳи куйидагича:

- уй ҳайвонлари номи: *от, нор, той, қўзи*;

- ёввойи ҳайвонлар номи: *шер, тулки*;

- қушлар номи: *булбул, товус, шунқор, қарчигай, ҳумо, бойқуш, кабутар, оҳу, лочин*.

Статистик таҳлил натижаларига кўра шоир Тўра Сулаймон шеърларида қуш номлари асосидаги зооморфлар етакчи ўринда туради. Зооморфлар Тўра Сулаймон шеърларида бадиийлик ва таъсирчанликни оширишга, шеърлари тилининг соддалилигига ҳамда образлилигига хизмат қилган.

Адабиётлар рўйхати

1. Голодов А. ВЕСТНИК ВГУ, Серия «Лингвистика и межкультурная коммуникация», 2005, № 2.
2. Мирзоҳидова Л. XI-XII асрлар туркий адабиётида мажозий тасвир бадиияти: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... автореф. – Самарқанд, 2018.
3. Тўра Сулаймон. Истар кўнгил”-Тошкент: “Адабиёт ва санъат”нашриёти, 1984.
4. Тўра Сулаймон. Ёвқочди-Тошкент: Ёзувчи, 1998.
5. Тўра Сулаймон. Сенсиз ёлғиз, ғариб булдим...-Тошкент: Movarounnahr, 2013.

ZULFIYA ASARLARIDA KO‘CHIMLARDAN FOYDALANISH MAHORATI

A.Musayev JDPI dotsenti
Sh.Norqulov, katta o‘qituvchi
J.Anvarov, JDPI talabasi

Millatning madaniyati, ma’naviyati, ziyolilik darajasi ona tiliga munosabatda ham aniq ko‘rinadi. O‘zbek tili o‘zbek xalqining milliy boyligi sifatida qadim qadimdan bugungacha ajdodlarimiz tomonidan e’zozlanib, ardoqlanib, sayqallanib kelmoqda. O‘zbek adabiy tili nihoyatda boy, go‘zal,

takrorlanmas til sifatidagi imkoniyatlarini adiblarimiz o'zlarining shoh asarlari bilan isbotlab berganlar, ona tilimizning sofliqi, obro'-e'tibori, ta'sirchanligi, yuqori nutq madaniyati uchun kurashganliklari millatimizning faxri sifatida har qancha taqsinga loyiqdir.

“Ko'chimlarning harakterli, poetik obrazlar yaratish tamoyillari esa shoirning voqelikni qay darajada obrazli idrok eta bilishi va adabiyotning umumiy ijodiy tamoyillari bilan belgilanadi”. [1-33-bet]

“Nutqiy ko'chma ma'no so'z semantik tarkibidagi ayrim samaralarini betaraflashtirish (tushirib qoldirish, chetlashtirish) va boshqa bir semani kuchaytirish bo'rttirish orqali yuzaga keltiriladi”. [2-64-bet]

Zulfiya asarlarining uslubi eng yaxshi xususiyatlari xalqchilligi, badiiy soddalik va aniqlik u qo'llagan ko'chimlarda yaqqol aks etadi. Bular xalq hayotining bir lavhasini yaratish bilan birga, adibning unga munosabatini xohish va istagini ham ifodalaydilar. Zulfiya asarlaridagi ko'chimlarning kuch-qudrati, tilning o'tkir qurol ekanligini uning asarlari misolida aniq his etish mumkin. So'zlardagi ko'chma ma'no bir necha usul bilan amalga oshiriladi. Shulardan eng muhimlari metofara, metonimiya, sinekdoxa va vazifadoshlik ma'no ko'chishidir.

1. **Metofara.** Zulfiya o'z asarlarida metofaralarga alohida ahamiyat beradi. Shoir kitobxonning diqqatini tortish, unda ko'proq tasavvur qoldirish, kitobxonning estetik didini oshirish maqsadida metofaralarning turli ko'rinishlaridan foydalandi.

Bu oqshom dil nuringizda,
Diyoydor baxti nasib yana siz bilan
Turibman azizlar huziringizda
Hamon o'tlug' ko'ngul,yorug' yuz bilan,
“Bahor keldi, seni so'roqlab”

Yangi asr avlodi Toshkent 2019
“Bu oqshom” she'ri,4b.

Oqshom edi oydin ko'prikda,
Barno qiz-u yigit turardi
Oyni kutgan oqshomgi ko'kda
Beshik-beshik bulut yurardi. (,,Muhabbat tongi kulganda” she'ri,62b.)

Mana qimmatligim,yana bahor kelib,
Seni izlab yurdi,kezdi sarsari.
Qishning yoqasidan tutub so'radi seni,
Ul ham yosh to'kdi-yu, chekindi. (,, Bahor keldi seni so'roqlab”
she'ri,28b.)

1. **Metonimiya.** Predmetlarning nomlarini boshqa predmetga o'tkazishning ko'chmlari mavjud bo'lib, bular Zulfiya asarlarida uchraydi. Shirin ekan farzand,u bilan.

Oilaga kirar ekan jon.
Ko'zi ko'zga tushushi bilan,

Mehri balqir ekan bepayon. („Farzand” she’ri ,15b.)

Siyrak sochiq gullar naq barqut,
Bahordagi gul vodiy go’yo.

Qizillari misli tungi o’t,

Kun tutilgan chog’dagi ziyo- („Gulzor” she’ri,

48b.)

Yil bo’yi niholday sarg’aymas

Saraton zug’miga beray dosh.

Qahraton qahridan mung’aymay,

Qonimizda kez,yashil, Yosh Quyosh... („Salom, tansiq bahor” she’ri, 50b.)

2. **Sinekdoxa.** Sinekdoxa metonimiyaning bir ko’rinishidan iborat ko’chim bo’lib unda qism yoki bo’lak orqali yaxlit, butun narsa bildiriladi, yoki aksincha, buyruq narsa, hodisa orqali bo’lak haqida fikr ifodalanadi.

Yaralish-tug’ilish udumning

Charchagan qonimga et payvand.

Yil bo’yi yashil suv,ko’k nuring

Tomirda yugursin yuz ming chand. („Salom , tansiq bahor” she’ri, 50b.)

Ko’zing muncha yo’lda intizor,

Ey,bahordan barkamol husn.

Iztirobing dilimga ozor-

Ishq hijronin bilganim uchun. („Kimni kutasan” she’ri, 72b.)

Hali qalbing juvon yuragiday yosh,

Asablar ko’tarar tog’ni ortsang ham.

Ko’zinga, qoningga olaver quyosh,

Hali ko’p tebranar qo’lingda qalam... („To’y oqshomidagi o’ylar” she’ri 76)

Xullas, Zulfiya asarlarida qo’llangan ko’chimlari aniqligi bilan, xalqqa yaqinligi bilan harakterlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O’rinboyev B, G’G’ulom asarlarining lingvopoetikasi. Samarqand, 2018. 33-bet.

2. Qilichev E. Hozirgi o’zbek adabiy tili. Buxoro. 2001.64-bet

АЛИШЕР НАВОЙИЙ “БАДОЙИЪ УЛ-БИДОЯ” ДЕВЕНИДА ФАРҲОД ОБРАЗИ ТАЛҚИНИ

Х.Холмуродов, Жиззах ДПИ ўқитувчи

Шарқ адабиёти эпик-лирик талқинларида Фарҳод образи ниҳоятда сермахсул поэтик тимсол ҳисобланади. Бу образнинг Шарқ мумтоз адабиётида ифода ва талқин миқёси ҳам ниҳоятда кенгдир. Унинг оғзаки

адабиётдан ёзма ижодга, дoston-қиссалардан лирик шеърятга, воқеликдан ҳиссиётга кўчиш-ўзгариш жараёнларининг ўзи ғоят чуқур ва теран поэтик ҳодиса сифатида намоён бўлади. Бир сўз билан айтилганда, мумтоз адабиёт бадиий оламининг узоқ тарихий босқичларини айна мавзу ва образ талқини боғлаб туради. Кейинги йиллар жаҳон филологик изланишларида мавзу ва образлар, сюжет ва тимсоллар трансформацияси масаласи илмий-назарий жиҳатлардан алоҳида поэтик ҳодиса сифатида баҳоланмоқда. Айниқса, антик ва анъанавий поэтик образлар, мотивлар трансформацияси рус адабиётшунослигида атрофлича ўрганилмоқда. Трансформация латин тилидаги “transformatio” (ўзгартириш) сўзидан олинган бўлиб, у турли жабҳаларда, санъат турларида ўзига хос маъноларда қўлланилади. Масалан, тилшунослик луғатларида “асосий синтактик тузилмани тил қонун-қоидалари асосида ўзгартириб, иккинчи бир тузилма ҳосил қилиш” маъносида изоҳланади. Бу термин рус тилида 1) преобразование – ўзгартириш, қайта ўзгариш, айлантириш, алмаштириш, 2) превращение – бошқа нарсага айланиш, ўзгариш, бошқа нарсага айлантириш, ўзгартириш, гумбакнинг капалакка айланиши, физикада электр токининг кучайиши ёки пасайиши каби маънолар ифодалайди[5.168]. Шундан трансформация ҳодисаси бир ҳолдан бошқа ҳолга ўтиш ёки бир шаклдан бошқа шаклга ўтиш, ўзгариш, бир ҳолни бошқа ҳолга ўтказиш, ўзгартириш англанади. Шу каби трансформацион таҳлил тушунчаси ҳам мавжуд бўлиб, бунда турлитуман тузилмаларни бир содда ядровий тузилмага келтириш усули тушунилади. Адабиётшуносликда кенг маънода шакл ва мазмун жиҳатлардан бир адабий ҳодисанинг иккинчи бир ифодага ўзгариши, ўзгартирилиши тушунилса, тор маънода бир тимсол, образ ёки сюжетнинг турли жанрий-шаклий, бадиий ифодадарда ўзгариши, муайян ижод оламида ранг-баранг маънолар касб этиши тушунилади. Алишер Навоий шеърятда самарали қўлланилган ана шундай тимсоллардан бири Фарҳод образи саналади. Унинг шоир лирик девонларида ифодаланиш статистикаси уч юз атрофида бўлиб, ҳар бир ҳолатда ўзига хос маъно ва кўринишларни юзага келтиради. Мисол учун “Бадойиъ ул-бидоя” девонига назар ташланса, бунда Алишер Навоий Фарҳод тимсолига турли бадиий-рамзий ва структурал жиҳатлардан эллик марта мурожаат этади. Бу ўринда мумтоз адабиётда Фарҳод образининг этимологияси, хилма-хил шаклий-жанрий ва мазмуний ифодадарига кўра ўзгаришлари, ўзгартирилиши хусусида гап борадиган бўлса, образ трансформацияси ниҳоятда кенг миқёсда намоён бўлиши кўринади. Айнан Фарҳод образининг эпик талқинлардан лирик ифодадарга кириб келиши ва мана шу жараёндаги ўзгаришлар, бу тимсолнинг бадиий тафаккурнинг барқарор ифодасига айланиши – буларнинг барчаси мумтоз адабиётнинг ўлмас қонуниятлари орқали юз беради. Алишер Навоий “Бадойиъ ул-бидоя” лирик девонида 50 дан ортиқ тавсиф этилган Фарҳод тимсоли шаклий-структуравий жиҳатлардан рангин манзаралар ҳосил қилади. Алишер Навоий девонида Фарҳод тимсоли якка ҳолда келганда эса “Фарҳод ва Ширин” мавзусидаги бошқа тимсол ва

мотивлар билан бирга қўлланади. Бироқ бунда барча тимсол-образлар рамзий маънолар англатишга хизмат қилади.

Бесутунгаким сутун Фарҳод бўлди қофи ишқ,

Ул сутунни Бесутун остидаги “нун” қилдило [ББ.1.47].

Кўринадики, Фарҳод образининг бадий тимсол сифатида лирикага кўчиш ҳодисаси шу мавзу билан боғлиқ бошқа образ-тимсолларни ҳам гарчи ўзга рамзий-мажозий оҳангларни ифодалаб келса-да, ўзи билан биргаликда кўчишини таъминлайди. Бунинг натижасида образ-тимсол маъноларида турфа ташқи ва ички, зоҳирий ва ботиний талқинлар юзага чиқади. Жумладан, Бесутун – “бу қоя ривоят ва афсоналарда Фарҳод номи билан боғлиқ ҳолда тилга олинади. Фарҳод шу тоғ этакларида канал қазиган, тоғни кесиб йўл очган қаҳрамон сифатида тасвирланади”[3.97]. Фарҳод оғзаки қиссалардан ёзма адабиётга кириб келган ва ҳазрат Алишер Навоий бадий тафаккури маҳсули ўлароқ бош қаҳрамон даражасида талқин этилган комил хилқат образидир. Қоф – “афсонавий тоғ номи”, “Ер сокинлигини таъминловчи қозик”, “Симурғ, Анқо каби афсонавий қушларнинг манзили, дунёнинг охириги нуқтасидир”, “тасаввуфда аҳли қофни дилнинг ватани, жон қушининг манзили, Мутлоқ ҳақиқат ва маърифатнинг мақоми, фанодан кейинги бақо мақоми” деб талқин қилади[2.145]. Шеърда ишқ тимсол эмас, балки семиотик нуқта, яъни асарнинг маъно маркази ҳисобланади. Энди байт мазмунига эътибор қаратайлик, кейин бошқа тимсоллар таърифига ўтамыз. Бу ўринда “ишқ қофи (ишқ тоғи), яъни Бесутунга Фарҳод сутун (устун) бўлди, шу устунни Бесутун остида “нун” қилдилар”. “Бе” ҳарфи тагида, “нун”нинг эса устида нуқта бўлади. Шунга кўра, Фарҳод ишқ устунни ҳисобланади. Демак, Фарҳод билан биргаликда тасвир этилган барча образ-тимсолларда ишқ ифодасини юзага чиқарувчи рамзийлик мавжуддир. Бу ҳолни Фарҳод ва Ширин параллел тасвир этилган сатрларда ҳам кўриш мумкин.

Ваъдайи васл этса ул Ширин санам ғам тоғини

Қозғамен тирноқларимни тешайи Фарҳод этиб[ББ.1.72].

Алишер Навоий “Бадойиъ ул-бидоя” лирик девонида бу жуфтликни бир ўринда талқин этилиш ҳодисаси ҳам жуда сермахсул эмасдек кўринади, бироқ одатда Фарҳод ҳақида гап кетганда Ширин ёки аксинча Ширин образи талқинида Фарҳодга ишора этилади, яъни бадий матнларда ишқий жуфтликлар мантиқан айро англамайди. Масалан, ушбу мисраларда лирик қаҳрамон “агар у Ширинсифат маъшуқа ғам тоғи васлини ваъда қилса, тирноқларимни Фарҳод тешаси қилиб бўлса-да, уни қазамаман”, - дейди. Бунда “ғам тоғи” рамзий равишда юқоридаги Бесутун, “ишқ қофи” сингари ишқ йўлида чекиладиган дардларни англатади. У қанчалик улкан бўлса ҳам, ошиқ уни забт этишдан толмайди, бу йўлдаги машаққат ошиқ учун мақсад-муддао саналади. Бу ўринда Фарҳод ва Ширин ҳам, шу сюжет билан боғлиқ бошқа деталлар (ғам тоғи, Фарҳод тешаси) ҳам бадий образдан кўра, ошиқ-маъшуқа ифодасини юзага чиқарувчи бир рамзий тимсол бўлиб келмоқда. Бироқ бу манзарани ўзаро боғлайдиган умумнуқта сифатида ишқ мавзуси

намоён бўлади. Алишер Навоий лирикасида бу мавзунинг шаклан “Фарҳоду Мажнун” тарзида келиши эса анча самаралидир. Масалан, шоир “Бадойиъ ул-бидоя” девонидаги бир ғазалида “ишқ мени Фарҳод ва Мажнуннинг балоу дардига ворис қилди”, яъни мен Фарҳод ва Мажнунлардан қолган ишққа меросхўрман - дейди. Алишер Навоий бошқа ғазалида “тоғ” ва “дашт” ифодаси орқали лирик манзара яратади. Бунинг бири Фарҳод, иккинчиси Мажнун образлари трансформацияси билан боғланади.

*Қолди аввал тоғ аро Фарҳоду Мажнун дашт аро,
Ишқ йўлида манга икки ажаб йўлдош эрур*[ББ.1.227].

Бунда ишқ йўлида Фарҳоднинг “тоғ аро”, Мажнуннинг “дашт аро” қолиши лирик қаҳрамонга икки ажойиб йўлдош бўлиб кўринади. Демак, шоир лирикасида ишқ мотивини ифодалашда тоғ ва дашт маконлари айнан Фарҳод, Мажнун воқелигига таянади. Бу мотивлар воқелик ифодасида образлар характери рўёбга чиқарса, шоир лирикасида рамз бўлиб келади. Алишер Навоий ва умуман мумтоз шеърятда тоғ, биёбон, сахро, водий, ғор, дашт сингари макон тасвирлари кўп учрайди. Уларни лирик талқинларда ифодалашда Фарҳод, Мажнун образларидаги тоғ, дашт мотивига мурожаат этилиши мазкур дostonларда айна маконлар муҳим поэтик вазифалар бажарганлигини ҳам билдиради.

Хулоса, Алишер Навоийнинг “Бадойиъ ул-бидоя” девонида Фарҳод образи ранг-баранг поэтик функциялар ижро этишга хизмат қилади. Унда тимсолнинг лирик ифодаларидаги ўзгаришлари турли бадиий-рамзий маъноларни юзага чиқаради. Бунда шу образ-тимсол билан биргаликда турфа бадиий деталлар, эпизодик лавҳалар ҳамда характерлар ҳам параллел тасвир этилади.

Адабиётлар

1. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Бадойиъ ул-бидоя. – Т.: “Фан”, 1987.
2. Навоий А. Қомусий луғат. 1 - жилд. – Тошкент: Шарқ, 2016.
3. Навоий А. Қомусий луғат. 1 - жилд. – Тошкент: Шарқ, 2016.
4. Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – 784 бет.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат нашриёти, 2006. – 168 бет.

МИЛЛИЙ-МАДАНИЙ КЎРСАТКИЧЛИ ЭТНОФРАЗЕМАЛАР

З.Ш.Жумаева.ЖДПИ

Фразеологик бирликларнинг миллий-маданий хусусиятга эгаллигини ҳисобга олиб, уларни *этнофраземалар* деб аташга асос бор, чунки уларда маданиятнинг бирор этносига тегишли лисоний бирликлари мавжуд. *Этнофразема* асосланмаган барқарор бирикма, иборалар бўлиб, халқ

маънавий маданияти соҳаларига турлича этимологик жиҳатдан боғлиқ ҳодиса: урф-одат, анъана, удумлар, ривоят, белги-аломат, эътиқод, жонсиз нарса-буюм ҳақидаги фаразлар ва бошқалардир.

Этнофразеология аниқ ҳажмга эга бўлган “Оламнинг лисоний тасвири”даги зарурий миллий кўрсаткичларини ифодалаб беради. У кодланган (яширин) атроф-муҳитни ўраб турувчи жуда муҳим моҳиятни тақдим этувчи омиллар билан шуғулланади. Замонавий фразеология, этнолингвистика, лингвокультурология ушбу таълимотни миллий ва умуминсоний шакллари аниқлаштириб берувчи далиллар ҳақида изланишлар олиб бормоқда. Хусусан, фразеологик бирликлардаги этнокогнитив хусусиятларни тадқиқ этган тилшунос олим М.С.Гутовская миллий қадриятларга асосланган фразеологик бирликларни ўрганиш борасидаги муаммолар ечими ҳали бир ягона тўхтамга келмаганини таъкидлайди. У белгиланган ҳажмдаги миллий фразеологизмлар тушунчаси ҳақида турлича фаразлар мавжудлигини айтади. Унга кўра, бир гуруҳ фразеолог олимлар миллий фразеологизмларни кенг қамровли ва уларда миллий бўёқдорлик сезиларли даражада деб ҳисоблашса, бошқа бир гуруҳи бу фикрни рад этиб, миллий фразеологизмлар таркибида фақатгина реалиялар иштрок этиши шарт деган хулосани тан олишади.

Яна бир гуруҳ фразеолог-тилшунос олимлар эса бундай фразеологик бирликлар бошқа тилдагиси билан қиёслангандагина миллийлик кўрсаткичи сезилиши мумкин дейишади. В.Н.Телиянинг фикрича, тилда айнан миллий-маданий эталон стереотип ва мифологем тасвирий ифодаларга асосланган фразеологик бирликлар мустаҳкам ўрин эгаллайди ва айнан улар нутқда у ёки бу менталитетнинг ўзига хос лингвокультурологик жиҳатини умумлаштиради. Бу авваламбор, лексик компонентли кўрсаткичга эга миллий фразеологизмларга тааллуқлидир⁶². Бундай мазмун маданий - антропонимик компонентли фразеологик бирликларда яққол кўринади. Масалан, ўзбек тилидаги “*Даққионусдан қолган*”, “*Сулаймон ўлиб, девлар қутилибди*” фразеологизмлари шулар жумласидандир. Миллий анъаналарга асосланган кўпқиррали турмуш-тарзи акс этган этно-фразеологик бирликлар ҳам ушбу рўйхатдан жой олган: “*Рўмол ўрамоқ*”, “*Қулогини тишламоқ*”, “*Оқ киймоқ*”.

Т.И.Скоробогатованинг таҳлилига кўра, этнофразеологиянинг асоси бўлмиш этнонимлар – “Ўзаро муносабатда бўлган халқлар ўртасидаги лингвокультурологик фикр юритиш мажмуидир”. Тилшунос назариясига кўра, этноним лексик бирлик сифатида қабул қилинишидан аввал этник тушунча бўлиб шаклланади ва Оламнинг лисоний тасвирида этник белгиларни ифодалаш учун хизмат қилади⁶³.

62 Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический прагматический и лингвокультурологический аспект. - М.:Школа.1996.С.-233.

63 Скоробогатова Т.И. Этническая картина мира и этноидиоматика.//Вест.Православ.Свято-Тихон.гуманитар Ун-та.Сер.3:Филология.-2007.-№9.-С.97-114.

Ҳар халқнинг ўзига хос кийим-кечак номлари ва реалиялари ҳам миллий фразеологизмларни ҳосил қилишда асос вазифасини ўтайди. Масалан, *“тўнини тескари кийиб олмоқ”* - ўчакишган ҳолда қайсарлик қилмоқ, *“дўппини осмонга отмоқ”* - жуда хурсанд бўлмоқ, *“дўппи тор келди”* - илож-имконсиз оғир аҳволга тушмоқ, *“бир-икки яктаки ортиқроқ йиртган”* - ёши каттароқ, турмуш тажрибаси кўпроқ, *“чоригини судрамоқ”* - зўрға-зўрға, амал-тақал қилиб яшамок, *“пайтавасига қурт тушиди”* хотиржамлиги бузилиб, бир ерда тинч тура олмаслик⁶⁴.

Бир мисол орқали этнофраземанинг миллий колорити ҳақида тушунча олишимиз мумкин: шарқда унаштирилган қиз янги турмуш қурган жойга махсус миллий оёқ кийимида, маҳсида кириб борган. Шунинг учун *“маҳси киймоқ”* турмушга чиқмоқ тушунчасига тенг қўлланилган. *Маҳси* сўзи арабча *“бўямок”*, *“суртмоқ”*, *“ёғламоқ”* маъносига *масаҳа* феъли⁶⁵ асосида пайдо бўлган. Оёқ кийимининг бундай номланиши унга масҳ тортиш мумкин бўлганидандир. Масҳ тортиш шароити ва тартиби шаръий асосланади⁶⁶. *Масҳ* сўзига нисбат қўшимчаси бўлган -и ни қўшиш натижасида ҳосил бўлган ушбу сўз араб тилининг ўзида йўқ. Шунингдек, ушбу сўзнинг форс тилига оид луғатларда ва *“Навоий асарлари луғати”*да учрамаслиги унинг бир қадар кейинги даврларда арабий асосга ўзбек тили сўз ясалиш тизимидан мустаҳкам ўрин олган, аслида араб тилидан ўзлашган *“ёйи нисбат”*ни қўшиш билан ясалганини кўрсатади. Демак, *маҳси* сўзининг ясалиш асоси араб тилига таалуқли бўлса ҳам, сўз яшаш тизими нуқтаи назаридан ўз қатламга мансуб. Хоразмда унаштирилган қиз янги турмуш қурган жойга махсус миллий оёқ кийимида, маҳсида кириб борган. Шунинг учун *“маҳси киймоқ”* турмушга чиқмоқ тушунчасига тенг қўлланилган.

В.И.Аверченко этноним сўзларни тадқиқ қилишда миллий менталлик урғусининг ўзига хос хусусиятларини ҳосил бўлиши ва аниқланиш усулига аҳамият беришни таъкидлайди⁶⁷. Этнофразеология эса айнан этноним сўзлар жамланмасида бошқа тил бирликларига нисбатан шаффоф ва аниқ кўринишга эга у ёки бу этник жамият кўрсаткичлари билан шуғилланувчи соҳадир. Шундай экан, бугунги кун фразеологлари ўзбек этнофразеология соҳасининг ривожини учун манбалар талайгиналини ва улар орқали миллий қарашларимизни дунёга танитиш имкони борлигини эслатиб ўтиш жоиз.

Адабиётлар:

1.Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический прагматический и лингвокультурологический аспект.-М.:Школа.1996.С.-233.

2.СкоробогатоваТ.И.Этническая картина мира и этноидиоматика.//Вест.Православ.Свято-Тихон.гуманитар

⁶⁴ Усмонова Ш. Лингвокультурология.Тошкент.2019.-Б.97.

⁶⁵ Носиров О.,Юсупов М. Ва бошқалар.Ан-наъим.Арабча-ўзбекча луғат .-Тошкент:А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2005.-Б.783.

⁶⁶ Мухтасар. Араб тилидан Рашид Зоҳид ва Акрам Дехқон таржимаси. Тошкент: Чўлпон, 1993.

⁶⁷ <https://elib.bsu.by/handle/123456789/207863>

Ун-та.Сер.3:Филология.-2007.-№9.-С.97-114.

3.Усмонова Ш. Лингвокультурология.Тошкент.2019.-Б.97.

4.Носиров О.,Юсупов М. Ва бошқалар.Ан-наъим.Арабча-ўзбекча луғат .- Тошкент:А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2005.-Б.783.

5.Мухтасар. Араб тилидан Рашид Зоҳид ва Акрам Деҳқон таржимаси. Тошкент: Чўлпон, 1993.

6.<https://elib.bsu.by/handle/123456789/207863>

“ҲИБАТУЛ ҲАҚОЙИҚ” АСАРИ ЛУҒАТ ТАРКИБИДАГИ БЕЛГИ-ХУСУСИЯТ БИЛДИРУВЧИ ЛЕКСЕМАЛАР

Лутфулла Синдоров, Жиззах ДПИ

Мамлакатимизда халқимизнинг улкан маънавий мероси, бой тарихини холисона ўрганиш, бебаҳо миллий қадриятларимизни теран англаш борасида кенг қамровли ишлар амалга оширилмоқда. “Туркий тилларнинг катта оиласига мансуб бўлган ўзбек тилининг тарихи кўп асрлик кечмиши, унинг орзу-интилишлари, дарду армонлари, зафарлари ва ғалабалари билан чамбарчас боғлиқдир. Аجدодларимиз, ота-боболаримиз айнан она тилимиз орқали жаҳонга ўз сўзини айтиб келган. Шу тилда буюк маданият намуналарини, улкан илмий кашфиётлар, бадий дурдоналар яратганлар” [1;1]. Шу маънода, халқимиз маънавий меросининг ажойиб дурдоналаридан саналган Аҳмад Юғнакийнинг “Ҳибатул ҳақойиқ” асари лексикасини ўрганиш туркий тилларнинг, хусусан, ўзбек тилининг кенг имкониятларини ёритишда, ўз ва ўзлашган қатлам муносабатини белгилашда, ҳозирги ўзбек тилида қўлланиш ҳолатини аниқлашда, семантик жараёнларни таҳлил этишда, буюк мутафаккир қарашларини, сўз қўллаш маҳоратини таҳлил қилишда аҳамиятлидир.

Тилнинг луғат таркиби кишиларнинг турли фаолияти билан бевосита алоқадор бўлганлиги учун узлуксиз ўзгариб туради, жамият, фан-техника тараққиёти билан бойиб боради. Чунки тил янги сўзлар билан бойиб турмаса, жамиятдаги ўзгаришлар ва янгиланишларни акс эттиролмай қолади. Шундай экан, ҳар бир тилнинг лексик таркиби шундай хазинадирки, унда шу халқ тарихига оид қимматбаҳо маълумотлар сақланади. Халқнинг келиб чиқиши, ҳаёти ва маданияти, моддий-маънавий бойликлари, умуминсоний маданиятни такомиллаштиришдаги роли лексикада ўз ифодасини топади [6;3].

“Ҳибатул ҳақойиқ” асари лексик, фонетик ва грамматик жиҳатдан, биринчи навбатда, XI-XIII асрларда қўлланган туркий адабий тилнинг барча хусусиятларини акс эттиради, туркий қабила тилларининг анча ривожланганини кўрсатади. Шу билан бирга, бу асар ўзининг тил хусусиятлари жиҳатдан маълум тафовут ва фарқ бўлишига қарамай, XIII-XIV асрларда яратилган асарларнинг тили билан умумийликка эга. Айни

вақтда, бу асар орқали эски туркий адабий тилдан эски ўзбек тилига ўтишда катта кадам қўйилганлигини, унга яқинлашиб келинганлиги ҳам аниқ билинади. Бу эса ўша даврдаги туркий қабила тилларининг ўзаро яқин муносабатини, уларнинг тараққиёти натижасида дастлаб ўзбек халқ (елат) тилининг ташкил топиши тезлашганлигини, шунингдек, бошқа туркий элат тилларининг шаклланиш жараёни давом этганлигини тасдиқлайди. Демак, “Ҳибатул ҳақойиқ” асари Шарқий Туркистонда эмас, шунингдек, Моварауннаҳр, Хуросон ва бошқа ҳудудларда ҳам машҳур бўлган. Тил жиҳатдан барча туркий халқларга тушунарли бўлгани учун Навоий даврида ҳам ўз таъсирини сақлаб қолган.

Туркология ва ўзбек тилшунослигида туркий тиллар лексикасини мавзуий гуруҳларга бўлиб таҳлил қилиш борасида Э.Фозилов, Ф.Исхаков, И.Исмоилов, Ц.Номинханов, Д.Бозорова, Б.Бафоев, Э.Бегматов, И.Носиров, Ҳ.Дадабоев, М.Абдулхайров, З.Холманова, Б. Абдушукуров сингари турколог ва тилшунослар томонидан турли тадқиқотлар амалга оширилган. Мавжуд тажрибага таянган ҳолда “Ҳибатул ҳақойиқ” лексикасини семантик майдон, мавзуий гуруҳлар бўйича ўрганишга ҳаракат қилдик.

Белги-хусусият билдирувчи семантик майдон ранг билдирувчи, шахс феъл-атворини билдирувчи каби бир қатор лексемалардан иборат: *köni* – “тўғри”, *yalğan* – “ёлғон”, *ürün* – “оқ”, *arīgsiz* – “ифлос, нопок”, *qatīg* – “қаттиқ”, *āsān* – “қулай”, *körklük* – “гўзал”, *ezgülük* – “яхшилик”, *yawuz* – “ёмон”, *ačīg* – “аччиқ”, *süčük* – “чучук”, *tat* – “маза, таъм”, *yid* – “хид”, *qizil* – “қизил”, *tärk* – “тез”, *kičik* – “кичик”, *keñ* – “кенг”, *tar* – “тор”, *yaqin* – “яқин”, *yīraq* – “узоқ”, *uzun* – “узун”, *quruğ* – “қуруқ”.

“Ҳибатул ҳақойиқ” асарида **köni** лексемаси қуйидаги маъноларни англатган: “рост, тўғри”: *Ağiz til bezägi köni söz turur* “виждонли, инсофли, ҳақиқий”: *Min er dostda biri bulunmas köni*; “ишончли, чин дўст”: *Köni dostuñ ersä taši bil muni* [3;228]; “адолат”: *Köni keltügünčä xayr ketgüük*; “тўғри бўлмоқ”: *Köni bol köni qıl atıñ köni*. Ушбу сўз Юсуф Хос Ҳожибнинг “Қутадғу билиг” достонида “тўғри”, “адолатли” маъноларида учрайди: *Sen utru köni yolqa kirdiñ...* – сен рўпарадаги тўғри йўлга кирдинг [2;315]. Маҳмуд Кошғарий луғатида “тўғри” семасида қайд этилган: *köni er* [4;326]. Достон сўз бойлигида бу лексема янги сўз ясаш учун асос вазифасини ўтаганига гувоҳ бўлди: *Kezim ton tolusi könilik toni*. Шу билан бирга, асарда сифатнинг хитойча **čīn** ва арабча **haqiqat**, **haq** синонимлари ҳам кўзга ташланади: *Dad insāf tutar čin anuširvaniy*; *Majāz boldi dostluq haqiqat qani*; *Biligsizgā haq söz tatīqsiz erür*.

Турфон матнларида **yalğan** сўзи “ёлғончи” маъносида келган: *kertü tünliğlar az ezük yalğan tünliğlar üküš* – тўғри инсонлар оз, ёлғончи кишилар кўп [2;228]. “Қутадғу билиг” асарида “ёлғончи”, “алдов, ёлғон” маъноларида берилган: *tiliñdä čiqarma bu yalğan sözün* – тилингдан чиқарма бу ёлғон сўзинг [2;228]. Достонда ҳам айни маъноларни кўриш мумкин: *Tili yalğan ertin yīraq tur tez-ä*; *Köni söz asal tek bu yalğan basal*. Моний ёзувида битилган ёдгорликларда **ezük** лексемаси “ёлғончи, мунофиқ”, “ёлғон”

тушунчаларини англатиш учун хизмат қилган: *Ezük suu yazuq* – ёлғон, хато, гуноҳ [2;192]. Бу сўз сўнгги давр асарларида учрамайди.

Демак, лексема тарихий тараққиёт асносида қўлланиш доираси чекланиб, кейинчалик ўз ўрнини дастлаб синоними сифатида ишлатилган **yalğan** сўзига бўшатиб берган. Бу сифат қадимги туркий тилдаги “алдам-қалдам гаплар” семасидаги **yal** отидан **-ğa** қўшимчаси билан ясалган феълга **-n** аффиксини қўшиш натижасида ҳосил қилинган [5;166].

“Олтун ёруғ”, Тўньюқук, Турфон матнларида “тоза”, “олижаноб”, “ҳақиқий” маъноларини ифодалаган **arīğ** лексемасидан ясалган **arīğsiz** сўзи “Қутадғу билиг” асарида “ифлос, жирканч”, “нопок” семаларини англатган: *...arīğsiz kişiniñ arīğsiz aşı* – нопок кишининг овқати ҳам нопок бўлади [2;52]. Истилоҳ “Ҳибатул ҳақойиқ” асарида айни шакл ва семада қўлланишда бўлган: *Ne türlüñ arīğsiz arir yuv desä; Jāhil yub arimas arīğsiz erür*.

Асар тилида **ürün** атамаси “оқ” маъносини билдирган: *Rasullar örün yüz ol ol yüzrä kün*. Ушбу сўз биринчи марта Тонюқук ёдгорлигида кўзга ташланади: *Sariğ altun ürün kümüş* – сариқ – олтин, оқ – кумуш [2;627]. Юсуф Хос Ҳожибнинг “Қутадғу билиг” достонида “оқ”, “тоза” маъноларини ифодалаган: *Saqaliñ ürün boldi keldi ölüm* – сақолинг оқ бўлса, ўлим келди деб ҳисоблайвер[2;627].

Гарчи дostonда **aq** сифати ишлатилмаган бўлса-да, у илк бор “Ирк битиг”да “кулранг, бўз”(от туси) маъносида ишлатилган: *Aq bisi qulunlamış* – кул ранг бияси қулунлади. Мазкур лексик бирлик Турфон матнларида кўчма маънода “яхши таъсир кўрсатадиган, кўнгилдагидек, ижобий” семасини англатган: *Aq qışin az* – инсонга хуш ёқадиган ишинг кам [2;48]. Маҳмуд Кошғарийнинг луғатида сўзнинг дастлабки маъноси сақланиб қолган ҳолда, унинг янги “оқ” семаси ривожланади: *Aq bulut* [4;258].

Демак, маълум бўладиги, қадимги туркий тилда “оқ” семасини **ürün** лексемаси ифодалаган. **Aq** сифати эса айни маънода XI асрдан бошлаб ишлатила бошланган.

Қадимги туркий тил манбалари, яъни “Олтун ёруғ” асари, моний ёзув ёдгорликлари ва Турфон матнларида **qatīg** сифати “қаттиқ” [2;433]., “қаттиққўл, шафқатсиз” [2;433]., “кучли” семаларини ифодалаган: *Adawaki yek qatīg ünin qiqirib* – Адаваки кучли товуш билан кичқирди [2;433]. Қорахонийлар даври ёдномаларида “қаттиқ”: *Ol qatīg neñni yumšatti* – у қаттиқ нарсани юмшатди; “қаттиққўл, шафқатсиз”: *Azunta negü bar ölümün qatīg* – дунёда ўлимдан шафқатсиз яна нима бор; “кучли”, “мустаҳкам” маъноларини кузатиш мумкин [2;433]. “Ўрта Осиё тафсири”да сифат “одатдаги шароитда ўз шакли ва ҳажмини сақлайдиган” (20,6); “кучли” (27,17); “қийин, машаққатли” (27,19); “кишига оғир ботадиган, уни ранжитадиган” (28,24); “шафқатсиз” (45,67) семаларида ишлатилган. Аҳмад Югнакий ўз асарида ушбу лексемага учта маъно юклаган:

1) “одатдаги шароитда ўз шакли ва ҳажмини сақлайдиган”: *Baxilğa qatīg ya oqun kizlägil*;

2) “мустаҳкам”: *Qazā qaytarilmas qatīg ya qurub*;

3) “кучли”: *Qatig kizlä räziñ kişi bilmäsün*. Бундан ташқари, мазкур лексема дoston тилида янги сўзлар ясада ҳам иштирок этган: *Bi асип mazasi qatiglig maza; Aya ranj qatigsis sorur umguči*.

Тилнинг сўз бойлигини диахрон аспектда ўрганиш тил фактларининг тараққий этиш усулларини аниқлаш учунгина эмас, айти пайтда, уни яратган халқ тарихини тадқиқ қилиш учун ҳам алоҳида аҳамиятга эга. Демак, ҳар бир тилнинг тарихи шу тилга мансуб халқ ўтмиши билан боғлиқ. Халқ тарихида нимаики юз берса, тилга озми-кўпми ўз таъсирини ўтказди. Бу, энг аввало, тилнинг луғат бойлигида содир бўлади. Шу нуқтаи назардан, айтиш мумкинки, “Ҳибатул ҳақойиқ” асари лексикасини мавзуй гуруҳлар бўйича таҳлил қилиш натижасида дoston тилида турли мавзуй гуруҳга тегишли сўзлар ишлатилганлиги, уларда ўша давр халқининг турмуш тарзи, ижтимоий-иқтисодий, маданий-маънавий тараққиёти ўз аксини топганлиги аён бўлди. Айти пайтда, мазкур мавзуй гуруҳларнинг шаклланишида бошқа тиллардан кирган лексемалар ҳам катта аҳамият касб этган.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Президент Шавкат Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганлигининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // “Халқ сўзи” 2019 йил, 22 октябрь.
2. Древнетиюрский словарь. –Л.: Наука, 1969. С. 678
3. Маҳмудов Қ. Аҳмад Югнакийнинг “Ҳибатул ҳақойиқ” асари ҳақида: кириш, фонетика, морфология, матн, транскрипция, шарҳ, луғат. –Т.: Фан, 1972. –298 б.
4. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталлибов. I. –Т.: Фан, 1960. – 499 б.
5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). – Т.: Университет, 2000. –599 б.
6. Турсунова Т. Ўзбек тили амалий санъат лексикаси. –Т.: Фан, 1978. –140 б.

SINONIM QO‘SHMA GAPLARNING SEMANTIK TAHLILI

JDPI magistranti M. Asrarova

Ilmiy rahbar: F.Jumayeva

Ma’lumki, birdan ortiq sodda gaplarning ohang va mazmun jihatdan bog‘lanishi asosida hosil bo‘lgan gaplar qo‘shma gaplar deyiladi. Qo‘shma gap sodda gapdan tuzilishi, axborot miqdori va sifati nuqtayi nazaridan farqlanadi. Ikki yoki undan ortiq kesimdan iborat bo‘lgan gaplar qo‘shma gaplar hisoblanadi. Kesim mazmuni asosida qo‘shma gap qismlari alohida propozitiv va kommunikativ ma’no vazifalarga ega bo‘ladi. Qo‘shma gap qismlarini bog‘lovchi vositalar asosida modal ma’no ifodalanadi. Masalan: *Harbiy xizmatga ketgan nabirasi qaytib keldi va Muazzam xola quvonganidan yig‘lab yubordi*. Ushbu gapda ikki grammatik asos hamda bitta bog‘lovchi vosita ishtirok etgan bo‘lib,

ular qo'shma gapning asosiy qismlari hisoblanadi. Gap shakl va mazmundan iborat bo'ladi. Gap mazmuni sintaktik bog'lanishlar, grammatik birliklar, bog'lovchi vositalar asosida hosil bo'ladi. Ma'nodosh qo'shma gaplar umumiy tushunchasiga ko'ra birlashsa, bog'lovchilarga xos ma'nolari asosida farqlanadi. M: 1. *Paxta ochildi va terim boshlandi.* 2. *Paxta ochildi hamda terim boshlandi.* 3. *Paxta ochildi-yu, terim boshlandi.* 4. *Paxta ochildi-da, terim boshlandi.* 5. *Paxta ochilishi bilan, terim boshlandi.* 6. *Paxta ochiliboq, terim boshlandi.* 7. *Paxta ochilgach, terim boshlandi.* 8. *Paxta ochilib, terim boshlandi.* 9. *Paxta ochildi, natijada terim boshlandi.* Berilgan gaplarning har ikki qismi ham ega va kesim bog'lanishiga xos mazmun bildiradi. Bu qo'shma gaplar umumiy ma'nosiga ko'ra sinonim bo'lsa-da, bog'lovchi vositalariga xos ma'no nozikliklariga ko'ra farqlanadi. Birinchi va ikkinchi gaplarda payt semasi mavjud bo'lib, ketma-ket amalga oshgan voqea-hodisani ifodalaydi. Ma'noviy yaqinlik kuchli. Uchinchi gapda esa ish-harakatning tezlik bilan amalga oshganligi ma'nosi va uslubiy bo'yoq mavjud. Birinchi va ikkinchi gaplarda bunday xususiyat yo'q. To'rtinchi gapda payt munosabati aniq ifodalangan bo'lib, mazmunan uchinchi gapga yaqin. Lekin tezlik munosabatidan ko'ra ketma-ketlik, sabab-natija munosabati asosiy o'ringa chiqqan. Beshinchi va oltinchi gaplarda sodda gaplar yordamchi birliklar vositasida bog'langan bo'lib, ushbu yordamchilar gapdagi tezlikning yuqori darajasini ifodalaydi. Yettinchi gapda esa "aniq payt" semasi mavjud bo'lib, ma'no shakllantirishda bog'lovchi vosita sifatida ravishdosh qo'shimchasi qo'llanilgan. Sakkizinchi va to'qqizinchi gaplarda payt semasidan ko'ra sabab va natija semalari kuchliroq anglashilgan.

Qo'shma gap qismlar zidlov bog'lovchilari yordamida bog'langanda, qo'shma gap tarkibidagi ikkinchi qism, odatda, bo'lishsizlik shaklini oladi, M: 1. *Paxta ochildi, lekin terim boshlanmadi.* 2. *Paxta ochildi, ammo terim boshlanmadi.* 3. *Paxta ochildi, biroq terim boshlanmadi.* 4. *Paxta ochildi-yu, terim boshlanmadi.* 5. *Paxta ochildi-da, terim boshlanmadi.* 6. *Paxta ochildi, terim esa boshlanmadi.* 7. *Paxta ochilsa-da, terim boshlanmadi.* 8. *Paxta ochilsa ham, terim boshlanmadi.* 9. *Paxta ochilishiga qaramay, terim boshlanmadi.*

Ammo, lekin, biroq bog'lovchilari yordamida bog'langan gaplarda *terimning boshlanmasligiga paxtaning ochilishi ham ta'sir qilmaganligi* semasi mavjud bo'lib, gapning birinchi qismida anglashilgan harakat, belgi xususiyatning ikkinchi qismida anglashilgan xususiyatlarga zid bo'lishiga qaramay, ikkinchi qismdan anglashilgan bo'lishsiz mazmun yuzaga chiqadi. Ular uslubiy-semantik jihatdan bir-biridan deyarli farq qilmaydi. Chunki har uchala bog'lovchi to'liq bir-birining o'rnini bosa oladigan va semantik xususiyatlari bir xil bo'lgan bog'lovchilar hisoblanadi. Qolgan gaplarda muayyan darajada semantik farqlanish mavjud bo'lib, bu semantik xususiyatlar bog'lovchi vositalar yordamida yuzaga kelgan. 4. *Paxta ochildi-yu, terim boshlanmadi.* 5. *Paxta ochildi-da, terim boshlanmadi.* Ushbu gaplarda *terimning boshlanishi paxta ochilishi bilanoq yuzaga kelmaganligini* ifodalash bilan birga, aytilayotgan gap terim mavsumidan keyin gapirilayotganga o'xshaydi. Aslida, *bo'lsa, esa* bog'lovchilari qiyoslash, zidlash ma'nolarini ifodalash uchun qo'llaniladi. 6.

Пaxта ochildi, terim esa boshlanmadi gapida esa bog‘lovchisi *paxtaning ochilishi* va *terimning boshlanmasligi* o‘rtasidagi zidlanish semasini ifodalagan. 7. *Пaxта ochilsa-da, terim boshlanmadi* gapi qismlarining birikish yo‘llariga ko‘ra ergash gapli qo‘shma gap hisoblanib, uning tarkibidagi sodda gaplar o‘zaro ergashtiruvchi bog‘lovchi vositasidagi birlik asosida ergashish yo‘li bilan bog‘langan. Bu qo‘shma gapda ergash gapning mazmuni bosh gap mazmuniga zid bo‘lsa ham, unda ifoda qilinayotgan fikr bosh gapda ifoda qilinayotgan fikrga to‘sqinlik qilmaydi. Shunga ko‘ra, to‘siqsizlik semasi yuzaga keladi. 8. *Пaxта ochilsa ham, terim boshlanmadi*. 9. *Пaxта ochilishiga qaramay, terim boshlanmadi* gaplari ham yettinchi gap bilan semantik jihatdan bir xil hisoblanadi.

Demak, qo‘shma gapning semantik tarkibi, ikki yoki undan ortiq mazmuniy markaz (kesim)dan iborat bo‘ladi. Qo‘shma gaplarga xos propositiv, kommunikativ ma‘no kesim va unga bog‘lanuvchi bo‘laklar asosida ifodalanadi. Shu ma‘nolarga ko‘ra ayrim qo‘shma gaplar sinonim bo‘ladi. Bunday gaplar kesim semantikasiga xos munosabat semalarini voqelantirishga xizmat qiluvchi bog‘lovchilar asosida farqlanadi. Qo‘shma gap qismlarini bog‘lovchi vositalar, odatda modal ma‘no ifodalashga xizmat qiladi. Ba‘zi ma‘nodosh qo‘shma gaplar ayni shu xususiyatga ko‘ra farqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.A. Nurmonov, N. Mahmudov “O‘zbek tilining nazariy grammatikasi” Toshkent 2007.
- 2.B. Fayzullayev, T. Abdullayev, Sh. Haydarov “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” Jizzax 2007.
- 3.R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva, M. Qurbonova, Z. Yunusova, M. Abuzalova “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” Toshkent 2009.

СИНТАКТИК ТЕГЛАШДА(ИЗОҲЛАШДА) СИНТАКТИК АЛОҚА, СИНТАКТИК МУНОСАБАТ ТУШУНЧАСИ

Хидиров Отабек, ЖДПИ ўқитувчиси

Синтактик алоқа деганда, одатда, икки сўзнинг ўзаро боғланиши тушунилади. Аслида синтактик алоқа бундан кўра кенгроқ тушунчани ўз ичига олади. У гапда сўз ва сўз бирикмаларининг ўзаро боғланишини билдириш билан бирга, нутқда гапларнинг маълум усул ва воситалар ёрдамида бир-бири билан боғланишини ҳам билдиради. Маълумки, нутқ гаплардан ташкил топади. Муайян текстдаги гаплар бир-бири билан мантикий муносабатда бўлади. Синтактик алоқа туфайли мантикий муносабат грамматик шаклланади. Масалан: *Куз эрта келди. Ҳаво совий бошлади. Деҳқонлар мўл ҳосилни тезда йиғиштириб олишга киришдилар.* Бу мисолдаги гаплар орасида мантикий муносабат бор. Бироқ унда ҳали синтактик алоқа йўқ. Бу гапларни ўзаро боғлаб, қуйидагича қайта тузайлик: *Куз эрта келиб, ҳаво совий бошлади, шунинг учун деҳқонлар мўл ҳосилни*

тезда йиғиштириб олишга киришдилар. Қайта тузилган гапдаги компонентлар орасида мантиқий муносабат билан бирга синтактик алоқа ҳам бор. Олдинги мисол учта мустақил содда гапдан иборат эди, кейинги мисол ўша содда гаплардан ташкил топган битта қўшма гап. Демак, синтактик алоқа туфайли содда гаплар янги сифатга эга бўлди; учта содда гап битта қўшма гапга бирлашди. Синтактик алоқа қўшма гапни шакллантиради(1,76). Айтиш мумкинки, синтактик теглашда синтактик алоқанинг тури инобатга олинади ҳамда теглар тизимидан синтактик алоқани ифодаладиган тег жой олади.

Манбаларда бу икки атаманинг фарқланмай, аралаш ишлатилиши айтилади. Синтактик алоқа сўз бирикмасидаги ҳамда гапдаги сўзлар, нутқдаги гапларнинг ўзаро грамматик боғланишини билдиради. Синтактик муносабат эса сўз бирикмаси, гапдаги сўзларнинг ҳамда нутқдаги гапларнинг бир-бирига нисбатан қандай грамматик маъно ва функцияда қўлланишини билдиради. Масалан: *уйга бормоқ, сенга олмоқ*. Бу мисолларда синтактик алоқа бир хил: ҳар иккала бирикмадаги элементлар бир хил грамматик восита – жўналиш келишиги қўшимчаси *-га* ёрдамида бошқарув алоқасига киришган. Бироқ бу бирикмалардаги элементларнинг синтактик муносабатини бир хил деб бўлмайди. Буларда муносабат икки хил: биринчи бирикмада ҳолли муносабат (ўрин муносабати) ифодаланган бўлса, иккинчи бирикмада объектли муносабат ифодаланган(1, 86). Маълум бўладигани, тил корпуси материали(матн)ни синтактик теглашда синтактик алоқа ҳамда синтактик муносабат, албатта, фарқланиши лозим. Аммо шаклан фарқлашнинг имкони йўқ: боғловчи воситалар бир хил. Шу сабабли корпус разметкасида синтактик алоқа ва синтактик муносабатни фарқловчи тег киритилиши керак. Бизнингча, матнда синтактик алоқа ёки синтактик муносабатнинг тегланишини аниқлаш муҳим.

Синтактик алоқа. Мустақил сўзларнинг нутқ жараёнидаги эркин боғланиши *синтактик алоқа* дейилади: *Сувлар тиниқ, тоза ҳаво*. Синтактик бирлик бир неча аъзоли бўлади. Фақат гап бир аъзоли бўлиши мумкин. Нутқда сўзларнинг бир-бири билан боғланиши ҳар бир тилнинг лисоний-синтактик қолипи, лексеманинг бирикиш имконияти асосида содир бўлади. Сўзнинг синтактик муносабатга киришуви натижасида ҳосил бўлган синтактик қурилма *сўз қўшилмаси* дейилади. Бу сўзнинг бир-бирига эргашиши (*аълочи ўқувчи*) ёки тенглашиши (*олма ва анор*) шаклларида бўлиши мумкин. Демак, сўзлар орасидаги алоқа икки хил: тенглашиш ва тобеланиш. Улар эса уч хил ҳосилани беради: сўз бирикмаси, сўз тизмаси ва гап. Тенглашиш алоқаси асосида сўз тизмаси ҳосил бўлса, тобеланиш алоқаси асосида сўз бирикмаси ва гап шаклланади(2,26 б)..

Корпус синтактик разметка тизимида коллокатив қидирув жуда муҳим: қидирув натижасининг сифати қидирувнинг мукамаллиги билан тўғри пропорционал. Коллокатив қидирувни ташкил этиш учун корпус бирликлари сўз бирикмаси ва сўз қўшилмасини ажратувчи тегга эга бўлиши талаб қилинади.

Сўз бирикмаси бирикувчи сўзларнинг ҳоким-тобелик муносабати асосида ҳосил бўлади. Бунда изоҳланувчи аъзо кенгаювчи, изоҳловчи аъзо *кенгайтирувчи* аъзо деб юритилади: *китобни ўқимоқ* (китобни – изоҳловчи, кенгайтирувчи, ўқимоқ – изоҳланувчи, кенгаювчи).

Тобеланиш алоқасида ҳоким аъзо ҳокимлик мавқеи ва воситасига, тобе аъзо тобелик мавқеи ва уни таъминловчи воситага эга бўлади. *китобни ўқимоқ* бирикмасида *китобни* аъзоси олдин келиб, тушум келишиги кўрсаткичи билан шаклланган бўлса, *ўқимоқ* аъзоси ҳокимлик мавқеи ва шаклига эга. Аъзоларнинг ҳоким-тобелигини билдирадиган шаклий кўрсаткич ҳар доим ҳам бўлавермайди. Морфологик кўрсаткич бўлмаганда тобелик ва ҳокимлик белгиси бирикувчи сўзларнинг луғавий-грамматик табиатидан, синтактик ўрнидан ҳамда тартиб ва оҳангдан билиниб туради. Масалан: тиниқ сув (тобе+ҳоким), сув тиниқ (тобе+ҳоким) (2,59 б).

Морфологик кўрсаткичсиз тобе-ҳокимлик муносабатини аниқлаш учун лисоний-синтактик қолип ҳамда морфологик теглар тизимидан фойдаланиш ўринли. Масалан, *қизиқарли китоб* бирикмасида морфологик кўрсаткич йўқ. Контекстда бу бирликларнинг сўз бирикма эканлигини лисоний-синтактик қолип билан аниқлаш мумкин. Лисоний-синтактик қолипда қайси сўз туркуми ўзаро бирикиши кўрсатиб берилган. Корпус бирликлари морфологик тегланган бўлса, тег ва лисоний-синтактик қолип асосида морфологик кўрсаткичсиз синтактик муносабатли бирикмаларни ҳам автоматик теглаш имкони пайдо бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Ўзбек тили грамматикаси. II том. Синтаксис. – [Масъул муҳаррирлар: Ғ. А.Абдурахмонов ва бошқ.]. – Т., «Фан», 1976. – 560 б. – Б. 7-8.
2. Замонавий ўзбек тили: Синтаксис./ Муаллифлар жамоаси. Масъул муҳаррирлар Ҳ.Ғ.Неъматов, Р.Сайфуллаева. ЎзР Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети. – Тошкент.: Мумтоз сўз, 2011. – 312 б. – Б. 59-61.

TAQLID SO‘ZLARNING TASNIFI

Nargiza Matyakubova JDPI magistranti
Ilmiy rahbar: F.Jumayeva

Tovushlar inson va tabiat tovushlariga bo‘linadi. Inson tovushlari nutq a’zolarining harakati asosida paydo bo‘lsa, tabiat tovushlari, odatda, narsalar bir-biriga tegishi, urilishi, qisilishi, siqilishi, buralishi kabilar asosida paydo bo‘ladi. Shuningdek, hayvon-jonivorlarning tovushi: itlarning vovullashi, mushukning miyovlashi, qushlarning sayrashi, otning kishnashi, qo‘ylarning ma‘rashi, eshaklarning hangrashi kabilarga taqlid qilish asosida ham tilimizda bir qancha so‘zlar paydo bo‘ladi. Bunday so‘zlar tilshunoslikda taqlid so‘zlar deb yuritiladi.

Taqlid soʻzlar, shuningdek, jonli-jonsiz narsalarning holatiga taqlidni bildiruvchi soʻzlardir. Shunga koʻra ikki turga boʻlib oʻrganiladi:

1. Tovushga taqlid soʻzlar.

2. Holatga taqlid soʻzlar.

Maʼlumki, taqlid soʻzlarga doir koʻpgina ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. U.Tursunov, A.Muxtorov, SH.Rahmatullayev, A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh.Yusupova, A.Anorbekova, Sh.Mirzayeva, R.Sayfullayeva kabi tilshunoslarning asarlari bunga misol boʻladi. Shu ishlar asosida taqlid soʻzlarni keng doirada tasniflab oʻtamiz.

Tovushga taqlid soʻzlar tarkiban bir nechta guruhlarga ajratiladi:

a) kishilarning harakat-holatidan paydo boʻlgan tovushlarga taqlid bildiruvchi soʻzlar: *qars-qars, afshu, chalp-chulp, duk-duk, shalop, shalop-shulup*. M., *Nazira yuragining duk-dukini hattoki shu shovqinda eshitdi*;

b) chaqaloqlarning yigʻlash, uxlash paytida paydo boʻladigan tovushlarga taqlid bildiruvchi soʻzlar: *inga-inga, pish-pish*. M., *Chaqaloqning inga degan tovushi butun olamni jonlantiradi*;

d) kishilarning quvonchi, qaygʻusini ifodalovchi tovushlarga taqlid bildiruvchi soʻzlar: *qah-qah, pix-pix, hingir-hingir, hoʻng-hoʻng* M., *Doʻstlarning qah-qah ovozi butun davrani uygʻotdi*;

e) kishilarning soʻzlashi, baqir-chaqirini ifodalovchi tovushlarga taqlid soʻzlar: *pichir-pichir, qiy-chuv, gʻoʻngʻir-gʻoʻngʻir, shivir-shivir, bidir-bidir, vagʻir-vugʻur, gʻivir-shivir, qiy-chuv*. M., *Birdaniga qiy-chuv boshlanib ketdi*;

f) hayvonlar tovushiga taqlid bildiruvchi soʻzlar: *miyov, vov, uv, irr, maa, vaq-vaq, mee, moʻoʻ, dupir-dupir*. M., *Qishloqning yozgi tunlari qurbaqaning vaq-vaqi bilan yanada yoqimli tuyulardi*;

g) hasharotlar tovushiga taqlid bildiruvchi soʻzlar: *chirr-chirr, vish, viz-viz, gʻuv-gʻuv*. M., *Asalarilarning vizillashi quloqni karaxt qiladi*;

h) qushlar tovushiga taqlid bildiruvchi soʻzlar: *qagʻ-qagʻ, pit-pildiq, ku-ku, kak-ku, chugʻur-chugʻur, parr*. M., *Bolalar chumchuqlarning chugʻur-chugʻuriga mahliyo edi*;

j) parrandalar tovushiga taqlid bildiruvchi soʻzlar: *gʻa-gʻa, qu-qu, chip-chip, qa-qa-qa-qaq*. M., *Tashqaridan joʻjalarning chi-chiyi eshilib turardi*;

k) tabiat hodisalari va tabiiy ofatlarning tovushiga taqlid bildiruvchi soʻzlar: *gumbur-gumbur, biliq-biliq, chars-churs, gʻuv-gʻuv, shitir-shitir, shildir-shildir, baqir-buqur, gʻuv, chirs-chirs, chilp-chilp, gʻarch-gʻurch, choʻlp-choʻlp, vaqir-vaqir*. M., *Shamolda barglarning shitir-shitiri eshitaladi*;

l) jonsiz predmetlarning tovushiga taqlid bildiruvchi soʻzlar: *gʻiyq, duk, qars-qars, sharaq, taraq, tap, tars, tars-turs, tars-tars, chirs, qart-qurt, gʻarch*. M., *Kimdir eshikni tars etib ochdi va uyga kirdi*;

m) narsalarning bir-biriga urilishi natijasida hosil boʻladigan tovushga taqlid bildiruvchi soʻzlar: *taq-taq, qars-qars, sharaq, taqir-tuqur, qars-qurs, gurs, taraqa-turuq, chirs, tasira-tusir*. M., *Qorongʻuda derazaning taqir-tuqiri xonadagilarni vahimaga soldi*;

n) texnika va texnik asboblarning tovushiga taqlid bildiruvchi soʻzlar: *bong-bong, chiq-chiq, taka-tum-tak*. M., *Jim-jitlik choʻkkan, hattoki soatning chiq-chiqi mixni qoqayotganm bolgʻaning ovozidek tuyulardi*;

o) transport vositalarining tovushiga taqlid soʻzlar: *di-dit, gʻuuuv, bip-bip, shaqa-shaq, vuuuuu(poyezd), tiqir-tiqir, trrr-trr-trrr*. M., *Poyezdning shaqa-shaq ovozi meni doimgidek allalab qoʻydi*.

Holatga taqlid soʻzlarning tasnifi:

a) kishilarning holatiga taqlid bildiruvchi soʻzlar: *dir-dir, alang-jalang, lang, zirq-zirq, loʻq-loʻq, shart-shurt, yum-yum(yigʻlamoq), sim-sim(ogʻrimoq), gʻij-gʻij (aql), gʻing-ping, zir-zir, shartta-shartta, shuv, moʻlt, dik-dik, shov-shuv, pish-pish, hang-mang, lop, gʻivir*. M., *U yum-yum yigʻladi*;

b) kishilarning xususiyatlarini ifodalovchi holatga taqlid bildiruvchi soʻzlar: *jilpang-jilpang, jirt-jirt, qilpang-qilpang, lik-lik, liking-likang*. M., *Qizlarning jilpang-jilpang qilishi judayam yomon koʻrinardi*;

d) harakatning holatini ifodalovchi holatga taqlid bildiruvchi soʻzlar: *pildir-pildir, lapang-lapang, gir-gir*. M., *Nozima onasining tepasida gir-gir aylanardi*;

e) ob-havo taʼsiri natijasida paydo boʻladigan holatga taqlidni bildiruvchi soʻzlar: *dagʻ-dagʻ, dir-dir, qalt-qalt, lov-lov, jiz-jiz*. M., *Sovuqdan tanamiz dagʻ-dagʻ qaltirardi*;

f) yorugʻlik, nur taʼsirida paydo boʻluvchi holatga taqlid bildiruvchi soʻzlar: *lip-lip, milt-milt, jimir-jimir, yalt-yalt, yalt-yult, yaraq, yal-yalt*. M., *Chirogʻimiz lip etib oʻchib qoldi*;

g) tabiat hodisalarining holatiga taqlid bildiruvchi soʻzlar: *guppa-guppa, guv-guv, gup, jimir-jimir, sharros*. M., *Birdaniga yomgʻir sharros quydi*;

h) oʻsimliklarning holatiga taqlid bildiruvchi soʻzlar: *gʻuj-gʻuj, gʻir-gʻir, hil-hil, duv-duv*. M., *Mevalar duv-duv toʻkildi*;

Taqlid soʻzlar shaxslarning, jonli-jonsiz narsalarning, nutqi, harakat-holatlari asosida paydo boʻladigan soʻzlardir. Tilimizda nutqiy taʼsirchanlik, obrazlilikni oshirishda keng imkoniyatlar yaratadi. Semantik, pragmatik maʼno xususiyatlariga koʻra nutqda faol qoʻllaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Anorbekova, Sh.Mirzayeva. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. T.:Noshir.2012. – 156 b.

2. A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh.Yusupova. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. 2-kitob. T.:Ilm ziyo.2013. – 410 b.

3. R.Sayfullayeva va boshqalar. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. T.2009. – 257 b.

4. U.Tursunov, A.Muxtorov, Sh.Rahmatullayev. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. T.:Oʻzbekiston.1992. – 394 b.

AJRATILGAN IZOH BO‘LAKLI GAPLAR AKSIOLOGIK MODALLIKNING IFODALOVCHISI SIFATIDA

Boymatova Dilnoza, JDPI o‘qituvchisi

Modallik kategoriyasining mazmuni nutqiy-aqliy faoliyat jarayonida shakllanadi va ma’lum matnda, mutloq vaziyatda voqelanadi, bu ifodalilik sub’yekt tomonidan amalga oshiriladi. Sub’yektiv modallik turlari ichida aksiologik modallik qamrov jihatdan kichikligi va mazmun doirasining kengligi bilan ajralib turadi. Sababi modallikning bu turida subyektiv baho qadriyat – tushunchalarga nisbatan beriladi. Sub’yektning ob’yektga munosabati va bu munosabatning voqelanishida ob’yektning sub’yekt uchun ahamiyatli tomoniga e’tibor qaratilib, alohida urg‘u beriladi. Demak, aksiologik baho ob’yektning ahamiyatli tomoni, qiymatini belgilovchi faoliyat jarayonidir. Ushbu faoliyat sub’yekt tomonidan bajarilib, uning asosida ma’lum bir tanlov yotadi hamda ob’yektga shu tanlov asosida ijobiy yoki salbiy baho beriladi. Baholash dastlabki o‘rinda sub’yekt-ob’yekt munosabatida, ya’ni sub’yekt tomonidan ob’yektning muhimligi, e’tiborga molikligi, miqdor va sifat jihatdan ajralib turishini aniqlash jarayonida hosil bo‘ladi. Ushbu jarayonda sub’yekt ob’yektning baholanayotgan xususiyatini ideal namuna yoki me’yorga qiyoslaydi hamda ushbu me’yorga qay darajada mos kelishi yoki uzoqlashishiga nisbat beradi. Nihoyat barcha “o‘lchovlar” bosqichidan o‘tgan baho biror lisoniy belgi vositasida voqelanadi. Bahoning yuzaga kelishi va baholash harakatining faollashuvi uchun mantiqiy asos talab qilinadi. Baholash harakatining mantiqiy asosida emotsiya intentsiyasi yotadi [2,184-185]. Ajratilgan izoh bo‘lakli gaplarda aksiologik modallikning ifodalanishi muallifning pragmatik maqsadi va talabiga bog‘liq jarayondir.

Matnda ob’yekt va sodir bo‘layotgan voqea-hodisa haqida birdaniga batafsil ma’lumot berish qiyin. Shuning uchun ham nutq obyekti haqida umumiy, hamma uchun ma’lum bo‘lgan ma’lumotlar oldin beriladi, uning ajralib turuvchi belgilari esa keyin qo‘shilib, bu haqdagi tushuncha to‘ldiriladi. Nihoyat, ifodalanmay qolgan belgini aniqlastirish, shaxsni, voqea-hodisani o‘quvchi ko‘z o‘ngida to‘laroq aks ettirish uchun gap tarkibiga qo‘shimcha so‘z va so‘z birikmalari kiritiladi. Bunday qo‘shimchalar ko‘pincha sub’yektning niyati, xohishi bilan amalga oshadi. Tilshunoslikda o‘zidan oldingi bo‘lakni izohlaydigan ana shunday bo‘laklar ajratilgan bo‘lak yoki izohlanma bo‘lak deb yuritiladi: *-Tangrim, agar o‘rningda sobit bo‘lsang, uning-bandangning ishqini olib, yuragimga o‘zingning ishqingni sol (Salomat Vafo, “Qora beva”).*

Tilning kommunikativ ta’sir vositasi sifatida talqin qilinishi uni an’anaviy tamoyillar asosida mavhumlashtirish va asosiy e’tiborni nutqiy muloqot muammolariga qaratish imkoniyatini yaratadi, chunki lingvopragmatika lisoniy faktlarni insonning nutqiy faoliyati doirasida o‘rganishga yo‘naltirilgan. Boshqacha aytganda, pragmatikaning asosiy maqsadi muloqot jarayonini aniq nutqiy vaziyatlarda o‘rganish va tahlil qilish va izohlashdan iboratdir. Ma’lumki, nutqiy muloqot markazida so‘zlovchi va tinglovchi turadi. So‘zlovchi nutq

muallifi sifatida o'ziga ma'qul va ma'lum bo'lgan axborotni uzatish bilan chegaralanadi. Tinglovchi tomonidan esa eshitilgan axborot qabul qilinadi, o'z imkoniyati doirasida qayta ishlanadi, tasavvurida gavdalanadi hamda bunga o'zining sub'yektiv munosabatini bildiradi:

-Assalom, qizim.

Enam, bundan besh yil burun olamdan o'tgan enam qoshimga yetib kelgandi.

-Ko'p yanglishasan-da, bolam. Axir men senga aytgandim-ku? (Salomat Vafo, "Qora beva")

Keltirilgan matn parchasida so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi nutqiy muloqot notabiiy yo'sinda amalga oshmoqda. Chunki ushbu muloqot ishtirokchilari-kommunikantlardan biri "dunyodan o'tgan" shaxsdir. Kitobxon bunday notabiiylikni ajratilgan izoh bo'lak ifodalagan ma'no orqali bilib olishi qiyin emas. Zero, aqliy va nutqiy faoliyatda mavhumlikdan aniqlikka ko'chish bosqichi modallikning shakllanishida eng muhim bosqich sanaladi. Badiiy matnda tanlangan obyekt tasvirining mavhum yoki aniqligini ajrata bilish sub'yektning ongdagi zahirasi va lisoniy bilimi bilan bog'liqdir.

Hozirgi kunda inson nutqiy faoliyati va uning natijasida hosil bo'ladigan lisoniy tuzilmalar tilshunoslarning e'tiborini keng jalb etib kelmoqda. Nutqiy muloqot muammolariga nisbatan uyg'ongan bu qiziqish o'zining chuqur ob'yektiv qonuniyatlariga ega, chunki til hodisalariga nisbatan antropotsentrik yondashuv Vilgelm Fon Gumbolt tadqiqotlaridayoq o'z aksini topgan edi. Bu antroposentrik yondashuv asosan, nutqiy faoliyat va nutqiy jarayonda aks etadi.

Kishilarning voqea-hodisalarga bo'lgan munosabati nutqiy jarayonda turli xil ifoda va tasvir vositalari yordamida o'z ifodasini topadi: *Meni, kun ko'rmay hayot shami so'nayotgan jigarlarini o'ylab, ularning yuraklari pora-pora bo'lmasin deb, dardimni ichga yutib kelayotgandim. (Zulfiya Qurolboy qizi, "O'lim hech narsa emas")*

Yuqoridagi matn parchasida muallif nutqiy ta'sirchanlikni oshirish maqsadida metaforalardan unumli foydalangan. Matnda qo'llangan metafora (*hayot shami*) o'z idiolektida reallashgan xususiy yashirin ma'nolarni implitsit tarzda ifodalash uchun xizmat qilmoqda. Zero, "metaforalar eng ko'p badiiy ijodiylikni talab etishi bilan boshqa badiiy tasvir vositalardan farq qiladi. Metafora yaratish ijodkordan keng dunyoqarash, olam va odam haqida chuqur fikr yurita olish, ruhiyat va tabiatni yaxshi bilishni talab etadi. Metafora obrazning nafaqat tashqi qiyofasi, balki uning ruhiy olamida kechayotgan holatlarni tinglovchi yoki o'quvchi kutmagan favqulodda badiiy hukm asosida tasvirlash yoki ifodalashga yo'l ochadi" [3, 9-10.]

Ma'lumki, badiiy nutqda baho munosabati ifodalovchi sifat leksemalar emotsional-ekspressivlikni hamda yozuvchi uslubining o'ziga xosligini ta'minlovchi, shuningdek, personajlar nutqini individuallashtiruvchi asosiy vositalardan [1,107] biri sanaladi. Baho munosabatini ifodalovchi sifat leksemalarning uslubiy vosita sifatida muhim ahamiyatga ega ekanligi, ayniqsa, personajlar tasvirini berishda yaqqol ko'zga tashlanadi: *Direktor-to'ladan kelgan, baland bo'yli, tilla gardishli ko'zoynak taqqan salobatli ayol-Nafisaga sinovchan*

tikilib turdi-da, so'ng "zavuch"ga yuzlandi. (Zulfiya Qurolboy qizi, "Yovuzlik farishtasi") Yuqoridagi parchada qo'llangan to'ladan kelgan, baland bo'yli, tilla gardishli ko'zoynak taqqan salobatli ayol kabi so'z birikmalari vositasida berilgan eksplisit ifoda personaj portretini tasvirlashdan tashqari, ijobiy baho munosabatini ifodalamoqda. Mana bu parchada esa yuqoridagi holatning aksi kuzatiladi: *Nazoratchilar orasida uni-ko'kko'z, badqovoq xotinni ham ko'rdim. (Salomat Vafo, "Ovoraning ko'rgan-kechirganlari")*

Parchada qo'llanilgan ko'kko'z, badqovoq leksemalari muallifning salbiy munosabatini ifodalab, personaj xarakter-xususiyatlari ular vositasida oydinlashmoqda. Demak, har ikki matn parchasida ham dastlabki o'rinda muallif munosabati aks etadi. Bu munosabatni ifodalashda matndagi izohlanma bo'laklarning ishtirokini alohida ta'kidlash zarur. Zero, "gap tarkibidagi izohlanma bo'laklar ma'lum bir modallikni, ya'ni muallif gapning biror bo'lagiga ahamiyat berayotganini, uni bo'rttirib ko'rsatishini ifodalaydi. Bu orqali tinglovchi diqqati biror bo'lakning ma'nosiga alohida jalb qilinadi".[4, 136.] Bu bilan kitobxonda achinish yoki sevinish, g'azab yoki muhabbat, qoniqish kabi hislar paydo bo'ladi: *Onamning, shu turgan xotinning bag'riga otilsam, Xudoyim. U lahzaning baxtidan bul xotin-onam telba bo'lmog'i, telba dunyolaridan mastona hayqirmog'i tayin. (Salomat Vafo, "Qora beva")*.

Ajratilgan izoh bo'lakli matnlarda aksilogik baho muallif nazarda tutgan eksplitsit va implitsit ma'no orqali o'z ifodasini topadi. Bu ifodaviylik muallifning pragmatik maqsadi va talabi bilan namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR:

1. Пардаев З. Нутқ инновацияси ва уларда баҳо муносабатининг ифодаланиши// Ўзбек тили ва адабиёти, 2009, 4-сон.105-108 -б.
2. Сафаров Ш. Прагматингвистика.- Тошкент: ЎЗМЭ, 2008. 255 б.
3. Хасанов А.А. Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари тилининг бадииятини таъминловчи лексик-стилистик воситалар. Номзодлик диссертацияси автореферати. - Тошкент, 2010.9-26 б.
4. Қиличев Э. Ўзбек тилининг амалий стилистикаси.- Тошкент: Ўқитувчи, 1992. 159 б.

АЛИШЕР НАВОЙИЙ ЛИРИКАСИНИНГ ФАЛСАФИЙ ТЕРАНЛИГИ

Неъматова Сапура, ЖДПИ

Ўзбек адабиётшунослиги Навоий ғазалиётини тадқиқ этиш бўйича муайян ютуқларга эришган. Бироқ, бизнингча, Алишер Навоий ғазалларидаги тимсолларни бадиий санъатлар билан мутаносибликда ўрганишни янада чуқурлаштириш лозим. Зеро, Навоий ижоди, хусусан, ғазаллари бадиият, унинг унсурлари воситасида ҳар қандай маънони ифодалаш мумкинлигини исботлайди. Айни пайтда, Алишер Навоий дунёқарашининг Шарқ халқлари, жумладан, форс – тожик ҳамда туркий халқлар ижтимоий-маданий ва адабий ҳаётида кенг тарқалиб, чуқур илдиз отган тасаввуф фалсафасига туташishi шоир ғазалларини

ўрганишда уларнинг ботинига ҳам теранроқ назар ташлашга ундайди. Фақат образ тимсол ёхуд қўлланилган бадий санъатни эмас, балки рамзийликни ҳам эътибордан соқит қилмасликни, фақат зоҳирий мазмунни эмас, ички -ботиний мазмунни англашни ҳам талаб этади Алишер Навоий, Заҳириддин Муҳаммад Бобур ғазалларида воқеабанд байтларида шоирларнинг истак-орзулари акс эттирилади. Бу мумтоз адабиётнинг зиёбахш анъаналари асосида юзага келтирилади. Ва жамиятда яшаш қандай бўлиши кераклиги, кимлар тараққиётга қандай ҳисса қўша олиши намоян бўлади. Воқеабанд ғазаллардаги ижобий тимсол шоирнинг, ижодкорнинг ўзи бўлиши мумкин. Бундаги илғор савияли лирик қаҳрамон билимли, серғайрат, ёрқин ақл соҳиби бўлиши керак, албатта. Кўпинча бундай илғор шахс ёзувчининг, ижодкорнинг ўзи бўлиши мумкин. Ғазалда кўз тутган ғоя шунда амалга ошиши мумкин. Бу масалада шоир романтикадан ҳам ўринли фойдаланиши мумкин. Адабиётда романтиканинг ҳам роли баланд эканлиги, асарнинг ўқишли, мафтункор бўлишига бу ҳам сабабчи бўлади. Алишер Навоийнинг:

*Кеча келгумдур дебон ул сарви гулрў келмади,
Кўзларимга кеча тонг отқунча уйқу келмади.
Лаҳза-лаҳза чиқтиму чектим йўлида интизор,
Келди жон оғзимгау ул шўқи бадхў келмади*
деб бошланувчи ғазалидаги воқеабанд мисралар ўқувчини ўзига маҳлиё этади. Ушбу ғазалдаги воқеа таъсирида анъанавий тарзда Бобур ҳам ўзининг қуйидаги ғазалини яратади:

*Бу кеча кулбамга келди ул қуёшим ёшурун,
Қарнларда келмади ҳаргиз шунингдек кечқурун.
Оғзидек тор фурсати васлию ҳам ҳажри тун,
Ул муанбар сочи янглиғ ҳам қоронғу, ҳам узун.
То ҳаёли оразинг тушти кўнгилга ул қуёш,
Бўлди кўнглум бир ёнар ўтў сўнгакларим ўтун.*
Келтирилган матннинг биринчи қаторидаги мисраларда лирик қаҳрамон кулбасига қуёш янглиғ маъшуқанинг кириб келишидан хушнуд бўлгани ҳолда яна ул гўзалнинг бундай кириб келиши одатга, удумга ҳилоф ҳисобланиб, бундай воқеалар ҳар вақтда, узоқ йилларда бир марта рўй беришини ҳам ифода этади. Алишер Навоийнинг “Ваъдага вафо қилиб, вафога ваъда қилгил” деб бошланувчи ғазалига жавоб тарзида яратилган байтларига эътибор қаратамиз: Бобурнинг қуйидаги

*Ул аҳд ила паймон қани, эй ёр, не бўлди?
Ул лутф ила эҳсон қани, эй ёр, не бўлди?
Юз кўрсатиб эл ичида лутф этар эрдинг,
Ул лутфи намоён қани, эй ёр, не бўлди?
Жонимга даво сўзинг эди, сўзламадинг, оҳ,
Жон дардига дармон қани, эй ёр, не бўлди?
Мундоқму эди аҳдки, Бобурни унуттунг,
Ул аҳд ила паймон қани, эй ёр, не бўлди.*

Кейинги сатрларда телба ва беҳуд ҳолатга солган сенинг майгун лабларинг, ширин суханларинг, хумор кўзларинг эмасму ахир мен буларнинг жафосининг қайси бирини ҳам айтайин қайси биридан шикоят қилайин дейилмоқда. Лирик қаҳрамонни Бобур кийин аҳволга солиб қўйган “ул ойнинг қуёшдек чехраси” эканлигини, бу ҳижрон ва аламлар ўша қуёш чехра туфайли, унинг нозу-истиғноси эканлигини баён этади. Лирик қаҳрамон кечаю-кундуз санайди, яъни кечани бедор ўтказди. Бу бедорлик ўша ой юзлининг қуёш чехраси ҳажрида юз беради. Навоий “Шитоб айлаб” деб бошланувчи ғазалида:

Қуёшдек чехра бирла тийра кулбам айлагач равшан,

Менга титратма тушди зарра янглиғ изтироб айлаб,

гўзални, маъшуқали қуёшга, қуёш юзли деб таърифлайди. Мана шу ташбеҳ Бобурда ҳам такрорланган ҳолда Бобур ўша гўзалнинг таърифини “ул ойнинг” сўзи орттирилган. Ўша гўзалнинг латофотини мукаммал бериш мақсадини кўзлаган бўлса керак. Аммо шу ўринда “ул ойнинг” ташбеҳи ортиқчадек сезилади. “Қуёшдек оразу” деган тавсиф бир жойда “ул ой” тавсифи беҳожатдек туюлади. Чунки ой қуёшдан нур олиб бизга ёруғ, нурли бўлиб кўринади. Физикада ой қаро жисм дейилади. Демак қаро жисмга қуёш нури тушгач, ой ҳам нурли, ёруғ бўлиб кўринади. Бас шундай экан, қуёш деб таърифланган жойда ой сўзини қуёшдан ортиқча эканлиги ўз-ўзидан равшандир. Юсуф Хос Ҳожибнинг “Қутадғу билиғ” номли асарида ҳам Кунтуғди, Ойтўлди образларини яратади ва ўзининг ғоявий дастурини, асосан шу икки тимсол асосида баён этади. Асарда Кунтуғди-подшоҳ, Ойтўлди-вазир. Мамлакат бошлиғи, эгаси, подшоси сифатида кўрсатади. Туркий халқлар халқ оғзаки ижодида, қиссаларда кунтуғди, унинг бошига кун туғди дегани унинг бошига бахт қуши кўнди, бахтли бўлди деган маънони ўзида мужассам этган. Унинг бошига кун туғди, унинг омади келди, мамлакат эгаси эканлиги, ягона ҳукмдор бўлганлиги таъкидланади. Ойтўлди тимсоли ҳам гапирувчи ном сифатида вазирга нисбатан қўллаиди. Яъни вазир мамлакатнинг молиявий масалаларида, мамлакат қудрати, аҳолининг беками кўст ҳаёт кечиришида жуда катта рол ўйнайди. Яъни мамлакатнинг эгаси Кунтуғди бўлгани ҳолда, мамлакат тинчлиги, фаровонлиги ҳамма ҳаммаси Ойтўлдига боғлиқ. Агар Ойтўлди тадбиркор, подшоҳга содиқ бўлса, мамлакат экономикаси, иқтисодий аҳволи, ташқи давлатларда ҳам жуда катта обрўга эга эканлиги шу Ойтўлдига боғлиқ. Кўриниб турибдики, Навоийдаги ҳусни латофоти тўлишган Қуёш таъриф этилган жойда ойнинг тимсоли сал ноўринроқ кўринади. Шунинг учун қуёшга таъриф берилган жойда ойни унинг ҳуснига боқиб бўлмайди. Огаҳий бир муҳаммасида қуёшга боқиб бўлмаганидек қуёш чехрали гўзалнинг юзига боқиб бўлмаслигини ифода этади. Қуёш гўзаллиги Аллоҳ нури тажолласидан эканлиги, Оллоҳ жамолини кўришга дош беролмаган Мусо пайғамбар ҳаёти, унинг Аллоҳ жамолини кўришга иштиёқманд бўлганлиги, Аллоҳ жамолининг бир дамлик намоишига чидай олмай беҳуш бўлиб йиқилади ва бу хатоси учун Аллоҳ таоладан кечирим сўрайди.

Аллоҳ жамолининг тавсифи шу тариқа баён этилади Ҳамд ғазаллар Аллоҳга ҳамду санолар битилган, илоҳий муҳаббат куйланган ғазаллардир. Бу муҳаббат, бир томондан, шоирнинг диний қарашлари билан чамбарчас боғланган бўлса, иккинчи томондан, тасаввуф фалсафаси билан уйғунлашиб кетган. Аниқроғи, бу туркум ғазалларда дин ва фалсафа, ҳикмат ва ваҳдат, калом ва ҳадис илмлари ўз ифодасини топган. Шоир ҳамду санолар айтиш, нажот сўраш воситасида инсон, унинг инсонлик моҳияти ҳақидаги фикрларини ифодалашга муваффақ бўлади. Зеро, бу оламнинг яратилишидан мақсад одам, одамдан мақсад эса комил инсон эканлиги кўп бора айтилган, жумладан, шоирнинг ўз асарларида ҳам эътироф этилган:

Эй, нечуким дурни махфий асрабон Уммон аро,

Гавҳари ишқини тинҳон асраган инсон аро?

Чунки инсонни бу гавҳар бирла айлаб баҳраманд,

Сарфароз айлаб малойик хайли бирла жон аро.

Шундай экан, илоҳий муҳаббат, яни инсоннинг Аллоҳга муҳаббати асосида ҳам инсоннинг ўта нозик ва мураккаб ҳис-туйғулари мужассам. Навоий бу туркум ғазалларида инсон руҳий оламини ўзига хос бир йўл билан диний-сўфиёна билимлар асосида кашф этишга киришади.

Фикрларимизнинг хулосасида айтиш жоизки, мутафаккир ва аллома Алишер Навоий ижодиётига муҳаббат мумтоз адабиётда, хусусан, ғазал санъатида анъанавийликни сақлаш имконини беради. Заҳириддин Бобурнинг буюк даҳони ўзига устоз деб билгани боис, ғазал байтларида ўзаро муштараклик сезиларли даражада юзага келишига муваффақ бўлади. Илоҳий муҳаббат билан йўғрилган ҳамд, муножот ғазалларни тасаввуф фалсафасига боғлаб ўрганиш уларнинг моҳиятини теранроқ англашга, ғазалларни туғри тушунишга имкон

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Азимжонов С, Қаюмов А, Бобур. Ў-зФА 1960. .
2. Бобур, асарлари.
- 3 жилдлик, -Тошкент1966. .
3. Валихўжаев Б, Бобурнинг танқидий қарашлари, СамДу, 1958. .
4. Гулбаданбегим, “Ҳумоюннома” -Тошкент 1959.

FE`LNING VAZIFA SHAKLLARIGA KIRUVCHI RAVISHDOSH SHAKLINING QO`LLANISH XUSUSIYATLARI

Ro'ziyev O'lmasjon JDPI Talabasi
Ilmiy rahbar:f.f.f.d.Jumayeva Feruza

Ravishdosh asosan boshqa bir fe'l anglatgan harakatdan oldin bo'lgan yoki u bilan bir vaqtda bajariladigan harakatni ko'rsatadi, asosiy harakatning bajarilish holatini bildiradi. Ergash gapning kesimi vazifasida va hol vazifasida keladi.

1. Harakat tushunchasini anglatadi. Masalan: G'ulomjon tanish tovushni eshitib xushiga keldi.

2. O'timli-o'timsizlik, nisbat , bo'lishli-bo'lishsizlik va zamon shakllarini ifodalaydi. Masalan: G'ulomjon otasi yonida turib atrofqa qaradi.

3. Boshqa so'zlarni boshqarib keladi. Masalan : O'ktam ma'nodor iljayib, uning harakat va qiliqlarini kuzatib turdi.

4 Ba'zm qiyosiy daraja affiksi (-roq) ni qabul qiladi Masalan: Uning ba'zi qiliqlari senikiga o'xshabroq ketadi

5. Fe'lga bog'lanib, harakatning ikkinchi bir harakat belgisi sifatida anglatadi va gapda hol bo'lib keladi, bu vaqtda shaxs- son bilan tuslanmaydi . Masalan: Ko'm -ko'k vodiylarda po'lat izlardan kelayotir qora poyezd uchub, qarsillab.

6. Qo'shma gap tarkibidagi gapning shaxs ko'rsatmaydigan kesimi bo'lib keladi. Masalan: Shamol qo'zg'alib daraxtlarning uchi silkina boshladi.

7. Qo'shma fe'l analitik shakl tarkibida birinchi kompanet bo'lib keladi. Masalan: Tilini tishlab olgan odam tishini sug'urub tashlamaydi.

O'z xususiyatiga qarab ravishdoshlar ikki xil bo'ladi :

1. Tuslanadigan ravishdoshlar

2. Tuslanmaydigan ravishdoshlar

Tuslanadigan ravishdoshlarga shaxs-son affiksi qo'shiladi: borib-boribman, boribsan, boribdi.

Tuslangan vaqtda ravishdosh gapda kesim bo'lib keladi. Masalan: Biz ularni shaxarda kutib olamiz.

Bu ravishdoshlar tuslanmagan holda hol va ergash gapning kesimi bo'lib keladi. Masalan: Laziz soatiga qarab, shoshib o'rnidan turdi.

Tuslanadigan ravishdoshlar quyidagi affikslar bilan yasaladi.

Fel asosiga –b (ib) affiksini qo'shish bilan bu ravishdosh shaxs- son affiksi bilan tuslanib , felning kelasi zamon eshtilganlik shaklini hosil qiladi. Masalan: Ikki marotaba odam yuborganimda xotini unamabdi . Bu ravishdosh takrorlangan holda ishlatilib harakatning davomlilikini, takrorlab turganligini bildiradi. Masalan: Qizg'ish tutun buralib-buralib osmonga ko'tarilla boshladi.

2. Fe'l negiziga –a,-y affiksini qo'shish bilan. Bu ravishdosh shaxs-son affiksi bilan tuslanib, fe'lning hozirgi-kelasi zamon shaklni hosil qiladi. Masalan. Bir-birimizni juda do'st tutamiz, chunki birga o'sganmiz. Bu shakl tuslanmagan holatda hozirgi o'zbek tilida yakka holda qo'llanmydi, takrorlanib kelib, asosiy harakatning qaytarilib, davom qilib turishini bildiradi. Masalan Bugun jurnaldagi

rasminga tikila-tikila kulib qo'ydi. Fe'l-fe'l tuzilishiga ega ba'zi analitik shakllarda birinchi komponent shu ravishdosh shaklida keladi: ayta qol, o'qiy boshladi kabi; Tuslanmaydigan ravishdoshlar shaxs-son va zamon affikslarini olmaydi. Bu ravishdoshlar asosan tuslangan fe'llarga bog'lanib keladi, u ifodalagan harakatning holatini, payt, sabab, maqsad kabilarni bildiradi. Gapda ergash gap kesimi bo'lib keladi. Masalan: Parkdan chiqqach, qayoqqa borishini bilmay, bir zum turib qoldi.

Tuslanmaydigan ravishdoshlar quyidagi affikslar bilan yasaladi:

1. Fe'l negiziga –gani (-kani, -qani) affikslarini qo'shish bilan. Bu ravishdoshlar harakatning bajarilish maqsadini bildiradi. Masalan: Ulug' mukofot olganingizni eshitib, sizni tabriklagani keldim.

Badiiy asarda bu affiks –gali shaklida ham uchraydi. Masalan: Yana ikki ko'z ham berdim, yov kelganda ko'rgali.

2. Fe'l negiziga –gach(-kach, -qach) affiksini qo'shish bilan. Bu ravishdosh asosiy harakatning ravishdosh ifodalagan harakat tugashi bilan boshlanishini bildiradi. Masalan: Ra'no ko'chaga chiqqach qadamini tezlatdi.

3. Fe'l negiziga –guncha (-kuncha, -quncha) affiksini qo'shish bilan. Bu ravishdosh harakatning qay vaqtgacha davom etishini bildiradi. Masalan: Komila kelguncha tokchadagi kitoblardan birini olib o'qishga kirishdi.

Tuslanmaydigan ravishdosh, odatda, fe'l anglatgan asosiy harakatdan oldin yoki u bilan bir vaqtda bajarilgan harakatni belgi sifatida ko'rsatadi. Masalan: Endigi ko'rgazmaga tomosha qilgani emas, hunarimni ko'rsatgani boraman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. U. Tursunov, A. Muxtorov "Hozirgi o'zbek adabiy tili" Toshkent. 1992.
2. Sh. Raxmatullayev "Hozirgi o'zbek adabiy tili"
3. R. Sayfullayeva "Hozirgi o'zbek adabiy tili"
4. Qalandar Sapayev "Hozirgi o'zbek tili"
5. Nargiza Erkaboyeva "Hozirgi o'zbek tilidan ma'ruzalar toplami"
6. Sh. Shoabdurahmonov "Hozirgi o'zbek adabiy tili" Toshkent. 1980.

“ФАРЁД” ҚИССАСИ ТАЛҚИНИ

Паризод Туропова ЖДПИ

Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмасининг аъзоси Абдулла Аҳмад “Ҳамият”, “Қирмизи атиргул”, “Ўлимга тик боққанлар” каби китоблари билан китобхонларга яхши таниш. Зеро, “Сир—синоатга тўла табиатда ақл бовар қилмас ажойиб ҳодисалар ва ҳайратомуз мўъжизалар рўй бериб туришини инкор этиб бўлмайди. Аммо, бадий ижод жараёни ўзига хос, мураккаб руҳий бир олам. Унда ҳеч ким эртақлардаги сингари сеҳрли хум ё қалпоқча қудрати билан бир амаллаб шоир, ё ёзувчи бўлиб қолмайди. Чинакам ижод ҳамиша юксак бадий тафаккур ва санъаткор қалбидаги дард ё қувончининг ифодаси бўлиб майдонга келади... Абдулла Аҳмаднинг мазмунли ҳаёти ва ижод йўлига назар ташласак ана шу азалий ҳақиқатига

яна бир карра амин бўламиз”⁶⁸. Дарҳақиқат, адибнинг айниқса, “Фарёд”, “Олисдаги соялар”, “Алвидо, севгилим” киссалари ўзига хос ифода усулига эгаллиги билан диққатга сазовор.

Қисса Шўро даври воқеалари, хусусан Ўрта Осиё бойларининг ҳукумат томонидан таланиши, хўрланиши мавзусини ёритишга бағишланган. Қиссанинг бош қаҳрамони Олимбойвачча ва унинг оиласи мисолида тарих кўз ўнгимизда жонлантирилади. Китобхон асарни ўқир экан, мисли кўрилмаган адолатсизликларнинг яна бир карра шоҳиди бўлади. Асар Олимбойваччанинг Тошкентдан қайтиши ҳолатини тасвирлаш билан бошланади. Адиб маҳорати шундаки, қаҳрамон қиёфасида, унинг хатти–ҳаракатларида юртимиз бошига келаётган совуқ шамоллар ишонарли жонлантирилади: “Олимбойваччанинг авзойи бузуқ. Кеча Тошкентда бўлиб, бойлар билан гурунглашгач, руҳи синди. Большавой деган очофат ҳамма бойларни, ҳатто ўртаҳол деҳқонларни талаётган эмиш. Унинг дастидан на ўрада ғалла, на кўрада қўй, на далада ҳосил қолаяпти. Бир умр пешона тери билан йиққан–терганингга қайсидир нобакор эга чиқса, сочиб совурса, қандоқ чидайсан?”⁶⁹.

Ёзувчи воқеалар ривожини икки линияда олиб борадики, бу ҳам асар охирига бориб ойдинлашади. Қисса воқеалари шиддат билан ривожланади. Олимбойваччанинг бобоси Юсуфбек Эрназарбой бобоси каби ер эгаси бўлиш билан бирга савдога аралашиб водийга қатнаган ва Асакага борганда дурадгор сандиксоз билан кадрдонлашади, унга шогирд тушиб тўрт ой иш ўрганади. Сандиксознинг якка–ю ягона қизи Ойсари ва акасидан қолган қиморбоз, ахлоқсиз жияни Талхатдан бошқа яқини йўқ эди. Шу сабабданми у Юсуфбекка меҳр қўйган, уни ўз ўғлидек яхши кўрарди. Такдирнинг ўйинини қарангки, иккала ёш ҳам бир–бирига бефарқ эмасди. Лекин ҳаёт доим инсон истагандай бир текисда кетмайдик, бу ҳам асарда ўз бадий ифодасини топган. Олимбойваччанинг бошига оғир кунлар келди. Асар воқеалари ҳеч кимни бефарқ қолдирмайди. Ўн чоғлиқ қуроолланган аскар билан Андрей Бойчев келиб, Олимбойвачча, хотини Зийнатойнинг қўлига кишан уриб, қизи Дилхуморнинг қўлини эса арқон билан боғлаб, эллик пуд ғалласини, тахмонида турган сандиғига, уларнинг чирқилашларига қарамасдан аравага жойлашди.

Юқорида айтганимиздек, воқеалар ривожини икки линияда давом этар экан, хафақонлик касалигига чалинган Ойсарининг мўйсафид отаси қиморбоз жияни Талхатга ишонмай, Юсуфбек билан бирга Оқтулпорини арава қўшиб табиғга жўнатишга мажбур бўлади. Йўлда уларга бўрилар ҳужум қилди. Юсуфбек жон–жаҳди билан охириги куч қолгунча курашиб, Ойсарини ҳимоя қилди. Юсуфбекдек инсоннинг невараси Олимбойвачча ҳам оиласини большевик аталмиш бўрилардан қутқариш учун чунон

⁶⁸ Қосимов У. Ибратли ҳаёт ва машаққатли ижод сабоқлари // Абдулла Аҳмад. Ҳамият. – Т.: Yangi nashr, 2015. –Б.3.

⁶⁹ Аҳмад Абдулла. Ҳамият. –Т.: Yangi nashr, 2015. –Б.6. (Бундан кейинги иқтибослар шу нашрдан олинади, бети қавс ичида кўрсатилади).

ҳаракат қилмасин, имконини топа олмайди. Уларнинг хўрлашларидан ҳушидан кетган аёлини кўриб, кўрқиб кетади. Бир кечада ўн йилга қариган, юзлари сўлиб, кўкариб кетган Зийнатой тонгда омонатини топширади.

Асарнинг энг кульминацион нуқтаси унинг жанозаси жараёнида яққол намоён бўлади. Аёли дафн этишга ҳозирлик кўраётган Олимбойваччани елкасига кўндоқ билан уриб, қўлларини кишанлаб: “Сенларни дастингдан қирқ йиллик қадрдон хотинимдан айрилиб ўтирибман—ку. Ахир муштипаримни сўнгги манзилга элтай! Қиёмат қарзимни узай” (26–27 бет) деб зорланишларига қарамай, унинг боғини талон–тарож қилишларини ўз кўзи билан кўриши учун олиб кетишади. Отасининг орқасидан борган ўғли Қобилжон, уни кўриб ҳуши бошидан учади. Бечора отаси қўли кишанланган, жазирама офтобда ётар эди. Қобулжон бу ҳолни кўргач отасини олиб кетмоқчи бўлади, лекин Андрей Бойчев терслик билан рухсат бермайди: “—Тирмизак, ҳаддингдан ошма, отанг бизга керак.

—Керак бўлса офтобда тоблаб, ўлдирмоқчимисан? Золим, аблах.

—Тилингни тий, ҳозир авахтага ташлайман!

—Кўрқитма, босқинчи, сенга ялинадиган манқурт йўқ!

—Бас қил, ит эмган. Ҳозир йигитларга айтаман, мажаклаб ташлашади. .. Ҳозир бўғзингдан дарча очдираман!... Жаҳли чиққанидан ўзини тутолмай қолган Қобулжон Бойчевнинг қобирғасига кетма–кет пичоқ санчди” (32–бет).

Ахир, Қобулжон йўлда бўрилар билан якка ўзи олишган, отининг ўлиmidан сўнг Ойсарини аравага ўтқазганча уни бир ўзи судраб келган Юсуфбекининг авлоди эди—да. Уни ҳам дов юраги бор, лекин буни номард большевиклар тушунарми, ё қадрига етармиди?

Андрей Бойчевнинг ўлиmidан кейин унинг ўғлини қамокқа олиб ўзларича суд қилган Шўро ҳукумати вакиллари унинг учун ўлимни, лекин қандай ўлим, осон эмас, шафқатсиз ўлимни раво кўришишди.

“—Гап шу—, деди Афанасьев кистасидан “Казбек” олиб тутатиб, — Қобулни осиб ўлдирамиз. Буйруқ бераман. Очиқ майдонга баланд дор қуришади... Бу ерлик қора халқ рус зобити билан, совет ҳукуматининг Туркистондаги вакили билан “ҳазиллашиш нималарга олиб келишини яхши билиб қўйиши керак” (40–бет).

Асарда бир ўзбек оиласи бошига Шўро ҳукумати томонидан ёғилган балолар Олимбойвачча оиласи мисолида ёритиб берилади. Аёли Зийнатойни улар томонидан ўтказилган тазйиқларга чидолмай юрак хуружига учраб ўлиши, қизи Дилхуморнинг хасталаниб қолиши, ўзларини кимсасиз чўлга сургун қилишлари етмагандай, ўғли Қобулжоннинг дорга тортилиши, буларнинг барчаси Олимбойваччани йиқитди, тўшакка михлаб қўйди.

Маълумки, асарда образлилик асар оҳанги, воқелик йўналиши, қаҳрамонлар руҳияти тасвирида ёзувчи услуби алоҳида ўрин тутди. Бинобарин, “Санъаткор доимо минглаб сўзлар ичидан энг керагини танлайди, заргарона танланган ана шу сўзлар қаҳрамон ва шароитнинг

мазмун (ғояси), ҳолати билан чамбарчас боғланиши, у аниқ эстетик мақсад (мазмун)ни воқеъ қилиши шарт”⁷⁰. Бундан кўриниб турибдики, ҳар қандай сўз бадиий асарда ўз “юки”га эга бўлиши керак. Худди шу нарса Олимбойваччанинг тушида Юсуфбек сўзлари ва оқ отида суворий бўлиши орқали намоён бўлади: “Чорбоғни кезиб юрибди. Атроф ҳувиллаган. Кундалар, ёндирилган шох–шаббадалар. Кечаги эрабий боғ мазористонни эслатарди. Ногаҳон бобоси Юсуфбек пайдо бўлди. У оқ отида. Чехраси ташвишли. Кўзлари ғазабнок: “Мен яратган боғ қани? Қани гулзорлар?!” – дермиш аламзада товушда. “Ҳаммаси наҳот тугади? Нечун бу қора юраклар даф бўлмас?! Йўқ! Йўқ! Йў–қ!!!, –арслондай ўқир ибди бобоси. – Босқиннинг умри қисқа. Иншоолло, кунпаякун бўлгай!” Бобоси шу гапларни айтиб, қамчинни бостирди. Учқур бедов уфқ томон шамолдай елиб кетди” (44–45 бет). Моҳирона яратилган бу тасвир қиссанинг умумий мазмунига ҳаётий бир оптимистик руҳ бағишлайди.

Ўзбек халқига хос мардлик, соддалик, поклик, ростгўйлик каби хислатлар Қобулжон образида ўз ифодасини топган бўлса, орият, миллий ғурур туйғулари Юсуфбек ва Олимбойвачча тимсоллари мисолида чуқур психологик контрастда талқин этилган. Демак, ҳар бир ёзувчининг услубий ўзига хослиги шаклланиши натижасида бадиий асар мукаммаллашади, ғоявий–эстетик ва композицион жиҳатдан ҳам етукликка эришилади. Катта ҳаётий ва ижодий тажрибага эга бўлган истеъдодли адиб Абдулла Аҳмаднинг ушбу қиссаси чуқур миллий руҳ билан йўғрилган тили ва услуби ҳам шакл ва мазмун мутаносиблигини таъминлаганлигини таъкидлаш ўринли бўлади.

ЖАМИЯТ РИВОЖИДА ТИЛНИНГ ЎРНИ

**Тўлаганов Сухробжон.ЖДПИ талабаси
Илмий раҳбар З.Жумаева ЖДПИ**

Одамзод бир неча миллион йиллик ривожланиш тарихини босиб ўтган бўлса, ҳеч шубҳасиз айтиш мумкинки, айнан онгли таълим-тарбия пайдо бўлгачгина, инсон сифатида шакллана бошлаган. Инсоният тўплаган тажрибаларини, анъана ва урф-одатларини ўзидан кейинги авлодларга мерос қолдириб, ўз давомчиларига муайян давр талаблари даражасида таълим-тарбия бериб келган.

Инсоният қачондан бошлаб онгли ҳаракат қила бошлаган деган саволга аниқ жавоб бериш қийин. Бизнингча, бу инсон нутқ товушларини ажрата бошлаган пайтга бориб тақалса керак. Маълум бир давр мобайнида одамлар онгининг шаклланишига ғор деворлари ва қоятошлар хизмат қилиб келган. Улар қоятошларга расм чизиб болаларига ҳайвонларни қандай овлаш, уларни тутиш йўллариини ўргатгани ҳам маълум. Буни юртимиздан топилган бир неча минг йиллик қоятош суратлари ҳам исботлайди. Энди

⁷⁰ Умуров Х. Адабиётшунослик назарияси. –Т., 2004. 149-б.

қиёсан тасаввур қилинг, инсоният бугун таълим-тарбия, соҳасида қандай ютуқларга эришган?

Демак, тарихнинг ҳар бир даврида фуқароларнинг онгини шакллантириш ва бу йўл орқали жамият ривожини белгилаш муҳим ҳисобланган. Ҳар бир даврда маълум бир манбаалар (қоятош суратлари, турли хил кўринишдаги битиклар, китоблар, ОАВ ва ҳаказо) инсоният онгининг шаклланишига, тафаккур тарзининг кенгайишига ўзига хос хизмат қилиб келган.

Хозирги давр таҳлилчиларнинг фикрига кўра жамият ривожининг шаклланишига таъсир кўрсатувчи онгининг шаклланишига унча манбаа хизмат қилар экан:

Биринчи манба — инсоннинг оилавий муҳитидир. Сиёсий ғоялар ва ҳиссиётлар унга оиладаги тарбия орқали берилади. Бунга тўғри келувчи ижтимоий — руҳий қарашлар — сиёсий онгнинг пойдеворини барпо этади. Унинг негизида эса фуқаро шахси шаклланади.

Иккинчи манба — бу кенг маънодаги ахборотдир. У инсонга ҳам муомала, мулоқот орқали, ҳам оммавий ахборот воситалари (телевидение, радио, матбуот) орқали "кириб" боради.

Учинчи манба — бу индивиднинг шахсий тажрибасидир. Бу шахсий тажриба олинган билимни ағдар — тўнтар қилади ёки тасдиқлайди. Бироқ улар қандай ҳолатда ҳам сиёсий онгнинг шаклланиши ва ривожланиши жараёнига муҳим таъсир кўрсатади⁷¹.

Биз ҳар учала манбаани ҳам инкор қила олмаймиз, бироқ шуларни ичида иккинчи манба оммавий ахборот воситалари туркумига кирувчи китобнинг ўрни ҳақида тўхталиб ўтсак.

Индивид шахс сифатида шаклланар экан ҳаёти давомида кўплаб маълумотларни ўқиш ўрганиш айнан китоблар орқали диний ва дунёвий онгини юксалтириб боради. Инсон қанчалик билимли бўлса, унинг сиёсий баҳс-мунозараларида иштирок этиш эҳтимоли шунчалик юқори бўлади. У ўзини кичик бир мурувват эмас, балки ҳукуматга таъсир кўрсатишга қодир инсон, деб ҳисоблайди. Шахс қанчалик маълумотли бўлса, у муайян жамоат ташкилотларининг фаол аъзоси бўлиши, ўзини ўраб турган ижтимоий-сиёсий муҳитга ишонч билдириши эҳтимоли шунчалик юқори бўлади. Фуқароларнинг ўз фикрига эга бўлиши ўз навбатида давлат ва жамият ривожининг эртанги кунини белгилаб берувчи асосий омил ҳисобланади.

Бугунги кунда кўпчилигимизга ҳуш ёқадиган компьютерни яхши билиши, интернет тизимидан хоҳлаган ахборотни бир зумда олиши бу бизнинг ютуғумиз албатта. Лекин, интернет саҳифалари нафақат инсоният ақлининг маҳсули, балки илоҳий неъмат бўлган китобнинг ўрнини боса олишига кўпчилик кузатвчилар шубҳа билан қарашмоқда. Энг ачинарлиси, ёшлар орасида китобдан бегоналашув ҳолати яққол кўзга ташланиб қолди. Бу муаммо шиддатли даврда арзимасдек туюлиши мумкин бироқ, бунини

⁷¹ Г.Юсупова, Х.Жабборов, Х.Қосимова. "Сиёсат назарияси" Дарслик. Тошкент: – 2003

олдини олмаса эртанги кунда қарамликни келтириб чиқарувчи асосий муаммога айланиши мумкин.

Юртимизда ёшларнинг китобхонлик маданиятини ошириш учун амалга оширилаётган ислохотлар ҳам бежизга эмас, бинобарин, келажак авлоднинг камолоти илм олиш, билимли бўлиш билан белгиланади. Бу борада, Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 2017 йилнинг 12 январь куни “Китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини оширишга қаратилган” фармойиш эълон қилди. Бу эса ўз навбатида, юртимизда китобхонлик савияси ошишига, янгидан-янги сермазмун китоблар чоп этилишига омил бўлувчи муҳим қадамдир. Ана шундай имкониятлардан оқилона фойдаланиб, янгидан-янги нашрдан чиқаётган сермазмун асарларни ўқиб бориш ёшларнинг онги ўсиши, тафаккури теранлашиб, ўзининг мустақил фикрига эга бўлишига имкон беради.

Бугунги ахборот асрининг илғор технологияларисиз кунларимизни тасаввур қилолмамасак-да, тенгдошларимиз орасида китобга ошно бўлган ёшларнинг борлиги қувонарли ҳолдир. Кўча кўйда, транспортларда қўлларида китоб тутган инсонларни кўриб қувонамиз. Афсуски, баъзан ёшлар орасида қимматли вақтини беҳуда ишларга, хусусан, ҳаддан ташқари кўп компьютер ва қўл телефони ўйинларини ўйнаш, мазмунсиз фильмларни кўришга сарфлашлари тўғри эмас. Бунинг ўрнига, ўқишдан ташқари ўтадиган вақтини самарали ишлар учун режалаштириши мақсадга мувофиқдир. Айниқса, куннинг маълум қисмларини фойдали китоб мутолааси учун ажратиш муҳим аҳамиятга эга. Чунки, “ёшликда олинган илм тошга ўйилган нақш” янглиғ ўқиган китоби йиллар ўтса-да ҳаётда албатта асқотади.

АЛИШЕР НАВОЙИЙ АСАРЛАРИДА ҚЎЛЛАНИЛГАН МАИШИЙ ЛЕКСЕМАЛАР ҲАҚИДА

Хурийд Махаммадиев ЖДПИ

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини ошириш ҳақидаги фармони (2019-йил 21-октабр) ўзбек тилини тараққий эттириш борасидаги ишларнинг юксак чўққиси бўлди. Эндиликда бу соҳада қўйилган вазифалар ва уларнинг ижроси ўзининг ўта қизғин палласига кирмоқда. Зеро, Президентимиз 2019-йил 21-октабр куни ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқида таъкидлаганидек, “Дунёдаги қадимий ва бой тиллардан бири бўлган ўзбек тили халқимиз учун миллий ўзлигимиз ва мустақил давлатчилик тимсоли, бебаҳо маънавий бойлик, буюк қадриятдир”⁷².

Замонавий ўзбек тили ва адабиётимизнинг сарчашмаси бўлган ҳазрат Навоий ижодини ҳар томонлама ўрганиш, тарғиб қилиш миллий ўзлигимизни англаш, маънавиятимизни юксалтириш баробарида, давлат

⁷²Prezident Shavkat Mirziyoyevning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. Xalq so‘zi, 2019, 21-oktabr.

рахбари қайд этганидек, Ўзбекистоннинг жаҳон майдонидаги обрў-эътиборини оширишга хизмат қилади. Адабиёт тилдан айри бўлмайди. Буюк санъаткор асарлари тилини ўрганиш миллий тилимизнинг бугунги ривожланиш йўллари тўғри белгилашга ёрдам беради. Шу сабабли Президент Шавкат Мирзиёевич томонидан 2020 йил 19 октябрь куни келгуси йил буюк шоир таваллудининг 580 йиллигини кенг нишонлаш тўғрисидаги қарорнинг имзоланиши Навоий меросининг аҳамиятини сўзсиз тасдиқлайди. Ушбу ҳужжат билан бу бўйича амалга ошириладиган кенг қамровли чора-тадбирлар белгиланди. Жумладан, Алишер Навоий ҳаёти ва ижодий меросини илмий тадқиқ этишни кучайтиришга алоҳида эътибор қаратилган.

Эски ўзбек тилининг бойлиги ва жозибаси, унга хос кенг имкониятларнинг Навоий ижоди мисолида яққол рўёбга чиқиши тилшуносларни адиб меросининг тил хусусиятларини чуқур илмий асосда тадқиқ этишга ундаб келмоқда. Зеро, бадиий манбалар лексикасини ўрганиш ёзма асарлар яратилган давр адабий тилига хос хусусиятлар, луғавий сатҳ тараққиёти, лексик бирликлар семантикасини ёритишда аҳамиятлидир. Ёзма ёдгорликларда муайян давр адабий тили луғат фондининг асосий қисми акс этади.

Ўзбек тилшунослигида Алишер Навоий ижоди бўйича турли соҳаларга доир сўз ва терминлар лексик нуқтаи назардан махсус ўрганилган бўлса-да, «Хамса» дostonлари тилининг маиший лексикаси алоҳида тадқиқот мавзуси бўлмаган. Маиший лексика тарихини тадқиқ этиш, аввало, тилшунослик фани соҳасида, қолаверса, халқимизнинг моддий-маданий меросини тиклаш борасида катта аҳамиятга эга.

Шундан “Хамса” дostonларида қўлланилган уй-рўзғор буюмлари билан боғлиқ лексемаларга тўхталиб ўтамиз: буларга синоним сифатида арабча *суфра* лексемаси ва унинг *супра* шакли ҳам ишлатганини қайд этиш лозим. «Хайратул аброр»да бунга мисол бор:

Ёяр анга супраки, ул оч эмас,

*Берур анга тўнки, ялангоч эмас.*⁷³

“Садди Искандарий”нинг бир фасли сарлафҳасида *хон* ва *суфра* лексемалари синоним тарзда қўлланган:

“Искандарнинг Арастудин саволи ул бобдаким, зиёфат **хонин** не навъ очмоқ яхшидур ва мурут **суфрасин** не навъ ёймоқ мустаҳсан кўрунур ва дононинг ул бобда нукта сургони ва ҳикмат моидасидин Скандарга фойда етгургони”⁷⁴

Кўринадики, *дасторхон*, *хон*, *суфра* (*супра*) маълум ошхона буюмини *ифодалашда* синонимик қаторни ташкил қилган.

Пичок. Навоий асарларида шу шаклда қўлланган бу сўз қадимги туркий ёзма ёдгорликлар тилида, хусусан, “Қутадғу билиг” асарида *бичақ* шаклида ишлатилган. “Девону луғатит турк”да *бичак* шаклида берилган ва

⁷³ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдли. 7-жилд. -Т.: Фан, 1991. 153 бет

⁷⁴ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдли. 11-жилд. -Т.: Фан, 1993 й. 440 бет.

куйидаги мақол мисол сифатида келтирилган: “Неча йитик бичак эрса, ўз сабин йўнумас” (Пичоқ қанчалик ўткир бўлса ҳам, ўз сопини йўнмайди).⁷⁵

Пичоқ сўзи туркий қатламга мансуб бўлиб, “тиғ”, “қирра” маъносидаги **би** асосидан шаклланган.¹ **Би** асосига отдан феъл ясовчи **-ч** кўшимчаси орқали *бичмоқ* феъли ва унга от ясовчи **-ак** кўшимчаси кўшилиши натижасида **бичоқ** сўзи ясалган. Б ва п ундошларининг алмашинуви сабабли *бичақ*//*бичоқ* сўзи *пичоқ* шаклини олган.⁷⁶

“Фарҳод ва Ширин” достонида бу сўз иштирокидаги шундай байт учрайди:

Итик тешаларига ҳар қаро тоғ.

***Пичоқ** оллинда андоқким, сариғ ёғ.*⁷⁷

Ушбу байтда Фарҳоднинг иш қуроли бўлган тешанинг ўткирлиги ҳозирги ўзбек тилидаги «Пичоғи мой устида» иборасига мос келадиган ўша даврдаги «**Пичоқ** олдида худди сариғ ёғ» бирикмаси билан тавсифланган. Яъни, Фарҳоднинг теша шунчалик ўткирки, унинг олдида қора тоғ худди пичоқ остидаги ёғ сингари осон кесилади. Бу ўринда пичоқ ошхона буюми сифатида келтирилган. Мана бу мисолда эса бошқа юмушга мўлжалланган бу иш қуролнинг номи учрайди:

Йиғочеким қатикроқ бўлса зарра,

***Пичоқ** еткач бўлур андоқки арра.*⁷⁸

Навоий асарларида *пичоқ* сўзи ошхона анжоми сифатида ҳам, ҳарбий қурол сифатида ханжар сўзига синоним сифатида қўлланади.

Алишер Навоий асарларида кундалик турмушда фойдаланиладиган жуда ҳам кўплаб лексемаларни учратишимиз мумкин. Бу лексемалар бугунги кунда номланиши ва бошқа ижодкорларнинг асарларида яна бошқа сўз билан ифодаланиши эътиборлидир.

SON KATEGORIYASINING SEMANTIK TAHLILI

Aliboyeva Gulbahor JDPI talabasi
ilmiy rahbar: Jumayeva Feruza

Son kategoriyasining *-lar* ko‘plik shaklida “miqdoriy noaniqlik, ko‘plik va sifatliy bo‘linuvchanlik va bo‘linmaslik” kabi grammatik ma’nolar ifodalanadi⁷⁹. M. *Do ‘konda unlar bor*. Bu gapda miqdor noaniq, predmetning miqdori ko‘pligi ifodalanmoqda, shuningdek sifatliy bo‘linuvchanlik ham ifodalanmoqda. Ya’ni *unlar* deyilganida *-lar* affiksi yordamida unning turlarini ham tushinishimiz mumkin. Demak, *-lar* affiksi predmetning ham “miqdorini” ham “sifatini” ifodalashga xizmat qiladi. Uning umumiy grammatik ma’nosida “aniq”,

⁷⁵ Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Уч томлик. I том. –Т.: ЎзФА нашриёти, 1960 й. 366 бет.

⁷⁶ Примов А. Шарафуддин Али Яздийнинг «Зафарнома» асаридаги маиший лексикага оид сўзлар ҳақида. / “Ilm sarchashmalari” ilmiy-metodik jurnal. Urganch, 2020, 1-сон. 140 бет.

⁷⁷ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдли. 8-жилд. –Т.: Фан, 1991 й. 90 бет.

⁷⁸ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдли. 8-жилд. –Т.: Фан, 1991 й. 92 бет.

⁷⁹ R.Sayfullayeva, B.Mengliyev va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, Fan va texnologiya, 2009. – B 153.

“noaniq”, “sifat”, “bo‘linuvchan”, “bo‘linmas” kabi ma’nolar kategoriya markazidagi “miqdor” ma’nosiga bevosita daxldor emas. Ammo bu daxldor emaslikni umumiy grammatik ma’nodan tashqari deb tushunmaslik kerak. Sababi *-lar* affiksi “miqdor ya’ni ko‘plik” ma’nosini ifodalab ekan, bir paytning o‘zida u yana “noaniq”, “bo‘linish, bolinmaslik”, “sifatiy” kabi ma’nolarni ham ifodalab keladi. Demak, son kategoriyasi shaklida miqdor kategoriyasi sifat kategoriyasi bilan birga yashaydi, u bilan doimiy bog‘lanishda bo‘ladi. Boshqacha aytganda “miqdor” belgisi hech qachon “sifat” belgisiz yuzaga chiqmaydi. Nutqda bu jarayon birining susayishi boshqasining kuchayishiga, birinchisining kuchayishi ikkinchisining susayishiga olib keladi. M, Bog‘da olmalar bor. Gapida *-lar* affiksi miqdoriy belgisi ham (ya’ni ko‘plik) ma’nosi ifodalanmoqda, shuningdek sifatiy belgi (bo‘linuvchanlik tur, xil, nav) kabi ma’nolar ham ifodalanmoqda. Bu gapda “miqdor”(ko‘plik) belgisi susayib, “sifatiy” (tur, xil, nav) belgisining kuchayganligini ko‘rishimiz mumkin. Ammo ko‘plik “miqdor” belgisi ham yuzaga chiqmoqda. Bundan ko‘rinadiki grammatik shakl umumiy grammatik ma’nosi tarkibiy qismlaridan biri uning mohiyati bo‘lsa (sonda miqdor) boshqalari unga yondosh mohiyatga mansub bo‘lmagan, biroq u bilan doimiy yaxlitlik kasb etgan ma’no (sonda bo‘linuvchanlik) ma’nolaridir. Shuning uchun grammatik shakl umumiy grammatik ma’nosi tahlilda kategoriyal ma’noni va unga yondosh ma’noni farqlaydi. *-lar* affiksi umumiy grammatik ma’nodan tashqari quyidagi ma’nolarni ifodalaydi:

1. Narsaning turini, navini, xilini ifodalaydi: Do‘konga yog‘lar, suvlar keltirildi.

2. Jamlik ma’nosini ifodalaydi: Farhodlar keldi.

3. Hurmat ma’nosini ifodalaydi: Dadamlar ishlayaptilar.

4. Kinoya ma’nosini ifodalaydi: Xonimlari tashrif buyuribdilar-da.

5. Kuchaytirish ma’nosini ifodalaydi: Boshlarim og‘rib ketti.

6. Chama, taxmin ma’nosini ifodalaydi: Soat beshlarda boradi.

Bu ma’nolar shaklning umumiy grammatik ma’nosi tarkibiga kirmaydi. Bunday ma’nolar hamroh ma’no deb yuritiladi⁸⁰.

Demak, *-lar* affiksining kategoriyal ma’nosi “miqdoriy ko‘plik” uning mohiyatini va umumiy grammatik ma’nosining asosini tashkil etadi. Yondosh ma’nosi (“sifatiy” bo‘linuvchanlik va bo‘linmaslik) umumiy grammatik ma’noga kirsada mohiyat tarkibiga kirmaydi. Hamroh ma’no esa shakl mohiyatiga ham umumiy grammatik ma’nosi tarkibiga ham kirmaydi.

O‘t so‘z turkumida ko‘plikning ifodalanishi: Otlarga xos morfologik belgilardan biri uning grammatik son kategoriyasiga ega bo‘lishidir. Bunday morfemalar tuzimiga sonlash morfemalar paradigmasi deyiladi³. 1. Atoqli otlarda: Mantiqan atoqli ot yakka predmetni ifodalab keladi. M. Sherzod, Toshkent. Aynan shu ismlarga *-lar* ko‘plik affiksini qo‘shganimizda “miqdor” semasi bir necha predmetni atab keladi, lekin shunda ham har gal yakka predmet

⁸⁰ R.Sayfullayeva, B.Mengliyev va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, Fan va texnologiya, 2009. – B 154.

³Sh. Rahmatullayev “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” T.: “Universitet” 2006. 133 b.

saqlanib qoladi, faqat “baho” semasida o‘zgarish yuzaga keladi. M. Shaxs nomida: Sherzodlar keldi. So‘zida “miqdor” semasi mantiqan ko‘p shaxsni atab kelmoqda, shunday bo‘lsa-da yakka Sherzodning o‘zi saqlanib qolmoqda. Faqat –lar affiksi yordamida “sanash” semasi yuzaga chiqadi va –lar affiksi bu so‘zda “xususiy” ma’no kasb etadi. Joy nomida: Toshkentlarga aylanmaymizmi. So‘zida ham –lar affiksining “miqdor” semasi saqlanib, “baho” semasi yuzaga chiqadi va jamlash, umumlashtirish ma’nosini ifodalaydi. 2. Turdosh otlard: Mantiqan turdosh otlar bir predmetni ham ko‘p predmetni ham ifodalab keladi. Masalan, Ko‘chat. So‘zi “miqdor” semasi jihatdan bitta ko‘chatni ham ko‘p ko‘chatni ham ifodalaydi. “Baho” semasi jihatidan ham bir turdagi ko‘chatni ham ko‘p turdagi ko‘chatni ham ifodalay oladi. Miqdor tushunchasi chegaralanmagan bo‘ladi. Ammo bu so‘zga –lar affiksi qo‘shilganida “miqdor tushunchasi chegaralanadi. M. Ko‘chatlar. So‘zida “miqdor” semasi chegaralanadi va “baho” semasi yuzaga chiqib ko‘chatning turi, xili, navi ifodalanadi. Shu jihatdan olganda turdosh otlar leksemada predmetning ko‘pligini leksemaning o‘zi ifodalaydi, -lar morfemasi esa “chegaralanganlik” semasini va unga zid qo‘yib belgilanadigan morfema esa “chegaralanmaganlik” semasini ifodalaydi. Shaxs otida: Shaxs otiga ko‘plik affiksi qo‘shilganida “umumlashtirish, jamlash” semasi yuzaga chiqadi. M, Shoirilar kelishdi. So‘zida shoir yakka bir predmet unga –lar affiksi qo‘shilishi natijasida “miqdor” semasi ko‘p predmetni “umumlashtirib” ko‘rsatadi va “baho” semasi saqlanadi. Joy otida: joy otiga –lar ko‘plik affiksi qo‘shilganida “miqdor” semasi saqlanib, “baho” semasi yuzaga chiqadi. M, Qishloqlar o‘zgarib ketibdi. So‘zida “miqdor” semasi saqlangan, “baho” semasi sanash ohangi yordamida turli qishloqlar “xili”ni ifodalab kelmoqda.

Demak, -lar ko‘plik affiksi shaxs nomiga qo‘shilganida sanash ohangi yordamid “xususiylik” semasini yuzaga chiqaradi. Shaxs otiga qo‘shilib kelsa jamlash ohangi yordamida “umumiylilik” semasini yuzaga chiqaradi.

3. Aniq otlarda: “miqdor semasi saqlanib ,”baho” semasi saqlanadi. M. Kitobar. So‘zida “miqdor” ko‘plik ifodalanmoqda. “Baho” semasi ham saqlangan ya’ni kitob turlari. Bu yerda miqdor semasining kuchayishi, baho semasining susayishini ko‘rishimiz mumkin. 4. Mavhum otlarda: Egalik affiksi –lar affikisidan keyin kelib kuchaytirish, ta’kid ma’nosini ifodalaydi. M. Hayollarim qay tomonga ketganini o‘zim ham ilg‘amay qolibman. 5. Yakka otlarda : Yakka otlarga ko‘plik affiksi qo‘shilganida “miqdoriy ko‘plik” semasi yuzaga chiqadi, “baho” semasi saqlanadi. M. Daftarlari. 6. To‘da otlarda: To‘da otlar o‘zi mantiqan ko‘p predmetni ifodalab keladi. M. Xalq, lashkar. Bu so‘zlarga –lar ko‘plik shaklini qo‘shganimizda “miqdor” semasi chegaralanib, “baho” semasi yuzaga chiqadi. M. Xalqlar, lashkarlar. So‘zida ko‘plik ma’nosi saqlangan, ammo bu so‘zda xil, tur ma’nosi kuchayishi ifodalanagan.

Demak, ba’zi predmetlarga –lar affiksi qo‘shilganida “miqdor” semasining yuzaga chiqishi ya’ni kuchayishiga, “baho” semasining saqlanishi ya’ni susayishiga sabab bo‘lgan. M. Kitoblar so‘zida. Ba’zi predmetlarda bo‘lsa “miqdor” semasi saqlanib ya’ni susayib, “baho” semasining yuzaga chiqishi ya’ni

kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Bu jihat *-lar* affiksining po'lisemantik xususiyatidan dalolat beradi.

Sifat so'z turkumida: Sifatlar otlashganida otlarga xos grammatik ma'nolarni ifodalaydi va ot turkumining grammatik kategoriyalariga ham qo'shib keladi. M. sifat *-lar* affiksi bilan qo'llanilib otlashadi va sifatga qo'shilgan *-lar* affiksi "miqdoriy ko'plik" semasini ifodalaydi. M. Yaxshilar ko'paysin. So'zida *-lar* affiksi "miqdoriy ko'plikni" ifodalaydi. "Baho" semasi leksemaning o'zida ifodalanadi.

Son so'z turkumida: 1. Miqdor sonlarda: Miqdor sonlar narsa miqdorini sanash yo'li bilan aniqlayadi. M. Eshik oldida beshta ot qator turar edi⁴. Miqdor sonlar o'zi ko'plik ma'nosini anglatgani uchun ko'plik affiksini qabul qilmaydi. Bu vaqtda miqdor anglatgan narsani bildiruvchi ot ham *-lar* affiksini olmaydi. M. Besh yuz yil yashadi Alisherning asriy nidosi. 2. Sanoq sonlarda: *-lar* affiksi qo'shilganda "chama, taxmin" ma'nosini ifodalanadi. M. Onlar edi kelganida.

3. Chama sonlarda: Chama son narsaning miqdorini aniq emas, taxminlab, chamalab ifodalaydi. Chama son yasovchi *-larcha* affiksi bo'lsa narsaning miqdorini "to'dalab" ko'rsatadi. M. Yuzlarcha kabutarlar uchib ketdi. Bu yerdagi *-larcha* affiksi tarkibidagi *-lar* ko'plik affiksi qo'shimcha tarkibida qotib qolga.

4. Tartib sonlarda: Tartib sonlarga *-lar* affiksi qo'shilganida ta'kidlash ma'nosi ifodalanadi. M. Birinchilardan bo'lib yetib keldi.

Demak, *-lar* affiksi ot leksemalarga qo'shib "son" semasini, son leksemalarga qo'shib "chama, taxmin" semasini ifodalaydi. Bu jihatdan olganda *-lar* affiksi polifunksional morfema sanaladi.

Olmosh so'z turkumida: Son paradigmasini qabul qilishda ham olmoshlar o'ziga xos xususiyatlarga egadir. 1. Kishilik olmoshlarida: II-shaxs birlikdagi kishilik olmoshiga *-lar* affiksini qo'shganimizda "hurmatsizlik" semasi yuzaga chiqadi. M. Senlar ham odammi? I-shaxs ko'plikdagi kishilik olmoshiga qo'shilganida "baho" samasi ya'ni ta'kidlash semasi yuzaga chiqadi, "miqdor" semasi betaraf bo'ladi. Faqat bir shaxs ifodalanadi. M. Bizlar, bizlar, biz edik, bizlar bir talay qiz edik⁵. II-shaxs ko'plikdagi kishilik olmoshlariga qo'shilganida "murojat" semasini ifodalaydi. M. Sizlar kim bo'lasizlar? III-shaxs ko'plikdagi kishilik olmoshi so'zlash jarayonida ishtirok etgan birdan ortiq shaxsni yoki narsani ifodalaydi. M. Ular bizga yetib olishdi. So'zida ular leksemasi tarkibidagi *-lar* affiksi leksema tarkibida qotib qolgan. 2. Soroq olmoshlarida: Ot xususiyatidagi so'roq olmoshlariga *-lar* affiksi qo'shilganida "ko'plik" semasi va "hurmat" semasi ifodlanadi. M. Kimlar kelishdi? Ba'zan takrorlangan bunday olmoshlardan keyin ham *-lar* affiksi qo'shib kela oladi va u gapda "ko'plik" semasi bilan shaxsning kimligini aniqlash uchuni qo'llaniladi. M. Kim-kilar keldi? Nima? so'roq olmoshi takroriy qo'llanilganda *-lar* affiksini olsa noaniq narsaning miqdorini ko'rsatadi. M. Nima-nimalar olding? Qachon? so'roq olmoshi *-lar* affiki bilan qo'llanilib "ko'p vaqt" degan semani ifodalaydi. M. Kelganim qachonlar edi. 3. Ko'rsatish olmoshlarida *-lar* affiksining qo'llanilishi: M. Bular, o'shalar, anavilar

⁵Qalandar Sapayev "Hozirgi o'zbek adabiy til"[morfemika, so'z yasalishi va morfologiya b 155]

. Kabi soʻzlarda *-lar* affiksi “miqdoriy koʻplik” semasi bilan birga “jamlab koʻrsatish” semasini ham ifodalamoqda. 4. Jamlovchi olmoshlarda: Baʼzi jamlovchi olmoshi otlashganida *-lar* bilan qoʻllanilib “kinoya” maʼnosini ifodalaydi. M. Gʻamingga baʼzilar tomoshabin boʻlib oladilar. 5. Gumon olmoshlarida: Allakim gumon olmoshi *-lar* affiksi bilan qoʻllanilganda “kesatish”, “kinoya” semasini ifodalaydi. M. Allakimlar mening ishimga aralashmasin.

Ravish soʻz turkumida: Ravishlar otlashganida *-lar* affiksini olib qoʻllana oladi. M. Koʻplar shu Vatan deya qon kechganlar. Gapdagi koʻplar soʻzidagi *-lar* affiksi “miqdoriy koʻplik”ni ifodalamoqda. Shunigdek, bu sema leksemaning oʻzidan ham ifodalanmoqda. Ravish yasovchi *-larcha* affiksi tarkibidagi *-lar* affiksi qotib qolgan va “koʻplik” semasini yoʻqotgan. M. Bolalarcha yigʻladi.

Demak, ravish yasovchi *-larcha* va sonning lugʻaviy shakl yasovchisi *-larcha* affikslar tarkibidagi *-lar* affiksi qoʻshimcha tarkibida qotib qolgan va har ikkalasi ham “koʻplik” semasini yoʻqotgan. M. Bolalarcha yigʻladi. Soʻzida *-lar* affiksi “koʻplik” semasi yoʻqotgan va *-cha* affiksi bilan yaxlitlanib “holat” semasini yuzaga chiqaradi. M. Yuzlarcha kabutar. Soʻzidagi *-lar* affiksi ham “koʻplik, miqdor” semasini yoʻqotgan va *-cha* affiksi bilan yaxlitlanib “chama, taxmin” semasini yuzaga chiqargan. Undagi “miqdor” semasini yuz soninig oʻzi ifodalagan.

Feʼl soʻz turkumida: Feʼllarning son kategoriyasi ham oʻziga xos xususiyatlariga egadir. Feʼlning bu kategoriyasi ham son ham shaxs maʼnosini ifodalaydi. M. Boradilar. Bu soʻzda son “miqdoriy koʻplikni” ifodalab kelmoqda va shaxs III-shaxs koʻplik maʼnosini ham ifodalab kelmoqda. Ammo feʼllarda son hamisha ham shaxsda moslashmaydi. M. Akam keldilar. Son kategoriyasining bu kabi shaxsda moslashmagan xollarda *-lar* affiksi “hurmat” maʼnosini ifodalaydi. Feʼllardagi II-shaxs koʻrsatkichlari tarkibida koʻplik maʼnosi *-z* qismi bilan yoki *-lar* affiksi bilan ifodalanadi. Bu yerda *-z* qismi koʻplik kishilik olmoshlari (biz, siz), koʻplik turlovchilari (*-miz*, *-ngiz*), koʻplik tuslovchilari (*-miz*, *siz*) tarkibidagi koʻplik koʻrsatkichining oʻzi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, II-shaxs tuslovchi tarkibidagi *-lar* affiksi boshqa bir hodisaga ot leksemasidagi son paradigmasiga mansub maqsad bilan kiritilgan. II-shaxs koʻplik koʻrsatkichilari oʻzaro quyidagicha zidlanadi. II-shaxs koʻplikda oʻqingiz “koʻplik”, “betaraf” II-shaxs koʻplikda oʻqingiz “birlik”, “sizlash”. II-shaxs koʻplikda oʻqinglar “koʻplik”, “sizlash”. II-shaxs koʻplikda oʻqilaring “koʻplik” “senlash⁶. Yuqoridagi tasvirda *-ngiz* affiksiga xos koʻpmaʼnolilik “birlik” va “koʻplik” semasi ifodalash va shunga bogʻliq holda ifodalangan “baho” semasi ham yuzaga chiqadi. Bu tasvir *-lar* affiksi yordamida “koʻplik” semasidan tashqari “sizlash” va “senlash” semalari ham ifodalanadi. Bu semalarni ifodalashga *-lar* affiksini shaxs koʻrsatkichidan keyin va oldin ishlatish bilan yuzaga chiqaradi. (*-ngiz* shakli tarixan *-nglar* shaklida boʻlgan va u *ng+lar* shaklida morfemalarga ajratilgan, bugungi kunda bu *-nglar* affiksi *-ngiz* shaklida qotib qolgan). II-shaxs buyruq-istak maylining nol koʻrsatkichi *-gin* shakli “miqdor” semasi, “birlik”, “baho” semasi “senlash” semasini ifodalaydi. Masalan, Borgin. (Bu

affiks tarixan –gil tarzida tallafuz qilingan bo‘lib, uning tarkibidagi –gi qismi “istik” ma’nosini –l qismi o‘zlik ma’nosini bergan, hozirgi kunda –gin tarzida qotib qo‘gan)⁶. III-shaxs buyruq-istik maylining –sin shakli I-shaxs birlikning –yin shakliga o‘xshaydi. Agar bu affiksni ma’noli qismlarga ajratsak unda –s qismi III-shaxs ma’nasini –n qismi birlik ma’nosini ifodalaydi. Hozirgi kunda bu affiks ma’noli qismlarga ajratilmaydi. Son semasining III-shaxsda ifodalanishi I-shaxs va II-shaxslarga nisbatan farq qiladi. –sin affiksi son semasini ifodalash jihatdan betaraf. M. Kelsin. III-shaxs buyruq-istik maylining ko‘plik shakli -sinlar affiksi “ko‘plik” semasini ifodalash jihatidan betaraf. Bu affiksdagi “miqdor” semasi betaraf bo‘lib “baho” semasi “sizlash” ma’nosi ifodalanadi. Bu affiksdagi –lar qismi “ko‘plik” semasini yo‘qotgan va affiks tarkibida qotib qolgan. Shunga ko‘ra –sinlar ko‘rsatkichi III-shaxs birlikning “sizlash” shakli deyiladi. M. Olsinlar. III-shaxsda ko‘plik ma’nosi –sh affiksi bilan ham ifodalanishi ham mumkin. M. Borishsin. Bu yerda –sh affiksi birgalik nisbat affiksidan o‘sib chiqqan bo‘lib, -shsin ko‘rsatkichi tarkibida “birgalik” semasi yo‘qolib “ko‘plik” semasi yuzaga chiqadi. Shu jihatdan u ko‘plik ko‘rsatkichi deyiladi. III-shaxsning –di affiksi asli son jihatdan betaraf faqat shaxs ma’nosini ifodalab keladi. Lekin bu ko‘rsatkichning ko‘plik shakli -lar

⁶ Shavkat Rahmatullayev “Hozirgi o‘zbek adabiy til” [darslik] B 136-137 affiksini olib kela oladi, ammo bunda –lar affiksi “ko‘plik” semasini emas, balki tarkibida “birgalik” semasi yo‘qolib “ko‘plik” semasi yuzaga chiqadi. Shu jihatdan

u ko‘plik ko‘rsatkichi deyiladi. III-shaxsning –di affiksi asli son jihatdan betaraf faqat shaxs ma’nosini ifodalab keladi. Lekin bu ko‘rsatkichning ko‘plik shakli –lar affiksini olib kela oladi, ammo bunda –lar affiksi “ko‘plik” semasini emas, balki

“birlikda” “sizlash” semasini ifodalashga xizmat qiladi. III-shaxs ko‘plikdagi shart mayli ko‘rsatkichi –salar shakli tarkibidagi –lar affiksi ham “miqdor” sema jihatidan betaraf “baho” semasida “hurmat” ma’nosi ifodalanadi. –lar affiki bo‘lsa qo‘shimcha tarkibida qotib qolgan va o‘zining lug‘aviy ma’nosini yo‘qotgan. Demak, -lar affiksi tuslovchi morfemalarga qo‘shilib turli semalarni ifodalay oladi va fe‘l turkumi tarkibida tuslochi morfema siatida ishtirok etadi. Fe’llardagi son kategoriyasning o‘ziga xos xususiyati shuki u so‘z tarkibida bir vaqtning o‘zida ham “son” semasini ham “shaxs” semasini ifodalay oladi. M. Borsinar Yasalishi: O‘zbek tilida ko‘plik ma’nosi 3 xil usul bilan yasaladi⁷.

⁷ Qalandar Sapayev “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” [morfemika, so‘z yasalishi va morfologiya] b 100

1. Morfologik usul: ko‘plik ma’nosi –lar affiksini qo‘shish bilan ifodalanadi, -lar affiksi quydagi ma’nolarni ifodalaydi. a) Shaxs yoki narsaning ko‘pligini ifodalaydi: M. Bolalar kelishdi. b) Egalik affiksidan keyin qo‘shilib hurmat ma’nosini ifodalaydi: M. Onamlar keldi. d) Payt bildiruvchi ravishlarga, payt, o‘rin, yoki narsa sonini bildiruvchi birikmalarga qo‘shilib, chama, taxmin ma’nosini ifodalaydi. M. Kechqurunlari suhbatlashamiz. f) Egalik affiksidan

oldin kelib kuchaytirish ma'nosini ifodalaydi: M. Tillarim kalimaga kelmay qoldi. 2. Leksisk usul: a) Sanoq somlar, gumon olmoshlar va miqdor ravishlari o'zni aniqlab keladi. M. Ko'p kitob. b) Otga sifatlovchi bo'lib kelgan ot, sifat, son takrorlanib keladi. M. Qop-qop olma, To'da-to'da odam. d) Juft so'lar orqali ham ko'plik umumlashtirish ma'nolari ifodalanadi: M. Kitob-daftar, qozon-tovoq. 3. Aralash usul: Ham morfologik ham leksik-semantik usullar vosiytasida. M. Cho'pon to'da-to'da qo'ylarni haydab o'di.

Omomorfemaligi: Hozirgi o'zbek tilida *-lar* affiksi omomorfema bo'lib,

sonlash paradigmasining a'zosi sifatida bir necha ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Ushbu affiks turlochi paradigmalar va tuslovchi paradigmalarining ayrim morfemalari tarkibida ham ishlatiladi. Turlovchi paradigm tarkibida: III-shaxs egalik qo'shimchasining ko'plik shaklida qo'llanadi. M. Onalari, akalari.

Tuslovchi paradigm tarkibida: III-shaxs buyruq-istak maylining ko'plik shaklida qo'llaniladi. M. Kelsinlar, ishlasinlar. Demak, boshqa morfem paradigmalar tarkibida qatnashadigan *-lar* affiksi sonlash paradigmasining a'zosi *-lar* affiksiga nisbatan omonim deyish mumkin.

Polifunksionalligi: *-lar* affiksi ot so'z turkumidagi leksemalarga qo'shib kelganida "miqdoriy ko'plik" ya'ni "son" semasi ifodalanadi. M. Kitoblar. Agar *-lar* affiksi son so'z turkumidagi leksemalarga qo'shib kelganida esa "miqdor" semasi yo'qolib, "chama, taxmin" semasi ifodalanadi. M. Soat to'qqizlar atrofida. *-lar* affiksi fe'l so'z turkumidagi leksemalarga qo'shib kelganida ham "miqdor, son" semasini ham "shaxs" semasini ifodalanad. Bu jihat *-lar* affiksining polifunksionalligidan dalaolat beradi.

Polisemantikligi: Hozirgi o'zbek adabiy tilda *-lar* affiksi 2 xil ma'noni ifodalashga xizmat qiladi. a) *-lar* affiksi ba'zi so'zlarga qo'shib kelganida "miqdor" semasi ifodalanib, "baho" semasi saqlanib qolinadi. M. Daraxtlar. b) *-lar* affiksi ba'zi so'zlarga qo'shib kelganida esa "miqdor" semasi saqlanib, "baho" semasi ifodalanadi. M. Xalqlar. Bu jihat *-lar* affiksining polisemantikligidan dalolat beradi.

Leksema va morfemalarda yaxlitlanishi: *-lar* affiksi ba'zi leksemalar yoki morfemalar tarkibida yaxlitlanib o'zining lug'aviy ma'nosini yo'qotadi va boshqa ma'nolarni ifodalash uchun qo'llaniladi. 1. Leksema tarkibida: Bu hol olmosh so'z turkumida kuzatiladi. III-shaxs ko'plikdagi kishilik olmoshi tarkibidagi *-lar* affiksi leksema tarkibida qotib qolgan va o'zining lug'aviy "miqdor" semasini yo'qotgan. M. Ular keldi. 2. Morfema tarkibida: a) Chama sonni ifodalovchi *-larcha* affiksi tarkibidagi *-lar* affiksi ham o'zining lug'aviy ma'nosini yo'qotib *-cha* affiksi bilan bir butunlikda "chama, taxmin" semasini ifodalaydi. M. Yuzlarcha odam. b) Ravish yasovchi *-larcha* affiksi tarkibida qotib qolgan *-lar* affikisi ham o'zini lug'aviy ma'nosini yo'qotib *-cha* affiksi tarkibida yaxlitlanib "holat" semasini ifodalaydi. M. Yigitlarcha gapir. f) III-shaxs ko'plikdagi shart mayli *-salar* affiksi tarkibida qotib qolgan va "miqdor" semasi yo'qolib "hurmat" semasini ifodalaydi.

Demak, *-lar* affiksining Ular olmoshi, sonning lugʻaviy shakli *–larcha*, ravish yasovchi *–larcha*, III-shaxs buyruq-istak mayli yasovchi *–sinlar*, III-shaxs shart mayli yasovchi *–salar* morfemalari tarkibida yaxlitlanib qolishi natijasida oʻzining lugʻaviy “miqdor” semasining yoʻqolishiga sabab boʻlgan.

-lar affiksi gapda “miqdor” semasini ifodalab kelishi bilan bir qatorda “sifat”, “boʻlinuvchanlik va boʻlinmaslik”, “aniq” va “noaniq” kabi yondosh semalarni, shuningdek “hurmat”, “chama”, “taxmin”, “jamlash”, “sizlash” kabi hamroh semalarni ham ifodalay oladi. Yana shuni aytish kerakki, *-lar* affiksi ot leksemalarga qoʻshilganida. M. Odamlar, soʻzidagi affiksda “son” semasi leksemada “shaxs” semasini ifodalay oladi. Agar feʼl leksemalarga qoʻshilganida, M. Bordilar, soʻzida affiksning oʻzida ham “son” semasi ham “shaxs” semasini ifodalay oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. F. Jumayeva Polisemem leksemalar doirasidagi sinonim va antonim semalar tadqiqi. Monografiya. –Toshkent: Qaqnus Mediya. 2019. -136 b.
2. Q. Sapayev “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” [morfemika va morfologiya Toshkent] 2009. – B 141.
3. R. Sayfullayeva, B. Mengliyev “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” Toshkent 2009. – B 154.
4. Sh. Rahmatullayev “Hozirgi oʻzbek adabiy til” Toshkent 2006. – B 136-37.

OʻZBEK ADABIY TILINING RIVOJLANISHIDA SHEVALARNING TUTGAN OʻRNI

Ummatova H.Y JDPI talabasi
Ilmiy rahbar Xidirov O. JDPI

“Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor.Havas qilsa arziydigan ulugʻ ajdodlarimiz bor.Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor.Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va sanʼatimiz ham,albatta, boʻladi

Mirziyoyev Sh.M.

Xalq vujudga keladiki, u bilan hamohang tarzda uning tili ham yuzaga keladi. Til – xalq, jamiyat uchun umumiy boʻlib, oʻsha xalq va jamiyat mavjud ekan,til-ning umri ham uni yaratgan xalqniki kabi uzun va bardavom boʻladi.Bugungi kunda 6 mingdan ortiq til mavjud boʻlib, ularning deyarli barchasi oʻziga xos sheva va dialektlardan iboratdir.Xususan, bizning oʻzbek tilimiz turkiy tillar oilasiga mansub boʻlib,boshqa qardosh tillardan oʻzining koʻp shevaliligi bilan ajralib turadi. Bu borada professor E.D.Polivanov : “... turkiy tillarning birortasi ham shevalararo oʻzbek tili singari bu qadar keskin farqlanmaydi.Demak, ... birorta turkiy til ham shu qadar spetsifik, dialektal xilma – xillik xususiyatiga ega emasdir. Bu esa, adabiy til uchun biror dialektni asos qilib olish masalasini nihoyat darajada ogʻirlashtiradi”⁸¹, – degan edi.

81.Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. Oʻzbek dialektologiyasi, Toshkent, 1978.

O'zbek shevalari XX asr boshlaridanoq tilshunos olimlar tomonidan chuqur o'rganila boshlangan. Ular yurtimizdagi turli hududlar, ularda yashovchi aholi shevalarini o'rganish bilan bog'liq bir qator ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar olib borishdi. Hattoki, ularning ba'zilar ilmiy tadqiqotlar natijasida o'z tasniflarini ham yaratishgan."Professor V.V.Reshetov o'zbek tili dialektal xaritasining rang – barangligini uning etnogenezisidan qidirish lozimligini uqtiradi.Tariximizga oid adabiyotlar qadimda turkiy urug' va qabilalar miqdori ancha ko'p bo'lganligi to'g'risida xabar beradi.Ular ichida o'zbek tili va uning shevalari shakllanishida qarluq, chigil, uyg'ur, qipchoq urug'lari qangli, qatag'on urug' va qabilalari birlashmalarining tarixiy taraqqiyoti katta ro'l o'ynagan".⁸²

Sheva va dialektlarni hozirgi o'zbek adabiy tilining poydevori,asosi deyishimiz mumkin.Ular bizning milliy – ma'naviy qadriyatlarimiz hisoblanadi.Sheva – tarix, madaniyat,ma'rifat demakdir.Biz biror shevani o'rganar ekanmiz, xalqning tili bilan bir qatorda uning tarixi – yu madaniyati haqida ham ma'lumotlarga ega bo'lamiz.Shuning uchun ham shevalarni tarixni o'zida aks ettiruvchi ko'zgu deb ataymiz.

Bugungi kunda shevalarni o'rganish,xususan,shevashunoslik (dialektologiya) sohasi bir muncha rivojlanishdan to'xtab qolgandek nazarimizda. Darhaqiqat, E.D.Polivanov, V.V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov, A.Jo'rayev, Q.Muhammadjonov, A.Shermatov, Y.Ibrohimov kabi olimlar shevashunoslik sohasi bo'yicha uzoq yillar ilmiy izlanishlar olib bordi va ko'plab yutuqlarga erishishdi.O'z ilmiy izlanishlari natijasida dialektologiya sohasiga o'z hissalarini qo'shishdi. Ularning olib borgan tadqiqotlarini samarasi o'laroq, juda ko'p shevalar o'rganildi, tadqiq qilindi.Lekin shunday bo'lsa-da, hali bu sohada o'rganilishi kerak bo'lgan hududlar va ularning shevalari bisyordir.Yuqorida aytib o'tganimizdek, shevalar hozirgi o'zbek adabiy tilimizning tayanchini tashkil etar ekan, dastlab, biz shevalarni o'rganmasdan turib,hozirgi o'zbek adabiy tilini chuqur tadqiq qilishimiz birmuncha mushkuldir.

Hozirgi o'zbek adabiy tilining (leksikasining)boyishi ikki manbaga asoslanadi: 1.ichki manba; 2.tashqi manba.Ichki manba tarkibiga shevalardan so'z olish, ya'ni shevaga oid so'zlarning adabiy tilga qabul qilinishi ham kiradi. Masalan:Xorazm shevasiga mansub "mengzamoq" so'zi "o'xshatmoq, tenglashtirmoq, qiyoslamoq" ma'nolarida adabiy til me'yorlariga xos tarzda shevadan adabiy tilga o'tgan.Yoki "yaxob, qirqim" so'zlari ham xuddi shunday. Fan va texnika rivojlangani sari, bizning tilimizga ham turli xil chet so'zlari kirib kelmoqda va tashqi manba asosida ham leksikamiz boyib bormoqda.Bu aslida juda yaxshi,chunki rivojlanish bor joyda,yangilanish bo'ladi. Lekin chet so'zlaridan faqat kerakli vaqtdagina foydalanish, ayniqsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. O'zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhor:"Nima uchun ko'cha harakati qoidasini buzgan kishiga militsiya hushtak chaladi-yu, butun bir tilni buzayotgan odamlarga hech kim hushtak chalmaydi", – degan edi.

Haqiqatdan ham, bugungi kunda oddiy so'zlashuv uslubimizda juda ko'p va keraksiz o'rinlarda chet so'zlaridan foydalanamiz. Bunday so'zlarning ma'no –

⁸² Ashirboyev S. "O'zbek dialektologiyasi" uslubiy qo'llanma,Toshkent,2013.

mazmuniga to'laqonli mos keluvchi so'zlarimiz juda ko'p aslida. Zero, Abdulla Qodiriy tili bilan aytganda, "O'zbek tili kambag'al emas, balki o'zbek tili kambag'al deguvchilarning o'zi kambag'al. Ular o'z nodonliklarini o'zbek tiliga to'nkamasinlar".

Aslida ona til deganda sheva va dialektlarni tushunishimiz kerak va bu haqiqatga juda yaqindir. Tilni asrash, ardoqlash har birimizning burchimizdir. Til – millat ruhi. Uni har tomonlama boyitish, takomillashtirish va kelgusi avlodlarga boy holda yetkazish uchun barchamiz birgalikda harakat qilishimiz lozim.

SIROJIDDIN SAYYID LIRIKASIDA O'XSHATISHLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

**Sh.Xoldorova JDPI o'qituvchisi
G'allaorol tumani XTB Mardiqulova Mohira**

Ma'lumki, badiiy ijodni, xususan, poetik nutqni lingvopoetik vositalarsiz tasavvur etish qiyin. Poetik matnlar tilining emotsional-ekspressivligini ta'minlovchi, obrazlilik hosil qiluvchi lingvopoetik vositalardan biri o'xshatishdir.

Ma'lumki, insonning ijodiy faoliyati mahsuli bo'lgan badiiy matnlar lingvopoetik tahlil uchun material vazifasini o'taydi. Tabiiyki, matndan tashqarida,

alohida belgilab olingan so'z yoki iborani tahlilga tortish orqali ijodkorning boshqalardan ajralib turadigan o'ziga xos bo'lgan uslubi, u tomonidan yaratilgan poetik matnda ishtirok etgan lirik qahramonlar yoki personajlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlab bo'lmaydi.. O'xshatishlarning hosil bo'lishi zamirida muallifning kommunikativ maqsadi, uning voqelik faktlariga bo'lgan munosabati, ularni lisoniy va nolisoniy omillarga tayangan holda baholashga intilishi yotadi. Tilimizda nutqning turli ko'rinishlarida, xususan, og'zaki so'zlashuvda va badiiy nutqda, qisman publististik matnlarda ham tez-tez uchrab turadigan "muzday suv", "qo'yday yuvosh", "toshday qattiq", "paxtaday yumshoq", "cho'chqaday semiz", "tulkiday ayyor", "terakday uzun" kabi bir qator o'xshatishlar nutqimizda ko'p qo'llanilganligi, tasvir obyektining ma'lum bir sifatinigina izohlash bilan cheklanib qolganligi uchun obrazlilik, ta'sirchanlik xususiyatini deyarli yo'qotgan. Ular bugungi kunda an'anaviy o'xshatishlar hisoblanadi. Badiiy matnlar esa kutilmagan, kitobxon ruhiyatiga kuchli ta'sir qiluvchi, obrazlilik hosil qiluvchi vositalar hisobiga poetik qimmat kasb etadi. Tilimizda "O'xshatishlarning ikki turi, ya'ni: 1) individual-muallif o'xshatishlari yoki erkin o'xshatishlar va 2) umumxalq yoki turg'un (doimiy) o'xshatishlar farqlanadi. Badiiy-estetik qimmat, lingvopoetik salmoq nuqtayi nazaridan erkin o'xshatishlar yozuvchining mahoratini namoyon etuvchi vositalardan biri sifatida badiiy nutqda alohida o'rin tutadi.

Yozuvchi o'zining badiiy tasvir maqsadiga muvofiq ravishda xilma-xil original o'xshatishlar yaratadi, bu o'xshatishlar kutilmaganligi, ohorliligi bilan o'quvchini rom etadi, muayyan ruhiy yoki jismoniy holat-xususiyat-predmetlarni o'quvchi ko'z o'ngida yaqqol gavdalandiradi"⁸³.

S.Sayyid she'riyatida qo'llanilgan o'xshatishlar betakrorligi, jozibadorligi bilan kitobxonni o'ziga jalb etadi, unga zavq bag'ishlaydi. Bu esa shoirning tilimiz yashirin imkoniyatlari, o'xshatish hosil qiluvchi vositalarni yaxshi bilishidan dalolat beradi.

Ma'lumki, tilimizda o'xshatish hosil qiluvchi leksik va grammatik vositalar bor. Leksik vositalar kabi, singari, qadar, yanglig', bamisoli, bamisli, misoli, misli, monand, xuddi, naq, go'yo, teng, o'xshatmoq, eslatmoq, demoq, bo'lmoq, bir, aynan, o'zi, tus, ibrat, holatda, chu, andoqki va boshqalar kirsas, grammatik vositalarga - day (-dek) -dak -(tak) -dag' (-dog') -dayin, -dan, -dir, -namo, -simon, -ona, -omuz, -li, -cha, (-larcha, -chalik, -chasiga) kabilar kiradi. O'xshatish hosil qiluvchi -day, -yanglig' kabi vositalar ishtirokidagi poetik tasvirning yuksak namunasi shoirning "Qovun birla uzum hajri" she'rida ko'rishimiz mumkin. She'rni o'qir ekanmiz ko'z o'ngimizda Vatandan ayro tushgan, hijron azobida qiynalayotgan lirik qahramon gavdalanadi. Mana dastlabki holat:

Yigit umrim parishon **sahfalarday** za'faron bo'lmish,

Parishon **ro'zgorimday** parishon har so'zumdin ayt [2;258-bet].

Avvalo, o'xshatish uchun asos bo'lgan birliklarning tanlanishi, yosh yigitning umrini quvonchni tark qilgan holda g'amgin, za'faronlikka qiyoslanishi, parishon umrining esa motamsarolikka nisbat berilishi o'quvchi ko'ngliga qandaydir mahzunlik olib kiradi, unga lirik qahramon ichki kechinmalari to'g'risida

ishora

beradi. Keyingi misralardagi o'xshatishni yuzaga keltiruvchi "yanglig'" leksemasi

vositasida esa bu mazmun yanada kuchaytiriladi. S.Sayyid o'xshatish hosil qiluvchi "yanglig'" leksemasi vositasida kutilmagan obrazlilikni yuzaga keltiradiki, kitobxon beixtiyor tasvirlangan obyekt haqida o'ylay boshlaydi, uning shakl-u shamoyili va mazmun-mohiyatiga lirik qahramon ko'zi bilan nazar tashlaydi.

Shoir poetik ta'sirchanlikni kuchaytirish maqsadida xazon va qovun obrazini matnga olib kiradi:

Xazon **yanglig'** dahr aro sarg'ardi bu bag'rim,

Qovunning rangi **yanglig'** sargarib ketgan yuzumdin ayt (258-bt).

Bir paytlar hazrati Xizrlar **yanglig'**,

Kezgan uztozlarning qutlug' makoni.

To'tilar yurardi vazirlar **yanglig'**,

Men yurdim yetaklab To'polon daryoni (94-bet).

¹Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули. Ўзбек тили ва адабиёти, 2011, 3-сон.

²Саййид Сирожиддин. Асарлар. IV жилдлик III жилд.– Т.: Sharq, 2019.–Б.118 (Бундан кейинги иқтибослар шу нашрдан олинади ва бети қавс ичида кўрсатилади).

Quyidagi she’rda “yanglig’” vositasi yordamida o’xshatishlar hosil qilingan. She’rda yolg’izlik va nochorlik holati qanoti singan o’rdakning holatiga, mag’rurlik va hissizlik haykalga, ishq qo’shig’in tinglash esa bedor va ishsiz qorovulning tongni qarshi olishiga o’xshatilmoqda. Inson ruhiy holatining bu tarzda ochib berilishi faqat S.Sayyid uslubiga xos deyish mumkin. “Individuallik, yagonalik yozuvchining ijod jarayonida so’z tanlash san’ati bilan belgilanadi. Bu o’z o’rnida yozuvchining lisoniy shaxsiyatini, ya’ni badiiy tafakkurini, shaxsiy idrok tarzini, qolaversa, lisoniy layoqati - lingvistik mahoratini namoyon etadi. Ayniqsa, individual uslub tushunchasi biror muallif asarlari tilini unga zamondosh ijodkor asarlari tili bilan qiyosiy tadqiq qilinganda yanada oydinlashadi.

Chunki yozuvchi uslubida san’atkor tomonidan estetik jihatdan qo’llangan barcha til vositalari uning badiiy tafakkuri bilan ichki bog’liqlik asosida birlashadi”⁸⁴- degan qarashlarni S.Sayyid she’riyatiga ham tatbiq etish mumkin. Yuqorida keltirilgan o’xshatish hosil qiluvchi vositalar yordamida hosil qilingan betakror tasvir “Insonni ruhan to’lqinlantirish, yig’latish, kuldirish, xayolot olamiga yetaklash, o’yga cho’mdirish, estetik tafakkurini shakllantirish, voqea-hodisalarga teran, boshqacha nazar bilan boqishga o’rgatish kabi ko’plab imkoniyatlarni o’zida mujassam qilgan”⁸⁵ badiiy matnning lingvopoetik imkoniyatlari keng ekanligidan dalolat beradi.

Ko’rinib turibdiki, o’xshatishni yuzaga keltiruvchi vositalarning o’rinli qo’llanishi bilan badiiy tasvirning estetik ta’sirchanligi orta boradi. Vaholanki, “Estetik butunlik bo’lgan badiiy asar ijodkori uchun narsalarning konkret mohiyati emas, balki ularning yuksak badiiy ifodasi, yaxlit obrazi ahamiyatliroqdir”⁸⁶.

Shoirning “Furqat bobo va fermerlar qissasi” she’ri misralarda jamiyat hodisalari asta-sekin insonga va undan yana tabiat manzarasiga ko’chadi. Hurriyat tufayli, yurtning jamoli yorday ochilganini, traktorlar esa tulporday kishnashini ta’riflash orqali o’zining nima demoqchi ekanligini anglashni o’quvchi hukmiga havola qiladi:

Hur-hur esib Hurriyatning shamoli,
Go’zal **yorday** ochildi yurt jamoli.
Traktorlar **tulporlarday** kishnagan,
Paykallar ham ozod bo’ldi kishandan (80-bet).

Ijodkor individual uslubiga, poetik tasvirni kuchaytirib, o’xshatish vositasida kutilmagan holatlarni aks ettirish, kitobxonni zavqlantirib, hayratga solish xos ekanligini yuqoridagi satrlar yaqqol ko’rsatib turibdi. “Internet” she’rida o’zgacha holatni uchratamiz:

Senda ham bir ajib tantiliklar bor,

⁸⁴ Ҳасанов А.А. Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари тилининг бадииятини таъминловчи лексик-стилистик воситалар. Филол.фанлари номз...дисс.автореф. Тошкент, 2010. Б.8.

⁸⁵ Ўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик таҳлили. Т. 2007. 35- бет.

⁸⁶ Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. Алишер Навоий номидаги миллий кутубхона нашриёти. Тошкент, 2009. Б.78.

Yangi **kelinchakday** yangiliklar bor (17-bet).

Shoir internet haqida soʻzlar ekan, uni bu dunyoning egasi, poyonsiz olamning erkasi, qitʻadan qitʻaga mish-mish tashuvchi, garchi kecha-kunduz uyqusi boʻlmasada, lek insoniy tuygʻularing yoʻqligini eʼtirof etar ekan, unda ajib bir tantiliklar bilan, yangi kelinchakday yangiliklar borligini zavq bilan tasvirlaydi.

Shoirning “Shohtut” sheʼri oʻqish davomida oʻxshatishlarning bir qator kelishini koʻrishimiz mumkin:

Momom shohtutiga nigohbon edi,
Shohtut ham **momomday** mehribon edi...
Biz ham shu shohtutning **mevalariday**
Rang olib ulgʻaydik tevaragida[118-betlar]

Sheʼr Oybibi momoning yashil shohtuti haqida boʻlib, unda Oybibi momo kabi shohtut yosh, begʻubor bolalarga mehribonligini oʻxshatish orqali badiiy tasvirlab beradi. Liruk qahramon oʻzini shohtutni mevalariga oʻxshatadi.

Sheʼr davomida Oybibi momoning dunyodan oʻtishi bilan bir kechada yashil shohtutini bukchayib qolganini guvoh boʻlamiz:

Keyin shaharlarga biz tarqab ketdik,
Shohtut emas, **goʻyo** biz qaqrab ketdik(118-bet).

Yuqorida keltirilgan oʻxshatish hosil qiluvchi vositalar yordamida hosil qilingan betakror tasvir “Insonni ruhan toʻlqinlantirish, yigʻlatish, kuldirish, xayolot olamiga yetaklash, oʻyga choʻmdirish, estetik tafakkurini shakllantirish, voqea-hodisalarga teran, boshqacha nazar bilan boqishga oʻrgatish kabi koʻplab imkoniyatlarni oʻzida mujassam qilgan”⁸⁷ badiiy matnning lingvopoetik imkoniyatlari keng ekanligidan dalolat beradi:

Endi kelib koʻrsak -u azim shohtut,
Bujmaygan, kichraygan-**mushdayginadir**.
Misli bir xotirotni unut dunyodan-
Oʻtib bormoqdadir shohtut dunyodan.
Oybibi momomning betob shohtuti,
Boʻlmish gadoydan ham xarob shohtuti [2;118-119-
betlar]

S.Sayyid oʻxshatish hosil qilishda mavjud leksik va grammatik vositalar qatori “tushdayginadir”, “qushdayginadir”, “mushdayginadir” soʻzlaridan ham oʻrni bilan foydalanganligi kuzatiladi. Sheʼr oxirida esa aslida shoirning maqsadi oʻxshatish hosil qilish emas, balki Oybibi momoning mehrini shohtut misolida hech narsaga oʻxshatib boʻlmasligini taʼkidlash ekanligi ayon boʻladi. Ana shu maqsadning yuzaga chiqishida oʻxshatish muhim ahamiyat kasb etganligi seziladi.

S.Sayyid ijodida oʻxshatish lirik qahramon ichki olami, ruhiyati, nutq obyektini aks ettirishdan tashqari poetik matnda obrazlilikni hosil qilish, maʼnoni kuchaytirish, boʻrttirish kabi vazifalarni bajarishda muhim lingvopoetik vosita

⁸⁷ Ёўлдошев М. Бадий матннинг лингвопоэтик таҳлили. Т. 2007. 35- бет.

sifatida foydalanilgan. Bu esa o'z navbatida badiiy matnlarning emotsional_ekspressivligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

¹ Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули. Ўзбек тили ва адабиёти, 2011, 3-сон.

² Саййид Сирожиддин. Асарлар. IV жилдлик III жилд.– Т.: Sharq, 2019.

³ Ҳасанов А.А. Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари тилининг бадииятини таъминловчи лексик-стилистик воситалар. Филол.фанлари номз...дисс.автореф. Тошкент, 2010. Б.8.

⁴ Ёлдошев М. Бадий матннинг лингвопоэтик таҳлили. Т. 2007. 35- бет.

⁵ Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. Алишер Навоий номидаги миллий кутубхона нашриёти. Тошкент, 2009. Б.78.

⁶ Ёлдошев М. Бадий матннинг лингвопоэтик таҳлили. Т. 2007. 35- бет.

O'ZBEK ADABIY TILI VA XUSUSIYATLARI

Tursunboyeva Farangiz JDPI talabasi

Ilmiy rahbar: D.Fayzullayeva JDPI

Til tarixini o'rganish hozirgi zamon o'zbek tilini tushunish, ya'ni bu tilning uzoq asrlar mobaynida davom etgan murakkab tarixiy jarayonlarning samarasi ekanini keng tushunish imkonini tug'diradi. O'zbek tili, uning adabiy formasi uzoq davr va asrlarning mahsulidir. U o'tmishda ma'lum bo'lgan boshqa tillar kabi urug' tilidan qabila, qabila tilidan xalq va xalq tilidan milliy tilga qarab taraqqiy etdi. Uzoq asrlar davom etgan bu jarayonda o'tmish asrlardagi til hodisalari keyingi davrlardagi til hodisalaridan farqlanib qoldi. Ijtimoiy taraqqiyot talablariga javob berolmagan til hodisalari asta-sekin umumtil aloqasidan chiqib ketdi. Ularning o'rnini zamon talabi bilan yuzaga kelgan yangi til hodisalari egalladi. Shuning natijasida yuqorida aytilgandek, hozirgi zamon o'zbek tili o'zining o'tmishidan uzoqlashib ketdi. Bu holatni yozuv yodgorliklarida aks etgan hodisalar bilan qiyoslashda yaqqol ko'rish mumkin. Ma'lumki, tilning tuzilish elementlari uzoq o'tgan davr ichida bir xilda o'zgarib kelmadi. Ijtimoiy taraqqiyot dastavval tilning leksikasiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Shuning uchun tilning boshqa tuzilish elementlariga ko'ra tilning lug'at tarkibi o'zgaruvchan bo'ladi. Tilning lug'at tarkibiga qaraganda uning grammatik qurilishi sekinlik bilan o'zgargan. Tilning fonetik sistemasi grammatik tuzilishiga nisbatan yana sekinlik bilan o'zgaradi. O'zbek adabiy tili kelib chiqishining ob'ekti matn va adabiy til hisoblanadi. Adabiy til tarixining eng muhim vazifalaridan biri buyuk so'z ustalari tomonidan rivojlantirilgan umumxalq tilining qayta ishlanish xususiyati va rolini. aniqlashdir.

O'zbek adabiy tilining asosiy manbalariga yozma obidalar - badiiy, ilmiy asarlarning matnlari, sheva materiallari, joy nomlari, kishi ismlari, hozirgi o'zbek adabiy tili materiallari, tarixiy lingvistik lug'atlar, turkshunoslikka oid o'zbek, rus va xorijiy olimlarning tadqiqot va qo'llanmalari kiradi.

Adabiy til deb leksik tarkibi barqaror, fonetik va grammatik qurilishi silliqlashgan umumxalq tilining oliy shakliga aytiladi. Adabiy tilning yuzaga kelishi shu tilning xalq va milliy til bosqichlari bilan bog'likdir. Ma'lum bo'ladiki, adabiy til xalq yoki maishiy til zaminida yaratiladi. Shuning uchun ham o'zbek adabiy tilining shakllanishini XIII asr oxiri va XIV asr boshlari bilan, eski turkiy adabiy tilning (qoraxoniylar davlati adabiy tili) shakllanishini XI - XIII asrlar bilan bog'laydilar. Adabiy til asosiy e'tibori bilan umumxalq tilidir, lekin u so'z ustalari tomonidan ijodiy boyitilgan va qayta ishlangandir. Adabiy tilning yozma va og'zaki shakllari bor. Ma'lumki, yozuvsiz adabiy til bo'lishi mumkin emas. O'zbek adabiy tilining shakllanishi va silliqqlanishi O'rta Osiyoda yozuvning paydo bo'lishi bilan yozuvdan oldingi xalq og'zaki poetik ijodini og'zaki adabiy tilning ko'rinishi deb qarash mumkin. Demak adabiy tilning og'zaki formasi yozma adabiy tilning vujudga kelishiga zamin yaratgan. Bu esa adabiy til yozuvdan oldin yuzaga keldi degan xulosani bermaydi. Yozma adabiy til og'zaki adabiy tilning ma'lum normada saqlanib turishi uchun xizmat qiladi, chunki adabiy til yozuv bilan shakllangandagina o'zining normalariga qat'iy ega bo'ladi. Adabiy tilning normalashtirilgan til deyilishining boisi ham shundadir. Adabiy til dialekt va jargonlardan o'zining normaga solinganligi bilan farq qiladi. Adabiy til uslubda, so'z qo'llashda, morfologik va sintaktik modellarga rioya qilishda har bir tilning o'z ichki qonunlari doirasidan chiqmaydi. Og'zaki adabiy til esa, til taraqqiyotining ma'lum davrida bir xil talaffuz normalariga amal qilishni talab qiladi. Tilning taraqqiyotiga bog'liq ravishda adabiy til normasi ham o'zgarib boradi. Masalan, o'zbek adabiy tilida Alisher Navoiy davridan beri uning lug'at tarkibida va grammatik qurilishida turli o'zgarishlar bo'ldi.

O'zbek adabiy tili tarixi quyidagi qatlamlarni o'z ichiga oladi:

1. Qadimgi turkiy adabiy til. (X-XI asrlar). O'rxun-enasoy yodgorliklari(V-VII asrlar), Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'oti turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarlari shu tilda yozilgan.
2. Eski o'zbek adabiy tili.(XIII-XIX asrning ikkinchi yarmigacha). Xorazmiyning "Muhabbatnoma", Rabg'uziyning "Qissayi Rabg'uziy", Atoiy, Sakkokiy, Sayfi Saroyi, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, MAxmur, Muqimiy, Furqat, Zavqiy va boshqalarning asarlari shu tilda yozilgan.
3. Hozirgi o'zbek adabiy tili. (XIX asrning ikkinchi yarmidan hozirgi davragacha). Ya'ni 1870-yildan e'tiboran to hozirgi kungacha yaratilgan barcha asarlar hozirgi o'zbek adabiy tilining namunalari hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'zbek adabiy tili tarixining vazifasi badiiy, publitsistik, ilmiy- ommabop, dokumental asar va ishlarning tilini, ularda adabiy tilning aks etishini, taraqqiyot jarayonini hamda ularning stillarini o'rganishdan iborat. Umuman, adabiy til taraqqiyoti ikki aspektga o'rganiladi; tarixiy va stilistik. Ular bir-biri bilan bog'liq holda o'rganiladi. Adabiy til stillar sistemasidan iborat bo'lib, u turli davrlarda jamiyatning rivoji bilan turli xil bo'lishi mumkin. Chunki fikrni ifoda etish jarayonida har bir asar nutq tuzilishining o'ziga xosligi bilan farqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Абдурахмонов Ф., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. -Т.: Ўқитувчи, 1973.
2. Abdurahmonov G., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. -Т.: O'qituvchi, 2008.
3. Турсунов У., Уринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи. -Т.: Ўқитувчи, 1994.

SO‘ZLASHUV NUTQI HODISASINING O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA O‘RGANILISHI

2-bosqich magistranti O‘.Maxammatov

So‘zlashuv nutqi qanday hodisa? Uning nutqiy sistemalardagi, nutq uslublaridagi, adabiy til va kundalik nutqiy jarayondagi o‘rni va roli masalalari tilshunoslikda (rus, o‘zbek turkologiyada) turlicha talqin qilingan. Jumladan, professor B.O‘rinboyev o‘zbek so‘zlashuv nutqining sintaktik xususiyatlarini izohlashga bag‘ishlangan doktorlik dissertatsion ishida so‘zlashuv nutqiga bag‘ishlangan ishlarni tahlil qilgan holda so‘zlashuv nutqi hodisasini quyidagilarga bo‘ladi:

1. So‘zlashuv nutqi –bu og‘zaki nutq.
2. So‘zlashuv nutqi – ishlanmagan, normalanmagan og‘zaki nutq.
3. So‘zlashuv nutqi adabiy tilning og‘zaki adabiy so‘zlashuv ko‘rinishi.
4. So‘zlashuv nutqi funksional uslub ko‘rinishlaridan biri.
5. So‘zlashuv nutqi adabiy tilning og‘zaki shaklining uslubiy ko‘rinishlaridan biri.
6. So‘zlashuv nutqi nutqiy formalardan biri.
7. So‘zlashuv nutqi nutqiy tiplardan biri.
8. So‘zlashuv nutqi adabiy til bilan xalq so‘zlashuv tili o‘rtasida turuvchi nutq ko‘rinishi.
9. So‘zlashuv nutqi kundalik turmushda amal qiluvchi nutq turi.
10. So‘zlashuv nutqi adabiy tilning og‘zaki shakli bilan mahalliy shevalar orasida turuvchi nutqdir.
11. So‘zlashuv nutqi o‘ziga xos mustaqil sistemadir”⁸⁸.

Biz bitiruv malakaviy ishimizning ikkinchi bobida beshinchi va o‘nbirinchi ko‘rinish haqidagi mulohazalarimizni bayon etamiz.

So‘zlashuv nutqi hodisasini yuqorida qayd etilgan ko‘rinishlarini yoritish ushbu nutqiy sistemaga har bir tadqiqotchining turli tomonlama yondashishi, so‘zlashuv nutqi materiallarini turli nuqtai nazardan tekshirishi yuz bergan holatlar ekanligi tabiiydir.

So‘zlashuv nutqi hodisasini to‘g‘ri talqin qilish, ushbu sistemaning mohiyatini ilmiy yoritish har xilligi jihatidan so‘zlashuv nutqini yuqorida qayd etilgan holatlarda o‘rganishni talab etadi. Masalaning shu tomonini e‘tiborga olib ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirmoq kerak.

⁸⁸ O‘rinboyev B. O‘zbek so‘zlashuv nutqi sintaksisi. T., „Fan“, 1974.

Professor B.O‘rinboyev o‘zining bu sohaga bag‘ishlangan bir qator maqolalarida va monografiyalarida so‘zlashuv nutqi sintaksisi haqida qator mulohazalarni bayon etadi⁸⁹.

Tilshunos S.M.Xoldorovaning “Hozirgi zamon o‘zbek tilida dialogik nutqning semantik strukturaviy xususiyatlari” mavzusidagi dissertasion ishida ham dialogik nutqning sintaktik strukturasi masalasi tadqiq etiladi. S.M. Xoldorova o‘z tadqiqotida so‘zlashuv nutqi (“Разговорная речь”) atamasidan keng foydalanadi. Ish muallifi so‘zlashuv nutqini funksional uslub ko‘rinishlaridan biri deb baholaydi. “... разговорный стиль речи-это один из функциональных стилей современного узбекского языка именней особую форму построения-диалогическую. Ushbu mulohazalardan kelib chiqqan holda so‘zlashuv nutqining til sistemasidagi o‘rni tadqiqodchi tomonidan quyidagicha belgilanadi. «Исследование стилей в узбекском языке позволило нам прийти к выводу следующей классификации стилей речи: 1. Научный стиль; Газетно; публицистический стиль, 3. Официально деловой стиль, 4. Литературно-художественный стиль, 5. Разговорный стиль”⁹⁰.

So‘zlashuv nutqining o‘zbek tilining uslubiy ko‘rinishlaridan biri deb bilgan tilshunos A.Shomaqsudovning bir qator ishlarida ham so‘zlashuv nutqi hodisasi haqida qator mulohazalarni uchratish mumkin.

Ma’lumki, til kishilar o‘rtasidagi vositasi sifatida har qanday sharoitda va ular faoliyatining barcha sohalarida, foydalanishda leksik, frazealogik, grammatik, fonetik vositalarni tanlash va ishlatishning ma’lum farqlari sezilib turadi.

Til vositalarining umumxalq til doirasida bunday tanlab olinishining sababi aloqa qilishning qanday formalari og‘zaki va yozma formalardan tashqari yana nutqning xilma xil ko‘rinishlari ham paydo bo‘ladi. Nutqning bu xilma-xil ko‘rinishlarini nutq stillari nomi bilan yuritiladi.

Tilshunos A.Shomaqsudov o‘zbek tilining nutqiy stillarini tahlil qilar ekan “o‘zbek tili funksional” stillarining qisqacha xarakteristikasi sifatida: Ilmiy-texnik stil ilmiy-ommabop stil, rasmiy-idoraviy stil, ilmiy publisistik stil, so‘zlashuv stillariga to‘xtaladi. So‘zlashuv uslubining mohiyatini A.Shomaqsudov quyidagicha talqin qiladi: “So‘zlashuv stili, asosan bevosita kundalik (og‘zaki) muomala uchun xizmat qiladi.

So‘zlashuv nutqi og‘zaki nutqqa qaraganda bir muncha tor tushunchadir. So‘zlashuv stili og‘zaki nutqda muhim o‘rin tutishiga qaramay, og‘zaki nutqdan kelib chiqishiga ko‘ra kitobiy-yozma manbalarga xos leksiya, doklad, majlislardagi nutqlardan butunlay farqlanadi”⁹¹.

A.Shomaqsudovning boshqa ishlarida so‘zlashuv stili maxsus yoritiladi. U hozirgi zamon o‘zbek tilining so‘zlashuv stilini ikki turga-adabiy-so‘zlashuv stili va oddiy so‘zlashuv stiliga bo‘ladi. A.Shomaqsudovning qayd etishicha: “Adabiy so‘zlashuv stili tilning adabiy normalariga mos bo‘lib, tartibga solingan va puxta

⁸⁹ O‘rinboyev B. O‘zbek tili so‘zlashuv nutqi sintaksisi masalalari. T., “Fan”, 1974, 11bet.

⁹⁰ Xoldorova S.M. Semantika strukturnyis psobennosta dialogicheskoy rechi v sovremennom uzbeckom yazyki. AKD. T., 1974, 5 bet.

⁹¹ Shomaqsudov A. O‘zbek adabiy tili stillari haqida. “Filologik tadqiqotlar” Toshkent., 1976, 22 bet.

ishlangan bo'lishi bilan farqlanadi. U grammatik noaniqliklardan hamda sodda til, jargon va sheva elementlaridan xolidir"⁹².

Oddiy so'zlashuv stili uchun esa betakalluflik bilan erkinlik, oddiy ravishda muomala-aloqa qilish xarakterli xususiyat sanaladi. Unda so'zlashuv nutqiga xos bo'lgan emotsionallik yaqqol sezilib turadi. Chunki oddiy so'zlashuv uslubi o'z tarkibiga sodda tilga xos elementlarni, ya'ni u yoki bu darajada tilning adabiy normalariga mos kelmaydigan fonetik, grammatik, leksik-frazeologik hodisalarni kiritish mumkin.

Xulosa qiladigan bo'lsak A.Shomaqsudovning bu boradagi ishlarida bevosita so'zlashuv nutqi masalalari talqin etilmaydi, balki ushbu nutqqa xos elementlarning boshqa uslubiy ko'rinishlar sistemasida uchrovchi elementlari haqida so'z yuritiladi.

Tilshunos M.Tursunpo'latov o'zining "O'zbek so'zlashuv nutqi leksikasi" nomali nomzodlik ishida so'zlashuv uslubi o'ziga xos leksik xususiyatlarga egaligi tilshunoslikda ushbu leksik guruhlar yuzasidan so'zlashuv nutqi aspektida kam ishlar amalga oshirilganligi, turkologiyada, jumladan o'zbek tilshunosligida evfemizmlar, taqlidiy so'zlar va undovlar, jargonlar, frazeologizmlar, takroriy so'zlar yuzasidan maxsus ilmiy tadqiqy ishlari olib borilganligi, ammo ushbu ishlarda so'zlarning mana shu guruhlarini tug'diruvchi omillar, nutqiy vaziyat va uslublar yuzasidan aytilgan mulohazalar kam darajada ekanligi qayd etiladi⁹³. Xolbuki keltirilgan so'z guruhlarining tug'ilishi va ishlatilishi aslida so'zlashuv uslubi, nutqning so'zlashuv nutqi tili bilan aloqadordir. Shu sababli, bizning fikrimizcha, til lug'at sostavidagi bir qator leksik guruhlar so'zlashuv nutqining tabiati bilan bog'liq holda o'rganilmog'i darkor.

So'zlashuv nutqi jonli, hayotiy va kundalik turmush nutqidir. Unda kishilarning kundalik turmushidagi o'zaro munosabatlari, bundagi ijobiy, salbiy xususiyatlarida o'z ifodasini topadi. So'zlashuv nutqida so'zlovchilarning psixik olami, holati ham mujassamlashgan bo'ladi. Shu tufayli ham so'zlashuv nutqida kishilarning o'zaro munosabati va psixik holatini ifodalovchi so'zlar ko'p ishlatiladi. Masalan:

Anorxon. Voy olay, qistamanglar!

Tursunxon. Anorxon, siz ham ko'pam noz qilmang!

Anorxon. Voy, qirilib ketsin, shu ham noz bo'lsa! Ma'lumki, tili nutqda moddiy bazaga real kuchga aylanadi. Til sistemasi nutqda reallashadi. Demakki til materiali nutq jarayonida chinakkam ijtimoiy hodisaga aylanadi, o'zaro aloqa quroli funksiyasini bajaradi.

Tilshunos professor E.Begmatovning qayd etishicha, ushbu nutq til materiallariga ko'ra adabiy, dialektal "oddiy nutq" yoki qarishliq ko'rinishlarga ham ega bo'lishi mumkin. Ammo deb yozadi E.Begmatov: "Lingvistika" uchun nazariy amaliy jihatdan so'zlashuv nutqining adabiy so'zlashuv formasi muhimdir. Adabiy so'zlashuv nutqi, Masalan: o'zbek adabiy tilining butun o'zbekiston hududida tarqalgan adabiy-so'zlashuv ko'rinishdir. Shuning uchun

⁹² Shomaqsudov A. So'zlashuv stili. Toshkent., 1972, 37bet.

⁹³ Tursunpo'latov M. Лексика узбекский разговорной речи Лтор кан. Диссер. Toshkent, 1982y

adabiy-so‘zlashuv nutqi butun o‘zbekiston bo‘ylab mahalliy shevalarga katta ta’sir o‘tkazayotgan, ammo oz bo‘lsada o‘zi ham mahalliy shevalarning ta’siri fanida ko‘rinayotgan nutqdir.

Xulosa qilib aytganda, so‘zlashuv nutqi masalasi hozirgi tilshunosning dolzarb masalalaridan biridir, desak unchalik xato bo‘lmaydi. Bunga sabab so‘zlashuv nutqining mohiyati, lingvistik talabi bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘pgina tomonlar tilshunoslik fanida hali chinakkamiga hal etilgan masala emas. Bu borada ko‘pgina ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirmoq darkor.

“O‘TKAN KUNLAR” ROMANIDA OBRAZLAR TIZIMI

O‘razaliev Muhammadjon, JDPI magistri
Ilmiy rahbar: f.f.n. dots. Soatova Nodira

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani tasvir ob’jektining yangiligi, yorqin xarakterlarning yaratilganligi, poetik komponentlarining uyg‘unligi, original tasvir vositalari bilan novatorlik kasb etadi. Shu o‘rinda e’tirof etish kerakki, “Har bir san’atkor o‘z asari orqali mavjud voqelikdagi ayrim tamoyillarga munosabat bildiradi, hatto ular ustidan hukm ham chiqaradi. Bu hol yozuvchining tasvir etilayotgan voqealar va qahramonlarga muayyan munosabatini kitobxonlarga hadeb ta’kidlab ko‘rsatishini yoki o‘z qarashlarini bo‘lar–bo‘lmasga ochiqdan–ochiq quruq bayon qilishini, obrazlarni o‘z g‘oyalari jarchisiga aylantirib yuborishini anglatmaydi. Bunday hol asarning badiiy kuchiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, asar badiiy qimmatining pasayishiga olib kelishi mumkin. Haqiqiy novatorona yaratilgan asarlarda bunday hol ro‘y bermaydi”⁹⁴. “O‘tkan kunlar” romani esa yuqorida aytganimizdek, haqiqiy novatorona yaratilgan asar bo‘lib, romanda tasvirlangan qahramonlar o‘zlarining tabiiyligi, qalblarining ko‘z ilg‘amas darajada tovlanib turishi, favqulodda kuchli jozibasi, sir–asrirlarga boyligi bilan kishini maftun qiladi. Quyida romandagi ba’zi obrazlar xususida to‘xtalamiz.

Ma’lumki, romanda asosiy g‘oyani o‘zida mujassam etgan bosh obraz mavjud bo‘ladi. Undagi asosiy qahramonlar atroflicha talqin etilmasa–da, yozuvchining o‘rinli tavsifi orqali kitobxon ko‘z o‘ngida gavdalanadi. Yozuvchi badiiy obrazni individual xususiyatlari bilan ko‘rsatish orqali konkretlashtiradi, obrazga jonlilik, hayotiylik, tabiiylik baxsh etadi, emotsionallikka erishadi. O‘quvchi hissiyotiga ta’sir qiladi, uni ishontiradi. “O‘tkan kunlar” romanida “...badiiy olamidagi yetakchi g‘oya–obrazlar asosan Yusufbek hoji obrazida ifodalangan. Muallifning, tarixiy davrning ilg‘or qarashlari mazkur xarakter atrofiga kelib yig‘iladi, tig‘izlashadi, shu tariqa g‘oya bilan obraz tutashib, birlashib ketadi”⁹⁵. Zero, Qodiriyning Yusufbek hoji bilan Otabegi o‘lmas obraz–

⁹⁴ Анъанавийлик ва ворислик. Тошкент.: “MUMTOZ SO‘Z” нашриёти. 2019. 12 б

⁹⁵ Муродов Ф. Б. Тарихий романнинг муштараклик ва ўзига хосликлар уйғунлиги муаммолари. Ф.ф.доктори (DSc) даражасини олиш учун тақдим этилган диссертацияси автореферати, 2018.– Б.6–17

xarakterlardir. **Yusufbek hoji** obrazi: serqirra va serqatlam obraz bo‘lib, imonli hoji, elparvar mushovir, yurtparvar, ma‘rifat sohibi, andishali er, mulohazali ota, yurt og‘asining imonli, e‘tiqodli, taqvoli, umrini musulmonlar manfaatiga baxshida qilgan fidoyi bir inson. Donishmand, oqil, dono, maslahatgo‘y, o‘ziga xos inson, shu bilan birga o‘ta kamgap. Uning surat va siyratidan nur yog‘iladi. So‘zlari axloq suvi bilan to‘yingan. U barchaga bir xil munosabatda bo‘ladi, uy ichidagilar va xonlik dargohidagi kishilar bilan bir maromda so‘zlashadi. Yusufbek hoji so‘zlovchining yuziga qaramasdan uning so‘zini eshitaveradi, fikri tugagandan so‘ng javob berishga o‘tadi: “... agar ma‘qul bo‘lsa, **“xo‘b”** deydir, gapga tushunmagan bo‘lsa **“xo‘sh”** deydir, noma‘qul bo‘lsa, **“durust emas”** deydir va juda ham o‘ziga noma‘qbul gap bo‘lsa, bir iljayib qo‘yish bilan kifoyalaniib, mundan boshqa so‘z aytmaydir va aytsa ham uch–to‘rt kalimadan oshmaydir”⁹⁶. Uning bu sajjiyasi “Sihatlik tilasang, kam ye, donolik tilasang, kam de” degan xalq maqoliga juda ham monand.

Hojining xarakteri umumlashma va individuallashtirish orqali yuzaga kelgan. Aytaylik, uning “xo‘b” deyish bir kishidan, “xo‘sh” deyish ikkinchi kishidan, “durust emas” deyishi to‘rtinchidan, “noma‘qul” deyish beshinchi kishidan olingandir. Ayniqsa, o‘ta nodurust fikr bo‘lsa, iljayib qo‘yish bilan javob berish o‘ta qiziq va noyob xislat. Bularning hammasini yozuvchi estetik ideali bilan “payvand”lagan, aks holda bunday xususiyatdan odam hayotda bo‘lishi amrimahol.

Yuqoridagi psixologik belgilar Yusufbek hojining iroda yo‘nalishini belgilashda muhim omil bo‘lgan. Hoji xonning eng odil va ishongan maslahatchisi, puxta, fikri toza va omilkor inson. U Azizbekning 32 tilla tanga yig‘ishni e‘lon qilishni rad etishi uni jazoga tortilishi muqarrar ekanini bilgani holda tezda fikrini o‘zgartiradi, xon fikrini qabul qiladi. Ammo o‘zining iroda yo‘nalishiga tayanib, ish ko‘radi: barchani g‘alayonga oyoqqa turg‘azadi.

Otabek obrazi: Otabek madrasada diniy bilim olgan, islom dinining savob va gunoh, halol va harom borasidagi ko‘rsatmalaridan yaxshi xabardor o‘ziga ishongan islohotchi – inqilobchi, iqtisodiy va davlatchilik tizimida islohotlar tarafdori, komil inson, ma‘rifatli do‘st, chin oshiq. Adib Otabekning tashqi ko‘rinishini quyidagicha tasvirlaydi: “Og‘ir tabi‘atlik, ulug‘ gavdalik, ko‘rkam va oq yuzlik, kelishkan qora ko‘zlik, mutanosib qora qoshliq va endigina murti sabz urgan yigit” (7–bet). Shu bilan birga, Qodiriy Homidning xotinbozligi va bo‘hton yog‘dirib, go‘zal insonlar hayotiga tikan bo‘lishini Otabekka zid qo‘yib tasvirlaydi. Homid uchun xotiniga “er” bo‘lsa bo‘ldi, Otabek uchun esa er xotinning tabiatiga muvofiq ham bo‘lishi lozim. Shu so‘zining ustidan chiqishi uchun ham Zaynabni zavja maqomida qabul qilmagan. Ikkinchi tomondan qaraganda, “Otabek madrasa ko‘rgan, oq–qorani tanigan yigit esa–da, asar davomida solih bir insondan gunohni yengil sanaydigan fojir kimsaga aylana boradi. Uning solih farzandga xos bo‘lmagan katta xatolaridan biri shuki,

⁹⁶ Қодирий А. Танланган асарлар. Ўткан кунлар.–Т.: “Sharq” нашриёт–матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти 2014.– Б .102 (Bundan keyingi iqtiboslar shu nashrdan olinadi va beti qavs ichida ko‘rsatiladi)

Kumushni sevib qolgach, bundan ota–onani voqif qilish, rozliklari va duolarini olish o‘rniga xizmatkor Hasanalini sovchilikka yuborish bilan kifoyalanadi. “Xotinlaringiz o‘rtasida adolat qiling” degan ilohiy amrga qarshi o‘laroq ikkinchi xotini Zaynabga o‘ta beparvolik, qo‘rslik bilan muomala qiladi, ko‘p ishlarda adolatsizlik va zulm ko‘rsatadi. Hatto buni ota–onaga nisbatan norozilik, isyon sifatida qilayotganini ham yashirmaydi: “Keliningiz mendan yaxshilik ko‘rmas, demaganmi edim? Siz bilan otam bunga ko‘nmaganmi edingiz, siz buni inkor qilasizmi?” (o‘sha manba, 165–bet). Boshiga kulfat tushishi bilan tadbir–chora topish o‘rniga ichkilikka ro‘ju qo‘yadi. Bo‘lib o‘tgan ishlarda ota–onaga nohaq malomat qila boshlaydi. Nima sababdan ekanidan qat’i nazar, oxiri qotillikka qo‘l urishgacha ham boradi”⁹⁷.

Romanning o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda shaxs, oila va nikoh, ota–ona orzusi kabi tushuncha markaziy muammo darajasiga ko‘tarilgandek ko‘rinadi, lekin Qodiriy ishqiy sarguzashtlar ko‘rinishida o‘lkaning tutqunlikka tushishining bosh sababi jaholat, qoloqlik va o‘zaro ichki nizolardir degan fikrni g‘oyat ustalik bilan aytadi. Garchi romanda adib shaxs xarakteri va qismatini muhit, sharoit, ijtimoiy muammolar bilan chambarchas aloqadorlikda tasvir va tahlil etsa–da, inson shaxsining muhit va sharoitga bog‘liq bo‘lmagan tug‘ma, sirli–sehrli g‘aroyib shevalariga ham e‘tiborni tortadi.

O‘zbek oyim obrazi: Tabiiy, go‘zal va dumbul tabiat bu ayol o‘g‘li Otabek, qolaversa kelinlari – Kumush, Zaynab taqdirlarining chigallashib ketishi, oxiri fojiga yuz tutishida bosh sababchi ekani barchaga birdek ayon. Lekin har qancha gunohkor bo‘lmasin, o‘ta andishali adib uni keskin qoralashga tili bormaydi. Nima bo‘lganda ham, O‘zbek oyim, baribir ona... Ayni paytda rostgo‘y, realist yozuvchi onaning pala–partish, dovdir xatti–harakatlaridan, tabiatidagi ayrim kamchiliklaridan ko‘z yumib o‘tolmaydi. Bu borada adibga xalqona yumor qo‘l keladi. Bu obraz tasviri boshdan–oyoq ajib serjilo – ham kinoya–kesatqlarga, ham ardoq–mehruga to‘la yumor bilan yo‘g‘rilgan.

Kumish obrazi: Aqlli, o‘qimishli, o‘ziga ishongan, jasur, mustaqil qaror qabul qila oladigan obraz timsoli. Yana shu o‘rinda alohida e‘tirof etish kerakki, adib ijobiy qahramonlarni tavsiflar ekan, ijobiy emotsional bo‘yoqli so‘zlar va iboralardan foydalanadi. Xususan, Kumushbibi ta’rifidagi mubolag‘a orqali qizning suluv ko‘rinishi, jozibador chehrasi ko‘z oldingizda namoyon bo‘ladi. go‘zallik qonuniyati asosida obrazlar va ularning surat–siyrati, atrof–muhitning manzaralari go‘zal qilib tasvirlanganda ko‘rinadi. Kumush surati: “... uyning to‘riga solingan atlas ko‘rpa, par yostiq quchog‘ida sovuqdan erinibmi va yo boshqa bir sabab bilanmi uyg‘oq yotgan bir qizni ko‘ramiz. Uning qora zulfi par yostiqning turlik tomonig‘a suratda to‘zg‘ib, quyuq jingalak kiprik ostidag‘i tim qora ko‘zlari bir nuqtaga tikilgan–da, nimadir bir narsani ko‘rgan kabi... qopqora kamon, o‘tib ketgan nafis qiyiq qoshlari chimirilgan–da, nimadir bir narsaga cho‘chigan kabi... to‘lgan oydek g‘uborsiz oy yuzi bir oz qizilliqg‘a aylangan–da, kimdandir uyalgan kabi... Shu payt ko‘rpani qayirib ushlagan oq nozik qo‘llari

⁹⁷ [http:// e–adabiyot.uz/ adabiyotshunoslik/ adabiy–suhbatlar/](http://e-adabiyot.uz/adabiyotshunoslik/adabiy-suhbatlar/) 812–maqola.html. Қодирийнинг “нимкоса”лари. “Ўткан кунлар”га янгича назар. Аҳмад Муҳаммад

bilan latif burnining o'ng tomonida, tabiatning nihoyatda usta qo'li bilan qo'ndirilgan qora xolini qashidi va boshini yostiقدan olib o'tirdi... Bu qiz suratida ko'ringan malak qutidorning qizi – Kumushbibi edi” [24–bet].

Kumush portreti adib tomonidan quyushtirilgan, ayni vaqtda go'zallashtirilgan: qora zulfi, timqora ko'zlar, nafis, qiyiq qoshlar, oq yuz, nozik qo'l, qora hol, jingalak kiprik kabi surat unsurlari terilgan, tanlangan, jonlantirilgan. Bu kabi jozibali jussa unsurlari bir qizda bo'lishi mumkin emas. Kumushda bor, uni Qodiriy go'zallik qonuniyati asosida qayta yaratgan. Nazarimizda, hayotda unday qiz yo'q.

Zaynab obrazi: Mute, itoatkor, o'zgalar izni bilan ish ko'radigan ojiza. Yozuvchi Zaynab xarakteriga xos tug'ma xususiyatlarni sharg'lash bilangina cheklanmaydi, uni o'zgalar taqdiriga ko'rsatgan ta'siri, fojeiy oqibatlarini ham ifoda etadi. O'zini boshqalar ixtiyoriga topshirib qo'ygan Zaynab shu ojizligi tufayli o'z baxtiga zomin bo'libgina qolmay, yana o'sha ojizligi tufayli o'zgalar qutqusi orqasida beixtiyor jinoyatga qo'l uradi – Kumushga zahar beradi.

Xullas “O'tkan kunlar” romani qahramonlarning hayotiylik kasb etishi va tarixiy voqealarga uyg'unligi jihatidan, mujassamot butunligi va tilidagi nafosati jihatidan ham o'zbek adabiyoti xazinasidagi durdonalar qatoridan o'rin olgandir. Asarda mazmun va shakl uyg'unligi, roman syujeti, komponentlarining poetik yangiligi va milliy qahramonlar xarakterining yorqin ifodalanishi kabilar roman badiiyatini ta'minlagan.

SHAVKAT RAHMON SHE'RIYATI HAQIDA

Laylo To'laganova JDPI talabasi

Ilmiy rahbar: f.f.n., dotsent Yulduz Karimova

“...kuylar shoir shamol, kuylar shoir qor,
shoir qorong'ulik, shoir tog'larda
shoir daryolarning shovillashi bor.”

Shavkat Rahmon

She'riyat – qalb kaliti. Insoniyat yaralibdiki, she'riyat bilan hamnafas yashaydi, uning dengiz to'lqinlari kabi isyonkor misralarida o'z iztiroblari, muhabbat va nafrati, qayg'u va shodliklari mavj uradi. “Haqiqiy she'r yozish o'lim bilan yuzma yuz turib gaplashgan bilan barobardir” 1 – degan edi shoir Shavkat Rahmon. Ma'lumki, shoirning bu fikri aforizmga aylanib ulgurgan. Uning bunday deyishiga u ijod qilgan davrning kayfiyati sabab bo'lishi ham mumkin. Lekin haqiqiy she'r rostdan ham juda kam hollarda tug'iladi. Shavkat Rahmon bitganlarida haqiqatning zarrin nurlari tovlanadi va badbin nigohlarni poklaydi, go'yo.

Shavkat Rahmon she'rlari kitobxonni teran fikrlashga undaydi, tafakkurini charxlaydi. "...Shavkat Rahmon yozganlarini ko'ngilni ko'tarish yoki jism toliqqanda dam olish uchun o'qish qiyin..."²

Joylashgansan shunchalar chuqur,
O'z tubiga yashirgan yurak.
Senga yetib bormoqlik uchun
Uzun umrim yetmasa kerak.

Ushbu she'rni o'qigan o'quvchi Vatan madh etilayotganini anglashi mushkul, tabiiyki bu jarayonda Shavkat Rahmon ijodi va shaxsiyati bilan tanish bo'lishi yoki, bulardan xabardor kishi ko'magini olishi lozim. Odatda Vatan haqida yozilgan she'rlar sodda, ravon yoziladi. Yuqoridagi misralar esa chuqurroq fikrlashga, tafakkur dengiziga sho'ng'ishga majbur qiladi kishini. Qalam ahliga ayonki, iste'dod ilohiy bo'ladi, haqiqiy san'at asari ijodkor jism-u jonini kuydurib tug'iladi. Shoir bu lahzalarda butun borliq ichra kezadi, ilohiy bo'shliq ichida tanho qoladi.

"...kuylar shoir shamol, kuylar shoir qor,
shoir qorong'ulik, shoir tog'larda
shoir daryolarning shovillashi bor."

deb yozgan edi bir she'rida. Shavkat Rahmonning she'riy kitoblarini qo'lingizga olarkansiz, ularning nomlariyoq sizni chuqur mushohadaga chorlaydi. "Rangin lahzalar", "Yurak qirralari", "Ochiq kunlar", "Gullayotgan tosh", "Hulvo", "Uyg'oq tog'lar" – bular ijodkorning qalb va tafakkur mahsuli. Shoirning vafotidan so'ng nashr etilgan "Saylanma" siga ham o'zi tomonidan tartib berilgan. Kitobning shakliy tuzulishida ham, Shavkat Rahmon falsafasining badiiyatga yo'g'rilgan uchqunlarini anglash mumkin.

Ijodkor shaxsidagi yuqori nuqta bu uning ruhiyati, ichki olami, xayolot ufqi. Shavkat Rahmon ana shu xayolot ufqiga istaganicha parvoz qiladi, qanotlarini qofiyaga xizmat qiluvchi so'zlar bilan bog'lab qo'ymaydi, so'zlar osmonining sof havosidan oniy lahzalarda to'yib-to'yib nafas oladi. Sara so'zlarni oppoq qog'ozga mahorat bilan joylar ekan, har bir so'z faqat ezgulikdan, rostgo'ylikdan bong uradi. Shu bois ham shoir she'riyati doimo barhayot.

"... har bir so'z yuz so'zning o'rnini bosar ,
Vatan, Xalq, Jasorat, Kurash,Ozodlik .
Har bir so'z yetajak yuzta umrimga..."

Haqiqatda, Shavkat Rahmon yuzta so'zning o'rnini bosadigan so'zlarni topib yozadi.Vatan,Xalq,Jasorat,Kurash,Ozodlik- bular shoir ijodining asosiy mezoniga aylangan edi. E'tibor bering-a agar shoirga yuzta umr berilsa, shu yuz umrning bari bilan umrining maslagi bo'lgan, yashab yurishining, tirikligining

sababi bo‘lgan Vatan, Xalq, Jasorat, Kurash, Ozodlik mohiyatiga singib ketishga hozir.

Shoir she‘rlari o‘ziga xos chorlovlardan, chaqiriqlardan, da‘vatlardan iborat. Bu chaqiriqlari bilan shoir istibdod ruhi hukm surgan bir davrda ko‘zlari ko‘r, quloqlari kar bo‘lgan, o‘z manfaati yo‘lida erk, ozodlik, millat kabi buyuk tushunchalarga qo‘l siltagan odamlarni sergaklikka undagan. Vaholanki, bu davrda bunday ochiqlik bilan yozish cheklangan edi. Shavkat Rahmon qalami keskir, u chegara bilmaydi, ma’naviy kurashlarda halok bo‘lganlar ruhi uning yuragini yondiradi, bir havoda nafas olayotgan qo‘rqoqlar esa, shoir qonini qaynatadi.

“.... halok bo‘lgan botirlar jangda ,
Tirik qolgan faqat qo‘rqoqlar.”

Yillar o‘tsada, vafotidan so‘ng ham shoir barhayot, u oramizda, qalbimizda Uning olov so‘zlari bo‘g‘zimizni kuyduraveradi, haqiqat, adolat kabi tuyg‘ularni yurak-yuragimizda ildiz ottiraveradi. Shoir she‘riyatining betakrorligi ham aynan shunda.

Shavkat Rahmon umrining so‘nggiga qadar millat ma’rifati, ona yurt erkinligi yo‘lida ijod etdi. Millat dardi, Vatan qayg‘usining yuki og‘ir. Shu yukka chin farzanddek yelka tutgan shoir bedavo xastalik bilan og‘ridi. Mustaqillikning ijodkorlarga bergan ne‘matlaridan qonish unga nasib etmadi. Bir so‘z bilan aytganda, shoir ruhiy-ma’naviy iztiroblar jangida o‘zi aytgandek botirlar safida ketdi. Biroq shoir yodi u taqdiriga qayg‘urgan, uning uchun yonib ijod qilgan millatning ruhi va qalbida abadiy. Uning she‘rlari yurtiga bo‘lgan muhabbat suvidan qongan yurak chizgilaridir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shavkat Rahmon :Abadiyat oralab”. – T. Ko‘hinur, 2012.
2. Bahodir Karimov “Ruhiyat alifbosi”. – T.: G‘afur G‘ulom, 2018.121-bet

III. АДАБИЙ МАНБАНИ МАТНИЙ ТАДҚИҚ ЭТИШНИНГ УСТУВОР ВАЗИФАЛАРИ

“ҚИССАИ САЙҚАЛИЙ” АСАРИДА ҚОФИЯ ВА РАДИФНИНГ ЎРНИ

С.Сойипов, JDPI dotsent v/b

XVIII асрнинг иккинчи ярмида яшаб ижод этган Собир Сақалий ўзбек адабиёти тарихида ўзига хос муносиб ўрин эгаллайди. У ўз даврининг

тараққийпарвар ижодкорларидан бири бўлиб, ўзбек шеърляти ва айниқса, дostonчилигининг энг илғор анъаналарини давом эттирган мутафаккирлардан ҳисобланади.

Ҳозирги кунга қадар Собир Сайқалийнинг ҳаёти ва ижоди чуқур ва атрофлича илмий тадқиқ этилмаган. Собир сайқалий асарлари орасида энг кўп тарқалгани унинг “Қиссаи Сайқалий” асаридир. Асар қўлёзмаларининг мукаммал ва тўлиқ бўлган нусхаси ўзбекистон Фанлар академиясининг Алишер Навоий номидаги Давлат адабиёт музейи қўлёзмалар фондида № 77 инвентар рақами билан сақланмоқда. Бу қўлёзманинг китобат санаси 1274 ҳижрий (1858 мелодий) йил бўлиб, уни Мулло Абдулкарим валади Мулло Муҳаммад Ҳиротий “эшони калон” девонхонасида таҳрир қилган. Демак, бу қўлёзма Собир Сайқалий вафотидан 60 йил ўтгач кўчирилган. “Қиссаи Сайқалий” дostonнинг кейинги нусхалари шу қўлёзма асосида кўчирилган бўлиши ҳақиқатга яқиндир.

Шундай экан, биз Алишер Навоий номидаги Давлат адабиёт музейи қўлёзмалар фондида № 77 инвентар рақами билан сақланаётган Собир Сайқалийнинг “Қиссаи Сайқалий” асари қўлёзма нусхасини асос қилиб олиб, унинг мазмунини ифодалашда қофиянинг ўрни масаласи тадқиқини амалга оширишни ўз олдимизга мақсад қилиб қўйдик.

Собир Сайқалий дostonни ёзишда шеърй шаклнинг муҳим унсури – қофияга ҳам алоҳида аҳамият берган. Шоир асарида вазн билан бир қаторда қофиянинг алоҳида ўрнини ҳисобга олган. Бинобарин, бадийй асарнинг асосий мазмунини таъсирчан, ёрқин ифодалашда қофия муҳим аҳамиятга эга. Сайқалий қофия танлашда асосий эътиборни унинг дoston мазмунига мутаносиб бўлишига қаратади. Қаҳрамонлар характериға қараб сўзларни саралайди ва оҳангдошликни ташкил қиладиган сўзларни маснавий жанри талабларидан келиб чиққан ҳолда жуфт-жуфт қилиб бир тизимға солади. Муҳими, шоирнинг бадийй маҳорати туфайли қофияланган сўзлар тизмаси шаклан бадиййлик мазмунан теранлик касб этади.

Деди: ровий ўшал дам шоҳимардон,
Ки қилди, ўн минг одам ерга яксон.
Муъовия кўруб ул кори Ҳайдар,
Чу келди, ёдиға гуфти паямбар.
Деб эрди, кўркунгиз ул кун Алидин,
Ки бул шери худо отлиғ валидин.
Қизил салла пешонидин чолонсўнг,
Кўлиға чўп дастини олон сўнг.
Агар мағрибу машрик бўлса лашкар,
Қириб саф айлағай ул кунда Ҳайдар.
Бу сўзлар ёдиға келгач ўшал шоҳ,
У ердин юз ўгируб қотти ногоҳ.
Тамом шоҳилар қотти шошибон,
Алининг қирғони ҳаддин ошибон¹.

¹ Қиссаи Сайқалий, 214-бет.

Бу лавҳада Ҳазрати Алининг қаҳрамонлиги образли ифодаланган. Шоир воқеалар занжирини усталик билан бадиий тил унсурлари, шеърӣ санъатлар ва қофия уйғунлигида боғлаб тасвирлашга муваффақ бўлган. Шеърнинг асосий мазмуни тенгсиз жангда Ҳазрати Алининг шижоати ва ғайрати туфайли Муъовиянинг аскарлари қирилиб енгилгани воқеаси акс этганида кўринади. Мазкур иқтибосдаги қофия танланган тасвирнинг ёрқин, ифоданинг таъсирчан бўлишини таъминлаган. Қофиядош сўзларнинг аксарияти Ҳазрати Алининг номи ёки нисбатини ифодаловчи отлардан иборат: Вали, Али, Ҳайдар, Шоҳимардон. Бу сўзларга қофиядош бўлган сўзларга ҳам эътибор қаратамиз: “Яксон”-ўн минг одамни ерга қилди яксон; “Ҳайдар”-Расули акрамнинг “жанг вақтида ундан кўрқингиз” деган сўзларига ишора қилиниб, ... “паямбар” сўзи билан қофияланмоқда. “Алидин” сўзига оҳангдош “валидин” сўзи ишлатилиб, Ҳазрати Алининг “Шери худо” лақабига ишора қилинмоқда. “Лашкар” сўзига “Ҳайдар” сўзи қофияланиб, мағрибу машриққача лашкар тортилган бўлса ҳам ҳазрат Али уни қириб ташлаши мумкинлиги муболаға санъати орқали образли ифодаланмоқда. Шундан кейинги “шоҳ” билан “ногоҳ” сўзлари орқали Муъовиянинг бу аҳволни кўриб, жанг майдонидан қочганига ишора қилинмоқда. Лавҳанинг охириги байтидаги “шошибон” ва “ошибон” қофиядош сўзлари шомий аскарлар мағлуб бўлганлигидан далолат беради. Шеърнинг умумий руҳи кўтаринки оҳангда бўлиб, ундаги қофиядош сўзлар ҳам шунга мувофиқ пафосни бериш учун хизмат қилган. Бу бадиий лавҳадаги қофиядош сўзларда икки товушдан тортиб (Ҳайдар-паямбар) то 8 та товушгача (чолон сўнг, олон сўнг) оҳангдошлик кузатилади.

Мазкур иқтибосда бош қаҳрамоннинг душман устудан ғалаба қилиши шеърнинг бошидаёқ “Ки қилди ўн минг одам ерга яксон” мисраси орқали ифодаланган. Шу боис воқеанинг асосий йўналишини ёрқин очиб бериш мақсадида бу ғалабанинг сабабчиси Шоҳимардон (яъни Ҳазрати Али) оти тилга олиниб, унга қофия сифатида “яксон” сўзи қўлланган. Бу қофиядош сўзлар бошқаҳрамон – ҳазрати Алининг жасоратини тўлақонли ифодалашга хизмат қилган. Шеърӣ лавҳанинг кейинги байтларида қофия вазифасини бажариб келган “Ҳайдар-паямбар”, “Алидин-валидин”, “чолон сўнг-олон сўнг”, “лашкар-Ҳайдар”, “шоҳ-ногоҳ”, “шошибон-ошибон” сўзлари ҳам ўзига хос вазифани бажариб келган. Улар бадиий лавҳадаги асосий мазмун – Ҳазрати Алининг жангда Муъовия устидан ғалаба қилганлигини таъкидлашга қаратилган. Бу ҳолни биз Собир Сайқалийнинг шоирлик маҳорати муҳим омилларидан бири десак, янглишмаган бўламиз. Шоир бу бадиий усулни қиссанинг бошидан то охиригача санъаткорона қўллаган.

Собир Сайқалий асарда радифлардан ҳам ўз ўрнида унумли фойдаланган. Уларнинг турли туман намуналарини келтириб, бу билан асар мазмуни ёрқин ифодаси ва шаклининг гўзаллигига эришган. Радифлар “Қиссаи Сайқалий”да образ, характер ва воқеалар тасвирида қўшимча бадиий восита сифатида хизмат қилган. Бинобарин, радифлар такрорланиб

кўлланиши жихатидан асардан ёки унинг муайян қисмидан кўзланган мақсадни таъкидлаб кўрсатиш, урғуни асосий моҳиятга қаратиш сингари вазифаларни бажаради.

Ҳазрати Алининг Муъовия устидан ғалабасига бағишланган бобдан келтирилган куйидаги “этибон” ва “кетти” сўзларининг қофиядош сўзлардан кейин мунтазам такрорланиши ана шундай бадий “миссия”ни адо этган:

Худони ёд этиб, ул марди майдон,
Ғазабдин Ҳайдари наъра урибон.
Лабин тишлаб яна тушти талошқа,
Бўлаклаб ҳар тарафга бошқа-бошқа.
Сурулуб ҳар сори саф топтурурди,
На эрларни уруб ёр қотирурди.
Бузарди сафларни хез этибон,
Уруш майдонини хунрез этибон.
Туролмай анда қайтиб Шом кетти,
Бу ишдин неча юртда ном кетти.¹

Мазкур иқтибосда радиф вазифасини охириги икки байтдаги “этибон” ва “кетти” сўзларининг такрори бажариб келмоқда ва парчадаги асосий ғоянинг бадий талқинида катта рол ўйнамоқда. Собир Сайқалийнинг ижодкор сифатидаги асосий Маҳорати шундан иборатки, у иш-ҳаракатни белгилаб берувчи мазкур ҳар иккала радифни узига хос равишда воқеанинг кўтаринки ва қувончли руҳини акс эттиришга ҳамда ўзига хос пафосни ифодалашга хизмат қилдирган.

Собир Сайқалий асарда радифнинг хилма-хил турларидан фойдаланиб, уларни воқеалар йўналишидан келиб чиқиб танлаган ҳамда қисса мазмунини ёрқинроқ ифодалашга хизмат қилдирган.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, “Қиссаи Сайқалий” достонида муаллиф ўхшатиш, сифатлаш, мажозий тасвир, муболаға каби бадий ифода воситаларидан ўринли ва унумли фойдаланган. Шунинг учун ҳам достонда туркий адабий тил бутун жозибаси, кенг ифода имконияти, бадий эстетик қуввати билан намоғён бўлган.

Мазкур достон ҳазажи мусаддаси маҳзуф вазнида ёзилган, ушбу вазн достоннинг ғоявий руҳига уйғун бўлиб, асар бадий талқинининг ўзига хослигини таъминлашга хизмат қилган.

АЛИШЕР НАВОИЙНИНГ “НАСОИМ УЛ –МУҲАББАТ” АСАРИДА КОМИЛ ИНСОН МАСАЛАСИ

**Жўраев Жамолиддин ЖДПИ доц,
Олимжонов Искандар ЖДПИ талабаси**

¹ Қиссаи Сайқалий, 230-бет.

Ўз замонасининг буюк мутафаккири бўлган Алишер Навоий назмга нисбатан насрий асарлар имконияти кенглигини яхши билгани учун, иккинчидан насрий асарлар реал ҳаёт воқеялигини чуқурроқ ва ҳар томонларма ифодалай олиш имконияти борлигини англаган ҳолда умрининг сўнгги ўн йилида “Муҳокамат ул-лағатайн”, “Мезон ул-авзон”, “Мажолис ун-нафоис”, “Рисолаи муаммо” илмий асарлари билан бирга, “Хамсат ул-мутахайирин”, “Ҳолати Саид Ҳасан Ардашер”, “Паҳлавон Муҳаммад” каби афобιοграфик – меъмуар асарлар қаторида “Маҳбуб ул-қулуб”, “Тарихи мулки аҷам”, “Вақфия”, “Муншаот”, “Тарихи анбиё ва ҳукамо” сингари ижтимоий-сиёсий, фалсафий руҳдаги асарлари қаторида “Насоимул-муҳаббат” асарида Шарқ файласуфлари, шоирлари, шунингдек, ўша давр ижтимоий-сиёсий ҳаётида муҳим рол ўйнаган турли соҳа классиклари ҳаётига оид маълумотлари келтирилган.

Тадқиқотчиларнинг фикрига кўра бу асар Абдурахмон Жомийнинг “Нафоҳат ул-унс...” асарларининг таржимаси эмас, балки, Алишер Навоий, устози Абдурахмон Жомий кўрсатмаси асосида, туркий тилда сўзлашувчи халқлар талабидан келиб чиқиб, янги ва мустақил “Насойим ул-муҳаббат мин шамоим ул -футувват” (“Улуғлик хушбўйликларини таратувчи севги шабадалари”) асарини (901=1495-1496) ёзади.

Тўғри бу асарда олға сурилган фикр ва мулоҳазалар Абдурахмон Жомийнинг “Нафоҳат ул-унс...” асарига яқин бўлгани учун ҳам уларда олға сурилган ғоя ва мақсадлар ҳамоҳангдир. Аниқроғи бир мақсадга бўйсундирилгандир.

Асарда тасаввуф тариқати қоидалари, тасоввуф аҳлига ҳос бўлган хусусиятлар ҳамда уларнинг ҳаётларига оид лавҳалар, кичик-кичик ҳикоятларда жамиятнинг комил инсонлари ҳақида баён қилинади.

Ўзбек тилимиз комил инсон моҳиятини ниҳоятда теран ифодалайди - «зиёли», яъни ўзидан атрофга зиё, нур таратувчи. Зиёли инсон атроф зулматни ёритади, ўзга инсонлар руҳини ҳам маърифатли этади, кўнгилларнинг урлантиради. Зиёли, яъни ўзлигини англаб етган инсонда илм, имон ва амал бирлиги вужудга келади.

Комил инсонлар жамиятнинг тирик виждонларидир. Кишилар уларга қараб хушёр тортадилар, дунё беҳудалигидан ўзига келиб, ўз қалблари, қилаётган ишларига разм соладилар, тавба-тазарру қиладилар. Комил инсонларнинг афёлу аъмоли инсонлар дилига қувват, кўзига нур бағишлаган.

Азизиддин Насафийнинг “Инсони комил” номли рисоласида инсонга шундай таъриф берилган: “Билгилки, комил инсон деб шарият ва тариқат ва ҳақиқатда етук бўлган одамга айтадилар ва агар бу иборани тушунмасанг, бошқа ибора билан айтайин: билгилки, комил инсон шундай инсондирким, унда қуйидаги тўрт нарса камолга етган бўлсин: яхши сўз, яхши феъл, яхши ахлоқ ва маориф”. Бу сифатлар билан зийнатланган одам ёлғон, риё ва бадкирдорликдан чекинади, ҳамма вақт эзгу ният билан яшаб, эзгу ишларга тайёр туради.

Алишер Навоий инсонларни «авом» ва «хос» га ажратади. Биз яқин ўтмишда хослар - зодагонлар, олий табақа, авом - қора халқ, меҳнаткашлар, деб талқин этдик. Аммо Навоийнинг фарқлаши бундай маънода эмас, «авом» - ўзини ҳали англаб етмаганлар, «хос» ўзлигини англаб етган, демак, воқеан Парвардигорини таниган зиё аҳлидир. Бу олий табаканинг фақат битта Олий имтиёзи бор, у ҳам бўлса Аллоҳ олдидаги маъсулияти оғирроқ, вазифаси жиддийроқдир.⁹⁸

Алишер Навоийнинг “Насойимул муҳаббат” асарида комил инсонга хос хусусиятлар, унинг шарқона фазилатлари санаб ўтилган. Булар қаторига улуғ мутафаккир куйидагиларни киритади: тавба, ҳалол лукма билан қаноатланиш, ўз касбидан топиб кун ўтказиш, шариатга риоя этиш, барчадан ўзини кам деб билиш, ҳатто фарзандлари, хизматкорларига қўполлик қилмаслик, чучук тилли бўлиш – яхши, мулойим тилли бўлиш, раҳмдил, саҳий, мард, ҳалим, хушхулқ, сабрли, садоқатли, вафоли бўлиш, рози-ризолик билан кун ўтказиш, риёзат чекишдан қўрқмаслик ва бошқалар.

Шу тариқа Навоий комил инсоннинг ўзига хос ахлоқ кодекси ишлаб чиқганки, бу сифатларга эга бўлиш ҳар бир одамнинг орзу-армони деб қаралган. Комил инсон ҳақидаги ғоялар катта ижтимоий-ахлоқий, маънавий аҳамиятга эга. У инсонни шарафли, эзгулик ва буюк хайр руҳида тарбиялаш, меҳру муҳаббат, вафо ва садоқатни кучайтиришга хизмат қилиб келди. Ҳар замон ва лаҳзада инсонларга уларнинг инсонлигини эслатиб, ёвуз, қабих ишлар, ножўя ҳатти-ҳаракат ва қилиқлардан сақланишга кўмаклашди, уларда иймон ва виждон биносининг пайдо бўлиши ва мустаҳкамланишини таъминлаб келди.

Адиб аввало, тасаввуф аҳллари ҳаёти, қилган ишлари, меҳнатлари, касб-корлари ҳақида сўз юритиб, шундай ёзади: Шайхул машойих Шайх Абу Саид Харроз ўтук тикар эрди. Шайх Муҳаммад Саккокий пичоқчилик, Шайх Абу Ҳапз Ҳаддод - темирчилик, Шайх Абул Аббос Омилий – қассоблик қилар, Шайх Иброҳим Ожарий ғишт қуювчилик билан, Шайх Баннон ҳаммол, Шайх Абул Ҳасан-нажжор-чўп тараш усталик билан кун кечирганини ёзади.

Жумладан, Шайх Увайс Кароний Аллоҳнинг суйган бандаси бўлгани учун яъни, у Аллоҳ томонидан Куръонда айтилганларни тўлиқ бажаргани учун бу мартабага эришади. Уни 70 минг фаришта ўраб Жаннатга олиб киради. Шайх Увайс Кароний Муҳаммад (сав)нинг Уҳуд жангида бир тиши синганини эшитиб, ўттиз икки тишини синдирган. Шу муносабат билан пайғамбаримиз вафотидан кейин ўз мураққаъ - либосини унга ҳадия қилган.

Хожа Муҳаммад Маъшук ҳам буюк шайхлардан бўлган. Кунларнинг бирида Шайх Абу Саид Абулхайр Меҳнадин Тус шаҳрига боришда бир дарвеш-шогирдини Шайх Муҳаммад Маъшукдан сўрашга юборади. Шайхнинг розилигини олгач, шаҳарга келиб Жомеъда амри маъруф қилмоқчи бўлади. Шайх Муҳаммад Маъшукнинг розилиги бўлмагани учун

⁹⁸ М. Имомназаров. Маънавиятнинг ривожланиш тарихи. Тошкент 2008. 98-бет.

у халқ орасида бирор сўз айтолмайди. Ниҳоят, Шайхнинг розилиги билан у сўзга киради.

Шайх Абу – Абдуллоҳ Сомилийнинг хулқ- атфори тўғрисида: Андин сўрдиларки; Авлиёлуллоҳни халқ орасида не осор ва аломат бирла таниғайлар? Дедиким, такаллумнинг латофати била ва хулқнинг хушбўйлиғи била ва юзнинг тозалиғи била, нафснинг сахоси била ва эътирофнинг қиллати - озчилиги ва узрининг қабули билаки, ҳар ким узр этса қабул қилғай ва шафқат тамомлиғи била барча элга шоҳ солиҳ ва толиҳ. Ва ҳамул дебдурким, дийдор дўстликнинг калитидур.”

Яна бири бу асарда инсон учун энг зарур бўлган ажойиб фазилатлардан бири тўғри сўзлик – шу ўринда инсон ҳаёти пайтида фойда келтиривчи бир ҳикоят ҳам келтириладики, бу ҳикоятда айтишларича бир имомзода Ҳажжож Юсуф тақибидан қочиб келаётганида шайхлар тоифасига мансуб бир дарвеш уни вайронага беркитади. Уни қувиб келаётганларга уни вайронада деса ҳам ишонмай, бизни алдаяпсан деб ғазабланиб ўтиб кетадилар. Улар кетгач, йигит чиқиб: “Нега мени ўзунг беркитиб, яна ўзунг айтиб бердинг? – деб ўпкалаганида, дарвеш: “Менинг ростлигим барокатидин кутилдинг, энди билганингни қил!” - деб жавоб беради. Ҳикоятда тўғрисўзлик, ростгўйлик инсон учун буюк фазилатдир, дейди. Шунингдек, асарда шайхлар тоифаси вакиллариға берган айрим тафсилотлар - ибратли сўз, иборалар, ҳаётида рўй берган ходисалар ҳам ибрат тариқасида кўрсатилади. Бу соҳада Шайх Абу Усман Мағрибийнинг тариқат йўлиға ўтишға сабаб бўлган қуйидаги ҳодиса ибратлидир:

Шайх бир куни ити билан овға чиққанида, чанқаб идишдаги сутдан чиқмоқчи бўлади шунда ити ҳуриб унга йўл бермайди, иккинчи сафар ҳам шу ҳол рўй беради. Учинчи марта ит идишдаги сутни ичиб ҳалок бўлади. Кўрсаки идишдаги сутға илон заҳар солган экан. Итдан шу вафони кўргач, шу йўлни танладим, дейди Шайх.

“Қуръон” ва “Ҳадис”да доимо оналарни ҳурмат қилиш, уларнинг меҳнатини эъозлаш, ҳурматини жойига қўйиш ҳақида турли хил ривоятлар келтирилган. Ҳажга бориш ниятида бўлган Исмоил Аббос деган киши йўлда Шайх Мўминни учратиб, ундан маслаҳат сўраганда: -Агар онанг бўлса,-уни хизматига боргин!-дейди Шайх. Агар бош тортсанг, мен эллик ҳаж қилибман-бош яланг, оёқ яланг ва зоду ҳамроҳсиз. Барчасини сенға бердим. Сени онанг кўнглини шодлигини менға бер?!-дейди.

“Насоим ул-муҳаббат”да тасоввуф тариқати вакилларидан Нақшбандия тариқатининг асосчиларидан бири Баҳовуддин Нақшбанд ҳақида, унинг талимоти ҳақида шундай ёзади: “Бу тақдир бирла андоғ таҳдид бўлдиким, Ҳақ субҳонаҳу ва Таоло маҳлуқотда бани одамдин шарифроқ ва битикроқ халқ қилмайдур. Нечунки, маърифатуллоҳ ганжининг амини ва маҳрами улдур.”

Нақшбандий ўз тариқати ҳақида сўраганларға қуйидагича жавоб қилади: “... Яна алардан сўрадиларки, сизнинг тариқатинингизда зикр ҳажр ва хилват ва самоъ бўлур? Дедиларки: бўлмас! Яна сўрадиларки: - Сизнинг

тариқатингиз биноси не ишгадур? Дедиларки, анжуманда хилват; зоҳир юзидин халқ била ва ботин тарафдин Ҳақ субҳонаҳу ва Таоло била ... Дебдиларки, аларга ҳаргиз қул ва дадак (чўри) бўлмас эрмиш ”.

Тасоввуф тариқати ҳақида сўз борганда Алишер Навоий ҳам узтози Жомийдан ўрнак олганини эслаш ҳам кифоя. Сабаби Жомий ҳазратлари ҳам бу тариқатнинг йирик вакили бўлган.

Юқорида эслатганимиздек Алишер Навоий “Насоим ул- муҳаббат”да тасоввуф тариқати ғояларига эргашиб, унга этиқод қўйган шоир ҳақида ҳам сўз юритган. Жумладан, адиб Аҳмад ҳақида : Адиб Аҳмад турк элидин эрмиш. Кўзлари бутов эрмишки, асло зоҳир эрмас эрмиш... У лўбёға илк суртибдур ва дебдурки, қўй бўкрағига ўхшайдур ва нўхатдин бармоғи била силабдурки итолғу бошиға ўхшайдур... турк улусида ҳикмат нукталари шеъедур. Назм тариқи била айтибдурмиш; анинг фавоидидиндур. Байт:

Сўнгатка иликтур, эранға билик,

Биликсиз эран ул иликсиз сўнгат.

Саййид Насимий ҳақида қайғуриб манабу сатрларни ёзган... тақлид аҳли ани мазхабида қусур тўхматиға мутаҳим қилиб, шаҳид қилдилар. Машҳур мундоғдурки, терисини суяр ҳукм бўлибдур. Ул ҳолатда бу шеърни дебдурки, назм:

Қибладур юзинг, нигоро қошларинг меҳроблар,

Суратинг мусҳаф вале ҳолу хатинг эъроблар...

Эй Насимий, чун муяссар бўлди иқболи висол,

Қўй, терингни сўйса, сўйсун, бу палид қассоблар.

Юқорида келтирилганлардан кўринадики, Абдурахмон Жомий ҳам, Алишер Навоий ҳам тасаввуф тариқатининг вакиллари бўлгани учун мазкур тариқатнинг қонун-қоидаларига амал қилганлар ва замонасининг комил инсонлари даражасига етганлар. Шунинг учун ҳам асарда келтирилган Шайх Абу Абдуллоҳ Самилӣ, Ҳажжож, Шайх Абу Усмон Мағрибий ва бошқалар ҳақида келтирилган ривоят ва ҳикоятларда ҳам умум инсоний фазилатлар - тўғрилиқ, хушмуомалалиқ, ростгўйлик, раҳм шафқатлилик, вафодорлик каби мисоллар ибрат тариқасида келтирилган.

Булардан таршқари “Насоим ул муҳаббат” да Абдурахмон Жомий, Мавлоно Шарофиддин Али Яздӣ, Шайх Авҳадуддин, Ҳомил Кирмонӣ, Қосим Табризӣ, Шайх Низомӣ, Фаридиддин Аттор, Саъдий Шерозӣ, Хусрав Деҳлавӣ, Камол Ҳўжандӣ тасаввуф тариқатини тўлиқ эгаллаган донишманд кишилар ҳамда буюк талант эгалари ҳақида қисқа ва лўнда маълумотлар берилган.

Алишер Навоийнинг комил инсон ҳақидаги фикрлари бугунги кунда ҳам ўз аҳамиятини йўқотмаган. Унинг таъкидлашича, “комил инсон бир идеал, барча дунёвий ва илоҳий билимларни эгаллаган, руҳи мутлақ руҳга туташ, файзу кароматдан сероб, сурату сийрати саранжон, қалби эзгу туйғуларга лиммо – лим покиза зотдир”. Бошқача айтганда: “Фонийвашеки, ҳам сўзидир пок, ҳам ўзи, Хуш давлат ул кишигаки, тушгай анинг кўзи”.

Алишер Навоийнинг комил инсон ҳақидаги қарашларининг аҳамияти шундаки, комил инсон – билимлилиги, яхши ахлоқ – одоб ва маънавий етуклиги билан бирга, фуқаролик жамиятида яшаш талаблари, озодлик, мустақилликни англаш ва бу кадриятларни ҳимоя қилиш қобилиятини ҳам эгаллаган бўлиши лозим. Чунки комил инсон тарбияси бугунги кунда давлат сиёсатининг устувор соҳасига айланган ва комил инсон деганда, аввало, онги юксак, мустақил фикрлай оладиган, хулқ – атвори билан ўзгаларга ибрат бўла оладиган, билимли, маърифатли кишини тушунамиз.

Муҳтарам Президентимиз Шавкат Мирзиёев бу ҳақда тўхталиб шундай дейдилар: “Бугунги кунда мамлакатимизда олиб борилаётган ислохотлар самараси аввалом бор юксак маънавиятли, мустақил фикрлайдиган, Ватанимиз тақдири ва истикболи учун масъулиятни ўз зиммасига олишга қодир ёш кадрлар сафини кенгайтиришга бевосита боғлиқ”.

Комил инсон ўз тарихи, ўз халқи, ўтмиши ҳақида ҳақиқатларни билиб олган, иймони бутун, хулқ – атвори намунали шахсдир. Комил инсон осмондан тушмайди. Комил инсонлар муайян тарбия асосида юзага чиқади.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, Алишер Навоийнинг “Насоим ул- муҳаббат” асари ана шу жиҳатдан ҳам муҳимдирки, уни ўрганишда аввало тарихимизни, тариқат аҳллари ҳаётини билиш билан бирга унда олға сурилган ростгўйлик, тўғрилиқ, халоллик, меҳнатсеварлик сингари қатор умуминсоний фазилатлар, кишиларни, ёшларни комил инсон бўлиб етишувида ўтмишда қандай аҳамиятга эга бўлган бўлса, айти пайтда баркамол авлодни тарбиялашда ҳам муҳим аҳамият касб этади.

Адабиётлар рўйхати

- 1.Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O‘zbekiston, 2016. - 53 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. T.: O‘zbekiston, 2017 - 484 b
3. Алишер Навоий. Насоим ул –муҳаббат. Тўла асарлар тўплами. Ўнинчи жилд. 2011 йил.
4. Имомназаров М. Маънавиятнинг ривожланиш тарихи. Тошкент 2008. 98-бет.
- 5.Комилов Н. Тасаввуф. Тошкент. 2009 йил.

“ТАЗКИРАИ ШУАРО”НИНГ 213 РАҚАМЛИ ҚЎЛЁЗМАСИ

Дўстова Сурайё Савроновна ЖДПИ

Ҳасанмурод Лаффасийнинг “Тазкираи шуаро” асари Хива адабий муҳитида яшаб ижод этган 60 га яқин ижодкорларнинг ҳаёти ва ижоди

ҳамда шеърларидан намуналар билан таништиради. “Тазкирани шуаро”нинг қўлёзмаларини илмий асосда ўрганар эканмиз, тазкиранинг ЎзР ФА Шарқшунослик институтининг қўлёзмалар фондида 9494, 12561, 11499 рақамлари остида сақланаётган нусхаларини, ЎзРФА Алишер Навоий номидаги Давлат адабиёт музейи фондида 213 рақам билан сақланаётган нусхани ва П.Бобожонов томонидан нашр қилинган нусхани асосий нусхалар ҳамда У. Долимов уйида сақланаётган нусхани қўшимча манба сифатида тадқиқ этдик.

Биз ЎзРФА Шарқшунослик институти қўлёзмалар фондида сақланаётган 213 рақамли қўлёзмани ўргандик. Биз қўлёзмани тавсифлашда асар номи, муаллифи, бошланиши ва охири, таркибий тузилиши, матннинг тўлиқлиги, нусхани кўчирган котиб, кўчирилган йили ва ўрни каби илмий хусусиятларига, шунингдек, қўлёзма нусханинг ўлчами, варақлар сони, муқоваси, сиёҳи, қоғози, ёзув тури, муҳр ва безаклари, сатрлар сони, пойгирларнинг қўйилиши ва сақланиш ҳолати каби китобат хусусиятларига асосландик.

Қўлёзма *خيوة شاعر لارى* (“Хива шоирлари”) деб номланган, муаллифи Ҳасанмурод Лаффасий, у сафсарранг сиёҳ билан майда настаълиқ хатида ёзилган, 120 бетдан, яъни 60 варақдан иборат, Лаффасийнинг ўзи кўчирган. Қўлёзма қалин муқовага олинган ва яхши сақланган. Матн икки чизикли рамка – жадвал ичига олинган, ҳар бир саҳифада 13 ёки 16 сатрдан матн жойлаштирилган. Муаллифнинг ўзи асар бошланган саҳифадан то асар охиригача ҳар бир саҳифага 1 дан 120гача бўлган бетни араб рақамларида қўйиб чиққан. Асарда 52 та шоир ижодидан намуналар берилган. Намуна шеърлар берилиши жиҳатидан 11499 ва 9494 қўлёзма нусхаларга қараганда тўлиқроқ ва кўпроқ берилган.

Манбанинг титул варағига “Хива шоирлари” деб ёзилган. 1а варақда ўртага яна асарнинг “Хива шоирлари” номи қўйилган, пастида эса: “1948 йил 22 июнь 1347 – ҳижрий шаъбон тўфлогувчи Хива Давлат музей тарихчи лектори Ҳасанмуродқори Муҳаммад Амин ўғли Лаффасий”[1.1 а варақ], деб араб ёзувида битилган.

Асарда мундарижа берилмаган. Қўлёзма 16 варақдан бошлаб Лаффасийнинг 28 байтли муқаддимаси билан бошланган:

*Аё, дўсти содиқ, сизга ҳолим,
Ки сизга деюрга йўқ мажолим.
Тушиб бошимга бу кун онча савдо,
Етубон дам-бадам минг турли завго.
Гаҳи ҳушдин кетиб, ақлим фаромуш,
Бўлибон шул сабаб ғамларга оғуш...[1.1 а варақ]*

Саҳифалар тартиби икки усулда: юқоридан ўртага рақамлар қўйилиб, саҳифалар остига пойгир орқали берилган. Тартиб рақамлар эса араб рақамлари билан 1-,2-,3-... тарзида қўйилган. Шоирлар номларига қўйилган

тартиб рақамлар алоҳида чизиқлар орасига ёзилган. Маълумотлар ва ғазалларни бир-биридан ажратиш учун чизиқлар тортилган ва ғазаллар икки устун қилиб берилган.

26 варақдан шоирлар ҳақида маълумотлар ва ижодидан намуналар бошланади. Тазкирани С.Самандарова айтганидек, *“шоирлар ҳақидаги маълумотларга ва уларнинг шеърларидан келтирилган намуналар”* [3.24] га ажратиб ўрганиш мумкин: Мунис ҳақида 15 қатор маълумот, 4 ғазалидан намуна, Огаҳий ҳақида 8 қатор маълумот, 5 ғазали ва 1 муҳаммаси, Аваз Ўтар ҳақида 9 қатор маълумот ва 5 ғазалидан намуналар келтирилган...

Шундан сўнг асар 61а варақда Лаффасий муҳаммаси билан якунланади. 61а варақнинг остига асар тугалланган вақти қайд қилинган: *“1948 йил 26 июль 1347-ҳижрий 20-рамозон рақами фақир Ҳасанмуродқори Қори Муҳаммад Амин ўғли Лаффасий”* ва Ўзбекистон Фанлар Академияси Алишер Навоий номидаги Давлат адабиёт музейи муҳри босилган. Бу асарнинг баъзи тавсифини олима С. Самандарованинг филология фанлари номзодини олиш учун ёзилган диссертациясининг 22 бетида ҳам учратамиз, бироқ асар тўлиқ тавсиф этилмаган. Бу манбанинг айрим матн хусусиятлари ҳақида Ж.Жўраевнинг филология фанлари номзодини олиш учун ёзилган диссертациясининг 45 бетида қуйидагича ёзилган: *“котиб кўпгина ҳолларда пе,те, ё ҳарфларини битта нукта билан ифодалаган. Шунингдек, ё ва алиф ҳарфлари сўз охирида аввал алиф сўнгра ё келган ҳолларда кўпинча иккала ҳарф қўшиб юборилган. Яна қисқа “а” товуши сўз охирида келганда, бу товушни ифодалайдиган ҳо ҳарфи тушуриб қолдирилган. Масалан: ناکاه سۆзи эса اندوه ناکاه шаклида учрайди. Гоф ҳарфи бошқа манбаларда бўлгани каби коф ёрдамида ёзилган”* [2.45]. Дарҳақиқат, қўлёзмани ўқиш жараёнида биз бу ҳолатларга дуч келдик. “Тазкираи шуаро”нинг 213 қўлёзма нусхаси шоирларнинг ижодидан намуна шеърларнинг кўпроқ берилиши жиҳатидан бошқа қўлёзмалардан фарқ қилади. Жумладан, муаллиф муҳаммасларга кўпроқ эътиборни қаратган.

Тазкира “Баёнийнинг “Шажараи Хоразмшоҳий” асарида келтирилган кўпгина маълумотларни тўлдиради ва ҳар икки асар биргаликда XIX аср Хоразм адабий муҳити ва ундаги ижодкорлар ҳақида яхлит тасаввур ҳосил қилади” [1.4]. Хива адабий муҳити, унда кечган жараёнлар, давр адабий жараёнларида етакчилик қилган мавзу ва жанрлар, қаламкашларнинг ҳаёти ва ижодий мероси тўғрисида маълумот берувчи адабий манба сифатида эътиборга молик. Унда келтирилган маълумотлар ижодкорларнинг илмий биографиясини яратишда муҳим ўрин тутади. Шунингдек, тазкирада ижодкорлар асарларидан берилган намуналар уларнинг асарлари мукамал матнини тиклаш, жанр ва мавзу мундарижаси бўйича илмий хулосалар чиқаришда қимматли манбадир.

Адабиётлар рўйхати:

1. Жумахўжа Н. Адизова И. Сўздин бақолироқ ёдгор йўқдир.// Тошкент.: Адабиёт ва санъат, 1994.-Б.46.

- 2.Жўраев Ж. Комёб ҳаёти ва ижодий мероси манбалари тадқиқи//
Филол.фан.номз...диссер.- Тошкент.: 2012. Б- 45.
- 3.Самандарова С. Лаффасий тазкираси ва унинг қўлёзмалари.// Тошкент.:
Хазина, 1995 .Б.- 24.
- 4.ЎзР ФА Алишер Навоий номидаги Давлат адабиёт музейи, қўлёзма, №
213 нусха 1а-варақ

АБДУЛЛА ҚАҲҲОР АСАРЛАРИДА ТУРЛИ ХИЛ НАРСА ВА ПРЕДМЕТЛАРГА ЎХШАТИШ.

Ф.ф.н.Ш.Т.Алмаматова,ЖДПИ

Инсоният фаолиятига назар ташласак унинг атрофимизни ўраб турган сирли олам, нарса-ҳодисаларни ўзлаштира боргани (бораётгани)нинг гувоҳи бўламиз. Бу, албатта, беминнат, иддоасиз тил воситасида бўлади. Тилимизнинг бутун сир-синоати, салоҳияти жозибадорлиги, нозик тушунча ва ҳис-туйғуларни ифодалаши сўзлар воситасида юзага чиқади. Тил бирликларига юклатилган маъно тафовутлари ўхшатиш, қиёслаш, умумлаштиришлар воситасида фарқланади. Бир сўз билан айтганда, бу сирли олам ўхшатиш, қиёслаш воситасида конкрет тушунчаларга айланади.

Абдулла Қаҳҳор асарлари тили устида жуда кўп меҳнат қилган. Адибнинг қайси асарини олманг унинг тилида табиийлик уфуриб туради. Ёзувчининг асарларини ўқиганингизда китоб ўқиётганингиз эсингиздан чиқиб кетади, сиз гўё асар қаҳрамонлари билан бирга юргандек, гаплашиб ўтиргандек ҳис қиласиз. “Абдулла Қаҳҳорнинг тили ўзи бир катта олам, – дейди атоқли адабиёшунос, Ўзбекистон Қаҳрамони Озод Шарафиддинов “Истеъдод жилолари” мақоласида. –Бир марта бу оламга кирган одам ундаги мислсиз гўзалликнинг асири бўлиб қолади, у олам туфайли ўзбек тили деб аталмиш она тилимизнинг нафислигига, аниқлигига, рангдорлигига, маънодорлигига, ҳар қандай чуқур фикрни, ҳар қандай нозик туйғуни, ҳар қандай мураккаб кечинмани ифодалай оладиган кудратига қойил бўлади. Абдулла Қаҳҳор ишлатган сўзлар, яратган жумлалар тилимизнинг бойлигини ўзида акс эттириб, камалакдай товланади...

Абдулла Қаҳҳор тилида кишини мафтун қиладиган биринчи хислат–табиийликдир”. Бунинг ёрқин тимсолини биз ҳикояларда қўлланган ўхшатишлар мисолида яққол кўрамиз.

Ҳикояларда қўлланган ўхшатишлар орасида нарса-предмет образига ўхшатиш миқдор жиҳатдан юқори ўринда туради. Шуниси характерики, муаллиф санокли ўринлардагина предметларга ўхшатиш тимсолини (икки ўринда) икки мартадан қўллаган. Чунончи, “калит” ва “латта” эталонларини икки мартадан қўллайди: Бу ёш йигит, дунёда муҳаббатни ҳар қандай қулфга *тушадиган калитга* айлантириб олган хотинлар ҳам борлигини билиб қўйсин, дедим. (Хотинлар, 1-том, 265-бет). Бизда хотинлар эрга

шундай боғланиб қолади, шунча бахтни ундан излайдики, эр ўлса гўё **бахтининг калити** унинг чўнтагида кетган бўлади (Мастон,1-том,85-бет). Мана ёзувчининг тилдан фойдаланиш маҳорати. Биринчи мисолда калит эталони орқали воқеликка салбий муносабати ифодаланган бўлса, яъни муҳаббатни калитга ўхшатса, иккинчи мисолда калит образи орқали ўзбек аёлидаги ўзига хослик, ҳаё, оқибат, вафодорлик рамзи берилмоқда. Ёки “латта” тимсолида икки ҳолатни кўрамиз. Одатда, латта дейилганда, ҳаётда ўзи хунук, эътиборсиз, иккинчи даражали нарса сифатида қаралади. Ана шу символдан ўринли фойдаланган адиб шундай ўхшатиш яратади: Капитан (милиция капитани- изоҳ бизники) ноилождан, **кир латтани** титкилагандай жирканиб, дам-бадам тупуриб давом этди (Ифвогар,1-том,158-бет). Аския кетди. Бу аския шундоқ эдики, булар гуё йўлда тушиб ётган бир парча **жирканч латтани** чўпга илиб, “ма, рўмолчанг” деб бир-бирига отаётир”(Хотинлар,1-том,260-бет).

Биринчи мисолдаги “латта” – ифвогарга ўхшатмани бошқача – юрт бузар, юрт бузуқи, ҳасадгўй, бемаза, ифлос, одамларга нифоқ солувчи, бузғунчи, йўлдан урувчи каби бир нечта ном билан аташ мумкин эди. Лекин буларнинг ҳеч бири ҳам бурунга, ҳам кўзга, ҳам қўлга жирканиш берадиган восита вазифасини ўтамайди. Иккинчи мисолдаги “латта”–аския пайравининг бепардалигига ўта нозиклик билан ишора қилиш.

Кўринадики, бу ўхшатишлар, биринчидан, ҳеч бир анъананинг давоми бўлмасдан, воқеликдан келиб чиққандир. Иккинчидан, она тилимизда ҳар куни ҳамма томонида қайта-қайта ишлатиладиган сўзлар воситасида ҳосил қилинган ўхшатишлардир. Қолган ҳолатларда ўхшатиш бир мартадан бир предметга нисбатан ишлатилган.

–Аҳмаджон, жуда **панжарагулчинини** ушлабсиз-ку, –деган овоз келди (Олтин юлдуз, 1-том,217-бет). “Панжарагулчин” лексемасига луғатларда “гул терувчи, узувчи; танланган, сараланган,ўйма панжаралар билан безатилган; жимжимадор, серҳашам” каби изоҳлар берилган²³. Ҳикояда немис офицери кинояли “панжарагулчин”га ўхшатиш берилмоқда. Дарҳақиқат, қандай оғир шароит бўлмасин, кишилар кайфияти ҳазил-мутуйиба, ўйин-кулгу билан кўтарилади. Бу психологик жараён юқоридаги мисолда берилиб, экспрессивликни ҳосил қилмоқда. Немис офицери ўзининг аскарлари орасида панжарагулчин бўлган, аммо асир.

Уруш даҳшатларини тасвирлашда –дай аффикси ёрдамида ясалган равишдан фойдаланиб, ўша вақтдаги – 40-йиллардаги турмуш тарзига мослаб аравага менгзалган ўхшатиш яратади: Ер худди **от олиб қочган аравадай** кишини ирғитиб-ирғитиб ташлар эди (“Олтин юлдуз”,1-том,212-бет). Она замин, бутун тирик мавжудотни кўтариб турган муқаддас тупроқнинг бомбардимон пайтида бўладиган ҳолат от олиб қочган аравага

²³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати,3-жилд, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” нашри,Тош.2007 йил,213-бет.

ўхшатиш ўқувчини ўша жойга – безовта бўлган заминга – жанггоҳларга етаклайди.

Шу мавзу давом эттирилиб: Бутун қишлоқ ҳам **тўйхона**, ҳам **ўлик чиққан ҳовлига** ўхшар эди (“Олтин юлдуз”, 1-том, 222-бет). Уруш жароҳатини бундан даҳшатли ўхшатиш мумкин эмас. Бутун қишлоқнинг тўйхонага ўхшаши душмандан тозаланган қишлоқ аҳолисининг кайфияти бўлса, ўлик чиққан ҳовлига ўхшаши ҳамма томоннинг вайронага айлангани контраст ҳолда ўз ифодасини топган.

Тўйхона ва ўлик чиққан ҳовли бирикуви энантиосемиянинг ёрқин намунасидир. Бир қарашда булар антонимларга ўхшайди. Лекин бу ўринда антонимлик муносабат йўқ. Антонимларда бир-бирига зид икки тушунча, икки лексема (сўз) иштирок этса, энантиосемияда зидлик бир маънога бирлашадиган тушунчалар, маънолар воситасида англашилган, яъни бир қишлоқнинг ҳам тўйхона, ҳам ўликхонага ўхшатишининг умумий сабабчиси отинг ўчгур уруш эканлигидир.

Абдулла Қаҳҳор ҳикояларидаги ўхшатишлар ўқувчи ҳайратини оширади. Шунинг ҳам айтиш лозимки, бу ўхшатишлар ёзувчининг кузатувчанлиги, ҳаёт ҳақиқатини ипидан-игнасиғача, миридан-сириғача, бутун икир-чикириғача кўрсата олишига бир далилдир. Эскилик удумларидан қизларни эшонларга назр қилиш воқеасини танқид қилиб, эшонбачани киноя қилиб чилимга ўхшатади: Ҳаммадан унинг ҳолатини айтинг: афсуски, минг афсуски, қўли иккита-да, йўқса энг чиройли **наша чилимга** ўхшар эди (“Қизлар”, 1-том, 131-бет). Бир қарашда бу сифат қизлар қоматига (аслида ҳам қизлар қомати тасвирланади-да) нисбат берилаётганга ўхшайди, аммо эшонбача қоматининг тавсифидир. Тасаввур қилинг чилим (наша чилим) фақат нашавандларга чиройли кўриниши мумкин. Чилимдаги узун най йигитнинг бир қўлига ўхшаса, унинг қомати қай даражада эканлигини тушуниш унча қийин эмас. Ҳикоя ниҳоясида: У ўзича гапириб борар эди: “Бурунги замон бўлса, мана шу **махлуққа** тегмасдан иложинг йўқ эди, десам Адолат ишонмайди, ўлай агар ишонмайди!”. “Қизлар” Наша чилимга ўхшаган, 1-том, 135-бет. Нурматжоннинг асл қиёфаси янада равшанлашган. Бунда “Туя ҳаммомни орзу қилибди” мақолининг бадий ифодаси тасвирланмоқда.

Абдулла Қаҳҳор “яратган жумлалар тилимизнинг бойлигини ўзида акс эттириб, камалакдай товлантиради” ва зарурий ўринда мақтовини муболаға даражасига етказса, айрим ўзига ёқмаган, чиркин ҳолатлар тасвирида қўллаган лексемалар кучли психологик ҳолатни тасвирлашга хизмат қилади. Масалан, “Даҳшат” ҳикоясида: “Осмоннинг чеккаси **сариг-кир увадага** ўхшайди. Бу **кир шуъла** қўйнида паст-баланд уйлар, шамолда эгилаётган, тебранаётган дарахтлар қоп-қора кўринади” (“Даҳшат”, 1 том, 45 бет), деб ваҳимали окшомга (осмонни кир увада, яна сариг-кир увада деб таърифлайди) тавсиф беради. Окшом қоронғи ҳам эмас, ёруғ ҳам эмас, персонажлар ҳолатига, ҳазин ҳаёлатига мос ҳолда сариқ тусда. У **кир увадага** ўхшатишмоқда. Ундан таралган нур (ойнинг шуъласини булут,

тўзон қоплаган)ни ҳам **кир шуълага** менгзайди. Бу бирикув (кир шуъла)нинг синонимлари бўлган хира, ғира-шира, булут орасидан баъзан ой нури тушиб қоларди кабилар билан алмаштириш мумкин эди. Лекин ёзувчи бунга рози эмас. Бу нохуш ҳолатга табиат ҳодисаси ҳам мос келяпти, уни кир шуъла деб тавсифламоқда.

Абдулла Қаҳҳор ҳикояларида тасвирланган нарсаларга ўхшатишларга назар ташласак, воқеликнинг оригинал ифодаси, давр ҳолатининг ўта синчковлик билан кузатилганлигини, табиийлигини, уларнинг қаҳҳорона тасвирининг гувоҳи бўламиз.

ДИАЛЕКТИЗМЛАР БАДИЙ МАТНДА УСЛУБИЙ ВОСИТА СИФАТИДА

Б.Файзуллаев, JDPI dotsenti
Д.Файзуллаева, JDPI o'qituvchisi

Бадий асар тилини ўрганиш лингвистик ва стилистик аспектда олиб борилади. Маълум бир асар тилини стилистик йўналишда олиб бориш адибнинг умумхалқ тили бойликларидан қай даражада маҳорат билан фойдалана олганлигига қаратилган бўлади. Чунки бадий матн асар мазмунини ифодалаган, функционал жиҳатдан тугалланган, тилнинг барча тасвир воситалари билан шаклланган, ўзида турли услуб кўринишларини авторнинг бадий мақсадига кўра эркин жамлай оладиган, тингловчи ёки ўқувчига эстетик завқ бериш, таъсир этиш хусусиятига эга бўлган ғоят мураккаб бутунлик ҳисобланади. Бадий матнда бошқа услуб кўринишларидагидек барча меъзонларга тўла-тўқис амал қилинавермайди. Унда барча тасвир воситаларидан тўлиқ фойдаланилади.

Шундай экан, ёзувчиларимиз ўз асарининг халқчилигида, персонаж ва қаҳрамонларнинг ўзига хос нутқини яратиш, маҳаллий ва тарихий колорит бериш, умуман, ҳаққонийликка эришиш мақсадида маҳаллий шеваларга хос тил унсурларидан ҳам унумли фойдалана олади. Сўз санъаткорлари А.Қодирий, Ойбек, Ғ.Ғулом, А.Қаҳҳор, Саид Аҳмад, А.Мухтор, П.Қодиров, Ҳ.Ғулом кабилар халқ тилининг бебаҳо бойликларидан жуда ўринли фойдалана олдилар ва ҳаммага ёқадиган асарлар яратдилар. Бу ёзувчиларимиз диалектизмлардан ҳам турли мақсадда фойдаландилар-ки, қуйида биз шу ёзувчилар асарларидаги диалектизмларнинг айрим бажарган функциялари ҳақида тўхталиб ўтамиз.

Ёзувчи ўз асари устида ишлар экан, биринчи навбатда асар тилининг бой, ранг-баранг, тасвирий ва ифодали, содда ва мазмундор бўлишига ҳаракат қилади. Чунки бадий асарнинг ширадорлиги унинг гўзал ва нафис тилига боғлиқдир. Диалектизмлар эса агар ўрнида маҳорат билан қўлланилса, ёзувчининг ана шу мақсадини амалга ошишига маълум ҳисса қўшиши, яъни ўринли қўлланилган диалектал ҳолатлар асар тилини, унинг синонимик қаторини, образлилигини ва тасвирийлигини ошириши мумкин.

Маълумки, характер яратиш бадий асарда асосий масалалардан бири ҳисобланади, чунки инсонни ўраб турган борлиқ, у яшаётган муҳит, унинг психологияси, дунёқараши, ўзига хос бўлган сўзлаш услубини тасвирламасдан конкретлиликка эришиш мумкин эмас.

Шундай экан, характер яратишда ҳар бир персонажнинг ўзига хос индивидуал нутқини бериш муҳим аҳамиятга эга. Чунки “характер тилда акс этади. Тил эса характернинг бир бўлагидир...”. диалектизмлар эса худди шу ўринда, яъни персонажларнинг индивидуал нутқини яратишда ёзувчига яхши манба бўлиб ҳисобланади. Ёзувчи маълум бир даврда бўлган ҳаётий воқеаларни ўз асарида акс эттирар экан, шу даврда яшаб турган кишиларнинг дунёқарашини, психологиясини, уларни ўраб турган борлиқни тўғри тасвирлаш учун, энг муҳими, уларнинг характерини очиш учун ҳар бир персонажнинг ўзига хос нутқини яратадики, бунда у диалектизмлардан ҳам унумли фойдаланади. Улуғ рус танқидчиси В.Г.Белинский айтганидек: “Улуғ сўз санъаткори бойни ҳам деҳқонни ҳам ўз тилида гапиришга мажбур қилади” ва ўз замонасига мос бўлган типик характер яратади.

Диалектизмлардан персонажлар нутқини индивидуаллаштириш мақсадида фойдаланган ёзувчилардан биринчилари А.Қодирийдир. У ўзининг “Меҳробдан чаён”, “Ўтган кунлар” романларида характер яратишда диалектизмлардан ҳам ўринли фойдалана олди. Масалан, “Меҳробдан чаён” романида Анварнинг акаси Қобилбой билан келган бухоролик Шариф ва Раҳимларнинг ўзига хос тилини яратишда жиалектизмларни маҳорат билан қўллаш олди:

“Жарчи тўхтади, шовқин-сурон яна эскича давом этди. Жарнинг давомида қулоғи тиккайиб, кўзи катта очилган Қобилбой сукутга кетди.

-Нега хомуш тўхтадинг, Қобил? Акун жарчинг нима деб вақирлайди? Қобил жавобсиз, бошини чайқади.

- Гапур, -деди Шариф, -Мирзо Анвар, осий Анвар, деяпти чоғи? Қобил яна жавоб бермади.

-Забоннинг бор, ахэ буродарингни тутканлар-чи?

-Йўқ.

-Бўлмаса нега ундайчикин хомуш тўхтадинг?

-Нега тутмакчилар...

-Энди тутмакчилар? –деб заҳарханда қилди Раҳим.

-Дарди харинани тутди.

-Тушунмай ётибсанлар, анови кун биз бир мирзонинг уйига борган эдик-а?

-Ҳай.

-Ана шуни, сен Анварнинг дўсти эдинг, деб баримта ушлаганлар... Эртагача Анвар келмаса, шу Султоналини ўлдурар эмишлар.

Жар маъносига энди тушунган йигитларнинг юзида бирдан ўзгариш кўрилди, кўзларида ғазаб, нафрат ўти ёнди:

-Бу хон йўқ, бу даюс! – деди раҳим. – Акун санинг лабингта кесакни ман суртай, ўртоғим Шарифни ўлдир?!

Бу парчада ёзувчи бухороликларнинг индивидуал нутқини яратиш учун Бухоро шевасига хос характерли хусусиятлардан: тожик тили сўзлари: “забон” /тил/, “дарди харинани” /балони/, “даюс”; Бухоро шевасига хос бўлган фонетик: “гапур/”, “худо” /худо/, “ахэ” /ахир; грамматик “хомуш тўхтадинг” /хомуш бўлиб турибсан/, “тутканлар-чи /тутибдими/, “ундайчикин” /ундай, унақа/, “хай” /ха/, “бу хон йўқ” /бу хон эмас/, “ман” /мен/, “сан” /сен/; лексик: - “акун” /ошна/, “буродар” /ини, ака-ука/ ҳодисаларни маҳорат билан қўллай олган.

Ёзувчи бу ерда диалектизмларга икки вазифани юклаган биринчидан, персонажлар нутқини индивидуаллаштирган бўлса, иккинчидан, бухороча калоритни ҳам бера олган. Айниқса, персонажлар тилида келтирилган бу диалектал ҳодисалар уларнинг ички характерини очишга хизмат қилган. Диалектизмлардан худди шу мақсадда фойдалланиб, П.Қодиров “Қора кўзлар” романида Чўлпоной онасининг ўзига хос тилини яратади:

“Мақтаб ёнидаги икки хонали уйчада ўқитувчи қиз Чўлпоной истиқомат қилади. Унинг онаси-пастаккина кампир-жуссасига мос бўлмаган кучли товуш билан Фарғона шевасида гапирарди:

“Таладан келганимда шатта турган эди-я. Кампир чироқсиз хонада гургут чакиб, қимиз кадини қидирар эди. “Ҳозиргина” демоқчи бўлиб: - Эндигина кўрган эдим, улгурни. – дерди”.

Ёзувчи бу ерда Фарғона шевасига хос бўлган “тала” /дала/, “шатта” /шу ерда/, “эндигина” /ҳозиргина/ каби диалектал ҳодисалар ёрдамида кампирнинг индивидуал нутқини берган. Шунингдек, бу асардаги Аваз, Хулкар, Замонали, Санам буви ва бир неча жойдагина кўриниб кетадиган Сабоҳатларнинг тилини индивидуаллаштиришда ҳам ёзувчи диалектизмлардан ўринли фойдалланади.

Салбий ва ижобий тип яратишда ҳам диалектизмлардан турлича фойдалланишни кузатишимиз мумкин. Айрим ёзувчилар диалектал ҳодисалардан салбий қаҳрамонлар характерини очишда кўпроқ фойдалланадилар. Уларнинг нутқини ғализ, бузилган, кўпол тилда берадилар. Аширмат, Насимжон /”Олтин водийдан шабадалар”/, Иноят оқсоқол /”Уфқ”/, Лобар /”Тошкентликлар”/ каби персонажларни бунга мисол қилиб келтириш мумкин.

Бундай қўлланишларни ёзувчиларимиз асарларида жуда кўплаб учратамиз. Демак, бадиий асарда қаҳрамонларни “ўз характерига мос бўлган тилда” гапиртиришда, умуман, характер яратишда диалектизмларнинг ҳам муҳим ўрин бор.

Адабиётлар:

1. М.Йўлдошев. Бадиий матн лингвопоэтикаси. Т., 2008, 89-бет.
2. Русские писатели о языке. Хрестоматия. Л. 1954, с.182.
3. А.Қодирий. меҳробдан чаён. Т., 1974, 232-бет.
4. П.Қодиров. Қора кўзлар. Т., 1966, 55-бет.
5. Ж.Шарипов. Хоразм II китоб. Т., 1970.

XUDOYBERDI TO‘XTABOYEV ASARLARIDA SOMATIK IBORALARNING QO‘LLANISHI

Akbarova Munisxon.Talaba.
Ilmiy rahbar Z.Jumayeva.

X.To‘xtaboyev o‘z asarlarida somatik frazeologizmlardan keng foydalangan. Dunyo tillari frazeologiyasining asosiy qismini somatik frazeologizmlar tashkil etadi. Somatik frazeologizmlar tarkibida somatizmlar, ya’ni tana a’zolari nomlarini bildiruvchi so‘zlar qatnashgan iboralardir. Aynan somatik frazeologiyada har bir xalqning ko‘p asrlik tajribasi, turmush tarzi, madaniyati, ma’naviyati, urf-odatlar va an’analar o‘z aksini topgan bo‘ladi.

Jahon tilshunosligida somatik frazeologizmlar haqida qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Somatik frazeologizmlarning ilk tadqiqotchilaridan biri F. Vakk sanaladi. U butun somatik frazeologizmlarni uch guruhga ajratadi, ya’ni:

- faqat odamlarni tasvirlaydigan somatik frazeologizmlar;
- odam va hayvonlarni tasvirlaydigan somatik frazeologizmlar;
- faqat hayvonlarni tasvirlaydigan somatik frazeologizmlar.

Undan keyin somatik frazeologizm doirasida ko‘pgina g‘arb va sharq tilshunoslari ilmiy izlanishlar olib borgan. Xususan, o‘zbek tilida somatik frazeologizmlar A. Isayevning “O‘zbek tilining somatik frazeologizmlari” nomli nomzodlik ishida tadqiq qilingan. Mazkur ilmiy ishda o‘zbek tilidagi somatik frazeologizmlarning miqdori ularning kommunikativ funksiyalari, variantlilik, sinonimiyasi, omonimiyasi va antonimiyasi tadqiq etilgan.

Tilshunos Sh. Usmonova “O‘zbek va turk tillarda somatik frazeologizmlar” nomli nomzodlik dissertatsiyasida tahlil qilingan materiallar asosida hozirgi o‘zbek adabiy tilida qariyb 8000 frazeologizmdan 1800 tasi somatik frazeologizmlar ekanligini ta’kidlaydi. (Ko‘rsatilgan frazemalarning soni mutlaq miqdor sifatida olinmagan)⁹⁹. Ushbu somatik frazeologizmlarni ifodalashda o‘zbek tilida 97 ta soma qatnashganligini kuzatgan tilshunos Sh. Usmonova bu somalarning iboralar tarkibida qatnashish miqdorini jadval tarzida ko‘rsatib beradi. Jadvalda iboralar tarkibida eng ko‘p qo‘llangan somalar sifatida ko‘z (210), bosh (160), qo‘l (147), og‘iz (131), eng kam qo‘llanganlari esa qoymich (1), o‘t (1), taqim (1), changal (1) va hokazolar keltiriladi.

Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlarida ham shu kabi somalar qatnashgan iboralar ko‘p qo‘llangan. Masalan, *qovog‘idan qor yog‘moq, boshiga ko‘tarmoq, tili qisiq, ko‘zida o‘qimoq, quloqlari og‘zida, bir quloqqa aylanmoq, yuzini kuldirmoq, ko‘nglini ko‘tarmoq, ko‘ziga ilmoq, yuzi ochilmoq, quloqlarini qitiqlamoq, jon kirmoq, yurakdan urmoq, lab burishtirmoq, ko‘ngillarni yozmoq, yuragini hovuchlamoq, miyasi g‘ovlab ketmoq, og‘zidan uzilib tushmoq, bo‘yin egmoq* kabi somatik iboralar shular jumlasidandir. Asarda qo‘llanilgan iboralarda

⁹⁹Усмонова. Ш. Ўзбек ва турк тилларида соматик фраземалар. Ф.ф.н. дисс.Афтореферат. - Т.: - 1998. - В 13.

asosan, insonning bosh qismidagi a'zolar somatik iboralarni hosil qiladi. Xususan, qovoq, bosh, til, ko'z, quloq, og'iz, yuz, lab, miya, bo'yin va hokazolar.

Ushbu a'zolar asarda keltirilayotgan gap mazmuniga qarab turli ma'nodagi somatik iboralarni hosil qilgan. Masalan, asarda quloq somasining turli ma'nodagi somatik iboralarda qo'llanishi quyidagicha keltiriladi: "...Shunday deb sekin o'rnimdan turayotgan edim...Akrom bilag'onga ko'zim tushib qoldi", (11-bet). Zulayxoning "Qora sochim" kuyiga aytayotgan ashulasi *quloqlarni shirin-shirin qitiqlamoqda edi*" (28-bet), "Ko'zlari so'fida bo'lsa, *quloqlari* Mirzabibining *og'zida* edi". (19-bet) Bu o'rinda quloq somasi ishtirokida hosil bo'lgan iboralning o'zaro sinonimligini kuzatishimiz mumkin, ya'ni mazmuni bir-biriga yaqin bo'lgan iboralar: *bir quloqqa aylangan* birgalikda tinglash (jamlash mazmuni); *quloqlari og'zida* - bor diqqatini qaratmoq (birlik mazmuni).

Yuzi shuvit bo'ldi. Biror ishda bergan va'dasining ustidan chiqolmagan shaxs o'zga kishining oldida uyalib, xijolat bo'lib qoladi. Yuzi shuvitli (shivit-ukrop, subhidamda shabnamli bo'ladi), shabnamli xijolatlatdan terlashi mumkin. *Muqobili*: xijolat tortdi, boshini ko'tara olmay qoldi.

Ko'z tegdi. Bu iboraning ko'chma ma'nosi. Unib-o'sib, ishlari rivojlanib ketayotgan shaxsning birdan omadi ketib, tolei ters kelib qolsa, shu ibora ishlatiladi. Yigitga ko'z tegdi, ishi chappasidan ketdi, deyishadi. Xalq orasida «ko'z»lik odamlar ham uchrab turadi. Ular ko'z nuri, quvvati bilan yurib ketayotgan odamni yiqitadilar, mayib qiladilar. Angliyada ko'z nuri ta'siri bilan baland minoradagi qirollik soatlarini to'xtatib qo'ygan karomatli shaxs ham bizning zamondoshimizdir. Ko'z bilan dardga chalintiruvchilar kabi ko'z nuri, mehri, qarashi bilan davolovchi, darddan forig' qiluchilar ham bor. *Muqobillari*: «ko'zikdi», «uchundi».

Tarkibida bir xil somalar ishtirok etgan frazemalar turli mazmunni ifodalab kelishi mumkin: *og'zi qulog'ida* - xursand bo'lish: *qulog'i og'zida* - diqqat bilan eshitish . Shuni aytish joizki, Xudoyberdi To'xtaboyevning romanlarida ba'zi somalar juda ko'p, ba'zilar esa bir nechta o'rinda qo'llanganligini guvohi boiamiz. Xususan, quloq, og'iz, ko'z, bosh, yurak, yuz kabi somalardan ko'pgina joylarda iboralar hosil qilingan. Ushbu somalar ishtirokidagi iboralar nafaqat adibning romanlarida, balki umuman, o'zbek tili iboralar lug'atidagi somatik iboralarning ham asosiy qismi yuqoridagi somalar ishtirokida hosil bo'ladi.

Umuman olganda, X.To'xtaboyevning somatik iboralarni qo'llashdagi mahoratini, uning til boyligini romanlarii misolida ko'rib o'tdik. Tadqiqot jarayonida adib asarlarida qo'llangan somatik iboralarning taxminiy soni aniqlandi, ya'ni ularning taxminiy soni 750dan ortiqdir. Quyidagi jadvalda esa har bir soma nechtdan somatik ibora hosil qilganligining taxminiy soni keltiriladi. X.To'xtaboyev romanlarida frazemalardan o'z o'rnida va mohirona foydalangan.

Х.То‘xtaboyev romanlarida o‘z fikri orqali o‘sha davr xalqining dardini ochib berishga harakat qilgan va buni muallif badiiy maqsadini ifodalash uchun qo‘llanilgan iboralarda kuzatishimiz mumkin.

Adib o‘z romanlarida taxminan 1000 dan ortiq ibora qo‘llagan. Bulardan taxminan 750 dan ortig‘i somatik frazeologizmlardir. Bunday somatik frazeologizmlar asarning badiiy bo‘yoqdorligini oshirishda, obrazlar xarakterini yoritishda hamda asar tilining sodda bo‘lishida muhim o‘rin egallagan.

БАДИЙ МАТНДА ЛЕКСИК- СЕМАНТИК ТАКРОР

Илмий раҳбар Ибрагимов Хайрулла-jspi.uz
Қодирова Нилуфар ЖДПИ талабаси,

Тил кишилар ўртасидаги муҳим алоқа воситаси эканлиги барчага маълум. Чунки кишилар тил орқали бир-бирларининг фикрларини тушунадилар. Фикр эса тилнинг энг муҳим элементларидан бири бўлган сўз ва турли грамматик воситалар орқали юзага чиқади. Тилнинг функцияси бу билан чекланмайди, у ҳис туйғу ифодалаш учун ҳам хизмат қилади. Ушбу вазифа ҳам тилдаги маълум бирликлар асосида юзага чиқади. Бадий матнда иштирок этувчи ҳар қандай тил бирликлари ўзига хос маълум вазифаларга эга бўлиб, улар бевосита тилнинг икки хил функцияси асосида шаклланади. Тилнинг функциялари эса икки хил нутқ формасида намоён бўлади:

“ 1. интеллектуал нутқ формаси; 2. интеллектуал эмоционал нутқ формаси” [1;5].

Бадий матн мазмунининг нейтрал сўзлар ва одатдаги грамматик воситалар орқали реалланиши бу тилнинг интеллектуал нутқ формасига алоқадорлиги билан боғлиқдир. Матн мазмунининг махсус экспрессив – стилистик бўёққа эга бўлган сўзлар, аффикслар, сўз формалари, махсус гап типлари каби воситалар билан реалланиши эса тилнинг иккинчи функцияси яъни интеллектуал эмоционал нутқ формаси билан алоқадордир. Биз фикр юритмоқчи бўлган лексик такрорлар ҳам айнан мана шу эмоционал экспрессивликни ифодаловчи тил формасига тааллуқли ҳисобланади.

Маълумки, образлилик, тасвирийлик, экспрессивлик каби терминлар қўлланиши жихатидан кенг маънолидир. Уларнинг баъзилари (образлилик, тасвирийлик) адабиётшунослик термини сифатида ҳам, тилшунослик термини сифатида ҳам қўлланади. Шулардан бири тилшуносликдаги такрорлар бўлиб, у адабиётшуносликда “такрир” деб номланувчи бадий санъат турини шакллантиради.

Илмий адабиётлар билан танишиш жараёнида М.Мирзаев, С.Усмонов ва И.Расуловларнинг матнда образлиликни, тасвирийлик ҳамда эмоционал

экспрессивликни юзага келтирадиган лексемалар ҳақидаги қуйидаги фикрларига алоҳида аҳамият қаратдик. Улар ўз фикрларида эмоционал – стилистик функция бажарувчи лексемаларга қуйидагича тариф бериб ўтганлар: “ тушунча ифодалашдан ташқари кўпинча таъсирчанликка эришиш ва нутқнинг маълум стилини яратиш мақсадида қўлланадиган сўзлар экспрессив – стилистик лексика дейилади” [2;45]. Матндаги экспрессив вазифасига кўра сўз яъни лексик такрорлар ҳам экспрессив – стилистик лексика таркибидан жой олади. Лексик такрорлар муаллифнинг ижодий маҳоратига қараб, бадиий матнда бир қанча услубий вазифаларни бажариб келади. Жумладан, қаҳрамон ички руҳиятидаги ҳаддан зиёд ҳаяжон, ташқи ҳаракатида бўлган турли ҳолатларни муаллиф нутқи орқали кучайтириш ёки таъкидлаш такрорий лексемаларнинг эмоционал – экспрессив вазифаларига киради.

Бадиий матнда ҳар бир сўзнинг алоҳида ўз ўрнига эга эканлигини ҳисобга оладиган бўлсак, сўз қўллашнинг ўзини алоҳида бир санъат дейиш мумкин. Аммо бу санъатни ҳамма санъаткор ҳам маромига етказиб эгаллай олмайди. Қачонки, муаллиф томонидан сўз, унинг маъноси ва бу маънонинг тузилиши аниқ тасаввур этилсагина, у санъат даражасига чиқа олади.

Бадиий матнда сўзнинг қўлланиши билан боғлиқ бўлган қўшимча маъно нозикликлари, мазмун ўзгачаликлари турли тасвир усуллари ва воситалари орқали реаллашади. “Аммо таъкидлаш жоизки, бундай қўшимча маъно нозикликлари аксар ҳолларда, аввало, сўз маъно қурилишининг ўзида имконият сифатида мавжуд бўлади, улар сўзнинг маъно қурилиши таркибида илгаридан қайд этилган бўлади” [3;49]. Шу жихатдан қарайдиган бўлсак, сўз такрорлари ҳам матнда маълум қоидага асосланган ҳолда қўлланади. Лексик такрорларнинг бир қанча вариантлари мавжудлиги ва матнда ушбу вариантлардан мосини тўғри танлаб олиб ишлата олиш, юқорида қайд этилган сўз такрорлари билан боғлиқ қоидага мутаносиб ҳисобланади. Шундан келиб чиқиб, даставвал, уларга лингвистик нуктаи назардан ёндашамиз.

Сўз такрорига оид бўлган сўз вариантлари асосан мустақил бўлмаган сўз туркумларидан ташкил топган такрорий сўзлардан ҳосил бўлади, бироқ мустақил сўз туркумига мансуб бўлган такрорий сўз вариантлари ҳам учраб туради: **Ҳазил- ҳазил, ҳазил – ҳузул, қанча – қанча, қанчадан – қанча** каби.

Биринчи компонентида кучайтирув маъносини ифодаловчи элемент бўлган такрорий сўзларнинг ўзи ҳам кўплаб сўз вариантларини ҳосил қилади. Бундай такрорий сўз вариантлари асосан кучайтирувчи элемент биринчи компонентида келади. Бунда кўпинча биринчи компонентнинг бир бўғинли ва икки бўғинли шаклда келиши вариант ясовчи восита бўлиб хизмат қилади: **топ – тоза, топа- тоза, лоп – лойиқ, лоппа – лойиқ, теп – текис, теппа – текис...**

Лексик такрорларнинг сўз вариантларини яна қуйидаги ҳолатларда ҳам кузатиш мумкин. Аслида белгини кучайтириш учун “**тўла**” сифатига

ёки “**тўлмоқ**” феълига боғланиб келадиган **лим** элементи (лим – тўла, лим – тўлди) нинг ўзи ҳам мустақил равишда такрор сўз сифатида қўлланади ва вариантларига эга бўлади: **лимма – лим лиммо – лим** каби.

Юқорида қайд қилиб ўтилган такрорий сўзлар ҳақидаги барча фикр-мулоҳаза ва изоҳларни уларнинг лингвистик хусусиятлари билан боғлиқ тарзда беришга ҳаракат қилдик. Такрорий сўзлар бадий матнда ҳам алоҳида ўринга эга бўлиб, улар муаллифнинг матнда ифодаламакчи бўлган қатор маъно нозикликлари, маъно бўёқдорликларини очиқ беришга кўмаклашади деб ўйлаймиз.

Адабиётлар рўйхати

1. Абдуллаев. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. Тошкент, Ўзбекистон. “Фан” 1983 й.
2. Йўлдошев М., Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. Ўз. Рес. ФА. “Фан”, 2007й.
3. Мирзаев М., Усмонов С., Расулов М., Ўзбек тили. Тошкент. 1966 й.

ТЎРА СУЛАЙМОН ШЕЪРИЯТИДА МЕТАФОРАНИНГ ЎРНИ

**Муродова Мадина ЖДПИ талабаси,
Илмий раҳбар Ибрагимов Хайрулла ЖДПИ**

Сўзларда маъно кўчиши маънонинг нима асосида кўчишига кўра метафора, метонимия, синекдоха, вазифадошлик, киноя каби турларга бўлинади.

Нарса-буюм, воқеа ва ҳодисалар ўртасидаги ўзаро ўхшашликка асосланган маъно кўчишига метафора дейилади. *Метафора* кўчма маъно ҳосил қилишнинг энг кенг тарқалган усулларида бири бўлиб, мумтоз адабиётшунослигимизда “*истиора*” деб юритилган. Метафоранинг икки турини фарқлаш лозим: лингвистик метафора ва хусусий-муаллиф метафоралари. Лингвистик метафоралар тил тараққиёти билан боғлиқ ҳодиса ҳисобланади[1;151]. Бадий ижодда метафоралар орқали ифодаламакчи бўлган фикр образлилик касб этиши билан бирга, шеърнинг қийматини ошириб, ўқувчининг тушунишини енгиллаштиради. Жумладан шоир Тўра Сулаймон шеъриятида ҳам метафоралар худди шу вазифани бажарган. Тўра Сулаймон поэтик нутқ учун муҳим бўлган бадий восита–метафоралардан унумли фойдаланиб, шеърнинг эстетик таъсирини кучайтирган:

*Малак ҳолатинда кўргандим сени,
Қушлар қанотинда кўргандим сени.*

(“Қайта кетмас бўлиб келдингми, баҳор!”) [4;174].

“Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да *малак* сўзига диний тушунча сифатида *фаришта* таърифи берилган бўлиб, у ислом ва баъзи бошқа динларда худонинг амрини бажарувчи илоҳий мавжудот (фаришталар сон-саноксиз бўлиб, ҳар бири маълум вазифани бажаради)[9;348]. Кўчма маънода *гўзал аёл, нозанин ёр* маъносида қўлланиши кўрсатилган. Юқорида

келтирилган шеърий парчада ҳам *малак* сифати *меҳрибон ва тенгсиз* сулув нозанинга кўчирилган.

Не дилларга гулу сола келдилар,

*Не **санамлар** ортда қола келдилар* (“Бизлар томонда...”) [3;29].

Санам –бут, санам, манот. Тошдан, ёғочдан ёки металлдан инсон қиёфасида (кўпинча гўзал аёл образида) ясалган ва зийнатланган бут [8;469]. Шоир илоҳий санам деб, дилбар аёлга ишора қилган.

Ерда-Кўкда тенги топилмас

*Коинотнинг **маъбудаси**ман.* (“Чўлпон”) [3;14].

Маъбуда – илоҳа. Аёл образида тасаввур қилинган худо [7;658]. Шеърда шунга ишора қилиниб, “*коинотнинг маъбудаси*” метафорик ифодаси қўлланган.

Илоҳий санам, маъбуда, малак метафораларида оламни англашнинг диний-герменевтик усулидан ташқари, тасвирий, тавсифий функция, когнитив аспект ҳам мавжуд. Шоир Т.Сулаймон истиоранинг ана шу имкониятларидан усталик билан фойдалана билган.

Элнимас Аркни қўриқлар тунқатор қўргон айланиб,

*Ўрда атрофи хатарли, юрибди **шайтон** айланиб...* (“Айланиб”) [2;13].

Шайтон – иблис. Диний нуқтаи назардан одамларни дин йўлидан оздирувчи, уларни гуноҳга, жиноятга, разолатга бошловчи ёвуз рух ёки ёвуз рухларнинг бошлиғи; иблис. Кўчма маънода айёр, қув, алдамчи [9;570] одамга нисбатан қўлланиб, метафорик маъно касб этади. Шоир “*юрибди шайтон айланиб*” деганда ҳам шундай одамларга ишора қилган.

Не ҳам қилсин саёз сувда чиганоқ,

Бежағловсиз чўпонларда қағаноқ.

Икки ёшнинг, икки чаманда гулнинг

Севгисига бўлмагайман тўғаноқ... (“Иккинчи равза”) [5;261].

Шоир “икки чаманда гул” деб севишган йигит-қизга ишора қилиб, ўзига хос метафора яратган. Одатда, гул фитолексемаси қизга нисбатан қўлланиб, анъанавий метафора сирасига мансуб бўларди. Тўра Сулаймон уни ошиқ йигитга кўчириб, хусусий(индивидуал) метафора яратган. Хусусий метафора поэзия жанри учун муҳим воситалардан бири бўлиб, поэтик фикрни олдин ҳеч ифодаланмаган янги формада ифодалаш усулидир. Шу жиҳатдан хусусий метафора поэтик фикрнинг таъсирчанлигини кучайтиришга хизмат қилади [6;151].

Сизга шоҳлик, бизга қуллик муносиб,

Бизга гўллик, Сизга ҳурлик муносиб.

Бўлса яна бизга доллик муносиб,

*Кўнгилни доғлар **гуллара** тушгай...* (“Тушгай”) [4;125].

Шу пайт куз, ёз баҳорга,

Айланди бог ичинда.

Гул очилар чаман-чаман,

Булбул чорбоғ ичинда... (“Сарвиноз”) [2;72]. Бу мисраларда гул сўзи қизга кўчирилган бўлиб, кейинги мисраларда айна маъно реаллашади: “*қиз қизариб лов-лов ёнар, йигит уқувсизгина*”. Фитолексемаларнинг метафорик маъно ифодалаш тўғридан-тўғри англашилиши ёки кейинги нутқ моментида намоён бўлиши мумкин. Шоир “*Гул очилар чаман-чаман*” деб, қизнинг хурсандлигини очик-ойдин айтмай, гул орқали кўрсатиб бериб, бадийлик ярата олган.

Шундай омон-омонда,

Тўкинчилик замонда,

Фашист деган ялмоғиз

Урушдан очди оғиз.. (“Қорасоч”), [5;233].

Ялмоғиз халқ оғзаки поэтик ижодида кенг тарқалган, ўта хунук қари кампир сифатида тасвирланадиган, дуч келган ҳамма нарсани еб-ютиб юборадиган афсонавий махлуқ, жодугар. Кўчма маънода ҳамма нарсани еб-ютадиган, қуритадиган, юҳо[10;112]. Шоир ялмоғиз сифатини фашистга бериш орқали теоморфик метафора ҳосил қилган.

Инсон тирик мавжудот сифатида салбий ёки ижобий хусусиятга эга бўлиши ёки унга муносабатдаги киши уни шундай қабул қилиши мумкин. Шунинг учун метафоралар ижобий ёки салбий бўёкли метафорик маънода қўлланилиши мумкин. Бунда айрим лексемалар ижобий, айримлари салбий, айримлари ҳар икки маънода қўлланилиши кузатилади.

Тўра Сулаймон шеърларида *тангри, пари, санам, малак, фаришта, гул* каби метафоралар шахснинг ижобий усусиятларини ифодалаш учун қўлланган. Бу лексемалар семасида “ижобийлик” мавжуд бўлиб, шоир шундан усталик билан фойдаланиб, хусусий метафоралар ҳосил қилган.

Шайтон, алвасти, ялмоғиз образларида “салбийлик” мавжуд, шунинг учун шоирнинг ушбу образлар қатнашган шеърларидаги метафоралар одамнинг салбий сифатларини кўрсатишга хизмат қилган.

Шоир шеърларида қўлланган ўзига хос метафоралар вақт ўтиши билан лисонийлашиб боради ва бу орқали тил бойлиги, ифода усули бойийди.

Метафоралар ҳар бир халқнинг менталлигини, миллий онгини, бадий тасвир воситасини, фольклори, диний-дунёвий тафаккур тарзини ўзида яққол намоён қилар экан, демак, бу ҳодиса халқ маданияти билан узвий алоқада ва ривожланишда мавжуддир.

Адабиётлар рўйхати:

1. Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2007.
2. Тўра Сулаймон. Ёвқочди-Тошкент: Ёзувчи, 1998.
3. Тўра Сулаймон. Сайхон - Тошкент: Шарқ, 2003.-Б.29.
4. Тўра Сулаймон. Сенсиз ёлғиз, ғариб булдим...- Тошкент: Movarounnahr, 2013.
5. Тўра Сулаймон. Танланган асарлар -Тошкент: Шарқ, 2020.

6. Умуркулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент: Фан, 1990.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Тошкент: Миллий энциклопедия, 2006.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Тошкент: Миллий энциклопедия, 2006.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-жилд. – Тошкент: Миллий энциклопедия, 2006.
10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилд. – Тошкент: Миллий энциклопедия, 2006. – Б.112.

**FE`LNING VAZIFA SHAKLLARIGA KIRUVCHI RAVISHDOSH
SHAKLINING QO`LLANISH XUSUSIYATLARI
SO`ZNING BADIY VA LISONIY TAHLILI
(ABDULLA QAHHORNING “ANOR” HIKOYASI MISOLIDA)**

**f.f.f.d. Feruza Jumayeva (ilmiy rahbar)
JDPI talabasi Dilshoda Qo‘chqorova**

Adabiyotimizning yetuk va zabardast yozuvchisi Abdulla Qahhor barcha kitobxonlarga manzur bo‘luvchi, ma’naviy ozuqaga boy asarlar yozdi. Yozuvchi barchaga tushunarli bo‘lgan sodda tilda oddiy xalq hayotini qalamga oladi. Shu bois o‘quvchi asarni o‘qir ekan voqea-hodisalar uning ko‘z o‘ngida yorqin gavdalana boshlaydi. Asarda turmushda qo‘llaniladigan oddiy narsalardan keng foydalanilgan. Ularni ifodalovchi so‘zlar ham katta ma’no-mazmunga ega bo‘lib, kitobxonni o‘ziga jalb etadi. Jumladan, "Anor" hikoyasidagi har bir detall mahorat bilan tanlangan. Hikoyada yirtilgan yaktak, oqsoq mushuk, zangi chiqqan qozon, obrez, anor kabi talaygina detallar keltirilgan. Bu detallarning har biri o‘ziga xos ma’noga ega bo‘lib, tasvirni boyitadi, fikr-mulohazalarni kengaytiradi. Masalan: zangi chiqqan qozon detali Turobjonning oilasi nochorligining belgilaridan biridir. Bu qozonda ancha paytdan beri ovqat qilinmaganligini anglash bilan oilaning sharoiti haqida xulosa paydo bo‘ladi. Obrez detali ham yuqoridagi ma’noga hamohang holda qo‘llanilgan bo‘lib asar qahramonining hovlisi juda ham tor ekanligini va boshqa buyumlarning ham yo‘qligini ko‘rsatib bergan. Anor detali esa hikoya nomini yana ham oydinlashtirgani holda ayolning shunga boshqorong‘i bo‘lganini va Turobjonning qo‘li kaltalik qilayotganini namoyon etgan. Bir so‘z bilan aytganda yuqorida keltirilgan detallar asar qahramonlarining ijtimoiy holatini yoritishda asosiy vazifa bajargan.

Hikoyada aksini topgan voqealar hayotiyliги bilan ham ta’sir kuchiga ega. Abdulla Qahhor "Hayot hodisasidan badiiy to‘qimaga" kitobida shunday yozadi: "Hikoyadagi voqealar Buvaydada ko‘rgan-kechirgan voqea hodisalar asosida vujudga kelgan. Hikoyada tasvir etilgan Turobjon bizga qo‘shni bo‘lib asli ismi Babar...". Bu hayotiy voqeani yozuvchi qanday ko‘rgan bo‘lsa, shunday tasvir etadi. Tasvir mahorati esa so‘zning ma’no qirralaridan unumli foydalana

olishidadir. Asarda *Keli lapanglab ag'anadi, chala tuyilgan jo'xori yerga to'kildi* jumlasini keltirilgan, yozuvchi kelining ag'anash holatini tasvirlashda *lapanglab* so'zini ishlatadi. *Lapanglamoq* so'zi "u yoq bu yoqqa chayqalmoq" ma'nosini bildiradi. Asosan, jussasi katta insonlarga nisbatan qo'llaniladi. Asarda yozuvchi kelining ag'anash holatini *lapanglamoq* so'zi orqali ifodalab, jumlaning ta'sirchanligini, tasvirning boyoqdorligini oshirgan. Asardagi *Xotini turayotib baralla yig'lab yubordi* jumlasini ham e'tiborni tortadi. Ma'lumki, kishi baqirib, o'kirib yig'lashi mumkin lekin baralla yig'lash holati boshqacha tusga ega. Yozuvchi so'z semantikasi imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalangan. *Baralla* so'zi semantikasida "ko'plik", "balandlik" kabi semalar mavjud bo'lib, qahramonning yig'i holatini aniq ifodalashga xizmat qiladi.

"Anor" hikoyasida ko'plab detallar vositasida asar qahramonlarining turmush tarzi, ijtimoiy holati yoritilgan va buni ifodalashda so'zning semantik, pragmatik imkoniyatlaridan keng foydalanilgan. Shu bois adabiyot va til bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Adabiyot tilning, til esa adabiyotning imkoniyatlarini kengaytirib, boyitib boradi. Lisoniy tahlillar asosida badiiy asarning mazmun-mohiyati ochib beriladi, badiiy matnni tahlil qilish asosida esa so'zning semantik-pragmatik xususiyatlari namoyon bo'ladi.

ABDULLA QAHHOR – SO‘Z ZARGARI

Feruza Jumayeva (ilmiy rahbar)
JDPI talabasi Ulashova Latofat

Ma'lumki, har bir xalqning ma'naviy yuksalishida o'sha xalqning is'tedodli ijodkorlari yaratgan madaniy meros ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Barcha mohir so'z san'atkorlari kabi Abdulla Qahhorning adabiy merosi ham xalqimiz ma'naviy tafakkurini komillikka yetaklashga xizmat qiladi. U betakror asarlari bilan xalqimizning ma'naviy hayotida o'z o'rniga ega bo'lgan siymodir. Abdulla Qahhor ona yurtimizning yaqin o'tmishi, o'z davrining to'laqonli manzarasini, zamondoshlarimizning yuksak fazilatlarini ixcham, tabiiy shaklda yaratilgan, boy tafakkur mahsuli bo'lgan asarlari orqali kuyladi. Ijod uslubi bilan o'zbek adabiyotida o'ziga xos maktab yaratdi, qiziqarli asarlari bilan ijod olamiga yangi bir nafas olib kirdi.

Abdulla Qahhor mohir so'z san'atkoridir. Muayyan xarakter va holatni aks ettiradigan so'zni qo'llab va uni o'z o'rnida ishlatish Abdulla Qahhorga xos xususiyatlardan biridir. Bu jihatdan u haqiqiy mo'jizakor adib edi. So'z uning oldida bamisoli itoatkor askar, qaysi ma'no tomon buyruq qilsa, shu tomon yuz tutib xizmatiga tayyor turgandek edi. Shunga qaramasdan so'zlarni ayab son jihatdan kam so'z bilan katta va teran fikrlarni ifoda qila olishi hammani taajjublantiradi. Abdulla Qahhor o'z persanajlarini, ularning holatlarini, ulardagi vaziyatni aniq ko'ra bilar va shuni qog'ozda badiiy tasvirlay olar edi. Uning asarlari hayotning o'zidek tabiiy edi. U o'zining hikoyalarida hayot nafasini, davr ruhini ochgan, faqat sezib emas, uni teran anglab so'z orqali namoyon etgan.

Asarlarning nomlari sarlavhalarini tanlash sohasida adib mahoratini uning hikoyalari misolida ham ko'rishimiz mumkun. Abdulla Qahhor hikoyalarida nihoyatda ixcham, ma'noli so'zlar sarlavha sifatida tanlangan. Masalan, "Maston", "Qizlar", "Dahshat", "Jonfig'on", "O'jar", "Yillar", "Xotinlar", "Karavot" kabilar. Shuningdek, so'z birikmasi va gap shaklidagi nomlanishlar ham mavjud. Bunga "Kampirlar sim qoqdi", "Mayiz yemagan xotin" kabi hajviy hikoyalar misol bo'ladi.

Umuman, badiiy asar sarlavhasi matn bilan bog'liq holda tanlanishi biri ikkinchisini mazmunan to'ldirishi, o'quvchini jalb qila olish xususiyatiga ega bo'lishi kerak. Abdulla Qahhor hikoyalarining sarlavhalari chuqur ma'no ifodalashi bilan ham e'tiborni tortadi. Asarning nomida leksik ma'nodan tashqari pragmatik ma'no ham aks etib turadi.

Abdulla Qahhor hikoyalarida ayollar nutqida ko'p uchraydigan qarg'ish so'zlarining turli ma'nolarda qo'llanilishini kuzatamiz. M., "qurib ketgur", "tavba qildim" jumlasida quyidagi o'rinlarda qo'llanilgan: "Hazilingiz qursin,- dedi chiroqni pastlayotib,- kishining iymonini qochiradi"; "Qurib ketgurlar biram sharmandaki tavba qildim... tag'in ham zilzila bo'lib hammasini yer yutmas ekanda!" (Mayiz yemagan xotin). Shuningdek, niyat, istak mazmunidagi qarg'ish so'zlari qo'llanilgan. M., "Xudo ko'tarsin, sen megajinni" (Mayiz yemagan xotin). Bunday jumlar asarda qahramonlarning qiyofasini yorqin ifodalashga, xarakter-xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. A.Qahhor asarlarida qo'llanilgan bunday birliklar o'ziga xos ma'no ifodasiga, okkazionallik xususiyatlariga ega.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qahhor mahoratli ijodkordir. Uning betakror asarlari so'z sehrini namoyish qilishga xizmat qiladi, o'quvchilarni ma'naviy kamolotga yetaklaydi, shogirdlari uchun katta maktab vazifasini bajaradi.

АЛИШЕР НАВОЙИЙ ҒАЗАЛЛАРИДА ИРСОЛИ МАСАЛ САНЪАТИ.

Алимова Эъзола ТДПУ талабаси

Бу санъатнинг арабча номи ирсол ул-масал фил-байти. Бироқ мумтоз поэтикага доир бир қатор асарларда ирсоли масал (форсий изофа) тарзида қайд этилган.

Шеърятимиз тарихида жуда кўп ишлатиладиган бу санъат ҳақида поэтикага доир деярли ҳамма асарларда маълумот берилган. Бироқ унинг таърифи масаласида айрим тафовутлар учрайди. Масалан "Таржимон ул-балоға"да; "Балоғат жумласидан яна бири шуки, шоир байтда ҳикмат келтиради ва у масал (тамсил) йўли билан бўлади" дейилса, "ҳадоиқ ус-сеҳр"да: бу санъат шундан иборатки, шоир байтда машҳур бўлган тимсол

келтиради деб тушунтиради. “Арузи Ҳумоюн”да: “Ирсоли масал шундайки, шоир ўз шеърида машҳур масални келтиради” дейилса, “Жами музтасар”да таъриф берилмай, фақат мисол тариқасида келтирилган байт ва ундаги ирсоли масал изоҳланади.

“Илми бадеъ дар забони форсий” да берилган таъриф қуйидагича: Ирсоли масал шундайки, шоир гапда тамсил қилишга лойиқ бўлган машҳур масал Ки ҳикматомуз ибора келтирилади, ёхуд гап равонлиги жиҳатидан жуда мақул тушиб, зарбулмасалга айланади”.

Хуллас, бу санъатнинг моҳиятини шундай изоҳлаш мумкин: Ирсоли масал гапда, ёки шеърда мақол, метал ва ҳикматли сўзларни муайян мақсадда тамсил йўли билан ишлатиш санъатидир.

Ирсоли масал поетик санъат сифатида шеърятимизнинг қадимги намуналарида ҳам учрайди. “Қутадғу билиг” да “Ҳибат ул-ҳақойиқ” сингари машҳур обидаларда бу санъатнинг маҳорат билан ишлатилган ўнлаб намуналарини кўриш мумкин. Чунончи, Аҳмад Юғнакий: “Ўқиган ва эшитганларга фойдали ва ёқимли бўлсин деб китобимни насихат ва мақоллар билан безадим”, деб ёзади. Мазкур асарлардан кейин юзага келган насрий ва шеърий асарлар таркибида ҳам бу санъат муҳим поетик восита сифатида ишлатилган. Ирсоли масалнинг Алишер Навоийгача бўлган ўзбек лирикасида қўлланиши устида гап борар экан, бу санъатнинг юксак намунаси сифатида Лутфий ва Атоийнинг юзлаб байтларини келтириш мумкин. Чунки бу шоирлар ғазалиётида мазкур усул хилма-хил йўсинда ниҳоятда кўп ишлатилган бўлиб, улар услубининг етакчи фазилатларидан бирига айланган. Ҳаттоки Лутфий, Атоий девонларида барча байтлари ирсоли масал билан тугаган яхлид ғазалларни учратиш мумкин.

Алишер Навоий ғазалиётида бу услуб янада сайқал топди: унинг шеърларида, бир томондан, янгидан жалб қилинган мақол, метал ва ҳикматли сўзларни кўплаб учратсак. Иккинчи томондан, уларнинг хилма-хил мақсад учун ранг-баранг услубда ишлатилганлигини кўрамыз. Шунингдек, Навоийнинг ўзи ҳам ҳикматли сўз даражасига етган кўплаб байт, мисра ва иборалар яратган.

Шеърятимиз тарихида мақол, метал ва ҳикматли ибораларнинг поетик мақсад учун ишлатилишида, асосан учта муҳим хусусият кўзга ташланади: 1. Келтирилаётган мақол ёки маталга “масалдур” ёки “масалдурки” сўзи ёрдами билан аниқ ишора қилинади., унинг халқ орасида маълум ва машҳур эканлиги таъкидланади. 2. Мақол ёки метал (ҳеч қандай ишорасиз) айнан келтирилади. 3. Мақол ёки маталнинг мазмуни сақланган ҳолда, унинг шакли биров ўзгартириладим ёхуд шеърий вазн талаби билан янгича шаклда ифодаланади.

Қуйидаги мисолларда ана шу учала ҳолатни кўришимиз мумкин:

*Аёқингга тушар ҳар лаҳза гесу,
Масалдурким: чарогъ туби қоронгу.
Тутармен кўзки, кўрсам оразингни,*

Ки дерлар: оққан ориққа оқар су(в). (Лутфий)
Етти жон оғзимгаким, чиқмас уйидин ул ҳур,
Чиқмаган жондин умид-ушбу масалдур маишхур.
Эй, кўнгул, ишқ ичра йўқ шоҳу гадога имтиёз:
Ўт аро тенгдур қуруқ ё ўл ёғочнинг хирқати.
Кўнгулни туз, тилосанг фойиз ўлса туз маъни,
Нединки эгри эса, эгри кўргузур кўзгу. (Навоий)

Ирсоли масалнинг чиройли намуналарини ҳозирги замон ўзбек шеъриятида ҳам учратиш мумкин (бирок у қадар кўп эмас). Унинг ҳозирги пайтда қўлланишида ҳам юқорида зикр этилган уч хил усул мавжуд.

Ёнарму арслон изидин, йигит сўзидан, деб
Мақол бордур, ажойиб гавҳари бебаҳо сўз.
Кўп насиҳат тинглаб Эркин қилмади тарки ишқ,
Бор масалким: иш юришмас, соҳиби гар бўлса кож.
Сен-ку Зухросан фалакда, интизорингман фақат,
Не ажаб, толтинса кўнглим “Йўқ эрур орзуда айб”
Умрини ошиқ ҳамиша ўтказур орзу билан.
—Ойнинг ўн беши қоронғу, ўн беши ёғду билан”.

Агар байтда иккита мақол, метал ёки ҳикматли сўз ишлатилган бўлса, у ҳолда ирсоли ул-масалайн дейилади. Мисол:

Бўлди бағрим сув гамингдин, яхшилик қил-сувға сол;
Охир, эй гул хирмани, албатта, ҳар эккан ўрар. (Атойи)

Умуман асрлар давомида шеъриятимиз услубини бебаб, унга ўзига хос жило бағишлаб келган мақол, метал ва ҳикматли иборалардан фойдаланиш санъати-ирсоли масал шеъриятимиз ҳозирги босқичида ҳам қўлланишга лойиқдир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ёқубжон Исҳоқов “Сўз санъати сўзлиги”-“Зарқалам”-2006.
2. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. II жилд. – Тошент, 201
3. Алишер Навоий. ТАП. II жилд. Ғаройиб ус-сигар – Тошент, 2011. (мисоллар шу девондан олиннади ва байтнинг охирида қавс ичида газалнинг тартиб рақами берилади. Кейинги ўринларда девон номи “ҒС” шаклида кўрсатилади)
4. Каримов И. Юсак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент, Маънавият, 200

LISONIY BIRLIKLARNING BADIY MATNDAGI IMKONIYATLARI

JDPI talabasi Sardor Yusupov

XX asr o'zbek adabiyoti va adabiyotshunosligi rivojiga katta hissa qo'shgan ijodkor Abdulla Qahhor bir qator asarlari bilan adabiyotimiz tarixida o'chmas iz qoldirdi. Yozuvchi asarlarining tili sodda, ravon. Abdulla Qahhor kichik hikoyalari qariga serma'no so'zlar vositasida o'lgan voqealarni joylaydi. Bitta so'z orqali gap mazmuniga xos nutq aktlarini ifodalab bera oladi. Asarlarida qo'llangan iboralar ham adibning buyuk tafakkur egasi ekanidan nishonadir.

Yozuvchining "Dahshat" hikoyasida Olimbek dodxoning xotinlariga yetkazgan jabr-stamlari va sakkizinchi xotini Unsinning kechasi qabristonga borib kelishi voqealari tasvirlangan. Bu voqealarni ifodalovchi so'z va iboralarining semantik-pragmatik xususiyatlari o'ziga xos bo'lib, obrazli tasvirni jonli ifodalashga xizmat qiladi. M.: *"Yaqin ikki haftadan beri ko'z ochirmaydigan kuzak shamoli yaydoq daraxtlar shoxida chiyillaydi, g'uvullaydi; tomlarda vishillaydi, yopiq eshik va darchalarga bosh urib uf tortadi"*. Ushbu jumlada *kuzak* va *yaydoq* so'zlari berilgan. *Kuzak* so'zi "kuz fasli", "kech kuz" kabi ma'nolarni bildiradi. Bu so'z orqali sovuq va izg'irin shamollar esadigan, insonning diliga qo'rquv soladigan payt anglashiladi. *Yaydoq* so'zi esa uy hayvonlari: ot va eshakka, nisbatan qo'llaniladi. Otning hech qanday egarjabduqqa ega bo'lmagan holati ma'nosini ifodalaydi. *Yaydoq* so'zi *sahro* so'ziga bog'lanib, "hech qanday giyoh ham o'smaydigan" ma'nosini anglatadi [1;23]. Hikoyada *daraxt* so'ziga bog'lanib, "barglari to'kilib, yalang'och holga kelgan" ma'nosini bildiradi. *Yaydoq daraxtlar* birikmasi orqali kuz faslidagi daraxtlarning yorqin obrazi gavdalantiriladi.

"Dodxo har kecha tarovih namozidan keyin halqa(diniy marosim)ga qolar edi, bu kecha erta qaytdi. Hamma to'zidi: xotinlardan biri sallasini oldi, biri chakmoniga qo'l uzatdi, biri mahsisini tortgani chog'landi..." Bu yerda *to'zimoq(to'zmoq)* so'zi "betartib bo'lmoq" ma'nosida qo'llanilgan. Aslida, bu so'z jonli va jonsiz narsalarga nisbatan ishlatilib, "tarqalmoq", "sochilmoq", "bo'linmoq", "eskirib, titilib ishdan chiqmoq", "xazon bo'lmoq" ma'nolarini ifodalaydi. Hikoyada dodxoning uyga kelishi haqidagi o'rinlarda *to'zmoq* so'zining qo'llanilishi xotinlarning ko'nglida noxushlik, qo'rquv holatining paydo bo'lishi anglatadi, bu go'yoki yerga tushgan mevani o'rab olgan chumolilardan mevaning olib qo'yilgandagi yoki hovliga yoyib qo'yilgan donlarni yeyayotgan qushlarning odamni ko'rib sergaklanib qolishidagi holatni eslatadi.

Abdulla Qahhor hikoyalarida iboralardan ham o'rinli foydalangan. Jumladan, "Dodxo bu xayollarini yengish uchun go'riston vahimalaridan o'zi so'z ochadi va ikki og'iz gapning birida o'zining dovyurakligini xotinlariga, ulardan ham ko'ra o'ziga pisanda qila ketdi". Bunda dodxoning holatini to'liq va ta'sirli ochib berish uchun "pisanda qilmoq" iborasi qo'llanilgan. *Pisanda* so'zi tilimizda "oldindan qo'yilgan talab, shart", "talab va shart tarzida aytiladigan bahona" ma'nosini ifodalaydi [1;265]. *Ta'kidlamoq, luqma tashlamoq* so'zlari o'rnida ishlatiladi. Ushbu o'rinda esa, "ta'kidlamoq" ma'nosida qo'llanilganini anlashimiz mumkin. Ya'ni dodxoning o'zi ich-ichidan ushbu holatdan qo'rqayotgan bo'lsa

ham, xotinlariga bildirmaslik uchun o'zini ularga va o'ziga qo'rqmasdek ko'rsatayotganligi shu ibora orqali aniq ifodalanadi.

Abdulla Qahhorning "Dahshat" hikoyasidagi *ko'r oydin* iborasiga e'tibor qarataylik: "*Ko'r oydin. Osmonning chekkasi sariq - ko'r uvadaga o'xshaydi*". Ushbu ibora "*bulutlar orasidan o'tib tushayotgan oy yog'dusi va shunday yog'du bilan yorishgan kecha*"ni anglatadi. Iboraning hikoya matnida atov gap sifatida berilishi ham undagi ma'noning yana-da ta'sirchan bo'lishini ta'minlab turibdi. Yuqoridagi parchada *uvada* so'zi orqali osmonning chekkasi sariq, ya'ni kir uvadaga o'xshatilmoqda. *Uvadaning* quyidagi ma'nolari bor: 1) kiyim, to'shaklarning to'zgan, uzilgan parchasi; 2) eskirib, sitilib, yirtilib dabdala bo'lgan kiyim-kechak. [1;261]

Yozuvchi so'zning o'z ma'nosidan tashqari uslubiy, pragmatik ma'nolaridan ham unumli foydalanadi. Shuning uchun asaridagi narsalar, voqealar tasviri yorqin ifodalanagan va mazmun-mohiyatini anglash o'quvchiga qiyinchilik tug'dirmaydi. Pragmatik ma'noga boy so'zlarning qo'llanishi esa asardagi voqealarga turlicha munosabat bildirish imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати (ЎТИЛ). 5 жилдли. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-жилд, 2006. – 680 б; 2-жилд, 2006. – 672 б; 3-жилд, 2007. – 688 б; 4-жилд, 2008. – 608 б; 5-жилд, 2008. – 592 б.
2. Ф. Жумаева Полисемем лексемалар доирасидаги синоним ва антоним семалар тадқиқи. Монография. – Тошкент: Qaenus Mediya. 2019. -136 б.

ERKIN VOHIDOV SHE'RIYATIDA BARQAROR BIRIKMALARNING QO'LLANILISHI

D. Shukurova JDPI magistranti
F. Jumayeva (ilmiy rahbar)

Maqol, matal, ibora, aforizm kabilar semantik-sintaktik qurilishiga ko'ra barqaror birikmalardir. Ijodkor barqaror birikmalardan lokutiv, illokutiv va

perlokutiv nutq aktlarini yaratishda mahorat bilan foydalanadi. Qahramonlar tabiati, ruhiy holati, hayot tarzini tasvirlovchi okkozional ma'noni hosil qilish maqsadida turg'un birikmalarning shakl ifodasiga o'zgartirish kiritadi. Shu tarzda xalq maqollari, iboralari shaklan va mazmunan sayqallanib, yangi ma'no nozikliklari bilan to'yinib boradi. Masalan, Erkin Vohidovning ushbu misralarida o'zbek xalq maqolining she'riy ifodasi aks etgan:

*Do 'st qidir, do 'st top jahonda,
Do 'st yuz ming bo 'lsa oz,
Ko 'p erur bisyor dushman
Bo 'lsa u bir dona ham.*

Bu kabi misralar orqali mumtoz she'riyatda irsoli masal san'ati yaratilgan. Xalq tilida "Do 'st ming bo 'lsa ham — oz, dushman bir bo 'lsa ham — ko 'p" [2] maqoli mavjud. Shoir maqolga xos yuz so'zining o'rnida yuz ming so'zini qo'llaydi. Bundan maqsad, aytaylik, maqolni she'r uslubiga moslashtirish bo 'lsa, mazmunan esa nutq aktini kuchaytirish, ta'kidlashdir. Shoirning ayrim misralarida maqol tarkibidagi leksik-semantik o'zgarishlar obraz tasvirini bo'rttirishga, kuchaytirishga emas, aksincha pasaytirishga hizmat qilayotganini anglaymiz.

*Umrini oshiq hamisha,
O 'tkazur orzu bilan,
Oyning o 'n beshi qorong 'u,
O 'n beshi **yog 'du** bilan.*

Aslida, o'zbek xalq maqoli "Oyning o'n beshi qorong'u bo'lsa, o'n beshi-yorug'" -edi. Erkin Vohidov esa maqolni she'r uslubiga moslashtiribgina qolmay, yorug' leksemasini yog'du leksemasiga ko'chirish orqali har qanday qiyinchiliklardan so'ng, asta-sekin barchasi yaxshi bo'lishiga ishora bor ekanligini mahorat bilan tasvirlagan. O'zbek tilining izohli lug'atida yog'du so'zi yorituvchi manbadan taralayotgan nur degan ma'noni berayotganiga ahamiyat bersak, har qanday qiyinchilikdan so'ng hayot sekin asta yaxshilanishiga ishora borligini ko'rish mumkin. Matn mazmunini va muallifning maqsadini yoritib beruvchi vositalardan biri leksik birliklar sanaladi. Ular matn qismlarining semantik bog'lanishini ta'minlaydi. Yuqoridagi satrlarda shoir- "Oyning o'n beshi qorong'u bo'lsa, o'n beshi-yorug'" maqolini poetik aktuallashgan holda qo'llagan.

*Kuyida men tosh boshimni
Urmagan ostona yo 'q
Elda bor shunday masal
Jon chekmasang jonona yo 'q.*

Aslida o'zbek xalq maqolida "Jon chekmasang jonona qayda, toqqa chiqmasang do'lona qayda" deya ritorik so'roq bilan kitobxonga ta'sir etish maqsad qilingan bo'lsa. She'rda esa bu maqol hukm vazifasida kelayapti. Aslida harakat qilmasang, tirishqoq bo'lmasang hech narsaga erisha olmaysan deya ritorik so'roq bilan inkor etish mavjud. Erkin Vohidov poetik aktuallashtirib bunda ham inkor shakli bilan ifodalayapti. Ammo maqoldan farqli o'laroq qat'iyy

inkorni ifodalash orqali okkozional yondashuvga erishgan. Shuningdek “bosh urmoq” iborasi tosh leksemasi bilan aktuallashib bardosh chidamli semasini berayapti. Aslida toshga beilayotgan polisemantik leksemalar anchagina, shoir misralarda esa toshning bardosh ma’nosida qo’llangan semantikasini ifodalashga harakat qilgan.

Ijodkor foydalangan poetik aktuallashgan birliklar shunisi bilan qimmatliki, u fikr bilan uyg’un holda sodda va tabiiy yuzaga kelgan.

*Ming yil xira yulduz bo’lgandan,
Bir dam yoniq sham bo’lgan afzal.*

Shoir umrni qancha emas, balki qanday yashashga sarflash lozimligini yuqoridagi satrlarda jamlagan. Bunday fikrlar G’afur G’ulomning “Vaqt” she’rida ham “Ba’zida bir nafas olgulik muddat- ming yulduz so’nishi uchun yetgulik” tarzida ifodalangan. Bu satrlarda o’zaro ziddlik nafaqat barqaror birikmalar, balki xira yulduz va yoniq sham birikmalari orqali ham assotsiatsion maydonni yuzaga keltirishga harakat qilgan.

*O’ynashmagin arbob bilan,
Arbob garchi ming dilkash.
Bilki, bo’ri qo’zichoqqa
Sher ohuga hazilkash.*

Misrada keltirilgan maqolning lingvopoetik moslashtirilishi satrdagi bo’ri bilan qo’zichoq hamda sher va ohu munosabati asosida yoritilgan. Aslida maqol “O’ynashmagin arbob bilan, arbob urar harbop bilan” –edi. Lekin ijodkor maqolning bir qismidan foydalanmay arbobning turli hiyla nayranglariga ehtiyot bo’l degan hukmni majozning bir qancha turi orqali ifodalab bergan.

Erkin Vohudov she’riyatida xalq maqollari, iboralardan keng foydalanilgan. Shoir maqoldagi ayrim so’zlarni o’zgartirish bilan, badiiy quvvatni oshirgan. Ramziy ifodaga ega bo’lgan so’zlarni qo’llash asosida, obrazli tasvirni boyitgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. - Т.: Фан, 2007.
2. О‘zbek xalq maqollari. «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati 2005.
3. Ф. Жумаева Полисемем лексемалар доирасидаги синоним ва антоним семалар тадқиқи. Монография. – Тошкент: Qaqpus Mediya. 2019. -136 б.

KO’HNA DUNYO SABOQLARI

(Odil Yoqubovning “Ko’hna dunyo” romani misolida)

**Shomurodov San’at, JDPI I bosqich magistri
Ilmiy rahbar: f.f.n. dotsent Yulduz Karimova**

Odil Yoqubovning “Ko’hna dunyo” asari milliy tarixiy romanchiligimizga o’ziga xos tasvir yo’sinini kiritgani bilan alohida ahamiyat

kasb etadi. Asarda tasvirga olingan tarixiy davr: Mahmud Gʻaznaviy va uning humkronligining soʻnggi yillari voqealari hamda ikki tarixiy buyuk shaxs: Ibn Sino va Abu Rayhon Beruniylarning ziddiyatlar va murakkabliklarga toʻla hayoti bilan bogʻliq voqealar romanning asosiy syujet chizigʻi hisoblanadi.

Adabiyotshunos U. Normatovning eslashicha, “Koʻhna dunyo” romani haqida “Literaturnaya gazeta” shunday degan ekan:

“Yoqubovning romani markazida Ibn Sino hamda Beruniy taqdirleri, ular yashagan davr turadi. Muallifning xulosalari va umumlashmalari keng, shuning uchun tarixiy materialga ajib aktual maʼno bagʻishlaydi. Zamonlar osha qilgan sayohat teran falsafiy umumlashmalar chiqarishga imkon beradi. Romanda tasvirlangan barcha voqealar hujjatlar bilan cheklab qoʻyilmagan. Odil Yoqubov tarixni koʻrib turadi, tarix bilan bahslashadi, Zamondoshlarga uzoq oʻtmishdoshlarining tajribalaridan guvohlik berganday boʻladi. U tarixga bugungi davr nuqtai nazaridan qaraydi ” Roman haqida ushbu gazetada ham oʻz davrida ham bir muncha ijobiy munosabat bildirilgan

Darhaqiqat, romanda yozuvchining yaxshilik va yomonlik, asliyat va soxtalik, ilm ahli va humkdorlar oʻrtasidagi munosabatlar haqida teran falasafiy umumlashmalari va xulosalari Ibn Sino, Beruniy hamda Mahmud Gʻaznaviy oʻrtasidagi munosabatlarda aks etadi.

Beruniy Gʻaznaviyning harbiy yurushlarida bevosita ishtirok etganligi sababli Hindiston va boshqa yurtlar haqida atroflicha maʼlumotlarga ega boʻladi. Masalan, Hindiston yurushi paytida Hind madaniyati, Hind xalqining tilini oʻrgangan va bu orqali kerakli maʼlumotlar toʻplab buyuk qomusiy asarlar yaratadi. Lekin ushbu safarlar chogʻida qirgʻinbarot urushlar, qon toʻkishlar va qaysidir xalqni talash evaziga ortirilgan boyliklar va shu kabi boshqa hodisalar uning qalbini larzaga soladi, uni erkin ilmiy faoliyat yurutishiga halaqit qiladi. Lekin mutafakkir bu jarayondan chiqib ham keta olmaydi. Ayniqsa, Mahmud Gʻaznaviyning ilm kishilariga boʻlgan munosabati, Firdavsiydek ulugʻ siymoning kamsitilishi va shu kabi hodisalar Beruniy ruhiyatiga qattiq taʼsir qiladi. Bu dunyoning telba-teskari oʻyinlari oldida olimning ojiz qolishi asarda ishonarli tarzda ochib bergan. Taniqli adabiyotshunos olim Q. Yoʻldoshev yozuvchi mahorati va roman uslubi haqida quyudagicha fikr yurutadi.

“Odil Yoqubovning olam hodisalari va odamning mohiyati haqidagi zalvorli oʻylari, salmoqli mulohazalari “Koʻhna dunyo” romanida oʻzgacha bir yoʻsinda aks etgan.

Muallif bu asarida inson, uning hayotdagi oʻrni, oʻz taqdirini belgilashdagi ishtiroki, adolat, haqiqat va ularning tantanasi toʻgʻrisidagi qarashlarini turlicha tabiatli shaxslarning qismati misolida, keskin va qaltis burilishlarga boy shiddatli voqaelar asnosida ifoda etadi. Yozuvchi romanda koʻproq inson hayoti maʼnosini anglamoqchi boʻlgan faylasuf sifatida koʻrinadi. Asarda yozuvchi bu koʻhna dunyoning chigalligi, tushunarsizligi, rejalarga boʻy bermasligidan paydo boʻlgan hayratlarini aks ettiradi. Hayotda, koʻpincha, asl qolib soxta narsa eʼtibor topadi. Yaxshi emas, yomon ezgu va

oliyjanob degan nom chiqaradi. Inson zotiki bor o'z qilgan ishni ezgulik deb o'ylaydi.”²

Adabiyotshunos olim ta'riflagan ko'hna dunyoning chigalliklari, tushunarsizligi romanda Ibn Sino shaxsiyati va uning taqdiri atrofidagi bir-biridan murakkab va chigal jarayonlarda haqqoniy va ishonarli tarzda ochib berilgan.

Fikrimiz isboti sifatida asarda Beruniyning quyidagi so'zlarini eslaylik:

“Yo tavba! Yo alhazar! “Al-qonun” va “Ash-shifo”ni yaratib, dong'i butun olamga ketgan, hakimi davron va hattoki shayx ur-ra'is nomini olgan xazrat Ibn Sino yolg'onga chiqib, ikki makkor vazir firib niyatda “o'ylab” topgan bir iblis chin Ibn Sino deb topilmish! Buyuk alloma va pok inson haqoratimiz so'zlar bilan saroydan haydalib, Ibn Sinoning nomini bulg'ab ahli mo'minni to'nab yurgan bir shaytoni lain bo'yi barabor ganjga ko'milmish!... O, bu telba dunyo, telba dunyo!”³

Haqiqatdan, Ibn Sino o'z davrida tibbiyot sohasida olamshumul kashfiyotlar qilgan ulug' hakim bo'lganligi bizga tarixdan ma'lum. Lekin asarda Ibn Sino “Bani odam bino bo'ptiki donalar g'urbatda nodonlar izzatdamasmu?”⁴ deya o'zi bashorat qilganidek, charxi dunning teskariligidan olim Mahmud G'aznaviy dargohidan bir emas ikki marta quvuladi. Bu kabi tahqirlashlar, ruhiy iztiroblar iskanjasida qolgan olim o'z imkoniyatlari istedodi ko'lamini to'liq ro'yobga chiqara olmaganiki, bu ham bo'lsa ko'hna dunyoning o'ziga xos yo'qotishi edi.

Yozuvchi Ibn Sinoni asarda mutafakkir olim sifatidagi qiyofasini tasvirlash bilan birga u ham oddiy insonlar kabi ko'hna dunyoning o'yinlari oldida ojizligini zamona murosasozliklariga o'ralashishga majburligini ishonarli tarzda ifodalab bergan. Asarda Mahmud G'aznaviydek sultonning umrining so'ngida johil va manfaatparast amaldorlar qo'lida qo'g'irchoqqa aylanib qolishi, bir paytlar butun saltanatni zir titratgan muzaffar shoh vaqti kelganda o'zi yaratgan tizimga o'zi qarshi chiqolmasligi, umri poyoniga yetayotgan bir paytda toj-u taxt kuyida o'zining o'g'lidan-da shubhalinishi kabi sultonning ichki olami manzaralari, ruhiy iztiroblari o'y- fikrlari teran ochib berilgan.

Asarda sultonning ruhiy holati tasviri bilan bog'liq quyidagi parcha e'tiborni tortadi:

“Navkarlar yordamida aravaga chiqqan sulton birdan xolsizlanib boshini yostiqqa qo'ydi, qo'yarkan, ko'zi yana osmonga tushdi. Lekin boyagi artilgan shishaday tiniq osmon o'rniga tubsiz choxday zimiston bo'shliqni ko'rdi”⁵. Ushu tasvir orqali Mahmud G'aznaviyga taqdiri azal o'zining ayanchli kelajagidan bashorat qiladi. Vaqtida o'zining sodiq kishilarini quvib solib oxir oqibatda Ali G'arib va Abul Hasanak singari razil kishilar orasida qolishi sultonga qismatning buyuk jazosi edi. Bu taqdirni esa sulton o'zining amali bilan o'zi yaratdi.

“Ko'hna dunyo” o'tmishga qarab ish ko'rish xayrli ekanligini, tarix xatolaridan kerakli saboq chiqarish insoniyatni yanglish yo'llardan saqlashini eslatib turadigan asar bo'lganligi uchun ham qadrlidir.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. O.Yoqubov.Ko'hna dunyo. T. "Sharq".2015.356-b.
2. Q. Yo'ldoshev. Yoniq so'z. T. "Yangi asr avlodi".2006. 282-b
3. U.Normatov. Ko'hna dunyo saboqlari. So'ngso'z. O. Yoqubov. Ko'hna dunyo. T. "Sharq". 2015. 376-b.

ERKIN VOHIDOV DOSTONLARIDA HAYOT HAQIQATI TALQINI. (“PALATKADA YOZILGAN DOSTON” MISOLIDA)

**Ilmiy rahbar: f.f.n dotsent Abduvali Musayev
JDPI talabasi Mardiyev Rustam**

Ijod muttasil kashfiyotlar jabhasidir. Doimo harakatlanib, o'zgarib turuvchi ko'hna dunyo jumboqlarini yechmoq, inson qalbi, xarakteri, ruhiy olamining yangidan-yangi qatlamlarni kashf etmoq uchun ijodkor tinimsiz izlanmog'i darkor.

Adabiyotimizda ijodiy kashfiyotlar yaratishdan charchamagan va she'rxon qalbiga doimo hayrat, zavq, go'zallik urug'larini sochgan hassos shoir Erkin Vohidov ijodi o'zining mavzu rang-barangligi, o'ziga xos g'oyaviy-badiiy xususiyatlari bilan alohida ajralib turadi.

Shu o'rinda Anvar Obidjonning ham e'tirofini eslasak: Erkin Vohidov ijodini bor ko'lami bilan kuzatgan kishi bir narsadan hayratga tushmog'i tayin — shoir qay ishga, qay janrga qo'l urmasin, ularning birontasiga “Ikkinchi darajali” degan tamg'ani bosib bo'lmaydi.[1.16-b]

Darhaqiqat, shoirning dilbar she'riyatidan bahramand muxlis uning “Nido” (1964), “Orzu chashmasi” (1964), “Palatkada yozilgan doston” (1966), “Ruhlar isyoni” (1979) kabi dostonlaridan ham ulkan ma'naviy, ruhiy, badiiy oziq oladi.

Ushbu maqolada shoirning 1966-yil Toshkent zilzilasi bilan bog'liq voqealar qalamga olingan “Palatkada yozilgan doston” poemasi haqida fikr yuritamiz.

Bu doston haqida XX asr o'zbek adabiyoti tarixi darsligida: Toshkent zilzilasi to'g'risida reportaj usulida bitilgan “Palatkada yozilgan doston” ayrim yuzaki, o'tkinchi kayfiyatlarga, gazetachilik ruhidagi hozirjavoblik bilan aytilgan gap-so'zlarga qaramay real, hayotiy lavhalar borligi jihatidan ahamiyatlidir[2.454-b] deyilgan.

“Yuzaki,o'tkinchi kayfiyatlar”, “gazeta ruhidagi hozirjavoblik” kabi e'tirozlar dostonning umumiy ruhiyatida asar yozilgan davrning, muhitning g'oyaviy ko'rinishlari yetakchilik qilganligi uchun aytilgan bo'lishi mumkin. Ammo yozuvchi doston bag'rida real, hayotiy lavhalarni badiiyatning ta'sirchan libosiga o'rab, xalqimizning o'lmas qadriyatlarini, an'alarini baland pardalarda kuylay oldi.

Dostonda o'zbek xalqining ahillik, bag'rikenglik, o'zaro mehr-oqibat tuyg'ulari hayotiy asoslar, prototip obrazlar orqali jonli badiiy manzaralarda bo'y ko'rsatadi.

Yuqoridagi darslikdan keltirilgan fikrga ko'ra, doston real voqealar zamiriga qurilgan, jumladan, o'shlik qizcha Diloromning muruvvati ham real zaminga ega. Shoir uni ta'sirchan badiiy ifoda etish orqali minglab kitobxonlar qalbida odamiylik, mehr-shafqat tuyg'usi yosh tanlamasligi, aslida ezgulik bu yorug' dunyoga har bir inson bilan teng tug'ilishini, faqat har bir qalb o'zining bu bebaho ne'matini o'zi parvarish qilib voyaga yetkazishi kerakligini aytadi.

Odatda insonlarning asl yuzlari kulfatda ayon bo'ladi. El boshiga tushgan tashvishli kunlarda o'z manfaatlaridan bir qarich narini ko'ra olmagan insonlar ham bo'lganligi dostonda yaxshi ochilgan. Mehmonxonasining ikki joyidan ganch ko'chganini bahona qilib, raysovet (o'sha paytdagi mutasaddi tashkilot)ga ariza yozgan bir inson misolida shoir insoniy andisha, bag'rikenglik e'tiqod va sabot odamiylikni ichdan tutib turuvchi tayanch ustun, eng kerakli fazilat ekanligini eslab, shunday deydi:

“Uy omonat. Ehtiyot zarur!”

Bunday paytda e'tiqod zarur.

Uy omonat bo'lsa, o'y bo'lsin butun.

Sabot — g'isht, ganch kabi zarurdir bu kun.[3.392-b]

Ijodkor zilziladan keyin Toshkentni qayta tiklash jarayonidagi odamlarning matonatli mehnatini frontaga qiyoslaydi va ikkinchi jahon urushi yillarini ham eslab o'tadi:

Aslini olganda, bu yer ham front,

Bu yerda ham axir bormoqdadir jang.

Toshkent aholisiga yordam berish uchun Moskvadan yuborilgan, ikkinchi jahon urushi yillari front janggohlarida fashistlarning “Ferdinand”, “Tigr” kabi tanklarining dodini bergan bizning “T-34” tankimiz endi o'zining kuchini mehnat janggohida ko'rsatishini shoir juda chiroyli talqin etadi. Shoir jonlantirish san'tidan foydalanib, “T-34” ning o'z kechmishini uning tilidan shunday ifoda etadi:

Ko'p janglarni ko'rdim,

Ko'p qonlar to'kdim,

Ezilib ketadi temir yuragim.

Yo'q bu kerak edi, men majbur edim.

Garchi temir bo'lsa-da, urushdagi xunrezliklardan yuragi ezilib ketganini, hozirgi kuch-qudratini bunyodkorlikka, yaratuvchanlikka sarflanayotganidan rozi ekanligi, tank tilidan ta'sirchan ifoda etilgan.

Erkin Vohidovning shoirona nigohi qarshisida hayotdagi oddiy jo'n narsalar kutilmagan ma'no kasb etadi va inson hayotining mohiyatini ochishga imkon beruvchi muhim vositalarga aylanadi.[4.85-b]

Ha, haqiqatan ham Erkin Vohidov oddiy ko‘ringan holatlardan katta bir badiiy umumlashmalar qilishga, she‘rxon ongini aqlan, qalbini ruhan boyitadigan topilmalar kashf qilishga qodir ijodkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To quyosh sochgayki nur. Erkin Vohidov hayoti va ijodi zamondoshlari nigohida. T.: “O‘zbekiston”. 2016, 2018. 16-b
2. Naim Karimov va boshqalar. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. T. “O‘qituvchi”. 1999. 454-b
3. Erkin Vohidov. Tanlangan asarlar. – T.: “Sharq”. 2018. 392-b, 394-b, 395-b.
4. Ozod Sharafiddinov Adabiyot – hayot darsligi. T.: Adabiyot va san’at nashriyoti. 1981. 85-b

TINISH BELGILARINING GAP SEMANTIKASIGA TA’SIRI.

Mallabekova Elida, JDPI talabasi.

Ilmiy rahbar: o‘qituvchi Usmonov Aslam

O‘quvchilarda og‘zaki nutqdagi to‘xtamlarni fikrni aniq, tushunarli, ta’sirli qilib yetkazib berish va fikrni yozma ifodalashdagi ahamiyatini tushuntirish ko‘nikmalarini hosil qilish punktuatsiyaning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Puntuatsiya, ya’ni tinish belgilari muayyan til yozuv sistemasi uchun zaruriy qismidir. Puntuatsiya qoidalarini chuqur egallash va ularni yozma nutqda to‘g‘ri ishlatish juda muhimdir. Tinish belgilaridan asosan fan, adabiyot, nashriyot, ma’orif, soha hodimlari ko‘proq foydalanadi. Puntuatsiya – so‘zi lotincha punktium (nuqta, belgi) degan ma’noni bildiradi. Puntuatsiya, tinish belgilarini o‘rganuvchi bo‘lim sanaladi . Avvalo tinish belgilarining gapda boshqa ya’ni, raqamlar, harflar, ayrim ilmiy belgilardan tinish belgilari ajralib turadi.

Tinish belgilari xususiyatlari :

- a) ijtimoiy funksiyasini bajarishi
- b) vazifasi gapning semantik va grammatik jihat bilan bog‘liq bo‘lishi
- c) qo‘llanilishi o‘z grammatik qoidalariga rioya qilinishi.
- d) o‘z grafik shakliga, o‘z qo‘llash sistemasiga ega bo‘lishi lozim.

Tinish belgilari yozma nutqni to‘g‘ri, ifodali, tasirchan qilib ifodalashga yordam beradi. Yozma matinda gapning mazmuni, ma’no turlari, sintaktik tahlili, uning semantic va grammatik munosabatlarini aniqlashga yordam beradi. Yozma nutqda tinish belgilarining qo‘llanilishida ma’lum sistemaga bo‘ysunadi.(K. Nazirov) Bu Sistema o‘zbek tili gap qurilishiga bog‘liq holda belgilanadi. Chunki, tilshunos olim A. A. Shaxmatov aytishicha “butun til qurilishining mohiyati gapdir”.

Grammatik jihatdan uchta bir xil qolipdagi gaplarni ko‘radigan bo‘lsak, tinish belgilarining qanchalik muhim ahamiyat kasb etishini bilib olishimiz mumkin.

- a) Dala tomondan otlar kelyapti.
- b) Dala tomondan otlar kelyapti?
- d) Dala tomondan otlar kelyapti!

Quyidagi bir xil qolibdagi gaplarda tinish belgilari uning semantikasiga, ma'no-mazmuniga ta'sir qilgan.

Birinchi gapda xabar ma'nosida, ikkinchi gapda so'roq ma'nosida, uchunchi gapda his-hayajon ma'nosi ifodalanmoqda. Tinish belgilarining turlariga to'xtaladigan bo'lsak, ularga nuqta (.), vergul (,), tire (–), ikki nuqta (:), nuqtali vergul (;), qavs (), qo'shtirnoq (""), so'roq (?), undov (!) belgilari kiradi. Tinish belgilari gap, gapdagi ayrim qismlarining boshlanishi va tugallanishi chegarasini, ba'zi so'z yoki so'z birikmasini, iboralarning muayyan matinga o'zga ma'noda qo'llanilishini aniqlash uchun ishlatiladi.

So'roq belgisi va uning qo'llanilishi.

- a) so'roqni bildiruvchi grammatik vositalar ishtirok etadi.
- b) so'roqni bildiruvchi grammatik vositalar ishtirok etmaydi.

Masalan : a) rejalarangiz amalga oshmaydimi ? b) Uning aytganlarini qilmaysiz chog'i?

Shuningdek, so'roq gap tipidagi sarlavhalarida so'roq belgisi qo'yiladi. Darak-so'roq gaplarda ham so'roq gap qolipidagi darak gaplar ham ushbu belgi qo'yiladi.

Vergul va uning qo'llanilishi.

1) uyushiq bo'laklarni bir-biridan ajratishda vergul qo'llaniladi.

Masalan : G'. G'ulomning "Shum bola" qissasida shunday jumlar bor. ...“palov deysanmi, sho'rva deysanmi, qo'ychi, og'ayni, meni gapga solma, juda og'ir bir ahvolda bo'lib, bo'kib yotibman”. Bu gapda vergul uyushiq bo'laklarni, ham ergashgan gaplarni, ham undalmani ham ajratish uchun qo'llagan. Shuningdek, ajratilgan bo'lak va inkor bog'lovchilaridan so'ng vergul qo'yiladi. Vergul boshqa tinish belgilariga nisbatan biroz qo'llanilishi chigaldir. Misol uchun : Bahodir keldi . Bahodir, keldi. Shu kabi misollarda vergul qo'yilish sabablarini hamma ham anglayvermaydi.

Birinchi gapda hechqanday vergul yo'q. faqat ega va kesimdan iborat.

Ikkinchi gapda esa vergul undalmani kesimdan, ya'ni asosiy gapdan ajratgan. Ko'rinib turibdiki, muloqotda sezish mumkin bo'lmasada, yozma nutqda birgina vergul gapning qurilishi va mazmunini o'zgartirib yuborishi mumkin.

Undov belgisi (!) undov gaplardan so'ng, kesimi buyruq-istak mayli bilan tugagan gaplarda, undash ma'nosini anglatgan gaplardan so'ng ishlatiladi.

Misollar : Sening xotirangni unutmas aslo

Mening yuraklarim, O'rta Osiyo! (Hamid Olimjon)

Ushbu misralarda undov gap bo'lganligi uchun undov belgisi qo'yilgan. Oybekning "Navoiy" romanida: – Hazrat o'ting!, – so'z, Jomiyga! kabi undash ma'nosini ifodalagan gaplarga undov belgisi qo'yilgan.

-Qavs va uning qo'llanilishi. Qavs asosan kirish so'zlarda, remarkalarda, sitatalarda ishlatiladi. Shuningdek, havolalarda avtor va maqola nomlaridan so'ng keladigan jurnal, ilmiy to'plamlar va kitob nomlari qavsga olinadi. Misol: "adabyot yashasa – millat yashaydi". (Cho'lpon)

Bundan tashqari boshqa tinish belgilari ham bor. Ammo biz ularga to'xtalmadik. Yuqoridagi tinish belgilari eng ko'p qo'llaniladigan belgilardir. Tinish belgilarini qo'llashda extiyotkorlik bilan yondashish kerak. Birgina belgini tushurib qoldirish yoki unutib qo'yish orqali butun gap mazmunini o'zgartirib yuborish mumkin. So'zlashuvda tinish belgilarining ishorasi sifatida ohang, to'xtam, urg'u ishlatiladi. Yozma nutqda esa, albatta, tinish belgilari muhim. Birgina muallif va o'zlashma gaplarda ishlatiladigan ketma-ket belgilar - gapning mazmunini ochib beradi.

"Qizim, umring uzoq bo'lsin", – dedi yo'lovchi – ko'chirma gap. Yo'lovchi qiziga umri uzoq bo'lishini tiladi. – o'zlashma gap. Yuqoridagi misollarda ko'rinadiki, uch xil tinish belgilari ketma – ket qosholoq qo'llangan o'rinlar bor. Birgina vergul tushurish orqali butun gap mazmuni g'aliz bo'lib qolishi mumkin. Tinish belgilarining gap semantikasiga tasiri, ya'ni ma'no mazmuniga ta'siri haqida qisqacha ma'lumot berildi.

Foydalanilgan adabyotlar:

1. K. Nazarov. "Tinishb belgilari va yozma nutq" Tosh.: 1974-yil.
2. K. Nazarov. "O'zbek tili ishora – imlo qoidolari" Tosh.: 1996-yil.
3. H. G'oziyev. "O'zbek punktuatsiyaining tarixiy tarkibi" Tosh.: 1979-yil.

IV. ЎЗБЕК ТИЛИ ВА АДАБИЁТИНИ ЎҚИТИШ МЕТОДИКАСИ МАСАЛАЛАРИ

НОФИЛОЛОГИК ТАЪЛИМ ЙЎНАЛИШЛАРИ ТАЛАБАЛАРИДА ESP МАХСУС МАҚСАДЛАРГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН ИНГЛИЗ ТИЛИНИ БАҲОЛАШ ТИЗИМИ

Ш.Рахимова ТДПУ, доценти

Бизга маълумки, нофилологик таълим йўналишларида тахсил олаётган талабаларда умумий баҳолаш индикаторларидан кўра уларнинг касбий мутахассислигига мос равишда тайёрланган ўқитиш ва баҳолаш материали ишлаб чиқилиши орқали давлат таълим стандарти (ДТС) талабларини бажарилишини ички ва ташқи баҳолаш рейтингига мутаносибдир.

Инглиз тилини ўқитиш муайян босқичлар учун инструментал хусусиятга эга бўлиб, а) ЕАР - инглиз тили академик мақсадларда; б) ESP (English for Specific Purposes)¹⁰⁰ - махсус мақсадларга йўналтирилган инглиз тили ва ЕОР (English for Occupational Purposes)- инглиз тилини касбий соҳага йўналтириб ўқитишдан иборат. Хорижий тилларни ўқитиш амалиётида биз ушбу 3 та дастурга алоҳида методикаларни ишлаш орқали ёндашишимиз керак, зеро мазкур 3 та йўналишларнинг ўзига хос мақсад ва вазифалари мавжуд ҳисобланади.

ЕОР касбий соҳага йўналтирилган ва ESP - махсус мақсадларга йўналтирилган инглиз тилини ўқитиш тизимидир. Яъни CEFR ёки IELTS инглиз тилини билиш даражасини баҳолаш индикаторлари бўйича ЕАР академик мақсадларда инглиз тили ва GE (General English) умумий инглиз тили фанига қўйиладиган ДТС, малака талабаларидан фарқ қилмайди, бу эса ўз навбатида филолог бўлмаган тил ўрганувчига сезиларли даражада ўз таъсирини ўтказди. ЕАРни ўқитиш методикаси деганда биз инглиз тилини академик мақсадлар учун ўқитиш ва ўрганишни тушунамиз. ЕАР нафақат талабаларга инглиз тилини ўрганиш, балки энг муҳими талабаларни ҳалқаро академик меъёрлар даражасида методикани, мантиқий фикрлаш, танқидий фикрлаш, ижодий фикрлаш ҳамда қиёсий фикрлаш каби илмий фикрлаш усуллариини ўзлаштириш имконини беради. ЕАР маълум даражада деярли барча илмий ва технологик соҳаларни ўргатишга мослашади. Аниқроқ қилиб айтганда мавзуга асосланган методология, индуктив методология, амалий тадқиқотлар методикаси ва функционал методологияни қамраб олади.

ESP ва ЕОРнинг хусусиятлари сифатида куйидагиларни айтиш мумкин: ESP махсус мақсадлар учун инглиз тили ва ЕОР касбга йўналтирилган инглиз тили бўлиб, бу иккита ўқитиш босқичининг ўхшаш жиҳатлари жуда кўп бўлиб, GE умумий инглиз тили ва ЕАР академик инглиз тилларидан фарқ қилади. Яъни, GE умумий инглиз тили ва ЕАР академик инглиз тили деярли барча соҳаларга мослаша олади. ESP махсус мақсадлар учун инглиз тили ва ЕОР касбга йўналтирилган инглиз тили эса ўзига хос ва касб хусусиятларига эга бўлиб, улар бошқа касб ёки соҳага мослашишда бироз қийинчиликларга учрайди.

Бизга маълумки ЕОР, ESP касбга ва махсус мақсадларга йўналтирилган инглиз тилини баҳолаш технологияси яъни CEFR ёки IELTS баҳолаш индикаторлари бўйича ЕАР академик мақсадларда инглиз тили ва GE умумий инглиз тили фанига қўйиладиган ДТС дан фарқ қилмайди, бу эса ўз

¹⁰⁰ Ieva Rudzinska. Use of quality models and indicators for evaluating test quality in an ESP course // Journal of education culture and society No.2, 2013, Latvia

навбатида филолог бўлмаган ўрганувчига сезирарли даражада ўз таъсирини ўтказди.

Мутахассислиги филолог бўлмаган соҳалар бўйича таҳсил олаётган талабаларда умумий баҳолаш индикаторларидан кўра уларнинг касбий мутахассислигига мос равишда тайёрланган ўқитиш ва баҳолаш материали ишлаб чиқиши орқалигина ДТС талабаларини бажарилишига эришиш мумкин.

Касбга йўналтирилган инглиз тилини ўқитиш билан боғлиқ масалаларни ўрганганимизда Д.Л.Матухиннинг ўзининг концепциясида қуйидаги фикр юритган: «Касбга йўналтирилган таълимнинг ўзига хос хусусияти шундаки, у талабаларнинг эҳтиёжлари асосида чет тилини ўргатади, келгусида эгалланаётган касбни ёки соҳани ўрганиш ҳам талаб қилинади»¹⁰¹ дея таъкидлаган. Шунингдек, кўплаб олимларнинг фикрига кўра, умумий мақсадлар (GE) ва махсус мақсадлар учун (ESP) инглиз тили ўқитувчилари ўртасида фарқ бўлиб¹⁰², умумий мақсадларга йўналтирилган инглиз тили ўқитувчисининг (GE) вазифаси маърузалар ўқиш билан чекланган бўлса, инглиз тилини махсус мақсадлар учун ўқитиш йўналиши (ESP) пайдо бўлганида бу тушунча ҳам ўзгарди. Ўқитувчининг бу борадаги ўрни нафақат анъанавий усулда ўқитиш, балки ўқув жараёнида бошқа махсус фанларни ҳам ҳисобга олиш билан белгиланади¹⁰³.

ESP (махсус мақсадлар учун инглиз тили) – шу қадар кенг майдонки, унинг барча томонларини, барча касблар учун бир вақтда тил ўрганиш имкони мавжуд эмас. Бундан ташқари, касбга йўналтирилган инглиз тили (EOP) пайдо бўлганидан бери ўқитувчи мақомидаги туб ўзгаришни ҳам таъкидланиши керак. Касбга йўналтирилган инглиз тили ўқитувчисининг иши EOP талабаларининг эҳтиёжларига қаратилганлиги сабабли унинг асосий мақсади бу эҳтиёжларни қондиришдан иборат ҳисобланади.

Касбга йўналтирилган инглиз тили EOP ва умумий мақсадларга йўналтирилган инглиз тили GE ўртасида фарқ мавжуд, лекин касбга йўналтирилган инглиз тили билан умумий мақсадларга йўналтирилган инглиз тили ўзаро боғлиқ бўлиб, бу икки аспект бир-бирини доимо тўлдиради. Тадқиқотчилар фикрига кўра, GE - умумий ғояларни ўргатиш ва грамматикани билиш учун йўналтирилган, EOP эса касбга йўналтирилган таълимга қаратилган, аммо GE ни тушунмасдан, EOP да мулоқот қилиш кўникмаларини намоёниш этиш мумкин эмас. Талаба умумий мақсадларга йўналтирилган инглиз тилини билмай туриб, касбга йўналтирилган инглиз тилида мулоқот қилиш қобилиятини намоёниш қила олмайди.

Хулоса қилиб айтганда EOP, ESP ва GE йўналишларининг ўзига хос хусусиятларини инобатга олган ҳолда мутахассислиги филолог бўлмаган

¹⁰¹ Д.Матухин. Особенности обучения иноязычному общению студентов нелингвистических специальностей на основе коммуникативного подхода. Вестник ТГПУ, 2011, Выпуск 6(108), Томск.

¹⁰² Dana Rus. Assessment techniques in teaching English for specific purposes to engineering students. The 12th International conference interdisciplinarity in engineering. 32 (2019), 368-373.

¹⁰³ Рахимова Ш.Б. Нофилологик таълим йўналишларида инглиз тилини ўқитиш сифатини баҳолашнинг илмий-методологик таҳлили // Замонавий таълим. – Тошкент, 2019. №11.

таълим йўналишларида касбий соҳага ҳамда махсус мақсадларга йўналтирилган инглиз тилини ўқитишни такомиллаштириш ва қайта кўриб чиқишни тақозо қилаётган муаммодир. Нофилологик таълим муассасаларида ишлаш жараёнида турли хил фанларнинг таркибига диққат қилиш ва педагогик соҳадаги таълим муассасаларининг илмий–услубий мажмуаларини синчковлик билан таҳлил қилиш ва касбга йўналтирилган инглиз тилини ўқитиш жараёнида фанлараро интеграцияни ҳисобга олиш зарур.

АДАБИЙ ТАЪЛИМ КЛАСТЕРИНИНГ СТРАТЕГИК ЙЎНАЛИШЛАРИ ҲАҚИДА

Шахло Исамиддиновна Ботирова

**Тошкент вилояти Чирчиқ давлат педагогика институти
доценти, филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)**

Таълим ва фан ўртасидаги интеграцияни таъминлаш мазкур йўналишнинг пировард мақсади ҳисобланади. Адабий таълимда илм-фан ютуқларининг таълим амалиётига татбиқ этишда айрим муаммолар мавжуд. Бу фан ўз йўлида ва таълим ўз йўлида ривожланаётганида кўзга ташланади. Ваҳоланки, фандаги илмий ютуқ ва эришилган янгиликларнинг таълим мазмунига зудлик билан сингдирилиши таълимнинг замонавий талабларга мослашувчанлигини таъминлайди. Айни вақтда, таълим амалиётида қўлланилиб келинаётган айрим ўқув-услубий, технологик янгиликлар фанда ҳали ҳануз ўз назарий асосларини топмаганлиги билан боғлиқ тескари жараённи ҳам кузатиш мумкин. Умуман, агар таълимда яхлитлик таъминланмаса, бу каби жараёнларнинг кузатилиши давом этаверади. Таълимни кластер моделига ўтказиш билан бу каби муаммоларнинг ечимига йўл топиш мумкин бўлади.

Мамлакатимизда мавжуд педагогик таълим шароитидан келиб чиқиб адабий таълим кластерининг стратегик йўналишлари сифатида қуйидагиларни келтириш мумкин:

- Мактабгача, умумий ўрта, ўрта махсус таълим муассасалари учун педагогик олий таълим муассасалари ўзбек тили ва адабиёти таълим йўналиши бўйича педагог кадрлар тайёрлаш, шунингдек, адабиёт фани ўқитувчилари ва соҳа мутахассисларининг илмий-методик базаларини шакллантиришни мувофиқлаштириш ва ўқув-методик раҳбарликни амалга ошириш;

Педагогикага ихтисослашган олий таълим муассасаларидаги ўзбек тили ва адабиёти йўналиши бўйича вилоятдаги умумтаълим мактабларининг илмий-педагогик салоҳиятини ошириш, жумладан, олий малакали илмий ва илмий-педагогик кадрларни мақсадли тайёрлаш асосида педагогика соҳасини ривожлантиришнинг стратегик вазифаларидан келиб чиққан ҳолда вилоятдаги таълим муассасалари адабиёт фани ўқитувчиларининг

малакасини сифатли ошириш ҳамда қайта тайёрлаш бўйича чора-тадбирлар амалга оширилишини таъминлаш;

Адабий таълимга қўйиладиган замонавий талаблар, илғор хорижий тажрибалар, адабиёт дарс машғулотларига замонавий педагогик ва ахборот-коммуникация технологияларини кенг жорий этишни ҳисобга олган ҳолда вилоят таълим муассасаларида адабиёт фани давлат таълим стандартлари, ўқув режа ва дастурларини тизимли равишда такомиллаштиришни амалга ошириш;

Педагогик олий таълим муассасалари ўзбек тили ва адабиёти таълим йўналишлари бўйича вилоят умумтаълим мактаблари учун услубий ишлар, фундаментал ва амалий илмий лойиҳалар олиб боришни мувофиқлаштириш;

Ўзбек тили ва адабиёти таълим йўналиши бўйича узлуксиз педагогик таълимнинг информацион таъминотини такомиллаштириш, адабиёт фани ўқитувчиларининг оқилона ворисийлигини таъминлаш чораларини кўриш;

Адабий таълимни тартибга солувчи мавжуд ўқув-меъёрий ҳужжатларни такомиллаштириш;

Адабий таълим кластерининг платформасини ишлаб чиқиш.

Адабий таълимнинг кластерининг мазкур стратегик йўналишларидан келиб чиққан ҳолда унинг самарали ишлаши учун қуйидаги шарт-шароитлар қондирилиши зарур:

замонавий талабларга жавоб берадиган технологик, таълимий ва илмий инфраструктуранинг бўлиши;

адабий таълим кластери субъектларининг ўзаро манфаатли ҳамкорликка хайрихоҳлиги ва тайёрлиги;

адабий таълим кластерини ривожлантиришнинг мустаҳкам ҳудудий стратегиясининг мавжуд бўлиши;

адабий таълимни такомиллаштириш бўйича ишлаб чиқилган лойиҳаларни бошқариш усулини муваффақиятли қўллаш имконияти;

адабий таълим кластери субъектлари ўртасида ахборот алмашинувини таъминловчи воситаларнинг мавжудлиги.

Адабий таълим кластери йўналишларининг тўғри белгиланиши, мазкур йўналишлар бўйича ишларнинг оқилона ташкил қилиниши адабий таълимда интеграция билан боғлиқ қуйидаги натижаларга эришишни таъминлайди:

адабий таълим мавжуд муаммонинг ечимига маълум бир жамоанинг ўзига хос хусусиятини инобатга олган ҳолда муайян таълим муассасалари бошқаруви концентрациясини кучайтиради;

адабий таълимнинг функционал вазифаларини тақсимлаш турли кластер аъзолари ўртасида муаммоли жихатлар ва заиф бўғинларни аниқлаш, масалаларни ташкилий жихатдан ҳал этишда уларнинг оптималлаштирилган алгоритмларини топишларига имкон беради;

адабий таълимга кластер ёндашуви синергетик самарадорликка имкон беради, яъни ҳар бир мактаб тажрибага қўйилган лойиҳанинг бир қисмини

ишлаб чиқади, уни тизимдаги ўрнига кўра ҳал қилади, кўпинча, тажрибанинг умумий картинасини намоён қилиш орқалиунинг янги қирраларини топишга имкон беради.

Мамлакатимизда таълим сиёсатининг тамойиллари ва мавжуд шарт-шароитдан келиб чиққан ҳолда педагогик таълим кластерининг тамойиллари сифатида қуйидагилар белгиланган: *табиий алоқадорлик, узвийлик ва узлуксизлик, изчиллик, ворисийлик, замонавийлик, йўналтирилганлик, мақсаднинг умумийлиги, манфаатларнинг хусусийлиги, ўзаро назорат* [1]. Ушбу тамойиллар педагогик таълим учун универсал ва умумметодологик табиатга эга бўлиб, адабий таълимда ҳам интеграцияни таъминлашнинг асосий шартларини белгилайди. Тамойилларнинг кластер субъектлари ўртасида ўзаро кўп томонлама манфаатли ҳамкорликни таъминлашдаги роли интеграция учун қулайликлар яратади.

Адабий таълимда кластер субъектларининг ўзаро ҳамкорлиги ва алоқадорлиги шубҳасиз ва табиийдир. Мазкур боғлиқликнинг ҳудудий, соҳавий ва вазифавий жиҳатдан объективлиги адабий таълимда кластернинг табиий алоқадорлик тамойилини белгилайди. Таълимда, хусусан, адабий таълимда кластер ҳамкорликни сунъий равишда шакллантириш мумкин эмас. Демак, адабий таълим кластери манфаатдорликдан келиб чиққан табиий алоқадорлик натижаси бўлиб, унинг мақсади адабий таълимни яхлит тизим сифатида қабул қилиш, унда сифат ва самарадорликни ошириш, интеграция жараёнларини кучайтиришга қаратилган. Адабий таълимда табиий алоқадорликни таъминлаш, таълим турлари ўртасидаги тарқоқ салоҳиятни муайян мақсад атрофида бирлаштириш, унинг механизмларини ишлаб чиқиш, ахборот ва инновациялар алмашинувини жадаллаштиришнинг энг мақбул усули кластер ёндашувини қарор топтиришдир.

Адабий таълим кластери субъектларини ўзаро алоқадорликда занжир ҳосил қилиши, ҳар бир звенонинг аниқ вазифаларини белгилаб олиш, узлуксизлик занжирида бўшлиқларнинг бўлмаслиги кластернинг узвийлик ва узлуксизлик тамойилига асосланади. Бу ўринда адабий таълим мазмунининг табиий кетма-кетлигини таъминлаш, ўқувчиларнинг ёши ва психологик хусусиятларини инобатга олиш узвийликни юзага келтиради. Узвийликни таъминлашда таълим тури ичида ёки таълим турлариаро интеграция инбатга олиниши муҳим. Адабий таълимда таълим турларининг ўзаро кетма-кетлигида узилишларнинг бўлмаслиги узлуксизликни таъминлайди. Хулоса қилиш мумкинки, адабий таълимда узвийлик ва узлуксизлик ўзаро бир-бирини тақозо қиладиган тушунчалар бўлиб, уни қарор топтириш адабий таълимга кластер ёндашувини ва унда интеграция жараёнлари таъминланишини юзага келтиради.

Адабий таълим кластерида субъектларнинг вертикал йўналишда жойлашуви, унда қуйидан юқорига, оддийдан мураккабга қараб босқичма-босқич ҳаракатланиш тенденциясига амал қилиш изчиллик тамойилини

қарор топтиради. Адабий таълимда изчиллик мазмун ва шакл билан боғлиқ ҳодисалар бўлиб, интеграция жараёнлари билан бевосита боғлиқ. Унда таълим турларининг ўзига хослиги, мақсади ва вазифалари, адабиёт фанининг ДТСи, таълим босқичини битираётганларга қўйиладиган малака талаблари инобатга олиниши лозим. Адабий таълим кластерининг изчиллик тамойили унда интеграцияни таъминлаш билан бевосита боғлиқ равишда кечади. Адабий таълим турлараро изчиллик кластерга алоқадор ҳодиса бўлиб, унинг таъминланиши кластер доирасида амалга оширилиши лозим бўлган масалаларга мос тушади. Демак, адабий таълим кластерида таълим мазмуни, шакли, воситалари ҳамда технологияларининг пастдан юқорига, осондан қийинга қараб ҳаракатланиш тамойилига асосан интеграцияни таъминланиш асносида ишлаб чиқирилиши изчилликни таъминлайди ва бу сифат ҳамда самарадоликка ижобий таъсир кўрсатади.

Адабий таълим кластерининг адабиёт фан ўқитувчилари авлодлар алмашинувидаги роли, устоз-шогирдлик фаолияти, адабий таълимни кластерлаштириш натижасида субъектларнинг малакали адабиёт фани ўқитувчиларига бўлган эҳтиёжининг мунтазам қондирилишига эришиш ворисийлик тамойилини белгилайди. Ворисийлик жамиятда ўқитувчи касби нуфузининг ошиши билан ҳам боғлиқ жараёндир. Ворисийликнинг таъминланиши адабий таълим ривожига турғунлик ёки депсинишлар бўлишига қарши туради.

Замонавийлик тамойили адабиёт таълимига оид замонавий илм-фан ютуқларини соҳага жорий қилиш, илғор хорижий тажрибаларни ўзлаштириш, ахборот-коммуникация технологияларидан оқилона фойдаланишдир. Замонавийлик тамойили адабий таълимнинг ўқув-услубий, илмий-амалий соҳаларида эришилган илғор хорижий тажрибаларни ҳам ижодий ўзлаштиришни назарда тутди. Умуман, таълим ижтимоий аҳамиятга эга ҳодиса сифатида умумий қонуниятлар асосида ривожланади. Мазкур умумий методологик аҳамиятга эга бўлган жиҳатларни ўзлаштириш ва таълим амалиётига татбиқ этиш доимо ўзининг ижобий самарасини берган. Хусусан, адабий таълимнинг бошқа фан соҳалари билан интеграцияни таъминлаш борасида дунё амалиётида эришилган натижаларни тезкорлик билан ўзлаштириш ва уни жорий этиш механизмларини ишлаб чиқиш адабий таълим кластерининг замонавийлик тамойили мазмун-моҳиятига мос келади.

Адабий таълим кластери доирасида амалга ошириладиган ҳар бир фаолият турининг аниқ мақсадга йўналтирилиши, кутилаётган натижаларнинг олдиндан чамалаш ва баҳолаш имкониятининг мавжудлиги унинг йўналтирилганлик тамойили билан боғлиқ. Кластер ҳудудида адабий таълим сифатини таъминлашда мавжуд муаммоларнинг бартараф қилиниши ёки муайян кўрсаткичларни оширишга қаратилган илмий-амалий лойиҳалар тажриба-синовдан ўтказилиши керак. Бундай лойиҳаларда ОТМ ва УМларининг салоҳияти интеграциялашади. Адабий таълим кластерининг илмий тадқиқот, ахборот-таҳлилий, илмий-услубий ва тажриба-инновацион

йўналишларининг ҳар бирида бир нечта лойиҳаларни йўлга қўйиш мумкин. Бу лойиҳалар мазкур йўналишларнинг алоҳида қиррасида сифатни оширишга (ёки мавжуд муаммони бартараф қилишга) йўналтирилиши лозим. Шу тахлитда ишлаш адабий таълим кластерининг фаолиятини янада аниқлаштиради, ихчамлаштиради ва аниқ мақсадга йўналтирилишини таъминлайди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Мухамедов Ғ., Ходжамкулов У., Тоштемирова С. Педагогик таълим инновацион кластери. –Т.: Университет, 2020.
2. Трофимова О.В. Нетрадиционные формы урока и социализация учащихся. № 1 2003 г. – с. 143 - 215.
3. Ушенский К.Д. Человек как предмет воспитания. Монография. http://dugward.ru/library/pedagog/ushinskiy_chelovek1.html
4. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. Дарслик, Т.: Янги аср авлоди, 2010 й., -Б. 6-7.
5. Зуннунов А., Ҳотамов Н., Эсонов Ж., А.Иброҳимов А. Адабиёт ўқитиш методикаси. Тошкент “Ўқитувчи”- 1992. 10-бет.
6. Лесохина Л.Н. Нравственное развитие учащихся в процессе изучения литературы. - Сб. Искусство анализа художественного произведения. М.: Просвещение, 1971, с. 124.
7. Khodjamkulov U., Botirova Sh., Shofkorov A., Abdirimova I. Bases of organizing cooperation between educational institutions Through clusters (on the example of the education system of Uzbekistan // Journal of Critical Reviews. vol. 7, Issue 12, 2020. P. 243-247. <http://www.jcreview.com/index.php?fulltxt=115476&fulltxtj=197&fulltxtp=197-1592273486.pdf>
8. Mardonov Sh., Khodjamkulov U., Botirova Sh., Shermatova U. The need to educate young people with the spirit of patriotism in the Context of globalization // Journal of Critical Reviews. Vol. 7, Issue 12, 2020. P. 166-169. <http://www.jcreview.com/index.php?fulltxt=115456&fulltxtj=197&fulltxtp=197-1592271867.pdf>

НОГИРОНЛИГИ БОР БОЛАЛАРНИНГ ОТА-ОНАЛАРИ БИЛАН ИШЛАШ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ

Қурбанова Нилуфар Шовкат қизи ЎЗМУ
Илмий раҳбар: Абдухалилов А.А Соц.фан.доктор. доцент

"Ногирон бола" тушунчасини икки тоифага бўлиш мумкин. Бундай болаларнинг биринчи гуруҳи турли хил сезги органлари фаолиятида туғма нуқсонлари бўлган, жисмоний нуқсонлари бўлган ёки ақли заиф болалардир. Иккинчи гуруҳ болалар - узоқ муддатли касаллик натижасида

соғлиғи туфайли ногиронлиги бўлган шахслар. Ривожланишида нуқсони бўлган болани тарбиялаш оилавий ҳаётнинг одатий ритмини бузади. Боланинг касаллиги кўпинча бутун оиланинг чуқур ва узоқ муддатли ижтимоий бузилишига олиб келади. Ушбу стресс ҳолатининг ривожланишининг тўрт босқичи мавжуд:

1. Бу ота-оналарнинг ночорлиги, кўркуви, тажовузкорлиги ва рад этиш ҳисси пайдо бўлиши билан тавсифланади. Оила аъзолари "айбдор" ни қидирмоқдалар. Баъзида тажовуз янги туғилган чақалоққа қаратилган, онаси унга нисбатан салбий ҳис-туйғуларга эга, чунки у бошқа болаларга ўхшамайди. Онаси, шунингдек, ногирон бола туғилиши учун ўзини айбдор ҳис қилиши мумкин.

2. Ногирон болага нисбатан етарли бўлмаган муносабатни ривожлантириш. Бу негативизм ва ташхисни рад этиш билан тавсифланади, бу боланинг ота-онасининг ўзига хос муҳофаа реакцияси.

3. Ота-оналар фарзанд учун масъул эканликларини тушуна бошлайдилар, аммо тарбия ва ғамхўрлик масалаларида ўзларини ожиз ҳис қиладилар. Мутахассислардан маслаҳат олишни бошлашади.

4. Ота-оналар содир бўлган нарсалар билан мурасага келишади, вазиятни қабул қилишади ва оилада ногирон бола борлигини ҳисобга олиб яшашни бошлайдилар. Бироқ, ногирон болаларнинг барча оилалари тўртинчи босқичга етиб бормайдилар, бу оиланинг кейинги ривожланишида ижобий аҳамиятга эга. Ҳеч қачон барқарорлашмайдиган кўплаб оилалар мавжуд. Ногирон боласи бўлган оила тиббий, иқтисодий ва ижтимоий-психологик муаммоларга дуч келади, бу эса базида жараённинг ёмонлашишига, оилавий ва шахсий муаммоларнинг пайдо бўлишига олиб келади. Қийинчиликларга дош беролмай, ота-оналар қариндошлари, дўстлари ва танишлардан узоқлашишади, уларнинг қайғусига ёлғиз чидашни афзал кўришади ва психологик стрессни бошдан кечиришади. Бундай ҳолда, қариндошлар ва дўстлардан ёрдам бўлиши керак.¹⁰⁴ Аммо кўпинча қариндошлар ва дўстлар боланинг касаллиги тўғрисида билиб улардан баъзилари ногирон боланинг ота-онаси билан учрашишдан қочишни бошлайдилар. Ушбу қочишнинг сабаблари ўзларининг ҳис-туйғуларидан кўрқиш, ва боланинг ота-онаси ҳис-туйғуларидан кўрқиш билан боғлиқ. Қандай ёрдам беришни билмаслик ва бепарво бўлишни, бази ҳолларда қариндошлар ва танишлар мавжуд вазиятни сезмаётганга ўхшаб жим туришни афзал кўришади. Буларнинг барчаси боланинг ота-онасининг аҳволини янада ёмонлаштиради. Бундан ташқари, кўпинча ногирон боланинг ота-онаси, бахтсизлик такрорланишидан кўрқиб, репродуктив функцияга ички тақиб қўйишади. Кўпгина ота-оналар боланинг мўъжизавий даволанишига умид қилишади ва кўпроқ шифокорларни ёки энг яхши касалхоналарни қидирадилар. Бундай оилаларда боланинг аҳволи, уни даволаш ва ривожланиш имкониятлари тўғрисида тўғри фикрлар шаклланмаган. Ота-оналар мавжуд вазиятни етарли даражада тушуна

олмайдилар. Улар кўпинча иккита нарсани танлайдилар. Баъзилар бутун ҳаётини болага хизмат қилишга бағишлашга қарор қилишади, баъзилари доимий равишда айб ва масъулиятни бошқаларга юклашга мойилдирлар - бу учун улар шифокорларни, ижтимоий ишчиларни ва ўқитувчиларни эътиборсизликда таъқиб қилишади ва доимо айблашади. Баъзи ота-оналар иккаласини ҳам қиладилар. Ҳаётини фикрлаш ота-оналарда турли йўللар билан шаклланади. Ногирон бола онадан оддий боладан кўра кўпроқ вақт ва куч талаб қилади, у онанинг қўлини ва оёғини боғлайди.

Оналар кўпинча бола билан боғлиқ кундалик ташвишларнинг кўплигидан шикоят қиладилар, бу еса жисмоний ва рухий стрессни кучайишига олиб келади ва ҳаддан ташқари чарчоқни келтириб чиқаради. Кўпинча бундай оналар рухий оҳангнинг пасайиши ва ўзини ўзи паст баҳолаш билан тавсифлайдилар. Улар ҳаёт қувончини йўқотадилар, кейинги мақсад ва умидларидан воз кечадилар. Ногирон болаларнинг оталари кўпинча бошқа мойилликка ега: отаси соғлиғи билан боғлиқ болани қабул қилмайди ва аста-секин оиладан узоқлашади. Отанинг боладан воз кечиши хотинни эридан бегоналашишига сабаб бўлади. Аёл ўз илиқлиги билан отасидан олмаган меҳр ва ғамхўрликни болага беришга интилади. Ўз ҳаётини болага бағишлаб, у аста-секин турмуш ўртоғидан узоқлашади, бу еса оилавий муносабатларнинг узилишига ва ажралишга олиб келади. Бугунги кунда Ўзбекистонда ногиронлиги бор шахсларни қўллаб қувватлашга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Бунга биз мамлакатимизда қабул қилинган бир қатор меъёрий ҳужжатларни келтиришимиз мумкин.¹⁰⁵ Шуни айтиб ўтиш жоизки мазкур ҳужжатларни қабул қилишда нафақат давлат ҳокимияти органлари балки жамоат ташкилотларини фаол иштирокини кўришимиз мумкин. Ўз навбатида ногиронлиги бор болаларни қўллаб қувватлаш жараёнлари уларнинг ота-оналари билан ишлашни ҳам тақазо этади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Технология социальной работы: Учебник / А.А. Чернецкая и др. - Ростов н/Д: «Феникс», 2006. — 400 с. («Высшее образование»).

Ахборот манбаалари:

1.www.lex.uz

UMUMIY O‘RTA TA‘LIMDA IFODALI O‘QISHNING ZAMONAVIY METODLARI

**Mamaraimova Gulhayo JDPI talabasi,
ilmiy rahbar Abdujalilova Feruza JDPI o‘qituvchisi,**

Ta‘lim samaradorligi ko‘p jihatdan o‘quvchi faoliyati bilan bog‘liq metodlarni to‘g‘ri tanlashga bogliq. Ilmiy-metodik adabiyotlardan ma'lumki, o‘quvchi faoliyati bilan bog‘liq metodlarni uch guruhga ajratish mumkin: a) qayta

¹⁰⁵ <http://www.lex.uz>

xotirlashga asoslangan metod; b) qisman izlanuvchanlikka asoslangan metod; v) izlanuvchanlikka asoslangan metod.

Bu metodlarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, muayyan bir sharoitda qo'llashni talab etadi. Chunonchi, qayta xotirlashga asoslangan metodlar o'quvchiga muayyan bir qiyinchilik yaratmaydi, u tayyor o'quv materialini bilan ishlashni ko'radi. Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tili darslarida o'quvchilarga beriladigan ayrim topshiriqlar oldin egallangan bilim, malaka va ko'nikmalarni yangi sharoitda qo'llashni talab etmaydi, balki tayyor bilim, malaka va ko'nikmalarni xotirada tiklaydi, xolos. Chunonchi, o'zbek tili darslarida bajariladigan, ko'chirib yozish, izohli yozuv, o'rganilgan mavzu doirasida berilgan so'roqlarga javob topish singari topshiriqlar qayta xotirlashga oid metodlarni qo'llashni taqozo etadi.

Boshlang'ich sinflarda olib boriladigan ona tili va o'qish darslari savod o'rgatish bosqichidan keyingi davrda olib borilib, bunda endi o'quvchilarni erkin va mustaqil fikrlashga o'rgatish, badiiy adabiyotga qiziqtirish, shu bilan birga o'zining milliy tili hisoblanmish Ona tili darslari orqali yana ham tilga bo'lgan mehrini shakllantirish o'qituvchi erishishi lozim bo'lgan asosiy maqsadlardan hisoblanadi.

Millatni sevishtirish, urf-odatlar va milliy an'analardan xabardor bo'lish o'quvchilarda o'qish darslarining qay darajada olib borilishi bilan ham bog'liq albatta. Sababi badiiy adabiyot gulshaniga qo'yiluvchi ilk qadam aynan o'qish darslari orqali amalga oshiriladi. O'qish darslarini o'tkazishda ta'limning turli metodlaridan o'ziga xos tarzda foydalanish mumkin. Masalan: Ifodali o'qish, kichik guruhlarda topshiriqlar asosida ishlash, "Rezyume", "Bumerang", "Olti qalpoq" kabi metodlardan va ko'rgazmali qurollardan foydalanish, turli kichik sahna ko'rinishlari uyushtirish, "Gaplarni tartib bilan joyla" kabi turli xil o'yin ko'rinishidagi metodlardan foydalanish mumkin. Boshlang'ich sinflarda o'qish darsining har bir mavzusini o'tishda ifodali o'qishdan albatta foydalaniladi. Sababi badiiy asarlarni ifodali o'qib, uning mazmunini tushunib idrok qilgan o'quvchigina yuksak insoniy hislatlarga ega bo'ladi. Ifodali o'qish ayniqsa quyi sinf o'quvchilari uchun juda muhim bo'lib, asarning emotsional kuchini oshirishda, uni o'quvchilarning ko'ngil mulkiga aylantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Bunda avvalo o'qituvchining o'zi ifodali o'qishni o'qitish shart. Ifodali o'qish deganda nafaqat tinish belgilari va mantiqiy urg'un o'rinli qo'llash, balki asar ruhini his qilish, uning mazmunidan kelib chiqadigan ifodani topa bilishdan iboratligini aslo unutmaslik kerak. Ifodali o'qish asar matnini o'quvchiga yetkazish, muallif nazarda tutgan ta'sirni o'tkazish yo'li hamdir. Ifodali o'qish orqali o'quvchida estetik tarbiya ham shakllandi.

O'qish inson tafakkurining bir ko'rinishi sifatida mutolaa jarayonida matn mazmuniga xos bo'lgan elementlarni o'zaro bir-biri bilan bog'lagan holda mohiyatiga kirish, mazmunni anglash demakdir.

O'qish asosida o'qishga ta'sir ko'rsatuvchi quyidagi faktorlar belgilangan: ma'lum axborotga ega bo'lish; matnning kompozitsion tuzulishini farqlash;

matnga xos til xususiyatlarini farqlash; mantiqiy va emotsional ifodalarni tushunish.

Bundan tashqari boshlang'ich sinflarda ma'lum bir matn, hikoya yoki she'rni bolalarga o'qitishda o'qishning quyidagi turlaridan foydalanish mumkin:

- ovoz chiqarib o'qish;jamoa bo'lib o'qish;individual o'qish; ifodali o'qish;
- mustaqil o'qish.

4-sinf o'qish darsligi turli hikoyalar, ertaklar va rivoyatlardan iborat bo'lib, darslik o'ndan ortiq turli bo'limlarga bo'lingan. Darslikdagi 8-bo'lim "Nima yaxshi-yu,nima yomon?" deb nomlanib, bo'limdagi "Yolg'onchining izza bo'lishi" nomli rivoyatni o'qitishda o'quvchilarni Mirzo Ulug'bek, uning yoniga do'stidan arz qilib kelgan kishi va uning do'sti obrazlari asosiy qahramonlar sifatida ajratilib, ularga xos bo'lgan gaplar dialog shaklida o'quvchilar tomonidan rolli tarzda o'qitiladi. Bunda 3 nafar o'quvchidan foydalanilib, dastlab ushbu 3 nafar o'quvchi rivoyatni boshidan oxiriga qadar o'zlariga tegishli qismlarini ifodali o'qib berishadi. Qolgan o'quvchilar esa ularni kitobdan kuzatib diqqat bilan tinglashadi. Rivoyat barchaga tushunarli bo'lgach, yolg'onchilikning yomon illat ekanligi, uning insonni barchaning oldida izza bo'lib uyalib qolishiga olib kelishi, natijada yolg'onchi insonga bora-bora hech kim ishonmay qo'yishi haqida o'quvchilar bilan savol-javoblar orqali bahs-munozara o'tkaziladi. So'ngra qatorma-qator ketma ketlikda har bir o'quvchi rivoyatni 2 yoki 3 gapdan o'qiydi.

O'qituvchi rivoyatda kelgan tushunilishi murakkab bo'lgan so'zlar va o'quvchilarni qiziqtirgan savollarni aniqlaydi. Rivoyatda uchragan hamyon xalta, omonat, ro'baro', da'vogar, g'aflatda qolmoq kabi so'zlarni izohlashda "lug'at ishi" dan foydalaniladi. Bunda o'qituvchi dastlab ushbu so'zlarni o'quvchilar qay darajada bilishlarini so'raydi. O'quvchilarni fikrlarini eshitib, ularni umumlashtirib, so'ngra so'zlarning ma'nosini tushuntirib beradi. So'zlarning ma'nosi o'quvchilar xotirasida uzoq vaqt saqlanishi va eslab qolishlari uchun darslikning elektron shaklda tayorrlangan multimedia ilovasidan unumli foydalaniladi. Ushbu ilovadagi so'z va uning izohi o'quvchilarga eshittiriladi. Imkon qadar o'quvchilar o'z daftarlariga ko'chirib yozib qo'yadilar.

"Yolg'onchining izza bo'lishi"

Lug'at bilan ishlash:

1. Hamyon xalta - pul solib, cho'ntakda olib yuriladiga xaltacha;
2. Omonat - saqlab berish, vaqtincha foydalanish yoki boshqa bir kishiga eltib berish uchun topshirilgan narsa;
3. Ro'baro' - yuzma-yuz, ro'parada, qarama-qarshi tomonda;
4. Da'vogar-o'z haq-huquqini himoya etish uchun tegishli joyga arz qilgan kishi;
5. G'aflatda qolmoq-hushyorlikni yo'qotmoq.

Lug'at bilan ishlaganda tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlar ma'nosining izohi nafaqat yozdirib tushuntiriladi, balki o'qituvchi ushbu so'zlarni yana ham soddaroq tilda, o'quvchilar hayotida mavjud misollar bilan izohlab, tushuntirib berishi yana ham maqsadga muvofiq bo'lib, samaraliroq natija beradi.

Rivoyatda ko'zda tutilgan mavzu, o'quvchilar uchun ibrat bo'luvchi jihatlarni singdirish, yolg'onchilikning oldini olish, yolg'onning oqibatlari kabi

ko'proq va kengroq ma'lumotlar hayotiy misollar orqali ham ochib berilishi lozim bo'ladi.

O'qish darslari orqali o'quvchida yaxshilik va yomonlik, ijobiy va salbiy xislatlarni farqlay olish, vatanparvarlik, badiiy estetik did, madaniyat, adabiyotga qiziqish uyg'otiladi. Har bir hikoya, ertak, she'r yoki rivoyat orqali go'zallikdan lazzatlana olish, oliyjanoblik, mardlik, yaxshilik qilish kabi ezgu fazilatlar o'quvchilar ongiga singdirib boriladi. Bundan tashqari turli yomon illatlardan xalos bo'lishga, dangasalik, beparvolik, ochko'zlik, erinchoqlik kabi insonning odob-ahloqiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi yomon jihatlarni tark etishga o'rgatib boriladi. Shunday ekan, har bir asar matni bilan yaqindan, mazmunan tanishishda ifodali o'qishning ahamiyati nihoyatda muhim hisoblanadi.

3-sinf «O'qish kitobi»da «Xalq og'zaki ijodi» bo'limidan o'rin olgan «Donishmand yigit» (O'zbek xalq ertagi) bilan tanishtirish mobaynida o'qituvchilar aql-zakovat bilan ish ko'rgan inson boshga tushgan kulfatlardan qutula olishi mumkinligining guvohi bo'lishadi.

Ushbu ertakda gunohkor yigit qutidagi ikki qog'ozdan birini olib yutib yuboradi. Qog'ozlarning har ikkisiga hasadgo'ylar tomonidan «O'lim» so'zi yozib qo'yilgan edi. Podshoh yutilgan qog'ozda ozodlik degan xukm mavjud deb gumon qilib yigitni ozod qiladi.

O'quvchilar ertakdagi «Ozodlik» so'zining mazmun –mohiyatining yanada yaxshiroq anglab olishlari uchun «Uch haqiqat, bir yolg'on» metodidan foydalanishimiz mumkin. «Ozodlik» so'ziga berilgan to'rtta ta'rifning uchtasini haqiqat, bittasini yolg'on aralashgan holda berib, o'quvchilarning biroz chalg'itishga harakat qilamiz.

O'quvchilar berilgan javoblarning ma'nosiga diqqat qilib, uchta haqiqiy va bitta yolg'on javobni ko'rsatishlari lozim. Masalan: «Ozodlik bu- hech kimga qaram bo'lmaslik»; «Ozodlik bu- shaxsiy fikrga ega bo'lish»; «Ozodlikka faqat jangda yengibgina erishish mumkin»; «Ozodlik bu-tinch va farovon hayot».

O'quvchilar ushbu fikrlarga munosabat bildiribgina qolmay, ozodlikni qadriga yetishga, uni asrab –avaylashga safarbar qilinadi.

O'qish darslarida pedagogik texnologiyalarni amaliyotga olib kirish, uning betakror va yangi imkoniyatlarini ochib berish biz pedagoglardan ancha sa'y-harakat talab qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh.Mirziyoev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T. O'zbekiston. 2017 y.
2. Sayidaxmedov N.N., Indiaminov N.N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. Fan va texnologiya. Toshkent. 2014.
3. Tolipov O., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari – T.: 2006. 163 b.
4. Kamoldinov M., Vaxobjonov B. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. «Talqin». Toshkent, 2010.

АДАБИЁТ ЎҚИТИШ МЕТОДИКАСИ ФАНИНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ МУАММОЛАРИ

Шахло Исамиддиновна Ботирова
Тошкент вилояти Чирчиқ давлат педагогика институти
доценти.филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Адабиёт ўқитиш методикаси илмий-педагогик муаммо сифатида жамият тараққиётига, унинг ўз-ўзини англашига, жорий этилган қонун ва тамойиллар, стратегик мақсад ва вазифаларни инсонпарварлаштиришга хизмат қиладиган ҳар қандай масалани ўзлаштириш ва унинг устида тадқиқот олиб бориши мумкин. Ушбу тадқиқотларда санъатнинг қонуният ва тамойилларига таяниши лозим.

Адабиёт ўқитиш методикаси бадиий адабиётни ўрганиш йўлларини ўргатувчи фандир [1]. Дарҳақиқат, бадиий адабиётни ўрганишда уларнинг барчасига бир хил ёндашиб бўлмайди. Бу бадиий асарнинг адабий тур ва жанрий, даврий, ғоявий, шаклий ва мазмун билан боғлиқ турларига қараб алоҳида ёндашишни талаб қилади. Қайсидир асарни ўрганишда луғатлардан фойдаланиш, яна бошқасида шарҳ ва изоҳларга кенг ўрин ажратиш, бошқа бирида эса давр ижтимоий муаммолари билан солиштириш ёки назарий маълумотлардан кенгроқ фойдаланиш самарали ҳисобланади. Шу нуқтаи назардан адабиёт фани ўқитувчиси дарс машғулотида бадиий асарнинг ўзига хослигидан келиб чиқиб назарий, қиёсий, биографик, эстетик, дидактик таҳлил методларидан фойдаланади. Бу, албатта, адабиёт ўқитиш методикасининг фан сифатидаги аҳамияти жуда муҳимлигини, бўлажак адабиёт фани ўқитувчиларининг касбий компетенцияларини шакллантиришда асосий фанлардан эканлигини кўрсатади.

Адабиёт ўқитиш методикаси фанининг илмий-назарий муаммолари қуйидагилардан иборат:

- адабиёт тарихини даврлаштириш;
- адабиётнинг ривожланиш анъаналари ва тамойилларини белгилаш;
- адабиёт назарияси ва адабий жараён;
- бадиий асар лингвопоэтикаси;
- шоир ва ёзувчиларнинг ижодий портретини яратиш;
- бадиий асар таҳлили;
- ўқувчиларда бадиий мутолаа маданиятини шакллантириш;
- ўқувчиларда бадиий асарга нисбатан тўғри муносабатни қарор топтириш;
- бадиий асар таҳлили методлари;

Адабиёт ўқитиш методикасининг педагогик муаммолари сифатида эса қуйидагиларни келтириш мумкин:

- адабиёт дарсларини ташкил қилиш;
- адабиёт фанидан синфдан ташқари ва мустақил ишларни ташкил қилиш;
- адабиёт фанини ўқитишнинг анъанавий ва замонавий методлари;
- дарс машғулотида инновацион ёндашувлар;
- дарс машғулоти самарадорлигини оширишнинг усул ва йўллари, метод ва технологиялари;
- ўқитишнинг асосий ва ёрдамчи воситалари, дидактик таъминотини такомиллаштириш;
- бўлажак адабиёт фани ўқитувчиларининг касбий компетенцияларини ривожлантириш.

Тадқиқотчи М.Мусурмонкулова дарс машғулоти ва унинг таркибий қисмлари ҳақида қуйидагича фикр билдиради: “Расмий таълимнинг бирламчи асоси дарс ҳисобланади. Дарс, ўз навбатида, бир бутунлик бўлиб, қуйидаги қисмлардан ташкил топган: таълим-тарбия берувчи; таълим-тарбия олувчи; дастур ва дарслик, ўқув-услубий қўлланма ҳамда дидактик материаллар; педагогик усул ва услублар, ўқитишнинг техник воситалари”[2]. Шу нуқтаи назардан ёндашилганда, адабиёт ўқитиш методикасининг илмий ва педагогик муаммолари, уларнинг тадқиқи ва амалий ижросининг жамулжами адабиёт дарсларининг самарадорлигини оширишга қаратилган бўлмоғи лозим. Дарс машғулоти ижодий жараёндир. Унга муайян қолиплар асосида ёндашиш тўғри эмас. Машғулотда ўқитувчига дарснинг самарадорлигини оширишга хизмат қиладиган ҳар қандай усул, восита ва технологиялардан фойдаланишга рухсат берилади. Албатта, бу миллий ва умуминсоний қадриятлар, ахлоқ-одоб меъёрларидан чиқмаган ҳолда амалга оширилиши мақсадга мувофиқ.

Адабиёт фани ўқитувчисининг мақсади ўқувчиларга бадиий адабиётнинг муъжизакор қудратини кўрсата билиш ва унинг эстетик таъсир кучини юқтира билишдан иборат экан, адабиёт ўқитиш методикаси фани бўлажак ўқитувчиларда худди шу сифатларни ўзида жамлаган компетенцияларни шакллантиришга қаратилмоғи лозим. Ўқувчиларда “эстетик тўйиниш” [3] амалга ошмас экан, адабиёт дарсини самарали деб бўлмайди. Бунинг учун ўқитувчининг ўзи бадиий адабиётнинг инсон камолотидаги роли борасида мустақил кўникмаларга, аниқ тасаввур ва ўз позициясига эга бўлиши керак. Модомики, фикр бадиий адабиётнинг инсон камолотидаги роли ҳақида борар экан, бадиий мутолаанинг инсонга таъсир қилиш имкониятларини тасниф қилиш лозим бўлади.

Бадиий мутолаанинг инсон маънавий камолотидаги ўрнини қуйидагича тасниф қилиш мумкин:

1. Бадиий мутолаанинг эмоционал таъсири. Мутолаа жараёнидаги турли эмоционал ҳолатлар – асар қаҳрамонларининг хатти-ҳаракатларидан таъсирланиш: кулги, йиғи, нафрат, мойиллик, симпатия ва антипатия натижасида юз берадиган турли руҳий ҳолатлар инсоннинг қалбида эзгуликка (яхшиликка) мойиллик ва ёвузликка (ёмонликка) нисбатан нафрат

ҳиссини уйғотади. Севимли ёзувчимиз Ўткир Ҳошимов “Бадиий асардан таъсирланиб йиғлаган инсондан ёмонлик чиқмайди”, деганида ҳақ эди. Абдулҳамид Чўлпон таъбири билан айтганда, бундай эмоционал ҳолатлар гўё тоза булоқ суви каби бўлиб, ўқувчи қалб ойнасига қўнган чанг ва ғуборларни тозалайди.

2. Бадиий мутолаанинг интеллектуал таъсири. Бадиий асар ўқиш жараёнида инсон шу асар мавзуси билан боғлиқ муайян билимларга эга бўлади. Бадиий асарда ҳар қандай мавзу қаламга олиниши мумкин ва натижада ўқувчининг асар мавзусига мос равишда фалсафий, тарихий, адабий, иқтисодий, сиёсий ва бошқа соҳаларга оид билими ошиб бораверади[4]. Масалан, Ойбекнинг “Навоий” романини ўқир экан, китобхонда XV асрдаги тарихий шароит, сиёсий вазият, ўша даврдаги инсонларнинг яшаш тарзи ва ижтимоий муносабатлари, улуғ бобомизнинг ҳаёти ва ижоди билан боғлиқ билимлари кенгаяди. Ҳақиқий бадиий асарлар истеъдод маҳсули бўлиб, унда у ёки бу даражада ҳаётий хулосалар ва умумлашмалар акс этган бўладики, бу хулосалар ўқувчининг интеллектининг ошишига, ақлий қобилиятининг кучайишига хизмат қилади.

3. Бадиий мутолаанинг лисоний таъсири. Мутолаа, аввало, китобхонда лисоний фазилатларнинг сифатини оширади: сўз бойлиги (лексикон) ни кенгайтиради, нутқий қобилиятини оширади. Бадиий мутолаа билан мунтазам шуғулланиш инсонда ўзининг фикрини равон, тушунарли ва осон ифодалай олиш қўникмасини шакллантиради. Тарихий асарларни ўқиш жараёнида эса ўқувчи историзмлар ва архаизмлар билан боғлиқ тарихий лексик бирликлар билан танишади. Умуман, яхши китобхон тилдаги ифодавийлик, нафосат ва гўзалликни ҳис қила оладиган, ундан амалда фойдалана оладиган бўлади.

4. Бадиий мутолаанинг маънавий таъсири. Асар замирига сингдирилган ғоя ва фикрлар инсонда иймон, виждон, инсоф, диёнат, садоқат, ростгўйлик, самимият каби қатор фазилатларни шакллантиради. Яхши бадиий асарларнинг барчасида у ёки бу маънавий қадриятлар улуғланади, тараннум этилади. Чунки бадиий асар ўз табиати ва моҳиятига кўра маънавиятни тарғиб қилиш воситасидир.

5. Бадиий мутолаанинг эстетик таъсири. Бадиий асар ҳаётдан кўра гўзалроқ ва мафтункорроқ бўлганлиги учун ҳам ундаги воқеалар биз учун қизиқарлидир. Бадиий асарни ўқишимиз ҳам аслида шундан. Бадиий асардаги ҳаёт парчаси ёзувчининг шунга ўхшаш кўплаб воқеаларни кузатиб, уларни ақл элагидан ўтказиб, саралаб олиши ва уларни ўқувчига эстетик таъсир қиладиган шакл ва мазмунда тасвирлаши натижасида ҳаётнинг бадиийлаштирилган типик эпизоди бунёдга келади. Ҳаётнинг бадиий эпизодида гўзаллик, нафосат категориялари тарғиб қилинади. Ҳаёт билан адабиётнинг моҳияти бир, аммо унга муносабат масаласида фарқ мавжуд. Буни образли тарзда ҳаётга қиёсланган оддий кийимдаги қиз билан адабиётга қиёсланган келинлик либосидаги қизга ўхшатиш мумкин. Бунда

келинлик либосидаги қизнинг гўзаллиги инсонлар диққат-этиборини кўпроқ жалб қилганидек, адабиёт ҳам ана шу гўзаллиги билан китобхонни ўзига мафтун этади. Бу гўзаллик тараннуми эса ўқувчидаги эстетик диднинг ўсишига, гўзалликни хис қила билиш ва ундан роҳатланиш фазилатларининг шаклланишига хизмат қилади.

6. Бадиий мутолаанинг этик (ахлоқий) таъсири. Бадиий асарларда муайян халқнинг узок йиллардан буён яшаб келаётган ахлоқий қадриятлари у ёки бу даражада ўз аксини топади. Адабиёт моҳиятан ахлоқий ҳодисадир. Асарнинг ижобий қаҳрамонларида мужассамлаштирилган ахлоқий сифатлар ўқувчига кўчади. Ҳар қандай ўқувчи асар қаҳрамонидаги бу каби фазилатларни онг остида ёқлайди, маъқуллайди ва бу эса ихтиёрий ёки ихтиёрсиз равишда китобхонад шу каби сифатларнинг шаклланишига сабаб бўлади.

7. Бадиий мутолаанинг информацион таъсири. Ҳар қандай бадиий асар ҳаётнинг муайян парчаси сифатида ўзида кўплаб хабар ва ахборотларни ташиydi. Асарда бу каби ахборотларнинг мужассамлашуви китобхон дунёқарашнинг кенгайишига, ахборот базасининг бойишига хизмат қилади.

8. Бадиий мутолаанинг ижтимоий таъсири. Бадиий асарни кўп мутолаа қилган инсонларда бошқа инсонлар билан ижтимоий муносабатларга киришишда муаммолар кузатилмайди. Бундай инсонлар хушмуомала, суҳбатдошни тушунадиган ва уни ўзига қизиқтирадиган, ўзгалар билан тез тил топиша оладиган бўлади. Демак, бадиий мутолаа натижасида шаклланган яхши муомала китобхонда маданий сифатларнинг шаклланишига сабаб бўлади.

“Ўқувчилардаги барқарор ғоявий, маънавий-ахлоқий ва эстетик ишонч-эътиқодларнинг шаклланиши, уларнинг энг муҳим ҳаётий тушунчалар мағзини чақа олиши маълум маъноларда адабиёт ўқитувчисининг маҳоратига боғлиқдир”[5]. Дарҳақиқат, ўқувчиларда ҳаётий воқеаларга нисбатан ўз мустақил қарашларининг шаклланишида, инсоний фазилатларнинг ривожланишида адабиёт фанининг, яна ҳам тўғрироғи, адабиёт фани ўқитувчисининг роли катта бўлади. Бу энди адабиёт фани ва унинг ўзига хос эстетик таъсир имкониятлари, ўқитувчининг ўша имкониятларни ўқувчиларга юқтира олиш иқтидори билан содир бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ушенский К.Д. Человек как предмет воспитания. Монография. http://dugward.ru/library/pedagog/ushinskiy_chelovek1.html
2. Мусурмонкулова М.М. Креатив ёндашув асосида ўқитишнинг дидактик таъминотини яратиш механизмлари // Мактаб таълими, 2018. №4. –Б. 56-61.
3. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. Дарслик, Т.: Янги аср авлоди, 2010 й., -Б. 6-7.
4. Зуннунов А., Ҳотамов Н., Эсонов Ж., А.Иброҳимов А. Адабиёт ўқитиш методикаси. Тошкент “Ўқитувчи”- 1992. 10-бет.

5. Лесохина Л.Н. Нравственное развитие учащихся в процессе изучения литературы. - Сб. Искусство анализа художественного произведения. М.: Просвещение, 1971, с. 124.

6. Khodjamkulov U., Botirova Sh., Shofkorov A., Abdirimova I. Bases of organizing cooperation between educational institutions Through clusters (on the example of the education system of Uzbekistan // Journal of Critical Reviews. vol. 7, Issue 12, 2020. P. 243-247.
<http://www.jcreview.com/index.php?fulltxt=115476&fulltxtj=197&fulltxtp=197-1592273486.pdf>

7. Mardonov Sh., Khodjamkulov U., Botirova Sh., Shermatova U. The need to educate young people with the spirit of patriotism in the Context of globalization // Journal of Critical Reviews. Vol. 7, Issue 12, 2020. P. 166-169.
<http://www.jcreview.com/index.php?fulltxt=115456&fulltxtj=197&fulltxtp=197-1592271867.pdf>

A.NAVOIY “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONI TIMSOLLARINI UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA O’RGANISH

Jizzax DPI tadqiqotchisi X.Xolmurodov

Adabiyotning inson ma’naviyatiga, dunyoqarashiga nihoyatda kuchli ta’siri qadim zamonlardayoq chuqur his etilgan. Hozir ham buni hech kim inkor etmaydi. Yoshlarga badiiy adabiyotni, soʻz san’ati zamiridagi nodir takrorlanmas dunyuni oshno qilish shuning uchun ham dolzarbligicha qolaveradi. Bu yoʻlda adabiyot darslarining oʻrni va ahamiyati beqiyos. (2/10-bet)

Umumiy oʻrta ta’lim maktablari uchun oʻquv rejada 9-sinf 1-choragida Adabiyot dasturida quyidagikoʻrsatmalar berilgan: “Alisher Navoiyning hayoti va ijodi (1soat). Xamsachilik tarixi. “Farhod va Shirin” dostonidan oʻqish (3soat). Doston matni ustida ishlash (2soat). Doston timsollari tahlili (2soat). Nazariy ma’lumot: komil inson (1soat).” (3/83-bet) Jami 9 soat ajratilgan boʻlib, biz ushbu maqolamizda “Farhod va Shirin” dostoni va badiiy timsollar tahliliga toʻxtalib oʻtamiz.

«Farhod va Shirin» dostonini oʻrganishda dostonning nasriy bayoni matni bilan tanishgandan soʻng, adabiyot oʻqituvchilariga «Farhod va Shirin» dostonidagi badiiy timsollar ustida ishlash» mavzusi uchun quyidagi dars usulini tavsiya qilamiz.

Oʻquvchilarning «Xamsa» dostonlari yuzasidan bilganlarini mustahkamlash va ularda tahlil qilish malakasini shakllantirishni darsning maqsadi sifatida belgilash mumkin.

Darsni yakka tartibda, guruhda ishlash va boshqa usullardan foydalangan holda tashkil etish mumkin.

Darsning jihozlari tarqatma materiallar, marker, darslik, flipchart qogʻozidan iborat boʻladi. Mavzu eʼlon qilinmasdan avval oʻquvchilar 6 ta guruhga ajratiladi. Oʻqituvchining qoʻlida yopiq holatda dostonidagi timsollarning

nomi yozilgan tarqatma kartochkalar bo'ladi. Guruhlarning ixtiyoriy vakili kartochkalardan birini olishi taklif etiladi. U kartochkada «Farhod va Shirin» dostonidagi qahramonlarning ismi (Farhod, Shirin, Mihinbonu, Shopur, Xusrav, Sheruya) yozilgan bo'ladi.

Kartochkada nomi ko'rsatilgan qahramon haqida klaster tuzish topshirig'i bo'ladi. Masalan, Farhod timsoli bo'yicha quyidagicha klaster tuzish mumkin:

Farhod-bilimli-barkamol-ijodkor-jasur-mehnatsevar-xalqparvar-sadoqatli

O'qituvchi doskani 6 qismga bo'ladi (bo'r bilan chizib bo'lish ham mumkin). Guruhdan vakil chiqadi va doskaga timsol bo'yicha tuzgan klasterini namoyish qiladi. O'qituvchi qo'shimcha qilishni istagan o'quvchilarning ham fikrini so'raydi.

Guruhlarda tuzilgan klaster va qo'shimchalar bilan to'ldirilgan timsollar haqidagi o'quvchilarning umumiy qarashlari aniqlangach, guruhlariga o'zi ishlagan timsol yuzasidan tayyorlangan yana qo'shimcha materiallar beriladi:

1-guruhga: Farhod timsoli yuzasidan matn;

2-guruhga: Shirin timsoli yuzasidan matn;

3-guruhga: Mehinbonu timsoli yuzasidan matn;

4-guruhga: Shopur timsoli yuzasidan matn;

5-guruhga: Xusrav timsoli yuzasidan matn;

6-guruhga: Sheruya timsoli yuzasidan matn tarqatildi.

Guruh a'zolari tarqatma materiallarni o'qib o'rganib chiqadilar. Guruhlarga beriladigan kartochkalardagi matn quyidagicha bo'lishi mumkin:

«Shirin o'z xarakteri va fazilatlari bilan Farhod qatorida turuvchi timsol bo'lib, u ham Farhod kabi insonparvar, xalqparvar, yurtsevar, mustahkam irodali, sadoqatli yordir.

Shirin ma'rifatparvar ammasi Mihinbonu tarbiyasida ilmi, aqli qiz bo'lib yetishadi. U mamlakatning obodligi, suv bilan ta'minlanishi uchun fidoyilik ko'rsatadi. Ammasi Mihinbonu bilan kanal qazish, suv chiqarish kabi katta ishlarga bosh bo'ladi. Shirin Farhod siymosida insoniyatning baxti uchun kurashuvchi shaxsni ko'radi.

Shirin chin inson bo'lishni va chin insonniy sevgini buyuk fazilat, deb hisoblaydi. U zolim Xusravning taklifini rad qilib, shunday javob qaytaradi:

Menga ne yor-u ne oshiq havasdir,

Agar men odam o'Isam, ushbu basdur.(1/91-bet)

Shirin - sadoqatli yor. U eng dahshatli va fojiali damlarda ham Farhodga vafodor bo'lib qoladi. Shirin Xusravning yovuz niyatini bilar edi. U mamlakatning Xusrav qo'liga o'tishi va xalqning talanishini istamas edi. Shuning uchun ham Shirin jon-jahdi bilan Xusravga qarshi kurashadi. Lekin Xusravning qo'li baland keladi, u makr-hiyla bilan Farhodni asir qilib, mamlakat taqdirini xavf ostida qoldiradi. Shirin uchun ikki yo'l qoladi: yo hayot, yo o'lim. Shirin so'nggisini qabul qiladi. Bu Shirinning ma'naviy g'alabasi edi. Chunki zolim va munofiq Xusravga bo'yin egib, tirik qolguncha, chin insonlikka va Farhodga sodiq qolib o'lgan a'lodir»..(1/97-bet)

Har bir guruh a'zolari kartochkadagi ma'lumotlar yuzasidan chiqish tayyorlaydilar. Bu chiqish shunday tarkibiy tuzilmaga ega bo'lishi kerakki, boshqa o'quvchilar undan yangilik ola bilsin va uni o'zlashtirsin. Buning uchun o'qituvchi savol-topshiriqlar ko'magida o'quvchilarni timsolning asardagi o'rni va mohiyati, xarakter xususiyati yuzasidan fikrlashga yo'naltirib turadi. Shu tarzda o'quvchilar har bir guruh chiqishiidan so'ng timsollar haqidagi boshqa qo'shimcha ma'lumotlarni ham bilib oladilar.

O'qituvchi doskagi yozilgan fikrlarga yana qo'shimchalar qilish mumkinligini aytadi. Dastlab har bir guruh a'zolari o'zlari yozgan fikrlar (klasteri)iga, o'z qo'shimchalarini kiritadilar. So'ngra O'qituvchi birma-bir, har bir timsol yuzasidan doskada yozilgan fikrlarga to'xtalib, qo'shimchalar qiladi.

O'qituvchi o'quvchilarning diqqatini har bir timsolga alohida qaratib, shu timsol haqidagi xulosalarni umumlashtiradi.

O'quvchilar guruhdagi va fikrlarni to'ldirishdagi ishtirokiga, yakuniy savol-javobdagi faolligiga qarab baholanadi.

Uyga vazifa sifatida guruh a'zolari o'zlari ishlagan timsol bo'yicha «Sinkveyn» tuzish topshiriladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Navoiyning «Farhod va Shirin» asari timsollari tahliliga o'quvchilarning o'zlari shu tariqa yakka va hamkorlikda ishlash orqali kirishsalar, to'la tasvvurga ega bo'ladilar. Bugungi kunda maktabning asosiy vazifasi bilimli o'quvchilarni tayyorlash bilan birga ma'naviy va ahloqiy barkamol shaxslarni shakllantirishdan iborat. Bunday vazifani bajarishda o'quvchilarga mumtoz adabiyotning o'lmas namunalari bilan yaqinroqdan tanishish imkoniyatini yaratish muhim didaktik zarurat hisoblanadi.

1. Alisher Navoiy "Xamsa". "Farhod va Shirin". Ilmiy tanqidiy matn. Tuzuvchi:

Porso Shamsiyev. –T.: O'zSSR. "Fan". 1970.

2. Боқижон Тўхлиев. Адабиёт ўқитиш методикаси Т; "BAYOZ" МЧЖ, 2012, 10-бет.

3. UMUMIY O'RTA TA'LIMNING ADABIYOT FANIDAN DAVLAT TA'LIM STANDARTI VA O'QUV DASTURI. TOSHKENT-2017

ЎҚУВЧИЛАР НУТҚИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА МИЛЛИЙ АДАБИЁТНИНГ ЎРНИ

Катта ўқитувчи Л.Ибрагимова (ЖДПИ)

Магистр Д.Ачилова (ЖДПИ)

Таълим жараёни ниҳоятда мураккабдир. Таълим самарадорлиги ўқитувчи ва ўқувчи фаоллигига, таълим воситаларининг мавжудлигига, таълим жараёнининг ташкилий, илмий, методик мукаммаллигига, жамиятда илмий кишиларга бўлган эҳтиёжга ва бошқа омилларга боғлиқ. Жамиятда ўзининг ижтимоий-сиёсий, иқтисодий эҳтиёжлари асосида таълим самарадорлиги юқори бўлишини талаб этади. Таълим жараёнида ўқувчида мустақил билим олиш эҳтиёжи шаклланиб бориш ҳозирги кун талаби ҳисобланади.

Нутқ кўп қиррали инсон фаолиятида ташқи дунё билан ўзаро алоқа воситаси сифатида муҳим ўрин тутати. Шунинг учун ҳам нутқий маданият тарбияси қадим замонлардан буён таълим-тарбия тизимида етакчи ўринлардан бири ҳисобланади. Ўқувчилар – жамиятнинг ижтимоий-сиёсий, иқтисодий, маънавий-маърифий янгиланишнинг муҳим субъектларидан бири бўлиб, турмушда рўй бераётган жараёнларга ўз таъсирини ўтказадилар ва ижтимоий тараққиётни ҳаракатга келтиришда муҳим роль ўйнайдилар. Ўзбекистоннинг эртанги келажаги қандай бўлиши ана шу ўқувчиларнинг нутқини шакллантириш, ва унда миллий адабиётнинг ўрнига боғлиқ. Эзгу мақсад йўлида амалга ошираётган ишларимизни изчил ва қатъиятлик билан давом эттириб, ёшларни тарбиялашга алоҳида эътибор беришимиз лозим.

Биринчи Президентимиз Ислом Абдуғаниевич Каримов таъкидлаганидек: “Бугунги кунда бир оддий ҳақиқат барчамиз учун аён бўлиши керак: олдимизда турган энг эзгу мақсадларимиз – мамлакатимизнинг буюк келажаги ҳам, эртанги кунимиз эркин ва фаровон ҳаётимиз ҳам, Ўзбекистоннинг ХХІ асрда ҳамжамятидан қандай ўрин эгаллаши ҳам, уларнинг барча-барчаси аввалом бор, янги авлод, ўниб-ўсиб келаётган фарзандларимиз қандай инсонлар бўлиб вояга етишига боғлиқдир. (И.А.Каримов “Камолот” ёшларимизнинг чинакам суянчи ва таянчи бўлсин. Маърифат, 2001. 27январ)”.

Ёш авлодни ҳар томонлама кучли, билимли, ўз ишининг моҳир устаси, ўз Ватанининг жонкуяри қилиб тарбиялашда ўқувчилар нутқида миллий адабиётнинг аҳамияти бекиёсдир. Ўқувчиларнинг билиш фаолиятини шакллантириш, ижодий қобилиятларини ривожлантириш, уларнинг дунёқарашларини кенгайтириш мақсадида миллий адабиёт яъни истиқлол даври ўзбек адабиёти дарсини янги педагогик технология асосида анъанавий ва ноанъанавий усулларда ўтиш, ўқувчиларнинг онгига Ватан, жамият, халқ ҳақида муайян тасаввурга эга бўлиши, уларнинг қалбида ватанпарварлик, миллий ғурур, ахлоқий ғоялар, улуг алломаларимиз ва улар

қолдирган маънавий-маданий мерослар билан фахрланиш туйғуларини шакллантириш ва ривожлантиришда миллий адабиётнинг имкониятлари бениҳоят каттадир. Миллий адабиёт дарсини педагогик технология асосида ўтишнинг энг асосий талаби ўқувчиларнинг ўзлаштирган билимлари ва қизиқишлари асосида билим бериш кўзда тутилади.

Ижтимоий такомилга ва умумий бахт-саодатга эришишда инсоний фазилатларни шахс онги, шуурига сингдириш ва комил инсонни шакллантириш ўқувчилар нуткида миллий адабиёт таълимининг қай даражада ўқитилишига боғлиқдир. Мазкур мақсадларни юзага чиқаришда, албатта, унинг ўқитувчилик маҳорати катта рол ўйнайди. Зеро, кадрлар тайёрлаш миллий моделининг таркибий қисми бошида шахс туради. Таълим-тарбия узлуксизлигини таъминловчи, уни амалга оширувчи, такомиллаштириш йўллари изловчи бу ўқитувчи шахси ҳисобланади.

Таълим жараёнида ўтилаётган “Истиқлол даври ўзбек адабиёти” дарси ўқувчиларга шундай савол беради: “Адабиёт нима?”. Ушбу дарсни ўтишда ўқитувчи адабиёт ҳақида, адабий тур ва жанрлар, адабий жараён ҳақида маълумот бериши ва қандай бадиий асарларни талабалар ўқиганликлари, улардан олган таассуротлари ҳақидаги суҳбат билан бошлаш мақсадга мувофиқдир. Бу суҳбат жонли, қизиқарли бўлиши билан бирга ўқувчилар билимини ёритишга қаратилган бўлиши зарур. Ўқитувчи дарс давомида ўқувчиларга шеърий, драматик ва проза шаклида ёзилган асар намуналарини кўрсатиш, улардан парчалар ўқиб бериши дарс жараёнини жонлантиради ва педагогик қийматини оширади. Бундан ташқари мавзунини ўргатишга киришишда баҳс-мунозара, суҳбат, конференция, семинар ва назм дарслари ўтказиш яхши натижа беради. Ўқувчиларнинг нутқини оширишга, билимини мукаммаллаштиришга ва ўзгани тушунишга ундайди.

Ижтимоий такомилга ва умумий бахт-саодатга эришишда инсоний фазилатларни шахс онги, шуурига сингдириш ва комил инсонни шакллантириш миллий адабиёт таълимининг қай даражада ўқитилишига боғлиқдир. Мазкур мақсадларни юзага чиқаришда, албатта, унинг ўқитувчилик маҳорати катта рол ўйнайди. Зеро, кадрлар тайёрлаш миллий моделининг таркибий қисми бошида шахс туради. Таълим-тарбия узлуксизлигини таъминловчи, уни амалга оширувчи, такомиллаштириш йўллари изловчи бу ўқитувчи шахси ҳисобланади.

Хулоса қилиб айтганда, ўқувчилар нуткида миллий адабиётнинг дарс давомида мукаммал ўргатилиши ўқувчиларга ўз миллатини, ўтмишининг буюклигини англаш, миллий ғурур, миллий ифтихор туйғусини ҳис қилиш, ота-боболаримизнинг бебаҳо нодир асарларининг қадрига етиш ва энг асосийси баркамол инсон бўлишга, ўзлигидан фахрланишга ўргатади

Фойдаланилган адабиётлар

1. И.А.Каримов “Камолот” ёшларимизнинг чинакам суянчи ва таянчи бўлсин. Маърифат, 2001. 27январ
2. Ғуломов А. Нутқ ўстириш машғулотлари. Т., Ўқитувчи.1995.
3. Ғуломов А. ва б. Нутқ ўстириш. –Т.: Ўқитувчи, 1997.

ADABIY TA'LIMDA NAVOIY ASARLARINI O'RGATISH MASALALARI

**Shoxjaxon Meliqulov JDPI talabasi.
S. Boysinov - JDPI, katta o'qituvchi, ilmiy rahbar**

Inson nasli shunday yaralganki, atrof-muhitni o'ziga xos nazar bilan ko'radi, tashqi olamning ko'pdan-ko'p ko'rinishlari, xilma-xil manzaralari o'z mayliga mos kelgan taqdirdagina ongidan joy oladi, faqat quvonchli hissiyotlar, faqat maroqli taassurotlar ijobiy xislatlarni shakllantiradi. Shu sababdan insoniyat hamisha go'zallikka intilgan, tirikchilikning eng mashaqqatli davrlarida ham nafosat talablariga rioya qilib yashagan.

Bugungi adabiy ta'limning bosh maqsadi ham o'quvchini nafosat talablariga amal qildirish orqali ular qalbida go'zallikka oshnolik, hayot ne'matlaridan bahra olishga undashdir.

Shunday ekan, bu ehtiyojni, intilishni qondirish uchun ma'naviy meroslarimizga qayta-qayta murojaat qilaveramiz. Ana shunday meroslarimizning saralaridan biri esa Navoiy asarlaridir.

O'quvchilar Navoiy asarlarini o'rganar ekan, ko'p o'rinlarda bir qator qiyinchiliklarga duch kelishayotgani sir emas. Bu to'siqlarga nega to'qnashilyapti. Balki Navoiy asarlarining tili murakkablik tug'dirayotgandir, balki g'azal, ruboiylarning nasriy bayoniga ehtiyoj ko'proqdir. Yoki adabiyot fani o'qituvchilari dars o'tish metodlarini yanada takomillashtirishi kerakdir.

Shu o'rinda tajribali o'qituvchilarimizning fikrlariga tayangan holda bugungi kun adabiyot o'qituvchisi Navoiyni anglash zavqini o'quvchiga yuqtirishda qanday yo'l tutishi kerak degan savolga javob izlashni joiz deb bildik.

Navoiy asarlarini o'rganish adabiy ta'limning hamma bosqichlarida taqdim etilgan va bu o'ta mas'uliyatli pedagogik tadbir hisoblanadi. Navoiy ijodini o'rganishda soddadan murakkabga tomon borish va bolalarni daho ijodkordan bezdirib qo'ymaslik chorasini ko'rish lozim. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining "Adabiyot" darsligida "So'zda hikmat bor" rukni ostida Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asaridan "Tavoze va odob to'g'risida"gi bob o'rganish uchun tavsiya etilgan.

Mavzu oldidan kirish mashg'uloti tashkil qilinib, Navoiyning shaxsiy hayotdagi xislatlari to'g'risida suhbat uyushtirish ham, o'quvchilarning Navoiy hayoti va ijodiga oid bilimlarini umumiy tarzda savol-javoblar vositasida muayyanlashtirish ham mumkin bo'ladi. Xuddi shu o'rinda Navoiy haqida yaratilgan tarixiy hamda folklor manbalardan foydalanish ham samarador usullardan biri bo'la oladi. Bunda yuksak insoniy fazilatlar haqida so'z yuritgan

adibning o'zida ham shu xislatlar va fazilatlarning mujassam ekanligi yosh qalblarda adib shaxsiga nisbatan qiziqish va muhabbatning shakllanishi va barqarorlashuviga olib kelishi shubhasiz.

Bolalarni ruhan mazkur darsga olib kirish uchun o'qituvchi ulardan Navoiy bobo haqida kim nima bilishini so'ragani ma'qul. Shunda ular orasidan quyi sinflarda o'rganganlarini, eshitganlarini eslashga urinishlar bo'lishi tabiiy.

So'ng shoir haqida darslikda berilgan ma'lumot yuzasida kichik suhbat tashkil qilinadi. Shoirning bizga qoldirgan ma'naviy merosidagi yirik nasriy asari "Mahbub ul-qulub" haqida alohida to'xtalinadi.

Navoiy "Mahbub ul-qulub"da shunday yozadi: "...kamina bolalikdan to qarilikka qadar ko'hna davron voqealaridan, ...zaminning rang singari gunogunligidan ko'p vaqt va uzoq muddat har xil xayol va taraddudlar...yurdim. ...turli yo'llarga kirdim, yaxshi-yomonning xizmatini qildim; katta-kichikning suhbatida bo'ldim...ba'zan ilm-fan madrasalarida quyi saflardan joy oldim va olimlar majlisida ilm nuridan ko'nglimni yoritdim..."¹⁰⁶

Buyuk shoirning bu e'tiroflari, o'z hayotidan chiqargan saboqlari o'qituvchi tomonidan bolalarga o'qib berilgach, ularda mazkur asarda nimalar deyilganini bilishga ichki ehtiyoj uyg'onishi tabiiy. Darslikda taqdim etilgan asar matnining ifodali mutolaasi uchun 6-7 daqiqa sarflanadi. Keyin asarning tahliliga kirishiladi. Bolalarning diqqati tortilishi lozim bo'lgan o'rinlar avvaldan belgilab olingan holda, asarning o'sha o'rinlariga bolalarning e'tibori qaratiladi.

Matnning shunday o'rinlari qayta o'qilib, unga bolalarning munosabati so'raladi. "Tavoze" so'zi tashiydigan ma'nolarga e'tibor qaratilib, "xokisorlik", "kamtarlik", "hurmat", "ehtiom", "itoatgo'ylik", "bo'ysunish" ma'nolarini tashuvchi birgina so'zga shoir nega alohida to'xtalgani, bunchalar katta e'tibor qaratgani xususida bolalarning mulohazalari tinglanadi. Navoiyning bu sifatga alohida to'xtalgani bejiz emasligini bolalar his qilishlari lozim.

So'ng shunday sifatga ega bo'lgan kishi nimalarga sazovor bo'lishi haqidagi savol bilan bolalarga murojaat qilinadi. Bolalar savolga javob topish maqsadida matnga yuzlanadilar va o'zlari tushungan-tushunmagan holda bunday kishilar erishishi mumkin bo'lgan jihatlarni topib o'qiy boshlaydilar: *xalqning muhabbatini qozonadilar; odamlar u bilan do'stlashadi - do'stlari ko'payadi; insofsizlarni yomonlikdan qaytaradi...*

Bolalarning javobidan keyin tavoze egasi erishishi mumkin bo'lgan yutuqlar birgalikda tahlilga tortiladi, shu sifatlar haqida bolalarning fikri so'raladi. Ular o'z bilganlaricha aytadilar, kamini o'qituvchi to'ldiradi.

Har bir bolaning tavoze va odob kishisi bo'lishi nimalarga olib kelishi haqida asar muallifining deganlarini topib o'qishni bolalarga topshirish o'rinli bo'ladi. Balki ularni adabiyot daftariga ko'chirib yozishni talab qilgan ma'quldir. Chunki eshitgandan ko'ra o'qigan, o'qigandan keyin yozgan afzal. Kitobdan ko'chirib yozayotganda ham bu so'z va iboralar, tushunchalar bolalarning ko'nglidan o'tishi, ruhiyatida ma'lum iz qoldirishi bor haqiqat.

¹⁰⁶ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Маҳбуб ул қулуб. 14-том. Т.:1998. 7-бет

Keyin barcha fuqarolari odob va tavoze egasi bo'lgan yurt, millat qanday bo'lishi mumkinligi haqida savol berilib, bolalarning javoblari eshitaladi. Ular o'z darajasida fikr ifodalaydi. Bunday vaqtlarda ularning javoblarini hadeb tuzataverish, ularning fikriga daxl qilish noto'g'ri. O'quvchida mulohazakorlikning borligi o'qituvchi yutug'i.

Shu o'rinda insoniy fazilatlarni o'zida mujassam qilmoq uchun ilm o'rganish va uni, albatta, amalda qo'llash zarurati borasida "Mahbub ul qulub" da keltirilgan misollarga murojaat qilinsa o'rinli bo'ladi. Asarda bilim olib mustaqil mushohada yurita olmaydigan inson "ustiga kitob ortilgan eshak" ka qiyoslanadi. Bu qiyos o'qituvchi tomonidan sharhlanib, o'quvchilardan mulohazalari so'raladi.

"Jarayonga kirishib ketgan bola o'z ichki "Men"ining so'zini aytadi. Bola tomonidan aytilganlar o'qituvchi istaganday ravon, silliq bo'lmasligi tabiiy. Balki bu fikrlar shunisi bilan go'zalroqdir. Chunki ular bolalarning o'z fikri, o'z so'zi, o'z mulohazasi bo'lganligi bilan qadrlil. Mana shu harakatlar o'quvchini bora-bora fikr kishisiga aylantiradi. Fikr kishisi bo'lish bilan birga uning tafakkuri kengayadi." ¹⁰⁷

Asarning qolgan qismlarini o'rganishda ham o'qituvchi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undovchi o'ziga xos usullarni qo'llasa, tabiiyki, dars samaradorligi oshadi. Egallashi lozim bo'lgan bilim o'quvchilarning o'zlari tomonidan o'zlashtirilsa, "yuqumli"roq, foydaliroq bo'ladi. O'zlari bevosita ishtirok etgan bilim olish jarayoni bolalarga malol kelmaydi.

DARSLIK-MAJMUALARIMIZ HAQIDA MULOHAZALAR

Farmonova Umida, maktab o'qituvchisi, Samarqand XTB

Mustaqillikdan so'ng, ayniqsa, so'nggi yillar jamiyatimizning barcha jabhalarida bo'lganidek, ilmu ma'rifat va ma'naviyat sohasida ham ulkan o'zgarish va yangilanishlar sodir bo'lmoqda. Jumladan, ma'naviyatimizning ajralmas bir qismi bo'lgan adabiyotimiz rivojiga va uning kelajagiga e'tibor va g'amxo'rlik behad kuchaytirildi. Sobiq sho'ro davrida asosan qoralanib va kamsitib kelingan mumtoz adabiyotimizning ko'plab namoyandalari hayoti va ijodi xolisona o'rganilib, xalqimizning ma'naviy mulkiga aylanmoqda. Unutilgan yoxud nohaq qoralanib, hatto ta'qiqlab qo'yilgan milliy qadriyatlarimiz ham qayta tiklanib, o'zining munosib bahosini olayotganligi ham xalqimizni cheksiz quvontiradi. Mustaqilligimiz tufayli so'nggi yillarda bir guruh adabiyotshunos olimlarimizning sa'y-harakatlari bilan umumta'lim maktablari uchun tayyorlangan "O'zbek adabiyoti" darslik-majmualari sobiq sho'ro davridagi darslik xrestomatiyalardan keskin farq qiladi. Istiqlool sharofati bilan yuzaga kelgan va mustabid sovet tuzumi mafkurasi tazyiqidanbatamom qutulgan bu

107 Қ.. Т: Хусанбоева. Адабий таълимда мустақил фикрлашга ўргатиш асослари. -2003, 48-бет

darslik majmualarimiz bir qator ijobiy fazilatlariga ega. Jumladan, badiiy adabiyot namunalariga ilgarigidek sinfiylik va partiyaviylik nuqtai nazaridan emas, balki ularga eng avvalo san'at asari sifatida yondashish va badiiylik mezonlari asosida o'rganish bu darslik majmualarimizning asosiy xususiyatidir. Ammo oliy hakam bo'lgan vaqt va amaliyot ularni ham jiddiy sinovdan o'tkazmoqda. Istiqolimizdan keyingi yillarda yaratilayotgan yangi darslik va majmualarimizda ham jiddiy o'zgarishlar bo'layotganligi ijobiy holdir. Jumladan, Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Yasha, sho'ro", "Hoy-hoy, otamiz" kabi inqilobiy-mafkuraviy mavzuda yaratilgan siyosiy-publisistik she'rlari o'rniga shoirning asl qiyofasini belgilovchi "Yig'la, Turkiston" singari she'rlari kiritildi, Xuddi shundayin, inqilobiy drama deb ko'klarga ko'tarib kelingan va XX asr o'zbek dramaturgiyasini boshlab bergan asar deb ulug'lanib kelingan "Boy ila xizmatchi" dramasi o'rniga Hamzaning 1915 yili yozilgan "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari" dramasi kiritilishi muhim o'zgarishlardan bo'lib sanaladi. Binobarin, Istiqloldan keyin butun hayotimiz va qalbimiz va shuurimizda kechayotgan chuqur ijobiy o'zgarish va yangilanishlar bo'ldi yohud o'quvchilarimizga munosib adabiy asarlar tanlash borasidagi talab-mezonlarimizning har xilligi sababli muammolar bor.

Yangi yaratilayotgan darslik-majmualarimizda "Jahon adabiyoti namunalari"dan asarlar berilishi har jihatdan tahsinga loyiqdir. Zero, milliy mahdudlikdan qutulishning va adabiy-estetik tafakkurimizni boyitishning asosiy bir omili ham shu. Lekin yuqoridagi kabi o'rinsiz va takror va mantiqsiz qaytariqlarni bartaraf etish va darslik-majmualar tuzilishining usutvor yo'nalishi va me'yorlariga muvofiq kelmagan adabiy parchalarni oqilona qisqartirish evaziga ham o'quvchilarimiz milliy va jahon adabiyotining badiiy yetuk namunalridan ko'proq bahramand bo'ladi.

Президентимиз Ш.М.Мирзиёев нутқларида yangilanayotgan mamlakatimizning эртанги келажаги, аввало, бугунги ёшларимизнинг қандай таълим-тарбия топиб, қандай инсон бўлиб вояга етишишига чамбарчас боғлиқ эканлиги алоҳида таъкидланади. Дарҳақиқат, nurlil kelajagimiz ravnaqini ta'minlaydigan ma'naviy barkamol avlodni voyaga yetkazishda va ularni Istiqlol g'oyalarida sadoqat ruhida tarbiyalashda eng avvalo milliy va umuminsoniy qadriyatlar, xususan, ona tili va adabiyotini o'rni beqiyos ekanligini unutmaslik zarur. Albatta, darsliklarning saviyasi, g'oyaviy-badiiy mazmuni hqaida qayg'urishimiz, jiddiy bahslashimiz samarasiz qolmasligiga umid bog'lash mumkin. Biroq asosiy gap-o'qituvchilarimizning kasb mahoratida ularning ijodiy Izlanuvch anligida, adabiyotni nechog'lik chuqur bilishi va e'zozlashidadir. Eng muhimi, shu yuksak bilim, e'zoz va mehrni o'quvchilariga "yuqtira olish"da. Яъни o'quvchining qalbi adabiy asar beradigan barcha ma'naviy boylik va go'zalliklarni ardoqlay oladigan kuchga ega bo'lsin.

Atoqli adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov kabi ustozlarlarimiz ta'kidlaganidek, o'quvchining qalbi adabiy asar beradigan barcha ma'naviy boylik va go'zalliklarni ardoqlay oladigan kuchga ega bo'lsin. Kitob uning uchun suv va havodek zarur, nondek aziz bo'lib qolsin. Muhtaram Prezidentimiz

SH.Mirziyoyevning Kitob chop etish va Kitob mutolaasining jamiyatimizdagi o'рни va ahamiyatini oshirish bo'yicha gabul qilgan qarorlari ham bu sohada yanada mas'uliyat bilan ishlashimizni talab etadi. Bu qarorlar hamda besh ustuvor tashabbuslarida belgilab berilgan hayotiy vazifalar Adabiyot darsliklariga va o'qituvchilariga ham to'la taalluqlidir. Юртимизда амалга оширилаётган барча улуғвор ишлар, энг аввало, халқимиз фаровонлиги ва ёшларимиз камолоти учун хизмат қилиш ини эътироф этарканмиз, аччиқ бир ҳақиқатни таассуф билан айтишимиз керак. Тарихимизни, буюк аждодларимиз қолдирган маънавий, илмий-адабий меросни чуқур ўқиби- ўрганмаяпмиз. Бу ҳоявий-маънавий бўшлиқни, энг аввало, китоб, айниқса, бадий адабиёт ўқиш билан ва билим- тафаккури мизни бойитиш орқали тўлдиришимиз мумкин. Китоб, яъни адабиёт, айниқса, етук шоир ва адибларнинг асарлари бу борада бизга йўл кўрсатувчи бир ибрат бўлиб хизмат қилиши керак. Афсуски, кўп ўқув чиларимиз мустақил адабиёт ўқиш ўрнига интернет ва компьютерга берилиб кетмоқда. Натижада, кўп ёшларимиз бадий адабиёт берадиган маънавий бойликдан бебаҳра бўлиб, руҳан қашшоқ, фикран чекланган бўлиб қолаяпти. Bu kabi muammolar esa ta'lim-tarbiya tizimi va mazmunini tubdan isloh qilmasdan turib erishib bo'lmاسligi ayon. "Adabiyot" bo'yicha dastur yoki qo'llanmalar yaratishdan oldin bugungi maktab, kollej va akademik litseylarimiz o'quvchilari ning ruhiyati va ma'naviy-estetik ehtiyojlarini, salohiyati va did-saviyasini yetarli darajada o'rganish lozim.

Adadbiyotlar:

- 1.XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent. 1999.14-b.
- 2.Qosimov U. Adabiyotning hayotbaxsh kuchi. T/2008. 200-b.
- 3.O'qituvchi kitobi. Toshkent. XTV. 2020.
- 4.Ozod Sharafiddinov. Ijodni anglash baxti. Toshkent, 2004, 410-b.

IDROK XARITASI YORDAMIDA KOMPYUTER LINGVISTIKASINI O'QITISH METODIKASI

Mamirov Ozodjon JDPI

Bugungi kunda mashhur bo'lgan aqliy xaritalar tizimini taniqli psixolog va yozuvchi Toni Buzan ixtiro qilgan. U allaqachon intellektual rivojlanish, psixologiya va inson tafakkuri muammolariga bag'ishlangan bir necha yuz maqola va kitoblarini nashr etgan. Albatta, u maqsadlarni va ularga erishish usullarini tasavvur qilishda kashshof bo'lmadi. Maxsus diagrammalar va grafik chizmalar yordamida Yaponiya amalda 70-yillarda iqtisodiyotda inqilobni amalga oshirishga muvaffaq bo'ldi. Ammo 1974 yilda butun ilmiy olamga o'zining takomillashgan nurli fikrlash nazariyasini taqdim etgan Buzan edi. Ming yillikning boshlarida aql xaritasi dunyoda ilmida yuksak cho'qqilarga ko'tarildi.

Idrok xaritasini qo'llashda pedagogning mahorati yuksak darajada bo'lishi lozim. Chunki pedagog idrok xaritasini qo'llashda ham kompyuter texnologiyalarini ham nazariy ma'lumotlarni puxta bilmog'i lozim. Kompyuter

lingvistikasi bevosita kompyuter va tilshunoslik bilan bog'liq. Shuning bu soha ancha murakkab. Tilshunoslikga oid bo'lgan tushunchalar kompyuterning ayrim dasturlarida mavjud. Qolganlarini esa dastur sifatida yaratish lozim.

Hozirgi kunda matnlarni (распознат) tahlil qilishda abbyfinereader kabi dasturlardan foydalanib kelinmoqda. Chunki u dastur rasm holatiga keltirilgan matnlarni o'qib chiqib word matn muharririga o'tkazib beradi. Matndagi ayrim orfografik xatolarni qizil belgi bilan ajratib beradi. Va pedagogning vaqtini tejashga yordam beradi. Idrok xaritasini qo'llashda grafik organayzer, bumerang, swot tahlil kabi metodlardan foyalanish katta ahamiyatga ega.

Toni psixologiya, neyrolingvistika, mnemonika va tez o'qish qobiliyatini hamda ijodiy fikrlashni rivojlantirish va takomillashtirishning ko'plab ilmiy nazariyalari va usullarini samarali birlashtira oldi. Masalan, yozuvlarni olib borishda u faqat ikkita rangni grafikaga kiritdi va ularni eslab qolish ancha oson va qiziqarli bo'ldi. U ukasi Buzan bilan birgalikda barcha ilmiy ishlanmalarni birlashtira oldi va izchil nazariyaga asoslantirdi. Zamonaviy aql xaritalari shu tarzda paydo bo'ldi.

“Idrok xaritasi” adabiyotda turli nomlar bilan uchraydi: “Idrok xaritasi”, “Konseptual xarita”, “Kartografiya kontseptsiyasi”, “Intelлект-xarita” – fikrlarni taqdim qilish va bog'lash usuli. Idrok xaritasi o'quvchilarda tassavvur qilish va fikrlarni tizimlashtirish, o'tilayotgan mavzudagi bosh g'oyalar yoki asosiy tushunchalarni, birlamchi tushunchalarni izohlashga yordam beruvchi ikkilamchi va uchlamchi g'oyalar yoki tushunchalarni ajratish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan. Taklif etilayotgan usul yangi bilim va axborotlarni konspektlashtirishning standart chizmasini ishlashga xizmat qiladi va darsning uzundan uzoq konspektini yozish yukidan xalos etadi. Xaritani tuzish o'quvchiga:

- asosiy, ikkilamchi, uchlamchi (va h.k.) shoxchalar (chiziqlar) larni ishlatish hisobidan tartibda mavzuning asosiy g'oyalarni strukturalashga;
- ravshan va rangli obrazlar orqali g'oyani kuchaytirishga;
- ular orasidagi bog'liqlikni namoyish etishga;
- rang, shrift razmeri, bo'rttirish va h.k.lar bilan kontseptsiyalarni ajratishga;
- maxsus belgilar yordamida g'oyalarni baholash va izohlashga imkon beradi.

Yevropa ta'lim tizimi barcha sohalari modellashtirilgan holatda va deyarli barcha fanlari keys stady texnologiyasi asosida olib boriladi. Hamda darslar to'liq taksanomiyaga asoslangan holatda o'tiladi. Ya'ni ularning har bir darsida bilish, tushinish, tahlil, analiz-sintez, xulosa, baholashdan iborat bo'ladi. Tilshunoslikda til va nutqning tuzilishi murakkab bo'lganligi sabablari bu metod bilan (kuzatish) ularni o'rganib bo'lmaydi.

Chunki: Til – umumiylik xususiyatiga ega. Nutq – xususiylik xususiyatiga ega. Til – abstrakt. Nutq – konkret. Til – imkoniyat. Nutq – voqelik. Modellashtirish metodida tadqiqotchi obektning o'zini emas balki uning modelini o'rganadi. Original bilan model o'rtasida o'zaro bog'liqlik va mutanosiblik mavjud bo'ladi. Tilshunoslikda modelning 3 ta turi bor: 1.Original 2.Funksional modellar 3.Struktur Original modellar – obektning tuzilishini o'rganadi.

Функционал моделлар – оригинал моделларнинг қандай ишлашини о‘rganadi. Структур моделлар – ҳар иккаласи ҳақида маълумот беради. Оригинал моделларга қуйидаги талаблар қo‘yiladi: 1. Model табиий обектнинг аynan нусxаси bo‘lishи керак 2. Оригинал model o‘zida элементларнинг мураккаб тuzиlishини namoyon eta olishи керак. 3. Табиий обектнинг ҳamma xususияtlari оригинал modelga to‘g‘ri kelishi керак. 4. Model evристик funksияyа ega bo‘lishи керак. Yani u yangи g‘oyalar бera olishи va uni амaliyotda sinab ko‘rish imkoniyati bo‘lishи зарур¹. Masalan: a) T –H so‘z бирикмасининг modelи. (tobe – hokim) б) O‘Pm minimal sodda gapning modelи. M: Bordim, yozding. Va h.k. Gipotetik (nazariy) моделларга xos xususияtlar sifatida o‘z-o‘ziga zid emaslik, tavsifning to‘liqligi, modelning soddaligi xisoblanadi. Yaratuvchi моделлар tilshunoslik rivojlangach yuzaga keldi. Bunda lingvistik моделлар bor narsani текshirishdan o‘tib o‘zi ham yaratuvchanlik xususияtigа ega bo‘ladi. Yaratuvchi моделлар invariant asosida variantlar ҳақида xulosa chiqariladi². Quyida ingliz tili grammatikasining modelи namunasini keltiramiz. Shu namuna asosida (albatta, har bir tilning o‘z xususияtlaridan kelib chiqqan holda) boshqa tillarning ham modelini ishlab chiqish - formallashtirish mumkin bo‘ladi. Ingliz tili grammatikasining butun modelи juda katta hajmga ega.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Nurmonov A, Yo‘ldoshev B. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. –Toshkent: o‘qituvchi, 2001.
2. Abdurahmonov X., Rafiev A., Shodmonqulova D. o‘zbek tilining amaliy grammatikasi. – Toshkent: o‘qituvchi, 1992.

ОНА ТИЛИ ДАРСЛАРИДА ИННОВАЦИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

Жумаева Зубайда. ЖДПИ.

Раимжонова Моҳинур.

ЖПИ Академик лицейи ўқитувчиси.

Ўрта мактаб она тили дарсликларининг кейинги авлодда ўқувчиларнинг ижодий фикрлашини ривожлантиришга қаратилган махсус топшириқлар берилган. Бу топшириқлар турли усуллар билан ўқитувчи назоратида ўқувчилар томонидан мустақил равишда бажарилиши керак. Бунда грамматик топшириқларни грамматик ўйинлар тарзида бажариш ўқувчилардан билимдонликни, изланишни, топқирликни ва тезкорликни талаб қилади. Ўйин-топшириқлар она тили дарсларининг қизиқарли ўтишини таъминлайди.

Ўйин-топшириқларнинг ўзига хос хусусиятлари шундаки, улар кўпинча мусобақа тарзида ташкил қилинади. Натижа яқунланиб, ўқувчи ва гуруҳларга очко (ёки балл)лар берилади. Бу, шубҳасиз, топшириқни бажаришга иштиёқни оширади. Натижада ўқувчиларнинг грамматик

саводхонлиги, ижодий фикрлаш қобилияти, топқирлиги, нутки ҳамда шу фанга қизиқиши анча ортади. Шу билан бирга кўшимча адабиётлардан фойдаланиш, бошқа фанлар билан ҳам жиддий шуғулланиш эҳтиёжини туғдиради. Шундай экан, ўқитувчи ўтаётган дарсларининг самарали бўлиши учун турли ўйин-топшириқлардан ва бошқотирмалардан унумли фойдаланиши мақсадга мувофиқдир. Бу эса фан ўқитувчисидан маҳорат, ижодкорлик, энг асосийси, танимсиз меҳнат талаб қилади. Шуларни ҳисобга олган ҳолда она тили дарсларини ўтишда қўллаш мумкин бўлган айрим грамматик ўйинлар ва улардан фойдаланиш методларини тавсия қиламиз. Бундай грамматик ўйинларни янада кўплаб ўйлаб топиш ва дарс жараёнида қўллаш мумкин. Бу эса, юқорида таъкидланганидек, ўқитувчининг ижодкорлигига, изланувчанлигига, маҳорати ва танимсиз қиладиган меҳнатига боғлиқ.

Айрим грамматик ўйинларни намуна сифатида тавсия қиламиз. Ўйинлар соддадан мураккаблик динамикасига асосланади.

Қайта хотирлаш типигаги грамматик ўйин-топшириқлар.

Бундай ўйин-топшириқлардан ўтилганларни мустаҳкамлаш ҳамда билим, кўникма ва малакаларни текшириш дарсларида кўпроқ фойдаланиш мумкин. Масалан, “Атоқли ва турдош отлар” мавзусига оид дарсларни мустаҳкамлаш мақсадида “Ким ғолиб” ўйин-топшириғидан фойдаланса бўлади. Бунинг учун синф ўқувчилари икки гуруҳга ажратилади: бири атоқли отларга, иккинчиси турдош отларга мисол топишади. Маълум белгиланган вақтда қайси гуруҳ кўп мисол топса, ўша гуруҳ ғолиб саналади. Ёки, ўқитувчи доскага китоб, газета, журнал, сурат, кинофильм, мусобақа сўзларини юқоридан пастга қараб алоҳида-алоҳида ёзиб қўяди. Синф ўқувчилари олти гуруҳга ажратилиб (гуруҳларда ўқувчилар сони тенг бўлиши керак) улардан шу отларга мисоллар ёзиш талаб қилинади. Гуруҳларнинг ҳар бир аъзоси ўзига қарашли сўзга биттадан мисол ёзади. Тез ва тўғри ёзган гуруҳ ғолиб саналади. Ғолиблар, албатта, рағбатлантирилиши керак. Бу типдаги ўйин-топшириқлардан исталган мавзунини мустаҳкамлашда фойдаланиш мумкин.

Қисман изланувчанлик типигаги ўйин-топшириқлар.

Ўқувчиларнинг боғланишли ёзма нутқини синаш мақсадида “Сўзлар биздан, матн тузиш сиздан” грамматик ўйинини ўтказиш мумкин. Бунда синф ўқувчиларига таянч сўз ва сўз бирикмалари берилиб (улар доскага ёзиб қўйилиши ҳам мумкин), улар ёрдамида боғланишли матн тузиш топширилади. Тез ва мазмунли матн тузган ўқувчи ғолиб саналади.

Изланувчанлик типигаги ўйин топшириқлар.

Бу типдаги ўйин-топшириқларни ўқувчилар сўз бойлигини оширишда қўллаш яхши натижа беради. Бундай топшириқлар ўқувчилардан ижодий фаолият кўрсатишни талаб қилади.

“Ижодкор” ўйин-топшириғидан “Олмош” сўз туркумини мустаҳкамлашда самарали фойдаланиш мумкин¹. Бу грамматик ўйинда

¹ ТАТ журналида эълон қилинган айрим ўйин-топшириқлардан ижодий фойдаланилди.

синф ўқувчилари икки гуруҳга ажратилиб, биринчи гуруҳга от сўз туркуми иштирок этган гапларга мисол топиш, иккинчи гуруҳга эса шу гаплардаги от(лар)ни олмош билан алмаштириб гап тузиш топширилади. Масалан, биринчи гуруҳ вакили ёзади: Эртага олимпиада бошланади. Иккинчи гуруҳ давом эттириб: Унда биз фаол иштирок этамиз. Шу йўсинда давом эттирилади. Бу ўйинни бир синф ўқувчилари ўртасида ёки параллел синфлар ўқувчилари ўртасида “сўз мушоираси” қилиб давом эттирса ҳам бўлади.

Она тили таълими жараёнида бундай грамматик топшириқлар воситасида тил ҳодисалари кузатилади, солиштириб қиёсланади, ўхшаш ва фарқли томонлари аниқланади. Натижада, қайта хотирлаш топшириқларидан ижодий топшириқларга қараб динамик ўсиш юзага кела боради. Бундай топшириқлар ўқувчи тафаккури тараққиётида алоҳида аҳамият касб этади.

MAKTABLARDA ERKIN VOHIDOV IJODINI O‘RGANISH

Qosimova Matluba, 15-maktab o‘qituvchisi, Yangiobod t.

XX asr adabiyoti boshqa davr adabiyotlariga qaraganda ijodkorlarining ko‘pligi, mavzularining kengligi bilan ajralib turadi. Bu davrda yaratilgan asarlar ichidan biz o‘lmas, durdona namunalarni ko‘plab topa olamiz. Ayniqsa, Erkin Vohidov ijodi o‘zining originalligi, salmoqdorligi bilan ko‘zga tashlanadi. Urtimizda milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizga va ulug‘ ajdodlarimiz hayoti va merosiga bo‘lgan munosabat, ayniqsa, O‘zbek tili va adabiyotimizga bo‘lgan yuksak e‘tibor va cheksiz g‘amxo‘rlikdan har bir vatandoshimiz haqli ravishda g‘ururlanadi. Mashhur shoirimiz Erkin Vohidovning

**“Mir Alisher na‘rasiga aks-sado berdi jahon,
She‘riyat mulkida bo‘ldi shohu sulton o‘zbekim”**

degan satrlarini endilikda har bir o‘zbek kitobxonini cheksiz iftixor bilan ayta olish baxtiga musharraf bo‘ldi. O‘zining betakror she‘r va g‘azallari, etuk komediya va dostonlari, beqiyos hajviyoti va tarjimalari bilan hamda teran nutq va maqolalari bilan xalqimiz qalbidan joy olgan Erkin Vohidov nomini bilmaydigan va uning durdona asarlari kirib bormagan biron shahar yo qishloq, bironta xonadon yo‘q desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu haqiqatni atoqli adabiyotshunos allomalarimizdan biri- O‘zbekiston Qahramoni Ozod SHarafiddinov havas bilan shunday e‘tirof etadi: “Hech ikkilanmay, komil ishonch bilan aytish mumkinki, Erkin Vohidov hozirgi o‘zbek she‘riyatining ko‘rki va faxri. Bu fikrda zarracha mubolag‘a yo‘q.” Bunday samimiy va yuksak e‘tiroflarni yana ko‘plab keltirishimiz mumkin.

Maktab talimida ham Erkin Vohidov ijodi bir necha bosqichlarda o‘rganiladi. Jumladan, 5- va 6-sinf darsliklarida shoirning bolalar yoshidan kelib chiqqan holda asarlaridan namunalar berilgan. 5-sinf darsligida sodda va ravon

tilda yozilgan “Nido” dostonidan parcha berilgan bo‘lib, o‘quvchilar bu darslarda quyidagi BKM larga ega bo‘lishlari talab etiladi:

“Nido” dostonida insoniyat boshiga tushgan eng ulug‘ falokat – ikkinchi jahon urushi keltirgan balolarning murg‘ak o‘smir taqdirida qoldirgan izining aks ettirilishi. Dostonda bola tabiatining g‘oyat nozik jihatlari haqqoniy tasvirlanganligi. Dostonda ifodalangan urush va u keltirib chiqargan fojialarga nisbatan nafratning uyg‘otilishi. Asarda otasidan ajralgan bola ichki kechinmalari, hissiyotlarining samimiy va ta’sirchan ifodalanganligi.

Yangi mavzu bayoni. Dastlab o‘quvchilarga aqliy hujum metodidan foydalangan holda savol bilan murojaat etiladi. Erkin Vohidovni taniysizmi? O‘quvchilarning bergan javoblar tinglanadi va umumlashtiriladi. Erkin Vohidovning hayoti va ijodi, “Nido” dostoni bo‘yicha darslikda berilgan materiallar asosida tushunchalar beriladi:

O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov **1936-yil 28-dekabrda** Farg‘ona viloyatining Oltiariq tumanida muallim oilasida tug‘ilgan. Uning otasi Ikkinchi jahon urushidan og‘ir jarohat olib qaytadi va 1945-yilda vafot etadi. Oradan bir yil o‘tgach onasi ham dunyodan o‘tadi. O‘n yoshga yetar-yetmas ham ota, ham onadan ajrab qolgan yosh Erkinni tog‘asi o‘z tarbiyasiga oladi. Toshkentga – tog‘asinikiga kelgan shoir qunt bilan o‘qishlarini davom ettiradi. Unda kitobga, adabiyotga havas juda erta uyg‘ondi. Shoir G‘ayratiy tomonidan O‘quvchilar saroyida tashkil etilgan adabiy to‘garak uning bu havasini yanada alangalatib yubordi. O‘n besh-o‘n olti yoshlaridanoq tuppa-tuzuk she‘rlar yoza boshladi. Erkin Vohidov universitetni tugatgach, uzoq yillar nashriyotlarda ishladi, o‘zbek va jahon adabiyotining eng sara asarlarini chop qilish- da faol ishtirok etdi. 1964- yilda yaratilgan “Nido” dostonidan so‘ng birin-ketin “Orzu chashmasi”, “Palatkada yo zilgan doston”, “Quyosh maskani”, “Ruhlar isyoni” kabi ajoyib dostonlar yozdi va bular ham adabiyotimiz rivojida myhim o‘rin tutadi.

Erkin Vohidov ellik yildan ko‘proq davr mobaynida ijod etgan asarlarini to‘plab, “Ishq savdosi”, “She‘r dunyosi”, “Umr daryosi” va “Ko‘ngil nidosi” nomli to‘rt jildlik saylanmasini o‘quvchilarga taqdim etdi. Bu asarlar faqat shoir qalbining, kechinmalarininggina emas, balki xalq hayotining ham ko‘zgidir. Shoir asarlarida hayotga, go‘zallikka muhabbat, yovuzlikka, tubanlikka nafrat yaqqol sezilib turadi. Uning ilk dostoni- “Nido”da insoniyatga og‘ir judoliklar, bitmas jarohatlar keltiradigan urush qattiq qoralansa, keyinroq bitilgan “Ruhlar isyoni” dostonida xalqlar, millatlar, dinlar o‘rtasidagi nizolar bashariyatga naqadar katta falokatlar olib kelishi teran tasvirlangan. Bu esa shoir ijodida insonparvarlik hamisha bosh mavzu bo‘lib kelganligini ko‘rsatadi. So‘ngra darslikda berilgan “Nido” dostoni o‘quvchilar tomonidan ifodali o‘qib chiqiladi. Dostonning mazmun-mohiyati o‘rganiladi. Doston qahramonining qalb kechinmalari tahlil qilinadi. Asardagi bola bilan o‘quvchilar bolaligi qiyoslanadi. Bizga ma’lumki, zamonaviy adabiyotda doston janriga sinonim tarzda poema atamasi ham qo‘llaniladi. Hozirgi adabiyotimizda dostonlar bitta umumiy nom bilan atalsa-da, janr xususiyatlariga ko‘ra ular turlichadir. Shu ma’noda voqea lirik kechinmani ifodalash vositasi bo‘lgan “Nido”- lirik doston bo‘lib, u

“urushlarning razolatiga” qarshi vatanparvarlik bongidir” (Ibrohim G‘afurov). Aytish mumkinki, bir-biriga yaqin insonlar, jigar go‘shalar, ota va o‘g‘il o‘rtasidagi sog‘inch iztiroblarini lirik tilde ifodalashda o‘zbek she‘riyatida mahorat cho‘qqisini zabt qilgan asar G‘afur G‘ulomning “Sog‘inish” she‘ri bo‘ladigan bo‘lsa, undan keyin turadigan asar bu – “Nido” dostonidir.

**Hayqiraman,
Tog‘lar bag‘ridan,
Gumburlagan sado keladi,
Ona – Yerning otash qa‘ridan
“O‘g‘lim!” degan nido keladi
Mana men o‘g‘lingiz,
Dardli olamga
Sizdan tanho yodgor,
So‘ylang, otajon!**¹⁰⁸

Doston ilk satrlaridanoq qalbingizga bezovta, og‘riqli, hayajonli holatlarni olib kiradi. Sog‘inch iztiroblaridan bo‘g‘ziga hayqiriq kelgan farzandning iltijosisiga, nidosiga hatto tog‘lar, toshlar ham jo‘r bo‘lyapti.

Ona – Yer, ona tuproq, ona maskan – oddiy so‘zlar. Lekin shu so‘zlar oldiga “ona” degan qutlug‘ kalomni qo‘shsangiz zimistonda quyosh chiqqandek, qorong‘ulik bag‘rida gulxan yoqilgandek bo‘ladi. Ona tuproq bunyod etadi, yaratadi, to‘ydiradi, kiydiradi va yana qayta tiriklik nasibasi tamom bo‘lganda insonlarni ona kabi yana bag‘riga oladi. Ammo bu onalarimizning onasi bo‘lgan ona yerning, momo yerning bag‘ri, qa‘ri otashdek. U kuygan, u yongan, u ne-ne navqiron, norg‘ul, azamat yigitlarning vujudini o‘z bag‘riga olgan, ularning tanasi shu yer qa‘rida. Yashashi, yaratishi, bunyod qilishi, ona zaminning ustini gul-u gulzorlarga burkashi mumkin bo‘lgan yigitlar urush tufayli, inson yovuzligi tufayli yer qa‘rida yotibdilar. Shuning uchun hatto yerning ham bag‘ri kuyuk. Haqiqatdan o‘zining yigirma millionlik farzandlarini yerga qo‘ygan olam, dunyo dardlidir. “Nido” o‘z sujet mohiyatiga ko‘ra avtobiografik doston. E.Vohidov otasi ikkinchi jahon urushi jangohlarida halok bo‘lgan. Shoir onasidan ham erta yetim qolgan. Uning bolaligi oson kechmagan. Bu mash‘um ayriliqning mungi, azobi shoir yuragining dil tubiga cho‘kkanki, kun kelib hayqiriq, nidoga aylanib qalblarni larzaga solyapti.

Urush yillarining bolalari. Yarim och, yupun bo‘lsalar-da, baribir bolalik, bolalik-da. Kun bo‘yi qishloq ko‘chalarining chang tuprog‘ida, quyoshda zanjiday yugurib, urush-urush o‘ynagan bolalar o‘yinchoq miltiq, pistoletlarda o‘rtoqlarini yolg‘ondakam otib o‘ldirayotgan bolalar haqiqiy jangohlarda nimalar bo‘layotganini, haqiqiy avtomat, miltiqlar, tanklar, samolyotlar ishga tushganda inson qismati nimaga yuz tutishini tasavvur qilmas edilar.

. Mustahkamlash : “Venn-diagrammasi”



XULOSA

“El ustozim, men-tolib”,- deya, yuksak e’tiqod bilan yashab- ijod etgan ulkan talant sohibi Erkin Vohidovning teran g‘oyaviy-badiiy ijodii va uning qizg‘in ijtimoiy faoliyati xalqimiz va davlatimiz tomonidan yuksak qadrlandi. U **“Buyuk xizmatlari uchun”** ordeni bilan mukofotlangan. 1999 yil 25 avgustda Erkin Vohidov vatanimizning eng yuksak mukofoti- **“O‘zbekiston Qahramoni”** unvoni bilan taqdirlanib, **“Oltin yulduz”** medali taqib qo‘yilgan. Afsuski, beshafqat o‘lim 2016 yil **“El ustozim, men-tolib”**,- deya, yuksak e’tiqod bilan yashab- ijod etgan ulkan talant sohibi Erkin Vohidovning teran g‘oyaviy-badiiy ijodii va uning qizg‘in ijtimoiy faoliyati xalqimiz va davlatimiz tomonidan yuksak qadrlandi. U **“Buyuk xizmatlari uchun”** ordeni bilan mukofotlangan. **uchun”** ordeni bilan mukofotlangan. 1999 yil 25 avgustda Erkin Vohidov vatanimizning eng yuksak mukofoti- **“O‘zbekiston Qahramoni”** unvoni bilan taqdirlanib, **“Oltin yulduz”** medali taqib qo‘yilgan. Afsuski, beshafqat o‘lim 2016 yil 30 may kuni xalqimizning asl farzandi, adabiyotimizning buyuk namoyandasi Erkin Vohidovni oramizdan olib ketdi. Bu- xalqimiz uchun, adabiyotimiz va ma’naviyatimiz uchun ham og‘ir yo‘qotish bo‘ldi. Ammo donolar aytganidek, xalq qalbidan manguga joy olgan haqgo‘y shoirning so‘zi aslo zavol ko‘rmaydi.

“O‘lsa o‘zi o‘lar, So‘zi o‘lmaydi,

Hamisha barhayot nasl shoirlar.

Haqiqiy shoirning qabri bo‘lmaydi,

YUrakka ko‘milar asl shoirlar...(Muhammad Yusuf)

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning 2016 yil 7 dekabrda qaroriga asosan Erkin Vohidov tavalludining 80 yilligi mustaqil yurtim izda keng nishonlandi. Farg‘onada shoirning Uy-muzeyi hamda Erkin Vohidov nomidagi ijodiy maktab tashkil etildi. Marg‘ilondagi so‘lim madaniyat- istirohat bog‘iga shoir nomi berildi. Erkin Vohidov nomi abadiylashtirilib, shoirga muhtasham haykal o‘rnatildi.

Erkin Vohidov ijodining xalqimizga bu qadar manzur bo‘lishining va bunday yuksak hurmat- ehti romga sazovor bo‘lishining sabab va omillari nimada? Xalqimiz Erkin Vohidov bilan bu qadar faxr lanishining boisi- siri nimada? Iste’dod larga boy bo‘lgan adabiyot olamida bunday sharafiga erishish ning asos-omillari nimalar? Biz ana shu savollarga javob topishga harakat qildik.

Erkin Vohidov fenomenining o‘ziga xos jihatlari va shoir ijodining ayrim muhim qirralarini imkon doirasida yoritishga e’tibor qaratqik. Binobarin, Erkin Vohidov ijodida inson va jamiyat hayotining ko‘plab muhim tomonlari va muammolari qanchalik chuqur va san’atkorona ifodalanishini o‘rganish

adabiyotshunosligimiz va ma'naviyatimiz uchun ham dolzarb vazifalardan bo'lib sanaladi.

Erkin Vohidovning adabiyotimiz va xalqimiz oldidagi xizmatlari go'zal she'rlaru etuk dostonlar yaratishdangina iborat emas. Uning bir necha yillar mobaynida turli nashriyotlardagi muharrirlik faoliyati hamda taniqli jamoat arbobi va xalq deputati sifatidagi ijtimoiy faoliyati ham tahsinga loyiqdir. Erkin Vohidov iste'dodi va ijodining yana bir yorqin qirrasi, jo'shqin ijtimoiy va adabiy faoliya tining ibratli bir yo'nalishi uning publitsistik asarlarida, ya'ni maqolalari va nutq- suhbatlarida namoyon bo'lgan. Bular allaqachon xalqimizning ma'naviy- ruhiy mulkiga aylanib, o'zligimizni anglashda ham muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Mutafakkirlar dunyoda ikki narsa mangu yashab qoladi. Bular-dononing so'ziyu botirning ishi, deyдилar. Erkin Vohidovdek yorqin talant sohibining so'zi ham ana shunday mangu likka daxldor ma'naviy- ruhiy hodisalar sirasiga kiradi. Zero, shoirning o'zi o'lsa ham, so'zi insonlar qalbida mangu yashaydi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Erkin Vohidov. Muhabbatnoma, Sadoqatnoma. Saylanma. T.1986.
2. Erkin Vohidov. Iztirob. Toshkent. 1992.
3. Erkin Vohidov. So'z latofati. T. 2016.
4. Ozod Sharafiddinov. Haqiqatga sadoqat. T.,1989.
5. Qozoqboy Yo'ldoshev.Yoniq so'z. T.2007.
6. Boqijon To'xliiev. Adabiyot o'qitish metodikasi. T. 2006.
7. U.Qosimov, M.Jo'raev. Ijodni anglash yo'lida. T. 2015

«QORAQUYUN» ASARI G'OYASI

Xotamov O'tkirjon JDPI talabasi
Ilmiy rahbar S.Ne'matova JDPI

Ko'pchilikka tanish o'z asarlari bilan o'zbek adabiyoti rivojiga hissa qo'shgan adib Normurod Norqobilov 1953-yil 7-iyunda Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumanida tug'ilgan. O'z ijodiy faoliyatida "Changalzor iti", "Oqbo'yin", "Tog' odami", "Ovul oralagan bo'ri", "Qoraqayun" asarlari muhim o'rin tutadi. Hozirda biz adibning "Qoraqayun" romani bilan tanishamiz.

Avvalo, asar nomlanishiga e'tibor beraylik. "Qoraqayun" -bu itning nomi. Nima uchun unga shunday nom berilgan. Sababi shundaki, birinchidan, it qora niyat uchun asrab olinganligi, ikkinchidan esa itning qop -qoraligi sabab bo'lgan. Niyat qoraligi it rangida ham o'z aksini topadi va uyg'unlik vujudga keladi. Endi esa asar voqealari bilan qisqacha tanishib chiqamiz.

Asar qahramonlaridan biri Erman tasodifan boshqa bir ovulga tutqun bo'lib, o'z erki va shanidan judo bo'lib "qullik" azoblariga muhtalo bo'ladi. U yerda jismoniy mehnatdan ko'ra ruhan yerga urilish, tahqirlanish yigit yuragida

nafrat olovini alanglatadi. Yigit qullikdan ozod bo'ladi-yu lekin yuragidagi xo'rlik va nafrat azobidan ozod bo'lolmaydi.

Erman xo'jayini Itolmas uchun ming mashaqqat bilan kondan oltin kovlaydi. Itolmasning xizmatkorlari va Qoraqul ismli ishboshqaruvchisi qullarga itga muomala qilgandan yomon muomalada bo'ladi. Itolmasning ikkinchi xotini Oybekach ulardan farqli qo'lidan kelgan barcha yaxshiliklarini ayamaydi. Oybekach eri o'ziga kundosh olib kelayotganidan iztirob chekib, hayotning bunday adolatsizligini to'g'irlamoqchi bo'ladi va asirlarni ozod qiladi. Qochgan asirlardan faqat Erman tirik qolib o'z ovuliga qaytadi. Asirlarni ozod qilgan Oybekach ham halok bo'ladi.

Yurtiga qaytgan Ermanni qasos olish tuyg'usi daqiqa xatto soniya ham tark etmaydi. Shu maqsadda odamlardan ayro Qushqo'nmas g'orini makon qilib, o'zi ortidan taqib qilib keluvchi g'animini kutadi. Ovul oqsoqoli Oqbo'ta maslahati bilan g'ulda it asraydi. Akasi Qalaybekning iti bolalaganini eshitib bittasini tanlab, qolgan kuchukchalarini nobud qiladi. Uning butun vujuduni nafrat egallab olgani tufayli ularga zarracha achinmaydi. Itni tutqunlikda bo'ri go'shti bilan butun bir tiriklikka nafrat ruhida tarbiyalay boshlaydi. Qoraquyun ajdodi ruhi Olarit ta'sirida ozodlikka tashna bo'lib shuvoqlar bo'yini qo'msaydi. Erman esa Qoraquyunning bezovta bo'lishini tushunolmaydi, tushunishga qodir ham emasdi. Oxir oqibatda esa Qoraquyun o'z egasining halok bo'lishiga sababchi bo'ladi. To'g'ri Erman o'z dushmani Itolmasni o'ldirishga muffaq bo'ladi, lekin baxtga erisholmaydi.

Asarning bunday fojiali tugashiga asosiy sabab nima? Bunga asosiy sabab nafs, xudbinlik, nafrat va adovat bo'lsa ajab emas. Boylikka ruju qo'yib, o'zligini unutgan Itolmas ko'p gunohlar qilib, ko'pchilikning erki va hayotidan judo qiladi. O'zi ekkan adovat urug'i Erman uni halok etadi. Qoraquyun esa o'z egasining umriga zomin bo'ladi. Bundan shu xulosaga kelishimiz kerakki salbiy xislatlar: nafrat, xudbinlik, hasad va adovat insonga hech vaqt baxt keltirmaydi. Inson qanchalik ko'ngli keng, samimiy va toza ko'ngil sohibi bo'lsa u shunchalik baxtli bo'ladi. Insonga qanchalik adolatsizlik qilishsa ham barini Ollohga qo'yib, o'zida bor narsalarga shukrona keltirib yashashi lozim. Asarimiz qahramoni Erman ham boshiga tushgan kulfatni Ollohning sinovi sifatida qabul qilib unga berilgan eng qimmat boyligi, hayotini ajoyib lahzalar bilan boyitishi lozim edi. Afsus, Ollohning yashash uchun bergan imkoniyatini qora niyat uchun sarfladi. Itiga faqat o'z maqsadi yo'lidagi vosita sifatida qarab, unga zarracha mehr bermadi. Dushmani uchun atalgan "jonli o'q" o'ziga otildi. Bundan ko'rinib turibdiki, xalqimiz bejiz "birovga choh qazisang –o'zing yiqilasan" demagan. Erman ham xuddi shu holga tushdi. Asarda Erman oddiy qishloq yigiti, sevgidan mast oshiq, orzular osmonida parvoz qiluvchi burgutdan birdaniga insoniy tuyg'ulardan mahrum qul, qalbi chirkin fikrlardan qorayib, xudbin va baxtsiz kimsaga aylandi. To'g'ri bunda Ermanning ham aybi yo'q. Taqdir uni shu qismatga ro'baro qildi. Uning o'rnida boshqa kishi ham shunday yo'l tutgan bo'lardi. Kimningdir taqdirini, tutgan yo'lini qoralashga hech kimning haqqi yo'q. Erman ham qaysidir ma'noda haq. U bunday bo'lishini hayoliga ham

keltirmagan. Barchasi tasodifan yuz berdi. Erman o'zini qullikka solgan Itolmasni o'ldirdi, Qoraquyun esa o'zi tutqunlikda saqlagan egasini. Demak hisob teng. Adolat hamisha g'olib. Itolmas ham o'z gunohi uchun javob berdi, Erman ham.

Asarda yana Qoraqul, Qalaybek, Oybekach obrazlari ham ko'p bora tilga olingan.

Qoraqul-o'z nomi bilan "qora" qismat sohibi bo'lgan qul. U yoshligida falokat tufayli ota-onasi, butun ovuldoshlaridan judo bo'lib, Itolmaslar oilasiga xizmatchi bo'lib umr kechiradi. Qoraqul ham shod-hurram ota-onasi bag'rida g'am-tashvishsiz yashashi katta bo'lib bir uyning begi, sevimli yor, farzandlarning otasi bo'lishiga haqqi bor edi. Afsus, uni ham achchiq qismat o'z domiga tortdi. U o'zini xo'jayindek tutishga, boshqalarni kamsitishga harakat qiladi. Balki ozginagina o'zini inson sanashga, hurmat ko'rib, qadrlashlarini ham xohlagandi. Lekin unda ham yurak bor Oybekachni o'limga buyurgan Itolmasga qarshi chiqishida, ayolga rahmi kelib "To'xta yana ozgina yashasin, buncha shoshasan"-deb gapirishiga jur'at qilishida ko'rishimiz mumkin. [1.47-bet]

Asarda yana Qalaybek obrazi bor. U ukasi Ermandan farqli ravishda hayotning qadrini go'zalliklardan zavqlanish, odamlarga yordam berish sururini, mehnat gashtini yaxshi anglaydi. U hayotidan, kasbidan mamnun. U hayot o'tkinchiligini biladi va bir marta berilgan umrni munosib yashab o'tishga harakat qiladi. Ukasiga ham buni anglatishga ko'p bora urinadi. Ammo foydasi bo'lmaydi. Agar Erman yovuzlik uchun, o'ch olish uchun sarflagan shuncha vaqtini, mehnatini ezgulik, yaxshilik yo'lida sarf etganda edi, uning taqdiri boshqacha bo'lishi mumkin edi. Asarda o'z go'zalligi jur'ati va qat'iyatligi bilan barchaning mehrini qozongan obraz bu Oybekach. Muallif u haqida: "Agar unga imkon berilganda bir o'zining kuchi yetgan bo'lardi"-deydi [1. 72-bet]. Afsuski, u ham johil odamlar orasida umr kechirib, qoyalar bag'rida mangu uyquga ketdi.

Asardan xulosa qiladigan bo'lsak, inson boshiga qanday qiyinchilik, kulfat tushsa ham uni yaxshilikka yo'yib, yuragimizga umrimizni xarob qiluvchi hislatlarni yaqinlashtirmay, qisqagina umrimizni mazmunli, baxtli va hayoitdan zavq olib o'tkazaylik. Chunki hayot borki tashvish bor. Insonning umri g'am-tashvishsiz aslo o'tmagan, endi ham o'tmaydi. Muhimi o'zimizda bor narsalarni qadrlaylik. Yo'qotganlarimiz esa aslida bizniki bo'lmagan yoki Olloh bizga shuni ravo ko'rmagan. Har bir yomonlik ortida ham yaxshilik bor. Baxtli bo'lishimiz uchun on sabab topiladi. Yuragimiz urib turar ekan biz baxtlimiz. Qolgan dunyo tashvishlari-yu uning ko'zni ko'r qiluvchi, kibrga olib keluvchi boyliklari bekor. Bu asarni siz ham bir bor o'qib chiqib undan xulosa chiqarasiz degan umiddaman.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Normurod Norqobilov. Qoraquyun [Matn] roman / Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2016. – 2016 b.
